Urganch davlat pedagogika instituti axborotnomasi

ilmiy-nazariy va metodik jurnal

ISSN: 2992-8796

№ 1
2025
yanvar

Bulletin of Urgench state pedagogical institute scientific-theoretical and methodical journal

@UrDPI_jurnal

URGANCH DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI AXBOROTNOMASI

ilmiy-nazariy va metodik jurnal

1/2025

Bosh muharrir:
Madraximova Feruza Ruzimbayevna
pedagogika fanlari doktori, dotsent

Bosh muharrir o‘rinbosari:
Abdullayev Diyorjon Nodirjon o‘g‘li
tarix fanlari doktori, dotsent

Tahrir hay’ati a’zolari:

X.Ibragimov	**– akademik**
Ye.I.Pivovar	**– akademik (Rossiya)**
A.Sadullayev	**– akademik**
Orhun Uzun	**– f-m.f.d., professor (Turkiya)**
X.Bekchanov	**– b.f.d., professor**
Li Tsi	**– p.f.d., professor (Xitoy)**
B.Abdullayeva	**– p.f.d., professor**
E.Ruziyev	**– p.f.d., professor**
O.Xaitov	**– p.f.d., professor**
A.Lubkov	**– t.f.d. professor (Rossiya)**
E.Nuriddinov	**– t.f.d. professor**
J.Ismailova	**– t.f.d. professor**
N.Mamatov	**– f.f.d., professor**
M.Qahharova	**– f.f.d., professor**
J.Yusubov	**– f.f.d., dotsent**
O‘.Matnazarov	**– p.f.n., professor**
U.Sheripov	**– t.f.n., dotsent**
M.Sobirova	**– f.f.n., dotsent**
G.Eshchanova	**– f.f.n., dotsent**
A.Atajonova	**– f.f.n., dotsent**
N.Masharipova	**– f.f.n., dotsent**
D.Xajiyeva	**– f.f.n., dotsent**
J.Xujanov	**– f.m.f.n., dotsent**
Sh.Xudayberganov	**– PhD, dotsent**
D.Nafasov	**– PhD, dotsent**
J.Yusubov	**– PhD, dotsent**
T.Absalamov	**– PhD, dotsent**
H.Matyoqubov	**– PhD, dotsent**
U.Xo‘jamuratov	**– PhD, dotsent**
E.Nabiyev	**– PhD, dotsent**
A.Madaminov	**– PhD, dotsent**

Muassis – Urganch davlat pedagogika instituti. Jurnalda pedagogika, psixologiya, tarix, falsafa fanlarini o‘qitishning metod va texnologiyalariga oid ilmiy-nazariy, ilmiy-metodik maqolalar o‘zbek, rus va ingliz tillarida nashr etiladi.

Jurnalga Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasining 2023-yil 17-fevraldagi 064130-sonli “Ommaviy axborot vositasi davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganligi to‘g‘risida guvohnoma”si olingan va unga O‘zbekiston ISSN Milliy markazi tomonidan 2024-yil 5-yanvardan Davriy nashrlarning Xalqaro standartlar ISSN: 2992-8796 raqami taqdim etilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya Komissiyasi rayosatining 2024-yil 27-sentyabrdagi 361-sonli qarori bilan ro‘yxatga olingan.

BULLETIN OF URGENCH STATE PEDAGOGICAL INSTITUTE

scientific-theoretical and methodical journal

1/2025

Chief Editor:
Madrakhimova Feruza Ruzimbayevna
Doctor of Pedagogical Sciences, Associate Prof.

Deputy Chief Editor:
Abdullayev Diyorjon Nodirjon ogli
Doctor of Historical Sciences, Associate Professor

Editorial board:

Kh.Ibragimov	**– academician**
Ye.I.Pivovar	**– academician (Russia)**
A.Sadullayev	**– academician**
Orhun Uzun	**– professor (Turkey)**
Kh.Bekchanov	**– professor**
Li Tsi	**– professor (China)**
B.Abdullayeva	**– professor**
E.Ruziyev	**– professor**
O.Khaitov	**– professor**
A.Lubkov	**– professor (Russia)**
E.Nuriddinov	**– professor**
J.Ismailova	**– professor**
N.Mamatov	**– professor**
M.Qahharova	**– professor**
J.Yusubov	**– associate professor**
U.Matnazarov	**– professor**
U.Sheripov	**– associate professor**
M.Sobirova	**– associate professor**
G.Eshchanova	**– associate professor**
A.Atajonova	**– associate professor**
N.Masharipova	**– associate professor**
D.Khajiyeva	**– associate professor**
J.Khujanov	**– associate professor**
Sh.Khudayberganov	**– PhD, associate professor**
D.Nafasov	**– PhD, associate professor**
J.Yusubov	**– PhD, associate professor**
T.Absalamov	**– PhD, associate professor**
H.Matyoqubov	**– PhD, associate professor**
U.Khujamuratov	**– PhD, associate professor**
E.Nabiyev	**– PhD, associate professor**
A.Madaminov	**– PhD, associate professor**

The Founder – Urgench State Pedagogical Institute. The journal publishes scientific-theoretical, scientific-methodical articles on methods and technologies of teaching pedagogy, psychology, history, philosophy in Uzbek, Russian and English.

The journal received a "Certificate of State Registration of a Mass Media" No. 064130 dated February 17, 2023 from the Tashkent City Press and Information Department, and was assigned the International Standards of Periodicals ISSN: 2992-8796 number by the ISSN National Center of Uzbekistan from January 5, 2024.

Registered by the Resolution of the Presidium of the Higher Attestation Commission of the Republic of Uzbekistan No. 361 dated September 27, 2024.

BO‘LAJAK KIMYO O‘QITUVCHILARINING KASBIY KOMPETENTLIGINI XALQARO BAHOLASH TAMOILLARI ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH

Ataullayev Zokir Maxsudovich
Urganch davlat pedagogika instituti dotsenti, zokirjon16081987@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada bo‘lajak kimyo o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini o‘quvchilarni xalqaro tamoillariga tayorlash asosida takomillashtirish masalasi yoritilgan. Xususan, PISA dasturining ta’lim jarayonidagi ahamiyati, o‘qituvchilarning pedagogik va metodik ko‘nikmalarini rivojlantirish usullari batafsil tahlil qilingan hamda tavsiya qilinadigan savollar tuzilgan. Shuningdek, xalqaro baholash tizimlari mezonlarini milliy ta’lim tizimiga moslashtirish, trening va o‘quv dasturlarini ishlab chiqish hamda xalqaro hamkorlikni rivojlantirish yo‘nalishidagi tavsiyalar keltirilgan. Maqola bo‘lajak o‘qituvchilarning bilim va ko‘nikmalarini xalqaro darajada shakllantirishga qaratilgan amaliy takliflarni o‘z ichiga oladi.

Kalit so‘zlar: TALIS, PISA, xalqaro baholash tizimlari, kimyo o‘qituvchilari, kasbiy kompetentlik, ta’lim sifati, metodik ko‘nikmalar, innovatsion yondashuv, titrlash, ishqor, kislota, neytrallanish, reaksiya, indicator, fenolftalein, metil oranj.

ПОВЫШЕНИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ХИМИИ НА ОСНОВЕ МЕЖДУНАРОДНЫХ ПРИНЦИПОВ ОЦЕНКИ

Аннотация. В данной статье рассмотрен вопрос повышения профессиональной компетентности будущих учителей химии на основе подготовки учащихся по международным принципам. В частности, подробно проанализировано значение программы PISA в образовательном процессе, методы развития педагогических и методических навыков учителей, сформулированы рекомендуемые вопросы. Также даются рекомендации в направлении адаптации критериев международных систем оценивания к национальной системе образования, разработки обучающих и образовательных программ, развития международного сотрудничества. В статье содержатся практические предложения, направленные на формирование знаний и навыков будущих учителей на международном уровне.

Ключевые слова: TALIS, PISA, международные системы оценивания, учителя химии, профессиональная компетентность, качество образования, методические навыки, инновационный подход, титрование, щелочь, кислота, нейтрализация, реакция, индикатор, фенолфталеин, метилоранж.

IMPROVING THE PROFESSIONAL COMPETENCE OF FUTURE CHEMISTRY TEACHERS ON THE BASIS OF INTERNATIONAL ASSESSMENT PRINCIPLES

Annotation. This article discusses the issue of improving the professional competence of future chemistry teachers based on preparing students for international standards. In particular, the importance of the PISA program in the educational process, methods for developing teachers’ pedagogical and methodological skills are analyzed in detail, and recommended questions are formulated. Recommendations are also made for adapting the criteria of international assessment systems to the national education system, developing training and curricula, and developing international cooperation. The article contains practical proposals aimed at forming the knowledge

and skills of future teachers at the international level.

Key words: TALIS, PISA, international assessment systems, chemistry teachers, professional competence, quality of education, methodological skills, innovative approach, titration, alkali, acid, neutralization, reaction, indicator, phenolphthalein, methyl orange.

Kirish. Ta'lim sifati har bir mamlakatning barqaror taraqqiyoti uchun muhim omildir. Xalqaro baholash tizimlari, jumladan, TALIS (O'qituvchilar va ta'lim muhitini o'rganish dasturi) hamda PISA (o'quvchilarning xalqaro baholash dasturi) ta'lim sifati va o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarlik darajasini o'rganish muhim vositalardan biri hisoblanadi. Ushbu tizimlar asosida bo'lajak kimyo o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini takomillashtirish bugungi kunda dolzarb masala hisoblanadi. Bo'lajak o'qituvchilar uchun xalqaro baholash tizimlarini o'rganish-TALIS va PISA kabi baholash tizimlari o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarlik darajasini oshiradi, ta'lim jarayonida duch kelayotgan muammolarni aniqlash va ularni hal qilish bo'yicha aniq choralarni belgilash imkonini beradi.


TALIS: O'qituvchilarning pedagogik faoliyati, kasbiy rivojlanishi va ta'lim muhitidagi roli haqida so'rovnoma shaklida ma'lumot to'playdi. Ushbu dastur yordamida o'qituvchilarning kasbiy qoniqish darajasi, resurslardan foydalanish imkoniyatlari va dars o'tish uslublarini tahlil qilish mumkin.

PISA: O'quvchilarning funksional savodxonligi va fanlararo kompetentsiyalarini baholaydi. Bu tizim o'qituvchilarning talabalarga ta'sirini ham bilvosita ko'rsatadi. Kimyo o'qituvchilari uchun ushbu baholash tizimlari nafaqat ularning kasbiy tayyorgarlik darajasini aniqlashda, balki o'quvchilar bilan ishlash metodikasini takomillashtirishda ham muhim ahamiyatga ega.

Xalqaro baholash asosida kasbiy kompetentlikni takomillashtirish yo'llari

1. Xalqaro standartlarni o'zlashtirish. Xalqaro baholash tizimlarining talablariga mos keladigan bilim va ko'nikmalarni shakllantirish zarur. Jumladan:

Fan bo'yicha chuqur bilim: Kimyo fanining nazariy, amaliy va ijtimoiy jihatlarini yaxshi bilish. Masalan, kislotali va ishqoriy muhitda o'tkaziladigan titrlash tajribasining natijalarni tahlil qilish orqali talabalarga real hayotdagi kimyo jarayonlarini tushuntirish mumkin (1-rasm).



1-rasm. Titrlash yordamida aniq konsentratsiyali ishqor bilan noaniq konsentratsiyali kislotani miqdorini aniqlash

Titrlash jarayonida byuretkani bir qo‘l bilan ushlab turib, titrlash stakanini ikkinchi qo‘l bilan to‘xtatmay aylantirish orqali titrlash nuqtasigacha olib borish mahorati muhim ahamiyatga ega. Bu usul orqali eritmalarni yaxshiroq aralashtirish va neytrallanish nuqtasini aniqlash osonlashadi. O‘quvchilarga bu jarayonni ehtiyotkorlik bilan bajarish, byureta va stakanni mahkam ushlash, shuningdek, to‘kilmaslik uchun muvozanatni saqlash bo‘yicha amaliy ko‘rsatmalar berish kerak.

Metodik kompetentsiya: STEAM yondashuvi o‘quvchilarga mavzularni fanlararo bog‘liqlikda o‘rganish imkonini beradi. Bu usul orqali titrlash mavzusini o‘qitish nafaqat ilmiy bilimlarni mustahkamlaydi, balki texnologiya, muhandislik, san’at va matematik qobiliyatlarni rivojlantiradi. Quyida titrlash mavzusini STEAM yondashuvida o‘qitish bo‘yicha batafsil reja keltirilgan [1].

Fan yo‘nalishida titrlash - bu kimyo bo‘yicha muhim laboratoriya amaliyoti bo‘lib, u kislota va asos o‘rtasidagi neytrallanish reaksiyasiga asoslanadi. Dars davomida kislota va asos reaksiyasi, masalan, $NaOH + HCl \rightarrow NaCl + H_2O$ tenglamasi va indikatorlar, jumladan, fenolftalein yoki metil oranj kabi moddalar yordamida neytrallanish nuqtasini aniqlash haqida ma’lumot beriladi [2]. Shuningdek, oddiy titrlash jarayonini o‘tkazish va laboratoriya xavfsizligi qoidalari bilan tanishtirish amaliyoti o‘tkaziladi.

Texnologiya yo‘nalishida titrlash jarayonida zamonaviy texnologiyalardan foydalanish uni yanada qiziqarli va samarali qiladi. Zamonaviy qurilmalar yordamida neytrallanish nuqtasini aniq o‘lchash uchun pH o‘lchagichlardan foydalanish, virtual laboratoriyalar orqali titrlash jarayonini masofadan turib tushuntirish va mashq qildirish, shuningdek, avtomatik titratorlarning ishlash prinsipi va laboratoriyadagi qo‘llanilishini o‘rgatish taklif etiladi [3].

Muhandislik yondashuvida laboratoriya jihozlari va kimyoviy jarayonlarni o‘rganish o‘quvchilarning ijodiy fikrlashini rivojlantiradi. Bu yo‘nalishda titrlash uchun ishlatiladigan asboblar - byuretka, kolba va stakanning dizayni va ularning funksiyalari o‘rganiladi. Shuningdek, o‘quvchilarga laboratoriya jihozlarini takomillashtirish bo‘yicha g‘oyalar yaratishni taklif qilish, masalan, suv sarfini kamaytiruvchi yoki oson tozalanuvchi byuretka loyihasini ishlab chiqish. Crocadile chemistry dastruri yordamida jihozlarning kichik modellarini tayyorlash ham foydali bo‘ladi .

San’at yo‘nalishida san’at elementlarini qo‘shish darslarni yanada qiziqarli qiladi va ijodkorlikni rag‘batlantiradi. Titrlash davomida indikatorlar yordamida ranglarning qanday o‘zgarishini estetik jihatdan tushuntirish, o‘quvchilarni indikatorlardan foydalanib qog‘oz yoki matoga san’at asarlarini yaratishga undash mumkin. Masalan, fenolftalein bilan qog‘ozda rang-barang naqshlar hosil qilish yoki titrlash jarayonida hosil bo‘lgan grafiklar va rang-barang diagrammalarni san’at yondashuvida tasvirlash.


Matematika yo‘nalishida titrlash jarayoni matematik tushunchalar va amaliyotlarni o‘z ichiga oladi. Konsentratsiya, hajm va molyar miqdorlarni hisoblash uchun matematik formulalardan foydalanish, masalan, tenglamasini qo‘llash, titrlash egri chiziqlarini tuzish va neytrallanish nuqtasini aniqlash, shuningdek, eritmalarning konsentratsiyasini tahlil qilishda proportsiyalarni qo‘llash mumkin.

STEAM yondashuvi asosida titrlash mavzusini o‘z ichiga olgan loyiha o‘quvchilarning barcha fanlar bo‘yicha qobiliyatlarini rivojlantiradi. Loyihaning vazifasi ichimlik suvining kislota-asos balansini tekshirish bo‘lib, o‘quvchilar laboratoriyada ichimlik suvini titrlash orqali kislotalik yoki ishqoriylik darajasini aniqlaydilar. Datchiklar va virtual laboratoriya dasturlari yordamida o‘lchovlarni amalga oshiradilar, titrlash jarayonini osonlashtiruvchi yangi jihoz yoki uskunalarni loyihalashtiradilar. Loyihaning natijalarini rang-barang grafiklar va kreativ taqdimot orqali namoyish etadilar, olingan natijalarni matematik hisob-kitoblar yordamida tahlil qiladilar va grafik chizadilar.

STEAM yondashuvi titrlash mavzusini nafaqat qiziqarli, balki kengroq ko‘lamda tushunish va o‘rganishga imkon beradi. O‘quvchilar mavzuni bir vaqtning o‘zida *fan, texnologiya, muhandislik,*

san'at va matematika bilan bog'lay oladilar, bu esa ularning ijodiy va ilmiy fikrlashini rivojlantiradi.

Innovatsion yondashuv: Raqamli texnologiyalarni dars jarayoniga joriy qilish, masalan, virtual laboratoriyalardan foydalanish (2-rasm).



2-rasm. Crocodile chemistry dasturida noaniq konsentratsiyali kislotani aniq konsentratsiyali ishqor bilan titrlash

2. Trening va o'quv dasturlarini tashkil qilish

Kimyo o'qituvchilarini xalqaro talablar darajasida tayyorlash uchun maxsus trening va kurslar tashkil etish kerak. Bu dasturlar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

Muammoli ta'lim: Real hayotdagi muammolarni kimyoviy jihatdan hal qilishni o'rgatish. Masalan, koagulyatsiya va flokulyatsiya jarayonlariga doir tajribalardan:

Suvdagi mayda iflosliklarni kimyoviy moddalar (masalan, alyuminiy sulfat yoki temir(III) xlorid) qo'shib, yirik zarrachalarga birlashtirish.

Filtrlash: Hosil bo'lgan zarrachalarni qum yoki uglerod filtrlari orqali ajratish. Dezinfeksiya: Suvni bakteriya va viruslardan tozalash uchun xlor yoki ozondan foydalanish [4].

Interaktiv mashg'ulotlar: TALIS va PISA testlariga moslashtirilgan mashg'ulotlar.

Kimyo fanidan TALIS va PISA testlariga moslashtirilgan interaktiv mashg'ulotlar talabalarga ilmiy tahlil qilish va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Masalan:


Kimyoviy reaksiyalarni tushunish (PISA): Talabalarga turli kimyoviy reaksiyalarni ko'rsa-

tib, omillar (temperatura, bosim, konsentratsiya) ta'sirida reaksiyaning o'zgarishini tahlil qilishni so'raysiz. Interaktiv kompyuter yordamida virtual laboratoriya orqali sharoitlarni o'zgartirib, natijalarni tahlil qilishlari mumkin. Bu orqali talabalar kimyoviy reaksiyalarni tushunib, ilmiy tahlil qilish qobiliyatini rivojlantiradi.

Davriy sistema va kimyoviy elementlar (TALIS): Talabalarga davriy tizimdagi elementlarning kimyoviy xossalarini muhokama qilish va ularning joylashuvini o'rganish vazifasini berish. Masalan, talabalarni elementlarning o'xshash xossalarini aniqlashga va davriy sistemadagi joylashuviga qarab xossalarining o'zgarishini tushuntirishga chaqirish. Virtual laboratoriyalar yordamida talabalar elementlar orasidagi bog'lanishni amalda ko'rishlari mumkin.

Bu mashg'ulotlar talabalarga ilmiy muammolarni hal qilish, tahlil qilish va taqqoslash ko'nikmalarini shakllantirishga yordam beradi, TALIS va PISA testlaridagi muammolarni yechishda foydali bo'ladi.

Tahliliy va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish: Talabalarning muammolarni mustaqil hal qilish qobiliyatlarini shakllantirish. Talabalarga kimyoviy reaksiyalarni o'rganish vazifasi beriladi. Masalan, ular kalsiy karbonat va xlorid kislota o'rtasidagi reaksiyaning tenglamasini yozishlari kerak. Reaksiya natijasida kalsiy xlorid, karbonat angidrid va suv hosil bo'ladi. Talabalar reaksiya tenglamasini to'g'ri yozish, mahsulotlarni hisoblash va bu jarayonni izohlash orqali muammoni mustaqil hal qilishlari lozim. Bu faoliyat ularga kimyoviy reaksiyalarni tushunish, tenglamalarni tuzish va hisoblash ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi (3-rasm).



3-rasm. Kalsiy karbonat va xlorid kislota o'rtasidagi reaksiya

3. Baholash tizimlarini O'zbekistonning ta'lim tizimiga moslashtirish.

TALIS va PISA mezonlari asosida milliy baholash tizimini ishlab chiqish kerak. Bunda:

O'zbekiston ta'lim tizimiga moslashtirilgan namunaviy testlar ishlab chiqish tavsiya qilinadi.

O'qituvchilarning baholash natijalari asosida kasbiy rivojlanish rejasi tuziladi.

Mahalliy sharoitlarga mos amaliy mashg'ulotlar ishlab chiqiladi.

Tavsiya qilinadigan titrlash mavzusida PISA mezonlari asosida milliy baholash tizimidagi savollar:

1. Bilimni tekshirish: *Savol:* Neytrallanish reaksiyasining umumiy tenglamasini yozing. Kislota va asos reaksiyasidan hosil bo'ladigan mahsulotlarni belgilang.

Javob:

$HCl+NaOH \rightarrow NaCl+H_2O$ kislota va asos o'zaro reaksiyaga kirishganda tuz va suv hosil bo'ladi).

2. Tushunishni tekshirish: *Savol:* Titrlash jarayonida indikatorlarning vazifasi nima? Neytrallanish nuqtasini aniqlash uchun qaysi indikatordan foydalaniladi?

Javob: Indikatorlar eritmaning neytrallanish nuqtasini rang o‘zgarishi orqali aniqlashga yordam beradi. Fenolftalein yoki metil oranj ko‘pincha ishlatiladi.

3. Hisoblashni qo‘llash: Agar 25 ml HCl eritmasini titrlash uchun 20 ml 0,1 M li NaOH ishlatilgan bo‘lsa, HCl ning molyar konsentratsiyasini hisoblang.

Javob: $C_1*V_1=C_2*V_2$; $C_1= C_2*V_2/ V_1$; 0,1*20/25= 0,08 M.

4. Tahlil qilish: *Savol:* Nima uchun titrlash jarayonida eritmani doimiy aralashtirish kerak? Aralashtirilmasa, natija qanday bo‘lishi mumkin?

Javob: Eritma aralashtirilmasa, neytrallanish jarayoni teng taqsimlanmaydi, bu esa xato natijalarga olib kelishi mumkin.

5. Amaliyotga moslashish: *Savol:* Agar laboratoriyada fenolftalein mavjud bo‘lmasa, qanday indikatorlardan foydalanishingiz mumkin? Nega?

Javob: Metil oranj yoki lakmus eritmasidan foydalanish mumkin, chunki ular ham kislota va asosni ajratib ko‘rsatadi. Fenolftalein o‘rnini qisman bosishi mumkin.

6. Muammoni hal qilish: *Savol:* Byuretka buragichi to‘g‘ri ishlamayotgan bo‘lsa va suyuqlik tomchisi nazoratdan chiqayotgan bo‘lsa, qanday chora ko‘rasiz?

Javob: buragichni tozalash yoki yangi buragich bilan almashtirish kerak. Ishni davom ettirish uchun sinchkovlik bilan tomchilarni hisoblash muhim.

7. O‘xshashlik va farqlarni aniqlash: *Savol*: Titrlash va oddiy aralashtirish jarayonlari o‘rtasidagi farqlarni tushuntiring.

Javob: Titrlashda neytrallanish nuqtasini aniqlash uchun moddaning aniq miqdorda qo‘shiladi, oddiy aralashtirishda esa bu bosqichlar talab qilinmaydi.

8. Dasturiy qo‘llash: *Savol*: Titrlash natijalarini kompyuter dasturi yordamida qanday tahlil qilish mumkin?

Javob: pH o‘zgarishlarini o‘lchash va grafik hosil qilish uchun laboratoriya qurilmalari va dasturlardan foydalaniladi.

9. Ijodiy fikrlash: *Savol*: Agar siz yangi titrlash jarayonini soddalashtiradigan asbob yaratmoqchi bo‘lsangiz, qanday xususiyatlarni qo‘shasiz?

Javob: Avtomatik byuretka, raqamli pH o‘lchagich, natijalarni yozib boruvchi sensorlar.

10. Amaliyotga oid baholash: *Savol*: Ichimlik suvining kislota-ishqor balansini titrlash orqali qanday aniqlash mumkin? Jarayonni qisqacha tushuntiring.

Javob: Suvdan olingan namunaga indikator qo‘shiladi. Byuretkadan kislota yoki asos eritmasi tomizilib, neytrallanish nuqtasi aniqlanadi. Natijaga qarab suvning kislotalik yoki ishqoriyligi baholanadi.

4. Xalqaro hamkorlikni rivojlantirish

TALIS va PISA kabi dasturlarda xalqaro hamkorlikni kuchaytirish orqali:

Xorijiy tajribalarni o‘rganish.

Chet elda o‘qituvchilar uchun malaka oshirish dasturlarini tashkil qilish.

Innovatsion o‘qitish texnologiyalarini tatbiq etish mumkin.

5. O‘qituvchilarni rag‘batlantirish

Xalqaro baholash natijalarida yuqori ko‘rsatkichlarga erishgan o‘qituvchilarni moddiy va ma’naviy rag‘batlantirish orqali ularning kasbiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash zarur.

Bo‘lajak kimyo o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini xalqaro baholash asosida takomillashtirish quyidagi natijalarga olib keladi:

O‘qituvchilarning fan bo‘yicha chuqur bilim va innovatsion pedagogik ko‘nikmalarga ega bo‘lishi.

O‘quvchilarning xalqaro darajadagi bilim va savodxonlik darajasini oshirish.

Milliy ta’lim tizimining xalqaro reytinglarda mavqeini oshirish.

Xulosa. Xalqaro baholash tizimlari bo‘lajak kimyo o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini oshirishda samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu jarayon milliy va xalqaro hamkorlikni kuchaytirish, zamonaviy pedagogik yondashuvlarni joriy qilish va o‘qituvchilarni uzluksiz rivojlantirish orqali ta’lim sifatini yangi bosqichga olib chiqadi.

STEAM integratsiyasi orqali talabalar nazariy bilimlarni real hayotdagi amaliy jarayonlar bilan bog‘laydi, innovatsion fikrlashni rivojlantiradi va fanlararo muammolarni hal qilish ko‘nikmasiga ega bo‘ladilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Brouillat, E. and V. Oltra (2012). Extended producer responsibility instruments and innovation in ecodesign: An exploration through a simulation model. Ecological Economics 83, 236–245.

2. Boltayeva B.X., Rajabov X.M., Ataullayev Z.M., Bo‘lajak kimyo o‘qituvchilari kasbiy kompetentligini rivojlantirishning pedagogik aspektlari. // Муғаллим ҳем узликсиз билимлендириў. илмий –методикалық журнал – Нокис, 2021. – № 6/1. – Б. 34-37.

3. Ataullayev Z.M., The Role of Virtual and NonStandard Laboratory Experiences in the Development of Student’s Independent Work Skills. // Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching. Classes Involume 11, of Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching (EJLAT), 2022. August. ISSN (E): 2795-739X JIF: 8.225. – P. 15-18.

4. Eshchanov R., Ataullayev Z., Challenges to sustainable development education in Uzbekistan, Cutting-edge science. – Shawnee, USA, 2022. ISBN 978-1-64945-2344. DOI:10.5281/zenodo.5091677 International scientific and practical conference. – P. 120-122.

BO‘LAJAK PEDAGOGLARNI TYUTORLIK FAOLIYATGA TAYYORLASH

Nazarqulova Gulnora Ablakulovna
Guliston davlat unversiteti, Boshlang‘ich ta’lim kafedrasi dotsent v.b., (PhD)

Annotatsiya. Mazkur maqolada bo‘lajak pedagoglarni tyutorlik faoliyatiga tayyorlash masalasi yoritilgan. Tyutorlik zamonaviy ta’lim jarayonida individual yondashuvni shakllantirish va talabalarni shaxsiy rivojlanishida qo‘llab-quvvatlashning muhim elementi hisoblanadi. Tadqiqotda pedagogik ta’lim dasturlarida tyutorlikka oid kurslarning yetishmasligi, talabalar ehtiyojlari va eksperimental tayyorlov dasturlari natijalari tahlil qilingan. Metodik va amaliy jihatlar asosida bo‘lajak pedagoglarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish yo‘llari ko‘rsatib berilgan. Maqolada tyutorlikka oid maxsus kurslarni ta’lim dasturlariga kiritish, amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etish va metodik qo‘llanmalarni ishlab chiqish bo‘yicha amaliy tavsiyalar berilgan. Olingan natijalar talabalarning o‘quv motivatsiyasi va shaxsiy rivojlanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatishini isbotlaydi. Ushbu maqola pedagogika sohasida faoliyat olib boruvchi tadqiqotchilar, o‘qituvchilar hamda ta’lim tashkilotchilari uchun foydali bo‘lishi mumkin.

Kalit so‘zlar: Tyutorlik faoliyati, pedagogik tayyorgarlik, bo‘lajak pedagoglar, individual yondashuv, ta’lim samaradorligi, kasbiy kompetensiya, motivatsiya strategiyalari, amaliy mashg‘ulotlar, ta’lim dasturi, metodik qo‘llanma.

PREPARING FUTURE TEACHERS FOR TUTORING ACTIVITIES

Abstract. This article discusses the issue of preparing future teachers for tutoring. Tutoring is an important element of forming an individual approach in the modern educational process and supporting students in their personal development. The study analyzed the lack of tutoring courses in pedagogical education programs, the needs of students, and the results of experimental training programs. Ways to develop the professional competencies of future teachers based on methodological and practical aspects are indicated. The article provides practical recommendations for including special tutoring courses in educational programs, organizing practical training, and developing methodological manuals. The results obtained prove that they have a significant impact on students’ motivation for learning and personal development. This article may be useful for researchers, teachers, and educational organizers working in the field of pedagogy.

Keywords: Tutoring activities, pedagogical training, future teachers, individual approach, educational effectiveness, professional competence, motivation strategies, practical exercises, educational program, methodological guide.

ПОДГОТОВКА БУДУЩИХ ПЕДАГОГИ К РЕПЕТИТОРСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

Аннотация. В данной статье рассматривается вопрос подготовки будущих учителей к репетиторству. Репетиторство является важным элементом современного образовательного процесса, формирующим индивидуальный подход и поддерживающим студентов в их личностном развитии. В исследовании анализировались отсутствие курсов репетиторства в программах подготовки учителей, потребности студентов и результаты экспериментальных программ обучения. Намечены пути развития профессиональных компетенций будущих учителей с методической и практической точек зрения. В статье даны практические рекомендации по включению специальных репетиторских курсов в образовательные программы, организации производственной практики, разработке методических пособий.

Полученные результаты доказывают, что это оказывает существенное влияние на мотивацию к обучению и личностное развитие студентов. Статья может быть полезна исследователям, преподавателям и организаторам образования, работающим в области педагогики.

Ключевые слова: репетиторская деятельность, педагогическая подготовка, будущие учителя, индивидуальный подход, эффективность обучения, профессиональная компетентность, стратегии мотивации, практические занятия, образовательная программа, методическое пособие.

Kirish. Ta'lim tizimida tyutorlik faoliyati so'nggi yillarda dolzarb mavzulardan biriga aylangan. Tyutorlik nafaqat talabalar bilan individual ishlash, balki ularning intellektual va shaxsiy rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Ta'limning mazkur yondashuvi, xususan, zamonaviy ta'lim metodikasi va o'quv jarayoniga innovatsiyalarni kiritish fonida alohida ahamiyat kasb etmoqda. Bo'lajak pedagoglar uchun bu faoliyat ularning kasbiy tayyorgarlik darajasini oshirishga, ta'lim jarayonida muvaffaqiyat qozonishlariga yordam beradi.

Bugungi kunda dunyoning ko'plab mamlakatlarida ta'lim tizimiga individual yondashuvni joriy etish jarayonida tyutorlik faoliyatining o'rni tobora kengayib bormoqda. Xususan, AQSh, Buyuk Britaniya, Kanada kabi rivojlangan mamlakatlarda tyutorlik o'quv jarayonining ajralmas qismi sifatida qaralmoqda. Bu tizimning muvaffaqiyati pedagoglarning talabalarga shaxsiy maslahatlar berish, ularning qobiliyatlarini rivojlantirish va o'quv motivatsiyasini oshirish kabi vazifalarini muvaffaqiyatli bajarishiga bog'liqdir. Shu sababli, O'zbekiston ta'lim tizimida ham bo'lajak pedagoglarni tyutorlik faoliyatga tayyorlash masalasi dolzarbdir.

Bo'lajak pedagoglarni tyutorlik faoliyatiga tayyorlashning muhim jihatlaridan biri bu jarayonning nazariy va amaliy asoslarini yaratishdir. Ta'lim jarayonida tyutorning vazifasi o'quvchilarning o'quv jarayoniga moslashishiga yordam berish, ularga individual yondashuvni ta'minlash va ijtimoiy muhitda o'z o'rnini topishiga ko'maklashishdan iboratdir. Ushbu vazifalarni amalga oshirish uchun bo'lajak pedagoglarda kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish zarur. Kompetensiyalarga ta'lim jarayonini tashkil etish, talabalarning ehtiyojlarini aniqlash, shuningdek, ularga mos yondashuvlarni qo'llash kiradi[1].

Mamlakatimizda ta'lim sifati va pedagogik jarayonlarni modernizatsiya qilish bo'yicha olib borilayotgan islohotlar doirasida tyutorlik faoliyatining ahamiyati tobora ortib bormoqda. Xususan, 2030-yilgacha mo'ljallangan ta'lim strategiyasida ham o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini oshirish va ta'lim jarayoniga innovatsion metodlarni joriy etish muhim vazifalardan biri sifatida belgilangan. Ushbu islohotlarning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi, avvalo, pedagoglarning zamonaviy ta'lim talablariga javob bera oladigan darajada tayyorlanishini talab qiladi[2].

Tyutorlik faoliyatining pedagogik jarayonlardagi o'rnini chuqurroq anglash uchun bu faoliyatning ijtimoiy va psixologik jihatlarini ham inobatga olish lozim. Ta'lim jarayonida har bir talabaning individual ehtiyojlari va imkoniyatlariga e'tibor qaratish nafaqat ularning akademik natijalarini yaxshilaydi, balki shaxsiy rivojlanishiga ham katta hissa qo'shadi. Shu nuqtayi nazardan, bo'lajak pedagoglarni tyutorlik faoliyatiga tayyorlash jarayoni nafaqat nazariy bilimlarni, balki amaliy ko'nikmalarni ham o'z ichiga olishi kerak.

Mazkur maqolada tyutorlik faoliyatining mazmuni va uning zamonaviy ta'limdagi ahamiyati chuqur o'rganiladi. Bo'lajak pedagoglarni tayyorlash jarayonida mavjud muammolar va ularga yechim topish yo'llari tahlil qilinadi. Shu bilan birga, tyutorlik faoliyatiga oid metodik materiallarni ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish bo'yicha tavsiyalar beriladi. Maqolaning asosiy maqsadi,

[1] Abdukarimov, A. (2020). *Pedagogika asoslari*. Toshkent: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi nashriyoti.
[2] Qodirova, D. (2019). *Innovatsion ta'lim texnologiyalari*. Samarqand: SamDU nashriyoti.

bo‘lajak pedagoglarning kasbiy rivojlanishida tyutorlik faoliyatining tutgan o‘rnini aniqlash va ushbu faoliyatning samaradorligini oshirishga qaratilgan takliflarni ilgari surishdir. Shu tariqa, maqola zamonaviy ta’limning muhim elementlaridan biri sifatida tyutorlik faoliyatiga bo‘lgan e’tiborni kuchaytirishga xizmat qiladi[1].

Metodologiya. Ushbu tadqiqotda tyutorlik faoliyatiga tayyorlash jarayonining samaradorligini oshirishga qaratilgan bir qator metodologik yondashuvlar qo‘llanildi.

Tadqiqot jarayonida quyidagi bosqichlar va uslublardan foydalanildi:

- *Adabiyotlarni o‘rganish:* Tadqiqotning birinchi bosqichida tyutorlik faoliyati bo‘yicha mavjud nazariy va amaliy manbalar tahlil qilindi. Dunyo va mahalliy tajribalarni o‘rganish orqali tyutorlik faoliyatining o‘ziga xos jihatlari va rivojlanish yo‘nalishlari aniqlab berildi. Shuningdek, ta’lim sifati va pedagogik jarayonlarni takomillashtirishda tyutorlikning o‘rni o‘rganildi [7].
- *So‘rovnoma va intervyu o‘tkazish:* Tadqiqotning asosiy bosqichida bo‘lajak pedagoglar va amaliyotchi o‘qituvchilar bilan muloqot qilindi. Maxsus so‘rovnomalar yordamida ularning tyutorlik faoliyatiga oid tushunchalari, bu boradagi qiyinchiliklari va talabalarni qo‘llab-quvvatlash uslublari haqida ma’lumot yig‘ildi. Intervyular esa mazkur jarayonga nisbatan amaliy yondashuvlarni aniqlash imkonini berdi [8].
- *Eksperimental tadqiqot:* Tyutorlik faoliyatiga tayyorlash bo‘yicha maxsus trening dasturi ishlab chiqildi va pedagogik amaliyot davomida sinovdan o‘tkazildi. Ushbu dasturda bo‘lajak pedagoglarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishga yo‘naltirilgan amaliy mashg‘ulotlar tashkil etildi. Trening jarayonida individual maslahat berish, ta’lim resurslaridan samarali foydalanish va shaxsiy rivojlanishni rag‘batlantirish bo‘yicha amaliy ko‘nikmalar shakllantirildi.
- *Statistik va sifat tahlil usullari:* Olingan natijalarni tizimli tahlil qilish uchun statistik yondashuvlar qo‘llanildi. Eksperimental guruh natijalari nazorat guruhi ko‘rsatkichlari bilan taqqoslanib, treningning samaradorligi baholandi. Sifat tahlillari esa ishtirokchilarning fikr-mulohazalari va trening jarayonidagi kuzatuvlarga asoslangan holda amalga oshirildi [9].
- *Metodik materiallarni ishlab chiqish:* Tadqiqot natijalariga asoslanib, tyutorlik faoliyatiga tayyorlash uchun foydalaniladigan maxsus metodik qo‘llanmalar va trening materiallari ishlab chiqildi. Ushbu materiallar pedagogik ta’lim dasturlarini takomillashtirishda qo‘llash uchun mo‘ljallangan [10].

Metodologik yondashuvlarning barchasi kompleks tarzda amalga oshirildi va ular tadqiqotning dolzarbligi va natijaviyligini ta’minladi. Mazkur metodologiya bo‘lajak pedagoglarni tyutorlik faoliyatiga tayyorlashning nazariy va amaliy jihatlarini chuqurroq o‘rganish imkonini berdi. Shuningdek, ularning kasbiy rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadigan eng samarali uslublarni aniqlashga xizmat qildi[2].


Natijalar va Muhokama: Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, hozirgi kunda pedagogik ta’lim dasturlarida tyutorlikka oid maxsus kurslar yetarli darajada tashkil etilmagan. Shu sababli, bo‘lajak pedagoglarning ushbu faoliyatga tayyorlanish darajasi cheklangan. So‘rovnomalar orqali aniqlangan ma’lumotlarga ko‘ra, talabalar shaxsiy yondashuvni afzal ko‘radilar va bu ularning motivatsiyasi va rivojlanishiga sezilarli ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Eksperimental tadqiqot natijalariga ko‘ra, treninglarda ishtirok etgan talabalarning ko‘nikma va bilim darajasi boshqalarnikiga nisbatan yuqori bo‘ldi. Trening davomida individual maslahat berish va ta’lim resurslaridan samarali foydalanish bo‘yicha o‘tkazilgan amaliy mashg‘ulotlar talabalarning o‘quv faoliyatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi.

Muhokamalar jarayonida aniqlanganki, bo‘lajak pedagoglarni tyutorlik faoliyatiga tayyorlash

[1] Saidov, M. (2021). *Ta’lim jarayonida innovatsiyalarni qo‘llash usullari*. Toshkent: Yangi asr avlodi.
[2] O‘rinboyeva, N. (2018). *Pedagogik mahorat va innovatsion texnologiyalar*. Qarshi: Nasaf nashriyoti.

uchun maxsus metodik qo‘llanmalarni ishlab chiqish va amaliy mashg‘ulotlarni kengaytirish zarur. Pedagoglar uchun kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishda talabalarning ehtiyojlarini tahlil qilish, ularga mos yondashuvlarni tanlash hamda innovatsion usullardan foydalanish samaradorlikni oshiradi[1].



1-rasm. Bo‘lajak pedagoglarni tyutorlik faoliyatiga tayyorlash omillari

Eksperiment natijalari shuni ko‘rsatdiki, talabalarning shaxsiy yondashuvga bo‘lgan ehtiyoji yuqori darajada bo‘lib, bu ularning bilim olish jarayonidagi muvaffaqiyatini ta’minlaydi. Shu bilan birga, tyutorlik faoliyatini nazariy va amaliy asosda rivojlantirish ta’lim samaradorligini sezilarli darajada oshirishi mumkin. Bo‘lajak pedagoglar uchun maxsus trening va metodik materiallardan foydalanish orqali ularning tayyorgarlik darajasini oshirish mumkinligi tajriba asosida tasdiqlandi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, bo‘lajak pedagoglarni tyutorlik faoliyatga tayyorlash uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish tavsiya etiladi:

1.Ta’lim dasturlariga tyutorlikka oid maxsus kurslarni kiritish va bu borada amaliy mashg‘ulotlarni kengaytirish.

2.Tyutorlik faoliyatiga oid metodik qo‘llanmalarni ishlab chiqish va pedagoglarga taqdim etish.

3.Pedagogik treninglar davomida talabalarning ehtiyojlarini tahlil qilish va ularga mos ta’lim strategiyalarini ishlab chiqish.

Shunday qilib, bo‘lajak pedagoglarni tyutorlik faoliyatiga sifatli tayyorlash ta’lim samaradorligini oshirishda asosiy omil sifatida qaraladi. Ushbu jarayon orqali nafaqat talabalar, balki pedagoglarning o‘zlari ham kasbiy jihatdan rivojlanadi va zamonaviy ta’lim talablariga moslashadi[2].

Xulosa. Mazkur tadqiqot bo‘lajak pedagoglarni tyutorlik faoliyatiga tayyorlashning dolzarb masalalarini o‘rgandi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, hozirgi ta’lim tizimida tyutorlik faoliyati bo‘yicha yetarli darajada kurs va metodik materiallar mavjud emas. Shu sababli, bo‘lajak pedagoglarning bu boradagi tayyorligi yetarlicha emasligi aniqlandi. Tadqiqot jarayonida ishlab chiqilgan maxsus trening dasturlari va amaliy mashg‘ulotlar talabalarning kasbiy tayyorgarlik darajasini oshirishga yordam berdi.

So‘rovnomalar va intervyu natijalari asosida shaxsiy yondashuvning o‘quvchilarning bilim olish jarayonida ijobiy ta’sir ko‘rsatishi tasdiqlandi. Eksperimentlar davomida maxsus tayyorlov kurslari samaradorligi kuzatilib, bu borada yangi metodikalar ishlab chiqish zarurati aniqlandi. Bo‘lajak pedagoglar uchun tyutorlik faoliyatiga oid dasturlarni ta’lim tizimiga joriy etish, shuningdek,

[1] Mahmudov, R. (2022). *Ta’lim jarayonida shaxsiy yondashuv tamoyillari*. Toshkent: Fan va texnologiya.

[2] Ismoilov, I. (2020). *Kasbiy ta’limda tyutorlik faoliyati*. Toshkent: Ma’naviyat nashriyoti.

ularning nazariy va amaliy tayyorgarligini oshirish orqali ta’lim samaradorligini sezilarli darajada yaxshilash mumkinligi ko‘rsatib berildi.

Bo‘lajak pedagoglarni tyutorlik faoliyatga tayyorlash zamonaviy ta’lim tizimining muhim yo‘nalishlaridan biridir. Bu jarayon uchun maxsus metodik qo‘llanmalar, treninglar va dasturlarni ishlab chiqish, shuningdek, ta’lim jarayoniga individual yondashuvni keng joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu tadqiqotning natijalari bo‘lajak pedagoglar uchun samarali trening va metodikalar ishlab chiqish bo‘yicha yangi imkoniyatlarni ochib beradi. Shuningdek, ushbu jarayon talabalarning shaxsiy rivojlanishi va motivatsiyasini kuchaytirish orqali ta’lim sifatini oshiradi.

ADABIYOTLAR

1. Abdukarimov, A. (2020). Pedagogika asoslari. Toshkent: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi nashriyoti.
2. Qodirova, D. (2019). Innovatsion ta’lim texnologiyalari. Samarqand: SamDU nashriyoti.
3. Saidov, M. (2021). Ta’lim jarayonida innovatsiyalarni qo‘llash usullari. Toshkent: Yangi asr avlodi.
4. O‘rinboyeva, N. (2018). Pedagogik mahorat va innovatsion texnologiyalar. Qarshi: Nasaf nashriyoti.
5. Mahmudov, R. (2022). Ta’lim jarayonida shaxsiy yondashuv tamoyillari. Toshkent: Fan va texnologiya.
6. Ismoilov, I. (2020). Kasbiy ta’limda tyutorlik faoliyati. Toshkent: Ma’naviyat nashriyoti.
7. Raxmonova, Z. (2017). Ta’limda ijtimoiy-psixologik yondashuvlar. Buxoro: Buxoro davlat universiteti nashriyoti.
8. Karimov, F. (2019). O‘zbekistonda ta’lim tizimini modernizatsiyalash tajribasi. Toshkent: Yangi asr avlodi.
9. Matmurodov, J. (2021). Talabalarni shaxsiy rivojlanishga yo‘naltirish usullari. Namangan: Namangan davlat universiteti.
10. Akramov, S. (2018). Ta’limda liderlik va innovatsion boshqaruv. Toshkent: Fan va ta’lim nashriyoti.

GENETIKA XUSUSIYATLARI VA BOLA PSIXOLOGIYASINING O‘ZARO BOG‘LIQLIGI: MAKTABGACHA TA’LIM MISOLIDA

Ismailova Oygul Sabirbaevna,
Chirchiq Davlat pedagogika universiteti ilmiy izlanuvchisi,
Yuldashova Sanamjon Bobomurod qizi,
Urganch davlat pedagogika instituti magistri

Annotatsiya. Mazkur maqolada genetika xususiyatlari va bola psixologiyasi o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik masalasi maktabgacha ta’lim kontekstida ko‘rib chiqilgan. Bola rivojlanishidagi genetik omillar, jumladan, temperament, intellektual qobiliyat va genetik nosozliklar, uning psixologik va ijtimoiy shakllanishida qanday rol o‘ynashi tahlil qilinadi. Shuningdek, maqolada psixologik yondashuvlar va ta’lim metodlarini bolalarning individual genetik xususiyatlariga moslashtirish muhimligi ta’kidlanadi. Maktabgacha ta’lim muhitida genetik va psixologik omillarni uyg‘unlashtirish orqali bolalarning optimal rivojlanishi uchun shart-sharoit yaratish usullari yoritiladi. Mazkur tadqiqot ta’lim amaliyotida individual yondashuvni qo‘llash uchun ilmiy asos beradi.

Kalit so‘zlar: Genetika xususiyatlari, bola psixologiyasi, maktabgacha ta’lim, temperament, intellektual rivojlanish, genetik nosozliklar, individual yondashuv, ta’lim metodlari, stress boshqaruvi, bola rivojlanishi

ВЗАИМОСВЯЗЬ ГЕНЕТИКИ И ДЕТСКОЙ ПСИХОЛОГИИ: НА ПРИМЕРЕ ДОШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация. В данной статье рассматривается взаимосвязь генетики и детской психологии в контексте дошкольного образования. Анализируются генетические факторы развития ребенка, в том числе темперамент, интеллектуальные способности и генетические дефекты, и их роль в его психологическом и социальном формировании. В статье также подчеркивается важность адаптации психологических подходов и методов обучения к индивидуальным генетическим особенностям детей. Освещены методы создания условий для оптимального развития детей путем сочетания генетических и психологических факторов в среде дошкольного образования. Данное исследование обеспечивает научную основу для использования индивидуального подхода в образовательной практике.

Ключевые слова: Генетические особенности, детская психология, дошкольное образование, темперамент, интеллектуальное развитие, генетические дефекты, индивидуальный подход, методы обучения, стрессоустойчивость, развитие ребенка.

THE RELATIONSHIP BETWEEN GENETICS AND CHILD PSYCHOLOGY: ON THE EXAMPLE OF PRESCHOOL EDUCATION

Annotation. This article examines the relationship between genetics and child psychology in the context of preschool education. Genetic factors in child development, including temperament, intellectual ability, and genetic defects, and how they play a role in his psychological and social formation are analyzed. The article also emphasizes the importance of adapting psychological approaches and educational methods to individual genetic characteristics of children. Methods of creating conditions for the optimal development of children by combining genetic and psychological factors in the environment of preschool education are highlighted. This study provides a scientific basis for the use of an individual approach in educational practice.

Key words: Genetic characteristics, child psychology, preschool education, temperament, intellectual development, genetic defects, individual approach, educational methods, stress management, child development

Kirish. Inson rivojlanishini o‘rganishda genetika va psixologiya fanlarining o‘zaro integratsiyasi chuqur ahamiyatga ega. Har bir shaxsning genetik xususiyatlari uning fiziologik va psixologik rivojlanishida, shuningdek, ijtimoiy moslashuv jarayonida asosiy determinant sifatida namoyon bo‘ladi. Ayniqsa, maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishi ushbu jarayonlarning murakkab o‘zaro ta’sirlarini tadqiq etish uchun optimal modelni tashkil etadi. Genetik meros orqali uzatiladigan temperament, kognitiv qobiliyatlar va xulq-atvorga moyillik psixologik rivojlanish jarayonini shakllantiruvchi omillar sifatida ko‘riladi.

Bolalarning psixologik rivojlanishi tashqi muhit ta’siri bilan birgalikda genetik omillar orqali aniqlanadi. Xususan, maktabgacha ta’lim jarayoni, bolaning intellektual va emosional o‘sishi uchun shart-sharoit yaratish maqsadida, uning genetik imkoniyatlari va individual psixologik xususiyatlarini hisobga olishni talab qiladi. Bu esa ta’lim jarayonini optimallashtirish, individual yondashuvlarni qo‘llash va pedagogik strategiyalarni ilmiy asoslash zaruratini yuzaga keltiradi.

Mazkur maqola, maktabgacha ta’limda bola rivojlanishini boshqarishda genetik xususiyatlarning psixologik jarayonlar bilan o‘zaro ta’sirini o‘rganishga qaratilgan bo‘lib, ushbu masala bo‘yicha nazariy va amaliy yondashuvlarni tahlil qilishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI. Tadqiqotchilarning bolalik ruhi va bolalik psixologiyasiga qiziqishi har doim mavjud bo‘lgan, ammo bolalik ilmiy o‘rganish mavzusi juda kech bo‘lgan, bunday o‘rganish uchun zarur shart-sharoitlar pedagogika, biologiya, tibbiyot, eksperimental psixologiyada shakllangan. Pedagogika har doim psixologik bilimlarga muhtoj edi, ularga asoslanishga intildi. Y. A. Komenskiy, J. Lokk, J. - J. Russo, I. G. Pestalozzi, F. Frebel, I. F. Gerbart, A. Disterveg va o‘tmishdagi boshqa yirik o‘qituvchilar bolalarning yoshi va individual xususiyatlarini bilish asosida ta’lim va tarbiya qurish zarurligini ta’kidladilar, o‘qituvchilar, o‘qituvchilar va ota-onalarni bolalik tabiatini o‘rganishga chaqirdilar, nafaqat bolalar psixologiyasiga qiziqish bildirdilar, balki uning qonunlarini tushunishga harakat qildilar.

J.J. Russoning tabiiy tarbiyasi kontseptsiyasi bolalar ruhi muammolariga qiziqishning rivojlanishiga katta ta’sir ko‘rsatdi, unga ko‘ra tarbiyaning asosiy maqsadi bolaning ichki tabiatining tabiiy rivojlanishiga ko‘maklashish, uni sinchkovlik bilan o‘rganishga asoslangan edi. Bolalikni inson rivojlanishining o‘ziga xos, sifat jihatidan o‘ziga xos bosqichi sifatida tushunib, unga muhabbat va hurmat bilan munosabatda bo‘lgan J.J.Russo bola rivojlanishining ichki qonuniyatlarini ochib berishga, ularga muvofiq davriylashtirish va o‘qitish bosqichlarini qurishga harakat qildi.

Aslida, 18-asrning oxirida shifokorlar bolalarga ilmiy qiziqish bildirishdi, ular bolalarni kattalar kabi davolash mumkin emasligi, ularning tanasining xususiyatlari va kasalliklarning o‘ziga xosligi tufayli duch kelishdi. Bolaning aqliy rivojlanishi haqidagi birinchi kitob nemis shifokori va faylasufi T. Tidemanga tegishli edi (1787), u tug‘ilishdan uch yoshgacha bo‘lgan bolaning aqliy rivojlanishini batafsil va izchil tasvirlashga harakat qildi. Motor, hissiy va hissiy sohalarni eng muhim deb ajratib, u ushbu sohalarda bolaning namoyon bo‘lishini qayd etdi.

Shunday qilib, birinchi marta psixologiya maxsus ob’ektni - chaqaloq psixikasini ko‘rdi va uning tarkibiy qismlarining rivojlanishi o‘rganish mavzusiga aylandi. Tegishli tadqiqot usulini tanlash ham muhim edi - ob’ektiv tashqi kuzatuv, chunki nutq va aks ettirishga ega bo‘lmagan bola o‘z tajribalari haqida gapira olmaydi, hatto undan ham ko‘proq introspektsiyadan foydalanadi. Bundan tashqari, ma’lum bir bolaning uzoq vaqt davomida rivojlanishi kuzatildi, ya’ni.uzunlamasına bo‘limlar strategiyasiga muvofiq. Bunday tadqiqotga bo‘lgan ehtiyoj pedagogikaning

talablari bilan asoslandi, chunki ta'lim aqliy xususiyatlarning rivojlanishi va ularning paydo bo'lish vaqti to'g'risida aniq bilimga tayanishi kerak.

XIX asr o'rtalarida. bolalar psixologiyasiga qiziqish ortib bormoqda, umumta'limning rivojlanishi bilan bog'liq pedagogika va psixologiya o'rtasidagi munosabatlarning ilmiy muammosi paydo bo'ldi va maktabgacha ta'lim amaliyotida uy ta'limidan farqli o'laroq shakllana boshladi, bu erda bolaga individual yondashuvni amalga oshirish va uning xususiyatlarini o'rganish oson emas edi.qiziqishlar.

TADQIQOT NATIJALARI. Tadqiqotning asosiy natijalari shuni ko'rsatadiki, bolaning genetik xususiyatlari va psixologik rivojlanish o'rtasidagi o'zaro ta'sir maktabgacha ta'lim jarayonida muhim rol o'ynaydi. Genetik faktorlar, xususan, temperament, kognitiv qobiliyatlar va emotsional barqarorlik, bolaning ijtimoiy moslashuvchanligi, o'zini tutish tarzi va ta'limda muvaffaqiyatga erishish darajasini belgilovchi asosiy omillardan biridir.

Genetik xususiyatlarning psixologik rivojlanishga ta'siri: Tadqiqotda ishtirok etgan bolalar orasida temperamentning turli shakllari (faol, passiv, ijtimoiylashuvchan, ehtiyotkor) ularning ijtimoiy-emotsional rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatishi aniqlandi. Masalan, faol temperamentga ega bolalar ko'proq guruhlarda o'ynashga moyil bo'lishadi, bu esa ularning ijtimoiylashuvi va emotsional barqarorligini oshiradi. Shu bilan birga, ehtiyotkor temperamentga ega bolalar ko'proq yolg'iz o'ynashni afzal ko'radilar, bu esa ularda stressga nisbatan yuqori sezgirlikni yuzaga keltirishi mumkin.

Intellektual rivojlanish va ta'lim muhitining o'zaro ta'siri: Genetik meros orqali uzatilgan intellektual qobiliyatlar bolaning ta'lim jarayonida muvaffaqiyatga erishish darajasini belgilaydi. Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, yuqori kognitiv qobiliyatga ega bolalar tezroq yangi ma'lumotlarni o'zlashtirib, mantiqiy fikrlashni rivojlantiradilar. Biroq, bu bolalar uchun ta'lim metodlari ularning individual ehtiyojlariga moslashtirilgan bo'lishi kerak, aks holda ularning potensiali to'liq ochilmasligi mumkin.

Stress va moslashuvchanlik: Genetik jihatdan stressga sezgir bolalar psixologik yordam va pedagogik qo'llab-quvvatlashga yanada ko'proq muhtoj. Tadqiqotda shuningdek, bu bolalar uchun psixologik barqarorlikni ta'minlashda, shaxsiy yondashuvlar va xavfsiz ta'lim muhitining ahamiyati katta ekani aniqlangan. Genetik jihatdan stressga moyil bolalar uchun, masalan, tinchlantiruvchi o'yinlar yoki psixologik mashqlar qo'llanilishi ularning rivojlanishida ijobiy natijalar beradi.

Individual yondashuv va ta'lim metodlari: Bolalarning genetik xususiyatlari va psixologik jihatlarini hisobga olish, ularning individual rivojlanishiga moslashtirilgan ta'lim metodlarining samaradorligini oshiradi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, genetik jihatdan farq qiladigan bolalar uchun maxsus o'qitish yondashuvlari (masalan, kinestetik, vizual yoki audial yondashuvlar) ularga eng yaxshi rivojlanish imkoniyatlarini yaratadi. Shuningdek, bu yondashuvlar bolalarning o'zini o'zi anglashini va psixologik muammolarni hal qilish qobiliyatini rivojlantiradi.

Natijada, bolaning genetik xususiyatlari va psixologik rivojlanishining ta'lim jarayoniga ta'siri o'zaro uzviy bog'liq bo'lib, ularni inobatga olgan holda ta'lim jarayonini optimallashtirish, bolalarning to'liq rivojlanishiga yordam beradi. Bu ilmiy izlanishlar, pedagoglar uchun individual yondashuvlarni ishlab chiqish va genetik faktorlarni hisobga olishda qimmatli ko'rsatmalar beradi.

Bog'cha tarbiyasini olgan bola bilan bog'chaga bormagan bolani solishtirganda, ularning fikrlash darajasi o'rtasida yer bilan osmoncha farq borligini sezish qiyin emas" degan edi. Maktabgacha yoshdagi bola^ psixologiyasi ilmida bu yoshdagi bolalaráa sifat o'zgarisЬIari tezlashganligini inobatga olgan holda bu davrni uch bosqichga taqsimlab o'rganish maqsadga muvofiq deb topilgan: kichik maktabgacha davr (3-4 yosh); o'rta maktabgacha davr (4-5 yosh); katta maktabgacha yosh (5-6 yoshgacha); maktabga tayyorlov yoshi (6-7 yoshgacha). Maktabgacha yoshdagi

bola rivojlanish jarayonida ajdodlari tomonidan yaratilgan narsa va hodisalar, olam sir-sinoatlari bilan alohida maxsus munosabatga kirishadi. U insoniyat tomonidan qo‘lga kiritilgan yutuqlarni faol o‘zlashtirib, egallab boradi.

Bolada narsa-hodisalar olami, ular yordamida amalga oshiriladigan xatti-harakatlar, ona tili va odamlar orasidagi munosabatlarni anglash, ayni zamonda faoliyat motivlarining rivojlanishi, qobiliyatlarning o‘sib borishi kattalarning bevosita yordami asosida amalga oshadi. Bu oilada ota-ona, maktabgacha ta’lim muassasalarida esa ta^iyachi^ ko‘magida yuz beradi. Asosan mana shu davrdan boshlab bolaning mustaqil faoliyati kuchaya boshlaydi. Faoliyatdagi mustaqillik, o‘z-o‘zidan tafakkurdagi mustakillikka asos bo‘ladi. Bundan tashqari, maktabgacha yoshdagi bosqich ularda murakkab harakatlarni takomillashtirish, elementar gigiyena, madaniy va mehnat malakalarini hosil qilish, nutqini o‘stirish hamda ijtimoiy axloq va estetik didning dastlabki kurtaklarini yuzaga keltirish davri hamdir.

XULOSA. Bola rivojlanishining genetik va psixologik asoslarini tahlil qilish, maktabgacha ta’lim tizimida individual yondashuvlar va pedagogik strategiyalarning muhimligini ko‘rsatadi. Genetik xususiyatlar, masalan, temperament, intellektual qobiliyatlar va xulq-atvorning tug‘ma jihatlari, bolaning ijtimoiy va emotsional rivojlanishida asosiy rol o‘ynaydi. Shuningdek, maktabgacha yoshdagi bolalarda psixologik barqarorlikni ta’minlash va kognitiv o‘sishni rag‘batlantirish uchun genetik omillarni hisobga olish zarur.

Bola psixologiyasi va genetika o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir maktabgacha ta’limda pedagoglarning individual yondashuvlarini ishlab chiqishda muhim ilmiy asoslarni taqdim etadi. Shuningdek, ta’lim jarayonida bolalarning genetik xususiyatlariga moslashtirilgan metodlar va strategiyalar, ularning maksimal rivojlanishiga yordam beradi. Bundan tashqari, genetik xususiyatlarga moslashish bolalar uchun ta’lim va tarbiya sharoitlarini yanada samarali va individual darajada tashkil etishga imkon yaratadi.

Shu bilan birga, genetik va psixologik o‘zaro ta’sirning har tomonlama tadqiq etilishi, pedagogik amaliyotda yanada ilg‘or yondashuvlarni joriy etishga xizmat qiladi. Bu esa bola rivojlanishini qo‘llab-quvvatlashda yangi ilmiy va amaliy istiqbollarni ochadi, ta’lim tizimining samaradorligini oshirishga imkon beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Aminov, S. B. (2016). Bola psixologiyasining asoslari. Toshkent: Akadem nashr.
2. Vygotsky, L. S. (1978). Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Harvard University Press.
3. Gardner, H. (2006). Multiple Intelligences: New Horizons in Theory and Practice. Basic Books.
4. Guzik, T. M. (2014). Genetika va bola rivojlanishi: nazariy yondashuvlar. Tbilisi: Elva.
5. Piaget, J. (1970). The Science of Education and the Psychology of the Child. Viking Press.
6. Rutter, M. (2007). Developmental Science and the Health of Children: A Global Perspective. Cambridge University Press.
7. Shafir, E. (2002). The Psychology of Choice and Decision. New York: Cambridge University Press.
8. Ushakov, A. M. (2015). Genetika va ijtimoiy muhit: bola psixologiyasi. Moskva: Akademiya.

MILLIYLIK ASOSIDA BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNING VATANGA MUHABBAT TUYG‘USINI RIVOJLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

Qadamboyeva Hilola Umid qizi
Urganch davlat pedagogika instituti doktoranti, kadamboyevahilola@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqola bo‘lajak o‘qituvchilarning vatanga muhabbat tuyg‘usini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish masalasiga bag‘ishlangan. Milliylik asosida vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirishda ta’lim jarayonining ahamiyati va pedagogik yondashuvlar tahlil qilinadi. Maqolada bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi doirasida milliy g‘oyani singdirishning usullari, amaliyotdagi samarali metodlar, shuningdek, didaktik vositalardan foydalanish masalalari ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot natijalarida, vatanparvarlik tuyg‘usini rivojlantirish uchun nazariy va amaliy takliflar ishlab chiqilgan bo‘lib, ularning ta’lim tizimida qo‘llanilishi bo‘yicha tavsiyalar keltirilgan. Mazkur yondashuvlar yosh avlodning milliy o‘zlikni anglashida hamda ular ongida vatanga sadoqat tuyg‘usini shakllantirishda muhim omil sifatida xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: Vatanparvarlik, vatan tuyg‘usi, qahramonlik, vatanparvarlik tarbiyasi, Z.M. Bobur, rolli o‘yinlar, muhokamali esse, loyiha texnologiyasi.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДОЛОГИИ ФОРМИРОВАНИЯ У БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ЧУВСТВА ЛЮБВИ К ОТЕЧЕСТВАНИЮ НА ОСНОВЕ НАЦИОНАЛЬНОСТИ

Аннотация. Данная статья посвящена совершенствованию методики развития чувства патриотизма у будущих учителей. Анализируется роль образовательного процесса и педагогических подходов в формировании патриотизма на основе национальных ценностей. В статье рассматриваются методы внедрения национальной идеологии в рамках профессиональной подготовки будущих учителей, эффективные методы на практике, а также вопросы использования дидактических средств. Результаты исследования включают теоретические и практические предложения по развитию чувства патриотизма, а также рекомендации по их применению в образовательной системе. Эти подходы играют важную роль в осознании национальной идентичности молодежью и в формировании у них чувства преданности своей родине.

Ключевые слова: Патриотизм, чувство Родины, героизм, патриотическое воспитание, З.М. Бабур.

IMPROVING THE METHODOLOGY OF DEVELOPING FUTURE TEACHERS’ FEELING OF LOVE FOR THE FATHERLAND ON THE BASIS OF NATIONALITY

Annotation. The article is dedicated to improving the methodology for developing a sense of patriotism among future teachers. It analyzes the importance of the educational process and pedagogical approaches in shaping patriotism based on national values. The article discusses methods of instilling national ideology within the framework of future teachers’ professional training, effective methods in practice, and the use of didactic tools. The research results include theoretical and practical suggestions for fostering patriotism, along with recommendations for their application in the education system. These approaches serve as a key factor in helping the younger generation understand their national identity and cultivate a sense of loyalty to their country.

Keywords: Patriotism, sense of country, heroism, patriotic education, Z.M.Babur.

KIRISH. Talaba yoshlarda vatanga muhabbat, vatan tuyg‘usi tushunchalarining mohiyatini anglashlariga amaliy yordam berish bugungi kunning eng muhim vazifasi hisoblanadi. Har bir insonning Vatanga bo‘lgan muhabbati va sadoqati o‘ziga xos va turlicha ifodalanadi. Kimdir mehnat qilib, o‘z yurtining rivojiga hissa qo‘shsa, kimdir esa Vatan uchun jonini fido qilishga tayyor bo‘ladi. Vatanparvarlik – bu nafaqat tuyg‘u, balki bir insonning yuksak fazilatidir. Bu ulug‘ bir tuyg‘u va mas’uliyatdir, chunki Vatanning manfaatlarini har doim birinchi o‘rinda qo‘yish, uning taraqqiyoti va farovonligi uchun mehnat qilish, odamning insoniylik darajasini ko‘rsatadi. Vatanparvarlik vatan tuyg‘usini anglashdan boshlanadi. Vatan tuyg‘usi asrlar davomida shakllanib, chuqur nazariy asosga ega bo‘lgan qadimiy tushuncha sifatida namoyon bo‘ladi. Buyuk faylasuf Aflotun o‘z asarlarida vatanni ota-onadan ham ulug‘ deb ta’riflaydi. Ajdodlarimizning merosida vatan sevgisi oliy qadriyat sifatida talqin qilingan. Ko‘plab mutafakkirlar va ma’rifatparvar olimlar shaxsni shakllantirishda vatanparvarlikning ahamiyatini ta’kidlab, uning inson rivojlanishiga ko‘p qirrali ta’sir ko‘rsatishini qayd etishgan. Ularning fikricha, vatanparvarlik tarbiyaning eng muhim vazifalaridan biri bo‘libgina qolmay, kuchli ta’lim vositasi sifatida ham e’tirof etilgan.

Boburiylar imperiyasining asoschisi Zahiriddin Muhammad Bobur vatandan yiroq bo‘lganidan o‘ksinib, shu sog‘inch bilan hayotdan ko‘z yumgan. Shuning uchun vatan tuyg‘usi har bir insonga xos bo‘lsa-da, ayniqsa, o‘zbek xalqida bu his-tuyg‘u nihoyatda chuqur, barqaror va milliy qadriyat darajasiga yetganini aytish mubolag‘a emas. Vatan tuyg‘usiga ega insonda vatanparvarlik kuchli namoyon bo‘ladi.

Adabiyotlar sharhi. O‘zbekistonning Birinchi Prezidenti I.A.Karimov ta’kidlaganidek, “Vatanga bo‘lgan muhabbat inson qalbida tabiiy ravishda tug‘iladi. Inson o‘zligini anglagan va nasl-nasabini bilgan sari, yuragida vatanga bo‘lgan muhabbat ildiz otib, mustahkamlanadi. Bu ildiz qanchalik chuqur bo‘lsa, vatanga bo‘lgan sevgi ham shunchalik cheksiz bo‘ladi.” [1, 90-bet]

Vatanparvarlik – bu yunoncha “patris” (vatan) so‘zidan olingan bo‘lib, axloqiy-siyosiy tamoyil va ijtimoiy tuyg‘u sifatida vatanga muhabbatni, uning tarixiy o‘tmishi va buguni bilan faxrlanishni, shaxsiy manfaatlarni mamlakat manfaatlariga bo‘ysundirishga tayyorlikni hamda xalq manfaatlarini himoya qilishga intilishni anglatadi. [2, 887-bet]

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev vatanparvarlik haqida o‘zining ko‘plab nutqlarida va chiqishlarida ta’kidlagan. Prezidentimiz, ayniqsa, millatning yanada kuchli va farovon bo‘lishi uchun har bir fuqaroning Vatanga bo‘lgan sadoqatini, ishqini va mas’uliyatini yuqori baholagan. Prezidentimizning fikrlariga ko‘ra, Vatanparvarlik nafaqat o‘z yurtiga bo‘lgan muhabbatni, balki uning rivojiga, barqarorligiga, va mustahkamligini ta’minlashga bo‘lgan katta mas’uliyatni anglatadi. Shuningdek, prezidentimiz Vatanparvarlikni xalqni birlashtiruvchi kuch sifatida ko‘radi, u milliy qadriyatlarimizni asrab-avaylash, tarbiyalash va har bir fuqaro yurtining kelajagi uchun mas’uliyatni o‘z zimmasiga olish kerakligini ta’kidlaydi. U shuningdek, yoshlar orasida vatanparvarlikni rivojlantirish, ularga yurtning rivojlanishiga qanday hissa qo‘shish lozimligini tushuntirib, ularning kelajakka bo‘lgan ishonchini mustahkamlashga urg‘u beradi.

Vatanparvarlik tarbiyasi – bu talabalarda ijtimoiy faollik, mas’uliyat hissi, huquqiy madaniyat va fuqarolik fazilatlarini shakllantirish jarayonidir. Bunda talabalar o‘z xalqiga fidoyilik va ongli xizmat qilishga tayyor, konstitutsiyaviy burchini bajarishga mas’uliyatli bo‘lishadi. Bu tarbiya davlat va fuqaro o‘rtasidagi huquqiy normalarga asoslanib, yoshlarga barcha zarur huquqlarni berish va ularni amalga oshirishga xizmat qiladi.

Vatanga muhabbat – bu xalqning tarixiy va madaniy ildizlariga nisbatan hissiy aloqani anglash, Vatanning yagonaligi va taqdiriga daxldorlikni his qilish, ajdodlar va zamondoshlarning ishlari bilan faxrlanish va jamiyatda sodir bo‘layotgan voqealar uchun mas’uliyatni anglashdan iboratdir.

Vatanparvarlik tarbiyasining asosiy maqsadi – tarixiy qahramonliklar va muhim yutuqlarni targ‘ib qilish, ajdodlarning jasorati va mardligidan faxrlanish, qahramonlik an’analariga sadoqat va ularga daxldorlik hissini shakllantirishdir.

Qahramonlik va vatanparvarlik tarbiyasining asosiy yo‘nalishlari sifatida quyidagilarni ko‘rsatishimiz mumkin:

1. Mamlakatning mardonavor o‘tmishi, buyuk ajdodlar xizmatlari va bugungi kundagi yutuqlarni ta’lim jarayonida keng targ‘ib etish;
2. Talabalarni milliy tariximizning qahramonlik voqealari va muhim sanalarini nishonlash tadbirlariga faol jalb etish;
3. Talabalar bilan ajdodlar jasorati va qahramonligi mavzusida viktorinalar va kechalarni muntazam tashkil etish;
4. Talabalarda qahramonlik an’analariga sadoqatni rivojlantirish va bu an’analarni davom ettirishga intilishni shakllantirish.

Talabalarda vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirishda turli konkursli metodika va o‘yinli faoliyat muhim ahamiyatga ega. Bunga rolli o‘yinlar, sahnalashtirilgan chiqishlar, guruh bilan loyiha yaratish, ijodiy ishlar (adabiy insholar, muhokamali esse, adabiy portretlar), muammoli vaziyatlarni muhokama qilish, qo‘shimcha adabiyotlarni o‘rganish, shaxsiy fikrni shakllantirish va bayon qilish, hamda konkurslarni tashkil etish kiradi. Bunday mashg‘ulotlarning o‘yin xarakteri ijodkorlik muhitini yaratib, talabalar o‘rtasidagi individual qobiliyat va o‘ziga xosliklarni yuzaga chiqaradi.

Mazkur tadbirlar talabalarning bilish faoliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Muhimi, bunda natijadan ko‘ra, tayyorgarlik jarayoniga e’tibor qaratiladi, ya’ni talabalar rollarni taqsimlash, birlashish, kelishib ishlash, mustaqillik, tashabbuskorlik va ijodiy qobiliyatlarini namoyon qilish jarayonida o‘qib-o‘rganishadi.

Talabalarning ijodiy va bilish faolligini rivojlantirishda loyiha metodi samarali vositalardan biri hisoblanadi. Bu metod yordamida talabalar tadqiqotchilik usullaridan foydalanishga o‘rganib, mustaqil fikrlash va o‘z faoliyatlarini samarali tashkil etishni o‘rganadilar. Loyiha texnologiyasi uch asosiy elementni o‘z ichiga oladi: mustaqillik, faoliyat va natija. Loyihalar jarayonida talabalar noaniq vaziyatlarga duch kelib, bu holat ularning bilishga bo‘lgan qiziqishini va faoliyatini kuchaytiradi.

Bunday yondashuvlar talabalarning bilim va fikrlash ko‘nikmalarini oshirish bilan birga, ular orasida ijodkorlik va o‘z-o‘zini baholash qobiliyatlarini rivojlantiradi.

Vatanga muhabbat tarbiyasi bolalikdan, maktabgacha yoshdan boshlanadi. Maktab yoshidagi bolalarning ma’naviy-madaniy yetukligini belgilash uchun quyidagi minimal talablar qo‘yiladi:

- Ona Vatan – O‘zbekiston haqida qisqacha hikoya qila olish;
- 8-dekabr – O‘zbekiston Konstitutsiyasi kuni umumxalq bayrami sifatida nishonlanishini bilish;
- O‘zbekiston bayrog‘i va gerbi haqida o‘z fikrlarini ifoda eta olish;
- O‘zbekiston madhiyasini yoddan aytib bera olish;
- Vatan tuyg‘usi, vatanparvarlik va milliy g‘urur kabi his-tuyg‘ularni yoshiga mos ravishda egallagan bo‘lish;
- Xalqiga va Vataniga mehr va sadoqatni his etgan bo‘lish;
- Buyuk siymolar haqida ilk tasavvurlar hosil qilish;
- Milliy bayramlar haqida qisqacha ma’lumot bera olish;
- Kattalarga “siz” deya murojaat qilish odatini egallash;
- Yaxshilik va yomonlikni ajrata bilish;
- Mehnat qilayotgan kattalarga yordam berish odatini shakllantirish;

- Tasviriy san’at asarlaridan zavqlana olish qobiliyatini rivojlantirish;
- “Labbay”, “Xo‘p bo‘ladi”, “Xush kelibsiz”, “Rahmat”, “Salomat bo‘ling”, “Osh bo‘lsin”, “Mumkinmi?”, “Kechirasiz”, “Shirin tushlar ko‘ring”, “Yaxshi borib keling”, “Marhamat” kabi so‘z va iboralarni o‘z o‘rnida ishlata olish;
- Shirinso‘zlik va mehribonlik qilish;
- Ovqatlanish qoidalarini bilish va ularga rioya qilish;
- Musiqani tinglash va undan zavqlanish.

Bu talablar bolalarda yoshiga mos ravishda madaniy-ma’naviy fazilatlarni rivojlantirishga qaratilgan.

Milliylik asosida bo‘lajak o‘qituvchilarda Vatanga muhabbat tuyg‘usini rivojlantirish metodikasi nafaqat ma’naviy-axloqiy tarbiyaning bir qismi, balki ularning kasbiy shakllanish jarayonida muhim ahamiyatga ega. Ushbu yondashuvning asosiy maqsadi bo‘lajak pedagoglarni milliy qadriyatlarni chuqur anglashga undash, xalqning boy madaniy merosidan ilhom olishga rag‘batlantirish va yoshlarga Vatan tushunchasini faol va samarali usullar orqali o‘rgatish ko‘nikmalarini shakllantirishdir.

Xulosa. Vatanparvarlik tarbiyasini ta’lim jarayonining barcha bosqichlariga chuqur integratsiya qilish zarur. Ayniqsa, loyihaviy yondashuvlar, ijodiy va muammoli vazifalar, munozaralar, badiiy asarlarni tahlil qilish hamda tarixiy voqealarni targ‘ib qilish kabi faol metodlar talabalar orasida bilim olishga bo‘lgan ishtiyoqni oshirib, ularning Vatanga bo‘lgan munosabatlarini ijobiy shakllantiradi.

O‘qituvchi bu jarayonda nafaqat bilim beruvchi, balki yoshlarda milliy o‘zlikni anglash, mas’uliyatni his qilish, Vatanni sevish va uning kelajagi uchun javobgarlikni o‘z zimmasiga olishga tayyor fuqaro sifatida tarbiyalashda rahbarlik qiluvchi muhim shaxsdir. Shuningdek, milliy bayramlar, madaniy meros va qahramonlik an’analari bo‘yicha keng qamrovli bilim berish yosh avlodda Vatanga muhabbat va sadoqat hislarini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashda milliylik asosida vatanparvarlik tuyg‘usini rivojlantirish jamiyatning axloqiy poydevorini mustahkamlash, milliy birdamlikni targ‘ib qilish va davlatning barqaror kelajagini ta’minlashning muhim omili hisoblanadi. Ushbu metodikani takomillashtirish orqali bilimli va mas’uliyatli o‘qituvchilarni tarbiyalashga erishish bilan birga, milliy g‘urur va ong bilan yo‘g‘rilgan yangi avlodni yetishtirish mumkin.

ADABIYOTLAR

1. I.A.Karimov. “Yuksak ma’naviyat yengilmas kuch” T.: MA’NAVIYAT.2008.
2. F.O.Xodjiyeva, Sh.T.Ibragimova. Международный научный журнал «Новости образования: исследование в XXI веке».T.: 2022. № 3 (100), часть 1
3. S.S.Quvondiqov. “Toshkent davlat pedagogika universiteti ilmiy axborotlari ilmiy-nazariy jurnali” 2020.8-son. ISSN 2181-9580
4. M.Quronov. “Milliy tarbiya”. Monografiya. T.: 2004
5. H.R.Shernafasova, D.H.Safayeva. “Milliy tarbiya asoslari” fanidan seminar va amaliy mashg‘ulotlarni interfaol metodlar asosida tashkil qilish” T.: BOOKMANY PRINT.2024
6.F.O.Mirzayeva.”Pedagogika nazariyasi va tarixi”. T.: “Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi”

MAHALLA RAISLARINING MA'NAVIY-AHLOQIY SIFATLARINI TIZIMLI TA'LIM JARAYONIDA RIVOJLANTIRISHNING XUSUSIYATLARI

Matkarimov Ikrom Muxtarovich
Urganch davlat pedagogika instituti mustaqil tadqiqodchisi, Xorazm viloyati hokimligi huzuridagi Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari hodimlarining malakasini oshirish bo'yicha o'quv kurslari direktori, deputat_0303@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada mahalla fuqarolar yig'ini raisining tizimli ta'lim orqali ma'naviy-ahloqiy sifatlarini rivojlantirish, malaka oshirish jarayonida aynan ma'naviy – ahloqiy masalalarga bag'ishlangan o'quv mashg'ulotlarini tashkil etish, raislar uchun ma'naviy va ahloqiy sifatlarning ustuvorlik jihatlariga bag'ishlangan tadqiqod natijalari tahlil qilinadi. Maqolada shuningdek, mahalla raisining qonunchilik va amaliy nazariy jihatlariga asoslangan holda, ahloqiy qadriyatlarni rivojlantirish uchun amalga oshirilgan tadbirlar, strategiyalar va ularning ijtimoiy ahamiyatiga alohida e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: Mahalla, fuqarolarni o'zini o'zi boshqarish organi, fuqarolar yig'ini, rais ahloqi, rais ma'naviyati, ta'lim, tarbiya, ma'naviyat, ahloq, odob, ijtimoiy, madaniy - ma'rifiy rivojlanish.

ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ НРАВСТВЕННЫХ И НРАВСТВЕННЫХ КАЧЕСТВ ПРЕДСЕДАТЕЛЕЙ МЕСТНЫХ СООБЩЕСТВ В СИСТЕМНОМ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ

Annotatsiya. В данной статье анализируются результаты исследования развития духовно-нравственных качеств председателя общественного собрания посредством систематического обучения, организации учебных занятий, посвященных духовно-нравственным вопросам в процессе профессионального развития, а также приоритетные аспекты духовно-нравственных качеств председателей махалля. В статье также уделяется внимание действиям, стратегиям и их социальной значимости для развития моральных ценностей, основанных на законодательных и практических теоретических аспектах деятельности председатели махалля.

Ключевые слова: махалля, орган самоуправления граждан, собрание граждан, этика председателя, духовность председателя, образование, воспитание, духовность, нравственность, социальное, культурно-просветительское развитие.

FEATURES OF DEVELOPMENT OF MORAL AND ETHICAL QUALITIES OF CHAIRMEN OF LOCAL COMMUNITIES IN THE SYSTEMIC EDUCATIONAL PROCESS

Abstract. This article analyzes the results of the study on the development of spiritual and moral qualities of the chairman of the public assembly through systematic training, organization of training sessions devoted to spiritual and moral issues in the process of professional development, as well as priority aspects of spiritual and moral qualities of mahalla chairmen. The article also pays attention to the actions, strategies and their social significance for the development of moral values based on the legislative and practical theoretical aspects of the activities of the mahalla chairmen.

Key words: Mahalla, self-governing body of citizens, citizens' assembly, ethics of the chairman, spirituality of the chairman, education, upbringing, spirituality, morality, social, cultural and educational development..

KIRISH. Mahalla O‘zbekiston jamiyatining tarixiy boshqaruv shakli, urf – odat va qadriyatlarga asoslangan hududiy birligidir. Mamlakatimizda fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarishining noyob usuli sifatida tan olingan mahalla instituti azaldan chinakam milliy qadriyatlar, ezgu amallar maskani bo‘lib kelgan. Mahalla – asrlar osha milliy urf-odat va an’analarimizni bezavol saqlab, xalqimiz uchun ezgulik va tarbiya beshigi, yaxshi qo‘shnichilik va hamjihatlik maskani bo‘lib kelmoqda. Biz mahalla deganda, dunyoda kamdan-kam uchraydigan, insonni jamiyat bilan uyg‘un bo‘lib yashashga o‘rgatib, bag‘rikenglik ruhida tarbiyalaydigan, xalq bilan davlat o‘rtasidagi ishonchli ko‘prik vazifasini bajaradigan noyob tuzilmani tushunamiz. [1].

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 21 bob 127-moddasiga ko‘ra “Shaharchalar, qishloqlar va ovullarda, shuningdek shaharlar, shaharchalar, qishloqlar va ovullardagi mahallalarda fuqarolarning yig‘inlari o‘zini o‘zi boshqarish organlari bo‘lib, ular raisni saylaydi” [2].

Ushbu tuzilmaning fuqarolik jamiyati institutlari ichida eng sharafli va ayni paytda, keng ko‘lamli vazifalar ijrochisi – xalq vijdoni, deb ta’riflanishi bejiz emas, albatta. Keyingi yillarda davlat boshqaruv instrumentlarining mahalla tizimiga o‘tkazilayotgani, joylarda ma’muriy boshqaruv mexanizmlarini “mahallabay” usulda tashkil etilishi bu sohani chuqurroq tadqiq qilish va ilmiy o‘rganishni taqozo etadi. Har qanday sohani barqaror va samarali faoliyati unda hizmat qilayotgan subektlarning kadrlarning salohiyatiga bog‘liq. Bugungi kunda respublikamizda 9452 ta mahalla fuqarolar yig‘inlari mavjud bo‘lib, ularda 57591 nafar xodim faoliyat yuritib kelmoqda [3, B.4] (*shundan Xorazm viloyatida 531 ta mahallada 3 181 nafar“mahalla yettiligi” xodimlari faoliyat yuritmoqda*).


Fuqarolar yig‘ini raisining aholi ma’naviy-axloqiy sifatarini rivojlantirishdagi o‘rni haqidagi adabiyotlarga nazar tashlash, ushbu tizimning ijtimoiy, ma’naviy va axloqiy jihatlariga bog‘liq tadqiqotlarning muhimligini ko‘rsatadi. Ushbu mavzuga oid adabiyotlarda fuqarolar yig‘inlari, mahalla tizimi, mahallaning ijtimoiy faoliyati va ma’naviy-axloqiy sohadagi rahbarlik rolini o‘rganishga qaratilgan bir qator ilmiy va metodologik ishlarni topish mumkin. Bu adabiyotlar fuqarolar yig‘inlari raisining aholi o‘rtasida axloqiy qadriyatlarni mustahkamlash va ularni rivojlantirishdagi qiyinchiliklarini va imkoniyatlarini ko‘rsatib, davlat va jamiyat siyosatining ma’naviy-huquqiy asoslarini chuqur tahlil qilish imkonini beradi.

So‘nggi davrlarda ko‘lga kiritilgan arxeologik ma’lumotlarga ko‘ra, mamlakat hududida fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarishning ilk belgilari bronza davriga borib taqaladi. Bronza davrining yodgorligi bo‘lgan hozirgi Surxondaryo viloyati hududidan topilgan Sopollitepa manbalarining guvohlik berishicha, u yerda miloddan avvalgi XVIII - XV asrlarda sakkiz oilaning bir joydagi manzilgohi qayd etilgan. Demak ko‘rinadiki jamoa bo‘lib yashashning va turmush muammolarini birgalikda hal etishning dastlabki belgilari O‘zbekiston hududida milloddan avvalgi davrlarga borib taqaladi [4, B.65].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev ta’kidlaganidek, “Mustaqillik yillarida mahalla aholiga eng yaqin va xalqchil tuzilmaga aylandi. Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshkarish organlari «Kuchli davlatdan - kuchli fukarolik jamiyati sari» kontseptsiyasini hayotga tatbiq etishda eng muhim tashkiliy- instiutsional bo‘g‘inga aylandi» . Mahallaning tashkiliy -huquqiy shakllari, vazifa va vakolatlari globallashuv jarayonlariga mos takomillashtirilmoqda [5].

Darhaqiqat mahalla boshqaruvining tuzilmasi ham uning bajaradigan vazifalariga mos ravishda takomillashib boraveradi. Ayniqsa keyingi yillarda jamiyat boshqaruvida mahallaning ahamiyati oshib bormoqda.

Amaldagi normalarga asosan O‘zbekistondagi mahalla fuqarolar yig‘inining tuzilmasini quyidagi jadvalda ko‘rish mumkin. [6].



Mustaqillik yillarida A.Azizxo'jayev, O.Husanov, S.Odilxo'jayeva, Sh.Jalilov, S.Sultonov, K.Komilov, A.Saidov, M.Boydadayev, D.Ahmedov, G.Malikova, G.Ismailova, M.Suvonkulov, Z.Reymova, Sh.Maxmudbekov, M.G'ulomov kabi huquqshunos va tarixchi olimlar fuqarolarni o'zini o'zi boshqarish sohasida ilmiy ishlar qilishgan [7]. Ammo mahalla xodimlarini xususan rais faoliyatini takomillashtirish va ularni malakasini oshirish yuzasidan pedagogik jixatdan tadqiq qilinishiga doir materiallar juda kam. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013 yil 10 oktabrdagi "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari xodimlarining malakasini oshirish bo'yicha o'quv kurslarini tashkil etish to'g'risida"gi PQ-2050-sonli qarori qabul qilinib, joylardagi xududiy hokimliklar huzurida fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari xodimlarining malakasini oshirish bo'yicha O'quv kurslari tashkil etilgan.[8]. Shunga asosan Mahalla tizimi xodimlarini kasbiy malakasini oshirish O'zbekistonda 2014 yildan boshlab tizimli yo'lga qo'yilgan. Dastlabki yillarda O'quv kurslarida **mahalla raislari, ularning oila, xotin- qizlar va ijtimoiy-ma'naviy masalalar bo'yicha hamda obodonlashtirish, tomorqa va tadbirkorlik masalalari bo'yicha o'rinbosarlari, oila va xotin-qizlar masalalari bo'yicha mutaxassislar, shuningdek, profilaktika (katta) inspektorlarining jamoat tartibini saqlash bo'yicha yordamchilarining** malakasini oshirish belgilangan.

2022 **yilga qadar** mahalla raislarining obodonlashtirish, tomorqa va tadbirkorlik masalalari bo'yicha o'rinbosarlari, 2022 **yil may oyiga qadar** mahalla raislarining oila, xotin- qizlar va ijtimoiy-ma'naviy masalalar bo'yicha o'rinbosarla hamda oila va xotin-qizlar masalalari bo'yicha mutaxassis shuningdek, profilaktika (katta) inspektorlarining jamoat tartibini saqlash bo'yicha yordamchilari 36 **soatlik** (bir haftalik) kurslarda o'qitilgan [9].Bugungi kunda mazkur tizimda faqatgina Mahalla fuqarolar yig'inlari raislari o'qitilib kelinmoqda.

Tadqiqod mavzusi bo'yicha obyekt sifatida aynan raislarning ma'naviy – ahloqiy sifatlarini malaka oshirish jarayonida rivojlantirish masalasi o'rganildi. Ilmiy tahlillarimiz shuni ko'rsatadiki

o‘tgan 10 yildan ortiq davr mobaynida 36 soatlik malaka oshirish o‘quv kurslarida mahalla raislarining aynan ma’naviy – ahloqiy sifatlarini rivojlantirishga daxldor mavzular bo‘yicha mashg‘ulotlar tashkil etilgan. Quyida xronologik tahlildan 2014 yildan 2024 yil dekabrigacha tashkil etilgan tizimli malaka oshirish kurslarida MFY raislarining mahnaviy -ahloqiy sifatlarini takomillishtarish bo‘yicha quyidagi kurslar tashkil etilib kelinganini ko‘rish mumkin:

1.2014 yil

A) “Mahallada yuz beradigan ijtimoiy muammolarni yechish yo‘llari”. 2 soat nazariy dars mashg‘uloti

B) “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarida boshqaruv jarayonlarining o‘ziga xosligi. Tashkilotchilik madaniyati, rahbarlik va yetakchilik. Ijtimoiy mas’uliyat va adolat mezonlari. Zamonaviy axborot texnologiya”. 2 soat amaliy dars mashg‘uloti

2.2015 yil

A) “Mahallada yuz beradigan ijtimoiy muammolarni yechish yo‘llari”. 2 soat nazariy dars mashg‘uloti

B) “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarida boshqaruv jarayonlarining o‘ziga xosligi. Tashkilotchilik madaniyati, rahbarlik va yetakchilik. Ijtimoiy mas’uliyat va adolat mezonlari”. 2 soat amaliy dars mashg‘uloti

S) “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari xodimlarining barkamol va sog‘lom avlodni tarbiyalash masalalariga oid bilimlarini oshirish”. 2 soat nazariy dars mashg‘uloti

3.2016 yil

“Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarida boshqaruv jarayonlarining o‘ziga xosligi. Tashkilotchilik madaniyati, rahbarlik va yetakchilik. Ijtimoiy mas’uliyat va adolat mezonlari”. Jami 4 soat - 2 soat nazariy va 2 soat amaliy dars mashg‘uloti

4.2017 yil

“Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarida boshqaruv jarayonlarining o‘ziga xosligi. Tashkilotchilik madaniyati, rahbarlik va yetakchilik. Ijtimoiy mas’uliyat va adolat mezonlari hamda boshqaruv mahorati”. 2 soat amaliy dars mashg‘uloti

5.2018 yil

“Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarida boshqaruv menejmenti, mahalla fuqarolar yig‘ini raisining yetakchilik, tashkilotchilik mahorati, muloqot madaniyati.

2 soat nazariy dars mashg‘uloti

6.2019-2020 O‘quv yili

A) “Mahallalarda o‘zaro hurmat, mehr oqibat hamda hamjihatlik muhitini shakllantirishda fuqarolar yig‘inlari xodimlarining muomala va xulq-atvor madaniyatining tutgan o‘rni, fuqarolar yig‘inlari raislariningrahbarlik mahorati va muloqot madaniyatini shakllantirish yo‘llari.“ 2 soat nazariy dars mashg‘uloti

B) “Oilalardagi ijtimoiy-psixologik muhitni o‘z vaqtida aniqlash va nizoli holatlarning oldini olishda oila va mahallaning o‘zaro hamkorligi.” 2 soat nazariy dars mashg‘uloti

7.2020-2021O‘quv yili

A) “Mahallalarda o‘zaro hurmat, mehr oqibat hamda hamjihatlik muhitini shakllantirishda fuqarolar yig‘inlari xodimlarining muomala va xulq-atvor madaniyatining tutgan o‘rni, fuqarolar yig‘inlari raislariningrahbarlik mahorati va muloqot madaniyatini shakllantirish yo‘llari.“ 2 soat nazariy dars mashg‘uloti

B) “Mahallalarda “Ma’naviyat soatlari” va “Xuquqiy bilimlar”, “Xuquqbuzarliklar profilaktikasi”, “Yong‘inlar profilaktikasi”, “Yo‘l harakati xavfsizligi targ‘iboti” kunlarini tashkil etish va o‘tkazish mexanizmlari.” 2 soat nazariy dars mashg‘uloti

8.2022-2023 O‘quv yili

A) “Mahalla raisining rahbarlik, mahallada yuzaga keladigan muammolarni bartaraf etish mahorati,

muomala va hulq atvor madaniyati, imidji hamda mahallalarda o‘zaro hurmat, mehr – oqibat, hamjixatlik muhitini shakllantirish masalalari”. 2 soat nazariy dars mashg‘uloti

B) “Mahalla raisining aholi o‘rtasidagi psixologik muammolarnioldini olish, oilaviy ajralishlarning sabablarini aniqlash, bartaraf qilish, oilalarni mustahkamlash, notinch oilalardagi muhitni sog‘lomlashtirish bo‘yicha manzilli ishlarni tashkil etish tartib-taomillari”. 2 soat amaliy dars mashg‘uloti

S) “Mahalla raislari tomonidan mahallalarda ijtimoiy-ma’naviy muhitni barqarorlashtirish, sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish, diniy bag‘rikenglik va millatlararo totuvlikni ta’minlash bo‘yicha amalga oshiriladigan ishlar”. 2 soat nazariy dars mashg‘uloti

9.2024-2025 O‘quv yili

A) “Mahallalarda o‘zaro hurmat, mehr oqibat hamda hamjihatlik muhitini shakllantirishda fuqarolar yig‘inlari xodimlarining muomala va xulq-atvor madaniyatining tutgan o‘rni, fuqarolar yig‘inlari raislarining rahbarlik mahorati va muloqot madaniyatini shakllantirish yo‘llari.“ 2 soat nazariy dars mashg‘uloti

B) “Mahallalarda “Ma’naviyat soatlari” va “Xuquqiy bilimlar”, “Xuquqbuzarliklar profilaktikasi”, “Yong‘inlar profilaktikasi”, “Yo‘l harakati xavfsizligi targ‘iboti” kunlarini tashkil etish va o‘tkazish mexanizmlari.” 2 soat nazariy dars mashg‘uloti

Tahlillardan ko‘rish mumkinki mahalladagi ijtimoiy – ma’naviy muhitning barqarorligi aynan fuqarolar yig‘ini raisining o‘zidagi ma’naviy ahloqiy sifatlarning holatiga bevosita bog‘liq. Chuni mahalladagi aholining o‘zaro hamjihat yashashi, turmushning turli muammolarini hal etilishida rais odatda hal qiluvchi subekt sifatida maydonga chiqadi. Tadqiqodimiz davomida respublikamizning Farg‘ona, Xorazm, Namangan, Jizzax viloyatlari hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasidagi 1000 nafarga yaqin mahalla raislarining ma’naviy - ahloqiy sifatlarini o‘rganish bo‘yicha so‘rovnomalar o‘tkazildi. Ilmiy ishlarga doir tajriba sinov jarayonlarini tashkil etildi. Mahalla raislarining yosh, jins, ma’lumot darajasi, xududiy mansubligi, kasb tajribasi kabi xususiyatlar bo‘yicha ustuvor qadriyatlar ajratildi. Misol uchun ustuvorlik darajasi bo‘yicha 100 dan ortiq ma’naviy – ahloqiy sifatlar ichida respondentlar ya’ni mahalla raislarining 43 foizi “Adolat”, “Shijoat”, “Olijanoblik” kabi sifatlarni belgilagan bo‘lsa, 35 foizida asosan “Hushmuomalalik”, “Bilimlilik”, “Yetakchilik” kabi xususiyatlar ustuvor sanalgan.

Mahallani jamoatchilik boshqaruvi va nazoratining tayanch bo‘g‘iniga aylantirish, uning jamiyatdagi o‘rni va rolini kuchaytirish, mahallalardagi muammolarni o‘z vaqtida va samarali hal etishda davlat organlari va tashkilotlarining mahallalardagi vakillarining imkoniyatlarini yanada kengaytirish bugungi kundagi dolzarb vazifalardan sanaladi. «Mahalla yettiligi» faoliyatini samarali va rejali asosda tashkil etish hamda uning a’zolarini eng muhim samaradorlik ko‘rsatkichlari (KPI) bo‘yicha baholash tizimini takomillashtirish maqsadida hukumat qarori ham qabul qilingan [10]. Mazkur qarorga muvofiq mahalla raislari uchun quyidagilar har oylik bajarishi kerak bo‘lgan asosiy tadbir va vazifalar sifatida belgilandi:

milliy qadriyatlar, urf-odatlar va an’analarni targ‘ib qilish;
davlat organlari vakillarini aholi muammolarini hal etishga safarbar etish;
mahalla infratuzilmasini yaxshilash;
«Obod mahalla», «Obod ko‘cha» va «Obod xonadon» mezonlarini joriy etish;
«Yashil makon» umummilliy loyihasi amalga oshirilishiga ko‘maklashish;
ommaviy hasharlarni tashkil qilish va ularga aholini jalb qilish;
qonunchilik hujjatlari ijrosi ustidan jamoatchilik nazoratini ta’minlash;
nuroniylar bilan birgalikda ta’lim muassasalarida tarbiyaviy soatlar va suhbatlar o‘tkazish;
«Mahalla yettiligi» a›zolari faoliyatini muvofiqlashtirib borish;

Mazkur vazifalarni amalga oshirishda albatta raislarning ma'naviy ahloqiy sifatlarini rivojlantirish masalasi muhim ahamiyatga ega. Mahalla fuqarolar yig'inlari raislarining ma'naviy -ahloqiy sifatlarini rivojlantirishni alohida obyekt sifatida o'rganish, jaoatchilikning qadriyatlarga asoslangan boshqaruv bo'g'ini hisoblanadigan mahalladagi ishlarni samarali tashkil etishda, munosib nomzoblarni rais sifatida saylanishiga, raislar faoliyatini eng muhim samaradorlik ko'rsatkichlarini aniqlash hamda baholashda, aholining jamiyat va davlat boshqaruviga ishonchini ortishiga xizmat qiladi.

Xulosa. Mahalla raislarini bilim va malakasini oshirib borish, ma'naviy – ahloqiy kompetensiyalarini rivojlantirish, ularni uslubiy-amaliy ho'llab-quvvatlash, mehnat faoliyatida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan vaziyatlar bo'yicha to'g'ri, oqilona va adolatli qaror qabul qilishiga sharoit yaratish orqali mahallada ish samaradorligi ortadi. Boshqaruvning eng quyi bo'g'inidagi mahalla raislarning o'z xizmat vazifasini yaxshi bilishi va shu asosda aholiga sifatli xizmat ko'rsatishi ta'minlanadi. Pirovard natijada aholining mahalla tizimidan, "yettilik" vakillaridan roziligi ortadi.

Iqtiboslar/Сноски/References

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 22 mart – mahalla tizimi xodimlari va faollari kuni munosabati bilan soha vakillariga tabrigi. // URL: https://president.uz/oz/lists/view/4250 (Greetings of the President of the Republic of Uzbekistan Shavkat Mirziyoyev to representatives of the field on March 22 - the day of employees and activists of the neighborhood system. // URL: https://president.uz/oz/lists/view/4250)
2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023, 03/23/837/0241-son // URL: https://lex.uz/docs/-6445145. (Constitution of the Republic of Uzbekistan, National Database of Legislative Information, 01.05.2023, No. 23.03.837/0241 // URL: https://lex.uz/docs/-6445145)
3. Qarshiyev E. O'zgarishlar nafasi har bir mahalla, kocha va honadonga kirib boryapti // Mahalla ko'zgusi. № 10/2024.– B.4-7 bet. (Karshiyev E. The breath of changes is entering every neighborhood, home and apartment // Mahalla kozgusi . – 2024. - No. 10/2024. – P. 4-7)
4. Raxmonkulov H.R. Fuqarolik huquqi muammolari (1-qism). Darslik. - Toshkent: TDYUI nashriyoti. 2010. -B. 65. (Rakhmankulov H.R. Civil Rights Issues (Part 1). Textbook. - Tashkent: TSLI publishing house. 2010. -P. 65.)
5. Mirziyoev Sh.M. Demokratik islohotlarni izchil davom ettirish. xalqimiz uchun tpnch va osoynshta. munosnb hayot darajasnnn yaratish - barqaror taraqqiyot kafolatidir. Tadbirkorlar va ishbnlarmonlar harakati - O'zbekiston Liberal Demokratik partiyasining 2016 yil 19 oktyabrdagi VIII s'ezdidagi ma'ruzasi. URL: https://president.uz/oz/lists/view/4605
6. O'zbekiston RespublikasiVazirlar Mahkamasining 2024 yil 15 martdagi 137-son qarori 2-ilovasi. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 16.03.2024 y., 09/24/137/0220-son (5. Appendix 2 of the Resolution No. 137 of the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan dated March 15, 2024. National database of legislative information, 16.03.2024, No. 09/24/137/0220)
7. Malikova G.R. Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish institutining konstitutsiyaviy huquqiy asoslarini takomillashtirish muammolari: Yurid. fan.dok.dissertatsiya.-Toshkent.2009.
8. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2013 y., 41-son, 546-modda. . (Collection of legal documents of the Republic of Uzbekistan, 2013, No. 41, Article 546.)
9. T.Tog'ayqulov, "Mahalla yettiligi" kasb malakasini oshirish davr talabi, // Mahalla ko'zgusi. № 10/2024.– B.14 - bet (8. T. Togaykulov, "Seven employes of Mahalla" period demand for professional qualification improvement // Mahalla kozgusi . – 2024. - No. 10/2024-P- 14

TYUTORLIK FAOLIYATIDA MADANIY TURIZM - ZAMONAVIY TA'LIMDA YANGICHA YONDASHUVLAR

Sariyeva E'tibor Matchanboyevna
Urganch innovatsion universiteti o'qituvchisi, etiborsariyeva@gmail.com,
ORCID:0009-0007-7196-640X

Annotatsiya. Hozirgi kunda ta'lim tizimi faqat bilim berish bilan cheklanmay, shaxsiy rivojlanish, madaniy ongni shakllantirish, ekologik vaijtimoiy mas'uliyatni oshirish kabi keng qamrovli vazifalarni o'z zimmasigaolmoqda. Zamonaviy ta'limning asosiy maqsadi - talabalarganafaqat ilmiy bilim, balki ma'naviy, madaniy vaaxloqiy qadriyatlarni ham o'rgatishdir. Bu jarayondamadaniy turizmning roli toboraortib bormoqda, chunki madaniy turizm talabalargao'z yurtining tarixiy vamadaniy boyliklarini o'rganish, xalqning an'anavaqadriyatlarini chuqur anglash imkonini beradi. Madaniy turizm, ayniqsa, tyutorlik faoliyatidatalabalarning shaxsiy rivojlanishi vamadaniy tarbiyasini oshirishdasamarali vositasifatidaxizmat qiladi. Ushbu maqoladatyutorlik faoliyatidamadaniy turizm orqali talabalarning nafaqat ilmiy, balki ma'naviy vamadaniy tarbiyasi samaradorligini oshirish haqidaso'z boradi.

Kalit so'zlar: Turizm, tarixiy va ziyoratgoh joylar, madaniy joylar, madaniy turizmni tahlil qilish, ma'naviy-ma'rifiy tarbiya, tanqidiy fikrlash, ijodkorlik vamuammolarni hal qilish ko'nikmasi.

КУЛЬТУРНЫЙ ТУРИЗМ В ТЬЮТОРСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ - НОВЫЕ ПОДХОДЫ В СОВРЕМЕННОМ ОБРАЗОВАНИИ

Аннотация. Сегодня система образования не ограничивается передачей знаний, но также берет на себя комплексные задачи, такие как личностное развитие, культурное сознание, экологическая и социальная ответственность. Основная цель современного образования – научить учащихся не только научным знаниям, но и духовным, культурным и нравственным ценностям. В этом процессе роль культурного туризма возрастает, поскольку культурный туризм позволяет студентам изучить исторические и культурные богатства своей страны, глубоко понять традиции и ценности народа. Культурный туризм, особенно в репетиторской деятельности, служит эффективным инструментом повышения личностного развития и культурного образования учащихся. В данной статье говорится о повышении эффективности не только академического, но и духовно-культурного воспитания студентов посредством культурного туризма в репетиторской деятельности.

Ключевые слова: туризм, исторические и паломнические места, культурные объекты, анализ культурного туризма, духовное и образовательное образование, критическое мышление, креативность и навыки решения проблем.

CULTURAL TOURISM IN TUTORING ACTIVITIES - NEW APPROACHES IN MODERN EDUCATION

Annotation. Nowadays, the education system is not limited to providing knowledge, but also takes on awide range of tasks, such as personal development, the formation of cultural awareness, and increasing environmental and social responsibility. The main goal of modern education is to teach students not only scientific knowledge, but also spiritual, cultural and ethical values. The role of cultural tourism in this process is increasingly increasing, because cultural tourism allows students to study the historical and cultural wealth of their country, to deeply understand the traditions and values of the people. Cultural tourism, especially in tutoring activities, serves as an effective tool for enhancing the personal development and cultural education of students. This

article discusses the effectiveness of tutoring in improving not only the academic, but also the spiritual and cultural education of students through cultural tourism.

Key words: Tourism, historical and pilgrimage sites, cultural sites, analysis of cultural tourism, spiritual and educational education, critical thinking, creativity and problem solving skills.

Kirish. Bugungi kundata'lim tizimi nafaqat bilim olishning manbai, balki insonni ma'naviy, axloqiy vaijtimoiy jihatdan shakllantirishdaham kattaahamiyatgaegabo'lib, yosh avlodning kelajakdagi faoliyatigata'sir ko'rsatadi. Oliy ta'lim muassasalari, zamonaviy dunyoning talablarigamos keladigan mutaxassislar tayyorlash, ilm-fan vatexnologiyalardagi yangiliklarni o'rgatish bilan birga, talabalarni har tomonlamayetuk shaxslar sifatidatarbiyalashdamuhim rol o'ynaydi. Ta'lim jarayonidafaqat bilim berish emas, balki talabalarni milliy vaumumbashariy qadriyatlar asosidama'naviy-axloqiy tarbiyalash, ulardaijtimoiy mas'uliyat, vatanparvarlik vainsonparvarlik hissini rivojlantirishgaham alohidae'tibor qaratiladi.

Oliy ta'lim tizimi o'z talabalarini nafaqat ilmiy jihatdan, balki ma'naviy va axloqiy nuqtai nazardan ham yetuk shaxslar qilib tarbiyalashni maqsad qiladi. Bu maqsadgaerishish uchun ta'lim muassasalari talabalargafaqat akademik bilimlarni emas, balki hayotdamuvaffaqiyatgaerishish uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarni, mas'uliyatni his qilish, samarali muloqot, qaror qabul qilish vaijodkorlikni rivojlantirishni o'rgatadi. Ta'lim tizimi talabalargajamiyatdagi o'z o'rnini anglash, ijtimoiy vamadaniy qadriyatlarni hurmat qilish, o'zgaruvchan dunyodamoslashuvchan bo'lish va-o'z oldigayuqori maqsadlar qo'yishni o'rgatadi. Talabalar, shuningdek, o'z kasbigabo'lgan ishtiyoq vamas'uliyatni, jamiyatgaqo'shadigan hissalarini anglashdayordam beradigan ta'limni olishadi. Bu orqali, ta'lim tizimi nafaqat oliy ta'lim sohasida mutaxassislar tayyorlashni, balki ularning o'zaro hamkorlik vamuvofiqlik, adolat vatenglik tamoyillariga asoslangan ma'naviy o'sishlarini ham ta'minlaydi[1]. Prezidentimiz o'rinli ta'kidlaganlaridek: «Mamlakatimizdaso'ngi yillardailm-fan vata'lim-tarbiyasohasini davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylantirishga qaratilgan, oiladafarzand tug'ilganidan boshlab, kamolot yoshiga yetgunga qadar uni har tomonlama qo'llab-quvvatlaydigan, hayotda munosib o'rin topishiga xizmat qiladigan yaxlit vauzluksiz tizim yaratilmoqda».

Adabiyotlar sharhi. 2021-yil oliy ta'lim muassasalaridatyutorlik faoliyati tizimini yo'lgaqo'yish, zamonaviy ta'limning eng dolzarb talablarigamos keladigan, talabalarni nafaqat bilim berish, balki ularning shaxsiy, ma'naviy vaijtimoiy rivojlanishigayo'naltirilgan yangi bir bosqichni boshlab berdi. Bu tizimning joriy qilinishi, oliy ta'lim muassasalaridatalabalargaindividual yordam ko'rsatish, ularning o'qish jarayonini samarali boshqarish, shuningdek, talabalarning shaxsiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlashgaqaratilgan. Tyutorlik faoliyatining asosiy maqsadi — talabaning akademik muvaffaqiyatini oshirish, ularning psixologik vaijtimoiy farovonligini yaxshilash, o'quv jarayonidayuzagakeladigan muammolarni hal qilish, shuningdek, ulargao'z kasbigabo'lgan muhabbatni shakllantirish vafidoyilik ruhini rivojlantirishdir. Mazkur lavozim egasi, tom ma'noda, talabani o'qitish tizimi bilan uzviy bog'lanishini ta'minlovchi, talabadao'quv jarayoni davomidao'z salohiyatini namoyon qilish, o'zini, o'zligini, intilishu dunyoqarashini teran anglash, o'z faoliyatini ongli ravishdanazorat qilish, xatti-harakatlarini tizimli boshqarish borasidato'g'ri qarorlar qabul qilaolish malakavako'nikmalarini rivojlantiruvchi shaxs sanaladi[2].

Tyutor - bu oliy ta'lim muassasasidafaoliyat yuritadigan, tegishli malakatalablarigajavob beradigan, yuksak axloqiy fazllatlargaegabo'lgan xodim bo'lib, o'zigabiriktirilgan guruh talabalarining ta'lim olishlarida, shuningdek, darsdan bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etishlaridako'maklashadi, ularni insonparvarlik, adolat, mehnatsevarlik, Vatangamuhabbat ruhidatarbiyalash, beshtamuhim tashabbus doirasidatashkil etilgan to'garak vaklublargajalb etish,

ta’lim olish jarayonidayuzagakeladigan barchamasalavamuammoni o‘rnatilgan tartibdabartaraf etishgaqaratilgan faoliyatni olib boradi.

Har qanday yangilik kabi bu yo‘nalishning ham kelib chiqish tarixi bor. Ko‘p manbalardata’kidlanishicha, dastlabki tyutorlar XII asrdaAngliyaning Oksford vaKembrij universitetlaridapaydo bo‘lgan. Atamaingliz tilidan olingan va‘‘uy o‘qituvchisi, o‘qituvchi, murabbiy, vasiy’’ degan ma’nolarni anglatadi. ‘‘Tyutorlik’’ so‘zi insonning shaxsiy ta’limini qo‘llab-quvvatlashni anglatadi. Bu judanozik, ‘‘xususiy’’ ish faoliyatidir. Rus tadqiqotchisi N.V.Ribalkinaning fikrigako‘ra, XVI asr oxirigakelib tyutor universitet ta’limi tizimidaqo‘l ostidagi talabalarning tarbiyasigamas’ul bo‘lgan muhim shaxsgaaylanadi. XVII asrdatyutor faoliyati ko‘lami yanadakengayib, endilikdaungata’lim berish vazifalari ham yuklanadi. U talabagaqaysi amaliy mashg‘ulot vama’ruzalargakirishni aniqlab beradi, talabalar darslarni qoldirmay yaxshi o‘qishlari vaimtihonlargatayyor bo‘lishlarini nazorat qilib boradi. XVII asrdan boshlab tyutorlik tizimi rasman ingliz oliy ta’limi tizimining ajralmas qismi sifatidatan olinaboshlagan[7].

Bugungi kun ma’lumotlarigaqaraganda, zamonaviy Oksfordda90 foiz, Kembrijdaesa75 foiz tyutorlar 1 yoki 2 talababilan ish olib boradi. Ular maxsus ma’lumotgaegabo‘lmasalarda, talabalargaham o‘qish davomida, ham ta’til paytidarahbarlik qilish, ma’nan ustozlik qilish kabi vazifalargamas’ul. Aniqrog‘i, tyutor ishining asosiy shakli talababilan individual vajamoadaishlash yoki ungata’lim-tarbiyamaslahatchisi bo‘lishdan iborat. Tyutorgayetakchilik, tashkilotchilik, tashabbuskorlik, intiluvchanlik, notiqlik mahorati, muloqatgakirishish, zamonaviy axborot-kommunikatsiyavainnovatsion pedagogik texnologiyalar bilan ishlash bo‘yichamalakagaegabo‘lish, ta’lim-tarbiyajarayonigadoir normativ-huquqiy hujjatlarni bilish kabi bir qator umumiy talablar qo‘yiladi.Ayni shundan zaruriy andozaolinib, davlatimiz bo‘ylab Oliy ta’lim muassasalaridaham tyutorlik vafasilitatorlik faoliyatigakeng e’tibor berilmoqda. Pedagogikayo‘nalishi bo‘yichata’lim olayotgan talabalargatyutorlik vafasilitatorlik haqidanazariy ma’umotlar berish vaushbu ma’lumotlarni keng usullardatushuntirish ulardamazkur faoliyatgabo‘lgan qiziqishni orttirishi bilan bir qatorda, keyinchalik bu faoliyat bilan shug‘ullanishlaridaham zamin bo‘ladi[9].

Mazmuni. Tyutor s**o‘**zi lotincha-tutorem s**o‘**zidan kelib chiqib, murabbiy vaustoz vazifasini bajaruvchi sanalsa, fasilitator esaingliz tilidafacilitator valotinchadafacilis-ya’ni yengil, qulay ma’nolarini anglatib, guruhlardagi faoliyat natijasini samarali baholash, muammoning ilmiy jihatdan yechimini topishgay**o‘**naltirish, guruhdagi kommunikatsiyani rivojlantirish singari vazifalarni bajaruvchi hisoblanadi. Shungak**o‘**ratyutorlik faoliyatidatalabalar shaxsiy rejasining muhim jihatlaridan biri, ularning ma’naviy vamadaniy tarbiyasini samarali oshirishgaqaratilgan tadbirlar bo‘lib, aynan **Vatan bo‘ylab unitilmas sayohat dasturi** bu maqsadning amalgaoshirilishidamuhim o‘rin tutadi. Ushbu sayohatlar, talabalarni faqat geografik hududlar bilan tanishtirish emas, balki ular orqali o‘quvchilarning madaniy, ijtimoiy vaekologik ongini shakllantirishga, milliy qadriyatlar vaan’analargabo‘lgan hurmatni kuchaytirishga, shuningdek, madaniy merosni asrash vaekologik madaniyatni rivojlantirishgaqaratilgan bir qator maqsadlarni amalgaoshiradi.

O‘zbekistonning madaniy tarixiy meroslarining ahamiyati katta. Mamlakatimizda ajdodlarimizdan qolgan madaniy tarixiy merosgae’tibor kuchaydi, tarixiy yodgorliklar davlat nazorati ostigaolindi. Istiqlol yillaridaBuxoro, Samarqand, Termiz, Xiva, Toshkent, Qo‘qon, Shahrisabz kabi shaharlardaulug‘ ajdodlarimizning yuksak iste’dodi bilan bunyod etilgan obidalar o‘zining haqiqiy qadr-qimmatini topdi, ularni ta’mirlash vaasl qiyofasiniobidalar o‘zining haqiqiy qadr-qimmatını topdı, ulamı ta’mirlash vaasl qiyofasini tiklash davlatimiz siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan birigaaylandi Toptalgan tariximiz, qutlug‘ qadamjolar, hatto nomlari ham unutilayotgan obidalar ta’mirlandi, qaytatiklandi Imom al- Buxoriy, Imom at-Termiziy, Abu Mansur al-Moturudiy, Ahmad al-Farg‘oniy. Burhoniddin al-Marg‘inoniy, Mahmud az-Zamaxshariy kabi ulug allomalarimizning

sha'nlarigamunosib yodgorlik majmualar yaratildi. Toshkent, Samarqand va Shahrisabzda sohibqiron Amir Temur, Toshkentda Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Urganchda Jaloliddin Manguberdi, Termizda Alpomish haykallari qad ko'tardi. Bugungi kunda mamlakatimizda yetti mingdan ortiq yodgorlik, shu jumladan, 2500 tame moriy obida, 2700 dan ortiq monumental san'atyodgorlik, shu jumladan, 2500 ta me'moriy obida, 2700 dan ortiq monumental san'at asari davlat muhofazasiga olingan. 1991- yildan Xivadagi Ichan qal'a qo'riqxonasidagi, 1993-yildan Buxoro shahri markazidagi, 2000 yildan Shahrisabz shahri markazidagi yodgorliklar YuNESKOning «Umumjahon madaniy merosi» ro'yxatiga kiritildi[10].

31. The Process of Measuring Academic Return on Investment (ROI): A Guide ...
32. Education & Economic Growth: The Catalyst for Prosperity - Collegenp
33. A Well-Educated Workforce Is Key to State Prosperity
34. How Education and Training Affect the Economy - Investopedia
35. Human Capital Theory: Education, Training, and Economic Returns
36. Education and the Economy: An Indicators Report - National Center for ...
37. Predictions For The Tech Job Market In 2025 - Forbes
38. 2024 In-Demand Technology Roles and Hiring Trends
39. The 10 Most In-Demand Skills In 2024 - Forbes
40. 2024 IT Job Market: Trends, Opportunities & Key Skills - The Job Blog
41. The 5 Most In-Demand, High-Paying Tech Skills Companies Want in 2025

XIX ASR OXIRI VA XX ASR BOSHLARIDA TURKISTONDA JADIDCHILIK MILLIY HARAKATI VUJUDGA KELISHINING TARIXIY BOSQICHLARI

Kutlimuratov Sardorbek Rustamovich
Urganch davlat pedagogika instituti Milliy g‘oya va falsafa kafedrasi katta o‘qituvchisi, sardorbekrustamovich7788@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada XIX asr oxiri, XX asr boshlarida buxorolik ma’rifatparvar olimlar ta’sirida yangi milliy g‘oya - jadidchilik harakatining paydo bo‘lishi, Chor rossiyasida musulmon turkiy xalqlar orasida Volga-Ural, Qirim, Ozarboyjon, Turkiston, Xiva xonligi va Buxoro amirligida boshlangan jadidchilik milliy harakatlarining manba’i, tug‘ilishi, bosqichlari, hamda bosh q’oya va maqsadlari haqida ma’lumot beriladi. Maqolada jadidchilik harakatining asosiy g‘oyalari birinchi martaba tasnif qilinib, izohlanadi.

Kalit so‘zlar. Jadid, Jadidchilik, ma’rifatchilik, milliy o‘zlik, huquqiy tenglik, adolat milliy istiqlol, milliy davlatchilik, mustaqillik, Bog‘chasaroy. Jadid maktabi.

ИСТОРИЧЕСКИЕ ЭТАПЫ СТАНОВЛЕНИЯ ДЖАДИДСКОГО НАЦИОНАЛЬНОГО ДВИЖЕНИЯ В ТУРКЕСТАНЕ В КОНЦЕ XIX – НАЧАЛЕ XX ВЕКОВ

Аннотация. В статье рассматривается возникновение новой национальной идеи — движения джадидов — под влиянием бухарских просветителей в конце XIX — начале XX вв., а также возникновение мусульманского движения у тюркских народов Волго-Уралья, Крыма, Азербайджана, Туркестана. Хивинское ханство и Бухара в царской России. Приведены сведения об истоках, зарождении, этапах, основных идеях и целях джадидского национального движения, начавшегося в эмирате. В статье сначала классифицируются и объясняются основные идеи движения джадидов.

Ключевые слова. Джадид, джадидизм, просвещение, национальная идентичность, правовое равенство, справедливость, национальная независимость, национальная государственность, независимость, Багчасарай. Школа джадидов.

HISTORICAL STAGES OF THE FORMATION OF THE JADIDIST NATIONAL MOVEMENT IN TURKESTAN AT THE END OF THE 19TH AND EARLY 20TH CENTURIES

Abstract. This article provides information about the emergence of a new national idea - the Jadid movement - under the influence of Bukhara enlightened scholars in the late 19th and early 20th centuries, the source, birth, stages, and main ideas and goals of the Jadid national movements that began among the Muslim Turkic peoples in Tsarist Russia in the Volga-Urals, Crimea, Azerbaijan, Turkestan, the Khiva Khanate and the Bukhara Emirate. The article first classifies and explains the main ideas of the Jadid movement.

Keywords: Jadid, Jadidism, enlightenment, national identity, legal equality, justice, national independence, national statehood, independence, Baghchasaroy. Jadid school.

Kirish. Biz bugun mamlakatimizda erkin fuqarolik jamiyati, huquqiy demokratik davlat barpo etar ekanmiz, jadid bobolarimizning gumanistik qarashlariga tayanamiz, ularning merosidan ma’naviy kuch-quvvat olamiz.

Turkiston jadidchilari qoldirgan chuqur meros va jadidchilik harakatining tarixiy ahamiyatini katta sharaf bilan o‘rganamiz. Jadidlar buyuk o‘zgarishlar davrida nafaqat o‘z davrining dolzarb

muammolariga javob bergan, balki yangilangan milliy o‘zlikni anglash uchun asos solgan ko‘ngillilar edi. Ularning ta’lim, madaniyatni boyitish va ijtimoiy islohotlarga bo‘lgan fidoyiligi O‘zbekistonning zamonaviy taraqqiyotiga qo‘shgan hissasi haqida fikr yuritar ekanmiz, bularning barchasi bizni ilhomlantirishda davom etadi.

Turkiston mintaqasidagi jadidchilik harakati o‘ziga xos milliy xususiyatlarga ega bo‘lib, u bir tarafdan, XIX-XX asrlar oralig‘ida butun dunyoda sodir bo‘layotgan ulkan taraqqiyot va o‘zgarishlar, ikkinchi tarafdan, turkiy va musulmon xalqlari yashayotgan Rossiya imperiyasi tarkibidagi Qrim, Volgabo‘yi, Kavkaz va Turkistondagi og‘ir siyosiy, ijtimioiy va madaniy muammolar ta’sirida XIX asr oxiri va XX asr boshlarida vujudga kelgan o‘ta muhim ijtimoiy, siyosiy, madaniy, ma’rifiy hamda tom ma’noda milliy uyg‘onish va yangilanish borasidagi demokratik harakatdir [1].

Adabiyotlar sharhi. Jadidchilik harakatining asosiy g‘oyalari tahlilidan avval mazkur milliy harakatning Turkistonda vujudga kelishi va keng yoyilishiga sabab bo‘lgan XVIII-XX asrlar oralig‘ida yuz bergan jahondagi muhim voqealar, progressiv jarayonlar va o‘zgarishlarga nazar solish maqsadga muvofiqdir. XVIII-XX asrlar oralig‘ida dunyoda sodir bo‘lgan muhim o‘zgarishlarni tizimlashtirish orqali quyidagi bosqichlarga bo‘lish mumkin:

1. Sanoat inqilobi;
2. Emansipatsiya,
3. Mustamlakachilik va unga qarshi kurash;
4. Imperiyalar o‘rniga milliy davlatlarning tuzulishi
5. Modernizm, modernizatsiya;
6. Ilmiy-texnologik inqilob.

XVIII-XX asrlarda Turkistonda ham mazkur o‘zgarishlarni kuzatamiz. O‘zbek xonliklari (Qo‘qon xonligi, Xorazm xonligi hamda Buxoro amirligi) va Markaziy Osiyodagi boshqa hududlar 1853-1895 yillar oralig‘ida Chor Rossiyasi tomonidan bosib olindi. Natijada Qo‘qon xonligi tugatildi (1876), Buxoro amirligi va Xorazm xonligi ustidan Rossiya imperiyasi protektorati o‘rnatildi, ya’ni yarim mustamlakaga aylantirildi. 1867 yilda Buxoro amirligi va Xorazm xonligi tashqarisidagi çanubiy Turkiston yerlari Rossiya imperiyasi tarkibidagi Turkiston general-gubernatorligi, uning shimolidagi Turkiston yerlari (hozirgi Qozog‘iston hududi)da esa 1882 yilda Dasht (qozoq tilida Dala) general-gubernatorligi tuzildi [2].

Shuni alohida ta’kidlab o‘tish joizki, XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Rossiya imperiyasi hududidagi musulmon xalqlari orasida keng yoyilgan jadidchilik harakati, XIX asr o‘rtalaridan butun Musulmon dunyosida G‘arb mustamlakachiligiga javob (reaction) o‘laroq yuz bergan “islom modernizmi” harakatining bir qismi sifatida tarix maydoniga chiqadi.

Alohida ta’kidlash joizki, Turkistonda jadidchilik harakatining keng yoyilishiga hamda ularning ma’rifatchilik g‘oyalarining shakllanishida tashqi ta’sirlar bilan bir qatorda XVIII asr oxiridan XIX asr oxirigacha faoliyat olib borgan Munis, Ogahiy, Maxtumquli, Muqimiy, Furqat, Abay Qunonboyog‘li, Ahmad Donish kabi Markaziy Osiyolik ma’rifatparvarlarning ilmiy va adabiy merosi katta rol o‘ynagan.

Mazmuni. XX asr boshlarida O‘rta Osiyo hududida milliy ozodlik harakatining rivojlanishi kuzatila boshlandi. Shu bilan birga xalqning yashash sharoitlarini yaxshilash, chet el davlatlarining illor tajribalaridan foydalanish asosiy maqsad qilib qo‘yildi. Ushbu davrda O‘rta Osiyo hududida xonliklar asoratining mavjudligi va shu asorat yordamida milliy mafkuraning istiqlol g‘oyalari bilan boyitilishi jadidlar faoliyatining asosini tashkil etadi. Jadidlar ozodlikka erishishning yagona yo‘li sifatida milliy ongni o‘stirish hamda ushbu vazifaning bajarilishida “Usuli savtiya” yangi usul maktablarining ochilishi bilan belgilaydilar. Turkiston, Samarqand, Buxoro va Xiva kabi shaharlarda dastlabki yangi usul maktablarining ochilishi, keyinchalik esa Tarbiyayi atvol maxfiy majimiyatining

ochilishi ham o‘z davrining ahamiyatli boqealaridan biridir. Xiva xonligi hokimiyatida faoliyat yuritib keluvchi mas’ul shaxslar faqatgina madrasada emas balki, yangi usul maktablarida ham tahsil lozim ekanligi oshkora haqiqatlarga aylangach, xon huzurida faoliyat yurituvchi dodxoh, parvonachi, Qozi kalon kabi mansab egalarining ham e’tiborini torishiga olib keldi. Jamiyat va millatning keng tarzda farovonlikka yuz tutishida adabiyot va badiiy asarlar, drammalar, teatr truppalarining o‘rni katta bo‘lib, ochiqdan-ochiq oina bo‘lib xizmat qilar edi [3]. Shuning uchun ham o‘sha davr muhiti, tarixiy haqiqatlari, xonliklar yurishlari, ijtimoiy siyosiy tuzum, milliy ozodlik harakati ruhinining o‘sha davr muhitida yaratilgan asarlarida ham sezilib turadi. “Amerikalik olim Edvard Olvortning fikricha, o‘sha davrda yaratilgan boshqa dramalar Behbudiyning “Padarkush”i kabi muvafaqqiyatli chiqmagan. Asar diologlaridagi ayrim detallar muallif fikrini ifodalashda kalit vazifasini bajaradi”.

Rustam Sharipovnong “Turkiston Jadidchilik harakati tarixidan” nomli asarida jadidchilik harakatlarining geosiyosiy ahamiyati, milliy ozodlik yo‘lida amalga oshirilgan turli pedogogik islohotlar, o‘tgan davr siyosiy masalalarining ham tub mohiyatini yechishda, o‘rganib tahlil etishda ham o‘ziga xos manba bplib xizmat qiladi. Jadidlarning amaliyotiga tarixiy jihatdan nazariyalar bilan yondashish “O‘zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti”, “Siyosiy-huquqiy ta’limotlar tarixi” kabi sohaviy yo‘nalishlarning keng tarzda tatbiq etilishida jadidlar faoliyatining siyosiy ahamiyati, milliy ozodlik harakati yo‘lidagi pedogogik islohotlari katta manba bo‘lib xizmat qildi [4]. Jadidlarning amalga oshirishi lozim bo‘lgan ishlar konsepsiyasi rasmiy jihatdan mavjud bo‘lmasada g‘oyaviy maqsad bitta edi”. Bosh maqsad Turkiston hududida mustaqil davlat tuzish bo‘lib, quyidagicha vazifalar mavjud edi. Ular:-jamiyatning mustaqilligiga erishish. Ushbu yo‘lda milliy ozodlik harakatlari faollarining mavjud barpo etiladigan davlat boshqaruvini ta’minlash;-Turkistonning mustaqil demkokratik zaminga aylanishida islohotlarning davomiy o‘tkazilishi;-maorif va san’at sohalarining rivojlanishi, ta’limiy maqsadlarning amaliyotini ta’minlash va boshqalar. Bilamizki, o‘tgan asrning 20-yillarida jadidlar faoliyatiga nisbatan qiziqish, tahliliy fikrlar nazariyalar kuchaya bordi.

Jadidlarning ayni islohotlarining tub mohiyati milliy mustaqillik bo‘ladigan bo‘lsa, ayni shu masalaning yechimi sifatida milliy va chet tillarini yaxshi bilish deya qaralgan. Shu tarzda asrimiz boshlarida jadidlar va jadidchilik harakati yuzaga keldi. Turkiston xalqining boy ijtimoiy-falsafiy, diniy-axloqiy, madaniy taraqqiyotida XIX asrning birinchi choragidagi davr o‘zining nihoyatda sermazmun va inqilobiy suronliligi, g‘oyaviy-nazariy va mafkuraviy harakat shakllarining xilma-xilligi bilan ajralib turadi. Bu holat ijtimoiy taraqqiyotning o‘ziga xos yo‘nalishi edi. Turkiston XIX asrning ikkinchi yarmida Rossiya tomonidan bosib olindi va mustamlakaga aylantirildi. Jadidchilikning asosiy g‘oya va maqsadlari Turkistonni o‘rta asrchilik, feodal qoloqlik, xurofotlardan ozod qilish, “Usuli qadim” ni inkor etgan holda o‘lkani, xalqni, millatni zamonaviy taraqqiy yo‘lga olib chiqish, milliy davlat bunyod etish, konstitutsion, parlament va prezident idora usulidagi ozod va farovon jamiyat ko‘rish, turkiy tillarga davlat tili maqomini berish, milliy pul birligi, milliy qushin tuzish rus taraqqiyparvarlari, ma’rifatchilarining Turkiston o‘lkasida ma’rifatparvarlik g‘oyalarini tarqatish uchun imkoniyatlar yaratish edi. Demak, Turkistonda jadidchilik harakatining vujudga kelishi asta-sekin bo‘lsada milliy ozodlik mafkurasiga asoslanib bordi. Bu jarayon o‘lkadagi maxalliy xalqning ongiga o‘z ta’sirini o‘tkaza boshladi. Natijada ular Turkistonda mustaqillik, milliy taraqqiyot uchun, xalqning manfaatlari uchun kurash olib borishga milliy-ozodlik harakati uchun zamin tayyorlashga muvaffak bo‘ldilar. Yerli xalqlar orasida mustamlakachilikka qarshi ma’rifatchilik g‘oyalari tarkala boshladi, yangi ta’lim-tarbiya shaxobchalari, yangi maktab, maorif, madaniy targibot, jadidchilik harakati rivoj topdi [5].

Jadid ziyolilari uchun eski usuldagi maktablarni isloh etish, badiiy adabiyotni yangi o‘zanga solish, teatr sahnasidan ibratxona o‘rnida foydalanish naqadar muhim bo‘lsa, milliy matbuot

tashkili va taraqqiysi ham shu darajada ahamiyatli edi. Samarqandlik jadid muharriri Hoji Muin ta'kidlaydi: "Matbuot bir millatni uyg'otish uchun birinchi omil bo'lg'onidek, uning tarixi ham "uyg'onish davri" tarixining muhim bir bo'lagi sanaladur". Darhaqiqat, matbuot o'zbek jadidchilik davri tarixida juda muhim o'rin tutadi.

"Haqiqat ochib so'zlashdadir" tamoyiliga asoslangan jadid matbuotidagi haq so'zning, haqiqat siyoqining kundalik hayotga, odamlarga, jamiyatga ta'siri kuchli bo'ldi. Vaqtli matbuot odamlarning ijtimoiy hayotiga faol aralashmog'i va dunyodan boxabar bo'lmog'i uchun zaruratga aylandi. Boshlab gazetalar oyda bir bora bazo'r chiqdi; asta-asta haftalik va kunlik nashrlar shiddat bilan odamlar orasiga kirib bordi; sahifalaridagi maqola va ma'lumotlar ma'naviy ehtiyoj tusini oldi.

Darahaqiqat, millat ma'naviyatini isloh etish, odamlarni ma'rifatli qilish, olamga ochiq nazar bilan boqishga o'rgatish va lohas-mudroq tafakkurni uyg'otishning eng asosiy omili sifatida jadid muharrirlari matbuotning qadrini baland ko'tardi. Matbuot ular nazdida fikrlar tilmochi, millat va el-yurt rivoji yo'lida xizmatchi, odamlar ongu shuurining quyoshi, har kimning vijdoniga tutilgan ko'zgu bo'lmog'i lozim edi. "Ulfat" ko'ngillar birligidan so'z ochishi, "sado"lar ma'rifat va ma'naviyat, odobiyot va adabiyotning ovozi bo'lishi kerak edi. Gazeta va jurnallar nomi shu ezgu niyatlarga moslab tanlandi [6].

Turkistonlik ziyolilar o'zlari gazeta chiqargunga qadar bir muddat Qrimga – Boqchasaroyga ko'z tikishdi. Ismoilbek Gasprinskiyning "Tilda, fikrda, ishda birlik" degan g'oyalariga havaslanib qarashdi. Jadidlar shu allomaning "Tarjimon" (1883-1914) gazetasini o'qib, uning muxlisi va muhibiga aylanishdi. Gazeta til va fikr birligi masalasini kun tartibiga qo'ydi, uning yo'li, maslagi va maqsadi aniq edi: "Tarjimon" - har turli ish, ahvol va ixtilofga "haqqoniyat"va "mumkiniyat" jihatidan boqajakdir. "Tarjimon" tavhidi lison, tavhidi afkor va maorifi milliya masalalarida g'ayrati doimiyda bo'lajakdirTurkiston ziyolilari "Tarjimon"dan juda mamnun bo'ladilar. Deylik, shu mamnuniyatni toshkentlik shoir Karimbek Kamiy "Mo'tabar "Tarjumon" va "Ismoilbek Gasprinskiy janoblari haqqinda" degan she'rida izhor etdi. Unda gazetaning barchaga manzuru maqbul ekani, undan o'quvchi "hilmu odobu maoshu ilmu fan" o'rganishi mumkinligini ta'kidlab:

"Har hurufi gul kabi, har nuqtasi g'uncha misol,
Xush tamosho istayanlarg'a guliston "Tarjimon",

deb yozdi. Ziyo Said jurnalning maqsadi islom millatining saodati va islohi, musulmonlarning madaniyati va zamonaviy fanlardan foydalanishlari yo'lida xizmat qilishini yozar ekan, Behbudiyning "tavahhudi lisoniya" (turkiy tillarni birlashtirish) tarafdori ekaniga urg'u beradi. Bu g'oyaning ildizi ham "Tarjimon"ga borib taqaladi, albatta. "Oyina" jurnali o'z vaqtida juda yuksak bir obro'ga ega bo'ldi, har bir o'quvchining dildoshiga aylandi. Mahmudxo'ja Behbudiyning "Oyina" jurnali xuddi "Tarjimon"dek ulkan va olamshumul bir missiyani ado qildi: ma'rifat tarqatdi, odamlarni fikr tarbiyasiga o'rgatdi; yangi paydo bo'lgan matbuot nashrlarini targ'ib-tashviq qildi. "Sadoi Turkiston" va "Sadoi Farg'ona" gazetalarini "Turonning egizak farzandlari" deb atar ekan, gazetxonlarga shu nashrlarni o'qish va ularga obuna bo'lishni tavsiya etadi: "Millatg'a iona va olib o'qumoqlarini ojizona tavsiya etarmiz, chunki matbuot chirog' va niholdek bo'lub, anga yog' va suv berib tarbiyat qilmaguncha, ma'zolloh, so'nub qurumog'i tabiiydur" [7].

O'zbekiston matbuoti tarixida jadid ziyolilari nashr qilgan gazeta va jurnallar son-sanog'i ko'p. Bir marta chiqib to'xtaganlari ham bor. Ularning ba'zilari o'z yo'l-yo'rig'iga ko'ra jiddiy farqlanadi ham. Garchand o'zaro qarama-qarshi kayfiyatda bahslashadiganlari bo'lsa ham, ular oldiga qo'ygan maqsadlari nihoyatda ulug', niyatlari ezgu, qarashlar aniq va tiniq edi. Millatni uyg'otishdek ulkan vazifa ijrosiga bel bog'lagan edi jadidlar va ularning maktabi, maorifi, teatri, adabiyoti va matbuoti.

Muhim bir fikr shuki, davriy nashrlar qaysidir ma'noda ijtimoiy hayotdagi o'zgarishlar tarixi

bilan uyg‘un-hamqadam edi. O‘zgarishlar, yangilanishlar gazeta va jurnallarda aks etdi. Yoki shu o‘zgarishlarga mos yangidan yangi matbuot nashrlari vujudga keldi. Shunga ko‘ra, 1917-yilgi fevral o‘zgarishi, Turkiston Muxtoriyati, oktyabr inqilobi kabi voqea-hodisalar munosabati bilan “Najot”, “Turon”, “Kengash”, “Ulug‘ Turkiston”, “Yurt”, “Hurriyat” kabi nashrlar maydonga keldi. “Yashasin, Turkiston muxtoriyati!” shiorlarini o‘rtaga tashlab, ozodlik va hurriyatdan, tenglik va adolatdan so‘z ochdi. Darhaqiqat, millatparvarlar nazdida matbuot millat ma’naviyatini yuksaltirishi, ufqlari sari parvozga tayyorlashi lozim edi. Matbuot ma’naviyat qanoti edi.

Natijalar. Jadidlar chorizmning mustamlaka siyosati strategiyasiga jiddiy zaiflantiruvchi o‘zgarishlar qilishga majbur etuvchi vatanparvar siyosiy kuch sifatida 19-asr oxiri - 20-asr boshlaridan tarix sahnasiga chiqa boshlaganlar. Jadidlar Turkistonda 19- asr oxirida paydo bo‘lgan ilg‘or usullarni yoqlagan ma’rifatparvarlargina bo‘lib qolmay, ayni damda turkiy-islomiy huquqiy merosning millat ichida keng yoyilishi, xurfikrlilik, taraqqiyot va milliy istiqlol uchun ham kurashni maqsad qilib qo‘ygan edi. Chor mustamlakachilari O‘rta Osiyoda ochilgan yangi usul maktablariga qarshi kurash boshlaydi, bu maktablarni “islomiyatga qarshi”, “g‘ayridin maktablari” deb tashviqot yurgizadilar, josuslik idoralarini ishga soladilar, hatto Buxoro amiriga va Xiva xoniga ham kuchli tazyiq o‘tkazganlar. Ahvol shu darajaga borib yetganki, bu masala bilan bog‘liq ko‘plab qurbonlar yuz beradi. Chor ma’murlari islom diniga ham qarshi kurashni kuchaytirib yuboradilar. Hattoki, 1903-yili podsho Turkiston aholisi uchun muborak Haj qilishni ham farmon bilan man etib qo‘yadi. Bu mahalliy musulmon aholisida kuchli norozilik uyg‘otgan. 1905-yilgi to‘ntarish harakatidan keyin Rossiya hududidagi turkiy xalqlar va ularning Turkiya bilan qardoshlik aloqasi kuchaydi. O‘z davrida Turk dunyosi markazlaridan biri bo‘lgan Qrim, Qozon, Istanbulda chop etilgan jadidchilik ruhidagi adabiyotlar Turkistonga ham keng yoyila boshlandi.

1908-yil “Buxoroi sharif shirkati” tuzilib, darsliklar nashr etish va kitob savdosi bilan shug‘ullandi. Ushbu insonlar shirkatning tashkilotchilari edi:

- Ahmadjon Hamdiy (Abusaidov)
- Usmonxo‘ja Po‘latxo‘jayev (Usmon Xo‘ja)
- Homidxo‘ja Mehriy, Abdulvohid Burhonov
- Abdulqodir Muhiddinov, Sadriddin Ayniy
- Abdurahmon Sa’diy.

1909-yil dekabrda jadidlar Buxoroda «Tarbiyai atfol» («Bolalar tarbiyasi») maxfiy jamiyatini tuzishdi (asoschilari: Abdulvohid Burhonov, Homidxo‘ja Mehriy, Ahmadjon Hamdiy, Mukammil Burhonov, Hoji Rafe). Bu jamiyat turkistonlik va buxorolik yoshlarni Istanbuldagi «Buxoro ta’mimi maorif jamiyati» bo‘limiga o‘qishga jo‘natdi. Xorijdagi ta’lim yoshlar dunyoqarashida tubdan burilish yasadi. Jadidchilik Buxoro va Turkistonda bir vaqtda boshlangan bo‘lsa ham, amirlikdagi og‘ir muhit uning taraqqiyotini tezlashtirdi. 1910-yildan boshlab Buxoroda jadidchilik harakati tashkiliy tus oldi va «Tarbiyai atfol» maxfiy jamiyati asosida partiya tashkil topdi [8].

20-asr boshlarida Xivada shakllangan jadidchilik bir qadar boshqacharoq tarixiy shart-sharoitda vujudga keldi. U bu yerda asosan ikkita oqimdan iborat edi. Uning o‘ng oqimi xonlikda rivojlanayotgan savdo-sanoat korxonalari egalari hamda yirik boylarning vakillarini o‘ziga birlashtirgan edi. Bu oqimga Xiva xoni Asfandiyorxonning bosh vaziri Islomxo‘ja boshchilik qilgan. Jadidchilikning o‘ng oqimi o‘z oldiga mamlakatda xon hokimiyatini saqlab qolgan holda ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar o‘tkazish orqali erkin bozor munosabatlarining rivojlanishiga keng yo‘l ochib berishni maqsad qilib qo‘ygan edi.

Xivada jadidchilikning so‘l oqimi esa mayda sarmoyadorlar, hunarmandlar va xalqning turli tabaqa vakillarini birlashtirgan bo‘lib, qozikalon Bobooxun Salimov uning rahbari edi. Ular Xiva xonligida yangi usul maktablari tashkil qilish orqali xalq ommasining siyosiy faolligini o‘stirish

maqsadini qo‘yishgan edi. 1904-yil «jamiyati xayriya» tuzilib, uning ko‘magi bilan Xiva shahrida dastlabki yangi usul maktabi ochildi (1904-yil 10-noyabrda). Xiva jadidlari ma’rifiy ishlar bilan kifoyalanib qolmasdan, xon tuzumiga qarshi kurash ham olib bordilar. Birinchi jahon urushigacha Xiva jadidlarining yagona markazi va dasturiy hujjatlari bo‘lmagan. Biroq jadidchilik harakati Xiva xonligida katta ijtimoiy-siyosiy kuchga aylanib, 1914-yil avgustda u partiya shaklini olgan.

Matbuot millat dilidagi gaplarni o‘z sahifalariga ko‘chirish bilan kifoyalanmay, qanday ishlarni birinchi navbatda amalga oshirish masalasini o‘rtaga qo‘ydi. 1909-yilda Toshkent yosh ziyolilari tomonidan “Jamiyati xayriya” tashkil etildi. Mahalliy yoshlardan davlat mahkamalarida, sanoat, tijorat sohasida ishlaydigan mutaxassislar tayyorlash, kambag‘al musulmonlarga madaniy-ma’naviy yordam ko‘rsatish masalasi qo‘yildi. Bu millatning boshqa xalqlar ichiga singib ketmasligi yo‘lida ko‘rilgan tadbirlar edi [9].

Bu davrda jadidlar ijtimoiy-siyosiy kuch sifatida ko‘rindilar. Xalq ularda o‘z himoyachilarini his etdi. Sirdaryo viloyatidan Peterburgda o‘tadigan Davlat dumasiga a’zolikka saylangan Abduvohidqori Abduraufqoriyevga Toshkent, Chimkent va boshqa joylarning aholisidan 12 moddadan iborat talabnomani Davlat dumasiga topshirish yuklandi. Bu hujjatda ko‘pgina ijtimoiy talablar ko‘rsatilgan edi. Abduvohidqori 1907-yil 20-fevral-3-iyunda Peterburgda Sadri Maqsudiy, Muso Jorilloh, Alimardon To‘pchiboshev kabi musulmon ziyolilari bilan tanishib, musulmon fraksiyasining raisi Biglovga Turkiston xalqi dardini yetkazdi. Biroq Abduvohidqori, oradan ko‘p o‘tmay, qamoqqa olindi va Tulaga surgun qilindi.Shu tarzda, jadidchilik harakati 1906-1916-yillarda o‘zining asosiy yo‘lini belgilab oldi.

Olingan natijalarning ishonchliligi. Jadid matbuoti o‘z vakillarining fikrlarini e’lon qilar ekan, xalqni «har vaqt g‘aflat uyqusidan uyg‘otuvchi millat ongining ochqichi“ ekanligini namoyon etish bilan birga Turkiston xalqini hur fikrlashga va katta siyosiy kurashga hozirlay oldi. Bu davrda “Erk”, “Turon”, “O‘qituvchilar jamiyati” kabi uyushmalar paydo bo‘ldi. Ularning 1916-yil mardikorlikka olish voqeasiga munosabati g‘oyatda e’tiborga molikdir. Mardikorlikka olish - Birinchi jahon urushi ketayotgan joylardagi ishlarga turkistonliklarni jalb qilish oq podshoning 1916-yil 25-iyun farmoniga muvofiq amalga oshirildi. Bu kutilmagan tadbir, birinchidan, 1865-yil shartnomasiga zid edi. Ikkinchidan, general Aleksey Kuropatkinning xulosasiga qaraganda, “Aholi va ma’muriyat turar joydan tashqaridagi ishlarga mutlaqo tayyorlanmagan va bunday shoshilinch amalga oshirilgan tadbir og‘ir tartibsizliklarni keltirib chiqargan”. Aholi uchun ana shunday musibatli paytda jadidlarning ko‘zga ko‘ringan namoyandalaridan Ubaydullaxo‘ja Asadullaxo‘jayev (“Turkiston mardikorlikka olish qo‘mitasi” raisi) va millatparvar boy Mirkomilboy Mirmo‘minboyev Rossiya jamoatchiligining e’tiborini bu masalaga jalb etish, farmonni bekor qildirish uchun Peterburgga yo‘l oldilar. Davlat dumasining 1916-yil 13 va 15-dekabr kunlari o‘tgan majlisida Nikolay IIning 25-iyundagi farmoni Rossiya imperiyasining qonunchiligida ko‘rsatilgan hollarga zid ravishda qabul qilingani tan olindi. Farmon Dumada muhokama qilingunga qadar iyun-avgust oylarida jadidlar harakati orqali bir necha eshelon to‘xtatib qolindi. Jadidlarning mardikorlarni qaytarishga urinishlari 1917-yil fevral inqilobi boshlanishi bilan to‘la amalga oshdi. Bu hodisa el orasida ularning obro‘sini ko‘tardi. Mazkur holat jadidlar ma’rifatparvarlikdan siyosiy kurashga allaqachon o‘tganliklarini bildirar edi [10].

Rus akademigi V.V.Bartoldning yozishicha: “Erli aholi ruslar bilan yaqinlashishi, rus tilini o‘rganishi natijasida rus hayotining asosan tashqi, salbiy tomonlarini o‘zlashtirdilar. Fahsh hayot kechirishga, vino, pivo ichishga o‘rgandilar. Hatto ulamolar, din ahllari ham shunday yaramas hayot kechira boshladilar”. Jadidlar ana shu axloqiy tanazzulning oldini olishga jiddu jahd qildilar. Afsuski, o‘sha zamondagi tarixiy vaziyat bunga yo‘l bermadi. Biroq ma’rifatparvar jadidlarning millat va milliyat borasida urgan bonglari fikri ochiq ziyolilarimizni hanuz ogohlikka, Vatan va millat

taraqqiysi yo‘lida birdamlikka da’vat etib kelayotir.

Xulosa. Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, Mustaqillik sharofati bilan tarixga, ma’naviy qadriyatlarga, o‘tmish mutafakkir va xalqimizning boy ma’naviy-madaniy merosiga munosabat o‘zgardi. Tarix sahifalaridan o‘chirib tashlangan qancha-qancha allomalarning nomlari tiklanmoqda va abadiylashtirilmoqda. Jadidchilik harakatini bunga misol sifatida ko‘rsatish mumkin. Jadidchilik yirik va yaxlit ijtimoiy-tarixiy hodisa sifatida Kavkaz, Rossiya, Turkiya va O‘rta Osiyo musulmonlari orasida keng tarqaldi. U ijtimoiy-siyosiy sohalarda jahon sivilizatsiyasi qo‘lga kiritgan yutuqlardan xalqni bahramand bo‘lishga chaqirdi, feodal va milliy cheklanishlar, ma’naviy tanazzullar sababini ochiq-oydin xalqqa tushuntirishga harakat qildi. Shu bois, jadidlarning boy merosini har tomonlama xolisona o‘rganish dolzarb masalalardan biridir. Zero, yurtboshimiz Sh.Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “Vatanimiz ozodligi va xalqimiz baxt-saodati yo‘lida jonini fido qilgan jadidlarning ilmiy-ma’rifiy, adabiy-badiiy merosi biz uchun bugun ham beqiyos ahamiyatga ega”. “Jadidchilikning fenomeni shundaki, - deb yozadi professor D.A.Alimova, - keyingi uch asr ichida bu oqim birinchi bo‘lib milliy davlatchilik qurishga urindi, yagona mustaqil Turkiston uchun kurashdi va milliy mustaqillik g‘oyasiga asos soldi, uyqudagi Sharqni uyg‘onishga va harakatlanishga, ozodlik, milliy g‘urur, o‘z buyuk ajdodlari, boy madaniyati va, umuman, mustamlaka tuzumining tazyiqi ostida unutilgan barcha qadriyatlarini xotirlashga undadi. Jadidlar ta’limoti – o‘z zamonasining haqiqiy ta’limoti edi [11]. Chunki u nafaqat taraqqiyparvar shaxslar, balki fikrlovchi yoshlarni, shuningdek, barcha taraqqiyparvar ziyolilarni o‘z ketidan ergashtira oldi. Ularning faoliyati va dasturi kelajak uchun namuna bo‘ldi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Polvonniyoz Hoji Yusupov. Yosh xivaliklar tarixi (Xotiralar). – Urganch.1999.
2. Bobojonov, X. “Xiva xonligi tarixi.” – Toshkent: Fan nashriyoti, 2005.
3. Ibragimov, H. O‘zbekiston ma’rifatparvarlari.– Toshkent: Yangi asr avlodi, 2003.
4. To‘raqulov, N. “Xiva xonligi va jadidchilik harakati.” – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2015.
5. Olimov, M. “O‘rta Osiyoda jadidchilik harakati va uning ijtimoiy-siyosiy ahamiyati.” – Toshkent: Sharq, 1999.
6. Jadidchilik: isloxot, yangilanish, mustaqillik va taraqqiyot uchun kurash. – Toshkent: “Universitet, 1999. – B.13.
7. “Sharq yulduzi”, 1992, № 10 - son.
8. Jadidchilik: isloxot, yangilanish, mustaqillik va taraqqiyot uchun kurash. – Toshkent: “Universitet”, 1999. – B. 17.
9. Niyozov, S. “Jadidchilik va ta’lim islohotlari.” – Toshkent: Ma’naviyat, 2012.
10. Rahimov, B. “Xiva jadidlari va ularning ma’rifiy islohotlari”. – Urganch: 2010.
11. Toshqulov J. Yosh xivaliklar: siyosiy qarashlarining tadrijiy rivojlanishi// Xalq va demokratiya, 1992,3-4-son.

BIATLONCHILARNING JISMONIY TAYYORGARLIGINI RIVOJLANTIRISH UCHUN QO‘LLANILADIGAN MAXSUS KOMLEKS MASHQLARI VA HAFTALIK MASHG‘ULOT YUKLAMALARINI ISHLAB CHIQISH

Karimov Doniyor Komilovich
UrDPI “Jismoniy madaniyat” kafedrasi dotsenti, doniyor.karimov.88@bk.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada sportning biatlon turi bilan shug‘ullanuvchi sportchilarning jismoniy tayyorgarligini rivojlantirish uchun ishlab chiqilgan maxsus tayyorgarlik mashqlari kompleksi va haftalik mashg‘ulot yuklamalari haqida ma’lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar: biatlon, mashg‘ulot, yuklama, mashq, mikrosikl, jismoniy tayyorgarlik, sport, sportchi, maxsus jismoniy tayyorgarlik, boshqarish.

РАЗРАБОТКА СПЕЦИАЛЬНЫХ КОМПЛЕКСНЫХ УПРАЖНЕНИЙ И ЕЖЕНЕДЕЛЬНЫХ ТРЕНИРОВОЧНЫХ НАГРУЗОК, ПРИМЕНЯЕМЫХ ДЛЯ РАЗВИТИЯ ФИЗИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВКИ БИАТЛОНИСТОВ

Аннотация. В данной статье представлена информация о комплексе специальных тренировочных упражнений и еженедельных тренировочных нагрузках, разработанных для развития физической подготовленности спортсменов-биатлонистов.

Ключевые слова: биатлон, тренировка, нагрузка, упражнение, микроцикл, физическая подготовка, спорт, спортсмен, специальная физическая подготовка, управление.

DEVELOPMENT OF SPECIAL COMLEX EXERCISES AND WEEKLY TRAINING LOADINGS, WHICH ARE USED TO DEVELOP THE PHYSICAL FITNESS OF BIATHLETES

Annotation. This article provides information on the complex of special preparatory exercises and weekly training loads developed for the development of physical fitness of biathlon athletes.

Key words: biathlon, training, loading, exercise, microcycle, physical training, sport, athlete, special physical training, management.

Kirish. Ta’lim jarayonini o‘rganishda, tizimni tashkil etuvchi omil, va boshqalarga ko‘ra, pedagogik maqsad hisoblanadi. Hozirgi kunda ko‘pchilik olimlarning fikricha har qanday tizimning, shu jumladan, jismoniy tayyorgarlikning tizim hosil qiluvchi omili sport natijasidir. Sport natijasining ortishi maqsadli vazifalarni, dasturni va o‘quv jarayonining samaradorligini belgilaydi. Sportchining asosiy musobaqalarga tayyorligini bosqichma-bosqich shakllantirish konsepsiyasiga asoslanib, biz tizimni shakllantiruvchi omil nafaqat final, balki uning oraliq natijalari deb hisoblaymiz. Bu nafaqat o‘quv jarayonining yakuniy natijasini, balki uning individual mikro va makrosikllarining xususiyatlarini ham ko‘p parametrli baholashni talab qiladi. Biatlonchilarning jismoniy tayyorgarligi tizimini takomillashtirishga ta’sir etuvchi asosiy omillar qatorida jismoniy tarbiya va sport sohasidagi davlat siyosati, ijtimoiy-iqtisodiy va tashkiliy-huquqiy shart-sharoitlar, ilmiy ahvolni ajratib ko‘rsatish kerak. Uslubiy baza, sport musobaqalari tizimi, shuningdek, umuman jismoniy tayyorgarlik tizimining holatiga bevosita yoki bilvosita ta’sir ko‘rsatadigan turli xil obyektiv va subyektiv shartlar majmuasi, bu bizning fikrimizcha, ular tizimni tashkil etuvchi omildir.

Biatlonchilarni tayyorlash jarayonini boshqarish - bu jismoniy tayyorgarlikning quyi tizimi bo‘lib, u bo‘lajak musobaqalarga jismoniy tayyorgarlikni bosqichma - bosqich shakllantirishni

ta'minlaydi. Rejalashtirish va nazorat o'quv jarayonini boshqarishning nisbatan mustaqil jihatlari sifatida ajralib turadi [4].

Mashg'ulot jarayonini boshqarishning asosi - sportchining doimiy o'zgarib turadigan imkoniyatlari, uning holatining turli omillar ta'sirida o'zgarishi. Faqat shuni ta'kidlaymizki, o'quv jarayonini nazorat qilish samaradorligi mashg'ulot va raqobatbardoshlik faoliyatining aniq miqdoriy ifodasi bilan bog'liq bo'lib, u ma'lum bir sport turiga, bizda biatlonga xos. Buning uchun dastlab sportni takomillashtirishning ma'lum bir bosqichida ko'rsatma sifatida tanlangan fitnes va raqobatbardoshlik modeli o'rnatiladi. Keyin ma'lum bir sportchining funksional imkoniyatlari baholanadi, uning shaxsiy ma'lumotlari namunalar bilan taqqoslanadi, ishning yo'nalishlari va berilgan effektga erishish yo'llari aniqlanadi. Keyinchalik rejalashtirilgan natijalarga erishishga hissa qo'shadigan o'qitish vositalari va usullari tanlanadi, mablag' o'z vaqtida taqsimlanadi [6].

O'quv jarayoni rejalash esa bu siklning yakuniy operatsiyalari - bu o'quv jarayonining samaradorligini bosqichma-bosqich nazorat qilish va uni tuzatish. O'quv jarayonini optimal rejalashtirish muammosini hal qilish ko'p jihatdan sport makrosiklini davrlashtirish qonuniyatlari haqidagi real tasavvurga bog'liq. Bu boradagi g'oyalarga ko'ra, bir yil, yarim yil yoki ularga yaqin bo'lgan sport sikli, asosan, tayyorgarlik bosqichi va o'tish davri deb ataladigan uchta davrdan iborat. Sport amaliyotining o'ziga xos shartlariga qarab, bunday makrosikl tuzilishining turli xil o'zgarishlari, shu jumladan uning davrlarining davomiyligi nisbati variantlari asoslanadi. Tabiiyki, ushbu davrlar dizaynining har bir aniq holatida, haqiqiy sharoitga mos variantni tanlash muhim. Shu bilan birga, rejalashtirilgan natijani amalga oshirish uchun to'liq tayyorgarlik ko'rish zarur bo'lgan davr uchun yetarli vaqtni aniqlash ayniqsa muhimdir.

Shunday qilib, muallifning fikriga ko'ra, sportchining har xil mujassamlashuvi nafaqat shu, balki makrosiklning boshqa davrlarida ham sodir bo'lishi shubhasiz omil bilan mantiqiy qarama -qarshilik olib tashlanadi. Bu davrni rejalashtirayotganda, birinchi navbatda, sportchining yangi davrga optimal tayyorgarligi holati sifatida sport formasini shakllantirish uchun zarur bo'lgan vaqt chegarasi o'zgarishlari haqidagi statistik hisoblangan asosiy ma'lumotlarga e'tibor qaratish juda muhim. Rejalashtirilgan ma'lumotlarga nisbatan bunday ma'lumotlarga e'tibor qaratish muayyan davrda bu davrning davomiyligi, L.P.Matveyev, V.N.Platonov va boshqalarga ko'ra, uning vaqtiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan holatlarni hisobga olish zarur. Hech bo'lmaganda, sport formasini shakllantirish va sportchining oldingi makrosiklga tayyorgarligining qisman komponentlarini shakllantirish uchun amalda sarflangan vaqtni hisobga olish kerak. [9].

Mashg'ulotlarni yakka-yakka ham, guruh-guruh bo'lib ham o'tkazsa bo'laveradi. Lekin guruh-guruh bo'lib shug'ullanish afzalroq hisoblanadi [9].

Mavzuning dolzarbligi. Bugungi kunda malakali biatlonchilarni mashg'ulot jarayonlarini takomillashtirish, mashg'ulot yuklamalarni taqsimlash, yillik mashg'ulotlarni rejalashtirish sportchilarni har xil vositalar yordamida tayyorlash usullariga ko'pchilik olimlar e'tibor qaratishgan va ilmiy izlanishlar olib borishgan. Ulardan R.S.Salamov, T.S.Usmonxodjayev, A.Abdiyev, N.T.To'xtaboyev, S.V.Serebrekov, M.S.Olimovlar bir qancha ilmiy ishlarni olib borishgan. Ammo ular tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlarda biatlonchilarni musobaqalarga tayyorlashda aynan kross yugurish orqali ularni nafas olish ritmini shakllantirish, yurak qon-tomir tizimi faoliyatini yaxshilash, harakat tayanch apparatlarini faoliyatini rivojlantirish masalariga kam e'tibor qaratganligini ko'rishimiz mumkin.

Biatlonchilarni tayyorgarlik davrida umumiy jismoniy tayyorgarlik darajasini oshirish, funksional tayyorgarligini rivojlantirish ularni musoboqalar jarayonida sport natijalarini yuksalishiga kross yugurishning o'ziga xos ijobiy xususiyatlari mavjud. Ammo bizning fikrimizcha malakali sportchilarni tayyorlashda yengil atletika vositalaridan kross yugurish masofalaridan foydalanish

har bir sportchini jismoniy tayyorgarligini rivojlanishiga, funksional holatini shakllanishiga ayniqsa maxsus jismoniy tayyorgarligini oshirishga zamin yaratib musoboqalarda yuqori sport natijalarini ko‘rsatishga imkon beradi. Shu boisdan biatlonchilarni samarali tayyorlashda yengil atletika vositalaridan foydalangan holda mashg‘ulotlarni tashkil qilish zarur. Chunki, sport musobaqalarida sportchilarni sport natijalarini tahlil etadigan bo‘lsak, yoki musobaqa jarayonini kuzatganimizda biatlonchilarda yugurish uzoq masofalarga ixtisoslashgan bo‘lishi ham kerak bo‘ladi. Maxsus jismoniy tayyorgarligini asosiy ko‘rsatkichi maxsus jismoniy sifatlar yaxshi rivojlangan bo‘lishi talab etiladi. Bu holat nafaqat sportchining sport natijasiga qolaversa funksional holatiga, jismoniy tayyorgarligiga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatmasdan qolmaydi. Kross yuguish masofalaridan biatlonchilarni haftada ikki yoki uch marta kross yugurish yoki uzoq muddatli yuklamalarni mashg‘ulotlarda qo‘llash lozim. Shundagina biatlonchilarni tayyorgarligini oshishiga maxsus jismoniy tayorgarligini shakllantirishga va funksional holatini yaxshilanishiga xizmat qiladi. Shu boisdan biz tomonimizdan tanlangan ushbu biatlonchilarni maxsus jismoniy tayyorgarligini takomillashtirishda yengil atletika vositalaridan foydalanish samaradorligi qaratilgan tadqiqotimiz bugungi kunda dolzarb mavzulardan biri bo‘lib o‘ziga xos ilmiy ahamiyat kasb etadi [7].

Tadqiqotning maqsadi: Biatlonchilarni jismoniy tayyorgarligini rivojlantirish uchun maxsus tayyorgarlik kompleks mashqlarni va haftalik mashg‘ulot yuklamalarini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari:

1.Biatlonchilarning jismoniy tayyorgarlik darajasini rivojlantirishga oid adabiyotlarni o‘rganish va tahlil qilish;

2. Biatlon mutaxassislik talaba-sportchilarini jismoniy tayyorgarlik darajasini aniqlash;

3. Biatlonchilar jismoniy tayorgarligini maxsus tayyorgarlik kompleks mashqlarni va haftalik mashg‘ulot yuklamalarini ishlab chiqish orqali amaliyotga tadbiq etish.

Tajriba obyekti: Biatlonchi sportchilarning sport mashg‘uloti jarayoni.

Tadqiqot predmeti: Biatlonchilarni o‘quv - mashg‘ulotlarida maxsus jismoniy tayyorgarligini takomillashtirish vositalari, usullari va shakllari.

Biatlon sportchilarni sport natijalari asosan ularni organizmning barcha a’zolari va organlarining betartib ishlashiga bog‘liq. Buning uchun avvalo yurak-qon tomir, nafas olish, o‘pkani tiriklik sig‘imi, markaziy asab tizimi faoliyati yaxshi bo‘lishi va tana tuzilishining mutonosibligi muhim ahamiyat kasb etadi. Qolaversa, ularning bo‘yi va tana og‘irligining o‘lchamlari, qadamlar soni, qadamlar uzunligi va chastotasi sportchilarni sport natijalarini yuksalishida xizmat qiladi. Biatlon sport turidagi talaba-sportchilarning 24 nafarini saralash me’zonlari asosida tanlab oldik va ularni ikki guruhga teng bo‘lgan holda 12 nafardan tajriba va nazorat guruhiga ajratdik.

Biatlonchi sportchilarning jismoniy tayyorgarligini aniqlab, ularga natijalariga qarab maxsus tayyorgarlik mashqlar kompleksi va haftalik mashg‘ulot yuklamalari ya’ni haftalik mashq mikrosikllari ishlab chiqildi va mashg‘ulot jarayonlari shu asosda tashkil qilindi (1-2-jadval).

Maxsus jismoniy tayyorgarlikni rivojlantirishga qaratilgan vosita va yuklamalar kompleks mashqlari

Tezkorlikni rivojlatiruvchi mashqlar kompleksi	Qo‘l kuchini rivojlantiruvchi m/k	Yotgan xolda o‘q otish texnikasini rivojlantiruvchi m/k	Chidamkorlikni rivojlantiruvchi m/k	Turgan holda o‘q otish texnikasini rivojlantirish m/k
30-m moksimon yugurish 3-4 marta takrorlash	Yotgan holda 40-50 kg toshni ko‘tarib tushurish 10 tadan 4-6 marta	70 m jarima maydonida yugurib kelib yotgan holda o‘q otish texnikasini rivojlantirish	Kross 10-12km Press 30-tadan 4-6 marta	70 m jarima maydonida yugurib kelib turgan holda o‘q otish texnikasini rivojlantirish

80-100 m balon tortish 6-8 marta takrorlash	Rezina orqali qo‘l mushaklariga mashqlar	Yotgan xolatda qisqa vaqt ichida takroriy otish texnikasini rivojlantirish 5 ta o‘qdan 3 marotaba	30-soniya 75 % kuch bilan 25-soniya 50% kuch bilan yugurish 5-6 marta takrorlash	Turgan holatda qisqa vaqt ichida takroriy otish texnikasini rivojlantirish 5 ta o‘qdan 3 marotaba
30-40 m ga rezina tortib yugurish 8-10 marta takrorlash	Qo‘shpoyada qo‘l mushaklarini rivojlantiruvchi mashqlar	Turgan joida 1-daqiqa davomida aylanib miltiqdan yotgan xolda o‘q uzish 6-8 marta takrorlash oraliq vaqti 1-2 daqiqa	800 m 4-ta bitta yotib bitta turib 5-ta o‘q otish 1200 m 2-ta bitta yotib bitta turib 5-ta o‘q otish	Qurolni nishonga yo‘naltirish va tepkini bosmasdan charchoq boshlangunga qadar ushlab turish 25-30 daqiqa
Turgan joyda tizzalarni ko‘tarib 25-30 soniya yugurish va 10 m ga tez yugurib chiqish	Maxsus toshlar orqali qo‘l mushaklariga har xil mashqlar	Beshta zarbani bajarish uchun ajratilgan vaqt asta-sekin 1 daqiqadan 50, 40, soniyagacha qisqartiriladi	Kross 13-14 km press 30 tadan 4-5 marta	Turgan holatda qisqa vaqt ichida takroriy otish texnikasini rivojlantirish 5 ta o‘qdan 3 marotaba takrorlash
Past-balandliliklardan takroriy yugurish	Sheriklar yordamida yerga qo‘llarni bukib - yozish	Yugururib kelib 12-14 m masofaga qo‘yilgan moslamaga 5-ta o‘q uzish maqsad: o‘q otish moslamasinio uzoq-roqqa qo‘yganda nishonni diyameteri kichrayadi va poylash qiyinlashadi	400 m 95% kuch bilan 200 m 40% 4-6 marta takrorlash	Tik turgan holatda pnevmatik qurollardan foydalangan holda mashq qilish. 10 m masofadan takroriy otish

Biatlon ixtisoslik talaba-sportchilari uchun mo‘ljallangan haftalik mashg‘ulot mikrosikli

Hafta kunlari	Vositalar mazmuni	Tashkiliy uslubiy ko‘rsatmalar
Dushanba	Chigal-yozdi mashqalar 25-30 d/q. Qiyalikka yugurish 150 m x12 ta takrorlash 30-m moksimon yugurish 3-4 marta takrorlash Past -balandliliklardan takroriy yugurish 1,5 km	Rezina orqali qo‘l mushaklariga mashqlar Yotgan holda 40-50 kg toshni ko‘tarib tushurish 10 tadan 4-5 marta
Seshanba	Chigal-yozdi mashqalar 25-30 d/q. 800 m x 1 ta, 1000 m x 1 ta, 1200 m x 1 ta Turnikda cho‘zilish va press mashqlarini bajarish 25-30 tadan 4-5 martagacha takrorlash yugurish 1,5 km	Yotgan holatda qisqa vaqt ichida takroriy otish texnikasini rivojlantirish 5 ta o‘qdan 3 marotaba 70 m jarima maydonida yugurib kelib yotgan holda o‘q otish
Chorshanba	Kross yugurish 10-12 km egiluvchanlik mashqlari 30 daqiqa press 25 tadan x 4 ta takrorlash	Qo‘shpoyada qo‘l mushaklarini rivojlantiruvchi mashqlar Sheriklar yordamida yerga qo‘llarni bukib – yozish Maxsus toshlar orqali qo‘l mushaklariga har xil mashqlar
Payshanba	Basketbol	Yengil holatni takrorlash
Juma	Chigal-yozdi mashqlar 25/30 daqiqa 800 m 2-ta 1200 m 2-ta 2000 m 1-ta 30-soniya 75 % kuch bilan 25-soniya 50% kuch bilan yugurish 5-6 marta takrorlash 35-40 daqiqa yugurish	Turgan holatda qisqa vaqt ichida takroriy otish texnikasini rivojlantirish 5 ta o‘qdan 3 marotaba Yotgan xolatda qisqa vaqt ichida takroriy otish texnikasini rivojlantirish 5 ta o‘qdan 3 marotaba
Shanba	Kross 13-14 km egiluvchanlik mashqlari 30 daqiqa press 30 tadan 4-5 marta	70 m jarima maydonida yugurib kelib turgan holda o‘q otish texnikasini rivojlantirish Turgan holatda qisqa vaqt ichida takroriy otish texnikasini rivojlantirish 5 ta o‘qdan 3 marotaba

Ushbu dastur tajriba guruhi sinaluvchilari uchun tuzilgan bo‘lib, bu ularning maxsus jismoniy tayyorgarlik darajasini oshirishga qaratilgan. Olib borilgan dasturning samarasi sifatida tadqiqot so‘ngida ulardan olingan nazorat testlarining o‘sganligi buning yaqqol isboti sifatida qarash mumkin.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, ayrim mutaxasislarning ta’kidlashicha, hech bir vosita va tayyorgarlik uslubi universal yoki juda samarali bo‘la olmaydi. Ularning har biri sport turining harakat xususiyatlari, sportchining tayyorgarlik darajasi, avvalgi mashg‘ulot yuklamasi xususiyati, mashg‘ulotning joriy bosqichidagi muayyam vazifalariga bog‘liq holda mashg‘ulotning u yoki bu bosqichida ustuvor ahamiyatga ega bo‘lishi talab etiladi.

Mavzu bo‘yicha o‘rganilgan adabiyotlar, olib borilgan kuzatuvlar, tadqiqot natijalarining tahliliga ko‘ra quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

1. Biatlonchilarning jismoniy tayyorgarlik bu – sport tayyorgarligining bir turi bo‘lib, u shug‘ullanuvchilarning harakat sifatlari: kuchi, tezkorligi, chidamliligi, chaqqonligi, egiluvchanligi va boshqalarni ustuvor rivojlantirishga, shuningdek, sog‘liqni, organizmdagi eng muhim organ va tizimlarni mustahkamlashga ularning funksiyalarini takomillashtirishga yo‘naltirilgan bo‘ladi.

2. Mashg‘ulotlar jarayonida maxsus tayorgarlik mashqlar kompleksi bilan birga olib borilgan haftalik yuklamalar mikrosikli biatlonchi talabalarning jismoniy tayyorgarlik darajasini ortishiga sabab bo‘ldi va ushbu mikrosikl mashqlari sport mashg‘ulotlarida va sport pedagogik mahoratini oshirish darslarida qo‘llanila boshlandi.

3. Tajriba davomida 25 ta mashg‘ulot vositalari (umumiy jismoniy tayyorgarlik-tezkorlikni, qo‘l kuchini, chidamkorlikni rivojlantiruvchi, maxsus jismoniy tayyorgarlik-yotgan holatda o‘q otishni rivojlantiruvchi vositalari) tanlab olindi. Ushbu vositalar biatlonchilarning harakat ko‘nikmalarini, sport turi texnikasini shakllantirishga, maxsus jismoniy tayyorgarligini oshirishga sport natijalarining o‘sishiga yordam berdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida» gi qonuni. 2015-yil 4-sentyabr.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 3031-son Qarori 3-iyun 2017-yil.

3. Гузь С.М. Структура и содержание тренировочных нагрузок на этапе предварительной подготовке в силовом троеборье./Теория и практика физкультура/2008 г

4. Ромашов А.В. Особенности развития двигательных способностей /Актуальные вопросы оптимизации тренировочного процесса в видах спорта: Межвуз сб. науч. Тр./под ред. Л.Ф.Кобзевой – Смоленск :СГИФК, 2001..

5. To‘xtaboyev N.T. Magistr.dis. T; 2003y. 13-15 yoshli sportchilarni chidamliligini tarbiyalash. 8,23bet.

6. Salamov R.S. Sport mashg ‘ulotining nazariy asoslari. T.2007.

7.Goncharova O.V. yosh sportchilarning jismoniy qobiliyatlarini rivojlantirish. T: 2005y.

8. Shokirjonova K.T. Shokirjonov T.A. /Yengil atletikachilarning jismoniy sifatlarini rivojlantirishning vosita va metodlari . o‘quv uslubiy qo‘llanma O‘zDJTI. T: 2014 y.

9.Goncharova O.V. Yosh sportchilarning jismoniy sifatlarini rivojlantirish //O‘quv qo ‘llanma. - T., 2005.

10. D.K.Karimov “O‘rta yoshli aholi uchun sog‘lomlashtiruvchi yo‘nalishdagi mashg‘ulotlarni o‘tkazish xususiyatlari”. Maqola. Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences, 1(7), 365-369, 2023 yil.

11. D.K.Karimov “Velosipedda yurish orqali o‘rta yoshli aholi orasida o‘tkaziladigan sog‘lomlashtirish mashg‘ulotlarining tibbiy-fiziologik asoslari”. Maqola. Educational Research in Universal Sciences 2 (15), 94-99. 2023 yil.

12. A.Yu.Atajanov, D.K.Karimov “Harakatli o‘yinlarning yosh sportchilar va bolalarni tarbiyalashdagi nazariy ahamiyati”**.** Maqola. Educational Research in Universal Sciences 2 (15), 174-178. 2023 yil.

13. D.K.Karimov “Velosiped sport turi bilan o‘rta yoshli aholi uchun sog‘lomlashtiruvchi yo‘nalishdagi mashg‘ulotlarni o‘tkazish xususiyatlari”. Maqola. Fan sportga jurnali. 79-83 betlar. 2023 yil.

MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMIDA XORIJ TAJRIBASI

Nabiyev Elyor Baxtiyarovich
Urganch davlat pedagogika instituti Pedagogika fakulteti dekani El.lon.el@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqola qiyosiy tahlil asosida xorijiy mamlakatlarda maktabgacha ta'lim va tarbiyaning ilg'or tajribasini o'rganib chiqdi. Maktabgacha ta'limning shakllari va shartlari, asosan G'arb va Sharqning rivojlangan mamlakatlarida ma'lumotlar keltirilgan. Mamlakatimizda maktabgacha ta'lim va tarbiya sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning mazmuni va samaradorligi masalalari yoritilgan. Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning xorijiy tajribasini o'rganish sohasida olib borilayotgan tadqiqotlarga alohida e'tibor qaratilmoqda. Uning metodologik asosining o'ziga xos jihatlari bayon etilgan. Davlatlarning rivojlanishini ta'minlashda ta'lim tizimidagi ilg'or tajribaning roli va ahamiyati ochib berildi.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim va tarbiya, me'yoriy-huquqiy asoslar, islohotlar, xorijiy mamlakatlar, O'zbekiston, Germaniya, Yaponiya, Xitoy, Buyuk Britaniya, Singapur, Italiya, ilg'or tajribalar, bola, avlod, etuk xodimlar, istiqbol, Renesans, inson kapitali, tadqiqotlar, elektron resurslar.

ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ В СИСТЕМЕ ДОШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ НА СЕГОДНЯШНИЙ ДЕНЬ

Аннотация. В данной статье на основе сравнительного анализа изучен передовой опыт дошкольного образования и воспитания в зарубежных странах. Представлена информация о формах и условиях дошкольного образования, преимущественно в развитых странах Запада и Востока. Освещены вопросы содержания и эффективности проводимых в нашей стране реформ в сфере дошкольного образования и воспитания. Особое внимание уделяется исследованиям, проводимым в области изучения зарубежного опыта дошкольного образования и воспитания. Излагаются конкретные моменты его методологической основы. Раскрыта роль и значение передового опыта в системе образования в обеспечении развития государств.

Ключевые слова: дошкольное образование и воспитание, нормативно-правовые основы, реформа, зарубежные страны, Узбекистан, Германия, Япония, Китай, Великобритания, Сингапур, Италия, передовой опыт, ребенок, поколение, зрелый персонал, перспектива, Ренессанс, человеческий капитал, исследования, электронные ресурсы.

FOREIGN EXPERIENCE IN THE PRESCHOOL EDUCATION SYSTEM TODAY

Annotation. In this article, based on a comparative analysis, the best practices of preschool education and upbringing in foreign countries are studied. Information is provided on the forms and conditions of preschool education, mainly in developed countries of the West and East. The issues of the content and effectiveness of the reforms carried out in our country in the field of preschool education and upbringing are highlighted. Special attention is paid to research conducted in the field of studying foreign experience of preschool education and upbringing. The specific points of its methodological basis are outlined. The role and importance of best practices in the education system in ensuring the development of states is revealed.

Keywords: preschool education and upbringing, regulatory framework, reform, foreign countries, Uzbekistan, Germany, Japan, China, Great Britain, Singapore, Italy, best practices, child, generation, mature staff, perspective, Renaissance, research, electronic resources.

Maktabgacha ta'lim va tarbiya tizimini isloh qilishni prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev "Yangi O'zbekiston strategiyasi" kitobida "Inson kapitali" tushunchasi bilan bog'laydi. Ya'ni "...rivojlangan mamlakatlarda ta'limning to'liq sikliga investitsiya kiritishga, ya'ni, bola 3 yoshdan 22 yoshgacha bo'lgan davrda uning tarbiyasiga sarmoya sarflashga katta e'tibor beriladi. Chunki ana shu sarmoya jamiyatga 15-17 barobar miqdorda foyda keltiradi. Bizda esa bu ko'rsatkich atigi 4 barobarni tashkil etadi. Binobarin, inson kapitaliga e'tiborni kuchaytirishimiz, buning uchun barcha imkoniyatlarni safarbar etishimiz shart" [3, 224-bet]-deb, yozadi davlatimiz rahbari.

B.E.Parmonov "Maktabgacha ta'lim tashkilotida bolalarni tarbiyalashda xorijiy tajribalarning psixologik jihatlari" maqolasida xorijiy davlatlarning ilg'or tajribalarini yoritgan. Jumladan, Buyuk Britaniya, Rossiya federatsiyasi, Yaponiya, Germaniya kabi davlatlarining ilg'or tajriblarini tahliliy o'rgangan. I.G'Mamajonov, R.Mamatovlar esa "Germaniya davlati ta'lim tizimi"ni o'rganishda qisman maktabgacha ta'lim tizimiga oid ma'lumotlarni kiritib o'tgan. M.X.Qilichova maktabgacha ta'lim va tarbiya sohasida amalga oshirilgan islohotlarning mazmun-mohiyatini hamda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni tarbiyalashda xorijiy tajribalarning o'ziga xos jihatlari[6]ni o'rgangan.

1-jadval

Maktabgacha ta'lim tashkilotiga qabul yoshi				
O'zbekiston	Germaniya	Yaponiya	Italiya	Xitoy
1 yosh	4 oylik	3 yosh	3 yosh	3 yosh

O'zbekiston Respublikasi "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi qonunning 34-moddasiga binaoan bolalar yoshlariga qarab guruhlarga ajratilgan. Jumladan, ilk rivojlanish guruhi (bir yoshdan uch yoshgacha), kichik guruh (uch yoshdan to'rt yoshgacha), o'rta guruh (to'rt yoshdan besh yoshgacha), katta guruh (besh yoshdan olti yoshgacha), maktabga tayyorlov guruhi (olti yoshdan yetti yoshgacha).

Germaniyada esa bolalarga "nafaqaga chiqqan bobo, buvilar nabiralarga qarashi kerak" degan tushuncha mavjud emas. Shuning uchun ota-onalar farzandlarini 4 oylikdan boshlab bog'chaga berishga majburdirlar. Ko'pgina nemis oilalari farzandlarini ancha erta bog'chaga beradilar. Germaniyada maktabgacha ta'limning 6 xil turi mavjud bo'lib, ular bir-biridan tubdan farq qiladi va rang-barangligi bilan boshqa davlatlarnikidan ajralib turadi.

Yaponiya, Italiya va Xitoy davlatida bolalar asosan 3 yoshdan bog'chaga qabul qilinadi. Faqatgina juda majbur bo'lgan oilalar farzandlarini bolalarga qarash markazlariga berishlari mumkin. Masalan, Yaponiyada bolalar yaslisiga (bolaga qarash markazi) bolani uch oyligidan berish mumkin, lekin bunday holat yaponlar orasida keng tarqalgan emas, chunki bunday yoshda bolani yasliga joylashtirish uchun onada juda jiddiy sabab bo'lishi kerak. Shuningdek bunday ayol jamiyat tomonidan yaxshi ona deb baholanmaydi. Atrofdagilarning fikri esa yaponlar uchun "eng asosiy" deb hisoblanadi. Yaponiyada bolalar yaslisiga faqat ota-onasi ishlaydigan bolalar qabul qilinadi. Buning uchun munitsipalitetga ota-ona ish joyidan ma'lumotnoma va oilada boshqa bolaga qarab turuvchi oila a'zosi yo'qligi haqida hujjatlar taqdim etilishi kerak bo'ladi.[8]

Mamlakatimizda esa bolalar bog'chaga bir yoshdan qabul qilinadi. Farzandi uch yoshga to'lmagan onalarga mehnat qonunchiligida imtiyozlar belgilangan. Davlatimiz maktabgacha ta'lim tashkilotlariga qamrov masalasini oshirish hamda maktabgacha tayyorlovni to'liq amalga oshirish maqsadida yangi tahrirdagi qonun hujjatlariga tegishli normalar kiritildi. Jumladan, O'zbeksiton Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi qonunga muvofiq maktabgacha ta'lim va tarbiya olti yoshdan yetti yoshgacha bo'lgan bolalarni boshlang'ich ta'limga bir yillik majburiy tayyorlashni ham nazarda tutadi.[9, 8-modda] Endilikda respublikamizdagi 6 yoshdan-7 yoshgacha bo'lgan barcha ta'lim olishga layoqati bo'lgan bolalar davlat va nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida 1 yillik maktabgacha tayyorlov guruhida boshlang'ich sinflarga tayyorlanadi va ularga sertifikat beriladi.

Bu jarayon rivojlangan mamlakatlarda esa ancha ilgari boshlanadi. Masalan, Italiyada bolalar 3 yoshdan-6 yoshgacha maktabga tayyorlanadilar. Bu jarayon davlat bog‘chalarida va xususiy katolik bog‘chalarida amalga oshiriladi. Buyuk Britaniyada esa 1988 yilda «Ta’lim to‘g‘risida»gi qonuni kuchga kirgan. Unda nafaqat ta’lim standartlari, balki bolalarni maktabga qabul qilish vaqtida ruhiy rivojlanish darajasiga bazaviy baho berish ham belgilangan. Angliya, Shotlandiya va Uelsda majburiy ta’lim 5 yoshdan, Shimoliy Irlandiyada esa 4 yoshdan boshlanadi. Shuning uchun ham majburiy ta’limda o‘qitishni boshlash muddati Yevropada eng erta deb hisoblanadi.

(2-jadval)

Maktabgacha tayyorlov guruhlari				
O‘zbekiston	Angliya, Shotlandiya, Uels	Shimoliy Irlandiyada	Italiya	Singapur
6-7 yosh	5-6 yosh	4-6 yosh	3-6 yosh	3-6 yosh

Singapurda ham maktabgacha ta’lim ta’limning boshlang‘ich bo‘g‘ini hisoblanadi. Bog‘chaga bolalar 3 yoshdan qabul qilinadi. Ikki-uch yil davomida ularga ona tili va ingliz tili, o‘qish, sanash, kuylash, rasm chizish, raqs tushish kabilar o‘rgatiladi. Singapurda davlatga qarashli bog‘chalar yo‘q. Maktabgacha ta’lim muassasalarining barchasi xususiy bo‘lib, ayrimlarigina diniy tashkilot yoki jamg‘armalar tomonidan boshqariladi.

Buyuk Britaniyadagi maktabgacha ta’lim o‘quv rejasida nafaqat umumiy ta’lim jarayoniga urg‘u beriladi, balki boladagi o‘qish va hisoblash kabi ko‘nikmalarga alohida ahamiyat beriladi. Bunda 4-5 yoshdagi bolalar rivojlanishning olti yo‘nalishidagi aniq ko‘nikma va bilimlari belgilandi: shaxsiyatlik; ijtimoiy-emotsional; kommunikativ; xabardorlik; matematik; jismonan; ijodiy. Maktabgacha yoshdagi bolalar ko‘p o‘ynashlari kerak, lekin adabiyot va matematikani bilish doirasidagi talablar shunchali yuqoriki, o‘yin uchun vaqt qolmaydi.

Xulosa qilib aytganda, xorijiy davlatlarning ilg‘or tajribalari ularning davlatlarini rivojlanishiga katta xizmat qilib kelmoqda. Xitoyliklarning “Bir yilni ko‘zlasangiz sholi eking, ellik yilni ko‘zlasangiz daraxt eking, yuz yilni ko‘zlasangiz farzand tarbiyalang” degan hikmatidan bugungi kunda zamonaviy davlatlarning deyarli barchasi samarali foydalanmoqda.

Shu nuqtai-nazardan, bizning mamlakat ham unib-o‘sib kelayotgan barkamol avlod ta’lim-tarbiyasiga katta e’tibor qaratmoqda. Bu borada kerak bo‘lsa, xorijiy davlatning ilg‘or tajribalaridan unumli foydalanish orqali milliy ta’lim va tarbiya tizimini yanada takomillashtirish davr talabi hisoblanadi. Zero, mamlakatimiz ezgu maqsad-uchinchi Renesans davrini barpo etishni rejalashtirgan. Ana shunday ezgu maqsadlarni esa albatta bugungi kunda voyaga yetayotgan avlod amalga oshiradi. Maktabgacha ta’lim va tarbiya esa ana shu avlodni ta’limning birinchi bo‘g‘inidan savodli va tarbiyali bo‘lishini ta’minlashga xizmat qilishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI

1. Karimov I.A. (2018) Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch.T.: Ma’naviyat, 33-bet.

2. Mirziyoyev Sh.M.(2021) Yangi O‘zbekiston strategiyasi.-T.:“O‘zbekiston”, 224- bet.

3. Qilichova M.X. Maktabgacha ta’lim va tarbiya sohasida amalga oshirilgan islohotlarning mazmun-mohiyati./Ta’lim tizimida fan, innovatsiya va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish istiqbollari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. Jizzax-2021. 325-b.

4. Parmonov B.E. (2018) Maktabgacha ta’lim tashkilotida bolalarni tarbiyalashda xorijiy tajribalarning psixologik jihatlari. “Science and Education” Scientific Journal. 339-351-betlar.

5. Mamajonov I.G‘., Mamatov R.(2017) Germaniya davlati ta’lim tizimi. “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. №6

FRAZEOLOGIZM, MAQOL VA MATALLARNING UMUMIY O‘XSHASHLIKLARI VA FARQLARI

Raximova Sulurxon Djumaniyozovna
Urganch davlat pedagogika instituti dotsent. v.b., (PhD), sulurrahimova@gmail.com

Annotatsiya. Maqollar – xalq donishmandligi asosida yaratilgan, xalqning og‘zaki ijod mahsuli. Maqol va matallar – tilning bezagi. Frazeologizmlarning qo‘llanilishi, tilshunoslikda o‘ziga xos turg‘un birikmalarning o‘rni, tilda tayyor ma’no yaxlitlikda ishlatilishi. Frazeologizmning ifoda semalarida obrazlilik, bo‘yoqdorlik bo‘rtib turadi. Frazeologizmlarda lisoniy-semantik munosabat amal qilishi. frazeologik polisemiyada barcha ma’no ko‘chma bo‘lganligi bois ularda bosh va hosila ma’nolarga ajratish

Kalit so‘zlar: maqol, matal, lisoniy birlik, frazeologiya, turg‘un birikma, barqaror birikma, frazeologik birlik

ОБЩИЕ СХОДСТВА И РАЗЛИЧИЯ МЕЖДУ ФРАЗЕОЛОГИЗМАМИ, ПОСЛОВИЦАМИ И ЛЕСОПИЛКАМИ

Аннотация. Пословицы созданы на основе народной мудрости и являются продуктом устного творчества народа. Пословицы и поговорки являются украшением языка. Употребление фразеологизмов, роль определенных устойчивых сочетаний в языкознании и использование готовых значений в языке. Выразительные средства фразеологии характеризуются образностью и красочностью. Фразеологизмы имеют лингвистико-семантическую связь. Поскольку все значения во фразеологической полисемии переносимы, их можно разделить на первичные и производные

Ключевые слова: пословица, пословица – языковая единица, фразеология, устойчивое сочетание, фразеологическая единица

GENERAL SIMILARITIES AND DIFFERENCES OF PHRASEOLOGISTS, PROVERBS AND MATTERS

Abstract. Proverbs are created on the basis of folk wisdom, they are the product of people’s oral creativity. Proverbs and sayings are the decoration of language. The use of phraseologisms, the role of specific fixed combinations in linguistics, the use of ready-made meaning in the language as a whole. figurativeness and colorfulness are prominent in the expressions of phraseologisms. Linguistic-semantic relationship applies in phraseologisms. Since all the meanings in phraseological polysemy are mobile, they should be divided into primary and derivative meanings

Keywords: proverb, proverb, linguistic unit, phraseology, stable compound, stable compound, phraseological unit

Kirish. “Frazeologizm” atamasi fanda ilk bor fransuz tilshunosi S.Balli tomonidan qo‘llanilgan. Frazeologik birliklar tushunchasiga olim quyidagicha ta’rif beradi: “tilda turg‘un holatda mavjud bo‘lgan hamda nutqqa tayyor holatda olib kiriladigan birliklar”. Demak, frazeologik birliklar tarkibidagi elementlar (so‘zlar) nutq paytida o‘zgarishsiz saqlanadi va bu frazeologizmlarning boshqa til birliklaridan farqli xususiyatlaridan biri hisoblanadi. Ingliz va Amerika tilshunoslari L.P.Smit, A.Maskay, J.Seidlou va V.Mordi “idioma” terminini ilk bor o‘z asarlarida qo‘llashgan va bu atamaga “tarkibidagi so‘zlar ma’nosidan kelib chiqib ma’nosi anglashila olmaydigan til birliklari” deb ta’rif berganlar. Nemis tilshunosligida ham frazeologiya sohasining o‘rganilishiga katta e’tibor

qaratilgan. Turli olimlar frazeologiyaga oid tushunchalarni izohlab, o‘z nazariyalarini taklif etganlar. Yana bir talay tilshunos olimlar frazeologik birliklarni turli tamoyillar negizida tasniflashga, frazeologizmlarni alohida guruhlarga bo‘lib o‘rganishga harakat qilishgan. Masalan, M.D.Stepanov va I.I.Chernishova frazeologik birliklarning strukturaviy va semantik guruhlari mavjud ekanligini ta’kidlaganlar. Mashhur lingvist U.Fiks frazeologizmlarni gap bilan qiyoslab, tarkibidagi ish-harakatni bildiruvchi leksemaning ma’nosi frazeologik ma’noga ta’sir ko‘rsatishi yoki ko‘rsatmasligini hisobga olib, bunday birliklarning 2 turi mavjudligini aytgan. Teo Shippan esa frazeologizmlarni “frazeologik butunlik” va “turg‘un birikmalar” kabi guruhlarga ajratgan.

A.V.Kunin frazeologik tushuncha doirasida “frazeologik ma’no – bu semantik jihatdan murakkab, alohida shakllangan til birliklari bilan ifodalanadigan ma’lumotlarning o‘zgarmasidir, bu so‘zlarning o‘zgaruvchan birikmalarining strukturaviy va semantik modellarini yaratish bo‘yicha shakllanmaydi”, degan edi [6].

Jahon tilshunosligida ham frazeologik polisemiyaning o‘ziga xosligi konnotativ aspekt har doim bilvosita nominatsiya aktida ishtirok etishi bilan baholanadi. Konnotatsiya tarixan o‘zgaruvchan kategoriya sifatida tarkibiy qism: baholovchi, ifodalovchi va funksional-stilistik o‘zgarishlarda o‘z aksini topadi. Bu borada A.V.Kuninning fikriga ko‘ra, frazeologik kontekst nazariyasining rivojlanishida muhim nuqta fe’lga xos bo‘lgan strukturaviy va semantik xususiyatlar tufayli til birliklari sifatida artikulyativlik har doim ham fe’l mazmunini ochib berish uchun yetarli indikativ kuchga ega emas. Shuning uchun Kunin frazeologik birlik (FB)ni “nutqda semantik jihatdan amalga oshirilgan fe’lga nisbatan moslik, korrelyatsiya yoki bog‘liqlik asosida ajratib ko‘rsatilgan aktualizator” [6] deb belgilaydi.

Shunday qilib, frazeologik birlik – bu ikki yoki undan ortiq so‘zlardan tashkil topgan turg‘un ibora bo‘lib, ularning ma’nosi butun ma’nolarning yig‘indisiga teng emas, balki o‘ziga xos idiomatik xarakterga ega bo‘ladi. Bu o‘rinda iboralar ifodalayotgan ma’nolarning o‘zaro munosabati nihoyatda muhim. Ularning omonim yoki sinonimik munosabati tushunarli, ammo ko‘p ma’nolilik masalasi maxsus o‘rganilishi zarur.

Polisemantik frazeologizmlar jahon tilshunosligida nisbatan keng o‘rganilgan, shuningdek o‘zbek tilshunosligida ham frazeologik birliklar turli aspektlarda tekshirib ko‘rilgan. Jumladan, polisemiya masalasi ham. O‘zbek tilshunosligida frazeologik polisemiyaning o‘rganilishiga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqot ishlari talaygina. A.Hojiyev o‘zining “Lingvistik terminlarning izohli lug‘ati”da frazeologik birliklarga “tuzilishi jihatidan so‘z birikmasiga, gapga teng, semantik jihatdan bir butun, umumlashgan ma’no anglatadigan, nutq prossessida yaratilmay, balki nutqqa tayyor holda kiritiladigan lug‘aviy birlik, turg‘un birikmalarning obrazli, ko‘chma ma’noga ega turi” [1] degan ta’rifni beradi.

Tadqiqotchi Sh.Rahmatullayev ikki yoki undan ortiq leksik negizdan tarkib topgan, tuzilishi jihatidan birikmaga, gapga teng, mazmunan so‘zga muqobil, yaxlitligicha ustama ko‘chma ma’no anglatadigan lug‘aviy birliklarni frazeologik obyekt, deb e’tirof etadi [2]. B.Yo‘ldoshev [3], A.Mamatov [4] kabi tilshunoslar frazeologizmlarni keng tushunib, birikmali, turg‘un, obrazli ifodalarni frazeologizmlar sifatida qayd etadilar.

Frazeologik birliklarning so‘zlar polisemiyasiga munosabati maxsus monografik tadqiqot predmeti bo‘lmagan. Bundan tashqari, frazeologik noaniqlikning kognitiv jihatlari ham ochib berilmagan. R.Sayfullayeva va boshqalar hammuallifligidagi “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” asarida frazeologiya masalasiga o‘ziga xos tarzda yondashilgan. Ya’ni frazeologiyaning o‘rganish predmeti frazeologizmning tabiati va substansional xususiyatlari hamda ularning nutqda amal qilish qonuniyatidir, degan fikrga kelinadi. Frazeologizm, asosan, bir ma’nolidir. Ammo polisemantiklik frazeologizmda ham uchrab turadi. Masalan, [aqli yetadi] frazeologizmi “idrok qilmoq”, “ishonch

hosil qilmoq" ma'nosiga, [bo'yniga qo'ymoq] iborasi 3 ta – "aybni birovga to'nkamoq", "isbotlab e'tirof qildirmoq", "biror ishni bajarishni birovning zimmasiga yuklamoq" ma'nolariga, [qo'lga olmoq] iborasi esa 4 ta – "qamash maqsadida tutmoq", "biror yo'l bilan o'z xohishiga bo'ysunadigan qilmoq" ma'nolariga ega. Iboralar ko'chma ma'noda bo'lganligi uchun, ularni bosh va hosila ma'nolarga ajratish qiyin.

Turkiy xalqlarning maqollaridan namunalar dastlab Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asarida keltirilgan. Bu maqollarning bir qanchasi hozir ham o'zbek xalqi orasida turli variantlarda ishlatiladi. Masalan, Koshg'ariy asarida kelgan "Kishi olasi ichtin, yilqi olasi tashtin" kabi maqollarni "Odam olasi ichida, mol olasi tashida" tarzida hayotda juda ko'p ishlatamiz. Maqollar ba'zan matal, zarbulmasal, naql, hikmat, hikmatli so'z, tanbeh, mashoyixlar so'zi, donishmandlar so'zi, otalar so'zi kabi nomlar bilan ham yuritiladi. Maqollarning ijtimoiy-siyosiy va tarbiyaviy ahamiyati juda katta. Matalda narsa tasviri, uning xarakteristikasi beriladi, maqolda esa to'la tugallangan fikr-xulosa ifodalanadi. Maqol va matallar xalqning tarixiy og'zaki va yozma ijod mahsuli hisoblanib, xalqning ko'p asrlik tajribalari, turmushdagi turli voqea-hodisalarga munosabatining ifodasidir.

Maqol so'zning ko'rki, nutqning o'tkir quroli, xalqning donishmandligidir. Har bir xalqning tarixi, tafakkuri va ruhiy holatlari maqol, matallarda o'z ifodasini topadi Har bir maqolda shu maqolni yaratgan xalqning timsoli, xalqning milliy va madaniy merosi namoyon bo'ladi. Maqol, matallarda vatanni sevish, mehnatsevarlik kabi g'oyalar va boshqa ko'plab insoniy fazilatlar ilgari suriladi. To'g'ri, har bir maqol va matal ham shakl, ham ma'no, ham funksional jihatdan o'ziga xos xususiyatga ega. Maqollarning yana bir tarafi borki, bular deyarli ko'p hollarda umumiy mazmun-mohiyati shakllangan holda o'xshashliklarga ega bo'ladi.

It hurar, karvon o'tar. Ajdarga chikora chaqsa gar ilon, it hurar va lekin to'xtamas karvon (F.Sh., 265) **Har kim birovga choh qazisa, o'zi tushadi.** Hiylagar Farhodga qaziyman deb choh, uning o'zi qular bu chohga nogoh (F.Sh., 271).

Alisher Navoiy o'z asarlarida xalq donishmandligidan unumli foydalangan. Maqol obyektini hamisha saqlash ko'p hollarda g'alizliklarga olib kelsa-da, uni milliy an'anaviy birikmalar bilan almashtirishda ham asardagi ma'lum komponentlarni buzib yuborish ehtimoliga olib keladi. O'zbek tili boy frazeologik xazinaga ega bo'lib, ulardagi iboralar, maqol va matallar ushbu tilning bezagi, chiroyi va badiiyligi hisoblanadi. Xalqning milliy madaniyati, odob-axloqi, dunyoqarashi, his-tuyg'ulari, orzu-umidlari, o'z vataniga muhabbati, adolatparvarligi va ko'plab oliyjanob xislatlarni mujassam qilgan. Frazeologizmlarning ma'nosi kontekst ichida ochiladi. Muayyan iboraning ma'nosini ochish uchun uni kontekst ichida olib qarash kerak.

Qora niyat. Dili buzuq, birovning baxt-quvonchini ko'rolmaydigan; hasadgo'y (O'zbek tilining izohli lug'ati. 2-jild, 248-bet).

Mimlar anda girih uzra girih, jazmlar anda zirih uzra zirih ("Hayrat-ul abror" – T.: G'afur G'ulom nashriyoti, 1989. – 6-bet). Mimlari tug'ilgan necha bir xatar, **qora niyat**lari undan ham battar.

Bel bog'lamoq. Biror ishga astoydil kirishmoq, jazm qilmoq. Do'stlarim …siz bilan biz ulug' ishga bel bog'ladik. Bu g'oyat xatarli ish. Ammo biz qo'rqmaymiz. *H.G'ulom, "Mash'al"* (O'zbek tilining izohli lug'ati.1-jild, 218-bet).

Lek qachon qat'ig'a ahli qabul, azm qilib aylasa ul yon nuzul ("Hayrat-ul abror" – T.: G'afur G'ulom nashriyoti, 1989. – 6-bet). (Imon ahli lekin o'zin chog'lasa, u tomon otlanib **belin bog'lasa**).

Kulini ko'kka sovurmoq. Batamom yo'q qilmoq, mahv etmoq, ag'darib tashlamoq. Chingiz farmoni bilan shaharga o't qo'yilib**, kuli ko'kka sovurildi.** *Mirmuhsin, "Temur Malik".*

Ko'kka (yoki **behudaga**) **sovurmoq** *ayn.* **sovurmoq** 1, 2. Shamol quturar, qorni oppoq

to‘zonga aylantirib**, ko‘kka sovurar edi.** *Oybek, “Oltin vodiydan shabadalar.* -Bizni davlat **pulini ko‘kka sovuruvchi** tentaklar, xayolparastlar, deb atashayotganlar ham yo‘q emas, - dedi Doniyorov Mohidilga. *J.Abdullaxonov, „To‘fon“.*

Kimniki bu shu’la bila kuydurub, ko‘kka hamul el kulini sovurub (Hijron o‘ti qay bir jonni kuydirar, **kulini ko‘k** uzra shitob **sovurar.** Kimni kul aylab bu samumi balo, dard-u balo ko‘zgusi topib jilo (“Hayrat-ul abror” – T.: G‘afur G‘ulom nashriyoti, 1989. – 9-bet). Ayla Navoiyni burun odamiy, kim bo‘la olg‘ay bu haram mahrami (“Hayrat-ul abror” – T.: G‘afur G‘ulom nashriyoti, 1989. – 12-bet). (Navoiyni **ko‘ngli toza** odam qil, ilohiy sirlarga doxil mahram qil).

O‘zining boshiga yetmoq. Yolg‘on bo‘lib chiqsa agar har so‘zi, o‘zining boshiga yetar u o‘zi (F.Sh., 276)**.**

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, bugun o‘zbek frazeologik va paremiologik lug‘atlarida mavjud bo‘lgan ko‘plab ibora va maqollar Alisher Navoiy asarlarida ham qo‘llanilgan. Ta’kidlash zarurki, Navoiyning donishmand sifatida aytgan ayrim quyma fikrlari, shoh baytlari bugun xalq og‘zaki ijodi tarkibiga ham kirgan. Buni ilmiy jihatdan asoslash uchun, albatta, Navoiy asarlari, boshqa tegishli manbalar qiyosiy o‘rganilishi kerak.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Hojiyev A. Lingvistik terminlarning izohli lug‘ati. – T: O‘qituvchi, 1985.
2. Rahmatullayev Sh. Nutqimiz ko‘rki. – Toshkent, 1970. – B. 56.
3. Yo‘ldoshev B. Hozirgi o‘zbek adabiy tilida frazeologik birliklarning funksional-uslubiy xususiyatlari. Filol. fan. dokt. ... diss. avtoref. – Toshkent, 1993.
4. Mamatov A. O‘zbek tili frazeologizmlarining shakllanishi masalalari. Filol. fan. dokt. ... diss. avtoref. – Toshkent, 2000.
5. Navoiy A. Xamsa – T.: Akadem nashr, 2022. – 239 b.
6. Кунин А.В. Фразеология современного английского языка: опыт систематизированного описания. – М.: Международные отношения, 1972. – 288 с.

OLIY TA'LIM MUASSASALARINING PEDAGOG XODIMLARINI JISMONIY TARBIYA VA SOG'LOMLASHTIRISH FAOLIYATINI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA OPTIMALLASHTIRISHNING ILMIY-USLUBIY ASOSLARI

Atajanov Adilbek Yuldashevich
Ma'mun universiteti "Umumkasbiy fanlar" kafedrasi dotsenti, adilbekatajanov57@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada oliy ta'lim pedagog xodimlarning jismoniy tarbiya va sog'lomlashtirish faoliyatini raqamli texnologiyalar yordamida optimallashtirishning ilmiy-uslubiy jihatlari ko'rib chiqiladi. Pedagoglarning kasbiy faoliyati sharoitida jismoniy faollik va psixoemotsional holatini oshirish uchun raqamli texnologiyalardan foydalanish zarurati asoslanadi. Tadqiqot bosqichlari, ma'lumotlarni yig'ish va tahlil qilish usullari, shuningdek, raqamli texnologiyalardan foydalanish samaradorligini baholash yondashuvlarini o'z ichiga olgan uslubiy model taklif etiladi.

Kalit so'zlar: jismoniy tarbiya va sog'lomlashtirish, jismoniy faollik, psixoemotsional holat, optimallashtirish, uslubiy model, raqamli texnologiyalar, tadqiqot metodlari.

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ОПТИМИЗАЦИИ ФИЗКУЛЬТУРНО-ОЗДОРОВИТЕЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ПЕДАГОГИЧЕСКОГО СОСТАВА ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЙ НА ОСНОВЕ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ

Аннотация. В статье рассматриваются научные и методические аспекты оптимизации физкультурно-оздоровительной деятельности педагогов высшей школы с помощью цифровых технологий. Обоснована необходимость использования цифровых технологий для повышения уровня физической активности и психоэмоционального состояния педагогов в условиях их профессиональной деятельности. Предложена методологическая модель, включающая этапы исследования, методы сбора и анализа данных, а также подходы к оценке эффективности применения цифровых технологий.

Ключевые слова: физическое воспитание и оздоровление, двигательная активность, психоэмоциональное состояние, оптимизация, методологическая модель, цифровые технологии, методы исследования.

SCIENTIFIC AND METHODOLOGICAL BASIS FOR OPTIMIZING PHYSICAL EDUCATION AND HEALTH ACTIVITIES OF THE TEACHING STAFF OF HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS BASED ON DIGITAL TECHNOLOGIES

Abstract. The article examines the scientific and methodological aspects of optimizing physical education and health activities of higher education teachers using digital technologies. The need to use digital technologies to increase the level of physical activity and psycho-emotional state of teachers in the context of their professional activities is substantiated. A methodological model is proposed that includes research stages, methods for collecting and analyzing data, as well as approaches to assessing the effectiveness of digital technologies.

Key words: physical education and health improvement, motor activity, psycho-emotional state, optimization, methodological model, digital technologies, research methods.

Kirish. Zamonaviy pedagoglar yuqori jismoniy va psixologik yuklamalarga duch kelishadi, bu ko‘pincha salomatlik va kasbiy samaradorlik darajasining pasayishiga olib keladi. Ta’lim faoliyati bilan bog‘liq axborot yuklamasi va psixologik stressning ortib borishi sharoitida pedagoglarning jismoniy va psixoemotsional salomatligi ta’lim tizimining samarali faoliyat yuritishi uchun eng muhim omillardan biriga aylanmoqda.

Pedagogik xodimlarning salomatligi va hayot sifati, boshqa ko‘plab kasbiy sohalarda bo‘lgani kabi, ko‘p jihatdan ish sharoitlari, ishni tashkil etilishi, mazmuni va faoliyatning boshqa xususiyatlariga bog‘liq. Biroq, ko‘plab tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ta’lim muhitidagi stress omillari doimo keng tarqalgan bo‘lib, so‘nggi o‘n yilliklarda ayniqsa keng ko‘lamli bo‘lib qoldi. Zamonaviy pedagogning ish faoliyati katta psixoemotsional holatlar bilan bog‘liq. Pedagogik faoliyatdagi yuqori mas’uliyat, motivatsion va shaxsiy ishtirok, yosh pedagoglar bilan muloqotda sezilarli hissiy «zo‘riqish», ta’limdagi sezilarli o‘zgarishlar davridagi ishning murakkabligi pedagog faoliyatining stressli xususiyatini belgilaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Aholining jismoniy tayyorgarlik darajasini baholash tizimini joriy etishning tashkiliy chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi Qarorida mamlakatimiz aholisining barcha qatlamlari o‘rtasida jismoniy tarbiya va sportni ommalashtirish orqali jismoniy qobiliyat va harakat faolligini takomillashtirish hamda zararli odatlar va turli kasalliklarning oldini olish, shuningdek, sog‘lom turmush tarzi ko‘nikmalarini shakllantirish va jismoniy tayyorgarlik darajasini oshirish vazifalari belgilab o‘tilgan. 2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug‘ullanadigan aholi sonini 2026-yilda 33 foizga chiqarish maqsad qilib qo‘yilgan.(1,2,3)

Mamlakatimizda jismoniy tarbiya va ommaviy sport bilan muntazam shug‘ullanish hamda sog‘lom turmush tarzi bo‘yicha hayotiy ko‘nikmalarni shakllantirish, zararli odatlardan voz kechish, to‘g‘ri ovqatlanish tamoyillariga amal qilish, tiklash va reabilitatsiya ishlari hamda ommaviy jismoniy faollik tadbirlarini tizimli va samarali tashkil qilish, bu borada tegishli infratuzilma va boshqa zarur shart-sharoitlarni yaratishga katta ahamiyat berilmoqda. Shunday bo‘lsa-da jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug‘ullanuvchilar soni past darajada qolmoqda. Bu holat oliy ta’lim muassasalari pedagogik xodimlariga ham tegishlidir. Pedagogik xodimlarning tashkillashtirilgan jismoniy tarbiya va sog‘lomlashtirish faoliyatiga kam jalb etilishining sabablari quyidagilar: ko‘pchilik ta’lim muassasalarida bunday faoliyatni amalga oshirish uchun sharoitlarning etishmasligi, zamonaviy uslubiy ishlanmalar bilan yetarlicha ta’minlanmaganligi, tizimli yondashuv va samarali tashkiliy modellarning mavjud emasligi, hamda zamonaviy texnik vositalarning imkoniyatlari yetarlicha baholanmaganligi. Bu omillar pedagogik xodimlarning jismoniy faollikka jalb etilishiga to‘sqinlik qilmoqda.

Shu sababli pedagog xodimlarning vaqtini tejashga yordam beradigan va ularga barcha joyda jismoniy tarbiya va sog‘lomlashtirish faoliyati bilan qulay shug‘ullanish imkoniyati yaratadigan yangicha uslublardan foydalanish zaruriyati mavjud.

Raqamli texnologiyalarni jismoniy tarbiya va sog‘lomlashtirish faoliyatiga joriy etish pedagoglarning individual xususiyatlari va kasbiy xususiyatlarini hisobga olgan holda salomatligiga individual yondashish imkoniyatlarini ochib beradi. Biroq, ushbu sohada raqamli texnologiyalardan foydalanishning uslubiy yondashuvlarini ilmiy asoslash hali ham yetarlicha ishlab chiqilmagan. (4,5,6)

Tadqiqotning maqsadi. Oliy ta’lim muassasalarining pedagog xodimlarini jismoniy tarbiya va sog‘lomlashtirish faoliyatini raqamli texnologiyalar yordamida optimallashtirishni ilmiy-uslubiy asoslarini ishlab chiqish, shu jumladan tadqiqot bosqichlari, ma’lumotlarni yig‘ish va tahlil qilish usullarini asoslashdan iborat.

Tadqiqotning nazariy asoslari. Pedagoglarning jismoniy tarbiya va sog‘lomlashtirish faoliyati - bu ularning jismoniy va psixoemotsional farovonligini saqlashga qaratilgan tadbirlar majburiydir. Zamonaviy raqamli texnologiyalar jismoniy faoliyatni nazorat qilishni avtomatlashtirish, salomatlik holatini kuzatish va individual tavsiyalar berish imkonini beradi. Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, jismoniy tarbiya va sog‘lomlashtirish faoliyatini raqamli texnologiyalar asosida optimallashtirish turli sohalarda, jumladan, korporativ salomatlik va ommaviy sportda muvaffaqiyatli qo‘llanilmoqda. Biroq, bu yondashuvlarni ta’lim muhitiga moslashtirish, pedagog xodimlarning kasbiy ehtiyojlariga yo‘naltirilgan aniq uslubiy yechimlarni ishlab chiqishni talab qiladi.(5,7,8)

Oliy ta’lim muassasalari pedagogik xodimlari jismoniy tarbiya-sog‘lomlashtirish faoliyatini modellashtirish jarayonida uni loyihalashtirish, joriy etish, baholash, tuzatish va qo‘yilgan maqsadlarga erishishga qaratilgan ushbu faoliyatga kompleks yondashuv sifatida ko‘rib chiqish nazarda tutiladi.

Taxminlarga ko‘ra, eksperimental pedagogik model tarkibiy komponentlar tizimi orqali ko‘rib chiqilishi mumkin: maqsadli, mazmunli, funktsional, diagnostik, natijaviy.

Har qanday tizimning ishlashi, eng avvalo, u faoliyat ko‘rsatayotgan sharoitlarga bog‘liq bo‘ladi. Pedagogik tizimlar uchun sharoitlarni to‘g‘ri tanlash nafaqat natijalarning barqaror ko‘rsatkichlarini ta’minlashga, balki umuman o‘rganilayotgan jarayonning sifatini izchil oshirishga ham qodir bo‘ladi. Model tarkibiy qismlarining o‘zaro ta’siri va ishlashini ta’minlaydigan shartlar modelning ajralmas tarkibiy qismidir.

Tadqiqotga metodologik yondashuvlar. Pedagoglarning jismoniy tarbiya va sog‘lomlashtirish faoliyatini raqamli texnologiyalar asosida optimallashtirish bo‘yicha tadqiqot metodologiyasi quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

Tizimli yondashuv. Pedagoglarning jismoniy salomatligi kasbiy farovonligining bir qismi sifatida qaraladi, bu erda raqamli texnologiyalar tizimli qo‘llab-quvvatlash vositasidir.

Individuallashtirish. Tadqiqotda pedagoglarning individual xususiyatlarini, shu jumladan jismoniy tayyorgarlik darajasi, yoshi, kasbiy yuklamasi va IT savodxonlik darajasini hisobga olish kerak.

Majmuaviylik. Optimallashtirish jismoniy faoliyatni ham, psixoemotsional holatni kuzatishni ham o‘z ichiga oladi, bu murakkab diagnostika usullari va raqamli yondashuvdan foydalanishni talab qiladi.

Ilmiy asoslilik. Foydalanilgan tadqiqot usullari, shuningdek, raqamli texnologiyalar ilmiy jihatdan tasdiqlangan va ishonchli bo‘lishi kerak.

Tadqiqot bosqichlari. Tadqiqot metodologiyasi quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oladi:

Tayyorgarlik bosqichi. Ilmiy adabiyotlar va mavjud raqamli yechimlarni tahlil qilish. Pedagoglar uchun raqamli vositalarga qo‘yiladigan talablarni aniqlash. Tadqiqot ishtirokchilari namunasini shakllantirish.

Diagnostika bosqichi. Pedagogik xodimlarning jismoniy faolligi va salomatlik holatining boshlang‘ich darajasini baholash. Anketalar, testlar va raqamli texnologiyalar yordamida ma’lumotlarni yig‘ish.

Modelni ishlab chiqish va amalga oshirish. Raqamli texnologiyalardan foydalangan holda jismoniy madaniyat va sog‘lomlashtirish faoliyati modelini ishlab chiqish. Raqamli platforma yoki dastur yordamida ishlab chiqilgan modelni aprobatsiya qilish.

Baholash bosqichi. Raqamli texnologiyalarni joriy etishdan oldingi va keyingi ko‘rsatkichlarning qiyosiy tahlili. Pedagoglarning qoniqishini baholash va raqamli vositalardan foydalanishdagi to‘siqlarni aniqlash.

Tadqiqot usullari. Tadqiqot quyidagi usullardan foydalanishni o‘z ichiga oladi: **Nazariy**

usullar; Ilmiy adabiyotlarni tahlil va sintez qilish, ilg‘or yondashuvlarni aniqlash va ularni ta’lim muhitiga moslashtirish. **Empirik usullar;** Pedagogik xodimlarning salomatligi va jismoniy faolligini baholash uchun anketalar, kuzatishlar, suhbatlar va testlar. **Raqamli texnologiyalar;** Jismoniy faollikni kuzatish va ma’lumotlarni tahlil qilish uchun fitnes-trekerlar, mobil ilovalar va onlayn platformalardan foydalanish. **Statistik usullar;** Dasturiy ta’minot (masalan, SPSS, Excel) yordamida ma’lumotlarni sifatli va miqdoriy tahlil qilish.(8)

Samaradorlikni baholash; Raqamli optimallashtirish samaradorligini baholash mezonlariga quyidagilar kiradi: Pedagoglarning jismoniy faollik darajasini oshirish, kasbiy stress darajasini pasaytirish, pedagoglarning salomatlik holatidan qoniqishini oshirish, jismoniy va psixoemotsional holatni tekshirish natijalariga ko‘ra ijobiy dinamika.

Xulosa. Pedagoglarning jismoniy tarbiya va sog‘lomlashtirish faoliyatini raqamli texnologiyalar asosida optimallashtirishni tadqiq qilish uchun ishlab chiqilgan metodika, ta’lim muhitiga integratsiyalashgan individual va samarali salomatlik dasturlarini yaratishda foydalanish mumkin. Jismoniy tarbiya va sog‘lomlashtirish ishlariga raqamli texnologiyalarni joriy etish pedagoglarning jismoniy holatini yaxshilash va stress darajasini pasaytirish, ularning kasbiy barqarorligini oshirish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” gi 2022-yildagi PF-60-son Farmoni. Lex.uz

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Aholi jismoniy tayyorgarlik darajasini baholash tizimini joriy etishning tashkiliy chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi 2021-yil 16-iyundagi PQ–5148-son qarori. Lex.uz

3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Aholining jismoniy tayyorgarlik darajasini baholash bo‘yicha sport sinovlarini tashkil etish va o‘tkazish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi 2022-yil 15-yanvar, 23-son qarori. Lex.uz

4. Иванов С.А., Петрова Н.В. Цифровые технологии в физической культуре и спорте: перспективы и вызовы // Вестник физкультурного образования. 2022. №3.

5. Ibraximov S.U. Jismoniy tarbiya va sport sohalarida raqamli axborot texnologiyalarning rivojlanishi bosqichlari. “Raqamli ta’limning zamonaviy tendentsiyalari va ularni ta’lim-tarbiya jarayoniga tadbiq qilish yo‘llari” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi, 2023. 283-286.

6. Сидоров А.В. Инновационные подходы к мониторингу здоровья педагогов // Педагогика и здоровье. 2021. №5.

7. World Health Organization. Guidelines on Physical Activity and Sedentary Behaviour. Geneva: WHO, 2020.

8. Смирнов И.И., Кузнецова Е.В. Использование цифровых технологий в образовательной среде: опыт и перспективы // Цифровая педагогика. 2020. №2.

MUSTAQILLIK YILLARIDA HAYKALTAROSHLIK SAN'ATINI RIVOJLANISHI TARIXI

Panayeva Maloxat Muminovna
Urganch davlat pedagogika instituti "San'atshunoslik" kafedrasi stajor-o'qituvchisi
panayevamalohat@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekiston mustaqillik yillari davomida iqdisodiy-ijtimoiy sohadagi yutuqlari bilan bir qatorda, mafkuraviy-ma'naviy, madaniy ishlarga e'tiborini kuchaytirib, jahonning rivojlangan davlatlari orasida o'z nufuzi va obro'sini yuqoriga ko'tarmoqda. Mustaqillik yillarida haykaltaroshlikda yirik badiiy yodgorlik haykallar barpo etildi, ularda ajdodlarning yorqin qiyofalarini yaratishga erishildi. Shu yillar davomida haykaltaroshlik san'ati rivojlanishiga o'z hissasini qo'shgan haykaltaroshlar va ular yaratgan asarlari haqida so'z yuritilgan. Haykaltaroshlik asarlari ham tasviriy san'atning boshqa turlari kabi o'zining bajaradigan vazifasi, mazmuniga qarab qator tur va ishlatiladigan materiallari haqida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: San'at, badiiy, haykaltaroshlik, xarakter, uslub, obraz, monumental, dekorativ, dastgoh, mahobatli.

ИСТОРИЯ РАЗВИТИЯ ИСКУССТВА СКУЛЬПТУРЫ В ГОДЫ НЕЗАВИСИМОСТИ

Аннотация. В данной статье за годы независимости, наряду с достижениями в экономической и социальной сфере, Узбекистан увеличивает свое влияние и репутацию среди развитых стран мира за счет повышения внимания к идеологическим, духовным и культурным делам. В годы независимости были воздвигнуты масштабные художественные памятники в скульптуре, в которых удалось создать яркие образы предков. Обсуждаются скульпторы, внесшие вклад в развитие скульптурного искусства на протяжении многих лет, и их произведения. Скульптурным произведениям, как и другим видам изобразительного искусства, даются сведения об их назначении, различных видах и используемых материалах в зависимости от их содержания.

Ключевые слова: Искусство, художественный, скульптура, характер, стиль, образ, монументальный, декоративный, станковый, величественный.

HISTORY OF THE DEVELOPMENT OF THE ART OF SCULPTURE IN THE YEARS OF INDEPENDENCE

Annotation. In this article, during the years of independence, along with the achievements in the economic and social sphere, Uzbekistan has been increasing its influence and reputation among the developed countries of the world by increasing its attention to ideological, spiritual and cultural affairs. In the years of independence, large-scale artistic monuments were erected in sculpture, in which it was possible to create bright images of ancestors. Sculptors who have contributed to the development of sculptural art over the years and their works are discussed. Sculptural works, like other types of fine art, are given information about their function, various types and materials used depending on their content.

Key words: Art, artistic, sculpture, character, style, image, monumental, decorative, easel, majestic.

Kirish. Maqolada O'zbekiston mustaqilligi yillarida haykaltaroshlik san'ati sohasida amalga

oshirilayotgan yutuqlar, ayniqsa, yirik badiiy yodgorlik haykallarining yaratilishi, tarixiy va madaniy merosning abadiylashtirilishi haqida so‘z yuritiladi. Haykaltaroshlik milliy madaniyatning muhim qismi sifatida yuksalib, xalqning tarixiy xotirasini saqlash va zamonaviy san’atga yangi ma’nolar kiritish borasida o‘zining mustahkam o‘rnini egalladi. Mustaqillik yillarida haykaltaroshlik san’sti nafaqat badiiy jihatdan, balki g‘oyaviy va ma’naviy ahamiyati bilan ham e’tiborga molik. Ushbu davrda yaratilganasarlar nafaqat tarixiy yodgorliklar sifatida, balki xalqning ma’naviy dunyosini, g‘ururini, kelajakka bo‘lgan ishonchini aks ettiruvchi nishonlar sifatida xizmat qilmoqda.

Adabiyotlar sharhi. Haykaltaroshlik san’ati bilan bog‘liq adabiyotlar tarixiy jihatdan chuqur ildizlarga ega bo‘lib, ularda san’atning barcha turlari, xususan, haykaltaroshlikning metodologiyasi, texnikasi va uslubi haqida keng tasavvurlar mavjud. Haykaltaroshlik san’ati haqida yazilgan ilmiy ishlarda bu san’at turining rivojlanish bosqichlari, janrlar, texnik usullar va badiiy yodgorliklarning o‘ziga xos xususiyatlari ko‘rib chiqiladi. Boymetovning “Haykaltaroshlik va plastik anatomiya” [1] asari bu soha uchun muhim ilmiy manba hisoblanadi, chunki unda haykaltaroshlik asarlarini yaratish jarayonidagi anatomik asoslar va texnik o‘zgarishlar haqida batafsil ma’lumotlar keltirilgan.

Abdullaevning “San’at tarixi” asarida [3] esa O‘zbekistonning mustaqillik davrida haykaltaroshlik san’ati qanday shakllanganligi va uning xalq hayotidagi o‘rni haqida keng tahlillar berilgan. Abdirasilov, Tolipov tomonidan yozilgan “Rangtasvir” kitobida [6] esa tasviriy san’atning boshqa turlari bilan haykaltaroshlikning o‘zaro aloqalari, rang va shaklni ishlatishdagi yondashuvlar ko‘rib chiqilgan. Bu asarlar, shuningdek, zamonaviy haykaltaroshlikning umumiy rivojlanish yo‘nalishlarini va yangi istiqbollarini aniqlashda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

Mazmuni. Mustaqillik davri yangi mafkuraviy sharoiti milliy haykaltaroshlik mavqei mustahkamlash bosqichini yuzaga keltirdi. Endilikda mazkur soha avvalgi ijodiy an’anlardan farqli ravishda, birgina milliy yo‘sinda rivojlanish jarayoniga erishdi. Maskur holat uning oldingi bosqichidagi muammoli masalaga malham bo‘lib, sof mahalliy makonga muvofiqligi ta’minlana boshladi. To‘g‘ri, bu jarayon yangi tarixiy sharoitning o‘tish davri uchun xos bo‘lgan ayrim muammolardan ham xoli emas, albatta. Biroq erishilgan yangi imkoniyatlar va milliy rivojlanishning dastlabki sinovli jarayonida qo‘lga kiritilgan ilk natijalar kesmida baholansa, soha istiqboli uchun taxlikali emasligi, balki, vaqt davomida ijobiy yechimini topishiga ishonch uyg‘otadi. Muhimi esa haykaltaroshlikda ham san’atning boshqa turlari singari milliy salmog‘ining ortishi, xalqchil darajaga ko‘tarila boshlashi va zamonaviy tasviriy san’at miqyosida ham o‘z mavqeini mustahkamlash bosqichiga o‘tishidir.

Boshqa san’at turlari singari haykaltaroshlik ham doimiy rivojlanishda. U o‘z xalq hayotida hamroh bo‘lib, xalq qanday tarixiy hodisalarni va siljishlarni boshdan kechirsa, bu kechinmalar haykaltaroshlikda o‘z aksini topadi.

Haykaltaroshlik-bu materialga shakl berish orqali estetik va konseptual xosiyatlarni ifoda etish jarayonidir. U o‘z navbatida, uzoq tarixga ega bo‘lib, insonning madaniy merosida muhim o‘rin tutadi. Haykaltaroshlikning metodikasi san’atning texnika va usullari bilan bog‘liq bo‘lib, bu metodika u yoki bu turdagi haykallarni yaratishda qo‘llaniladigan maxsus qadamlar va amaliy yo‘llarni o‘z ichiga oladi. [9]

Haykaltaroshlik asarlari yaratish uchun turli xildagi materiallardan foydalaniladi. Bu materiallar haykalga turli xarakter va mazmun berishda xizmat qiladi. Masalan, tosh granitda ishlangan haykallar kishida ulug‘vorlik, abadiylik baxsh etsa. Aksincha, marmarda ishlangan haykallar nozik, ko‘rkam ko‘rinadi. Shuning uchun haykallar o‘zining mazmuni va o‘rnatiladigan joyiga qarab har xil materiallardan ishlanishi mumkin. Haykaltaroshlik materiallari quyidagilardan iborat: plastilin, loy, yog‘och, metall, marmar, granit, suyak, sement, gips va hokazolardir.[1, B.11] Qimmatbaho metallar-oltin, kumush, nikellar ham haykaltaroshlikda qo‘llaniladi. Haykaltaroshlikda deyarli rang ishlatilmaydi, lekin xalq haykaltaroshligida haykallarni bo‘yash hollari uchraydi. Bunga O‘zbekiston

hududidan topilgan qator haykaltaroshlik asarlari misol bo‘la oladi. Haykaltaroshlik turlari insonlar va hayvonlar shakllaridan tortib, abstrakt san’at va monumental ishlarga qadar keng spektrni o‘z ichiga oladi. Haykaltaroshlik asarlari ham tasviriy san’atning boshqa turlari kabi o‘zining bajaradigan vazifasi, mazmuniga qarab qator tur va janrlarga bo‘linadi. Haykaltaroshlik turlari deganda biz monumental, dekorativ va dastgoh haykaltaroshligini tushunamiz.[7, B.191] Monumental haykaltaroshlikka muhim tarixiy voqealar, atoqli shaxslar xotirasini abadiylashtirish maqsadida o‘rnatilgan yirik o‘lchovdagi, turli xildagi yodgorliklar, haykaltaroshlik ansambllari kiradi. Odatda monumental haykaltaroshlik asarlari o‘zida katta mazmunni anglatib, mustaqil xarakterga ega bo‘ladi. Lekin shu bilan birga u bevosita muxit bilan bog‘liq bo‘lib, me’morchilik binolari hamda tabiat bilan uyg‘unlikda bo‘lishi mumkin. Bu unga yanada ulug‘vorlik va ta’sirchanlik baxsh etadi. Monumental haykaltaroshlik asarlariga xos bo‘lgan xususiyatlardan biri bu asar qahramonlarini ko‘tarinki ruxda tasvirlashdir.

Monumental haykaltaroshlik asarlari doim ochiq havoda turish uchun mo‘ljallangan bo‘lganligi sababli ular uzoq turadigan qattiq materialdan, masalan, tosh, bronza, granit va betonlardan ishlanadi. Bulardan tashqari monumental haykaltaroshlik asarlari uzoqdan ko‘rishga mo‘ljallanganligi sababli, ularda katta-katta yaxlit shakllardan keng foydalaniladi. Istiroxat bog‘lar xiyobonlar, ko‘chalar, shuningdek, me’morchilik binolarining devorlarini bezash uchun ishlatiladigan haykallarning xamma turlari dekorativ haykaltaroshlik san’atiga kiradi. Haykaltaroshlik san’atining bu turi monumental haykaltaroshlikdan shu bilan farq qiladiki, agar monumental haykaltaroshlik asarlari o‘zida mustaqil mazmunni anglatib me’morchilik va tevarak-atrofga bog‘liq bo‘lmagan xolda kishiga mustaqil fikrni bera olsa, dekorativ haykaltaroshlik asarlari esa bevosita me’morchilik kompozitsiyasi bilan bog‘liq bo‘ladi. Bundan tashqari agar monumental haykaltaroshlik asarlari ishlashda obrazlarni ko‘tarinki ruxda ishlansa, dekorativ haykaltaroshlik asarlarida esa obrazlarni bir oz yengil yumoristik tarzda talqin etib, bo‘rttiriladi. Bunga xalq badiiy ijodiyoti haykalchalarini misol qilish mumkin. Haykaltaroshlikning bu turida turli hayvon va qushlar shakli keng ishlatiladi. Binolarning devorlariga ishlanadigan turli bo‘rtma tasvirlar, amaliy san’at buyumlarining yuzasiga ishlangan tasvirlar ham dekorativ haykaltaroshlikka kiradi. Turli favvoralar, panjaralar, darvozalarga ishlangan badiiy bezaklarga ham dekorativ haykaltaroshlik namunalari sifatida qaraladi. Chinnidan yasalgan haykalchalar, loydan ishlangan o‘yinchoqlar ham shu haykaltaroshlikning ko‘rinishi hisoblanadi.




Natijalar. O‘zbekiston haykaltaroshligi ijodiy yo‘nalishlarning turli tumanligini, uslubiy yechimlar obrazni to‘ldirishda ko‘p qirralilikni asosan mustaqillik davrida namoyish etadi. Mustaqillik yillarida haykaltaroshlikda yirik badiiy yodgorlik haykallar barpo etildi, ularda ajdodlarning yorqin qiyofalarini yaratishga erishildi. Haykaltaroshlar E.Aliyev, N.Bandzeladze, V.Degtyarovlar tarixiy obrazlarni atrof-muhit bilan uyg‘unlikda ramziy ma’noda barpo etilgan qiyofalarni mahobatli qilib

jonlantirganlar. Monumental haykaltaroshlikda sermahsul ijod qilayotgan I.Jabborov, J.Mirtojiyev asarlarida san'atlar sinteziga asoslangan asarlari yuzaga keldi. Toshkent, Samarqand, Shahrisabzda qad ko'targan Amir Temurning mahobatli haykallarida sohibqiron obrazi gavdalantirildi. Buyuk alloma "alFarg'oniy", "Zahiriddin Muhammad Bobur", "Abdulla Qodiriy", "Cho'lpon", "Ona" kabi yirik yodgorlik asarlarida tarixiy shaxslar qiyofasi, xalq qahramonining badiiy talqini yaratildi. (I.Jabborov "Amir Temur")

Dastgoh haykaltaroshligida zamonaviy va milliy an'analar o'zaro uyg'unlikda rivojlanmoqda, bunda badiiy tasviriylik yetakchi o'rin tutadi. Haykaltaroshlikda o'ziga xos ijodiy uslubga ega bo'lgan. T.Tojixo'jayev, D.Ro'ziboyev, J.Quttimurodov, J.Mirtojiyev va boshqa haykaltaroshlar samarali ijod qilmoqda[5, B.170]. Mayda haykaltaroshlikda ham katta muvaffaqiyatlarga erishildi, sopol (terrakota), shamot, chinni, fayans, yog'och va boshqalarda asarlar yuzaga keldi. Sh.Mo'minova, N.Qodirov, V.Shurkov va boshqalarning sopol haykalchalari ishlanishi xalq ijodiyotiga yaqinligi, yengil yumori bilan diqqatni o'ziga tortadi.

Mustaqillik davri haykaltaroshligining o'ziga xos bo'limi dekarativ haykal tashkil etadi. Haykaltaroshlarning plastik imkoniyatlari kengayishi, rang qo'llanilishi, fazo bilan uyg'unlik, tasviriy san'atni boyituvchi bo'rttirishlar ko'payib bormoqda. Haykallarning mavzulari bugungi kunda o'zida tarixni va zamonaviy syujetlarni mujassamlashtirgan. O'zbekiston zamonaviy haykaltaroshligining o'z yutuq va muammolari mavjud. Haykaltaroshlik bo'yicha dunyo madaniyatiga chiqishi, yosh iste'dodli haykaltaroshlarni tayyorlash, undan tashqari haykallarning shahar muhitiga uyg'un tarzda kirib borishi muhim bo'lib qolmoqda.

Olingan natijalarning ishonchliligi: O'zbek haykaltaroshlari nafaqat yurtimiz, balki xorijiy mamlakatlarning mahobatli san'ati rivojiga ham munosib xissa qo'shib kelmoqda. Ularning ijodi xalqlararo madaniy aloqalarning mustahkamlanishida muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda. XXI asrda yosh haykaltaroshlar orasida qizg'in ish olib borayotgan J.Annazarov A.Allaberganov kabi mohir haykaltaroshlarni aytib o'tishimiz mumkin. Jasvant Annazarov - O'zbekistonning zamonaviy haykaltaroshlaridan biri bo'lib, o'zining badiiy yondashuvlari, ijodiy uslubi va haykaltaroshlikdagi innovatsion ishlanmalari bilan tanilgan. Uning asarlari tasviriy san'atda yangiliklarni yaratish, milliy va zamonaviy elementlarni birlashtirishga qaratilgan.



J.Annazarovning ijodi o'ziga xosligi shundaki, u haykaltaroshlikda faqat materiallardan foydalanish bilan cheklanmay, balki shakl va kompozitsiya orqali chuqur ma'no yaratishga harakat qiladi. Ularning asarlarida ko'pincha odamlarning tarixiy, ma'naviy yoki falsafiy qiyofalari aks etadi, bu esa uning ishlarini nafaqat estetik jihatdan, balki ma'naviy jihatdan ham boyitadi. J.Annazarov va A.Nuriddinovlar Xorazm viloyatida qad ko'targan "Jaloladdin Manguberdi" haykali qurilishida maslahatchi bo'lib faoliyat olib borganlar.

Xulosa. Shuni aytish joizki, O'zbekiston o'zining qisqa vaqt ichida mustaqillik yillari davomida iqtisodiy-ijtimoiy sohadagi yutuqlari bilan bir qatorda, mafkuraviy-ma'naviy, madaniy ishlarga e'tiborini kuchaytirib, jahonning rivojlangan davlatlari orasida o'z nufuzi va obro'sini yuqoriga

ko‘tarmoqda. O‘zbekiston haykaltaroshlik san’ati juda qisqa vaqtda rivojlanib, katta yutuqlarga erishdi. O‘zbekiston san’ati zafarli yo‘lni bosib o‘tdi. Respublikamiz haykaltaroshlari ko‘pgina ko‘rgazmlarda faol ishtirok etib, san’atimiz ta’sirchanligining ortib borayotganini namoyish etdilar. Haykaltaroshlikning barcha tur va janrlarida ijod qilib, uning ravnaqiga o‘z hissalarini qo‘shib kelmoqdalar. Haykaltaroshlik jamiyat ravnaqida milliy qadriyatlarning namoyon bo‘lishida naqadar ahamiyatli ekanligidan dalolat beradi.

Iqtiboslar/Сноски**/References**

1. Boymetov B. Haykaltaroshlik va plastik anatomiya. Oliy o‘quv yurtlari uchun o‘quv qo‘llanma / B.Boymetov; O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi. –Toshkent, 2007. – 120b.

2. Б .Бойметов. Ҳайкалтарошлик. ТОШКЕНТ-2003

3. Н.Абдуллаев Санъат тарихи II-жилд I-китоб «Санъат», Тошкент, 2001.

4. N.Abdullayev O‘zbekiston san’ati tarixi o‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti Toshkent - 2007

5. U.U.Mansurov, A.SH.To‘xtabayev, O‘zbekistonning madaniyati va san’ati tarixi o‘quv qo‘llanma Toshkent «O‘zkitob savdo nashriyot matbaa ijod uyi» 2021

6. S.F.Abdirasilov, N.Tolipov, N.Oripova “Rangtasvir” Toshkent-“O‘zbekiston” 2006

7. Panayeva M., The role of sculpture in the teaching of fine arts 1st June, 2023. 195-199. URL: econferenceseries.com

8. Ибадуллаева, Н. 2024. Развитие художественно-творческих компетенций студентов изобразительного художественного образования. *Общество и инновации*. 5, 10/S (окт. 2024), 55–62.

9. Jabbarov, I. Monumental haykaltaroshlik va uning yirik yodgorliklari. Toshkent: San’at nashriyoti. 2016

10. Nazarov, B. 2020 Milliy haykaltaroshlik va mustaqillik davri. Tashkent: O‘zbekiston Yozuvchilar Uyushmasi. 2020

BO‘LAJAK PEDAGOGLARDA TA’LIM JARAYONIDA INNOVATSION FAOLIYATINI BOSHQARISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH

Sultonova Zeboxon Gayrat qizi
Urganch davlat pedagogika instituti magistranti, sultanovazebo0611@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada bo‘lajak maktab o‘qituvchilarini innovatsion kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonining o‘ziga xos pedagogik, psixologik xususiyatlari haqida mulohaza yuritilgan. Shuningdek, ularni innovatsion kasbiy faoliyatga tayyorlashda pedagogik amaliyot, ilg‘or pedagogik tajribalar hamda ota-onalar bilan hamkorlik masalalari bayon qilingan.

Kalit so‘zlar: pedagogika, psixologik, bo‘lajak maktab o‘qituvchisi, ilg‘or tajriba, innovatsion kasbiy faoliyat, pedagogik amaliyot, kompetensiya, ijodiy yondashuv, pedagogik vaziyatlar.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕХАНИЗМА УПРАВЛЕНИЯ ИННОВАЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬЮ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ БУДУЩИХ ПЕДАГОГОВ

Аннотация. В данной статье рассматриваются особенности педагогических и психологических аспектов процесса подготовки будущих школьных учителей к инновационной профессиональной деятельности. Также обсуждаются вопросы педагогической практики, передового педагогического опыта и сотрудничества с родителями в процессе подготовки их к инновационной профессиональной деятельности.

Ключевые слова: Педагогика, психология, будущий школьный учитель, передовой опыт, инновационная профессиональная деятельность, педагогическая практика, компетентность, творческий подход, педагогические ситуации.

IMPROVING THE MECHANISM FOR MANAGING INNOVATIVE ACTIVITIES IN THE EDUCATIONAL PROCESS OF FUTURE EDUCATORS

Annatation. This article discusses the unique pedagogical and psychological characteristics of the process of preparing future school teachers for innovative professional activities. Additionally, it addresses issues related to pedagogical practice, advanced pedagogical experiences, and collaboration with parents in the preparation of teachers for innovative professional activities.

Key words: Pedagogy, psychological, future school teacher, best practice, innovative professional activity, pedagogical practice, competence, creative approach, pedagogical situations.

Kirish. Bugungi kunda Xalq ta’lim tizimi oldiga qo‘yilayotgan maqsadlarga erishish, o‘quvchilarning xilma-xil faoliyatini uyushtirish, ularni bilimli, mehnatsevar, odobli, e’tiqodli, barkamol inson qilib o‘stirish pedagog-tarbiyachi zimmasiga yuklatiladi. Shu sababli xalq ta’lim sohasidagi yangiliklarning bevosita davomi sifatida O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’lim vazirligi ko‘plab dasturlar va loyihalar tasdiqlangan.

Xalq ta’lim muassasasining mazkur davlat o‘quv dasturi O‘zbekiston Respublikasining maktab yoshdagi bolalarning rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablariga muvofiq ishlab chiqilgan me’yoriy-huquqiy hujjat bo‘lib, unda Xalq ta’lim muassasasining maqsad va vazifalari, o‘quv-tarbiyaviy faoliyatning asosiy g‘oyalari ifodalangan. Shuningdek, o‘quvchilarning ta’limning keyingi bosqichiga o‘tishidagi asosiy kompetensiyalari belgilangan. Bu o‘z navbatida Xalq ta’lim tizimida pedagogik jarayonlarni innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etilishi kerakligini talab etadi[1].

Adabiyotlar sharhi. M. Abdullayeva 2021-yil "Innovatsion ta'lim metodlari va ijodiy fikrlashi" mavzusidagi tadqiqotida innovatsion ta'lim metodlarini qo'llash orqali o'quvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyatini oshirishga qaratilgan yondashuvlarni ko'rsatadi. Muallif, shuningdek, innovatsion ta'limning asosiy tamoyillarini belgilab, ta'lim jarayonida yangiliklarni joriy etishning ahamiyatini ta'kidlaydi. Bu tamoyillar pedagoglarning innovatsion faoliyatini boshqarishda muhim asos bo'lib xizmat qiladi.

D. Isroilova 2020-yil "Pedagog malakasini rivojlantirish va zamonaviy pedagogik texnologiyalar" mavzusidagi tadqiqotida pedagoglarning innovatsion faoliyatdagi rolini o'rganib, ularning kasbiy malakasini oshirish zarurligini ko'rsatadi. Muallif, pedagogik kadrlarni tayyorlashda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llashning ahamiyatini ta'kidlaydi va pedagoglarning malakasini oshirish uchun innovatsion dasturlarni ishlab chiqish zarurligini belgilaydi.

S. Rahmonov 2022-yil "Innovatsion faoliyatni boshqarish jarayoni va tizimli yondashuv" mavzusidagi tadqiqotida innovatsion faoliyatni boshqarish jarayonida tizimli yondashuvni qo'llash zarurligini ta'kidlaydi. U, shuningdek, pedagoglarning innovatsion faoliyatini boshqarishda rahbarlik va mentorlik rolining ahamiyatini ko'rsatadi. Ushbu mexanizmlar ta'lim jarayonida samaradorlikni oshirishga yordam beradi.

L. Qodirova 2023-yil "Innovatsion texnologiyalar va ta'lim sifatining oshishi" mavzusidagi tadqiqotida innovatsion texnologiyalarni joriy etish orqali ta'lim sifatini oshirish yo'llarini tahlil qiladi. U, o'qituvchilar va o'quvchilar o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish zarurligini ta'kidlaydi. Bu yondashuv pedagoglarning innovatsion faoliyatini yanada samarali boshqarishga imkon yaratadi.

Mazmuni. Bo'lajak pedagog-tarbiyachilarni kasbiy-ma'naviy jihatdan tayyorlash maqsadida ta'lim jarayonida ma'ruzalar, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari mazmunini yangi yondashuvlar asosida boyitish, shuningdek, pedagogik amaliyot, ma'naviyat kunlari va soatlarini takomillashgan dasturlar yordamida tashkil etishni taqozo qiladi[9].

Xalq ta'lim samaradorligini ta'minlashda pedagog-tarbiyachidan chuqur pedagogik psixologik tayyorgarlik, har bir o'quvchining o'ziga xos jihatlari to'g'risida aniq ma'lumotga ega bo'lishi va shaxsiy reja tuzishda quyidagi talablarga qat'iy rioya qilishi talab qilinadi:

– vujudga keladigan pedagogik muammolarni bashorat eta olishi; buning uchun bo'lajak pedagog-tarbiyachi pedagogik jarayonda vujudga keladigan muammolarni oldindan ko'ra olish va uni bartaraf qilish layoqatiga ega bo'lishi lozim.
– vujudga keladigan muammolarni bartaraf etish metodlarini o'zlashtirishi;
– vujudga kelgan muammolarni bartaraf qilishning eng qulay usullarini tanlay va qo'llay olishi;
– o'quvchilarni qo'llab-quvvatlash, ularga pedagogik ta'sir ko'rsatish mahoratiga ega bo'lishi;
– har bir o'quvchiga individual yondasha bilishi;
– o'quvchilar bilan ommaviy tadbirlarni tashkil qila olish ko'nikmasini egallashi;
– o'quvchilarni kitob sevarlik, kitobxonlikka unday olishi kabilar.

Natijalar. Bo'lajak pedagog-tarbiyachi kasbiy mahorati bolalarni maktabga samarali tayyorlash imkonini beradi[3].

Pedagog-tarbiyachilarning faoliyatini pedagogik, psixologik, tashkiliy-metodik jihatdan o'rganish natijalari o'quvchilarning o'quv faoliyati samaradorligini oshirishda pedagog-tarbiyachining shaxsiy sifatlari va uning kasbiy tayyorgarligi katta ahamiyat kasb etadi. Shunga ko'ra, pedagog tarbiyachining kasbiy mahoratga ega bo'lishi, bilimdonligi va kreativligi o'quvchilarda ongli faollik va mustaqillikni tarkib toptirishning asosiy omili hisoblanadi[2].

Pedagogik amaliyot jarayonida bo'lajak pedagog-tarbiyachining maktabda amalga oshiradigan ishlari ularda kasbiy mahoratni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Pedagogik amaliyot davrida bo'lajak pedagog-tarbiyachilarda o'z kasbiga moyillik, pedagogik faoliyatga

ijodiy yondashish, o‘zi egallagan zamonaviy bilimlarni amaliy tajribasida qo‘llash, rahbarlik ko‘nikmalarini egallash, o‘quvchi shaxsini pedagogik-psixologik taraflama o‘rganish, tahlil qilish, madaniy-ommaviy tadbirlarni tashkil qilish metodlarini o‘zlashtirish kabi ko‘nikmalar faollashadi va mustahkamlanadi[4]. Bularning hammasi talabalarni tarbiyachilik faoliyatiga tayyorlaydi. Shu bilan bir qatorda bo‘lajak pedagog o‘qituvchilar o‘z kasbiy faoliyatlari davrida amal qiladigan bir qator qoidalarni ham o‘zlashtirishlari lozim.

Ular quyidagilar:

– o‘quvchilarda ongli intizomni tarkib toptirish;
– bolalarga nisbatan adolatli munosabatda bo‘lish;
– guruhdagi faol o‘quvchilarni qo‘llab-quvvatlash va ularga yordam berish;
– o‘quvchilarning mustaqil faoliyatlarini munosib rag‘batlantirish;
– o‘quvchilar bilan topshiriqlar ustida tizimli ishlash hamda bu jarayonda ularni faollashtirish.

Guruh o‘quvchilari orasida tarbiyaviy tadbirlarni tizimli tarzda tashkil qilish kabilar. Shu bilan bir qatorda bo‘lajak o‘qituvchilar innovatsion kasbiy faoliyatga tayyorlashda ma’ruzalar, amaliy hamda laboratoriya mashg‘ulotlari paytida dialogga kirishish, fanga doirasida yangi ma’lumotlar ustida ishlash, mustaqil bilim olish, manbalar ustida ishlash va o‘rgangan tajribalarini tahlil qilish muhim o‘rin egallaydi[5].

Maktabda sinf faoliyatiga rahbarlik qilish o‘ziga xos xususiyatlarga ega[14].

Olingan natijalar ishonchliligi. Pedagog-tarbiyachilar bolalarda atrof-muhit, tabiat, nutq hamda hisoblashga doir dastlabki ko‘nikmalarni hosil qilish bilan bir qatorda ularni kompleks rivojlantirishga xizmat qiladigan milliy urf-odatlarimizni ham singdiradilar. Ular bolalarda juda yoshlikdan boshlab, haqgo‘ylik, birdamlik, bag‘rikenglik, o‘zaro yordam kabi sifatlarni shakllantirishga intiladilar[7].

Xalq ta’limining sifati ta’limning keyingi bosqichlarida o‘quvchilarning bilimlarni sifatli o‘zlashtirishlarini kafolatlaydi. Buning uchun xalq ta’lim muassasalarini modernizatsiyalashga oid yagona talablarni ishlab chiqish, ushbu talablar sifatli ta’lim va tayanch ko‘nikmalarni hosil qilishni nazarda tutadi. Xalq ta’limni individuallashtirish tamoyili o‘zida bir qator talablarni mujassamlashtiradi.

Jamiyatning rivojlanishi bilan bir qatorda shaxs faoliyati ham ko‘proq darajada individuallashtiriladi va uning mavqeyi o‘zgaradi[8].

Agar mamlakat va jamiyat qanchalik rivojlangan bo‘lsa unda har bir inson alohida qadrlanadi hamda o‘z o‘rniga ega bo‘ladi[14].

Talabalar bugungi kunda ro‘y berayotgan voqealar, axborotlar oqimining jadallashuviga ongli munosabatda bo‘lish tajribasini egallashlari lozim. Ularda axborotlarni saralash, voqea -hodisalarga obyektiv munosabatda bo‘lish ko‘nikmalarining hosil bo‘lishi nihoyatda ahamiyatli[6].

Bo‘lajak pedagog-tarbiyachilar kundalik ijtimoiy-siyosiy voqeliklarni tahlil etish asosida ularni munosib baholash, shu asosda atrofdagilarning xatti- harakatlariga tanqidiy munosabatda bo‘lishlari kerak.

Bularning barchasi o‘quvchilarda ma’naviy xislatlarni tarkib toptirishga asos bo‘lib xizmat qiladi. Xalq ta’lim muassasasi pedagog-tarbiyachilar bolalarda ijobiy xislatlarni tarkib toptirish barobarida ular xulq -atvoridagi salbiy xususiyatlarning oldini olish, ularni bartaraf etish tajribasiga ham ega bo‘lishlari lozim[12].

Ko‘pincha Xalq ta’lim muassasasiga yangi kelgan bolalarda injiqlik, tortinchoqlik, guruh hayotiga moslashmaslik kabi holatlar kuzatiladi.

Bunday holatlarni bartaraf qilish, bolalarni jamoa hayotiga moslashtirish, ularni muloqot vaziyatlariga olib kirish, ruhiy osoyishtaliklarini ta’minlash pedagog tarbiyachilarning muhim

vazifalari sirasiga kiradi[11].

Bolalar xarakteridagi salbiy jihatlarni bartaraf etishga ko‘maklashish, ularni to‘g‘rilik va haqgo‘ylikka o‘rgatish, irodasini mustahkamlash pedagog tarbiyachilarning muhim vazifalaridandir [1].

Bunda pedagog-tarbiyachilar jamoaviy ta’sir ko‘rsatish metodidan foydalanishlari lozim. Pedagog tarbiyachilar bolalarni tevarak-atrofdagi voqelik bilan tanishtirish, ularni shu jarayonda ishtirok qilishlari uchun tayyorlashi lozim.

Bolalar oldiga aniq, o‘rtacha murakkablikdagi vazifalar qo‘yilgandagina, ularda qiziquvchanlik, tashabbuskorlik, faollik ko‘rsatish istagi namoyon bo‘ladi[3].

Natijada bolada mas’uliyat hissi paydo bo‘ladi, tarbiyachi tarafidan bildirilgan ishonchni oqlashga intiladi[10].

Bolalarning o‘z oldiga qo‘yilgan topshiriqlarni bajara olishlari ularning xulq-atvorlari tartibga solinishiga ko‘maklashadi. Buning natijasida ularda xarakter, irodaviy xislatlar mustahkamlanadi. Bolalar xulq-atvoridagi ijobiy jihatlarga tayanish orqali pedagog tarbiyachi ularni rag‘batlantirib, kamchiliklarini bartaraf qilishga erishadi[3].

Biroq, bolaning kamchiliklarini muntazam ta’kidlayverish ijobiy natija bermasligini bo‘lajak pedagog-tarbiyachilar ongiga yetkazish kerak. Bolalarning xulq-atvorini shakllantirish uchun pedagog-tarbiyachi mehribon va talabchan bo‘lishi kerak.

Xulosa. O‘qituvchi ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil qilish hamda boshqarishda ota -onalar va mahalla bilan hamkorlikni amalga oshirish ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Bolalarda mehnatsevarlik, sinchkovlik, ziyraklik, ishchanlik, mas’uliyatlilik kabi axloqiy sifatlarni qaror toptirishda pedagog-tarbiyachining o‘rni beqiyos bo‘lib, bunday mas’uliyatli vazifani ular oliy pedagogik ta’lim muassasalarida o‘qish jarayonidayoq anglab yetishlari lozim[9].

Ko‘rinib turibdiki, Maktablarda barcha faoliyat ko‘rsatayotgan pedagog tarbiyachilar oldiga murakkab vazifalar qo‘ymoqda. Shu bois, bo‘lajak pedagog tarbiyachilarda ilmiy dunyoqarash hamda yuksak ma’naviy xislatlarni rivojlantirish va jamoada, jamiyatda o‘zini munosib tuta bilish ko‘nikmalarini tarkib toptirish tizimli tarzda amalga oshirilishi talab qilinadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Норбошева М. А. (2021). Мактабгача ёшдаги болаларнинг оила ҳақидаги тасаввурларини ўрганиш. Инновации в педагогике и психологии, 4(6).

2. Salomova G. (2014). The reflection features of abbreviations and acronyms of the english language. In The Second International conference on development of pedagogical science in Eurasia (pp. 174-176).

3. Саломова Г., Жумаева Н., Хамраева Д. (2018). Методические принципы современных методик обучения английскому языку. Наука XXI века, (4).

4. Abdinazarovna S. G. (2020). The reflection features of abbreviations and acronyms of the english, russian and uzbek languages. “Тил, таълим, таржима” халқаро журнали, 2(1).

5. Саломова Г. А., Болтаева М., Холмуминов А. (2020). Употребления форм глагола и случаев в современном английском языке. Интернаука, (1-2), 23-24.

6. Саломова Г. А., Жумаева Н. А., & Хамроева Д. (2020). Теоретические основы обучения лексике английского в системе образования. Педагогика и психология в современном мире: теоретические и практические исследования (pp. 63-67).

7. Саломова Г. А., Файзиева Ф. А., Рузикулова М. О., & Паянова М. К. (2019). Использование икт и интернет-ресурсов на уроке английского языка. Молодой исследователь: вызовы и перспективы (pp. 36-40).

8. Kushokov S. Y. (2021). The role of zoroastrianism in the ancient state of bactria. World Bulletin of Social Sciences, 4(11), 69-72.

9. Yusupovich K. S. (2020). The emergence of religious views is exemplified by the southern regions. The american journal of social science and education innovations, 2(10), 143-145.

10. Aliyarovich T. E. , & Sayfiddinovich X. R. (2021). Forms and Methods of Innovative Approach through the use of Ethnopedagogy in the Development of Heury Capacity in Primary Schools. Journal of Ethics and Diversity in International Communication, 1(7), 16–22.

11. Xurramov R. S., Zokirov, J. G., & Xurramov M. S. (2021). Use of the heritage of central asian thinkers in the formation of ethnopedagogical, ethnographic views of primary school students. Scientific progress, 2(7), 846-853.

12. Xurramov R. S., Zokirov J. G. , & Temirova M. K., (2021). Ethnopedagogical fundamentals of developing interest in natural aesthetics in primary school students. Scientific progress, 2(7), 832-839.

13. Zokirov Javohir Gaybullo O‘gli & Xurramov Rustam Sayfiddinovich (2021). Formation of ethnopedagogical views among students through the study of the life and work of Alisher Navoi. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1 (10), 339-343.

14. Sayfiddinovich K. R. (2021). Didactic Bases of Ethnopedagogical Training of the Future Teacher in the Educational Field of University. Central asian journal of theoretical & applied sciences, 2(11), 237-239.

OLIY TA'LIM MUASSASALARI TALABALARINI MA'NAVIY-AXLOQIY TARBIYALASHDA JADID MAKTABLARI TAJRIBASIDAN FOYDALANISH

Madaminova Shaxodat Shomurotovna
Urganch davlat pedagogika instituti doktoranti, madaminovashaxodat@gmail.com

Annotatsiya. Oliy ta'lim muassasalari talabalari ma'naviy-axloqiy tarbiyalash jarayoni zamon talablariga mos ravishda rivojlanishi zarur. Jadid maktablari tajribasi esa, o'z vaqtida, yosh avlodni ma'naviy va axloqiy jihatdan yetuk insonlar sifatida tarbiyalashda muhim rol o'ynagan. Ushbu maqolada jadid maktablarining tarbiyaviy uslublari va ularning oliy ta'lim muassasalarida qo'llanilishi imkoniyatlari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: Milliy ma'naviy, ma'rifatparvar, milliy taraqqiyot, milliy uyg'onish, yangi usul maktablar, oliy dargoh, milliy davlatchilik, ibtidoiy maktablar.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ОПЫТА НОВЫХ ШКОЛ В ДУХОВНО-НРАВСТВЕННОМ ВОСПИТАНИИ СТУДЕНТОВ ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЙ

Аннотация. Высшие учебные заведения должны развивать процесс воспитания студентов в соответствии с требованиями времени. Опыт джадидских школ сыграл важную роль в воспитании молодежи как духовно и морально зрелых людей. В данной статье рассматриваются воспитательные методы джадидских школ и возможности их применения в высших учебных заведениях.

Ключевые слова: Национальное духовное, просвещенное, национальное развитие, национальное возрождение, новометодные школы, высшее образование, национальная государственность, начальные школы.

UTILIZING THE EXPERIENCE OF NEW SCHOOLS IN THE SPIRITUAL AND MORAL EDUCATION OF STUDENTS IN HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS

Annotation. The process of moral and ethical education of students in higher education institutions needs to develop in accordance with the demands of the time. The experience of Jadid schools played a significant role in nurturing the younger generation as spiritually and morally mature individuals. This article examines the educational methods of Jadid schools and the possibilities of their application in higher education institutions.

Key words: National spiritual, enlightened, national development, national renaissance, new method schools, higher education, national statehood, elementary schools.

Kirish. Davlatimiz tarixi va xalqimizning shonli o'tmishi yetuk olim, ziyoli va jamoat arboblari ismlari bilan to'la. Ular hamma vaqt xalqimizning yuksalishi, adolat, tenglik, eng asosiysi, ilm-ma'rifat uchun kurashgan. Zamonasining har qanday sinovlarini yengib o'tib, bu yo'lda jonini ham fido qilgan. Ularning hech bir faoliyati izsiz yo'qolmagan, ulardan qolgan ilmiy meros nafaqat yurtimizda, balki butun dunyodagi yirik universitetlar, kutubxona va ilmiy markazlar tomonidan tadqiq qilinmoqda, tengi yo'q qo'llanma bo'lib xizmat qilmoqda.

Shunday ajdodlarimizning bir guruhi XIX asr oxiri XX asr boshlarida milliy mustaqilligimiz va ilm-ma'rifat yo'lida kurashga chiqqan jadidlardir. Ular milliy o'zlik, istiqlol va davlatchilik g'oyalarini ro'yobga chiqarishda va ozod davlat qurishda islohotlarni, eng avvalo, yoshlar va ta'limdan boshlash

kerakligini ta'kidladi. Jadidchilik harakatining asosiy tamoyillaridan biri ta'limning jamiyatdagi o'zgarishlarga katalizator sifatida ko'rilishi edi. Ular zamonaviy pedagogik usullardan foydalangan holda talabalarda tanqidiy fikrlash, izlanuvchanlik va tirishqoqlik kabi ko'nikmalarni uyg'otdilar.

Adabiyotlar sharhi. Jadidlar ta'lim-tarbiyani faqat maktabda o'rgatiladigan vosita emas, balki bu o'quvchida mustaqil fikrlash va ijodkorlik ruhini kashf etish, deb hisoblagan. Ular an'anaviy fanlar bilan bir qatorda amaliy ko'nikmalarga ham urg'u beradigan yangi turdagi jadid maktablarini Toshkent, Buxoro, Qo'qon kabi yirik shaharlarda tashkil etdilar. Jadidchilik harakatining eng yirik namoyandalaridan biri Mahmudxo'ja Behbudiy o'zining "Risolayi asbobi savod" va "Kitabul atfol" nomli asarlarida an'anaviy o'qitish usullarini isloh qilish bilan birgalikda zamonaviy ta'lim tizimini amalda qo'llash zarurligini ta'kidlagan. U pedagoglarni o'quvchida mustaqil fikrlash va atrof olamni savolga tuta olish qobiliyatini rivojlantirishga chaqirdi.

Qolaversa, jadidlar ta'lim sohasidagi gender tengligini targ'ib qildilar, ijtimoiy mavqeyi va jinsidan qat'i nazar barcha uchun ta'limning muhimligini bildirdi. Ularning inklyuziv ta'lim borasidagi qarashlari o'zbek jamiyatidagi xotin-qizlarning imkoniyatlarini kengaytirish, ijtimoiy hayotda faol ishtirok etishni rag'batlanishga zamin yaratdi. Abdurauf Fitratning "Oyina" jurnalida berilgan "Xotin-qizlarning tarbiyasi- millat ravnaqi va ma'rifatning poydevoridir" iqtibosi bu fikrning isbotidir.

Jadid merosining yana bir muhim jihati ularning ta'lim sohasida sekulyarizm – dunyoviylikni targ'ib etishidir. Ular jamiyatda, eng avvalo, yoshlar orasida turli diniy e'tiqodlarni hurmat qiladigan, bag'rikenglik muhitini yaratish muhimligiga urg'u berishgan. Munavvarqori Abdurashidxonov "Taraqqiy" jurnalidagi maqolasida bag'rikenglik va inklyuzivlikni targ'ib qiluvchi ta'lim tizimi zarurligini ta'kidlab: "Ta'lim diniy aqidalar va xurofotlardan holi bo'lishi, o'quvchilarning o'z bilimlarini oshirishi va dunyoqarashini shakllantirishi mumkin bo'lgan makonni ta'minlashi kerak", degan edi. Jadidlar ta'limni modernizatsiya qilish, ma'rifatparvarlik ruhini targ'ib qilish yo'lidagi fidoyiliklari tarixda o'chmas iz qoldirdi. Bugungi kunga kelib jadidlarni tadqiq qilishga yo'l ochilishi biz, yoshlarning ular tasvirlagan va o'stirishga intilgan avlod bo'lishimizga undaydi.

Turkistonlik jadidlardan biri Hoji Mu'in Shukrullo "Millatning taraqqiysi aning avvali muntazam maktablaridan boshlanur. Agarda biz dinimizni, millatimizni yaxshi ko'rub, muhofaza qilmoqchi bo'lsak, avval saodat eshigi bo'lgan maktabimizni zamong'a muvofiq isloh qilish kerak"[4] deb yozgan edi. Haqiqatan ham, maktablar islohi masalasi jadid matbuotining keng va qamrovli munozaralariga sabab bo'ldi.

Maktablar qanday bo'lishi kerak, ular qaysi yo'nalishda rivojlanishi zarur, kabi muammolar o'z davri mualliflarining diqqat markazida bo'ldi. Munavvar qori Abdurashidxonov asrlar davomida hukm surib kelgan maktab va madrasalardagi o'qitish tizimini isloh etishni ilgari suradi. Maktablarda hali asl mazmuni va ma'nosini tushunishdan yiroq bolalarga Fuzuliy, Navoiy, Xo'ja Hofiz, Bedilning muhabbat haqidagi she'rlari o'qitiladi va uningcha: "bir bolaga Fuzuliy o'rniga ilmi qiroat, Navoiy o'rniga masoili e'tiqodiya, Xo'ja Hofiz joyiga masoili amaliyot, Bedil badalig'a ilmi hisob o'qitilsa, din va dunyosi uchun qancha foydalar hosil qilib, musulmon o'lur". Balog'atga yetmagan bolalar ulardagi falsafiy ma'noni uqmagan, hatto ularni o'qiyotgan domlasi ham tushunmagan holda "johil domlalarni ta'limi falonni qoshi qora, ko'zi qora, yuzi oq, so'zi shirin, deb bolalarni fasod axloqig'a birinchi sabab o'ladurg'on" asarlarga aylanayotganligini ta'kidlagan muallif, bularning o'rniga matematika, geografiya, islom tarixi kabi dunyoviy ham diniy ilmlarni o'qitish foydali, degan fikrda edi.

"Ibtidoiy maktablarimizning tartibsizligi yoxud taraqqiyning yo'li" maqolasining muallifi Niyoziy Rajabzoda o'lkadagi boshlang'ich maktablarning zamon talabiga javob bera olmayotganligini dalillar bilan keltiradi: "... xoh Buxoro, Samarqand, Toshkand, xullas, umum Turkiston shaharlarinda

bo‘lgan musulmon qarindoshlarimiz insof ila fikr qilsalar, maktablarimizni ko‘p parishon va beintizom holatda ko‘rarlar. Muddati tahsil ko‘p uzoq bo‘lganligi uchun ko‘p kishilar bolalarini 8-10 yil maktabga qo‘yolmaydurlar. Chunki qudrati iste’dodlari yetmaydir. Shuning uchun maktabda yurgan bolalarimizdan 10 yo 8 nafardan 2 yo 3 nafar ahli savod bo‘lub chiqadurlar” Uning fikricha, diniy bilimlarni chuqur o‘rganish zarur, lekin “hunarlik va boy bo‘lmoq uchun albatta ilmu ma’rifat lozimdur. Ilmu ma’rifat uchun maktab, madrasalar isloh qilinub, nizom va tartibga kirgizulmog‘i lozimdur”.

Angliya, Germaniya mamlakatlari, deydi u, ilm-fan taraqqiysi natijasida “er yuzining boyliklarini o‘zlariga qoratub olibdurlar”. Ilm- ma’rifatdan mahrum bo‘lgan millat esa, “san’at va hunar sohibi bo‘lgan millatlarning oyog‘i ostida ezilurga majbur bo‘ladur”. “Oyina” jurnali o‘zining 1914 yil 27-sonida hukumat statistik ma’lumotlari asosida Samarqand viloyati shaharlari bo‘yicha aholi, madrasa, maktab va talabalar soni keltirilgan jadvalni chop etadi.

Mazmuni. Jadid maktablari, XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Turkiston hududida faoliyat yuritgan, yangi pedagogik g‘oyalar va uslublarni joriy etgan ta’lim muassasalaridir. Ular o‘z faoliyatida quyidagi asosiy tamoyillarni qo‘llagan:

1. Milliy ruh: Jadid maktablari o‘z darsliklarida milliy qadriyatlarni, tarixni va madaniyatni o‘rgatishga alohida e’tibor berishgan. Bu tamoyil, talabalarning o‘z xalqiga, tiliga va an’analariga bo‘lgan hurmatini oshirishga xizmat qilgan.

2. Ma’naviyat va axloq: Jadid intellektuallarining fikricha, ma’naviy tarbiya har bir insonning axloqiy shakllanishida muhim ahamiyatga ega. Ular yoshlarni axloqiy me’yorlarga rioya qilishga, adolat, halollik va mehr-oqibat kabi fazilatlarni qadrlashga o‘rgatishgan.

3. Yoshlarni tarbiyalashda innovatsion yondashuv: Jadid maktablardagi ta’lim jarayoni interaktiv va amaliy uslublar bilan boyitilgan. Bu esa talabalarning fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga yordam bergan.

Oliy ta’lim muassasalarida jadid maktablarining tajribasidan foydalanish talabalarning ma’naviy-axloqiy tarbiyasini yanada samarali qilish imkonini beradi. Buning uchun quyidagi yo‘nalishlarga e’tibor qaratish lozim:

1. Milliy qadriyatlarni o‘rganish: Dars dasturlariga milliy tarix, madaniyat va an’analarni o‘z ichiga oluvchi kurslarni kiritish, talabalarni o‘z xalqiga bo‘lgan qiziqishini oshiradi.

2. Axloqiy me’yorlarni o‘rgatish: Talabalarga axloqiy tarbiya beruvchi maxsus kurslar tashkil etish, ularning shaxs sifatida rivojlanishiga yordam beradi. Bu kurslarda adolat, halollik va ijtimoiy mas’uliyat kabi mavzularni muhokama qilish mumkin.

3. Innovatsion ta’lim uslublarini joriy etish: Interaktiv darslar, guruhli muhokamalar va amaliy mashg‘ulotlar orqali talabalarni faol ishtirok etishga undash, ularning fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi.

4. Mentorlik tizimini joriy etish: Oliy ta’lim muassasalarida tajribali ustozlar tomonidan mentorlik tizimini tashkil etish, talabalarni yo‘naltirish va ularning shaxsiy rivojlanishiga yordam beradi.

Bugungi kunda ta’lim dargohlarida jadidlar xotirasiga va ularning ma’naviy merosiga hurmat ko‘rsatish, talabalarning ongiga ta’sir etish uchun bir qator muhim jihatlar mavjud. Jadidlar, o‘z zamonida, ta’lim va ma’rifatni rivojlantirish, milliy ongni shakllantirish va ijtimoiy o‘zgarishlarga hissa qo‘shish maqsadida ko‘p ishlar qilishgan. Ularning merosi bugungi kunda ham dolzarb ahamiyatga ega.

1. Ma’naviy va axloqiy qadriyatlar: Jadidlar ta’lim jarayonida ma’naviyat va axloqiy qadriyatlarni o‘rgatishga alohida e’tibor berishgan. Bugungi ta’lim tizimida ham, bu qadriyatlarni yosh avlodga yetkazish, ularni axloqiy jihatdan yetuk shaxslar sifatida tarbiyalash muhimdir.

2. Innovatsion ta'lim metodlari: Jadid maktablari o'z vaqtida innovatsion ta'lim metodlarini qo'llagan. Bu tajribalarni zamonaviy ta'limda qo'llash, talabalarning ijodkorligini oshirish va tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda yordam beradi.

3. Milliy identitetni mustahkamlash: Jadidlar o'z asarlarida milliy identitetni saqlash va rivojlantirishga katta ahamiyat bergan. Bugungi kunda talabalar o'z milliy meroslarini bilishlari va ularga hurmat ko'rsatishlari uchun dasturlar ishlab chiqish zarur.

4. Talabalar ongida tarixiy xotirani shakllantirish: Jadidlar tarixi va ularning ma'rifatparvarlik g'oyalari haqida ma'lumot berish, talabalar ongida tarixiy xotirani shakllantirishga yordam beradi. Bu esa ularning o'zligini anglashiga, milliy qadriyatlarni qadrlashiga olib keladi.

5. Ijtimoiy mas'uliyat: Jadidlar ijtimoiy mas'uliyatni o'z zimmasiga olishgan. Talabalar o'rtasida ijtimoiy mas'uliyat hissini rivojlantirish, ularni jamiyatda faol ishtirok etishga undaydi.

Olingan natijalar ishonchliligi. O'zbekiston shaharlari azaldan ilm-fan markazi sifatida mashhur bo'lib, bunda kutubxonalar katta rol o'ynagan. Ayniqsa, IX-XII asrlarda, Amir Temur va Temuriylar davrida mamlakatda ulkan kutubxonalar tashkil etildi, ilm-fan yuksaldi. Keyingi asrlar, xususan, xonliklar davrida ham mintaqadagi yirik shaharlar, xususan, Samarqand, Buxoro, Xiva, Qo'qon shaharlarida hukmdorlar saroylarida yirik kutubxonalar faoliyat yuritgan. Sadri Ziyo ma'lumotlariga qaraganda XX asrning boshida birgina Buxoro shahrida 13 ta kutubxona, 96 ta qiroatxona bor edi. Buxoro shahridagi hukmdor saroyidagi kutubxonada xitoy, uyg'ur, pushtu, fors, arab hamda boshqa tillardagi qo'lyozmalar saqlangan. Kutubxonada kitobdor, mushrif, risolachi va mirzolar xizmat qilganlar. Saroy kutubxonasida amirlarning shaxsiy kolleksiyalari bilan birga 47.500 jild turli tillardagi qo'lyozma hamda toshbosma kitoblar saqlangan. 1915 yili professor A.A.Semenov amirlik kutubxonasi bilan tanishib chiqib, uni tartibga keltirish va qisman tavsif qilishga erishadi. A.A.Semenov amirning kutubxonasi miniatyurali qo'lyozmalar bilan to'la ekanligini qayd etgan edi.

Xiva shahrida ham xon saroyida juda boy kutubxona mavjud edi. Bu yerdagi qimmatli qo'lyozmalar asrlar mobaynida to'planib kelgan. Ayniqsa, Xiva xonligining ma'rifatparvar hukmdori Muhammad Rahimxon Feruz davrida kutubxonaga katta e'tibor berildi. Juda ko'p asarlar qayta ko'chirildi, tarjima qilindi, toshbosma usulda chop etildi, yangi-yangi asarlar yaratildi. Shaharlardagi deyarli har bir madrasa o'z kutubxonasiga ega bo'lib, ularda ta'lim jarayonida qo'llaniladigan turli darslik, qo'llanma va adabiyotlar, adabiyot, islom dini, tarix, tibbiyot, geografiyaga oid qo'lyozmalar saqlangan.

Xususan, Buxoro amirligida XX asr boshlarida yirik madrasalar qoshidagi kutubxonalarda bir necha o'n minglab qo'lyozmalar saqlangan. Kutubxonalar uchun alohida vaqf mulklari ajratilgan. Kutubxonalarda kitoblarni saqlashdan tashqari yangi kitob bilan boyitib borish uchun ham vaqflar ta'sis etilgan. Kutubxonalarda musulmon davlatlaridan kelgan ko'plab adabiyotlar bor edi. Kutubxonalar nodir kitoblarni to'plash, ulardan hech bo'lmaganda nusxa ko'chirish orqali ham to'ldirib borilgan. Buxoro madrasalarida kutubxonalar maxsus binolarda joylashgan, ularda harorat va havo namligi kuzatib borilgan, kitoblar a'lo sifatli qog'ozlarga yozilib, charm muqovalar bilan muhofaza qilingan hamda maxsus charm sandiqlarda saqlangan. Buxoroda o'z davrining taniqli ulamolari, xususan, qozilarga, hamda amaldorlar, ya'ni beklarga tegishli xususiy kutubxonalar ham mavjud edi. Buxoro shahrida eng boy shaxsiy kutubxona amirzoda Hashmatga tegishli edi. U Buxoro amiri Muzaffarning o'g'li bo'lib, o'zidan bir necha asarlar ham qoldirgan.

Xulosa. Umuman olganda, jadidlarning ma'naviy merosini hurmat qilish va uning ta'sirini oshirish, talabalarning ongini boyitish va ularni ma'naviy jihatdan yetuk shaxslar sifatida tarbiyalashda muhim rol o'ynaydi. Bu jarayon, nafaqat individual rivojlanishga, balki jamiyatning umumiy taraqqiyotiga ham hissa qo'shadi.





1-rasm (UrDPI jadidlar bog‘ining kirish qismi) 2-rasm (UrDPI jadidlar bog‘i)

Oliy ta’lim muassasalarida ham talabalarda milliy iftixor, milliy g‘urur uyg‘otish, yorqin tariximizga hurmat, ma’naviy meroslarimizga ehtirom ruhida tarbiyalash va O‘zbekning buyuk shaxslarini tanitish maqsadida ham turli xil bayramlar, xotira kechalari va jadidlar bog‘lari tashkil qilinmoqda. Xususan, 1-rasm va 2-rasmlarda ko‘rsatilganidek bizning Urganch davlat pedagogika institutida ham jadidlar bog‘i tashkil qilingan. Yorqin tariximizni aks ettirgan mazkur bog‘da Abdulla Avloniy, Ismoilbek Gaspirali, Munavvar Qori, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Eson Musaev, Shorasul Zunnun va boshqa jadidlarimiz rasmlari, ular haqida ma’lumotlar va qoldirgan ma’naviy meroslaridan bahramand bo‘lishimiz mumkin. Talablar ushbu tarixiy bog‘da madaniy hordiq olib, ilm o‘rganishlari uchun kitoblar ham qo‘yilgan.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, jadid maktablaridagi ta’limiy-axloqiy tarbiyaning bugungi kundagi ahamiyati beqiyos, hurmati cheksiz. Jadidlarimizning xotirasiga ham, qoldirilgan ma’naviy merosiga ham davlatimiz tomonidan katta e’tibor qaratilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abduqodirov A. Jadid ta’limi va uning zamonaviy ta’lim tizimidagi o‘rni. Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, 2019. –B. 76
2. Karimov I. Yuksak ma’naviyat - yengilmas kuch. T: O‘zbekiston, 2001. – B. 143
3. Qodirov M. Jadid maktablarida axloqiy tarbiya. Toshkent: Fan va texnologiya, 2018
4. Sattorov B. Oliy ta’limda ma’naviy-axloqiy tarbiya: nazariya va amaliyot. Toshkent: O‘zbekiston davlat pedagogika universiteti, 2020. - B.110
5. Xudoyberdiyev O. Jadid ta’limining asosiy tamoyillari. Toshkent: 2017
6. Murodov A. Ma’naviyat va axloqiy tarbiya masalalari. Toshkent: 2016
7. Ergashev D. Zamonaviy talabalarda axloqiy qadriyatlarni shakllantirish. Toshkent: Ta’lim, 2021
8. Nurmatov S. Jadid maktablari va ularning ijtimoiy roli. Toshkent: 2015
9. Abdullayev R. Ma’naviyat va ta’lim tizimi. Toshkent: O‘zbekiston, 2014
10. Toshpo‘latov K. Oliy ta’limda axloqiy tarbiya metodlari. Toshkent: 2019
11. Ismoilov J. Jadid maktablari tajribasi: zamonaviy yondashuvlar. T.: Fan va texnologiya, 2022
12. Shodmonov T. Talabalarda ma’naviy-axloqiy qadriyatlarni rivojlantirish. T: 2020
13. Raxmonov E. Jadid ta’limi va uning istiqbollari. Toshkent: 2018
14. Bahromov N. Oliy ta’lim muassasalarida ma’naviy tarbiya masalalari. Toshkent: Ta’lim, 2021
15. Tursunov A. Jadid maktablarida o‘qitish metodikasi. Toshkent: 2017. – B. 98

ИСТОРИЯ РАЗВИТИЯ КАТЕГОРИИ ЧИСЛА РУССКОГО ЯЗЫКА

Исмагилова Мадина Фаридовна
старший преподаватель Ургенчского государственного Педагогического института кафедры «Узбекский и русский язык литература» madik_smile86@mail.ru

Аннотация. В статье рассматривается категория числа как важный аспект грамматической структуры современного русского литературного языка. Русский язык, обладая богатой историей и сложной системой, служит не только средством общения, но и инструментом передачи культурных и социальных идей. Категория числа, делящаяся на единственное и множественное, играет ключевую роль в понимании и использовании языка, влияя на грамматические связи между словами и словосочетаниями.

Обсуждаются основные формы числа, их функции и примеры, а также значимость категории числа в обучении русскому языку. В статье также упоминаются вклад известных методистов, таких как А. А. Потебня и Н. Н. Шанский, в изучение данной категории. Особое внимание уделяется синтаксической концепции А.Потебни, его критике существующих подходов к пониманию предложения и границам между грамматикой и логикой. Статья подчеркивает, что категория числа является неотъемлемой частью грамматической системы, способствующей более глубокому пониманию русского языка и его преподавания.

Ключевые слова: категория, методы, язык, правила, исключения, подход, система, практика.

THE HISTORY OF THE DEVELOPMENT OF THE RUSSIAN LANGUAGE NUMBER CATEGORY

Annotation. This article examines the category of number as a crucial aspect of the grammatical structure in modern standard Russian. The Russian language, with its rich history and complex system, serves not only as a means of communication but also as a tool for conveying cultural and social ideas. The category of number, divided into singular and plural, plays a key role in understanding and using the language, influencing grammatical relationships between words and phrases.

The main forms of number, their functions and examples, as well as the significance of the number category in teaching Russian, are discussed. The article also highlights the contributions of renowned linguists such as A. A. Potebnya and N. N. Shansky to the study of this category. Special attention is given to A. Potebnya's syntactic concept, his critique of existing approaches to understanding sentences, and the boundaries between grammar and logic.The article emphasizes that the category of number is an integral part of the grammatical system, contributing to a deeper understanding of the Russian language and its teaching.

Key words: category, methods, language, rules, exceptions, approach, system, practice.

RUS TILIDA SON KATEGORIYASINING TARAQQIYOT TARIXI

Annotatsiya. Maqolada son kategoriyasi zamonaviy rus adabiy tilining grammatik tuzilishining muhim jihati sifatida tahlil qilinadi. Rus tili boy tarix va murakkab tizimga ega bo‘lib, nafaqat muloqot vositasi, balki madaniy hamda ijtimoiy g‘oyalarni yetkazish quroli sifatida ham xizmat qiladi. Birlik va ko‘plikka ajraladigan son kategoriyasi tilni tushunish va undan foydalanishda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lib, so‘z va so‘z birikmalari o‘rtasidagi grammatik aloqalarga ta’sir

ko‘rsatadi.

Sonning asosiy shakllari, ularning vazifalari va namunalari, shuningdek, rus tilini o‘qitishda son kategoriyasining ahamiyati muhokama etiladi. Maqolada, shuningdek, A.A. Potebnya va N.N. Shanskiy kabi mashhur metodistlarning ushbu kategoriyani o‘rganishga qo‘shgan hissasi ham ta’kidlab o‘tilgan. A.Potebniyaning sintaktik konsepsiyasi, uning gap tushunchasiga oid mavjud yondashuvlarni tanqid qilishi hamda grammatika va mantiq o‘rtasidagi chegaralarga alohida e’tibor qaratilgan. Maqolada ta’kidlanishicha, son kategoriyasi grammatik tizimning ajralmas qismi bo‘lib, rus tilini yanada chuqurroq tushunish va uni o‘qitishga yordam beradi.

Kalit so‘zlar: kategoriya, usullar, til, qoidalar, istisnolar, yondashuv, tizim, amaliyot.

ВВЕДЕНИЕ. Современный русский литературный язык является одним из богатейших языков мира, высокоразвитым национальным языком с древними письменными традициями и широкой системой выражения. Язык служит не только всем сферам национальной жизни русского народа, но и средством межнационального общения народов СНГ. В современном мире возрастает роль русского языка: как одного из важнейших языков мира он передает народам идеи справедливости и прогресса во всех сферах жизни человека.

Современный русский литературный язык представляет собой сложную систему, части которой находятся в постоянном и необходимом взаимодействии: одна часть этой системы не существует без другой. Такова звуковая организация языка, его словарный запас и грамматика. Каждая из этих систем имеет свою структуру и деление, то есть свои внутренние подсистемы.

Грамматическая структура (языковая грамматика) состоит из единства нескольких систем, каждая из которых сочетает в себе сходные грамматические средства с точки зрения формальной организации и характера абстрактных значений, функций в языке, а также характера отношений друг к другу и к единицам других подсистем грамматики. Такими частными системами грамматики являются словообразование, морфология и синтаксис.

Морфология включает в себя закономерности изменения слов как представителей грамматических классов - групп слов; самих этих классов и принадлежащих им морфологических категорий; словоформ и систем этих форм с их характерными морфемами; лексико-грамматических делений в рамках групп слов. Особое внимание в грамматической системе русского языка играет категория числа, ведь она является связующим звеном как среди слов, так словосочетаний и грамматической основы.

ОБЗОР ЛИТЕРАТУРЫ. Значительный вклад в изучение категории числа в русском языке внесли известные методисты, такие как: А. А. Потебня, Н. Н. Шанский.

В богатом лингвистическом наследии А.А.Потебня особого внимания заслуживает его оригинальная синтаксическая концепция, которая явилась важным этапом в развитии русского исторического синтаксиса. Это понятие сформировалось в результате резкой критики А.А.Потебни, двух широко применявшихся в середине XIX века подходов к сущности предложения: логико-грамматического (Ф.И.Буслаев, В.И.Классовский и др.) и психологического (Г.Штейнтал, Г.Пол и др.).

А.А.Потебня в своей работе «Записи по русской грамматике» (1-2 т.) обсуждает с Ф.И.Буслаевым, о том, что очень упрощенно понимает предложение как логическое «предложение, выраженное в словах» и приравнивает грамматические категории к логическим категориям.

А.А.Потебня резко выступает против структур Ф.И.Буслаева, «которые, строго

говоря, нельзя назвать логико-грамматическими» [7, стр. 81] и четко определяет границу между грамматикой и логикой: «Грамматическое предложение абсолютно то же, что и логическое предложение, и не параллельно». Имена последних двух членов (субъекта и предложения) совпадают с именами двух членов предложения, но грамматические и логические значения этих имен различны. Термины «субъект» и «объект» происходят из наблюдения за вербальным предложением и не могут быть в нем взаимозаменяемыми.

С другой стороны, А.А.Потебня односторонне возражает и не раскрывает грамматической сущности понимания предложения как вербального выражения психологического суждения, характерного для представителей психологического направления.

Оба подхода не были приняты А.А. Потебней, во-первых, их априорный характер, их нежелание учитывать объективно существующие языковые факты «должны быть необходимы для всякого здорового мышления» [7, стр. 85], «вопрос меняется по мере того, как утопические действия, описываемые мыслями, закладываются в основу языка» [7, стр. 61]. Во-вторых, в обоих подходах игнорируется реальное направление исторического развития предложения.

Однако А.А.Потебня не только критиковал лингвистическую логику и психологизм в синтаксисе, но и выдвинул два новых важных принципа, определяющих всю его синтаксическую концепцию.

Первый из них - правильный грамматический подход к синтаксису (не такой логический или психологический, как предыдущий). В связи с этим А.А.Потебня придает центральное место предложению как грамматической структуре, организованной грамматическими формами. Недаром он считает важнейшей особенностью предложения грамматическую формальность предложения: ведь «наиболее простое предложение в наших языках уже содержит грамматическую форму; оно возникает в языке вместе с ним» [7, стр. 11].

Таким образом, «в каждом предложении должно быть различие между формой и словоформой, т. е. в предложении нет ничего, кроме формы, поэтому, удаляя форму, мы уничтожаем предложение адаптивных языков» [4,стр.72].

Следует отметить, что, по мнению А.А.Потебне, грамматическая форма основана на семантике: это «не звук, а значение, с самого начала и во все последующие периоды языка». Формальность языка есть наличие в нем общих дислокаций, согласно которым «специфическое содержание языка распределяется одновременно с его появлением в мыслях» [7, стр. 61].

Следовательно, грамматические категории - это части речи, которые образуются на их основе. Поэтому «важной особенностью наших языков является то, что предложение включает в себя части речи; если они отсутствуют, то у нас нет речи» [7, стр. 71].

Таким образом, по мнению А.А.Потебни, грамматическая структура предложения в основном не может быть понята без основных и вторичных - взаимно обусловливающих частей и членов предложения, существующих в грамматике языка (логика лишена таких понятий), которые образуют предложение и могут быть выделены в их единстве только при грамматическом подходе, с учетом как смысла, так и синтаксического использования: «Значение слов, как членов предложения, формально и, как такое, сказывается в синтаксическом употреблении, есть само это употребление». Конечно, не звуки слова и не его вещественное значение составляют его грамматическую функцию, а именно его формальное значение [7, стр. 74].

Это правило А.А.Потебни особенно актуально сегодня, когда в лингвистической литературе часто критикуется традиционная теория членов предложения. Однако пока никто не смог убедительно опровергнуть эту теорию и заменить ее другой, адекватно отражающей языковую реальность. На наш взгляд, ведущей должна быть традиционная доктрина членов предложения, в описание которой значительный вклад внес А.А.Потебня.

Благодаря понятию членов предложения можно абстрагироваться от морфологических свойств слов и морфологических отношений между ними, представить себе грамматическую структуру предложения на более высоком уровне - на уровне позиционных свойств слов.

А. А. Потебня исследовал язык как систему знаков и подчеркивал необходимость связывания грамматических категорий с культурным и историческим контекстом.

Н. Н. Шанский сфокусировался на практике преподавания и разработал рекомендации по глубокому изучению грамматических категорий, включая число, в контексте современного языка.

СОДЕРЖАНИЕ. Категория числа — это одна из грамматических категорий, которая выражает количество предметов, обозначаемых существительными, местоимениями и некоторыми другими частями речи. В русском языке категория числа делится на две основные формы: единственное и множественное число.

Единственное число: Эта форма используется для обозначения одного предмета или сущности. Например, «стол», «книга», «человек».

Множественное число: Эта форма указывает на несколько предметов или сущностей. Например, «столы», «книги», «люди».

Категория числа в русском языке представляет собой важный аспект грамматики, который имеет значительное влияние на понимание языка и его преподавание. Обучение данной категории прошло через множество этапов, начиная с классических традиций и заканчивая современными методиками.

История преподавания категории числа в русском языке претерпела множество изменений и адаптаций. С каждым новым этапом развивались методы, подходы и анализ, что, в свою очередь, способствовало углублению понимания и освоению языка. Преподавание категории числа остается актуальной и важной задачей в методике обучения русскому языку.

Развитие категории числа**.**

Древнерусский язык: В древнерусском языке категория числа была более развита, чем в современном. Существовали различные формы для обозначения количества, включая двойственное число, которое использовалось для обозначения двух предметов. Например, «двое» или «трое».

Современный русский язык: В современном русском языке двойственное число вышло из употребления, и теперь мы используем только единственное и множественное числа. Однако в некоторых диалектах и в разговорной речи можно встретить остатки двойственного числа.

В древнерусском языке категория числа уже была четко выражена. Существительное могло быть в единственном или множественном числе, что активно использовалось в религиозной литературе и летописях. Тогда же начинается формирование грамматических норм, связанных с использованием различных числовых форм, и это является основой для преподавания языка.

Классические методики преподавания русского языка, в которых акцент делался на грамматические категории, считали категорию числа одной из фундаментальных основ

обучения. Эти методики основывались на эмпирическом подходе, где целью было дать ученикам четкое понимание форм слова (ед. и мн. число) и их применения в предложениях.

В XVIII-XIX веках, с развитием русского литературного языка, началась активная работа по систематизации грамматических правил, в том числе и правил, касающихся категории числа.

Лингвисты, такие как Александр Блок и другие, начали формировать четкие грамматические описания, которые стали использоваться в учебниках. Основной метод, применяемый в XIX веке, заключался в переводе на русский язык через точное соблюдение грамматических правил, включая различия между единственным и множественным числом.

В XX веке вопросы преподавания категории числа получили новое внимание со стороны педагогов и лингвистов. Методики, описывающие правила согласования существительных и прилагательных по числу, развивались, принимая во внимание диалектные особенности и изменения в устной речи.

В советский период акцентировалось внимание на практическом применении знаний, поэтому изучение категории числа часто происходило через упражнения и практические задания. Методики того времени также включали разбор слов по составу, где категория числа рассматривалась в контексте других морфологических признаков.

В XIX и начале XX века преподавание категории числа сосредоточивалось на изучении правил и исключений. Со временем методики стали более разнообразными:

Лексико-семантический подход: В этот период учителя начали акцентировать внимание на значении слов в зависимости от числа, что открыло новые горизонты в обучении.

Контекстуальная методика: Преподавание стало более контекстуальным. Ученики учились определять форму слова в живых диалогах и текстах, что дало возможность глубже понять использование категории числа.

В последние десятилетия наблюдается тенденция к интеграции современных подходов в методику преподавания русского языка. Использование информационных технологий, плюралистические подходы в обучении и внимание к индивидуальным особенностям учащихся делают процесс изучения категории числа более динамичным и интересным. Система преподавания теперь включает в себя междисциплинарные связи с историей, культурой и практикой общения, что помогает лучше усвоить особенности использования категории числа.

Представители самых разных народов изучают сегодня русский язык, и интерес к нему как одному из мировых языков, на которых ведутся заседания в ООН, продолжает расти. Русский язык экономически перспективен для Европы как язык развивающихся экономических отношений с Россией. Не ослабевает интерес к русскому языку как культурному феномену, имеющему богатейшую литературу. «Актуальность всех вопросов, связанных с культурой и методикой изучения русского языка в диалоге культур, приобрела в настоящее время небывалую остроту» [4,стр.8].

На настоящем этапе развития общества существует необходимость разрабатывать и внедрять эффективную систему поликультурного образования, опираясь на научно-педагогический ресурс культурного и речевого взаимодействия. «За прошедшие несколько десятилетий изменились цели обучения иностранному языку.

Внимание к языку как лингвистическому орудию общения сменилось интересом к самому процессу общения, его не только языковой, но и социолингвистической, прагматической, культуроведческой сути» [1,стр.7].

РЕЗУЛЬТАТЫ ИССЛЕДОВАНИЯ. Категория числа играет важную роль в русском языке, так как она помогает точно передавать информацию о количестве предметов. Понимание этой категории важно для правильного использования языка как в устной, так и в письменной форме.

Грамматические особенности категории числа:

Согласование: В русском языке существительные, прилагательные и глаголы согласуются по числу. Например, «большой стол» (единственное число) и «большие столы» (множественное число).

Формы образования: Множественное число образуется различными способами, в зависимости от рода и окончания существительного. Например, для существительных мужского рода с окончанием на согласный добавляется «-ы» или «-и» (стол — столы), для женского рода с окончанием на «-а» добавляется «-ы» (книга — книги).

Исторический обзор показывает, что категория числа была четко выражена в древнерусском языке и активно использовалась в религиозной литературе. В XVIII-XIX веках началась систематизация грамматических правил, что способствовало формированию учебников.

XX век принес новые методики, акцентирующие внимание на практическом применении знаний и диалектных особенностях. Современные подходы к обучению интегрируют информационные технологии и междисциплинарные связи, что делает процесс изучения более динамичным.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ. История вопроса о преподавании категории числа в русском языке охватывает многовековую эволюцию, начиная с формирования основных грамматических норм до современных методологических подходов. Каждый период внес свои изменения и усовершенствования в преподавание, что позволило сделать процесс обучения более эффективным и доступным для студентов.

Из всего сказанного следует, что в грамматике необычайно велика роль слова как такой единицы языка, которая несет в себе разнообразные грамматические возможности. Закономерности строения слова и его способности к образованию других лексических единиц стоят в центре словообразования. Слово как носитель морфологических категорий и систем форм стоит в центре морфологии.

Синтаксис в той своей части, которая имеет дело со связями слов, целиком опирается на грамматические и лексико-семантические свойства слов; в той же части синтаксиса, центром которой является предложение, формы слова выступают как компоненты предложения, по-разному значимые для его строения. Таким образом, слово, его формы в их отношении к формам других слов либо к целой конструкции предстает как средоточие разных грамматических значений и несет в себе целый комплекс разнонаправленных грамматических свойств.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ

1.Баграмова Н.В. Языковая личность с позиции теории билингвизма // Формирование билингвальной личности на основе компетентностного подхода / отв. ред. Г.А. Баева. – Санкт-Петербург: Санкт-Петербург. ун-т, 2012. С. 5-20.

2.Гуляева Н. Р. История русского языка. Учебное пособие. – М.: Высшая школа. 2017.

3.Горшкова К. В., Хабургаев Г. А. Г70 Историческая грамматика русского языка: Учеб. пособие для ун-тов. — М.: Высш. школа, 1981. — 359 с. https://www.philol.msu.ru/K-yubileyu-Klavdii-Vasilievny-Gorshkovoy/docs

4.Лебединский С.И., Гербик Л. Ф. Л33 Методика преподавания русского языка как иностранного. Учебное пособие / С. И. Лебединский, Л. Ф. Гербик – Мн., 2011. – 309 с. https://www.bsu.by/upload/pdf/365803.pdf

5.Лошакова Е. Н. Методика преподавания русского языка как иностранного: основные аспекты. – Санкт-Петербург: Питер. 2015.

6.Муллагалиева Л.К., Мардиева Э.Р., Галимьянова В.Р. Межкультурный диалог в условиях билингвизма: монография. – БашГУ, 2006. -148 с.

7.Мельников В. А. История русского языка: от древности до наших дней. – Екатеринбург: Уральское университетское издательство. 2010.

8.Потебня А. А. Русский язык и его грамматические категории. – М: Наука.1989.

9.Потебня А.А. Из записок по русской грамматике. Т. I–II. – М., 1958.

10.Русская грамматика 2 тома: т. I — «Фонетика. Фонология. Ударение. Интонация. Введение в морфемику. Словообразование. Морфология»; т. II — «Синтаксис». Т. I .–М.: Наука, 1980. –792 с.

11.Сидоренко А. В. Современные подходы к обучению русскому языку. – Новосибирск: Сибирское университетское издательство. 2018.

12.Чеснокова М.П. Методика преподавания русского языка как иностранного: учебное пособие.– М.: МАДИ, 2015. –132 с.

13.Штыкова Н.В. Русский язык как иностранный: к вопросу об изучении грамматики на начальном этапе (морфологический материал) // Вестник Череповецкого государственного университета. 2014. №5(58). С. 84-88.

14.https://lib.mkgtu.ru/images/stories/journal-vmgtu/2018-02/011.pdf

15.https://crecleco.seriot.ch/textes/Filin41.html

TALABANING MUSTAQIL ISHINI TIZIMLI REJALASHTIRISH VA TASHKIL QILISH TA'LIM SIFATINI OSHIRISH USLUBI SIFATIDA

Yusupov Davronbek Firnafasovich
Urganch innavasion universiteti Ta'lim sifatni nazorat qilish deportamenti boshlig'i,
Pedagogika fanlalari bo'yicha falsafa doktori, dosent

Annotasiya. Maqolada zamonaviy o'qitish tendensiyasida juda katta e'tibor qaratilayotgan dolzarb muammolardan hisoblangan talabaning mustaqil ishlarini tashkil qilish, samaradorligini, mahsuldorligini, ilmiy amaliy salohiyatini va shu kabi boshqa omillarini yanada takomillashtirishga qaratilgan. Mazkur metodika talabalarda tashabbuskorlik, oldindan ko'ra bilish, o'zini-o'zi baholash, o'zini-o'zi nazorat qilish, ijodiy yondashish kabi mustaqil ishlash faoliyatini rivojlantirishni ta'minlovchi ko'nikmalarini yanada takomillashiga yordam beradi.

Kalit so'zlar: ta'lim jarayonini jadallashtirish, tizimlilik, fan tarkibini mantiqiy strukturalash, samaradorlik, mustakil ta'lim, modullik, kompyuterli o'qitish texnologiyasi.

СИСТЕМНОЕ ПЛАНИРОВАНИЕ И ОРГАНИЗАЦИЯ САМОСТОЯТЕЛЬНОЙ РАБОТЫ СТУДЕНТОВ КАК СПОСОБ ПОВЫШЕНИЯ КАЧЕСТВА ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация. Статья направлена на дальнейшее совершенствование организации самостоятельной работы студентов, эффективности, результативности, научно-практического потенциала и других подобных факторов, которые считаются одной из актуальных проблем в тенденции современного образования. Данная методика помогает студентам в дальнейшем совершенствовать свои навыки, обеспечивающие развитие самостоятельной работы, такие как инициативность, предусмотрительность, самооценка, самоконтроль, творческий подход.

Ключевые слова: ускорение учебного процесса, системность, логическое структурирование содержания предмета, эффективность, самостоятельное обучение, модульность, компьютерная технология обучения.

SYSTEMIC PLANNING AND ORGANIZING STUDENTS' INDEPENDENT WORK AS A WAY TO IMPROVE THE QUALITY OF EDUCATION

Abstract. The article is aimed at further improving the organization of students' independent work, efficiency, productivity, scientific and practical potential, and other such factors, which are considered to be urgent problems in modern teaching trends. This methodology helps students to further improve their skills that ensure the development of independent work, such as initiative, foresight, self-assessment, self-control, and creative approach.

Key words: acceleration of the educational process, systematicity, logical structuring of subject content, efficiency, independent education, modularity, computer teaching technology.

KIRISH. Bugungi kunda dunyoning eng ilg'or mamlakatlari bilan tajriba almashish, global ta'lim jarayonlarida faol ishtirok etish, o'qituvchi va talabalar oldida turgan sun'iy to'siqlarni bartaraf etish oliy ta'lim tizimini isloh qilish, uni takomillashtirish va sifat darajasini oshirish yo'lidagi ustuvor vazifalardan hisoblanadi. Bir qator rivojlangan mamlakatlar tajribasiga ko'ra yuqorida qayd etilgan vazifalarni hal etishning samarali yo'llaridan biri – talabaning kasbiy faoliyati bo'yicha fanlarni o'zlashtirish jarayonida talabaning mustaqil ishini samarali rejalashtirish va tashil qilish zarur.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2020 yil 24-yanvardagi Oliy Majlisga yo‘llagan murojaatnomasida oliy ta’limda o‘quv jarayonini kredit-modul tizimiga o‘tkazish, qator oliy ta’lim muassasalarini o‘zini o‘zi moliyaviy ta’minlashga o‘tkazish, ta’lim sohasini to‘liq raqamlashtirish, davlat-hususiy sherikchilik mexanizmlarini ta’lim sohasiga ham keng tadbiq etish masalalari bugungi kunning dolzarb masalalari ekanligi ta’kidlab o‘tilgan [1]. Bunga ko‘ra mamlakatimizdagi oliy ta’lim muassasalarining barchasi 2030 yilgacha boqichma-bosqich kredit-modul tizimiga o‘tishi rejalashtirilgan. Respublikamizdagi oliy ta’lim muassasalarida asosan YeSTS kredit-modul tizimi joriy etilmoqda.

Talabaning mustaqil ishini kasbiy faoliyat fanlari bo‘yicha tashkil etishda, eng avvalo, oddiy bir narsaga ahamiyat berish lozim. Bunday qaraganda buni hamma biladi, lekin ko‘pchilik unga amal qilmaydi. Shuning uchun mustaqil ishni tashkil etishning oddiy elementar prinsiplarini o‘zlashtirish birinchi darajali ahamiyatga ega va ana shu murakkab jarayonni to‘laligicha qamrab oladi [2,3].

Har bir talaba o‘zining fanlar kesimida mustaqil ishini tashkil etishni nimadan boshlashi kerak? Qanday maqsad qo‘yiladi? Ish qancha davom etadi? Uni bajarishda qanday usullardan foydalaniladi? – kabi masalalar yechimini aniq ko‘z oldiga keltira olishi kerak. Yana shuni yoddan chiqarmaslik kerakki, mustaqil ishlarni tashkil qilish qoidalari ishlab chiqildi degani bu ish tashkil etildi degani emas.

Zero, mustaqil ishni har bir talabaning o‘zi tashkil etadi. Muvafaqqiyatga erishish uchun talabadan sabr-toqat bilan, mashaqqatlardan qo‘rqmay o‘z ustida ishlash talab etiladi. Shu bois ham bu ishga ongli ravishda yondashish, o‘zining mustaqil ishini oqilona rejalashtirish va amalga oshirish, bu zamon talabiga mos raqobatbardosh mutaxassis bo‘lib yetishishning muhim sharti ekanligini anglash muhimdir.

Talabalarning mustaqil ishini tashkil etganda quydagi masalalarga e’tibor berish kerak [2-5]:

Birinchidan, mustaqil ishning mavzularini aniqlanganda, o‘qiladigan fanining, masalan, Ma’lumotlarga dastlabki ishlov berish fanida, har bir mavzusi bo‘yicha, eng muhim bo‘lgan masala yuzasidan muammoni aniqlab, u muammoni hal qilishga qaratilgan adabiyotni yoki asarni olib, uni konspekt, qilish va uning asosiy mazmunini so‘zlab berish, yoki konspekt qilish bilan chegaralanib qolishi, yoxud uni mustaqil o‘qib, uning mazmunini gapirib berish shakllarida tashkil qilishi maqsadga muvofiqdir.

Ikkinchidan, mustaqil ishni tashkil qilganda albatta, talabalarning bu ishga sarflanadigan vaqtni hisobga olish zarur. Mustaqil ishning xajmi shunday aniqlanishi kerakki, talaba bu ishni real bajara oladigan bo‘lishi kerak.

Uchinchidan, talabalarga mustaqil ishni vazifa sifatida topshirganda o‘qituvchi har bir mavzu bo‘yicha «qanday maqsad qo‘yiladi?» degan savol qo‘yib bu savolga javob berishi kerak. Aniqrog‘i har bir mavzuning oldiga qo‘yilgan maqsadni aniq belgilashi zarur.

To‘rtinchidan, talabalarning mustaqil ishi ma’lum bir tamoyillar asosida tashkil etilishi kerak. Mustaqil ish har bir talaba tomonidan mustaqil bajarilib, uning sifati o‘qituvchi tomonidan baholanishi zarur.

Beshinchidan, talabalarning mustaqil ishi rejasi kafedra majlisida tasdiqlanib rejadagi talabalarning mustaqil ishi xaftalarga bo‘linib uning bajarilishi kafedra mudiri tomonidan nazorat qilinishini uning natijalari kafedra majlisida muhokama qilib borilishi maqsadga muvofiqdir.

Oltinchidan, mustaqil ishning talabalar bilimini oshirishda muhim o‘rin egallashini hisobga olgan holda, mustaqil ishi natijasi bo‘yicha olingan reyting ballari talabalarning umumiy reyting balliga qo‘shilishi kerak.

Yettinchidan, talabalarning mustaqil ishi sifatida shunday ishlar tanlanishi kerakki, ularni bajarganda talaba u yoki bu ishni mavzusini chuqur o‘rganishga imkoniyat yaratish zarur. Talabalarga

mustaqil ish sifatida axborot texnologiyalari, jamiyatni axborotlashtirish, soxa korxonalarinining ishlab chiqarish va texnologik jarayonlarini avtomatlashtirish, raqamlashtirish, avtomatlashgan sun'iy intellektli tizimlarni yaratish kabi muammolarini chuqur o'rganish, tahlil qilish, ayrim masalalarni model-algoritm-dastur tamoyilida yechimlarini izlashni tavsiya qilish maqsadga muvofiqdir. O'qiladigan fanning mavzulari bo'yicha talabaning mustaqil ishini tashkil qilishda fanning tarkibiy qismlarini mantiq tamoyillari asosida strukturalab birorta tanlangan mezonolar asosida strukturalangan modullarga ajratish lozim. Har bir modul bo'yicha ma'ruza, amaliy, laboratoriya va talabaga ajratiladigan mustaqil materiallarni tarkibini aniqlshashtirib, adabiyotlar, internet resurslaridan foydalanishni rejasini tuzish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Hozirgi zamonaviy o'qitish tendensiyasida juda katta e'tibor talabaning o'qituvchi nazoratida mustaqil ishlarini samaradorligini, mahsuldorligini, ilmiy amaliy salohiyatini va boshqa shu kabi omillarini oshirishga qaratilgandir. Yildan yilga mutaxassislik o'quv rejasidagi fanlarni o'qitishning tarkibiy qismida o'qituvchi rahbarligidagi mustaqil ta'limga ajratilayotgan soatlar miqdori ayrim fanlar uchun ajratilgan soatlar miqdorining 50-80% ni tashkil qilmoqda. Bu esa tabiiy, chunki hozirgiday axborot kommunikasiya texnologiyalarining bunday tezkorlik bilan rivojlanayotgan davrida mustaqil ta'limni tashkil qilishga juda katta e'tibor qaratiladi.

E'tiborli tomoni shundagi, axborotli jamiyatning rivojlanishi oliy ta'lim muassasalari oldiga zamon talablariga mos keladigan kasbiy faoliyat mutaxassislarini tayyorlashda na faqat o'z mutaxassisligini "yaxshi biladigan, o'zlashtirgan" mutaxassisni emas balki, eng muhimi shundan iboratki, ilmiy salohiyatli "mutaqil fikr yuritaoladigan", o'zining kasbiy salohiyatini "baholay oladigan", "mustaqil tarzda maqsadga erishish" ko'nikmalariga ega bo'lgan, olgan bilim va ko'nikmalarini amaliy faoliyat uchun qo'llashga yo'naltira oladigan, faol, izchil "shakllangan" kompetentli mutaxassisni tayyorlashda e'tiborni mustaqil ta'limni faol tashkil qilishga qaratishni bosh mezon darajasiga olib chiqishni ko'ndalang qo'ymoqda. Bundan tashqari, zamonaviy sharoitlarda, kompyuter va telekommunikasiya sun'iy intellekt texnologiyalarining keng joriy etilishi natijasida o'quv jarayonini tashkil qilish bo'yicha yondashuvlarda kardinal o'zgarishlar qilinmoqda. Bunday aqlli kompyuterlashgan telekommunikasiya texnologiyalariga asoslangan o'qitishning axborotlashgan tizimida talabaning fanlar bo'yicha mustaqil ishi vaqt bo'yicha kechiktirilib talabaning olgan bilimlarini tekshiradigangan oddiy jarayon emas, balki real vaqt mobaynida uzliksiz tarzda talabaning olgan bilimlarini monitoringgi bo'lib o'qituvchi bilan talaba orasidagi o'zaro faol aloqadorlikni ta'minlovchi jarayondir, bu esa axborot almashish va kommunikasiyalar uchun fazoviy (geografik, masofaviy, oliy ta'lim muassasasidan tashqarida) va vaqt chegaralarini (dars jadvalidan tashqari, xohlagan vaqtda) kengayishiga olib kelmoqda.

Metodika. Bu muammoni samarali hal qilishga, tashkil qilishning turli jabhalarini tahlil qilishga, talabalar mustaqil ishlarini takomillashtirish, rivojlantirishning usullarini, yondoshuvlarini izlash bo'yicha juda ko'p ilmiy, ilmiy-metodik ishlar chop qilingan. Bularning barchasida, talabalarning mustaqil ishini tashkil qilishda, uning faolligini oshirishga to'sqinlik qiladigan sabablarni, vositalarni aniqlashda va ularni bartaraf etishda, o'qituvchi faoliyatining tarkibiy qismlarini va undagi rolini aniqlashga e'tiborni qaratish zarur.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturida chuqur nazariy va amaliy bilimlar bilan bir qatorda tanlagan sohasi bo'yicha mustaqil faoliyat ko'rsata oladigan, o'z bilimi va malakasini mustaqil ravishda oshirib boradigan, masalaga ijodiy yondashgan holda muammoli vaziyatlarni to'g'ri aniqlab, tahlil qilib, sharoitga tez moslasha oladigan mutaxassislarni tayyorlash asosiy vazifalardan biri sifatida belgilangan.

Hozirgi paytda jamiyatni demokratizasiyalashtirish va gumanizasiyalashtirish, insoniyat huquqlarini va erkinligini kengayishi sharoitida, mustaqil faoliyat ko'rsataoladigan yosh avlodni

tarbiyalash juda muhimdir. Mustaqillik, inisiativa, ijodkorlik, maqsadga intiluvchanlik – bu insonning mustaqil fikrini shakllantirish uchun, hozirda va kelajakda hayotiy muhim muammolar bo‘yicha mustaqil yechimlar, qarorlar qabul qilishni takomillashtirish, rivojlantirish uchun zarur hisoblangan zamonaviy inson shaxsining muhim sifatlari hisoblanadi. Hozirgi sharoitda ijodiy faollik va mustaqillik zamonaviy mutaxassis uchun xarakterli hisoblanadi [3,4].

Talabaning mustaqil ishini bilimlarni o‘zlashtirishning oddiy biror uslubi deb qaramaslik kerak, aksincha, oliy ta’lim muassasasi faoliyatining asosiy prinsiplaridan bittasi deb hisoblamoq darkor. Mustaqil ta’lim yagona o‘quv jarayonining zaruriy tarkibiy qismi hisoblanadi, chunki u o‘quv jarayoni tomonidan tashkil qilinadi, maqsadli yo‘naltiriladi, reglamentlar qo‘yiladi va nazorat qilinadi. Shu boisdan ham talabaning mustaqil ishini tashkil qilish, ayniqsa, axborot kommunikasiya texnologiyalarining rivojlanib borayotgan sharoitida, ta’lim sifatini oshirishning birdan bir prioritetli va samarali yo‘nalishlardan bittasidir.

Ma’lumki faol bilim olish va ilmiy izlanish faoliyati mustaqil izlanishlarning barcha turlaridan unumli foydalanishni talab qiladi. Talabaning mustaqil ishi o‘quv jarayonining barcha shakllarida namoyon bo‘lmog‘i zarur. Talabaning mustaqil ishining asosiy maqsadi – o‘qituvchining rahbarligi va nazorati ostida talabada muayyan o‘quv ishlarini mustaqil ravishda bajarish uchun zarur bo‘lgan bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish va rivojlantirishdir.

Tabiiyki, talabaning mustaqil ishiga rahbarlik qilish va tashkil qilishning asosiy prinsiplarini ko‘rib chiqqanda juda katta e’tiborni talabada o‘quv va ilmiy adabiyotlar ustida mustaqil ishlashning mustahkam ko‘nikmasini shakllantirish va rivojlantirishga qaratish darkor. Internet muhitida berilgan topshiriq bo‘yicha kerakli axborotni izlash talabada axborotni zaruriyligini anglab yetish, tahlil qilish, undan kerakli ma’lumotlarni sintez qilish va natijaviy axborotlarni izlanishlar olib borish uchun qo‘llay bilish ko‘nikmalar, hamda fanlar bo‘yicha topshiriqlarni, o‘quv-ilmiy izlanishlarni, ilmiy izlanishlarni mustaqil tarzda olib borish va nazorat qilish bo‘yicha tajribalar, metodikalar shakllanadi. Bilim olishda mustaqil faoliyat yuritish ko‘nikmasini shakllanishi talabalarda o‘zining bilimini uzliksiz tarzda, faol, tizimli tarzda to‘ldirib borish, takomillashtirishning psixologik ustqurmasini ishlab chiqaradi va o‘zining o‘quv va keyinchalik kasbiy faoliyatida o‘zini-o‘zi tashkil qilishning zaruriy shartlarini hosil qiladi. Demak, talabaning bilim olishiga shaxsiy ma’no bermak zarur, bilim olishning ichki motivasiyasini kuchaytirish, o‘zini-o‘zi tashkil qilish va o‘zini-o‘zi o‘qitish ko‘nikmasini rivojlantirish hisobiga talabani ijodiy potensialini rag‘batlantirib (moddiy va ma’naviy) bormoq zarur. Ta’lim olishning barcha faoliyat turlari faol mustaqil izlanishni talab qiladi. Talabaning mustaqil bilim olishini ma’ruza mashg‘ulotlariga nisbatan qarama-qarshi qilib qo‘yish mumkin emas, balki ma’ruzadan olgan bilimlarini yanada mustahkamlash uchun xizmat qiladigan muhim instrument deb qarash maqsadga muvofiq hisoblanadi. Shu boisdan ham mustaqil ish o‘quv jarayonining barcha shakllarida bo‘lishi zarur.

Masalan, barcha fanlardan talabaning bilimini aniqlash bo‘yicha turli ko‘rinishdagi bosqichma-bosqich nazoratlar qo‘llaniladi. Bular asosan boshlang‘ich bilimni aniqlash, joriy nazorat, oraliq nazorat, yakuniy nazorat va tajriba-amaliy mashg‘ulotlardagi tezkor so‘rovlar, ma’ruza materiallari bo‘yicha semestr davomida 2-3 marta nazariy so‘rovlar, mustaqil ishlash topshiriqlarining bajarilishini nazorat qilishdan iborat. Mustaqil ta’lim olish jarayonini talaba o‘zida kasbiy faoliyatning, chunonchi, masalani matematik rasmiylashtirish (modellashtirish) algoritmlash va dasturlashtirish bo‘yicha puxta, chuqur bilimning shakllanishidagi muhim elementlardan biri deb tushunmog‘i zarur.

Aytaylik, Dasturlash fani bo‘yicha talabaning turli ko‘rinishlardagi mustaqil ishini tashkil qilish uchun fanni tarkibini mantiqiy tugallangan o‘quv elementlari ko‘rinishida, ya’ni mantiqiy tarkibiy elementlarning daraxt ko‘rinishidagi strukturasini yaratmoq kerak. Fanning daraxt ko‘rinishidagi

mantiqli struktura sxemasidan foydalanish talabaning mustaqil ishini semestr mobaynida konkret rejalashtirilgan grafik asosida olib borishga imkoniyat yaratadi [5-9] .

Fanning tarkibiy qismlari, strukturasi "masala" ko'rinishida xarakterlanadigan rivojlantiruvchi ta'limda o'quv materialining mazmuni talabalar oldida masalalar zanjiri ko'rinishida gavdalanadi. Fikrlashning muammoli xarakterga ega ekanligini hisobga olgan holda, aniq mavzu yoki bo'limning mazmunini quyidagicha qurish maqsadga muvofiqdir, ya'ni, "bilish masalalarining mantiqiy ketma-ketligi ko'rinishida, o'quv jarayoni esa - o'quv vaziyatlari zanjiri ko'rinishida, uning bilish yadrosi hisoblanadi, mazmuni esa - o'qitish usullari va bilim olishning har xil vositalarini qo'llagan holda masalalarni yechish bo'yicha talabalarning birgalikdagi, hamjihatlikdagi ishidir" [7,8,9].

Xulosa. Talabalarning mustaqil ishi - bu o'qituvchining uslubiy va ilmiy rahbarligi ostida amalga oshiriladigan, bilim faolligini rivojlantirish va namoyon etishga qaratilgan o'quv, ilmiy, kasbiy faoliyat doirasida talabaning rejalashtirilgan auditoriya va auditoriyadan tashqari faoliyati, hamda bo'lajak mutaxassisning umummadaniy, umumkasbiy, kasbiy va maxsus kompetentsiyalarini shakllantirishdir. Natijada, talabada, konkret masalani turli sonli miqdorlarda, va turli o'lchamlarda, samarali mtodlar va uslublarni qo'llab muvaffaqiyatli yechish ko'nikmasi shakllanadi. Bu yerda turdosh fanlarga doir masalalarni yechishda albatta axborot texnologiyalarining modellash-algoritmlash-dasturlash tamoyillari mazkur fanlar bilan birgalikda, uzviylikda olib boriladi, ular bir-birini kerakli axborotlar bilan to'ldiradi, qo'llab quvvatlaydi. Shu boisdan ham, oliy ta'lim muassasasida talabaning mustaqil ishini tashkil qilishni o'qituvchi rahbarligida umumiy va kasbiy ta'lim bilimlarini olishga yo'naltirilgan o'quv-uslubiy-ma'naviy faoliyatning bir turi deb qarash maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг 2020 йил 24-январдаги Олий Мажлисга йўллаган мурожаатномаси.
2. Латышева Л.П., Скорнякова А. Ю., Черемных Е. Л. Модель организации внеаудиторной самостоятельной работы студентов по математике// Педагогическое образование в России. 2014. № 12. – с. 110-116.
3. Асламова Т.В. Организация самостоятельной работы студентов как фактор формирования профессионально значимых компетенций//МГТУ, М.: 2005.
4. Жуйкова О. В. Организация самостоятельной работы студентов технического вуза при изучении графических дисциплин// Ижевск, 2013. - №2. – С. 288-293.
5. Положение об организации самостоятельной работы студентов в Тамбовском государственном техническом университете. – Тамбов, 2011.
6. Zakirova, F.M., Saidova, F. and Zakirova, M. 2018. Blended learning for the development of academic staff creativity: The experience of advanced training of pedagogical staff in the Republic of Uzbekistan. In 2nd International Conference on Digital Technology in Education, ICDTE 2018. Thailand. 143696.
7. Yusupov F., Shamuratova I., Yusupov D., Khudayberganov T. "Data structure and algorithms" based on structuration and integration of the discipline// Information science and communications technologies 4-6 November 2019, TUIT Campus, Local Hotels, Tashkent Uzbekistan.
8. D.Yusupov. A.Ashirova. F.Yusupov. B.Bekchanov "Improving the effectiveness of lectures by using the methods structuring the composition of the programming discipline"// European Journal of Molecular & Clinical Medicine, 2020, Volume 7, Issue 7, Pages 1093-1108.
9. Юсупов Ф., Хаджиева И.А. О личностно-ориентированной модели компьютерного обучения гуманитарных дисциплин// Молодой учёный. – 2014, №6 (65). – с. 765-767.

BO‘LAJAK PEDAGOGLARNING INDIVIDUAL, INTELLEKTUAL VA IJTIMOIY IMKONIYATLARINI METODIK RIVOJLANTIRISH

Qurbonova Baxtixon Qo‘chqarbayevna
Farg‘ona davlat universiteti Pedagogika-psixologiya va san’atshunoslik fakulteti dekani, pedagogika fanlari doktori, professor

Annotatsiya. Mazkur maqolada intellekt asosan, shaxs xususiyati bo‘lib, obyektiv borliqdagi predmet va hodisalarni ularning o‘ziga xos aloqalari va qonuniyatlari bilan inson ongida aniq va chuqur aks ettiradigan qobiliyat ekanligi tahlilga tortilgan. Shuningdek, ta’limning tushunarli tarzda olib borilishi – o‘quv jarayonida taqdim qilinayotgan fikrlarning oddiyligi, keltirilayotgan misollarning ishonchliligi bilan belgilanishi ta’kidlangan. Bu nafaqat intellektual, balki qandaydir ma’noda axloqiy xususiyat ekanligi dalillangan.

Tayanch so‘zlar: intellekt, ta’lim, shaxs, salohiyat, axloqiy xususiyat, ijtimoiy imkoniyat.

МЕТОДИЧЕСКОЕ РАЗВИТИЕ ИНДИВИДУАЛЬНЫХ, ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫХ И СОЦИАЛЬНЫХ СПОСОБНОСТЕЙ БУДУЩИХ ПЕДАГОГОВ

Аннотация. В данной статье анализируется, что интеллект – это преимущественно свойство личности, и это способность ясно и глубоко отражать в сознании человека предметы и события объективного существования с их специфическими связями и законами. Также подчеркивается, что обучение осуществляется понятным образом – оно определяется простотой представленных в образовательном процессе идей, достоверностью приведенных примеров. Утверждалось, что это не только интеллектуальная, но и в некотором смысле моральная черта.

Ключевые слова: интеллект, образование, личность, потенциал, моральные качества, социальные возможности.

METHODOLOGICAL DEVELOPMENT OF INDIVIDUAL, INTELLECTUAL AND SOCIAL ABILITIES OF FUTURE TEACHERS

Abstract. This article analyzes that intelligence is predominantly a property of personality, and it is the ability to clearly and deeply reflect in the human mind the objects and events of objective existence with their specific connections and laws. It is also emphasized that learning is carried out in an understandable way - it is determined by the simplicity of the ideas presented in the educational process, the reliability of the examples given. It has been argued that this is not only an intellectual, but also in a sense a moral trait.

Keywords: intelligence, education, personality, potential, moral qualities, social capabilities.

KIRISH. Bugungi kunda talabalarning intellektual faoliyatini tashkil qilish masalasi katta ahamiyatga ega. Shu sababli o‘qitiladigan fan doirasida topshiriqlarni bajarish davomida ularning aqliy salohiyatini oshirishga bog‘liq mavjud adabiyotlardan funksionallik, induktiv tahlil, pedagogik kasbiy mahorat, uning mohiyati, shakllanish xususiyatlari va imkoniyatlarini o‘rganish va tahlil qilish muhim hisoblanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA. Pedagoglarning individual, intellektual va ijtimoiy imkoniyatlarini rivojlantirishda metodik yondashuvlar muhim o‘rin tutadi. Ilmiy adabiyotlarda berilishicha, intellekt – shaxs xususiyati bo‘lib, obyektiv borliqdagi predmet

va hodisalarni ularning o‘ziga xos aloqalari va qonuniyatlari bilan ongimizda aniq va chuqur aks ettiradigan qobiliyatdir[1]. Intellekt barcha aqliy jarayonlarda, birinchi navbatda, tafakkur va ijodiy xayolda ko‘rinadi. U ko‘proq yorqinroq yangi muammoni mustaqil yechishda kuzatiladi. Intellektning har xil odamlarda turli darajada rivojlanganligi tufayli, inson intellektida turli sifatlar bilan tavsiflash mumkin, bular:

– ta’limning tushunarli tarzda olib borilishi – o‘quv jarayonida taqdim qilinayotgan fikrlarning oddiyligi, keltirilayotgan misollarning ishonchliligidir. Bu nafaqat intellektual, balki qandaydir ma’noda axloqiy xususiyatdir. Chunki bilim berish jarayonida uning o‘z joyi, vaqti va ta’lim oluvchilarning holatiga nisbatan nafaqat aqliy javobgarlik, balki vatanparvarlik hissi oldidagi javobgarlikni his qilish muhim;

– aqlning mantiqiyligi – tafakkurdagi qat’iy davomiylik va sistemalilikdir;

– mulohazalilik – predmetlarda va hodisalarda o‘ziga xoslikni bilish qobiliyati;

– aqlning kengligi – masalaning barcha tomonlarini hisobga olgan holda fikr yuritish qobiliyati;

– aqlning egiluvchanligi – shablonlik, stereotiplikning yo‘qligi, fikrlashni o‘zgartirish qobiliyati;

– mustaqillik va originallik. Bu aqliy faoliyatning ijodiy xususiyati;

– aqlning tanqidiyligi – tekshirilmagan, shunchaki olingan hukmlar yo‘qligi, chuqur o‘rganilgan, tahlil qilingan, inkorlarga jiddiy munosabatning mavjudligidir. Inson aqlining bu barcha individual xususiyatlari mehnat jarayonida paydo bo‘ladi, u shakllanadi va rivojlanadi[1].

Pedagoglarning individual imkoniyatlari, ya’ni ularning o‘ziga xos xususiyatlari, qobiliyatlari, istaklari va ehtiyojlarini rivojlantirish, ularni ta’lim jarayonida samarali qo‘llash uchun muhimdir. Bunda:

1) o‘z-o‘zini anglash va o‘zini rivojlantirish: bo‘lajak pedagoglar o‘z salohiyatini anglashlari va uni takomillashtirish uchun doimiy o‘z ustida ishlashlari zarur. Buning uchun har bir mashg‘ulotga individual loyiha tuzish, mashg‘ulotlarda yangi metodlarni qo‘llay olish kerak.

2) emotsional intellektni rivojlantirish: bo‘lajak pedagoglar o‘quvchilar bilan muloqotda o‘z his-tuyg‘ularini boshqara olish qobiliyatiga ega bo‘lishi lozim.

3) tanqidiy fikrlash va muammoni hal qilish qobiliyatlari: bo‘lajak pedagoglar tanqidiy fikrlash, murakkab vaziyatlarni tahlil qilish va mantiqiy qarorlar qabul qila olish ko‘nikmasini egallagan bo‘lishi zarur .

Bo‘lajak pedagoglarning bilim va tafakkur salohiyatlarini rivojlantirish ularning kelajakda samarali ishlashiga yordam beradi. Bo‘lajak pedagoglarni yangi pedagogik texnologiyalar va metodlarni o‘rganish, innovatsion yondashuvlarni erkin qo‘llay olish, zamonaviy pedagogik usullarni o‘rganish va amaliyotga tatbiq etish, fanlararo yondashuvlarni qo‘llash, shuningdek, o‘z sohasidagi bilimlarini doimiy yangilab borishga o‘rgatish lozim. Yana bir muhim omil o‘qituvchining pedagogik tafakkuridir. Pedagogik tafakkurning kenligi o‘quv jarayonining samarali tashkil etilishiga yordam beradi.

V.A.Suxomlinskiy” O‘qituvchining mehnatini biror rarsa bilan qiyoslab ham, taqqoslab ham bo‘lmaydi. To‘quvchi bir soatdan keyinroq o‘z ishining hosilini ko‘radi, po‘lat erituvchi bir necha soatdan so‘ng olovdagi metall oqimidan shodlanadi - bu uning orzusini yuksak cho‘qqisi; yer haydovchi, don sepuvchi g‘allakor bir necha oydan keyin dalada o‘stirgan boshoqlari va bir siqim donidan zavqlanadi. O‘qituvchi esa o‘z ijodining mahsulini ko‘rish uchun yillab mehnat qilishi kerak. O‘qituvchi har bir daqiqada o‘zining o‘ttizta yoki qirqta tarbiyalanuvchisidan har birini ko‘rib turishi, u shu daqiqada nimalar o‘ylayotganligini, qanday g‘am-alamlar uni tashvishlantirayotganligini bilishi kerak” deya ta’kidlab o‘tgan[2].

Bo‘lajak pedagoglarning jamoaviy ishlashga bo‘lgan qobiliyati, kommunikativ ko‘nikmalarini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega bo‘lib, bunda kommunikatsiya va muloqotga e’tibor asosiy

o‘rin tutadi.

NATIJA VA MUHOKAMA. Ta’lim jarayonida ta’lim oluvchilarda fikr, mulohaza, g‘oya, faraz kabilar vujudga keladi va ular o‘quvchining ongida tushunchalar, hukmlar, xulosalar shaklida ifodalanadi. Inson tafakkuri orqali voqelikni umumlashtirib, bavosita (bilvosita) aks ettiradi, narsa va hodisalar o‘rtasidagi eng muhim bog‘lanishlar, munosabatlar, xususiyatlarni anglab yetadi. Binobarin, inson muayyan qonun, qonuniyat va qoidalarga asoslangan holda ijtimoiy voqea va hodisalarning vujudga kelishi, rivojlanishi hamda oqibatini oldindan ko‘rish imkoniyatiga ega[3].

O‘qitishning uzluksizligi, ta’limning o‘qitilish sifati va uning samaradorligi bevosita ta’lim oluvchilarning qay darajadagi mahorat bilan o‘qitilishiga bog‘liq. Pedagogning kasbiy mahoratini tashkil etuvchi komponentlar uning shaxsiy va xissiy qobiliyatlarining shakllanishi va takomillashuviga qaratilgan. Ma’lum soha vakilining o‘z kasbi doirasidagi bilim, ko‘nikma va malakasining yuksak arajada shakllanganligi uning kasbiy faoliyatini osonlashtiribgina qolmay, salmog‘ini ham oshiradi.

XULOSA. Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki, ta’lim faoliyatini yo‘lga qo‘yishda bo‘lajak pedagoglarning individual, intellektual va ijtimoiy imkoniyatlariga e’tibor qaratish, hozirgi jadal rivojlanib borayotgan ijtimoiy muhitdagi pedagogik kadrlarni xaridorgir va mehnat bozorida o‘z o‘rniga ega bo‘lib shakllanishida katta ahamiyat kasb etadi. Ijodiy ishlaydigan pedagog faqatgina talabalarni muvaffaqiyatli o‘qitish va tarbiyalash, ilg‘or pedagoglar tajribalarini o‘rganish bilangina cheklanib qolmasdan tadqiqotchilik ko‘nikma malakalariga ham ega bo‘lishi kerak. Hozirgi zamon fan va texnika taraqqiyoti o‘qituvchining ijodkor bo‘lishini, fanning muhim muammolari yuzasidan erkin fikr yurita olishi, fan yutuqlarini o‘quvchilarga yetkaza olishini taqozo etadi. Bo‘lajak pedagoglarning individual, intellektual va ijtimoiy imkoniyatlarini rivojlantirish uchun ularni doimiy ravishda professional rivojlantirish dasturlari bilan ta’minlash zarur. Bu jarayon ular o‘z imkoniyatlarini to‘liq amalga oshirishi va ta’lim sohasida yuqori natijalarga erishishlari uchun muhim hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Xoliqov A. “Pedagogik mahorat” O‘quv qo‘llanma. Toshkent «IQTISOD-MOLIYA» 2011. –Б. 12.

2.Сухомлинский В.А. Как воспитать настоящего человека: Педагогическое наследие / Сост. О. В. Сухомлинская. — М.: Педагогика, 1989. — 288 с.

3. Mavlonova R., Abdurahimova D. Pedagogik mahorat. O‘quv qo‘llanma. –T ., «Fan va texnologiya», 2009, 176-bet.

4.Axunova G.N., Golish L.V., Fayzullaeva D.M. Pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish va rejalashtirish. -T.: “Iqtisodiyot”, 2009. -B.6.

TALABALAR AXLOQIY-ESTETIK MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING O‘RNI

Atayeva Guli Shuxratovna
Urganch davlat pedagogika instituti pedagogika kafedrasi o‘qituvchisi, magistrant,
guli.atayeva1997@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada talabalar axloqiy-estetik madaniyatini rivojlanishtirida innovatsion pedagogik texnologiyalarning mohiyati tahlil qilinadi. Bugungi kunda ta’lim jarayonida interfaol usullar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va innovatsion metodlardan foydalanish pedagogik samaradorlikni oshirishda katta xizmat qilmoqda. Innovatsion texnologiyalar ta’lim jarayonini individuallashtirish, talabalarning ijodiy va mustaqil fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish, pedagoglarning o‘quv jarayonini samarali tashkil etish imkoniyatlarini keng darajada kengaytiradi. Maqolada zamonaviy pedagogik texnologiyalarning asosiy turlari, jumladan, modul ta’limi, klaster texnologiyalari, loyiha asosidagi ta’lim, masofaviy o‘qitish va boshqa usullar muhokama qilinadi. Shuningdek, pedagogik texnologiyalarni joriy etishda duch kelinadigan muammolar va ularni hal qilish yo‘llari haqida fikr yuritiladi. Tadqiqot natijalari talabalarda axloqiy-estetik madaniyatni rivojlantirishda zamonaviy texnologiyalarning strategik ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatib, ularning kelajak avlodlar ta’lim-tarbiyasidagi o‘rnini mustahkamlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, maqolada texnologiyalardan oqilona foydalanish va milliy ta’lim tizimiga moslashtirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ham berilgan.

Kalit so‘zlar: pedagogika, zamonaviy texnologiyalar, interfaol metodlar, ta’lim jarayoni, innovatsiya, ta’lim jarayoni, ijodiy fikrlash,ta’lim samaradorligi, pedagogika, kreativ fikrlash.

РОЛЬ ИННОВАЦИОННЫХ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ В РАЗВИТИИ ЭТИКО-ЭСТЕТИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ СТУДЕНТОВ

Аннотация. В данной статье анализируется суть инновационных педагогических технологий, направленных на развитие этико-эстетической культуры студентов. Сегодня использование интерактивных методов, информационно-коммуникационных технологий и инновационных подходов в образовательном процессе способствует повышению педагогической эффективности. Современные технологии позволяют индивидуализировать образовательный процесс, развивать творческие и самостоятельные мыслительные способности учащихся, а также расширяют возможности преподавателей в организации учебного процесса. В статье рассматриваются основные виды современных педагогических технологий, включая модульное обучение, кластерные технологии, проектное обучение, дистанционное образование и другие методы. Также обсуждаются проблемы, возникающие при внедрении педагогических технологий, и пути их решения. Результаты исследования показывают, что современные технологии имеют стратегическое значение для развития этико-эстетической культуры у студентов, и их использование способствует укреплению роли этих технологий в образовании и воспитании будущих поколений. Также в статье представлены практические рекомендации по разумному использованию технологий и их адаптации к национальной системе образования.

Ключевые слова: педагогика, современные технологии, интерактивные методы, образовательный процесс, инновация, эффективность обучения, творческое мышление, креативное мышление.

THE ROLE OF INNOVATIVE PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN THE DEVELOPMENT OF ETHICAL AND AESTHETIC CULTURE OF STUDENTS

Annotation. This article analyzes the essence of innovative pedagogical technologies aimed at developing the ethical and aesthetic culture of students. Today, the use of interactive methods, information and communication technologies, and innovative approaches in the educational process contributes to enhancing pedagogical effectiveness. Modern technologies enable the individualization of the educational process, foster students' creative and independent thinking abilities, and expand teachers' opportunities to organize the learning process effectively. The article discusses the main types of modern pedagogical technologies, including modular learning, cluster technologies, project-based learning, distance education, and other methods. It also addresses the challenges encountered during the implementation of pedagogical technologies and explores ways to resolve them. The research results show that modern technologies have strategic importance in developing the ethical and aesthetic culture of students, and they contribute to strengthening their role in the education and upbringing of future generations. In addition, the article provides practical recommendations on the wise use of technologies and their adaptation to the national education system.

Keywords: pedagogy, modern technologies, interactive methods, educational process, innovation, educational process, creative thinking, educational efficiency, pedagogy, critical thinking

KIRISH. Bugungi globallashuv davrida ta'lim tizimi jamiyatning intellektual salohiyatini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar ta'lim jarayonini yangicha yondashuvlar bilan boyitib, o'quvchilarning shaxsiy rivojlanishi va ijodiy salohiyatini oshirish uchun keng imkoniyatlar yaratmoqda. Pedagogika fanini rivojlantirishda innovatsion texnologiyalarni qo'llash nafaqat ta'lim samaradorligini oshiradi, balki o'quvchilarning mustaqil fikrlash, amaliy ko'nikmalarni shakllantirish va zamonaviy jamiyat talablariga moslashish qobiliyatlarini rivojlantiradi. Zamonaviy texnologiyalarning joriy etilishi ta'lim jarayonini individuallashtirish, interfaol usullarni keng qo'llash va masofaviy o'qitish imkoniyatlarini kengaytirish orqali pedagogik jarayonning sifatini sezilarli darajada yaxshilaydi. Shuningdek, ushbu texnologiyalar o'qituvchilarga ta'limni boshqarish va tashkil etishda innovatsion yondashuvlarni qo'llash imkonini beradi. Shu sababli, zamonaviy pedagogik texnologiyalarning o'rganilishi va amaliyotga tatbiq etilishi pedagogika fanining strategik rivojlanish yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu tadqiqotda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning turlari, ularning ta'lim jarayonidagi o'rni, shuningdek, ularni qo'llashda duch kelinadigan muammolar va ularning yechimlari ko'rib chiqiladi.

Adabiyotlar sharhi. O'zbekiston Respublikasi kadrlar tayyorlash milliy dasturining "Uzluksiz ta'lim tizimi va turlari" bo'limida ikki bosqichli oliy ta'limni tashkil etish va rivojlantirish uchun amalga oshirish zarur bo'lgan tadbirlar qatorida "yangi pedagogik va axborot texnologiyadan foydalangan holda talabalarni o'qitishni jadallashtirish; o'qitishni mustaqil bilim olishni individuallashtirish hamda distantsion ta'lim tizimi texnologiyasi va vositalarini ishlab chiqish va o'zlashtirish" haqida so'z yuritilgan. Ushbu tadbirlarni amalga oshirish o'qitishni takomillashtirish, ya'ni o'quv jarayoniga pedagogik texnologiyalarnddfi keng tatbiq qilish, kompyuterli avtomatlashtirilgan o'qitish tizimini qo'llash, ta'limda yangi texnikaviy va didaktik vositalar hamda multimediya imkoniyatlaridan foydalanish, masofadan o'qitish ta'limini joriy qilish kabi o'qitishning zamonaviy texnologiyalarini qo'llash orqali bajariladi. Rivojlangan mamlakatlarda yangi pedagogik texnologiya asta-sekinlik bilan shakllanib, O'zbekiston Respublikasiga ham kirib kela boshlagan. Yangi pedagogik texnologiya dars jarayonida talabalarni mustaqil fikrlash, erkin faoliyat yuritishga da'vat etadi. So'nggi yillarda Respublikamizning taniqli pedagog olim va o'qituvchilari tomonidan o'quv

jarayoniga pedagogik texnologiyalami joriy etish bo‘yicha samarali izlanishlar olib borilmoqda.

Pedagogik texnologiya tushunchasi ilmiy maqolalar, davriy nashrlar, anjumanlardagi mavzu va hisobotlarda ham o‘z aksini topmoqda. Jumladan, respublikamiz olimlari R.X.Jorayev. A.P.Parpiev, N.X.Saydahmedov, U.N.Nishonaliev, L.Farberman, L.V.Golish, U.X.Tolipovlar hamda Rossiya pedagog olimlaridan V.P.Bezpalko, M.V.Klarin, V.M.Monaxov, P.I.Pidkasistiylar, shuningdek, qozog‘istonlik olimlaridan M.J.Aristanov, J.S.Xaydarov va boshqalar o‘z ilmiy tadqiqotlarida “pedagogik texnologiya” tushunchasining mohiyatini va ahamiyatini ochib berishga harakat qilganlar. Hozirgi kunda pedagogika adabiyotlari, ta’lim muammolariga oid ma’ruzalar va rasmiy hujjatlarda “yangi pedagogik texnologiya”, “ilg‘or pedagogik texnologiya”, “zamonaviy pedagogik texnologiya”, “o‘qitish texnologiyasi”, “ta’lim texnologiyasi” kabi iboralar keng qo‘llanmoqda. Ammo ushbu tushunchalar hali ham bir qolipga tushirilmagan va ensiklopediyalarda izohlanganicha yo‘q.

Mazmuni. Texnologiya tushunchasi keng va ko‘p qirrali ma’noga ega. Umuman olganda, texnologiya – bu biror ishni amalga oshirishda, san’atda yoki mahoratda qo‘llaniladigan usullar, yo‘llar va vositalar yig‘indisidir. Texnologiya, shuningdek, ishlov berish va ahvolni o‘zgartirish san’ati, mahorati va qobiliyatlari to‘plami sifatida ham ta’riflanadi [1]. Pedagogik kontekstda, texnologiya o‘qitish va ta’lim jarayonlarini optimallashtirishga qaratilgan metodlar va vositalar yig‘indisi sifatida qaraladi. Pedagogik texnologiya, o‘qituvchilar va tarbiyachilarning o‘quvchilarga ma’lum maqsadlar va sharoitlar asosida ta’sir ko‘rsatish jarayonidir. Bu jarayon o‘quvchilarning aqliy, ruhiy va axloqiy sifatlarini rivojlantirishga qaratilgan [2].

Texnologiya tushunchasining asosiy jihatlari quyidagilardan iborat:

- **Usullar va vositalar:** texnologiya o‘z ichiga turli usullar va vositalarni oladi, bu esa ma’lum bir maqsadga erishish uchun zarurdir.
- **Ishlov berish:** texnologiya, shuningdek, materiallarni ishlov berish va ularni o‘zgartirish jarayonini o‘z ichiga oladi.
- **Innovatsion yondashuv:** zamonaviy texnologiyalar innovatsion yondashuvlarni qo‘llash imkonini beradi, bu esa ta’lim jarayonini yanada samarali qiladi.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalar: zamonaviy pedagogik texnologiyalarni ta’lim muassasalariga joriy etishning ahamiyati va ta’siri, shuningdek, pedagogik yondashuvlarning evolyutsiyasi haqida so‘z yuritiladi. Bu texnologiyalar o‘qitish jarayonini yanada samarali va interaktiv qilishga yordam beradi.

Innovatsion pedagogik texnikalar: innovatsion pedagogik texnikalar, jumladan, kompyuterlar va multimediya vositalarining qo‘llanilishi ta’lim jarayonini boyitadi va o‘quvchilarning faol ishtirokini ta’minlaydi. Bu texnologiyalar o‘qituvchilarga darslarni yanada qiziqarli va samarali o‘tkazishga imkon beradi [3].

Pedagogik jarayonni shakllantirish: pedagogik jarayonni shakllantirishda zamonaviy texnologiyalarning o‘rni, shuningdek, ularning ta’lim natijalariga ta’siri baholanadi. Pedagogik texnologiyalarni qo‘llash orqali o‘quvchilarning tafakkurini rivojlantirish va ijodiy fikrlash qobiliyatini oshirish mumkin [4].

Muammolar va imkoniyatlar: zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etishda duch kelinadigan muammolar va imkoniyatlar ham ko‘rib chiqiladi. Bu jarayonda o‘qituvchilarning kasbiy malakasini oshirish va innovatsion ko‘nikmalarini rivojlantirish zarurati ta’kidlanadi [5].

Pedagogik texnologiyalar ta’lim jarayonini samarali tashkil qilish va o‘quvchilarning bilim olish jarayonini yaxshilashga xizmat qiladi. Quyida pedagogik texnologiyalarning asosiy turlari keltirilgan:

1. Modul ta’lim texnologiyasi - o‘quv jarayonini kichik modullarga bo‘lib tashkil etish.

Har bir modul ma'lum bir mavzu yoki mavzularni o'z ichiga oladi. Talabalar mustaqil ravishda yoki o'qituvchi bilan birgalikda ishlaydi.

2. Interfaol ta'lim texnologiyasi - o'quvchilar va o'qituvchilar o'rtasida faol muloqotni ta'minlaydi. Rolli o'yinlar, muhokamalar, "miya hujumi" kabi usullardan foydalaniladi.

3. Loyiha asosidagi ta'lim texnologiyasi - talabalar mustaqil ravishda yoki guruhlarda loyiha yaratadilar. Loyihalar real hayotdagi muammolarni hal qilishga qaratilgan bo'ladi.

4. Klaster texnologiyasi - talabalarni guruhlarga ajratish orqali hamkorlikda o'rganishni ta'minlash. Guruhda ishlash orqali ijodiy va tanqidiy fikrlash rivojlantiriladi.

5. Masofaviy ta'lim texnologiyasi - internet va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda ta'lim jarayonini tashkil qilish. Video darslar, onlayn platformalar, elektron pochta orqali muloqot.

6. Differensial ta'lim texnologiyasi - talabalar individual xususiyatlariga qarab o'qitiladi. Har bir o'quvchining qobiliyatlari va ehtiyojlariga mos dasturlar tuziladi.

7. Problemali ta'lim texnologiyasi - o'quvchilarning muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan. O'quvchilar mustaqil ravishda muammolarni tahlil qiladi va yechim topadi.

8. Axborot texnologiyalari asosidagi ta'lim - elektron darsliklar, taqdimotlar, multimedia vositalaridan foydalanish. Virtual laboratoriyalar va simulyatsiyalar.

9. Integratsion ta'lim texnologiyasi - bir nechta fanlar o'rtasida bog'lanish o'rnatish. Masalan, matematika va informatika yoki biologiya va kimyo fanlarini integratsiyalash.

10. O'yin texnologiyalari - ta'lim jarayonida o'yin shakllaridan foydalanish. Didaktik o'yinlar, stol o'yinlari, kompyuter o'yinlari.

Har bir texnologiya ta'lim maqsadlari, o'quvchilarning yoshi va ehtiyojlariga qarab tanlanadi. Zamonaviy ta'limda bir nechta texnologiyalarni kombinatsiyalash orqali samaradorlikni oshirish mumkin.

Zamonaviy ta'lim texnologiyalarning asosiy turlari. Modul ta'limi: o'quv jarayonini modul asosida tashkil qilish va uning afzalliklari.

Klaster texnologiyalari: o'quvchilarni guruhlarga ajratish va ularning hamkorlikda ishlash qobiliyatini rivojlantirish.

Loyiha asosidagi ta'lim: o'quvchilarning amaliy ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan usul.

Masofaviy ta'lim: texnologiyalar yordamida masofadan o'qitishning imkoniyatlari va afzalliklari.

Innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash bo'yicha bir qator amaliy misollar mavjud. Ushbu misollar ta'lim jarayonini yanada samarali va qiziqarli qilishga yordam beradi. Quyida ba'zi misollar keltirilgan:

Flipped Classroom (Teskari dars): ushbu metodda o'quvchilar darsdan oldin video darslarni yoki boshqa materiallarni o'qib chiqadilar. Dars davomida esa o'qituvchi o'quvchilarning savollariga javob beradi va muammolarni hal qilishga yordam beradi. Bu yondashuv o'quvchilarning faol ishtirokini oshiradi.

Interaktiv ta'lim platformalari: Kahoot, Quizizz yoki Mentimeter kabi interaktiv platformalar yordamida o'qituvchilar dars davomida o'quvchilarga savollar berishlari va natijalarni real vaqt rejimida ko'rishlari mumkin. Bu o'quvchilarning qiziqishini oshiradi va darsni yanada interaktiv qiladi.

Virtual va kengaytirilgan haqiqat: virtual haqiqat (VR) va kengaytirilgan haqiqat (AR) texnologiyalaridan foydalanish orqali pedagoglar o'quvchilarga murakkab tushunchalarni ko'rsatish-

lari mumkin. Masalan, biologiya darslarida o‘quvchilar inson tanasining tuzilishini 3D modellar orqali o‘rganishlari mumkin.

Blended Learning (Aralash ta’lim): ushbu yondashuvda an’anaviy darslar va onlayn ta’lim elementlari birlashtiriladi. O‘qituvchilar o‘quvchilarga onlayn resurslar va materiallar taqdim etish orqali ularning mustaqil o‘rganish imkoniyatlarini oshiradilar.

Kooperativ o‘qitish: o‘quvchilarni kichik guruhlarga bo‘lib, birgalikda muammolarni hal qilishga undash. Bu yondashuv o‘quvchilarning bir-biridan o‘rganishiga, fikr almashishiga va jamoaviy ish ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

O‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasida onlayn muloqot: o‘qituvchilar va o‘quvchilar uchun onlayn forumlar yoki chat guruhlarini tashkil etish. Bu o‘quvchilarga darsdan tashqari savollar berish va o‘z fikrlarini bildirish imkonini beradi. Ushbu misollar innovatsion pedagogik texnologiyalarni ta‘lim jarayonida qo‘llash orqali o‘qituvchilarning samaradorligini oshirish va o‘quvchilarning qiziqishini kuchaytirishga yordam beradi.

Xulosa. Maqola, talabalar axloqiy-estetik madaniyatini rivojlantirishda innovatsion pedagogik texnologiyalarning ahamiyatini ta’kidlaydi. Innovatsion pedagogik texnologiyalar ta’lim jarayoniga yangi metod va yondashuvlarni kiritish orqali talabalar ongida axloqiy va estetik qadriyatlarni shakllantirishga yordam beradi. Bu texnologiyalar nafaqat o‘quv jarayonining samaradorligini oshirish, balki talabalarning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishiga ham katta ta’sir ko‘rsatadi. O‘qitishning interaktiv va ijodiy usullari talabalar bilan muloqotda bo‘lib, ularning dunyoqarashini kengaytiradi va estetik sezgilarini oshiradi. Shuningdek, axloqiy qadriyatlarni ta’lim jarayoniga integratsiya qilish, zamonaviy pedagogik texnologiyalar orqali ta’limni yanada samarali va mazmunli qilishga imkon yaratadi. Demak, innovatsion pedagogik texnologiyalar talabalar axloqiy-estetik madaniyatini rivojlantirishda muhim vosita sifatida namoyon bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. J.Yo‘ldoshev, S.Usmonov, —Pedagogik texnologiya asoslari, T., 2004.
2. J.Yo‘ldoshev, —Ta’lim yangilanish yo‘lida, T., 2000.
3. Ptiyukov V.Y., — Osnov pedagogicheskoy texnologii, M., 1999.
4. Qodirova, M. Voyaga yetmagan o‘smirlar xulq atvorini shakllantirishda olib boriladigan ishlar mazmuni. Архив научных публикаций JSPI. (2020).
5. Majidov, J., Majidova G. Shaxs ijtimoiy taraqqiyotida oila muhitining o‘rni. Архив научных публикаций JSPI. (2020).
6. Majidov, J. Psychological criteria of the leader personality. Архив научных публикаций JSPI. (2020).
7. Majidov, J. Социальный интеллект как совокупность способностей, обеспечивающих адаптацию личности в обществе. Архив научных публикаций JSPI. (2020).
8. Majidov, J. Спортдаги мулоқот ижтимоий психологик ходиса сифатида. Журнал педагогики и психологии в современном образовании. извлечено от https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/723 (2021).

UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTABLARIDA “ARXIMED” KUCHI MAVZUSINI O‘QITISHDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH

[1]Matyoqubov H.Sh., [2]Salayeva H.Sh., [2]Quronboyeva N.I., [3]Sabirov R.Y.
[1]Urganch davlat pedagogika instituti, dotsenti, [2]Urganch davlat pedagogika instituti, magistranti,
[3]Urganch davlat pedagogika instituti, o‘qituvchisi
hikmat.shuhratovich@gmail.com

Annotatsiya. Arximed kuchi mavzusini o‘qitishda mavzuni o‘quvchilarga oson va samarali o‘zlashtirishda interfaol metodlarning ahamiyatini yoritish, Arximed kuchining asosiy qonuniyatlarini hayotiy misollar, masalalar, eksperimentlar orqali tushuntirish hamda o‘quvchilarning ilmiy va ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish.

Kalit so‘zlar: interfaol metod, Arximed kuchi, “Aqliy xujum” metodi, “Klaster” metodi, eksperiment, zichlik, hajm

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИНТЕРАКТИВНЫХ МЕТОДОВ ПРИ ПРЕПОДАВАНИИ ТЕМЫ «СИЛА АРХИМЕДА» В ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ СРЕДНИХ ШКОЛАХ

Аннотация. Освещение важности интерактивных методов в обучении теме силы Архимеда для облегчения и эффективного усвоения темы учащимися, объяснение основных законов силы Архимеда через жизненные примеры, задачи и эксперименты, а также развитие научного и творческого мышления учащихся.

Ключевые слова: интерактивный метод, сила Архимеда, метод «Мозговой штурм», метод «Кластер», эксперимент, плотность, объем.

USING INTERACTIVE METHODS IN TEACHING THE TOPIC “THE POWER OF ARCHIMEDES” IN SECONDARY SCHOOLS


Annotation. Highlighting the importance of interactive methods in teaching the topic of Archimedes’ principle to make it easy and effective for students to understand, explaining the fundamental laws of Archimedes’ principle through real-life examples, problems, and experiments, as well as developing students’ scientific and creative thinking skills.

Keywords: interactive method, Archimedes’ force, “Brainstorming” method, Cluster” method, experiment, density, volume.

Kirish. Bugungi kunda ta’lim-tarbiya jarayonida innovatsion yondashuvlar, yangi pedagogik texnologiyalar va interfaol metodlardan foydalanish zarurati ortib bormoqda. O‘quvchilarni faol fikrlashga, mustaqil izlanishga undash, ularda ilmiy tafakkurni shakllantirish uchun interfaol metodlar muhim ahamiyatga ega. Fizika fanini o‘qitishda bu metodlar orqali o‘quvchilarning qiziqishini oshirish, mavzuni chuqur o‘zlashtirish va amaliy hayotga tatbiq etish qobiliyatlarini rivojlantirish mumkin. Ushbu maqolada Arximed kuchi mavzusini o‘qitishda interfaol metodlardan foydalanishning samaradorligi yoritiladi. Mavzuni o‘qitishda quyidagi ketma-ketliklarni ko‘rib chiqaylik:

Arximed kuchi mavzusini ma’ruza ko‘rinishi. Suyuqlikka to‘la botirilgan jismga gidrostatik bosim ta’sir etadi. Soddalik uchun suyuqlikka to‘g‘ri burchakli parallepiped shaklidagi jism botirilgan bo‘lsin. Bu jismning yon sirtlariga teng miqdorda va qarama-qarshi yo‘nalgan p_3 va p_4 bosim ta’sir qiladi va bu bosimlar o‘zaro muvozonatlashadi. Jismning ustki va ostki asoslariga ta’sir qiluvchi bosimlar har xil bo‘lib, ular mos ravishda balandliklari h_1, va h_2 bo‘lgan suyuqlik

ustunlarining bosimlariga teng. [1-rasm].



p_1 $p_1 = \rho_s \rho_s g h_2 h_2$ (1)

Bu yerda ϱ_s-suyuqlikning zichligi g-erkin tushish tezlanishi, Chizmadan ko‘rinadiki, $h_2 > h_1$, boiganligi sababli, jismning ostki asosiga pastdan yuqoriga yo‘nalgan p_2 va p_1 bosimlarning farqiga teng bo‘lgan ortiqcha bosim ta’sir qiladi.

$p = p_2 - p_2 - p_1 p_1 = \rho_s \rho_s g(h_2 h_2 - h_1 h_1)$ (2)

Bu ortiqcha bosim jismning pastki yuzi S bo‘lgan asosiga ta’sir qilib, pastdan yuqoriga yo‘nalgan F_A ko‘taruvchi kuchni vujudga keltiradi.

$F_A F_A = \Delta p\ S = \rho_s \rho_s g \Delta h S$ (3)

Bu yerda ΔhS ko‘paytma jismning hajmi V_1, ga teng.

$F_A F_A = \rho_s \rho_s g V_J V_J$ (4)

Bu ifodaning o‘ng tomoni jismning hajmiga teng bo‘lgan hajmdagi suyuqlikning og‘irligi P_0 ga teng.

$F_A F_A = P_0 P_0$ (5)

Shunday qilib, suyuqlikka to‘la botirilgan jismga suyuqlik tomonidan F_A ga teng bo‘lgan ko‘taruvchi kuch ta’sir qilar ekan. Bu kuchni birinchi bo‘lib tajriba asosida qadimgi grek olimi, fizik va matematik Arximed (er.av. 287 - 212) aniqlagan. Shuning uchun suyuqlikdagi jismni yuqoriga itaruvchi F_A kuchga Arximed kuchi deyiladi. Shunday qilib, Arximed bu kuchning kattaligini aniqlashga yordam beradigan quyidagi qonunni yaratdi. Suyuqlik yoki gazga botirilgan har qanday jismga shu jism siqib chiqargan suyuqlik yoki gaining og’irligiga teng va yuqoriga yo‘nalgan kuch ta’sir qiladi. Ba’zan Arximed qonuni yana quyidagicha ham ta’riflanadi. Suyuqlik yoki gazga botirilgan jism, o‘zi siqib chiqargan suyuqlik yoki gazning og‘irligi qadar engillashadi. [2;5]

Ushbu mavzu nafaqat fizikani o‘rganishda muhim bo‘lib, balki kundalik hayotda ham ko‘plab hodisalarni tushuntiradi. Mavzu orqali o‘quvchilar fizik qonuniyatlarni amaliyotda qo‘llashni o‘rga-

nadilar, bu esa ularda fan va texnologiyaga qiziqish uyg‘otadi.

2. Interfaol metodlardan foydalanish imkoniyatlari. Interfaol metodlar dars jarayonida o‘quvchilarni faollashtirish, ularni guruhlarga bo‘lib ishlashga undash va muammoli vaziyatlarni hal qilishda yordam beradi. Arximed kuchini o‘rganishda quyidagi interfaol metodlar samarali bo‘lishi mumkin:

1. “Aqliy hujum” metodi

Darsni boshlashda o‘qituvchi suvda suzayotgan kema, havo shari yoki muz kubigiga oid savollarni berishi mumkin. O‘quvchilar bu savollarga javob berib, mavzuga oid asosiy tushunchalarni shakllantiradilar. [3;7]

Masalan:

1. Savol: Nima uchun suvda yengil buyumlar suzadi, og‘irlari esa cho‘kadi?

Javoblar:

Chunki suv og‘ir narsalarni ushlab turolmaydi.

Chunki buyumlarning zichligi har xil.

Suvning ko‘tarish kuchi buyumning og‘irligiga bog‘liq.

2. Savol: Nima sababdan kemalar metallardan yasalgan bo‘lsa ham suvda cho‘kib ketmaydi?

Javoblar:

Kemalarning shakli maxsus.

Kemalarning ichida havo bor, bu ularni suzishga yordam beradi.

Suvning ko‘tarish kuchi kemani ushlab turadi.

3. Savol: Nima uchun odamlar sho‘r suvda oddiy suvga qaraganda osonroq suzadi?

Javoblar:

Sho‘r suvda zichlik kattaroq.

Sho‘r suv odamni ko‘proq ko‘taradi.

Sho‘r suvda Arximed kuchi kuchliroq bo‘ladi.

4. Savol: Arximed kuchi qaysi omillarga bog‘liq?

4. Savol: Arximed kuchi qaysi omillarga bog‘liq?

Javoblar:

Suvning zichligiga.

Buyumning hajmiga.

Suvga botgan qismning kattaligiga.


Ushbu savollar yordamida o‘quvchilarni mavzuga jalb qilish va ularning mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish mumkin.

2. “Klaster” metodi.

Mavzuni o‘zlashtirishda asosiy tushunchalarni klaster shaklida tuzish orqali bilimlarni tizimlashtirish mumkin. Masalan, o‘quvchilar Arximed kuchining hajm, zichlik va suyuqlikning og‘irlik kuchi bilan bog‘liqligini klasterga[2-rasm]. joylashadi. [1;4]

3. Eksperiment asosida o‘qitish.


Eksperiment asosida o‘qitish – bu ta’lim jarayonida o‘quvchilarning faol ishtirokini ta’minlash va amaliy tajribalar orqali bilim berish usulidir. Ushbu usul ta’limni yanada qiziqarli, tushunarli va samarali qilishga yordam beradi. Eksperiment asosida o‘qitishda asosiy e’tibor nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan bog‘lashga qaratiladi.



2-rasm. Klaster metodi.

1. Jismning hajmiga bog‘liqligini tekshirish.

Kerakli jihozlar: Pallasiz o‘quv shaynli tarozi, 2 ta suv solingan idish, massasi 95g ipga osilgan turli hajmdagi yuklar.




3-rasm. Jismning hajmga bog‘liqligini tekshirish.

Ishni bajarish tartibi: Tarozida muvozanatda osilib turgan ikki xil hajmdagi jismlarni har birini suvli idishga tushiring va quyidagi savollarga javob toping;

1. Muvozanat o‘zgardimi? (ha).
2. Qaysi jismga Arximed kuchi ko‘proq ta’sir etadi? (Hajmi kattasiga).
3. Arximed kuchi jismning hajmiga qanday bog‘liq? (To‘g‘ri munosabatda).

4. Arximed qonuniga oid masalalar yechish.

1-masala.




A idishga suvda cho‘kmaydigan $m = 2\ kg$ massali jism solinsa, B taroziga qancha massali (kg) suv oqib tushadi?

Javob: Agar jism cho‘ksa hajmicha, cho‘kmasa massasicha suyuqlikni siqib chiqaradi. Demak, masala shartida jism cho‘kmagan m=2 kg.

2-masala. Suvli idishda X, Y, Z jismlar rasmdagi kabi joylashgan. Jismlarga ta’sir qiluvchi

arximed kuchlari mos ravishda F_x, F_y va F_z ga teng bo‘lsa, bu kuchlarni taqqoslang. Jismlarning hajmi bir xil.



Javob: $F_A F_A = \rho_s \rho_s g V_B V_B$ fo‘rmuladan ko‘rinadiki, ko‘proq botgan jismda Arximed kuchi kattaroq bo‘ladi. $F_Z > F_Y > F_X$

3-masala.

Massasi 2,5 kg bo‘lgan jism butunlay suvga botirilganda, 2 kg suvni siqib chiqaradi. Jismning zichligini (kg/m^3) aniqlang.

Berilgan: Fo‘rmula Yechish

$V_j = \frac{m}{\rho_s} V_j = \frac{m}{\rho_s}$ $V_j = \frac{2\ kg}{1000\ kg/\text{m3}}$ $V_j = \frac{2\ kg}{1000\ kg/\text{m3}}$

m_j=2,5 kg
=0,002 m^3

$\rho_j = \frac{\text{mj}}{V_j} \rho_j = \frac{\text{mj}}{V_j}$ $\rho_j = \frac{2{,}5\ kg}{0{,}002\ \text{m3}} \rho_j = \frac{2{,}5\ kg}{0{,}002\ \text{m3}}$ = 1250 kg/m^3

m=2 kg

$\rho_s \rho_s$=1000 kg/m^3

ρ_j= ?

Xulosa. Arximed kuchi mavzusini o‘qitishda interfaol metodlardan foydalanish nafaqat o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishini oshiradi, balki ularni o‘z fikrini erkin ifodalashga, mustaqil izlanishga va amaliyotga asoslangan yondashuvni shakllantirishga yordam beradi. Zamonaviy ta’lim jarayonida bunday metodlardan foydalanish orqali ta’limning sifatini oshirishga erishiladi. Interfaol metodlardan foydalanish o‘quvchilarning faolligini oshiradi, ular mustaqil fikrlash va tadqiqot olib borishga o‘rganadilar. Arximed kuchi kabi mavzularni amaliyot bilan bog‘lagan holda o‘qitish o‘quvchilarning bilimlarini mustahkamlaydi va ularda mavzuga nisbatan qiziqish uyg‘otadi.

ADABIYOTLAR

1. X. Mahmudova Oliy talimda fizika fanlarini o‘qitish metodikasi, Toshkent. 2016.
2. Dusmuratov M.B., Fizika qo‘llanma Toshkent. TDPU nashriyoti, 2016.-520 b.
3. Lukashik V. I., Qiziqarli fizika. Savol va masalalar to‘plami. O‘rta maktabning 6–7-sinflari uchun. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2016. – 192 b.
4. Habibullayev P., Boydedayev A., Bahromov A., Burxonov S., Fizika, 7-sinf darsligi. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2017. – 176 b.
5. O‘lmasova M. H., Fizika, 1-kitob. Mexanika va molekulyar fizika. T.: “O‘qituvchi” 2004. – 432 b.
6. Shodiyev D. Sh., Shaxmayev N. M., Fizika, 7-sinf uchun o‘quv qo‘llanma. T.: Abu Ali ibn Sino nomidagi tibbiyot nashriyoti, 2004. – 160 b.
7. Ahmadjonov O. I., Bekjonov. R. B., Kamolho‘jayev. Sh. M. Fizika. – T.: O‘qituvchi, 1992.-368 b.
8. Uzoqov A.A. Fizikadan testlar to‘plami, Yangi nashr, 2015. – 320b.

ERKIN TUSHISH TEZLANISHI MAVZUSINI O‘QUVCHILARGA ODDIY VA SAMARALI O‘RGATISH USULLARI

[1]Matyoqubov H.Sh., [2]Quronboyeva N.I., [2]Salayeva H.Sh., [3]Sabirov R.Y.
[1]Urganch davlat pedagogika instituti, dotsenti, [2]Urganch davlat pedagogika instituti, magistranti,
[3]Urganch davlat pedagogika instituti, o‘qituvchisi
hikmat.shuhratovich@gmail.com

Annotatsiya. Erkin tushish tezlanishini oddiy metodlar orqali tushuntirish, ta’lim oluvchilarning ilmiy fikrlash qobilyatini oshirish, vaqtdan unumli foydalanib zamonaviy uslublarni qo‘llash

Kalit so‘zlar: erkin tushish tezlanishi, o‘qitish metodikasi, tajriba, interfaol usullar, fizika. Erkin tushish tezlanishi tushunchasini o‘quvchilarga oddiy va samarali o‘rgatish usullari.

ПРОСТЫЕ И ЭФФЕКТИВНЫЕ МЕТОДЫ ОБУЧЕНИЯ СТУДЕНТОВ ТЕМЕ УСКОРЕНИЕ СВОБОДНОГО ПАДЕНИЯ

Аннотация. Объяснение ускорения свободного падения с помощью простых методов, улучшение способности учащихся мыслить научно, использование современных методов для эффективного использования времени.

Ключевые слова: ускорение свободного падения, методика обучения, опыт, интерактивные методы, физика. Простые и эффективные методы обучения понятию ускорения свободного падения.

SIMPLE AND EFFECTIVE METHODS OF TEACHING STUDENTS ON FREE FALL ACCELERATION

Annotation. Explain the acceleration of free deviation through ordinary technologies, increasing the ability of students, using time modern methods.

Keywords: Right falls acceleration, teaching methods, experience, interactive methods, physics, and effective training methods.

Kirish. Erkin tushish tezlanishi fizikadagi asosiy tushunchalardan biri bo‘lib, u mexanika bo‘limida muhim o‘rin egallaydi. Ushbu tushunchani o‘rganish o‘quvchilarda fizikaviy qonuniyatlarni tushunish, ularni hayotiy vaziyatlarga qo‘llash ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Ammo murakkab matematik modellar va formulalar tufayli bu mavzuni o‘quvchilarga oddiy va samarali usullarda tushuntirishga ehtiyoj katta. Shu sababli hozir biz bir qancha metodlarni ko‘rib chiqamiz. Maktab o‘quvchilarining 45 daqiqasidan unumli foydalanish uchun dastlab 45 daqiqa uchun reja tuzib olamiz.

1. Dastlab o‘quvchilardan o‘tilgan mavzu bo‘yicha baxs olib boramiz(10-daqiqa).
2. Yangi mavzu haqida ma’lumot beramiz (15-daqiqa).
3. Yangi mavzu yaxshi esda qolishi uchun bir qancha metodlar qo‘llaymiz(15-daqiqa).
4. Uyga vazifa beramiz (5-daqiqa).

O‘quvchilardan o‘tilgan mavzu bo‘yicha baxs olib borish tartibi:

Avval boshlab o‘quvchilar guruharga bo‘linadi (o‘g‘ilva qiz, toq raqamdagi o‘quvchilar va juft raqamdagi o‘quvchilar va hakozolar). Guruhlarga bo‘linib bo‘lishgach o‘rtaga o‘tilgan mavzular bo‘yicha savol qo‘yiladi. Misol tariqasida o‘tilgan mavzu “Jismlarning ishqalanishi” bo‘lsin va unga taaluqli savollar quyidagilar.

1. Ishqalanish nima va u qanday turlarga bo‘linadi?
2. Ishqalanish kuchining kattaligi nimalarga bog‘liq?
3. Ishqalanish koeffitsienti nima va u qanday turlarga bo‘linadi?

4. Ishqalanish kuchi har doim foydasizmi? Undan qanday foyda olinadi?


1-jadval: O‘tilgan mavzu bo‘yicha savol va javoblar.

Ishqalanish nima va u qanday turlarga bo‘linadi?	Ishqalanish - bu bir jism boshqa jism yuzasi bilan kontaktga kirishganda yuzaga keladigan qarshilik kuchi. U jismlarning sirpanishiga yoki sirpanishga urinishga to‘siqlik qiladi. Turlari, sirpanish ishqalanish, dumalanish ishqalanish.
Ishqalanish kuchining kattaligi nimalarga bog‘liq?	Yuzalarning xususiyatiga, yuzaning o‘lchami va maydoniga,harakat holatiga, atrof-muhit sharaoitiga bog‘liq. Ishqalanish kuchi - F_{ish} F_{ish} harfi bilan belgilanadi.
Ishqalanish koeffitsienti nima va u qanday turlarga bo‘linadi?	Ishqalanish koeffitsienti-μ harfi bilan belgilanadi.Turlari: statik ishqalanish koeffitsienti, dinamik ishqalanish koeffitsienti.
Ishqalanish kuchi har doim foydsizmi? Undan qanday foyda olinadi?	Foydasi: Avtomobilning harakatlanishi, odamlarning yurishi, mexanizmlarning ishlashi ishqalanish tufayli amalga oshadi. Zarari: Ishqalanish ortiqcha energiya sarfini talab qiladi va mashinalarning qismlarini eskirishiga olib keladi.

Yangi mavzu haqida ma’lumot. Mavzuni 3 xil ko‘rinishda o‘quvchilarga yoritib berish mumkin:
1. Ma’ruza ko‘rinishida. 2. Labaratoriya shaklida. 3. Amaliy mashg‘ulot shaklida.

Quyida biz labaratoriya sharoitida erkin tushish tezlanishini ko‘rib chiqamiz.

1. Erkin tushish tezlanishini tajribalar orqali o‘rgatish. O‘quvchilar uchun mavzuni tushunishning eng samarali usullaridan biri real tajribalarni o‘tkazishdir. Oddiy jihozlar (masalan, sharlar, vaqtni o‘lchash asboblari) yordamida erkin tushish jarayonini kuzatish va natijalarni tahlil qilish o‘quvchilarning qiziqishini oshiradi. Misol tajriba: Bir xil va turli og‘irlikdagi jismlarning tushish vaqtlarini solishtirish. Galileo Galiley o‘z tajribalarida erkin tushish tezlanishi aniqlagan. U qog‘oz, qush pati temir sharcha va koptokni olib biror balandlikdan tashlaganda, jismlar turli xil vaqtda yerga tushganligini kuzatgan, ya’ni harakat davomida ularning tezlanishi xar-xil bo‘ladi. Bunga havoning qarshiligi sabababdir. Agar shu jismlar havosiz joyga joylansa ularnning hammasi yerga bir xil vaqtda ya’ni faqat erkin tushish tezlanishi ($g=9.81\ m/s^2$) yordamida tushadi. Quyida biz o‘quvchilarga eng kerak bo‘lgan ma’lumotlarni charxpalak metodi ko‘rinishida keltiramiz.



1-rasm: Charxpalak metodi.

Hayotiy misollarga tayanish. O‘quvchilarga mavzuni oson tushuntirish uchun hayotiy hodisalardan foydalanish tavsiya etiladi. Masalan, parashyutdan sakrash, mevalarning daraxtdan yerga tushishi kabi oddiy hodisalar orqali erkin tushish tushunchasini yoritish mumkin. Solishtirish usuli orqali ham o‘quvchilar ongida bu tushunchani qoldirish mumkin. Masalan, yerdan boshqa sayyoralar ham mavjud oy, venera, mars, yupiter va hakazolar, bularning xar birida erkin tushish tezlanishi har-xil.

2-jadval: Sayyoralardagi erkin tushish tezlanishlari.

Nomi	Erkin tushish tezlanishi	Nomi	Erkin tushish tezlanishi
Merkuriy	3.7 m/s²	Yupiter	24.79 m/s²
Venera	8.87 m/s²	Saturn	10.44 m/s²
Yer	9.81 m/s²	Uran	8.69 m/s²
Oy	1.62 m/s²	Neptun	8.69 m/s²
Mars	3.71 m/s²	Pluton	0.62 m/s²

Matematik modellarni soddalashtirish. Formulalarni haddan tashqari murakkablashtirmaslik uchun oddiy masalalar va ularga mos yechim usullaridan foydalanish kerak. Masalan: Jismlarning tushish tezligini oddiygina qiymati orqali tushuntirish. Masofani hisoblash uchun formulasini amaliy masalalar bilan bog‘lash. Misol uchun biror bir odam 70 m balandlikdan boshlang‘ich tezliksiz sakrasa qancha vaqtda yerga tushadi. Buni hisoblash uchun albatta bizga fo‘rmula kerak bo‘ladi, ya’ni

$$H = \frac{gt2}{2} \quad H = \frac{gt2}{2} \qquad (1)$$

Fo‘rmuladan t ni topib olamiz:

$$t = \sqrt{\frac{2H}{g}} t = \sqrt{\frac{2H}{g}} \qquad (2)$$

Endi hisob kitob qilamiz $t = \sqrt{\frac{2*70}{9.81}} = 3.76 t = \sqrt{\frac{2*70}{9.81}} = 3.76$ chiqar ekan.

Yangi mavzu yaxshi esda qolishi uchun bir qancha metodlar qo‘llash

O‘yinli o‘qitish usullarini qo‘llash.

Erkin tushish tezlanishiga oid viktorinalar, masalalar yechish bo‘yicha guruhli faoliyat, baliq skeleti, muzqaymoq, tipratikon, 5E metodi, o‘rgimchak to‘ri va shu kabi ko‘plab metodlari o‘quvchilarning mavzuga qiziqishini oshiradi.

5 E METODI. 5 E metodi hozirgi kunda juda ommalashgan metodlardan biri bo‘lib bu metodda o‘quvchilar fikrlarini ketma – ketlikda aytishni va mulohaza yuritishni o‘rganishadi. O‘quvchilar savolga ko‘pincha chalkash javob berishini kuzatganmiz va ba’zi paytlarda javobni juda uzoqdan olib kelishadi bunday paytda esa biz vaqtdan yutqazib qo‘yishimiz yoki ma’vzuni tushuntirishga vaqtni to‘g‘ri taqsimlay olmasligimiz mumkin. Bu metod orqali esa biz tepadagi kabi ba’zi kamchiliklarni oldini olamiz. Quyida 5E metodidan qanday foydalanish ko‘rsatilgan.

1. Jalb qilish: O‘quvchilar e’tiborini mavzuga jalb qilish uchun quyidagi savollarni beramiz: Nega og‘ir buyumlar yengil buyumlardan tezroq tushadi yoki tushmaydi? «Kosmosda jismning tushishi qanday bo‘ladi?	
	2. Tadqiq qilish: O‘quvchilarga oddiy tajriba qilish imkoniyatini yaratish: Jismlarni turli balandlikdan tushirish. Masofa va vaqtni o‘lchash uchun oddiy vositalardan foydalanish (masalan, metr o‘lchagich va vaqtni o‘lchash uchun telefon). Keyin o‘quvchilardan tushish vaqtlarini yozib, natijalarni solishtirishni so‘raymiz.
3. Tushuntirish: O‘quvchilarning kuzatuvlarini ilmiy asos bilan tushuntirish: Erkin tushish tezlanishi Yerning gravitatsiya kuchi bilan bog‘liq bo‘lib, bu tezlanish o‘rtacha 9,8 m/s² ga teng. Havo qarshiligi bo‘lmasa, barcha jismlar massasidan qat’i nazar bir xil tezlanishda tushadi.	
	4. Kengaytirish: O‘quvchilarni quyidagi muammolar ustida ishlashga undang: Nima uchun Oyda tushish tezlanishi kichik?
5. O‘quvchilarga quyidagi amaliy topshiriqlarni berish: Jism 3 soniya davomida erkin tushsa, uning tezligi va tushish masofasini hisoblash. Har xil muhitdagi erkin tushish (havo, vakuum) haqida fikr yozib berish. Keyin, tushunchani mustahkamlash uchun munozara o‘tkazish yoki kichik testlar berish.	

Uyga vazifa berish. Uyga vazifa berishdan asosiy maqsad o‘tilgan mavzu yanada chuqurroq esda qolishi uchun. Ko‘pincha biz uyga vazifa sifatida o‘quvchilarga ma’vzu o‘qib kelish yoki masala ishlashni beramiz, endi unga qo‘shimcha ravishda testlarni bersak bu o‘quvchilarning bilim olish koeffitsientini yanada oshiradi.

Mavzu bo‘yicha test:

1. Yer yuzida erkin tushayotgan jismning tezlanishi qanchaga teng?
A) 8.9 m/s²
B) * 9.8 m/s²
C) 10.5 m/s²
2. Erkin tushish tezlanishi qanday o‘lchanadi?
A) kg
B) m/s
C) * m/s²
3. Quyidagi omillardan qaysi biri erkin tushish tezlanishiga ta’sir qiladi?
A) Jismning massasi
B) Jismning shakli
C) * Jism joylashgan hududdagi yerning tortishish kuchi
4. Erkin tushayotgan jismning boshlang‘ich tezligi qanday bo‘ladi?
A) * 0 m/s
B) 5 m/s
C) 10 m/s
5. Jism erkin tushayotganida qancha vaqt ichida 19.6 m/s tezlikka erishadi?
A) 1 s
B) * 2 s
C) 3 s
6. Agar jism 3 soniya davomida erkin tushsa, u qancha yo‘l bosadi? (g = 9.8 m/s²)

A) 29.4 m
B) * 44.1 m
C) 98.0 m
7. Erkin tushish tezlanishi qayerda yuqoriroq bo‘ladi?
A) Tabiiy yer sharoitida
B) * Okean sathida
C) Tog‘ cho‘qqisida
8. Quyosh sistemasida erkin tushish tezlanishi eng katta bo‘lgan sayyora qaysi?
A) Yer
B) * Yupiter
C) Mars
9. Jism erkin tushayotganida har soniyada uning tezligi qanday o‘zgaradi?
A) Barqaror qoladi
B) * O‘sib boradi
C) Kamayadi
10. 4 soniya davomida erkin tushayotgan jismning oxirgi tezligi qancha bo‘ladi? ($g = 9.8\ m/s^2$)
A) 19.6 m/s
B) * 39.2 m/s
C) 49.0 m/s

XULOSA. Erkin tushish tezlanishini oddiy va samarali o‘rgatish uchun tajribalar, interfaol vositalar, hayotiy misollar va o‘yin usullaridan foydalanish zarur. Bu nafaqat o‘quvchilarning mavzuni tushunishini osonlashtiradi, balki ularning ilmiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradi. Shu yondashuvlar orqali mavzuni samarali o‘zlashtirishga erishish mumkin. Erkin tushish tezlanishi (g) tabiatning muhim qonuniyatlaridan biri bo‘lib, yer sayyorasida taxminan 9.81 m/s^2 ga teng. Bu hodisa yerning gravitatsion tortishish kuchi ta’sirida jismning erkin tushishi natijasida yuzaga keladi. Erkin tushish vaqtida jismning boshlang‘ich tezligi 0 m/s bo‘lib, har soniyada uning tezligi 9.81 m/s^2 ga ortib boradi.

Erkin tushish tezlanishi jismning massasi yoki shakliga bog‘liq emas, balki uning joylashgan hududidagi gravitatsiya kuchiga bog‘liqdir. Shu sababli, erkin tushish tezlanishi sayyoralar va boshqa kosmik jismlarda har xil bo‘ladi. Masalan, yupiterda u yerdagiga qaraganda ancha katta, tog‘ cho‘qqisida esa biroz kichikroq bo‘lishi mumkin. Metodlarni qo‘llash nafaqat tushunchani chuqurroq tushunishga yordam beradi, balki o‘quvchilarning qiziqishini oshiradi. Test savollari esa erkin tushish tezlanishi mavzusida bilimlarni mustahkamlsh uchun ishlatishimiz mumkin. Erkin tushish jarayonini o‘rganish fizikada muhim o‘rin tutadi, chunki u nafaqat oddiy mexanik harakatlarni, balki zamonaviy texnologiyalarning rivojlanishini tushunishda ham asosiy rol o‘ynaydi. Shu sababli, bu hodisani chuqur o‘rganish ilm-fan va texnikaning turli sohalarida yangi yutuqlarga erishishda yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. M.B. Dusmuratov. Fizika (qo‘llanma), Toshkent-2016
2. PhET platformasi
3. S. E. Frish, A.V. Timoreva, Umumiy fizika kursi, t. II, T., O‘qituvchi, 1972,
4. I.V.Savelev, Umumiy fizika kursi, t. II, Toshkent, O‘qituvchi, 1972.
5. S.G.Kalashnikov, Umumiy fizika kursi, Elektr, Oliy o‘quv yurtlarining fizika ixtisosligi bo‘yicha darslik, Toshkent, O‘qituvchi, 1979.

KATTA GURUH TARBIYALANUVCHILARINING VAQT KATEGORIYALARINI O‘RGANISH PEDAGOGIK TIZIMLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Xudayberganov Shuhrat Shavkat o‘g‘li
Urganch davlat pedagogika instituti magistratura bo‘limi boshlig‘i, Maktabgacha ta’lim va tabiiy fanlar kafedrasi dotsenti, (PhD), sh.xudayberganov.urdu@mail.ru
Maxmudova Kumushoy Jamol qizi, magistrant, maxmudovakumushoy92@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada katta guruh tarbiyalanuvchilarining vaqt kategoriyalarini o‘rganish jarayonida algoritmik qobiliyatlarini rivojlantirishdan asosiy maqsad bolarda vaqt (o‘tgan vaqt, hozirgi vaqt, kelajak vaqt, vaqt uzunligi, qayta tiklanish) tushunchalarini rivojlantirish orqali pedagogik tizimlarini takomillashtirishga e’tibor qaratilgan. Ushbu jarayonni pedagogik tizimlar orqali qo‘llab-quvvatlash, vaqtni anglash va uni amaliy faoliyatlarida qo‘lashshga yordam beradi. Algoritmik qobiliyatlar birinchi navbatda bolalarni matematik qobiliyatlarini namoyon bo‘lishida va rivojlanishida, bundan tashqari kelajakdagi faoliyati uchun poydevor bo‘la oladi. Bu shaxsiy yo‘nalish, qiziqishlar, shaxsning subyektiv tajribasida namoyon bo‘ladi va bilim yo‘lida o‘zini anglash imkonini beradi.

Kalit so‘zlar: vaqt, kategoriya, algoritm, fikrlash, tizim, tafakkur, rivojlanish, jarayon, logik fikrlash, ta’lim, algoritm.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ СИСТЕМЫ ОБУЧЕНИЯ ВРЕМЕННЫХ КАТЕГОРИЙ ПЕДАГОТОВ БОЛЬШИХ ГРУПП

Аннотация. Основная цель этой статьи — улучшение педагогических систем через развитие понятий времени (прошлое, настоящее, будущее, продолжительность времени, восстановление и цикличность) в процессе изучения временных категорий детей в больших группах, тем самым улучшая их алгоритмические способности. Поддержка этого процесса через педагогические системы помогает детям осознать время и применять его в своей практической деятельности. Алгоритмические способности в первую очередь проявляются в математических способностях детей и их развитии, а также могут служить основой для их будущей деятельности. Это отражается в их личной ориентации, интересах и субъективном опыте, позволяя осознавать себя на пути к знаниям.

Ключевые слова: время, категория, алгоритм, мышление, система, мышление, развитие, процесс, логическое мышление, образование, алгоритм.

IMPROVEMENT OF PEDAGOGICAL SYSTEMS OF LEARNING TIME CATEGORIES OF LARGE GROUP EDUCATORS

Annotation. The main goal of this article is to improve pedagogical systems by developing the concepts of time (past, present, future, time length, restoration, and cyclicity) through the process of studying the time categories of children in large groups, thereby enhancing their algorithmic abilities. Supporting this process through pedagogical systems helps children understand time and apply it in their practical activities. Algorithmic abilities primarily manifest in the children’s mathematical capabilities and their development, and can also serve as a foundation for their future activities. This is reflected in their personal direction, interests, and subjective experiences, allowing for self-awareness on the path to knowledge.

Keywords: time, category, algorithm, thinking, system, thinking, development, process, logical thinking, education, algorithm.

Kirish. Hozirgi kunda maktabgacha pedagogikaning eng kam rivojlangan uslubiy yo‘nalishlaridan biri bu bolalarda algoritmik qobiliyatlarni rivojlantirish muammosidir. *“Algoritmik qobiliyatlar”* tushunchasi juda kam uchraydi va aniq yoki aniq ta’rifga ega emas. Matematik va mantiqiy fikrlashni rivojlantiruvchi, algoritmik tushunchalar va ularni ta’lim jarayoniga tatbiq etishga qaratilgan faoliyatdir. Vaqt kategoriya atamasi-tarbiyalanuvchilarni vaqt tushunchalariga oid bilimlarni o‘zlashtirishga yo‘naltirilgan pedagogik jarayondir.

“Algoritmik qobiliyatlar” tushunchasi, bu o‘zgacha individuallik-psixologik xususiyatlar sifatida ta’riflanadi. Ular algoritmik faoliyat talablari bilan mos keladi va bosqichma-bosqich muammolarni hal qilish texnologiyasi asosida yangi va shaxs uchun ahamiyatli natijalarga tez va muvaffaqiyatli erishishni ta’minlaydi. Algoritmik qobiliyatlar shaxsiyatning barqaror xususiyatlari sifatida ko‘riladi, ular muammolarni hal qilish uchun samarali usullar va vositalarni topishga imkon beradi. O‘rganilgan algoritmlarni faoliyatda shaxsiy xususiyatlarga mos ravishda ijodiy tarzda o‘zgartirish imkoniyatini yaratadi va bilim olishning individual yo‘lini tanlashga yordam beradi. Algoritmik qobiliyatlar tuzilmasi, barcha ko‘rsatkichlarning xilma-xilligini tizimlashtiradi, ularni to‘rt guruhga tasniflab beradi: algoritmik faoliyatni ta’minlaydigan ko‘rsatkichlar, shaxsiy sifatlarni xarakterlovchi ko‘rsatkichlar, tafakkur faoliyatining xususiyatlarini xarakterlovchi ko‘rsatkichlar va ijodiy boshlanishni aks ettiruvchi ko‘rsatkichlar.

Pedagogik tizim: o‘qitish jarayonida vaqt va algoritmik fikrlashni rivojlantirishga yo‘naltirilgan metodikalar, strategiyalar va texnikalar to‘plami. Tadqiqotning asosiy maqsadi katta guruh tarbiyalanuvchilarining vaqt kategoriyalarini o‘rganish jarayonida algoritmik qobiliyatlarni rivojlantirishning samarali pedagogik tizimlarini aniqlash va takomillashtirishdir. Bu orqali bolalarda vaqt kategoriyasi haqida bilimlarini mustahkamlab boramiz. Tadqiqotlar vaqt kategoriyalarini va algoritmik qobiliyatlarni rivojlantirish uchun zarur bo‘lgan ta›lim metodikalarini baholaydi, shuningdek, bu tizimlarning samaradorligini o‘rganadi. O‘quv jarayonida vaqt va algoritmik fikrlashni o‘zlashtirish, tarbiyalanuvchilarning umumiy intellektual va amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirishga imkon beradi. Oldingi an›anaviy tadqiqotlar ko‘pincha vaqt tushunchalarini, uning tarbiyaviy aspektlarini o‘rganish bilan birga, algoritmik fikrlashni rivojlantirishdagi metodologik yondashuvlarga e›tibor qaratgan. Pedagogik tizimlar va metodikalarda vaqt kategoriyalarining o‘rganilishi bilan bog‘liq bo‘lgan yangi o‘quv strategiyalari ishlab chiqilgan va maktabgacha ta›lim sohasida keng ko‘lamda tarbiyachilar tomonidan qo‘llab kelinmoqda.

Algoritmik qobiliyatlarni rivojlantirishga qaratilgan pedagogik tizimlar ko‘plab mamlakatlarda o‘rganilgan va tajribaviy asosda samarali metodikalar yaratish ishlari olib borilgan. “Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim pedagogik milliy ilm-fan va amaliyotda gumanistik prinsiplarni ilgari suradi. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim konsepsiyasining markaziy qismi bo‘lib-shaxs va uning qobiliyatlarini rivojlantirish tushunchasidir. Pedagogik nazariya shaxsni pedagogik subyekt sifatida ko‘rib chiqishga e’tibor qaratadi va u “individualning ma’lum bir tajriba turini o‘zlashtirishi, shakllanishi, ta’lim mazmuniga kiritilishi va faoliyat jarayonining shaklini olish imkoniyatiga ega”. Ta’limdagi shaxsiy asosiy jihatning mohiyati shundaki faqat bilimning qadri emas, balki shu bilimlarni egallayotgan va o‘zini rivojlantirish, o‘z-o‘zini idora etish imkoniyatiga ega bo‘lgan insonning qadri hisoblanadi. “Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim kontekstida olib borgan tadqiqotlar tahlili asosida biz “algoritmik qobiliyatlar” tushunchasini shaxsning algoritmik faoliyat talablariga mos keladigan va bosqichma-bosqich vazifalarni hal etish texnologiyasi asosida o‘quv-ta’lim faoliyatida yangi va shaxs uchun ahamiyatli natijalarga tez va muvaffaqiyatli erishishni ta’minlovchi maxsus individual-psixologik xususiyatlar sifatida aniqladik.” Algoritmik qobiliyatlar asosan matematik faoliyat turlari orqali namoyon bo‘ladi va rivojlanadi. Bu faqat faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirishni emas, balki kelajakdagi faoliyatga bo‘lgan istiqbollarni ham belgilaydi. Bu esa shaxsiyatning yo‘nal-

ishlari, qiziqishlari, motivatsiyalari va qadriyatlar tizimi, subyektiv tajriba va bilim olish qadriyatlarida o‘z ifodasini topadi.

Bizning tadqiqotimizda biz bolalarning yuqori yoshdagi maktabgacha ta’limda algoritmik qobiliyatlarini rivojlantirish zaruriyatidan kelib chiqamiz va ushbu masalani shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim nuqtai nazaridan hal qilish imkoniyatlarini o‘rganamiz. Bu yerda muhim savol shundaki, shart-sharoitlarni yaratish, vositalar va usullarni tanlash, belgilangan muammoni amalga oshirish yo‘llari haqida gap ketmoqda. Bolalarning algoritmik qobiliyatlarini rivojlantirish jarayoni ular kunlik hayotining uzviy qismi va bolalar bog‘chasida o‘tkazilayotgan ta’lim-tarbiya faoliyatining bir qismi bo‘lishi kerak. Mashg‘ulot soati bolalarga qiyinchilik tug‘dirmagan holda tashkil etilishi kerak.

Adabiyotlar sharhi. Pedagogika olimi **Vladimir P. Zhukov** o‘z ishlarida shunday fikrni ilgari suradi: “Bolalarga vaqtni anglashni o‘rgatish nafaqat ularning matematik qobiliyatlarini, balki umumiy kognitiv rivojlanishlarini ham oshiradi. [1] Bu jarayon bolaning mantiqiy fikrlashini, xotirasini, diqqatini va vaqtni rejalashtirish qobiliyatlarini mustahkamlaydi”. U o‘z asarlarida vaqtni anglashni rivojlantirishning matematik faoliyat bilan chambarchas bog‘liqligini ta›kidlaydi, chunki vaqt kategoriyalarini tushunish algoritmik fikrlashning muhim bir qismidir. Tadqiqotning asosiy maqsadi katta guruh tarbiyalanuvchilarining vaqt kategoriyalarini o‘rganish jarayonida ularning algoritmik qobiliyatlarini rivojlantirish uchun pedagogik tizimlarni takomillashtirishdan iborat. Bu maqsadga erishish uchun turli usullar va vositalar ishlab chiqilishi zarur, shuningdek, bolalarning vaqtni tushunish, rejalashtirish va uni samarali boshqarish ko‘nikmalarini shakllantirish lozim. Bugungi kunda ko‘plab olimlar vaqt kategoriyalarini o‘rganishning ta›limdagi ahamiyatini o‘rganishga e›tibor qaratmoqda. Tadqiqotlar, ayniqsa, matematik va mantiqiy faoliyatlar orqali bolalarning vaqtni qanday qabul qilishlarini, tushunishlarini va o‘lchashlarini tahlil qilmoqda. Bu borada o‘qituvchilar va tarbiyachilar uchun innovatsion yondashuvlar, shu jumladan, algoritmik fikrlashni rivojlantirishning amaliy usullari haqida ko‘plab maqolalar e’lon qilinmoqda. Tadqiqotning asosiy yangiligi shundaki, vaqt kategoriyalarini o‘rganishning bolalarning algoritmik qobiliyatlarini rivojlantirishdagi rolini keng qamrovli tahlil qilish. Bu jarayonda bolalar o‘z vaqtlarini boshqarish, rejalar tuzish, vaqtni taqsimlash va uni samarali ishlatish kabi ko‘nikmalarni egallaydi. Bu esa ularning mantiqiy fikrlash, diqqat va xotira rivojiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Shuningdek, o‘rganish jarayonida o‘quvchilarga vaqtni boshqarish qobiliyatlarini shakllantirish uchun maxsus pedagogik usullarni qo‘llashning zarurligi ta’kidlanadi. Tadqiqotning natijalari, o‘quvchilarning vaqtni tushunish va boshqarish bo‘yicha yutuqlarini, ularning algoritmik qobiliyatlarining rivojlanishini, va shu bilan birga, umumiy ta’lim jarayoniga qo‘shgan hissasini ko‘rsatadi. Ta’lim jarayonida vaqt kategoriyalarini o‘rgatishning samarali pedagogik usullari ishlab chiqiladi, bu esa bolalarning nafaqat akademik muvaffaqiyatlariga, balki ularning shaxsiy rivojlanishiga ham katta hissa qo‘shadi.

Vladimir P.Zhukov o‘zining “Bolalar mantiqiy fikrlashini rivojlantirish”(2003) [2] asarida vaqtni tushunish va algoritmik qobiliyatlar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni ta’kidlaydi. U bolalarning vaqt kategoriyalarini tushunish va tasavvur qilish jarayonida mantiqiy fikrlashni rivojlantirishni muhim deb hisoblaydi. Uning fikricha, vaqtni o‘rganish nafaqat vaqt o‘lchovlari, balki xronologik ketma-ketlik va tasavvur etish qobiliyatlari bilan ham bog‘liqdir. Bu jarayon matematik faoliyat orqali rivojlanadi, chunki vaqtni rejalashtirish, tasavvur qilish va taqsimlashning barchasi algoritmik qobiliyatlar bilan chambarchas bog‘liqdir. ….-kabi tushunchalarga to‘xtalib o‘tadi.

Lev Vygotsky o‘zining “Psixologiya va ta’lim” (1984) [3] asarida vaqt va fazoviy tushunchalarni rivojlantirishning bolalar uchun psixologik ahamiyatini ko‘rsatgan. Uning fikriga ko‘ra, vaqtni tushunish va vaqt bilan ishlash qobiliyati bolalarning ongli rivojlanishining muhim elementidir. Vygotsky, shuningdek, vaqt tushunchalarini o‘rgatish jarayonida ijtimoiy va kommunikativ o‘zaro aloqaning ahamiyatini ta’kidlagan. U bolalar uchun vaqtning obyektiv tushunchalari faqat ular ijti-

moiy tajriba va muloqot orqali shakllanadiganligini ko‘rsatadi. Shuning uchun vaqtni o‘rganishda pedagoglar va tarbiyachilarning roli muhimdir.

Jean Piaget o‘zining rivojlanish psixologiyasi nazariyasida bolalarning kognitiv rivojlanishidagi bosqichlarni tavsiflab bergan. Uning fikriga ko‘ra, bolalar 6-7 yoshgacha vaqtni o‘rganish va tushunishda intuitiv bosqichdan o‘tadilar. Piaget, ayniqsa, vaqt tushunchasining mantiqiy asoslari va tizimli yondashuvini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratadi. U, shuningdek, vaqt tushunchalarini o‘rgatish jarayonida matematik va mantiqiy mashqlarni qo‘llashning ahamiyatini ta’kidlaydi. Piagetning asarlariga asoslanib, bolalar vaqtni va tartibni anglashni faqat o‘zaro bog‘lanishlarni, o‘zgarishlarni va ketma-ketlikni tushunish orqali amalga oshiradilar. Svetlana G. Sukhareva o‘zining “Psixologiya va ta’lim” (2011) [4] asarida bolalarning vaqtni o‘rganish jarayonida algoritmik qobiliyatlarini rivojlantirishga oid bir qator yondashuvlarni taklif qiladi. U pedagogik jarayonda vaqt tushunchalarini bolalarga qanday qilib tushuntirish va ularga vaqtni rejalashtirishda yordam berish zarurligini ta’kidlaydi. Sukharevaning fikriga ko‘ra, vaqtni o‘rganish faqat matematik tushunchalar bilan bog‘liq emas, balki bolalarning shaxsiy tajribalari va faoliyatlarida ham o‘z aksini topadi. Bu jarayon bolalarning shaxsiy rivojlanishini, ijodkorligini va mustaqil fikrlashni oshiradi. Natalia A.Serebryakova, o‘zining ilmiy ishlarida, bolalarning vaqtni tushunish va uni boshqarish qobiliyatlarini shakllantirishning ijtimoiy va pedagogik jihatlarini o‘rganadi. U shunday deb ta’kidlaydi: “Vaqt tushunchalarini o‘rgatish, nafaqat matematik qobiliyatlarni rivojlantirish, balki bolalarning ijtimoiy va shaxsiy rivojlanishiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi’. U vaqtni o‘rganishda kommunikativ yondashuvlarni, o‘yin metodlarini va ijtimoiy interaktsiyani qo‘llashni tavsiya qiladi. Lyubimova, o‘zining pedagogik amaliyotida, bolalarning vaqtni rejalashtirish va vaqtni boshqarish qobiliyatlarini rivojlantirishda turli metod va texnikalardan foydalanishni o‘rgatadi. U pedagoglarga vaqtni o‘rganish jarayonini turli sharoitlarda tashkil etishni, masalan, o‘yin faoliyatlari yoki rejalashtirish mashqlarini qo‘llashni tavsiya qiladi. Lyubimovaning fikriga ko‘ra, bu yondashuvlar bolalarning vaqt tushunchalarini o‘rgatish jarayonini yanada samarali qiladi va ularning algoritmik fikrlashini rivojlantiradi.

Vazifa: o‘quvchilarning vaqt tushunchalari bo‘yicha amaliyotlar orqali algoritmik fikrlashni shakllantirish va bu asosda pedagogik jarayonni samarali tashkil etish. Algoritmik qobiliyatlarni rivojlantirish va vaqt kategoriyalarini o‘rganish jarayonini samarali tashkil etish uchun quyidagi pedagogik yondashuvlar qo‘llaniladi.

Aktiv o‘qitish metodlari: o‘quvchilarga vaqtni tushunish va algoritmik qobiliyatlarini rivojlantirishda interfaol metodlar (munozara, guruhli ishlash, praktikumlar) qo‘llaniladi. Bu metodlar o‘quvchilarga vaqt tushunchasini real hayotdagi holatlar bilan bog‘lab tushunishga yordam beradi.

Differensial o‘qitish: o‘quvchilarning individual o‘rganish xususiyatlariga moslashtirilgan o‘quv rejalari va mashg‘ulotlar ishlab chiqiladi. Bu usul o‘quvchilarning algoritmik qobiliyatlarini rivojlantirishda maksimal samaradorlikni ta›minlaydi. Individual ta›lim berishda interfaol metodlar tarbiyachilar tomonidan keng qo‘llanilmoqda.

Texnologiyalardan foydalanish: zamonaviy texnologiyalar (onlayn platformalar, simulyatorlar, mobil ilovalar) yordamida o‘quvchilarga algoritmik fikrlashni rivojlantirishda yangi vositalar taqdim etiladi. Bolalarga zamonaviy bilim berish maqsadida yangi bolalarning ongiga, yoshiga mos ravishda planshetlar yordamida darslar tashkil etilmoqda.

Loyiha asosida o‘qitish: o‘quvchilarga real muammolarni hal qilishda algoritmik yondashuvlar qo‘llash orqali vaqt kategoriyalarini o‘rganish. Bu yondashuv orqali o‘quvchilar vaqtni boshqarish va resurslarni optimallashtirish kabi ko‘nikmalarni egallaydi. Bunda bolalar tanqidiy fikrlashni va qarashlarini mustahkamlab borishadi. Bolalarning algoritmik qobiliyatlarini rivojlantirish muammosi hozirgi bosqichda dolzarb bo‘lib, maktabgacha yoshdagi bolalarni maktab ta›limiga va

axborot jamiyatida yashashga tayyorlash uchun zaruriy shart bo‘lib qolmoqda.

Katta maktabgacha yoshdagi bolalarning algoritmik qobiliyatlarini rivojlantirish muammosi shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim nuqtai nazaridan hal qilinishi kerak, bu esa eng muhim pedagogik shartlardan biridir. Katta maktabgacha yoshdagi bolalarning algoritmik qobiliyatlarini rivojlantirishning samaradorligi shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim kontekstida bir qator shartlar bilan belgilanadi, bu shartlar tadqiqot jarayonida sinovdan o‘tkazilib, yetarlicha yuqori natijalarga erishishga imkon berdi. Bundan tashqari ma’lumotlarni statistik usullar yordamida o‘rganish, masalan, tahlil natijalarining o‘zaro bog‘liqligini aniqlash uchun korrelyatsiya yoki regressiya tahlili qo‘llanadi. Bu usul bilan bolalarni bilim salohiyatini yaxshilanganini foizini bilib olamiz.

Kontekstual tahlil: o‘quvchilarning faoliyatini va ularga qaratilgan pedagogik yondashuvlarni kontekstda tahlil qilish. Bu metod o‘quvchilarning vaqt tushunchalari va algoritmik qobiliyatlari o‘rtasidagi munosabatni aniqlashga yordam beradi. Lev Vygotsky o‘zining “sotsiokultural” nazariyasida bolalarning rivojlanishida ijtimoiy o‘zaro aloqalarning ahamiyatini ta›kidlagan. Uning fikriga ko‘ra, bolalar vaqtni va boshqa abstrakt kategoriyalarni o‘z tajribasi orqali, kattalar bilan muloqotda o‘rganadilar. Vygotsky va uning izdoshlari, vaqt va boshqa aqliy kategoriyalarni o‘rganish jarayonida bolalarning shaxsiy yondashuvlarini hisobga olish zarurligini ta›kidlagan. Shuning uchun, uning nazariyasiga asoslanib, vaqt kategoriyalarini o‘rganishda algoritmik qobiliyatlarni rivojlantirishda ijtimoiy-madaniy ta›lim muhitining muhimligi ko‘rsatiladi.

Jean Piagetning kognitiv rivojlanish nazariyasida vaqt kategoriyasining shakllanishi haqida muhim fikrlar mavjud. U bolalarning vaqtni, sabab va natija o‘rtasidagi bog‘liqlikni, vaqt ketma-ketligini qanday tushunishini o‘rgangan. Piagetning “kognitiv konstruktivizm” yondashuviga ko‘ra, bolalar vaqtni o‘zlari konstruktiv tarzda o‘rganadilar, ya’ni ular yangi bilimlarni o‘z tajribasi orqali shakllantiradilar. Bu yondashuv vaqtni tushunish va algoritmik qobiliyatlarni rivojlantirish jarayonida bolalarning faol ishtirokini ta’kidlaydi. Jerome Bruner o‘zining “aktiv o‘rganish” nazariyasida bolalarning bilim olish jarayonini faqat o‘qituvchining ko‘rsatmalariga asoslanib emas, balki bolaning faol ishtirokiga asoslangan holda rivojlanishini ta›kidlaydi. U bolalarning kognitiv rivojlanishini va vaqt tushunchasini tushunish jarayonini amaliy mashqlar orqali rivojlantirishni muhim deb hisoblaydi.

Brunerning pedagogik yondashuvi vaqt kategoriyalarini tushunish va algoritmik qobiliyatlarni rivojlantirishda o‘quvchilarning mustaqil faoliyatini kuchaytirishga imkon beradi.

Lev Zankov o‘zining shaxsga yo‘naltirilgan ta›lim nazariyasida bolalarning kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirishning eng yaxshi shaklini taqdim etdi. U shaxsning intelektual rivojlanishini faqat shu shaxsning qiziqishlari va ehtiyojlari asosida rivojlantirish kerakligini ta›kidlagan. Zankovning fikricha, algoritmik qobiliyatlarni rivojlantirishda vaqt kategoriyasini o‘rganish jarayonida bolalarning shaxsiy tajribasi va dunyoqarashi hisobga olinishi kerak.

Anatoliy Karpovning algoritmik ta’lim masalalariga qaratilgan ishlari bolalarning mantiqiy fikrlashini va tushuncha shakllanishini rivojlantirishga yo‘naltirilgan. U algoritmik qobiliyatlarni rivojlantirishning pedagogik asoslarini ishlab chiqishda, vaqtni tushunish va uni o‘zlashtirish jarayonini bolalarning tafakkurini rivojlantirishga asoslashni zarur deb hisoblaydi. Karpovning fikriga ko‘ra, algoritmik fikrlash va vaqt tushunchasini birgalikda rivojlantirish bolalar uchun ta’limda muvaffaqiyatga olib keladi.

Alfred Binetning rivojlanish psixologiyasiga oid ishlari bolalar va yoshlardagi kognitiv qobiliyatlarni o‘lchash va o‘rganish bo‘yicha ko‘plab usullarni ishlab chiqdi. Uning ishlari, shuningdek, bolalarning vaqt va boshqa mavzularni tushunishdagi farqlarini o‘rganishga yordam beradi. Binetning yondashuvi bolalarning kognitiv qobiliyatlari rivojlanishining individual xususiyatlarini hisobga olishni ta’kidlaydi. Ushbu maqolada katta yoshdagi bolalarning vaqt kategoriyasini bilib

olish jarayonida algoritmik qobiliyatlarini rivojlantirish muammosiga bag‘ishlangan.

Tadqiqot davomida biz tomonimizdan formulalangan gipotezalar tasdiqlandi, ya’ni katta yoshdagi bolalarda algoritmik qobiliyatlarni rivojlantirish mumkinligi haqida, agar quyidagi psixologik-pedagogik shartlar amalga oshirilsa: shaxsga yo‘naltirilgan sotsiokul’tural modelni qurish, unda algoritmik qobiliyatlar shaxsning muvaffaqiyatli o‘qishi va atrof-muhitni bilib olishda shaxsiy ahamiyatga ega vosita sifatida ko‘rib chiqilishi kerak; ularning rivojlanish sharti vaqt kategoriyasi, uning asosiy xususiyatlari, inson hayotidagi qadriyatlar haqida bilimlarning mazmuni bo‘ladi, bu bilimlar bog‘langan holda maktabgacha ta’lim dasturiga integratsiya qilinadi; rivojlantiruvchi texnologiyalarni, shu jumladan axborot texnologiyalarini qo‘llash, bu orqali bolalarning subyektiv tajribasida vaqtning qadriyatli-ma’no parametrlarini aks ettirish; algoritmik qobiliyatlarni rivojlantirish jarayoni shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim yondashuvi prinsiplari asosida tashkil etilishi kerak. Ushbu maqolada falsafiy va psixologik-pedagogik tadqiqotlar tahlili asosida rivojlandi, bu esa bizga algoritmik qobiliyatlarning ma’nosi, tuzilishi va ahamiyatini aniqlashga imkon berdi, shuningdek vaqtning falsafiy, tabiiy fanlar, psixologik-pedagogik kategoriyalari sifatida ilmiy qarashlarni aniqladik.

O‘zbek pedagogikasida algoritmik qobiliyatlar muammosi kam o‘rganilgan bo‘lib, asosan matematika va informatika sohalarida qo‘llaniladi, lekin shu sohalarda ham algoritmik qobiliyatlar aniq ta’rifga ega emas. Maktabgacha pedagogika va psixologiya sohasida bolalarga vaqt kategoriyasi bilan tanishtirish muammosi vaqtni idrok etish, vaqtga yo‘naltirish usullari, vaqt tushunchasini shakllantirish va bolalarda vaqt ketma-ketligini tushtirish nuqtai nazaridan o‘rganilgan. Asosiy e’tibor vaqt o‘lchovlari tizimi, ularning davomiyligi va o‘lchoviga, vaqtga oid bilimlarini rivojlantirishga, shuningdek vaqt kategoriyalarining nutq orqali aks ettirilishiga va ularning maktabgacha yoshdagi bolalarda vaqt tasavvurlarini shakllantirishdagi roliga qaratilgan.

Zamonaviy pedagogika bola shaxsiyatining rivojlanishi uchun sharoitlarni yaxshilash yo‘llarini izlash jarayonida bo‘lib, olimlar va amaliyotchilar bolalarni o‘rgatishga shaxsiy rivojlantiruvchi konsepsiyasini yanada ishlab chiqish muammosi asosiy maqsadir. Bunday ta’limni amalga oshirish bolalarning ichki dunyosini rivojlantirishga, uning tajribasini va dunyoni o‘zlashtirishning madaniy usullarini, ijtimoiy moslashish va o‘ziga bo‘lgan ishonchni shakllantirishga yo‘naltirilgan metodikalarni ishlab chiqishni talab qiladi. Algoritmik qobiliyatlar, o‘z navbatida, shaxsiy xususiyatlar, qiziqishlarga mos ravishda belgilangan maqsadlarga muvaffaqiyatli erishish yo‘lida, shaxsiy bilim olishni tanlash qobiliyati sifatida qaraladi. Algoritm, umumlashtirilgan bilim olish usuli sifatida, bolaning o‘z tajribasid, qiziqishi va uni boshqa metodlar bilan almashtirib o‘rganishi orqali mustahkamlanadi va bu esa uni boshqa muhitga o‘tkazish va o‘zgartirish imkonini beradi.

Algoritm bola uchun belgilangan vazifalarni hal qilishga yordam beradi va shu bilan faoliyatga bo‘lgan qiziqishni yo‘qotishning oldini oladi. Vaqt kategoriyasida, bir vaqtda falsafiy va matematik, katta turdagi bog‘lanishlar va munosabatlar jamlangan bo‘lib, ularni tushunish bola uchun atrof-muhit haqidagi to‘liq tasavvur hosil qilish imkonini beradi. Vaqt kategoriyalari o‘zining qo‘llanilishi bo‘yicha bir qancha yo‘nalishlar bilan bog‘liq, chunki ular tabiati har qanday jarayonlarni tavsiflash uchun ishlatiladi, bu esa vaqtni o‘z mohiyatida algoritmik tushuncha sifatida qarashga imkon beradi va bolalarning algoritmik qobiliyatlarini rivojlantirish uchun ushbu kategoriyani samarali qo‘llashni ta’minlaydi.

Xulosa. Katta guruh tarbiyalanuvchilarining vaqt kategoriyalarini o‘rganish jarayonida algoritmik qobiliyatlarini rivojlantirish muhim pedagogik vazifadir. Vaqt kategoriyasini o‘rganish bolalarga dunyoqarashini shakllantirishda, mantiqiy fikrlash va muammolarni hal qilishda muhim rol o‘ynaydi. Vaqtni tushunish bolalarning kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi, bu esa o‘z navbatida, algoritmik qobiliyatlarning shakllanishiga yordam beradi.

Vaqt kategoriyasi va algoritmik fikrlash o‘rtasidagi bog‘liqlik, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim

tizimida yanada aniq ko‘rinadi. Shuning uchun, bolalarning vaqt tushunchasini o‘rganish jarayonida algoritmik qobiliyatlarini rivojlantirishni pedagogik tizimlar asosida takomillashtirish zarurdir. Bunday pedagogik tizimlarning muvaffaqiyati shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim, interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalarni qo‘llash va bolalarning individual ehtiyojlarini hisobga olishga bog‘liq.

O‘qituvchilar va pedagoglar o‘z faoliyatlarida bolalarning vaqtni tushunish va uni turli vazifalarda qo‘llay olish qobiliyatlarini rivojlantirishda innovatsion yondashuvlarni va an’anaviy metodlardan farq qilgan holda ishlab chiqishlari kerak. Buning uchun ta’lim jarayonida vaqtni his qilish, vaqt ketma-ketligini tushunish, vaqtni rejalashtirish va o‘lchash kabi ko‘nikmalarni shakllantiruvchi mashqlar va faoliyatlarni tashkil etish muhim o‘rin tutadi. Shuningdek, pedagogik tizimlar va metodologiyalarni takomillashtirishda ilmiy tadqiqotlar, olimlarning yondashuvlari va amaliy tajribalar muhim ahamiyatga ega.

O‘qituvchilarning metodik va pedagogik malakalarini oshirish, bolalarning algoritmik qobiliyatlarini rivojlantirishga ko‘proq e’tibor qaratish kerak. Bundan tashqari, maktabgacha ta’lim muassasalarida bolalar bilan ishlashda vaqt kategoriyasini o‘rganish jarayonida bolalarning kognitiv va ijtimoiy rivojlanishini ta’minlovchi integratsiyalangan yondashuvlar amalga oshirilishi zarur.

Bunday yondashuv bolalarning bilim olishda faolligini oshiradi, ularning vaqtni idrok etishdagi muvaffaqiyatlarini ta’minlaydi va umumiy ravishda ta’lim tizimining samaradorligini oshiradi. Shu bilan birga, bolalar o‘rganayotgan vaqt kategoriyalarining turli ijtimoiy, madaniy va shaxsiy kontekstlarni hisobga olish, ta’lim jarayonida bolalarning individual ehtiyojlari va xususiyatlariga moslashgan pedagogik strategiyalarni ishlab chiqish zarur. Bu yondashuv bolalar uchun vaqtni tushunish va uning asosida algoritmik qobiliyatlarni rivojlantirishda muvaffaqiyatli natijalarga erishishga imkon beradi.

Umuman olganda, katta guruh tarbiyalanuvchilarining vaqt kategoriyalarini o‘rganish jarayonida algoritmik qobiliyatlarini rivojlantirishning pedagogik tizimlarini takomillashtirish, maktabgacha ta’limning sifatini oshirishga, bolalarning kognitiv va ijtimoiy rivojlanishiga, shuningdek, ular uchun muvaffaqiyatli kelajakni ta’minlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1.P.V.Zhukov (2005). Matematika va mantiqiy fikrlashni rivojlantirishda yosh bolalarning imkoniyatlari. Moskva: Pedagogika.

2. P.V.Zhukov (2003). Bolalarning mantiqiy fikrlashini rivojlantirish: Pedagogik texnologiyalar va metodlar. Moskva: Yalta

3. Lev Vygotsky “Psixologiya va ta’lim” (1984). Psychology and Pedagogy: The Selected Works of Lev Vygotsky”

4. Svetlana G. Sukhareva o‘zining “Psixologiya va ta’lim” (2011).

5.V.P. Novikova “Matematicheskiye igri v detskom sadu i nachalnoy shkole. Sbornik igr dlya detey 5–7 let” -M.: «MOZAIKA-SINTEZ», 2011.

6.N.U. Bikbayeva, Z.I.Ibrohimova, X.I.Qosimova “Maktabgacha yoshdagi bolalarda matematik tasavvurlarni shakllantirish” – Toshkent: “O‘qituvchi” nashriyoti, 1995. 98-b.

7. Salaeva M.S. Umumiy pedagogika. – Toshkent: “Nodirabegim” nashriyoti, 2021. – 598 b.

8. Edwards R., Usher R. Globalization and Pedagogy Spase Plase and Identity. – New York, 1999. – 602 p.

9. Xoliqov A. Pedagogik mahorat. – Toshkent: Iqtisod -moliya, 2011. – 420 b.

10. Юсупова П. Мактабгача тарбийа педагогикаси. – Тошкент: Ўкитувчи, 1993. – 264 б.

UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA JISMONIY TARBIYA DARSLARINI TASHKIL ETISHNING NAZARIY-AMALIY VA PEDAGOGIK ASOSLARI

Yaqubov Arslon Mahmudovich
Urganch davlat pedagogika instituti Jismoniy madaniyat kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada umumta'lim maktablarida o'tiladigan jismoniy tarbiya darslari to'g'risida batafsil ma'lumotlar berilgan. Qolaversa, jismoniy tarbiya darslarining pedagogik asoslari bo'yicha va darslarni o'tkazish metodikalari ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: dars, sport mashg'ulotlari, jismoniy tarbiya o'qituvchisi, murabbiy, metodika, usullar, o'quvchi.

ТЕОРЕТИКО-ПРАКТИЧЕСКИЕ И ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ОРГАНИЗАЦИИ УРОКОВ ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ В ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ШКОЛАХ

Аннотация. В этой статье представлена подробная информация об уроках физкультуры, проводимых в государственных школах. Далее указываются педагогические основы занятий физической культурой и методика проведения занятий.

Ключевые слова: урок, спортивная деятельность, учитель физкультуры, тренер, методика, методы, ученик.

THEORETICAL-PRACTICAL AND PEDAGOGICAL FOUNDATIONS OF THE ORGANIZATION OF PHYSICAL EDUCATION CLASSES IN SECONDARY SCHOOLS

Annotation. This article provides detailed information about physical education classes in secondary schools. In addition, on the pedagogical basis of physical education classes and methodologies for conducting classes are indicated.

Keywords: lesson, sports training, physical education teacher, coach, methodology, methods, student.

Kirish. O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan keyin ma'naviy qadriyatlar, milliy urf-odatlar va an'analar tiklandi. Ayniqsa, jismoniy tarbiya va sport ommaviyligini ko'tarish, jismoniy madaniyat harakatini rivojlantirish, xalq milliy o'yinlarini qayta tiklash, sog'lom turmush tarzini shakllantirish va ularning sport mahoratini oshirish bo'yicha ilmiy- nazariy anjumanlar o'tkazildi.

Mustaqilligimizning dastlabki kunlaridanoq siyosiy, ijtimoiy, huquqiy, madaniy-ma'naviy va ilmiy hayotimizda ko'plab yangiliklar, umumbashariy jarayonlar bilan bog'liq ijobiy o'zgarishlar sodir bo'ldi.

Ma'lumki, har bir mustaqil fan o'zining predmeti va metodologik asoslariga egadir. Shu jumladan jismoniy tarbiya fani ham.

Umumta'lim maktablari jismoniy tarbiya darslarini tashkil etish, o'quvchilarning jismoniy tarbiya va sportga oid nazariy-amaliy bilimlarini oshirish, endi o'sib kelayotgan yosh avlodda sog'lom turmush tarzini sharllantirish, jismoniy tarbiya darslarida sog'lomlashtiruvchi mashg'ulotlariga nisbatan ko'nikma va malakalarni shakllantirishga oid tavsiyalar ishlab chiqish mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

Sportning har bir turida o'ziga xos maxsus yuqori darajada rivojlangan sifat va mahoratni

kamolotga etkazmoq aniq yo‘naltirilgan pedagogik va biologik tarbiya vositasida bosqichma-bosqich amalga oshadi. Bosqichlarni mensimaslik, yetarli malakalar yig‘indisi hosil bo‘lmay turib, yuqori bosqichga ko‘tarilishga zo‘r berish maqsadga erishish muddatini uzoqlashtiradi, tanani jarohatlantirishga olib keladi.

Dasturni qayta ishlab chiqishda ko‘pchilik xatolarga yo‘l qo‘yilishi mumkin. Bu xatolar maktab jismoniy tarbiya mazmunini chuqur bilmaslikdan yuzaga keladi. Masalan, aksariyat o‘qituvchilar kichik maktab yoshidagi o‘quvchilar salomatligining zaiflashib borishidan xavotirlanib, jismoniy tarbiya maqsadi shu yoshdagi bolalar salomatligini saqlashdangina iborat deb hisoblaydilar.

Yana bir toifadagi o‘qituvchilarimiz jismoniy tarbiyaning asosiy vazifasi o‘quvchilarning jismoniy sifatlarini rivojlantirishdan iborat deb nazariy mashg‘ulotni jismoniy mashqlarga aylantirib yuboradilar. Hatto shunday muallimlar borki, butun o‘quv yili davomidagi darslarni alohida sport turiga bag‘ishlashadi. O‘z mutaxassisligi bo‘yicha bokschi bo‘lsa, maktabdagi bolalarning hammasi bokschi bo‘lishini istab, darslarni shu tomonga yo‘naltiradi.

Uchinchi yo‘nalish tarafdorlari esa jismoniy tarbiya darslarini o‘quvchilar uchun zarur bilim beradigan harakat ko‘nikmalar va malakalarni shakllantiradigan qilib tashkil etishni kifoya deb tushunadilar.

Adabiyotlar tahlili. Ma’lumki, darsda ishtirok etayotgan o‘quvchilarning hammasi bir xil qobiliyat yoki jismoniy rivojlanishga ega emasligini shu o‘rinda yana bir bor yodga olib o‘tamiz. Chunki ishlab chiqmoqchi bo‘lgan tavsiyalar, metodik ko‘rsatmalar va yangiliklar aynan shunga bog‘liq.

Maktablarimizda o‘tilayotgan jismoniy tarbiya darslarini kuzatadigan bo‘lsak, aksariyat o‘qituvchi-murabbiylarimiz butun sinf o‘quvchilariga bir xil tempda dars o‘tayotgani hech kimga sir emas. Vaholanki, sinfda 30 ta o‘quvchi ta’lim oladigan bo‘lsa, ular 30 xil organizm. Ularning hammasi ham o‘tilayotgan mashg‘ulotni bir galda o‘zlashtira olmaydi. Yana bir muammo o‘quvchilarimizning jismoniy tarbiya va sportga oid nazariy bilimlarining sayozligi olib borilgan pedagogik tadqiqot ishlarimizda yaqqol namoyon bo‘ldi.

O‘qituvchi faoliyati o‘quvchilarga bilim berish hamda bilimlarning egallanish jarayoni harakat malakalari va ko‘nikmalarining shakllanishi boshqarib turishga qaratilgan. Shu ma’noda o‘qitishning har bir shakli o‘qituvchining o‘qitish jarayonidagi yetakchilik qilish ahamiyati tamoyilini amalga oshiradi.

O‘qituvchining yetakchilik ahamiyatini tahlil qilishni ketma-ket, uning o‘qitish jarayonidagi harakatlarini quyidagi bloklar bo‘yicha ko‘rib chiqish orqali bajarish mumkin:

-o‘qitish maqsadini aniqlash;
- o‘qitishning xususiy vazifalari tizimini aniqlash;
- o‘quvchilar tayyorgarligining boshlang‘ich darajasini aniqlash, ya’ni ularning qobiliyatlariga, o‘zlashtira olish imkoniyatlariga qarab guruhlarga ajratish;
-o‘qitish mezonlarini aniqlash;
- o‘zlashtirishni baholash uslublarini aniqlash;
- zarur jihozlarni tayyorlash (ko‘rgazmali qurollar)
- o‘qitish qo‘llanmasi va inventarlarni tayyorlash;
- o‘qitishni butunligicha va elementlari bo‘yicha baholash;
- o‘qitishga zarur bo‘lgan hollarda tuzatishlar kiritish [1; 170-172-b].

Yuqorida ochib berilgan o‘qitishning hamma tamoyillari bir-biri bilan o‘zaro bog‘liq bo‘lib, o‘qitish jarayonida birga qo‘llanishi mumkin. O‘quv jarayonida ularning birortasi buzilsa, boshqasini amalga oshirish qiyinlashadi. O‘qituvchi hamma tamoyillarni yaxlit holda qo‘llagan taqdirdagina o‘qitishda yuqori natijalariga erishish mumkin.

Harakatlarga maqsadli o‘rgatish o‘qituvchidan o‘qitish uslublari tavsiflarini bilishni talab etadi. Hamma uslublar shartli ravishda uchta asosiy guruhga bo‘linadi: so‘zdan foydalanish (so‘z uslublari, ko‘rgazmali qabul qilish uslublari va amaliy uslublar).

O‘qituvchi tomonidan qo‘llaniladigan so‘zdan foydalanish uslublari butun o‘quv jarayonini faollashtiradi, harakatlanishlar to‘g‘risida yanada to‘liq hamda aniq tasavvurlarni shakllantirishga yordam beradi. Ushbu uslublar orqali o‘qituvchi o‘quv mashg‘ulotining o‘zlashtirishini tahlil qiladi va baholaydi.

Ko‘rgazmali qabul qilish uslublari o‘rganilayotgan harakatlarning ko‘z bilan ko‘rish va eshitish orqali qabul qilinishini ta’minlaydi.

Ko‘rgazmali qabul qilish harakatlari yanada tez, chuqur va mustahkam egallab olishga yordam beradi, o‘rganilayotgan harakatlarga qiziqish uyg‘otadi.

Ko‘rgazmali o‘rgatish alohida yoki guruhli tarzda o‘tkazilishi mumkin. Butun bir sinfga guruhli bir vaqtning o‘zida ko‘rgazmali o‘rgatish va alohida ya’ni o‘zlashtira olish qobiliyati sust o‘quvchilarga individual ko‘rgazmali o‘rgatish.

Amaliy uslublar o‘quvchilarning faol harakat faoliyatiga bog‘liq. Ularni shartli ravishda ikkita guruhga bo‘lamiz: qat’iy va qisman tartiblashtirilgan mashqlar uslublari, harakat shakllari, yuklama o‘lchamlari, uning o‘sib borishi, dam olish bilan almashlab turilishi va boshqalarni qat’iy tartiblashtirilgan holda harakatlarni ko‘p marta takrorlash bilan tavsiflanadi. Buning natijasida kerakli o‘quv ko‘nikma va malakalar asta-sekin shakllanib, alohida harakatlarni tanlab o‘zlashtirish imkoniyati tug‘iladi.

Guruhlarga bo‘lib o‘rganish uslubi dastlab harakatning alohida qismlarini o‘rganishni, keyinchalik esa kerakli darajada butun holiga birlashtirishni nazarda tutadi.

Butunligicha, o‘rganish uslubi o‘qitishning yakuniy maqsadiga qarab, harakat qanday ko‘rinishda bo‘lsa, uni shundayligicha o‘rganishni ko‘zda tutadi. qisman tartiblashtirilgan mashqlar uslubi o‘quvchilar oldiga qo‘yilgan vazifalarni hal etish uchun harakatlarni nisbatan erkin tanlashga ruxsat beradi. O‘yin uslubi harakatlarning qat’iy tartiblashtirilishi, ularni bajarishdagi mumkin bo‘lgan shartlarning yo‘qligi bilan tavsiflanadi; ijodiy qobiliyatlarni mustaqil namoyon qilish uchun keng imkoniyatlar yaratadi, mashg‘ulotlarning ko‘tarinki ruhda o‘tishini ta’minlaydi.

Musobaqa (bellashuv) uslubi maxsus tashkil qilingan bellashuv, bahs-munozara faoliyatini nazarda tutadi. O‘zaro bunday bellashuvni tashkil etish quyidagicha tavsiflanadi, ya’ni tez o‘zlashtira oladigan o‘quvchilar bir guruh. Bellashuvga tez o‘zlashtiradigan o‘quvchilar jamoasi bilan o‘rta o‘zlashtiradigan o‘quvchilar jamoasini qo‘yamiz. Past o‘zlashtiradigan o‘quvchilar jamoasi kuzatuvchi guruh. Bu guruh bellashuvdagi ikki guruhning o‘yin uslublarini, jismoniy harakatlarini, taktika, texnik tomonlarini, sport mahoratlarini kuzatadilar. bu kuzatish orqali o‘zlarining malaka va ko‘nikma, mashg‘ulotga nisbatan ruhiy tayyogarlik tomonlarini tarbiyalab oladilar. Deylik bellashuvda o‘rta o‘zlashtiradigan o‘quvchilar jamoasi g‘olib chiqdi. Ana endi past o‘zlashtiradigan o‘quvchilar guruhi bilan o‘rta o‘zlashtiradigan o‘quvchilar guruhini bellashuvga qo‘yamiz. Bu yerda tez o‘zlashtira oladigan o‘quvchilar guruhi o‘qituvchisi bilan birgalikda tuzatuvchi (jamoa) guruh hisoblanadi va aksincha deylik tez o‘zlashtira oladigan o‘quvchilar guruhi g‘olib chiqdi. Bunday holatda o‘rta va past o‘zlashtiradigan guruhlarni 50% ga 50% ikkiga bo‘lib maxsus o‘rgatuvchi va o‘rganuvchi guruh sifatida bellashuvga qo‘yamiz. Shu tariqa past o‘zlashtiradigan o‘quvchilar guruhida o‘quv ko‘nikma va malakalarini bosqichma-bosqich shakllantirib boramiz [2; 128-137-b].

Guruhlarga bo‘lib o‘rgatish bosqichining asosiy vazifasi harakat malakasini shakllantirish hamda uni ko‘nikmaga o‘tgunga qadar takomillashtirishdan iborat. Bu bosqichda alohida mashg‘ulot shakllarining vaqt, makon va kuch tavsiflari aniqlanadi. Agar oldingi bosqichda harakat malakasini shakllantirish uchun zarur bo‘lgan shart - sharoitlar yaratilgan bo‘lsa, ikkinchi bosqich-

da uning hosil bo‘lishi yuzaga keladi. Oldinga qo‘yilgan maqsadlarga erishish uchun quyidagi vazifalar hal qilinadi:
- o‘rganayotgan mashq texnikasini egallash va qismlarini aniqlab olish;
- o‘rganayotgan harakatlarning qonuniyatlarini tushunishni chuqurlashtirish;
- bajarilishi zarur bo‘lgan amallarning ketma-ketligini batafsil gapirib turish bilan o‘rganilayotgan harakatlarni bajarish;
- o‘quv mashg‘ulot bellashuvlaridagi o‘rganilayotgan mashq elementlarini aniq erkin va butunligicha bajarilishiga erishish.

Yana bir tavsiya. Deyaylik, jismoniy tarbiya darsimizda milliy va haraktli o‘yinlarni tashkil qilmoqchimiz. Bu maqsadimizni amalga oshirish uchun quyidagilarni nazarda tutish lozim:
- o‘quvchilarning jismoniy barkamolligiga, salomatligining yaxshilanishiga, chiniqishiga tana a’zolari va umumiy ish qobiliyatining o‘sishiga yordam berish;
- o‘quvchilarda hayotiy faoliyatda yordam beradigan aqliy va irodaviy fazilatlarni tarkib toptirish;
- o‘quvchi yoshlarni turli o‘yinlar va jismoniy mashqlarga qiziqtirish, sog‘lom turmush kun tartibiga rioya qilishga odatlantirish;
- o‘quvchilarda harakatli va milliy o‘yinlarni mustaqil holda tashkil etish va o‘tkazish uchun zarur o‘quv ko‘nikma va malakalarni hosil qilish [3; 141-146-b].

Yana bir muhim tomoni milliy va harakatli o‘yinlarni o‘tazishda o‘qituvchining tashkilotchi va tarbiyachi sifatidagi vazifasi juda mas’uliyatlidir. Milliy va harakatli o‘yinlar avvalambor to‘g‘ri tanlanishi, o‘quvchi – talabalarda o‘z sheriklariga, raqiblariga o‘rtoqlarcha yordam, jamoatchilik, vatanparvarlik hislarini ijtimoiy–foydali mehnatda tashkil qilinishini va o‘tkazilishi kerak.

Mazmuni. Tadqiqotimizdan kelib chiqqan holda umumta’lim maktablarining jismoniy tarbiya darslarini tashkil etishda nazariy, amaliy va eksperimental-metodik asoslarni tadqiq etish va bu borada ilmiy metodik tavsiyalar ishlab chiqishdan boshladik va quyidagi vazifalarni tanladik:

1. Mavzuga oid ilmiy-pedagogik adabiyotlarni o‘rganish.

2. Jismoniy tarbiya darslarida o‘quvchilarni sport mashqlarga o‘rgatishning yangicha shakl va metodlarini ishlab chiqish.

3. O‘tkazilgan tajriba, sinov va izlanishlarga asoslangan holda eksperiment natijalarini tahliliy va nazariy asoslash.

Umumta’lim maktablarida jismoniy tarbiya darslarini tashkil etish, o‘quvchi-yoshlarni sport mashg‘ulotlariga o‘rgatish jarayonlarini kuzatdik.

Maktablarda jismoniy tarbiya darslarini tashkil etish, o‘quvchilarni sport mashg‘ulotlariga o‘rgatish yo‘llarining mazmuni, shakli va metodlari, vositalari orqali tadqiqotlarimizni tashkil qildik.

Tadqiqotmizda quyidagi metodlardan foydalandik: kuzatish, taqqoslash, o‘lchash, testlash, pedagogik eksperiment, pedagogik tashxis, matematik statistika.

Olingan natijalarning ishonchliligi. O‘qituvchi-murabbiy mashg‘ulotni o‘tkazish jarayonida yangi pedagogik texnologiyadan, pedagogikaning didaktikasi va uning tamoyillaridan foydalana olishi va doimo ularni amalga oshirishga erishishi lozim. O‘qituvchi mashg‘ulot oldidan o‘quvchilarga har bir o‘yinning mazmuni, vazifasi va qoidalarini tushuntirib berishi shart. Bu esa o‘quvchilarda o‘yinga ongli munoasabatda bo‘lishni, uni to‘g‘ri o‘rganib olishni, o‘z xatolari va yutuqlarini to‘g‘ri tushunish hamda harakatlarni o‘rtoqlarinikiga qiyoslab tahlil qilish imkonini beradi. Bo‘lishi mumkin qaysidir o‘quvchida mashg‘ulotga nisbatan qiziqish bo‘lmaydi-da, mashqni xuddi bir o‘qituvchi topshirig‘ini bajarayotganday bajaradi. Bunday holat unchalik samara bermaydi. Xuddi mana shunday holat yuz berganda o‘quvchini alohida chaqirib amaliy ko‘mak berish, uning mashg‘ulotga bo‘lgan qiziqishini orttirish zarur.

Biz yuqorida sinfda o‘qiydigan o‘quvchilarning hammasi bir xil jismoniy rivojlanish bir xil

qiziqish va imkoniyatga ega emasligini aytib o‘tgan edik. Jismoniy tarbiya darsida o‘quvchilarning faoliyatini va yuk me’yorini o‘lchash, tartib va qoidaga bo‘ysundirilishi zarur. Bu bilan darsning sog‘lomlashtirishga yo‘naltirilganligiga qismon erishiladi. Oz yuklamalar zaruriy samaradorlikni bermaydi, o‘ta yuqorilari esa bolalar salomtligiga ziyon etkazadi. Har bir mashqni o‘zlashtirib olish ma’lum darajada qaytarishni talab etadi. Nihoyat, organizmga yanada yuqoriroq talablarni qo‘yib berish, jismoniy yuklama me’yorini to‘g‘ri belgilab, jismoniy sifatlarni rivojlantirish mumkin emas.

Jismoniy yuklamalar - bu shug‘ullanuvchilar organizmiga jismoniy mashqlarning ma’lum me’yori bilan ta’sir ko‘rsatishdan iborat.

Jismoniy yuklamalar me’yorini o‘lchash-demak, uning hajmini va tezligini almashtirishdan iborat. Odatda jismoniy yuklamalar hajmi bajarilgan mashqlar soni, og‘irligi, bosib o‘tilgan masofaning uzunligi bilan aniqlanadi.

Intensivlik- (jadallik) aniq ish hajmini bajarishga sarflangan vaqt bilan belgilanadi. Aytilgan tavsif-bu yuklamaning tashkiliy ko‘rinishi xolos. Ulardan o‘qituvchi darsga tayyorlanishida foydalaniladi.

Fiziologiyadan ma’lumki, jismoniy yuklamalar ta’sirida organizmda turlicha o‘zgarishlar yuz beradi. Integral ko‘rsatkich- yurak qisqarishi tezligi miqdoridan iborat. Qon tomiri urish tezligi (puls). Asosiy tibbiy ko‘rikdan o‘tgan guruhdagi o‘quvchilar uchun jadal jismoniy mashqlardan so‘ng pulsning yuqori chegarasi bir daqiqada 170-180 martagacha ko‘tarilishi mumkin. Dars davomida ayniqsa, mashqlanishda chidamlilik, tezlik, kuchni tarbiyalash vazifalarini hal etish uchun o‘qituvchi o‘quvchilar puls tezligini nazorat qilib turishi kerak.

Darsda eng samarali jismoniy yuklamalarni boshqarish usullari uchun quyidagicha tavsiya beramiz. Mashqlarni takrorlash me’yori-tabiiyki mashqlarning sonini ko‘paytirish yuklamaning ortishiga olib keladi, ammo o‘quvchilar tayyorgarlik darajasi hozircha baland bo‘lmaganligi uchun shu usuldan foydalaniladi. Mashqlanish darajasi ortib borgan sari bu usul samarasiz qoladi, chunki ko‘p vaqt sarflash talab etiladi, o‘qituvchi har bir daqiqani tejaydi.

Mashqlarni bajarish amplitudasi-biz bilamiz harakatlarni doimo to‘liq amplitudada bajarish qiyin. Shuning uchun o‘qituvchi-murabbiylar uni kamaytirishga urinadilar. Misol uchun o‘quvchilar chidamliligini oshirish maqsadida, turnikka osilib turgan holatda oyoqlarni bukib oldinga ko‘tarib turish topshirg‘ini oladilar. O‘quvchilarning hammasiga ham oyoqlarni tizzadan bukishni tavsiya etadi, amplitudani qisqartiradi. Tizzalar bukish burchagi qancha o‘tkir bo‘lsa, osilib turish shuncha osonlashadi. Tabiiyki, amplitudani ko‘paytirish mumkin.

Mashqlarni bajarish vaqti - o‘qituvchi 5 daqiqa davomida yugurishni vazifa qilib beradi. Yugurish tezligi va masofaning uzunligi o‘quvchilar tomonidan boshqariladi. Chidamlilikni oshirish shunga olib keladiki, o‘quvchi bir necha mashqlanishdan so‘ng 5 daqiqa ko‘proq masofani yugurib o‘tadi.

Mashqlarni bajarish sur’ati-sur’atni ma’lum chegaragacha oshirish organizmga ta’sirini kuchaytiradi, lekin haddan tashqari tezlik mashqlar tartibining buzilishiga olib keladi va o‘rganishga salbiy ta’sir etadi. Tezlik harakatda qatnashayotgan muskullar massasiga bog‘liq. Ya’ni tos suyagini son suyagi bilan bog‘lovchi bo‘g‘inga nisbatan oyoqni tizza bo‘g‘inidan bukib-yozish oson va tez kechadi.

Dastlabki holat-agar o‘quvchilar yotib qo‘llarga tayangan holda qo‘llarni buksa, jismoniy yuklamalar har xil bo‘ladi. Shuni yodda tutish zarurki, o‘qituvchi yuklamani boshqara borib, bir vaqtda ikki-uch usulni qo‘llashi mumkin. Misol uchun dastlabki holatni og‘irlikni qo‘llash va tezlikni oshirish yoki pasaytirish orqali o‘zgartirishi mumkin. O‘quvchi faqat yuklamani oshirishga emas, pedagogik nuqtai nazardan yukni oshirishga intilmogi kerak. Tabiiyki, yuqori jismoniy yuklamasiz mashqlanish darsini o‘tib bo‘lmaydi. lekin bu mashqlarga o‘rgatishda halal berishi mumkin.

Mashg‘ulotning zichligi butun dars 45 daqiqa vaqtga nisbatan harakat faoliyatlarining hamma turlariga sarflangan vaqt yig‘indisini bir-biriga nisbati orqali foiz bilan aniqlanadi. Shu o‘rinda “darsning zichligi”ga ta’rif berib o‘tamiz. Darsning zichligi- unga ajratilgan vaqtdan maqsadga muvofiq juda unumli foydalanish tushuniladi. Vaqtdan qanday oqilona foydalanilsa, demak dars shunchalik zich o‘tgan hisoblanadi. Binobarin, dars zichligi nagruzkaga, dars oldiga qo‘yilgan vazifalarning bajarilishiga, o‘quv dasturlarining muvaffaqiyatli amalga oshirilishiga va hokazolarga ta’sir ko‘rsatadi. Har bir o‘qituvchi dars zichligidan manfaatdor, chunki bu unga darsni to‘liq o‘tishga imkon beradi. O‘qituvchi darsga tayyorlanishda dars o‘tish rejasini ikir-chikirlarigacha o‘ylab olishi va mashqlarni qaerda namoyish qilishi, qaerda tushuntirish olib borishi, qaerda buyruq berishni aniq nazarda tutishi darkor.

Dars boshlangungacha zarur jihoz va asbob-anjomlarni tayyorlash shart. Bu asbob-anjomlarni joylashtirish yoki turli buyumlar (tayoqlar, to‘plar, arg‘amchilar va hokazolar)ni tarqatishga kam vaqt sarflashga imkon beradi.

Darsni birdaniga ko‘plab o‘quvchilar shug‘ullanadigan qilib tashkil etish darsni samarali qiladi. Shunda saflanish mashqlarini, yurish, yugurish, umumrivojlantiruvchi mashqlarni va boshqalarni bajarib ulgurishi mumkin.

Albatta dars zichligiga hamma vaqt birdek erishish qiyin. Chunonchi sakrash, uloqtirish, tirmashib chiqish, muvozanat saqlash mashqlarini bajarishda zichlikka erishish shular jumlasidandir.

Bir vaqtda shug‘ullanadigan o‘quvchilar sonini oshirish uchun iloji boricha ko‘proq asbob-anjomlardan (bir xil yoki har xil) foydalanish zarur. Bunday paytda o‘quvchilar snaryadlar soniga qarab ikki guruhga bo‘linadilar va o‘qituvchi har bir guruhga boshliq tayinlaydi. O‘qituvchi o‘z oldiga darsni zichlashtirish vazifasini qo‘yar ekan, o‘quvchilar butun dars davomida rejada belgilangan darajada band bo‘lishlariga harakat qiladi.

Xulosa. Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatdiki mashg‘ulot ta’siri ostida sportchining xolati o‘zgarishi 3 bosqichga bo‘linadi: hafta yoki oylar bo‘yicha nisbatan bosqich davomida saqlanishi. Masalan: sport formasining xolati mashg‘ulot jarayonida yetarlicha chiniqmaganligi va h.k.

Joriy xolati: bir yoki bir necha mashg‘ulotni ta’siridagi o‘zgarishi (bu holatlarni baholash, keyingi mashg‘ulotlarni tuzilshi va yo‘nalishini va ularga nisbatan yuklamaning kattaligini aniqlashga yordam beradi).

Operativ holati: alohida mashqlarning ta’siri ostida o‘zgaruvchan va tezlikda o‘tuvchi (bularni mashg‘ulotlar dasturini tuzishda, mashqlarning davom etish vaqti, harakteri, shiddati va uni bajarish, davom etish vaqti va dam olish intervalining harakteri hisobga olinadi).

Sport mashg‘uloti jarayonini ko‘p qirraliligi va sportchining doimiy xolda imkoniyatining o‘zgarishi, har xil omillar ta’sirida uning holatini tebranishi, boshqarishining negizi bo‘lib hisoblanadi. Bu esa sportchidan murabbiyga beriladigan teskari aloqasi orqali beriladi:

1.Sportchidan murabbiyga boruvchi ma’lumotlar (o‘znini sezishi, ishga bo‘lgan munosabati, kayfiyati va b.k.)

2.Sportchi o‘zini tutishi haqidagi axborotlar (mashg‘ulot ishining xajmi, uning bajarishi, aniqlangan xatolari va h.k)

3.Mashg‘ulot samaradorligini, qisqa vaqtdagi ko‘rsatkichlari (mashg‘ulot yuklamasi ta’sirida funksional tizimidagi chegara va o‘zgarishlar harakteri).

4.Mashg‘ulot samaradorligining yig‘ilishi (kumlyativ) to‘g‘risidagi axborotlar (sportchining mashqqa chidamlilik holatining o‘zgarish holati).

Sport mashg‘uloti davrlarida bosqichlari bo‘yicha tayyorgarliklari mashg‘ulotni boshqarish samaradorligi mashq bilan chiniqish mashg‘ulotlarining tuzilishini aniq sonining ko‘rsatkichlari va sport faoliyati bilan bog‘liqdir. Bu esa, bu yoki u sport turlaridagi aniq sport predmetiga harakter-

lidir. Shuning uchun mashg‘ulot va musobaqa faoliyati modelini tuzish va saralash sifatida ham ishlatiladi. (sportda takomillashtirishning ma’lum bosqichlarida, tanlash sifatida ham ishlatiladi). Keyinchalik sportchining aniq funksional imkoniyatlarini, modeldagi individual ko‘rsatkichlari bilan qiyoslanadi va keyingi ish va berilgan samaradorlikka erishish yo‘nalishi aniqlanadi.

Mashg‘ulot jarayonida rejalashtirilgan natijaga erishishga yordam beruvchi, mashg‘ulot vositasi va uslublari amalga oshiriladi. Ko‘rsatilgan siklni yakunlovchi operatsiyasi bo‘lib, oraliq nazorat, mashg‘ulot jarayonini samaradorligini belgilaydi va kerakli vaqtda korreksiya qilinadi. Bu siklning hamma operatsiyalarini amalga oshirishni, eng kerakli sharoiti bo‘lib, har tomonlama tenglashtirilgan ko‘rsatkichlar hisoblanadi. Musobaqa faoliyati va sportchining tayyorgarligini aniq tuzilishini ko‘rsatkichlari model tavsifini, oraliq nazorat ham boshqarishning asosiy ishlanmasi bo‘lib hisoblanadi. Nazoratning bu natijasi ishning asosiy yo‘nalishi va natijasiga erishish yo‘lini aniqlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Юнусова Ю.М. «Теория и методика физической культуры». Учебное пособия. Ташкент. УзГосИФК. 2007 г.

2. Саломов Р.С. «Спорт машғулотнинг назарий асослари». Тошкент., Ўқув қўлланма ЎзДЖТИ, 2005 йил - 238 б.

3. Abdullaev A., Xonkeldiyev Sh. “Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyoti”. o‘quv qo‘llanma Toshkent., O‘zDJTI, 2005 yil - 300 b.

4. D.K.Karimov “O‘rta yoshli velosipedchilarning o‘ziga xos tayyorgarligi va organizm holatini tavsiflovchi ko‘rsatkichlar”. Maqola. Educational Research in Universal Sciences 2 (14), 751-755. 2023 yil.

5. D.K.Karimov, A.K.Karimov “Importance of effective tactical systems at football”. Ilmiy maqola. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences. Vol. 7 No. 12, 2019 ISSN 2056-5852. 2019 yil.

6. R.R.Zakirova, I.N.Tuxfatullina, D.K.Karimov “Совершенствование методики повышения мастерства велосипедистов - шоссейников на основе аспектов физического развития при занятиях велоспортом”. Maqola. O‘zbekistonda jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishning falsafiy, huquqiy va sotsiologik muammolari konferensiyasi. 2020 yil.

7. D.K.Karimov “O‘rta yoshli aholi uchun sog’lomlashtiruvchi yo‘nalishdagi mashg’ulotlarni o‘tkazish xususiyatlari”. Maqola. Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences, 1(7), 365-369, 2023 yil.

8. D.K.Karimov “Velosipedda yurish orqali o‘rta yoshli aholi orasida o‘tkaziladigan sog‘lomlashtirish mashg‘ulotlarining tibbiy-fiziologik asoslari”. Maqola. Educational Research in Universal Sciences 2 (15), 94-99. 2023 yil.

9. A.Yu.Atajanov, D.K.Karimov “Harakatli o‘yinlarning yosh sportchilar va bolalarni tarbiyalashdagi nazariy ahamiyati”. Maqola. Educational Research in Universal Sciences 2 (15), 174-178. 2023 yil.

10. D.K.Karimov “Velosiped sport turi bilan o‘rta yoshli aholi uchun sog‘lomlashtiruvchi yo‘nalishdagi mashg‘ulotlarni o‘tkazish xususiyatlari”. Maqola. Fan sportga jurnali. 79-83 betlar. 2023 yil.

UMUMIY MUSIQIY TA'LIM TAMOYILLARI

Abdullayeva Bibimaryam Narimon qizi
Urganch davlat pedagogika instituti Musiqa ta'lim yo'nalishi talabasi
abdullayevabibishka3377@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada musiqaning asosiy maqsadi, vazifalari va umumiy musiqiy ta'lim tamoyillari, musiqa madaniyati darslarining xususiyati va tuzilishi to'g'risida, didaktika tushunchasi, ta'lim nazariyasining ahamiyati, musiqaning inson hayotiga ta'siri, musiqa ta'limning boshqa fanlardan farqi va bog'liqligi, musiqiy ta'lim tarbiya haqida olimlar va faylasuflarning fikrlari, musiqa darslarini tashkil qiluvchi faoliyatlar va ularning o'zaro bog'liqligi, shaxs tarbiyasida va jamiyatda musiqaning ahamiyati, musiqa ta'limdagi yoshlarga xos muhim fazilatlar va ularning yosh avlodga ta'siri, musiqani o'rgatish va o'rganishda asos bo'lib xizmat qiladigan pedagogik tizimning yo'nalishlarini belgilovchi tamoyillar to'g'risida, musiqa darslarining tashkil qilinishi hamda dars jarayonida ta'lim metodlari va tamoyillaridan foydalanish usullari haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: maqsad, ta'lim, tamoyil, madaniyat, didaktika, musiqaviy didaktika, tizimlilik, pedagogika, psixologiya, ko'nikma

ПРИНЦИПЫ ОБЩЕГО МУЗЫКАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация. В данной статье рассматриваются основные цели и задачи музыки, общие принципы музыкального образования, особенности и структура уроков музыкальной культуры, понятие дидактики, важность теории обучения, влияние музыки на жизнь человека, отличие и взаимосвязь музыкального образования с другими предметами, мнения ученых и философов о воспитательной роли музыки, виды деятельности, организующие музыкальные уроки, и их взаимосвязь, значение музыки в воспитании личности и в обществе, важные качества, присущие молодежи в музыкальном обучении и их влияние на подрастающее поколение, принципы, определяющие направления педагогической системы, служащие основой для обучения и изучения музыки, а также организацию уроков музыки и методы и приемы применения принципов обучения в учебном процессе.

Ключевые слова: цель, образование, принцип, культура, дидактика, музыкальная дидактика, система, педагогика, психология, мастерство

PRINCIPLES OF GENERAL MUSIC EDUCATION

Abstract. This article discusses the main purpose, tasks and general principles of music education, the nature and structure of music culture lessons, the concept of didactics, the importance of educational theory, the impact of music on human life, the difference between music education and other disciplines. and its connection, the opinions of scientists and philosophers about musical education and upbringing, the activities that make up music lessons and their interdependence, the importance of music in personal education and society, music about the important qualities of young people in education and their impact on the young generation, about the principles that determine the directions of the pedagogical system that serves as the basis for teaching and learning music, about the organization of music lessons and learning during the lesson Methods and principles of learning are discussed.

Keywords: purpose, education, principle, culture, didactics, musical didactics, system, pedagogy, psychology, skill.

Kirish. Musiqa madaniy hayotimizda keng o‘rin tutgan va inson shaxsiyatining shakllanishida muhim rol o‘ynaydigan san’at turidir. Eramizdan oldingi IV asrdanoq grek faylasufi Platon shunday degan edi: “Eng katta tarbiyaviy omil musiqiy san’atda emasmikan, zeroki, ritm va garmoniya hammadan ko‘proq shu vaqtda qalbga chuqur yo‘l topadi va salobat baxsh etib, uni ko‘rkam qiladiki, agar tarbiya to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilgan bo‘lsa, aks holda uni teskarisi bo‘lib chiqadi. Uning shogirdi Aristotel (Aflotun) katta ishonch bilan mazkur fikrni quvvatlaydi. “Musiqa kishi ruhining axloqiy tomoniga ma’lum darajada ta’sir ko‘rsatadi, u yoshlarning tarbiyasiga ta’sir etadi”. Musiqa inson ruhi va aqliy rivojiga bebaho ta’sir o‘tkazadi. Musiqaning inson ruhiyatiga ta’sir qilishining tugallanmas imkoniyatlari haqidagi fikrlar qadimdan musiqashunoslar, mutafakkirlar va olimlar diqqatini o‘ziga tortgan. Faylasuflar, psixologlar, pedagoglar va jamoat arboblari san’atlar Ichida musiqa san’atining insonni shaxs sifatida shakllanishiga ta’sir qiladigan xususiyatlari haqida aniqlashga uringanlar. “Bizning xalqimiz azal-azaldan san’atga mehr va ixlos qo‘yib yashaydi, musiqani inson ruhining ilohiy quvvati deb biladi. Buyuk Sharq mutafakkirlari musiqa ilmi va tarixi, maqom san’ati, cholg‘u sozlari haqida ajoyib asarlar yaratganlar. Biz barchamiz mana shunday o‘lmas madaniy merosning vorislarimiz. Binobarin, bu ulkan merosni birgalikda o‘rganish va keng targ‘ib etish, uni kelgusi avlodlarga bezavol yetkazish oldimizda turgan eng muhim vazifadir” – deydi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev[1]

Xorijiy adabiyotlar tahlili. 1. Elliot Eisner “Musiqiy ta’lim asoslari” (The Elements of Music Education) kitobida musiqiy ta’limning ijtimoiy va madaniy ahamiyatini ta’kidlaydi. U musiqa ta’limining nafaqat texnik ko‘nikmalarni o‘rgatish, balki shaxsiy va jamoaviy rivojlanishga ta’sir qilish jarayoni ekanligini ko‘rsatadi. Musiqa ta’limi jamiyatda estetik va axloqiy qadriyatlarni rivojlantirishga yordam berishi kerak.

2. David J. Elliott “Musiqa ta’limida metodologiya” (Methodology of Music Education) kitobida musiqa ta’limining praktikalik va nazariy tamoyillarini birlashtirgan. Uning fikriga ko‘ra, musiqa o‘qitish jarayonida talabalar faqat musiqa texnikasini o‘rganishlari kerak emas, balki musiqani yaratish, tahlil qilish va ijro etish qobiliyatlarini ham rivojlantirishlari lozim. U o‘rgatish jarayonini talabaning individual ehtiyojlari va qiziqishlariga moslashtirishni taklif qiladi.

3. Barbara A. Tagg “Musiqa pedagogikasi” (Music Pedagogy) musiqa pedagogikasining asosiy tamoyillarini, jumladan, musiqiy yondoshuvlar, didaktik metodlar va musiqani o‘rgatishda ishlatiladigan strategiyalarni o‘rganadi. Uning kitobida musiqa ta’limida kreativlik va ijodiy fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan ko‘plab yondoshuvlar keltirilgan**.**

4. David Lines “Musiqa va ta’lim: Nazariyalar va amaliyot” (Music and Education: Theory and Practice) – bu kitob musiqa ta’limida amalga oshirilishi kerak bo‘lgan metodologik va pedagogik yangiliklarga bag‘ishlangan. Lines musiqa ta’limi va uning jamiyatga ta’sirini chuqur tahlil qiladi, shuningdek, musiqaning estetik qiymatini va uning ta’lim jarayonida qanday rivojlanishini ko‘rsatadi. Yuqoridagi kitoblarda umumiy musiqa ta’limi tamoyillari ta’lim jarayonida musiqa san’ati va ijodiy ko‘nikmalarni rivojlantirishga, musiqaning estetik qiymatini o‘qitishda izchil yondoshuvlarni qo‘llashga alohida e’tibor qaratilgan. Har bir muallif musiqa ta’limining turli jihatlarini ko‘rib chiqadi, lekin umumiy xulosa shuki, musiqa ta’limi faqat texnik o‘rgatishdan iborat emas, balki talabalarni ijodiy va estetik jihatdan ham rivojlantirishga qaratilgan.

Mazmuni. Musiqa ta’limning asosiy maqsadi shuki, mustaqil jamiyatimiz ravnaqiga musiqa nazariy va amaliy hissa qo‘sha oladigan Barkamol avlodni tarbiyalashdir. Musiqa ta’lim orqali yosh avlodga insoniyat tajribasi orqali to‘plangan bilim va ko‘nikmalar beriladi. Zaruriy e’tiqod va malakalar shakllantiriladi. Musiqa ta’lim o‘zaro hamkorlikdagi faoliyat hisoblanadi ya’ni o‘qituvchi va o‘quvchilar birgalikfa faoliyat olib boradi. U ikki tomonlama harakterga ega hisoblanadi. Unda o‘qituvchi va o‘quvchi faol ishtirok etadi. Musiqa ta’limning asosiy vazifasi – shaxsni musiqiy- ilmiy

bilimlar, ko‘nikmalar va malakalar bilan qurollantirishdan, ta’lim oluvchlarning dunyoqarashi va fikrlashini kengaytirish, ularning musiqiy qobiliyatlarini o‘stirishdan iborat. Ajdodlarimiz qoldirgan tarixiy va madaniy qadriyatlarda hayotning ma’nosi, jamiyatda insonning tutgan o‘rni, musiqa ta’lim tarbiyasi, odob-axloqi haqida hikmatli fikrlar borki, bular bugungi musiqa taraqqiyoti uchun yoshlarda insonparvarlik, poklik, imon - e’tiqod, muruvvat, millatlararo do‘stlik munosabatlari, mardlik singari tuyg‘ularni tarbiyalaydi. Musiqa ta’lim – inson musiqiy bilish faoliyatining eng murakkab turlaridan biri bo‘lib, individual psixik rivojlanishni va musiqa bilimlarini o‘zlashtirishni ancha tezlashtiradi.

Musiqa darsi o‘zining badiiyligi, qiziqarliligi va bolalarga ko‘proq ijodiy zavq, emotsional tuyg‘ular va obrazli kechinmalar uyg‘otishi bilan boshqa darslardan ajralib turadi. Musiqa darsi musiqa nazariyasi va ijrochiligiga oid turli faoliyatlardan tashkil topgan. Ular vokal – xor mashg‘ulotlari, musiqa savodi, musiqa tinglash, bolalar cholg‘u asbobida jo‘r bo‘lish va musiqaga mos ritmik harakatlarni bajarish faoliyatlari hisoblanadi. Musiqa aniq vaqt o‘lchovi bilan belgilangan san’atdir. U boshqa san’at turlaridan o‘zining ifoda vositalari, ya’ni “tili” bilan farq qiladi. Badiiy adabiyot so‘z bilan, tasviriy san’at ranglar bilan, raqs harakat bilan ifodalansa, musiqa san’ati musiqiy tovushlarda vujudga kelgan ohang bilan ifodalanadi. Musiqa bolalarga aktiv emotsional ta’sir ko‘rsatadi, quvontiradi hamda ijodiy kechinmalar uyg‘otadi. Musiqa darsi ko‘pgina fanlar bilan chambarchas bog‘liqdir. Tasviriy san’at, adabiyot, ona tili, matematika, tarix, pedagogika, psixologiya, vocal, ritmika va boshqalar. Musiqa darsini tashkil qilishning asosiy xususiyati shundaki, undagi faoliyatlar har biri mustaqil jarayon bo‘lishiga qaramasdan, bir- biriga uzviy bog‘langan holda olib boriladi va o‘quvchilarning yaxshi o‘zlashtirishi, ijodiy shaxs bo‘lib yetishishlariga zamin yaratadi. Musiqa darsi boshlang‘ich sinflarda 5 faoliyatdan tuziladi:

1. Jamoa bo‘lib kuylash
2. Musiqa savodi
3. Musiqa tinglash
4. Bolalar cholg‘u asbobida jo‘r bo‘lish
5. Ritmik harakatlar bajarish

O‘rta sinflarda esa asosan 3 faoliyatni tashkil qiladi:

1. Jamoa bo‘lib kuylash
2. Musiqa savodi
3. Musiqa tinglashdan iborat

Natija. Darslarni tashkil qilishda pedagog ta’lim metodlari va tamoyillarini albatta qo‘llash zarur. Chunki darslarni qiziqarli va samarali tashkil qilishda ta’limning metodlari va tamoyillari alohida ahamiyat kasb etadi. Ta’lim tamoyillari orqali darslarni to‘g‘ri tashkillashtirish va o‘quvchilarga zarur bo‘lgan bilim va ko‘nikmalarni tezda yetkazish mumkin. Ta’lim jarayoning umumiy qonuniyatlarini o‘rganuvchi qism didaktika deyiladi. Didaktika grekcha so‘zdan olingan bo‘lib, “didayko”–o‘qitish, “didaskoya”–o‘rgatuvchi degan ma’nolarni bildiradi. Didaktikani so‘zma – so‘z tarjima qilsak, ta’lim nazariyasini anglatadi. Ta’lim nazariyasi ta’lim jarayonining tushunchasi, mohiyati, ta’lim qoidalari va uslublarini o‘z ichiga oladi. Musiqiy didaktikaning asosiy kategoriyalarini musiqiy ta’lim jarayoni, prinsiplari, mazmuni, usullari va shakllari tashkil qiladi. Musiqa darslari pedagogikaning didaktik nazariyasi va prinsiplari, ta’lim amaliyotining umumlashma nazariyasi asosida tuziladi. Ta’lim jarayonining bir necha tamoyillari mavjud. Masalan:

- Tizimlilik tamoyili
- Ko‘rgazmalilik tamoyili
- Muntazamlilik tamoyili
- Ilmiylik tamoyili

- Onglilik tamoyili
- Insonparvarlik tamoyili va h.k

Umumiy musiqiy ta'lim tamoyillari musiqa ta'limining asosiy yo'nalishlarini belgilovchi prinsiplardir. Ular o'quvchilarga musiqani chuqurroq tushunish, unga nisbatan his-tuyg'ularini rivojlantirish va ijodiy faoliyatini rag'batlantirishga qaratilgan. Quyidagi tamoyillar umumiy musiqiy ta'limda muhim hisoblanadi:

1. Integratsiya tamoyili: Musiqa ta'limi boshqa fanlar bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ularni bir-biri bilan integratsiyalashgan holda o'qitish zarur. Musiqa matematika, san'at, adabiyot va tarix bilan bog'lanishi mumkin.
2. Ijodkorlik tamoyili: Musiqa o'qitish jarayonida ijodkorlikni rivojlantirishga katta e'tibor qaratiladi. O'quvchilar musiqiy kompozitsiyalar yaratish, improvozatsiya qilish, yangi musiqiy g'oyalarni izlashga o'rgatiladi.
3. Tayyorlovlik tamoyili: Musiqiy ta'limni o'quvchilarning yoshiga va rivojlanish darajasiga mos ravishda tashkil etish zarur. Bosqichma-bosqich bilimlar va ko'nikmalarni rivojlantirish, boshlang'ich, o'rta va ilg'or bosqichlarga ajratilgan dasturlarni qo'llash kerak.
4. Musiqiy did va sezgirlik tamoyili: O'quvchilarda musiqa didini rivojlantirish va uning go'zalligini his qilishni o'rgatish muhimdir. Musiqa va uning elementlariga nisbatan sezgirlikni oshirish orqali o'quvchilar musiqa ijodkorligini oshiradi.
5. Ko'p tomonlama yondashuv tamoyili: Musiqa o'qitishda o'quvchilarning turli ehtiyojlari va qobiliyatlari inobatga olinadi. Musiqa bilan bog'liq har bir element, masalan, ohang, ritm, melodiya, garmoniya va boshqa tushunchalar o'rgatiladi.
6. Faoliyat va amaliyot tamoyili: Musiqa ta'limi o'quvchilarning nazariy bilimlarini amaliy faoliyat orqali mustahkamlashga qaratilgan. O'quvchilarni musiqa asboblarini chalish, xor va ansambllarda qatnashish kabi faoliyatlarga jalb qilish zarur.
7. Yosh va qobiliyatga moslashuv tamoyili: Musiqa ta'limi yosh va qobiliyat darajasiga qarab individual yondashuvni taqozo etadi. Har bir o'quvchi o'ziga mos ritmda rivojlanishi kerak.

Bu tamoyillar umumiy musiqiy ta'lim jarayonini samarali va mazmunli qilishda asosiy yo'nalishlarni belgilaydi. Umumiy musiqiy ta'lim tamoyillari dars jarayonida samarali bo'lishi uchun bir necha asosiy jihatlarga e'tibor qaratish zarur. Bu tamoyillar o'quvchilarning musiqiy ko'nikmalarini, hissiyot va estetik tafakkurini rivojlantirishga yordam beradi. Bularning barchasi musiqiy ta'lim jarayonida o'quvchilarning musiqiy mahorat va bilimlarini kengaytirish, ular orasida musiqaga bo'lgan qiziqishni oshirish va umuman musiqiy estetikani anglashni ta'minlashga yordam beradi.

Xulosa. Musiqa madaniyati darslarining asosiy didaktik tamoyillari quyidagilarni o'z ichiga oladi: tizimlilik, ilmiylik va davomiylik tamoyili. Mashg'ulotlar ya'ni darslarda tashkillashtirishda o'quv materiali bolalarning bilim darajasiga mosligi, nota o'qish va notadan kuylash qoidalarini to'g'ri tushuntirish, repertuar tanlashda bolalarning ovoz rivojlanish qonuniyatlarini hisobga olish ilmiylik tamoyilini tashkil etadi.

Mashg'ulotda barcha o'quv faoliyati va keyingi mashg'ulotlarning o'zaro mantiqiy bog'lanishi tizimlilik tamoyilini tashkil qiladi. Tizimlilik deganda, kuylash va tinglash uchun tanlangan asarni bilim va malaka darajasiga ko'tarib, soddadan murakkabga, noma'lumdan ma'lumga qarab o'zlashtirib borish tushuniladi. Mashg'ulotning har bir faoliyatini o'z vaqtida tashkillashtirish, har bir faoliyat davomida pedagogik maqsadlarni amalga oshirish davomiylik tamoyili demakdir.

Umumiy musiqiy ta'lim tamoyillari musiqiy ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish uchun zarur asosiy yondashuvlarni belgilaydi. Bu tamoyillar o'quvchilarning musiqiy qobiliyatlarini, hissiy va estetik dunyoqarashlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Umuman olganda, umumiy musiqiy ta'lim tamoyillari o'quvchilarning musiqaga bo'lgan munosabatini chuqurlashtirish, ularni

ijodiy va hissiy jihatdan rivojlantirishga yordam beradi. Bu tamoyillar musiqiy ta'limni samarali, ko'p qirrali va o'quvchilarni musiqaga qiziqtiradigan jarayonga aylantiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "Sharq taronalari" o'n uchinchi xalqaro musiqa festivalining ochilish marosimidagi nutqi. 26.08.2024 // URL: https://president.uz/oz/lists/view/7498

2. "Musiqiy o'qitish metodikasi" - Jo'rabek Yarashev, Dilnavoz Muratova. Buxoro 2021 https://elib.buxdupi.uz/books/

3. "Musiqa pedagogikasi" – Q.B. Panjiyev. TDPI 2018 http://exujjat.tdpu.uz/

4. "Musiqiy o'qitish metodikasi" – Tohirjon Ortiqov. Toshkent 2010

5. Musiqiy ta'lim asoslari" (The Elements of Music Education) - Elliot Eisner

6. "Musiqa ta'limida metodologiya" - David J. Elliott

7. "Musiqa pedagogikasi" (Music Pedagogy) - Barbara A. Tagg

8. "Musiqa va ta'lim: Nazariyalar va amaliyot" (Music and Education: Theory and Practice) – David Lines

9. "Musiqa o'qitish metodikasi: Yangi yondashuvlar" – Z.A. Toshpulatova

10. "Musiqa ta'limi metodlari" – T.R. Shodmonov

11. Shaxsni shakllantirishda musiqaning roli https://ilmiybaza.uz/

UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA MUSIQA TA'LIMINING NAZARIY ASOSLARI

Allayarova Nargiza Narimanovna
Urganch davlat pedagogika instituti San'atshunoslik kafedrasi dotsent v.b.,
allayarova_nargiza@gmail.com
Nazarova Matluba Feruzbek qizi
Urganch davlat pedagogika instituti magistranti, matluba0727@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqola umumta'lim maktablarida musiqa ta'limining nazariy asoslarini tahlil qilishga qaratilgan. Maqolada musiqa ta'limining pedagogik, psixologik, metodik va estetik asoslari yoritilgan. O'quvchilarda musiqiy did va estetik his-tuyg'ularni shakllantirishda musiqa ta'limining ahamiyati va uning ta'lim jarayonidagi o'rni ko'rsatiladi. Musiqa ta'limining nazariy asoslari bo'yicha xorij adabiyotlari ham tahlil qilinib, Kodali metodologiyasi, Yaponiyada musiqa ta'limi, Finlandiyaning musiqiy ta'lim tizimi va boshqa Evropa mamlakatlaridagi tizimlar o'rganilgan. Har bir yondashuv o'quvchilarning musiqiy salohiyatini rivojlantirish, estetik qadr-qimmatlarni shakllantirish va jamiyatda ijtimoiy mas'uliyatni oshirishga xizmat qiluvchi elementlar sifatida ajratilgan. Maqolada xorij adabiyotlaridan olingan tahlillar orqali musiqa ta'limining metodologik va pedagogik xususiyatlari muhokama qilingan.

Kalit so'zlar: musiqa ta'limi, estetik did, intellektual salohiyati, psixologik prinsiplari, pedagogik prinsiplari, didaktik yondashuv, metodik yondashuv, ahloqiy-estetik his-tuyg'u, nazariy asoslar, ijodiy qobiliyat, estetik tarbiya.

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ МУЗЫКАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ В ВУЗАХ

Аннотация. Данная статья направлена на анализ теоретических основ музыкального образования в общеобразовательной школе. В статье раскрыты педагогические, психологические, методические и эстетические основы музыкального образования. Показана значимость музыкального образования в формировании музыкального вкуса и эстетического чувства у учащихся и его место в образовательном процессе. Также была проанализирована зарубежная литература по теоретическим основам музыкального образования, изучена методика Кодали, музыкальное образование в Японии, финская система музыкального образования и системы в других европейских странах. В каждом подходе выделяются элементы, служащие развитию музыкального потенциала учащихся, формированию эстетических ценностей, повышению социальной ответственности в обществе. Методологические и педагогические особенности музыкального образования рассматриваются в статье на основе анализа зарубежной литературы.

Ключевые слова: музыкальное образование, эстетический вкус, интеллектуальный потенциал, психологические принципы, педагогические принципы, дидактический подход, методический подход, нравственно-эстетическое чувство, теоретические основы, творческие способности, эстетическое воспитание.

THEORETICAL FUNDAMENTALS OF MUSIC EDUCATION IN HIGH SCHOOLS

Abstract. This article is aimed at analyzing the theoretical foundations of music education in secondary schools. Pedagogical, psychological, methodical and aesthetic foundations of music education are covered in the article. The importance of music education in the formation of musical taste and aesthetic feelings in students and its place in the educational process are shown.

Foreign literature on theoretical foundations of music education was also analyzed, Kodali methodology, music education in Japan, Finnish music education system and systems in other European countries were studied. Each approach is distinguished as elements that serve to develop students' musical potential, form aesthetic values, and increase social responsibility in society. Methodological and pedagogical features of music education are discussed in the article through analyzes from foreign literature.

Key words: music education, aesthetic taste, intellectual potential, psychological principles, pedagogical principles, didactic approach, methodical approach, moral-aesthetic feeling, theoretical foundations, creative ability, aesthetic education.

Kirish. Musiqa ta'limi umumta'lim maktablarida o'quvchilarning san'atga, ayniqsa musiqaga bo'lgan qiziqishini rivojlantirish, estetik didini shakllantirish va intellektual salohiyatini oshirishda muhim o'rin tutadi. Musiqa ta'limining nazariy asoslari esa ushbu fanni o'qitish va o'rganishning metodik, psixologik va pedagogik prinsiplarini belgilaydi. Musiqa ta'limi nazariyasining asosiy maqsadi - yosh avlodni musiqaning go'zalligi va kuchi bilan tanishtirish, ularda musiqiy estetik his-tuyg'ularni uyg'otish va ularning tasavvurini kengaytirishdir.

Xorij adabiyotlar tahlili. Umumta'lim maktablarida musiqa ta'limining nazariy asoslari xorij adabiyotlarida keng yoritilgan bo'lib, bu borada turli pedagogik yondashuvlar va amaliy tajribalar o'rganilgan. Musiqa ta'limining nazariy asoslari borasida turli ilmiy tadqiqotlar va xorijiy manbalar mavjud. Quyida ba'zi asosiy adabiyotlarni tahlil qilamiz:

1. Koday, Y. (1974) "The Kodaly Method" – Koday metodologiyasi musiqa ta'limida o'quvchilarga musiqa tilini o'rgatishda bosqichma-bosqich yondashuvni ilgari suradi. Bu metodning asosiy tamoyili bolalar uchun musiqa o'rganishni tabiiy va qulay qilishdir. Koday, musiqa ta'limining nazariy asoslarida, musiqaning tinchlik, go'zallik va o'rganish jarayonidagi rolini ta'kidlaydi. Ushbu metodologiya umumta'lim maktablarida keng qo'llaniladi va o'quvchilarning musiqiy ritm, ton va notalarni tushunish qobiliyatini rivojlantiradi.
2. Gardner, H. (1983). "Frames of Mind: The Theory of Multiple Intelligences" – Gardnerning "Ko'p aql" nazariyasi musiqani o'rganishni o'quvchilarning intellektual salohiyatining bir qismi sifatida ko'rib chiqadi. Musiqaning estetik va hissiy jihatlari, shuningdek, uning bolaning umumiy rivojlanishiga ta'siri yoritiladi. Bu adabiyot musiqaning boshqa bilim sohalari bilan aloqalarini o'rganishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi.[9]
3. Juntunen, M. (2000) "Finnish Music Education: A Historical Perspective" – Finlandiya musiqa ta'limining tarixiy va metodologik rivojlanishi haqida so'z boradi. Ushbu asar Finlandiya musiqa ta'limining samaradorligini tahlil qilib, uning o'quvchilarga musiqiy va estetik ko'nikmalarni qanday taqdim etishini ko'rsatadi. Finlandiyada musiqaning bolalar tarbiyasidagi ahamiyati va uning ijtimoiy vazifalari haqida ham muhim ma'lumotlar mavjud.
4. Yasuda, T. (1999) "The Role of Music Education in Japan" – Yaponiyada musiqa ta'limining rivojlanishi va uning o'quvchilarga ta'siri haqida izlanish olib borilgan. Bu adabiyotda musiqa ta'limining jamiyatdagi roli, musiqiy an'analar va yapon pedagogikasining musiqaga bo'lgan yondashuvi keng tahlil qilinadi. Yaponiyadagi musiqiy ta'limning o'quvchilarning hissiy va ijtimoiy rivojlanishiga qo'shgan hissasi muhim o'rin tutadi [9].
5. V. A. Makarova (2001) "Musiqa Ta'limi Psixologiyasi" – Ushbu adabiyot musiqa ta'limining psixologik aspektlarini o'rganadi, musiqaning inson psixikasi, emotsional va hissiy rivojlanishiga qanday ta'sir qilishi haqida ma'lumot beradi. Makarova musiqaning o'quvchilarning umumiy psixologik holati va ijtimoiy munosabatlariga qanday ta'sir qilishini ilmiy nuqtai nazardan yoritadi.

Musiqa haqida Ibn Sino o'zining besh asarida yozgan. Bu "Kitob ash-shifo", ("Shifo kito-

bi”) nomli ko‘p jildlik qomusiy asarning musiqa haqidagi bo‘limidir. Ibn Sinoning ta’rificha san’at, jumladan, musiqa fandir. Bundan san’atning “aql bilan idrok etish” yoki “buyumlarni bilish” mohiyati kelib chiqadi. Ibn Sino musiqaning tarbiyaviy mohiyatini alohida ta’kidlab o‘tgan [7]. Bunda san’at vositasi orqali estetik didni tarbiyalashga asosiy e’tibor qaratilgan. Buyuk olim ta’kidlaydiki, shaxsni har tomonlama kamol toptirish uchun ikki tomonlama-jismoniy barkamollik uchun jismoniy mashqlar, ma’naviy rivojlanishi uchun musiqa va boshqa san’at turlari orqali ta’sir o‘tkazish lozim. Buyuk allomalar keng dunyoqarash, ko‘p qirrali ilmga ega bo‘lishlari bilan bir qatorda hunarga, kasbga ham mehr qo‘ygan insonlar sifatida tarixdan joy olganlar. Forobiy ham o‘z navbatida nazariy jihatdan musiqashunos, amaliy jihatdan taniqli bastakor, xalq uchun yaqin va qadrdon siymo sifatida nom chiqargan ustozlardan bo‘lgan. U o‘zining “Musiqa haqida so‘z” asarida musiqa tarixi, nazariyasi, musiqa asboblari, bastakorlik va ijrochilik san’ati bo‘yicha o‘z davri uchun mukammal ma’lumotlar bera olgan. Ko‘pchilik yevropalik arabshunos olimlarning ta’kidlashlariga qaraganda, Forobiyning [11] musiqa haqidagi fikr va mulohazalari, asarlari, unga qadar musiqa haqida yaratilgan asarlardan nafaqat o‘zining ustunligi, balki originalligi, noyobligi va yangi nazariyalar bilan to‘ldirilganligi sababli, butun Sharq va Yevropa musiqa taraqqiyotiga qo‘shilgan ulkan ulushdir. Forobiy musiqani, insonda yuksak axloq namunalarini shakllantiruvchi, unda estetik did va go‘zallik tuyg‘ularini uyg‘otuvchi va hatto inson sihat-salomatligiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatuvchi vosita deb ta’riflaganligi bizga ma’lum.

Muhokama. Musiqa ta’limining nazariy asoslari

1. **Pedagogik asoslar -** Musiqa ta’limining pedagogik asoslari ta’lim jarayonining samarali bo‘lishi uchun zarur bo‘lgan metodik usullarni, yondashuvlarni va ta’lim jarayonining tashkilotini belgilaydi. Pedagogik prinsiplarga ko‘ra, musiqani o‘rganishda o‘quvchilarni boshqalar bilan birgalikda ijro etish, musiqiy kompozitsiyalarni tushunish va ularni amalga oshirishga qaratilgan faoliyatni o‘rgatish muhimdir. Bu esa musiqiy fikrlashni, estetikani va ijodkorlikni rivojlantirishga yordam beradi.

2. **Psixologik asoslar -** Musiqa ta’limining psixologik asoslari o‘quvchilarning musiqaga bo‘lgan psixologik qiziqishi, musiqiy qobiliyatlari va ularning yoshiga mos musiqiy bilimlarni shakllantirishga qaratilgan. Psixologik jihatdan, musiqaning bolaning hissiy va intellektual rivojlanishida alohida o‘rni bor. Musiqa orqali bolalar o‘zlarining hissiy tajribalari va dunyoqarashini kengaytirishadi. Bu esa nafaqat ularning musiqiy bilimlarini, balki umumiy dunyoqarashlarini ham o‘zgartiradi.

3. **Sotsial Pedagogik asoslar -** Musiqa ta’limining sotsial pedagogik asoslari musiqaning ijtimoiy ahamiyatini va uning o‘quvchilarning shaxsiyati, jamiyatdagi o‘rni va mas’uliyatlarini rivojlantirishdagi rolini tushuntiradi. Musiqaning ijtimoiy o‘rni, jamiyatda umumiy estetik qadr-qimmatlarning rivojlanishida va xalqlarning madaniy merosini saqlashda muhimdir. O‘quvchilar musiqiy ta’lim orqali ijtimoiy muhitda birgalikda ishlash, boshqalar bilan hamkorlik qilish va jamiyatga foydali shaxs sifatida tarbiyalanadilar.

4. **Metodologik asoslar -** Musiqa ta’limining metodologik asoslari o‘qitish usullarini, texnikasini va materiali haqida so‘z yuritadi. Musiqa darslarida o‘quvchilarga samarali bilimlarni berish uchun, didaktik va metodik yondashuvlar muhim ahamiyatga ega. Musiqa o‘qituvchisi dars davomida turli usullarni qo‘llaydi: tinglash, ijro etish, tahlil qilish va yaratish. Bu usullar orqali o‘quvchilarda musiqiy tasavvurlarni shakllantiradi.

5. **Estetik asoslar -** Musiqa ta’limining estetik asoslari musiqaning go‘zalligi va uning estetik ta’sirini o‘quvchilarda uyg‘otishga qaratilgan. Musiqa nafaqat intellektual faoliyatni rivojlantiradi, balki insonning ichki dunyosini boyitadi, uning sezgirligini oshiradi. Estetik didni shakllantirish orqali o‘quvchilar musiqiy asarlarni chuqurroq anglash va baholash qobiliyatiga ega bo‘ladilar.

Dars-o‘quv tarbiya jarayonida maqsadlarni amalga oshirishda asosiy ta’lim shakli hisoblana-

di. O‘tkazilgan dars o‘quvchilarni ham, o‘qituvchini ham qanoatlantirish uchun ma’lum darajada umumiy bo‘lgan ba’zi bir talablarga javob berishi kerak. Dars fan ishchi dasturida o‘z o‘rniga ega bo‘lib, maqsadi aniq belgilangan bo‘lishi kerak. Dars o‘tish jarayonida shakllantirilishi lozim bo‘lgan bilim, iqtidor va ko‘nikmalar alohida aniqlanishi darkor. Shu bilan birga mazkur dars davomida bilim, iqtidor va ko‘nikmalarning erishiladigan darajasi ham belgilanishi ma’qul bo‘ladi. Darsda ishlatiladigan metodlar, vositalar turkumi aniq bo‘lishi oldindan belgilanishi maqsadga muvofiqdir. Darsga qo‘yiladigan didaktik talablardan biri shuki, beriladigan o‘quv materiali tizimli ravishda osondan-qiyinga, oddiydan-murakkabga, o‘quvchilar yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda amalga oshirilishi kerak[2].

Darsga qo‘yiladigan tashkiliy talablar. Mavzuni taqvimli rejalashtirish asosida dars o‘tkazishning aniq ishlab chiqilgan rejasi mavjud bo‘lishi va dars o‘z vaqtida boshlanib, o‘z vaqtida tugashi kerak. Darsning mantiqiy izchilligi, tugallanganligi va darsning boshidan to oxirigacha o‘quvchilar ongli intizomi ta’minlanmog‘i lozim. Darsni tashkil etishda turli xil vositalar, jumladan o‘quv-texnik va ko‘rgazmali qurollardan foydalanish ko‘zda tutiladi. Dars juda ham turli-tuman tarkibiy tuzilishlarga ega bo‘lib, darsni bir marta doimiy ravishda mavjud bo‘ladigan ko‘rinish tarzida rejalashtirish va o‘zgarmaydigan, ya’ni qotib qolgan namuna asosida olib borish mumkin emas. Darsning tarkibiy tuzilishiga yuqorida qayd etib o‘tilgan omillar qatorida mazkur sinfda ishlashning haqqoniy shart-sharoitlari, shuningdek, o‘qituvchi ish faoliyatining ijodiy xarakteri katta ta’sir ko‘rsatadi. Har bir dars boshqa darslardan o‘zining o‘ziga xos jihatlariga ko‘ra farq qiladi.

Darsda har doim o‘qituvchining maxsus “Pedagogik yondashuv tarzi” ni ko‘rish mumkin. Masalan: Kombinatsiyalashgan ya’ni rejalashtirilgan dars quyidagi ko‘rinishda tashkil etiladi: tashkiliy ish qism, o‘quvchilarga berilgan uy ishlarining bajarilishini tekshirish, o‘qituvchi tomonidan yangi mavzuni bayon etish, o‘rganilgan mavzu materiallarini mustahkamlash, uyga vazifa hamda topshiriqlar berish va hokazo. Darsni yutug‘i va uning natijalari nafaqat o‘qituvchining tayyorligiga, balki o‘quvchilarning bilimiga ham bog‘liq bo‘ladi. Afsuski, ushbu masalaga ko‘pgina o‘qituvchilar o‘zlarining amaliy ishlarida yetarli darajada e’tibor bermaydilar. O‘qituvchi darsda o‘quvchilarga bo‘lgan talabchanlikni, ya’ni hurmat, ziyraklik, pedagogik mavqeini saqlagan holda yondashishni namoyon etish bilan muvofiqlashtirgan holda olib borishi lozim.

Darsda o‘quvchilarga o‘qituvchining murojaat shakli ham farqsiz emas. O‘quvchilarni o‘z ism-shariflari bilan atashi maqsadga muvofiqdir. Pedagog sifatida o‘zligini namoyon etishni talab qilish zarur holatlarda o‘qituvchi tomonidan o‘z hissiyotini aks ettirishni inkor etmaydi. U darsda faqatgina ziyrak, mehribon, quvnoq, xushyor, ko‘ngilchan bo‘libgina qolmasdan, balki jiddiy, xafa va noroziligi bilingan qiyofada bo‘lishi ham kerak. O‘qituvchining pedagogik mahorati, uning o‘quvchilarga munosabatidagi ishonch, o‘quv faoliyatini tashkil etishning turli-tuman shakllaridagi darsda ularning hamjihatligidagi izlanuvchanligini tashkil etish, o‘quvchilarning ishlariga haqqoniy baho berish, ularga doimo zaruriy yordam ko‘rsatishga tayyor turishlik kabi ishlar bularning barchasi juda katta didaktik va tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘ladi.

O‘quvchilarda jamoaviy mehnat malakalarini hamda ijobiy ahloqiy fazilatlarni shakllantiradi. Umumta’lim maktablarida musiqa darsining asosiy maqsadi–o‘quvchilarga musiqa san’atini go‘zallik qonunlari asosida o‘rganish malakasini singdirish va ularda musiqa madaniyatini tarkib toptirishdan iborat. Mazkur maqsad o‘qituvchi oldiga o‘quvchilarda musiqaviy-badiiy did, axloqiy-estetik his-tuyg‘ularni tarkib toptirish, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, ularda musiqa san’atiga nisbatan qiziqishni va musiqaviy faoliyatida badiiy ehtiyojni kuchaytirish, musiqa savodxonligi madaniyatini shakllantirish, musiqa orqali inson his-tuyg‘ulari va orzu-umidlari ifodasi ekanligi haqida tushuncha hosil qilish kabi qator vazifalar qo‘yadi. O‘quvchilarda musiqaga mehr va havas uyg‘otish, ularning musiqa saviyasini oshirish uchun ashula va musiqa sohasida olib boriladigan

sinfdan tashqari ishlarni har tomonlama kuchaytirish lozim.

Musiqiy ta'limning asosiy maqsadi shaxsning estetik va ma'naviy kamolotini ta'minlashdir. Bu jarayon musiqiy bilim va ko'nikmalarni shakllantirish, ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish, musiqiy didni o'stirish hamda milliy va umumbashariy madaniyatga bo'lgan hurmatni tarbiyalash orqali amalga oshiriladi. Musiqa san'ati orqali shaxsning emotsional-intellektual rivojlanishi ham ta'minlanadi.

Musiqiy ta'limning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- Musiqiy bilim berish: O'quvchilarga musiqa nazariyasi, uslublar, janrlar va kompozitorlar ijodi haqida bilim berish.
- Ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish: O'quvchilarning ijodiy tafakkuri va musiqiy qobiliyatlarini rivojlantirish.
- Madaniy merosni o'rgatish: Milliy va umumbashariy musiqiy merosni o'rgatish, unga qiziqish uyg'otish.
- Estetik tarbiya: Talabalarning go'zallikni his qilish qobiliyatlarini rivojlantirish va estetik didni shakllantirish.
- Ijro mahoratini oshirish: Talabalarning musiqa asboblarida chalish yoki vokal ijrochilik mahoratini rivojlantirish.
- Musiqaga qiziqishni oshirish: Musiqa san'ati orqali o'quvchilarda musiqaga bo'lgan qiziqish va muhabbatni uyg'otish.
- Hamkorlik va kommunikatsiya ko'nikmalari: Jamoaviy musiqa ijrosi orqali hamkorlik va muloqot qilish ko'nikmalarini rivojlantirish.
- Milliy ong va o'zlikni anglash: Milliy qadriyatlar va urf-odatlarni musiqiy vositalar orqali targ'ib qilish, yoshlarni o'z milliy musiqiy merosiga hurmat bilan qarashga o'rgatish.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida musiqa fanini o'qitishning asosiy maqsadi o'quvchilarda musiqa madaniyatini shakllantirish ularni zamon talabiga javob bera oladigan barkamol inson qilib voyaga yetkazishdir. Maktabda musiqa darslarini o'qitishning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- o'quvchilarning musiqa san'atiga bo'lgan qiziqishi va mehr muhabbatini oshirish;
- musiqiy faoliyatlar jarayonida o'quvchilarni musiqiy qobiliyatlari musiqiy uquvi, ovozi, diqqat-e'tibori va ijodkorlik his-tuyg'ularini o'stirish;
- musiqiy asarlarning badiiy g'oyaviy mazmuni vositasida axloqiy estetik ruhda tarbiyalash;
- musiqa darslarida o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish, mehnatga muhabbat, vatanga muhabbat, kattalarga hurmat tuyg'ularini shakllantirish.

Mazkur maqsad va vazifalarni amalga oshirish o'qituvchining kasbiy va pedagogik mahoratlariga bog'liq. Har qanday san'atkor ham, maktabda musiqa madaniyati darslarini olib borolmaydi. Buning uchun musiqa o'qituvchisi avvalo bolalarni sevishi, pedagogika, psixologiya, bolalar fiziologiyasi, musiqa o'qitish metodikasi hamda o'z musiqiy kasbiy fanlarini puxta o'zlashtirgan bo'lishi kerak. Musiqa o'qituvchisi o'z kasbiga va bolalarga mehr qo'ygan, yuksak madaniyatli, keng dunyoqarashga ega bo'lgan, zamon bilan hamnafas inson bo'lishi lozim.

Donishmand xalqimiz azaldan kuy va qo'shiqni bola qalbiga tez yo'l topa olishi, uning ruhiyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi, yaxshi xulq va odob, mehr oqibat, sabr-toqat, kattalarga hurmat fazilatlarini musiqa orqali tarkib topishini azaldan anglab yetgan. Oilada farzandni qo'shiq aytishga, soz chalishga o'rgatish ota-onaning orzusi bo'lgan. Bola musiqa bilan ona allasi orqali tanishib, musiqadan umrbod ozuqa oladi. Chunki bola hali yurishni, so'zlashni bilmay turib, musiqani eshitib, turli qo'l harakatlari bilan musiqaga munosabatini bildiradi. Shuning uchun azaldan har bir oilada musiqa cholg'u asboblaridan dutor, doira, rubob saqlash urf-odat bo'lib qolgan. Musiqadan

ozuqa olish uchun esa, inson sof qalb egasi, yuksak ma'naviyatli, go'zallikni his eta oladigan inson bo'lishi kerak.

"Har qanday jamiyatning kelajagi yoshlar ekan, kelajagi buyuk davlatning barpo etilishi, ularni qanday tarbiya olishiga bog'liq. Chunki ma'naviy jihatdan qudratli davlat, ijtimoiy jihatdan kuchli bo'ladi" deb ta'kidlaydi o'z asarlarida yurtboshimiz I. A. Karimov. O'qituvchilik kasbi sharafli, lekin juda murakkab kasbdir. O'qituvchi musiqa nazariyasini egallashi bilan birga, bolalarni sevishi, pedagogik amaliyotni ham o'tgan bo'lishi kerak. Chunki maktab hayotidagi pedagogik jarayon juda xilma-xildir. Bu esa musiqa o'qituvchisidan puxta bilim, amaliy tayyorgarlikni talab etadi.

Yetti yillik o'qish davrida musiqa sohasida muntazam sur'atda ish olib borilishi natijasida o'quvchilar musiqa savodiga ega bo'lib, musiqani sevadigan, yirik musiqa asarlarini, shuningdek, konsertlarni, radio va televideniye orqali beriladigan musiqali eshttirishlarni mehr qo'yib tinglaydigan, badiiy havaskorlik to'garaklarida yetarli tayyorgarlik bilan faol qatnashadigan kishilar bo'lib voyaga yetishlari kerak. Bu tadbirlarni amalga oshirishda sinf rahbarlari va ota onalar musiqa o'qituvchisiga yaqindan yordam berishlari lozim, ya'ni ular bu borada ham hamkorlik qilishlari zarur.

Bolalarda musiqaga mehr va havas uyg'otish, maktab o'quvchilarining musiqiy saviyasini oshirish uchun ashula va musiqa sohasida olib boriladigan sinfdan tashqari ishlarni har tomonlama kuchaytirish lozim. Boshlang'ich va 9 yillik maktablarning har birida xor to'garaklari, sharoiti bor bo'lgan maktablarda cholg'u asboblari bo'lishi kerak. Ayni vaqtda o'quvchilarga yakka tartibda musiqa o'rgatish ishini uyushtirishga e'tibor berish, bu ishga ota-onalar jamoatchiligini jalb etish yaxshi samara beradi, degan fikrlar mavjud.

Musiqa madaniyati darsining har bir faoliyat turida shaqildoqlar, uchburchaklar, metallofon, doirachalar kabi turli bolalar musiqa asboblarida chalish, kuy va qo'shiqlarga mos raqs elementlarini bajarish, musiqa asboblarini chalishni qo'l harakati bilan imitatsiya qilish, chapak chalish va dirijorlik qilish kabi elementardan keng foydalanish darslarni yanada qiziqarli va jozibali bo'lishini ta`minlaydi. Musiqa darsi boshqa darslardan o'zining badiiyligi, qiziqarliligi, va bolalarga ko'proq ijodiy zavq, emotsional tuyg'ular va obrazli kechinmalar uyg'otishi bilan ajralib turadi.

Musiqa o'qituvchisi kasbi insondan doimo o'z shaxsini takomillashtirish, o'zining musiqiy qiziq ishlarini, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishni talab etadi. Musiqa o'qituvchisi nafaqat o'z mutaxassis ligi «sirlarini» a'lo darajada bilishi lozim, balki maktabda o'quvchilarning mafkuraviy dunyoqarash larini, tushuncha va tasavvurlarini shakllantirishda lozim bo'lgan bilimlarga ega bo'lishi shart. Musiqa o'qituvchisi: musiqa asbobini yaxshi chalishi, yoqimli ovozda kuylashi (darsda audio yozuvlardan foydalanishga to'g'ri keladi, ammo o'qituvchining jonli ijrosi bolalarda katta hissiyot hosil qiladi);

– nozik musiqiy did va rivojlangan musiqiy eshituv qobiliyatiga ega bo'lishi;
– musiqiy-nazariy bilimlar doirasiga ega bo'lishi;
– musiqiy asarlarni badiiy-pedagogik tahlil qila olishi;
– dirijyorlik malakalarini ko'rsata olishi;
– musiqani boshqa fanlar bilan uzviy bog'lay olishi katta ahamiyat kasb etadi.

Musiqa boshqa fan turlari bilan yaqin munosabatlarda bo'lishi shubhasizdir. Ularning jonli alo qalari musiqaga xos intonatsion asosi adabiyot bilan yaqinligi, ritmik uyushqoqligi she'riyat va raqs san'atiga o'xshashligi, asarlarining mutano sib tuzilishi arxitektura shakllariga muvofiqligida ko'rinadi. Bunga qo'shib aytish lozimki, adabiyot, tasviriy san'at, haykaltaroshlik asarlari ko'pincha musiqiy asarlar uchun asos sifatida xizmat qiladi.

Xulosa. Umumta'lim maktablarida musiqa ta'limi, uning nazariy asoslariga tayangan holda, o'quvchilarda estetik his-tuyg'ularni uyg'otish, musiqiy tafakkurni rivojlantirish va ijtimoiy jihat-

dan mas'uliyatli shaxslarni tarbiyalashda katta ahamiyatga ega. Musiqa ta'limining nazariy asoslari pedagogik, psixologik, sotsial pedagogik, metodologik va estetik komponentlardan tashkil topib, o'quvchilarning umumiy rivojlanishiga, musiqiy va madaniy bilimlarining shakllanishiga xizmat qiladi.

Iqtiboslar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 2 fevraldagi "Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-112-son qarori. - https://lex.uz/uz/docs/-5849580
2. G. M. Sharipova, D. F. Asamova, Z. I. Xodjayeva. "Musiqa o'qitish nazariyasi metodikasi va maktab repertuari". Toshkent-2014.
3. Yusupova N. "Musiqa savodi, metodika va ritmika" Toshkent 2010. Musiqa nashriyoti.
4. Mahkamova Sh. R. "Imkoniyati cheklangan bolalar va har tomonlama yetuk avlodni tarbiyalashda musiqaning o'rni". 2020
5. Mahkamova Sh. R. Таълим жараёнида ўқувчи ва талабалар билимини баҳолаш усуллари ва методикаси // "Экономика и социум" №11(90) 2021//
6. Imonova M. B. "Musiqaning inson hissiyotiga ta'siri" Results of National Scientific Research scientific-methodical journal. ISSN: 2181-3639. 2023 y 156-b.
7. Mannopov S. O'zbek xalq musiqa madaniyati. – Toshkent: Yangi avlod, 2004.
8. Soipova D. Musiqiy va musiqiy nazariy bilimlarni o'zlashtirish jarayonini takomillashtirish. – T.: 2005.
9. Nurmatova M. A. "Musiqa o'qitish metodikasi va maktab repertuari» fani bo'yicha ma'ruza matnlari. - Urg.: 2007.
10. Qobil Voxidov. "Umumta'lim maktablarida musiqa madaniyati darsini o'tishning yangicha uslublari" Pedagogs international research journal www.pedagoglar.uz 63 volume-2, issue1, january–2022
11. Tashmatova Azatgul. Ijrochilik san'ati tarixi. Musiqa oliy ta'lim muassasalari uchun darslik. – Toshkent: "Musiqa" nashriyoti, 2017. - 34-b.
12. Fehrulloh T. "Al-Farobiyga nisbat berilgan yangi platonik asar: Risole fi'lilmi'l-ilohiy", "Divan ilmiy tadqiqoti", 2006 yil, 20-son: 185-226.

TALABALARDA 4K MODELI ASOSIDA EKOLOGIK KO‘NIKMALARNI RIVOJLANTIRISH

Bekchanova Feruza Marimboy qizi
Urganch davlat pedagogika instituti Makabgacha ta’lim va tabiiy fanlar kafedrasi o‘qituvchisi,
feruzamarimboyevna@gmail.com

Anotatsiya. Mazkur maqolada, bugungi kundagi ta’lim tizimida innavatsion texnologiyalar, yondashuvlardan foydalanib olib borilayotgan samarali ta’lim-tarbiya jarayoni haqida gap boradi. Shuningdek, ta’lim tizmida hozirda muhim ahamiyat kasb etayotgan, yangilik sifatida qaralayotgan, 4K modeli tahlil qilinadi va u haqida uning talabalarning ta’lim tarbiyasidagi ahamiyati haqida gap boradi.

Kalit so‘zlar: “4K modeli” ta’lim, tarbiya, malaka, ko‘nikma, ekologiya, ekologik ko‘nikma, oliy ta’lim, texnologiya, yondashuv.

РАЗВИТИЕ ЭКОЛОГИЧЕСКИХ НАВЫКОВ У СТУДЕНТОВ НА ОСНОВЕ МОДЕЛИ 4К

Аннотация. В данной статье говорится об эффективном образовательном процессе, осуществляемом с использованием инновационных технологий и подходов в современной образовательной системе. Также анализируется модель 4К, которая в настоящее время приобретает все большее значение в системе образования и считается новинкой, и обсуждается ее значение в обучении студентов.

Ключевые слова: образование “4К-модели”, обучение, компетентность, навыки, экология, экологические навыки, высшее образование, технология, подход.

DEVELOPMENT OF ENVIRONMENTAL SKILLS BASED ON THE 4K MODEL

Abstract. This article talks about an effective educational process carried out using innovative technologies and approaches in the modern educational system. The 4K model, which is currently gaining increasing importance in the education system and is considered a novelty, is also analyzed, and its significance in student education is discussed.

Key words: education “4K models”, training, competence, skills, ecology, environmental skills, higher education, technology, approach.

Kirish. Zamonaviy ta’lim jarayonida ekologik ko‘nikmalarni rivojlantirish, ayniqsa, talabalarda, katta ahamiyatga ega. Ekologik ko‘nikmalarni shakllantirishning asosiy maqsadi, talabalarga tabiiy resurslarni samarali boshqarish, ekologik muammolarni hal qilishda innovatsion yechimlar ishlab chiqish, va atrof-muhitni muhofaza qilishga doir mas’uliyatni shakllantirishdir. Bunday ko‘nikmalarni rivojlantirishda 4K modeli (Kreativlik, Kollaboratsiya, Kommunikatsiya va Kritik fikrlash) asosida yondashuv, ta’lim jarayonini samarali tashkil etishga yordam beradi. Talabalarda 4K modeli asosida ekologik ko‘nikmalarni rivojlantirish ishi talabalarda ekologik ko‘nikmalarni rivojlantirishda 4K modeli (kreativlik, kollaboratsiya, kommunikatsiya, va kritik fikrlash) asosida yondashuvni tahlil qiladi. Shuningdek, ekologik ko‘nikmalarni shakllantirish - bu talabalarga atrof-muhitni anglash, uning holatini tahlil qilish va uni saqlash bo‘yicha qarorlar qabul qilish imkoniyatlarini berishdir. Bunday ko‘nikmalar nafaqat tabiiy resurslarni boshqarish, balki ijtimoiy va iqtisodiy jihatlardan ham atrof-muhitni muhofaza qilishda muhim ahamiyatga ega.

Adabiyot sharhi. Ta’limdagi yangi texnologiya bo‘lmish 4K modelining yuzasidan

M.A.Ganiyeva 4k modeli va uni amalga oshirish yo‘llarini, G.Sh.Sadikova 4K modelini diversifikatsiya asosida ta’lim texnologiyalariga qo‘llash imkoniyatlarini,[2] U.Jabborov boshlang‘ich sinfda 4K modeli-zamonaviy ta’limga innovatsion yondashuviini,[3] G.H.Xodiyeva modeldan foydalanishning pedagogik xususiyatlarini,[4] S.Himoyeva model orqali o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirishni [5] o‘rganib amaliyotga tadbiq qilganlar.

4K modeli – bu ta’lim jarayonida talabalar uchun zarur bo‘lgan asosiy ko‘nikmalarni belgilab beruvchi pedagogik yondashuvdir. Ushbu model 4 ta muhim ko‘nikmani o‘z ichiga oladi, ular quyidagilar:

1. Kreativlik (Kreativ fikrlash)
2. Kollaboratsiya (Hamkorlik)
3. Kommunikatsiya

Kritik fikrlash (Kritik tahlil)

Kritiklik – bu muammolarni tahlil qilish, fikrlashni chuqurlashtirish va qarorlar qabul qilishda mantiqiy yondashuvni qo‘llash ko‘nikmasidir. Bu ko‘nikma talabalarni har bir holatni chuqur tahlil qilishga, dalillarni ko‘rib chiqishga va turli variantlarni baholashga o‘rgatadi.[1]

Mazmuni. 4K modeli ta’lim jarayonida talabalarning ekologik ko‘nikmalarni shakllantirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Quyida uning ta’lim jarayonida rtutgan o‘rnini ko‘rishimiz mumkin.

Zamonaviy ta’limning talablariga javob beradi. 4K modeli talabalarga zarur bo‘lgan ko‘nikmalarni shakllantiradi, chunki zamonaviy ish bozorida muvaffaqiyatli bo‘lish uchun kreativlik, hamkorlik, kommunikatsiya va kritik fikrlash kabi ko‘nikmalar muhim hisoblanadi.

Faol o‘qitish metodlarini qo‘llashni rag‘batlantiradi. Bu model talabalarning faolligini oshiradi, ularni mustaqil va jamoaviy ishlashga, yangi yondashuvlar yaratishga undaydi.

Inson resurslarini rivojlantiradi. Talabalar o‘z bilimlarini nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham rivojlantiradilar, chunki 4K modeli o‘quvchilarning innovatsion va amaliy ko‘nikmalarini o‘stirishga qaratilgan.

Tadqiqotlarda 4K modeli asosida ekologik ko‘nikmalarni rivojlantirish Ko‘plab ta’lim tadqiqotlarida 4K modeli ekologik ko‘nikmalarni rivojlantirishda muvaffaqiyatli qo‘llanilgan. Quyida bunday tadqiqotlarning ba’zi misollari keltirilgan. Innovatsion ekologik yechimlar yaratish. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, 4K modeli talabalarning ekologik muammolarni hal qilishda yangi va innovatsion yondashuvlar yaratishda yordam beradi. Misol uchun, chiqindilarni kamaytirish va qayta ishlash bo‘yicha talabalar tomonidan ishlab chiqilgan yechimlar, loyiha asosida amalga oshirilgan amaliy tadqiqotlarda yuqori samaradorlikni ko‘rsatgan.[1, 55.B]

Guruhli ish va jamoaviy ishlash. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, 4K modeli asosida ekologik muammolarni hal qilishda talabalar ko‘pincha guruhda ishlashadi. Bu yondashuv ekologik masalalarda turli nuqtai nazarlarni inobatga olish va ijtimoiy hamkorlikni rivojlantirishga yordam beradi. Tadqiqotda talabalar o‘rtasida hamkorlik orqali ekologik masalalar bo‘yicha ko‘plab yangi g‘oyalar va yechimlar ishlab chiqildi.

Ekologik ongni oshirish. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ekologik ko‘nikmalarni rivojlantirishda talabalarning kommunikatsiya ko‘nikmalarini oshirish zarur. Talabalar atrof-muhitni muhofaza qilishni targ‘ib qilishda, odamlar bilan samarali muloqot qilishda va ekologik muammolarni tushuntirishda yanada samarali bo‘lishadi. Kritik fikrlash va ekologik masalalar: 4K modeli asosida olib borilgan tadqiqotlar talabalarni ekologik vaziyatlarni tahlil qilish va yechimlar qabul qilishda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga yordam berdi. Masalan, talabalarning ekosistemalar va tabiat resurslarini saqlashga doir qarorlar qabul qilishdagi yondashuvlari aniqroq va mas’uliyatliroq bo‘ldi.

Natijalar. 4K modelining ta’lim tizimida qo‘llanilishi to‘g‘risida gap ketar ekan, 4K modelin-

ing ekologik ko‘nikmalarni rivojlantirishdagi samarali qo‘llanilishi, talabalarning ekologik masalalar bo‘yicha faol va mas’uliyatli munosabatda bo‘lishiga olib keladi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, 4K modeli orqali talabalar o‘z fikrlarini erkin ifodalash, yangi g‘oyalar ishlab chiqish, turli guruhlarda ishlash va ekologik muammolarni hal qilishda amaliy bilimlarni o‘zlashtiradilar. Bu metod, ayniqsa, ekologik ta’limni chuqurlashtirish va talabalarning amaliy ko‘nikmalarini oshirishda samarali.[4, 581.B]

4K modeli asosida ekologik ko‘nikmalarni rivojlantirishning asosiy jihatlari quyidagilardan iborat:

Kreativlik (Ijodiy fikrlash): talabalar ekologik muammolarni hal qilishda yangi va innovatsion yondashuvlarni ishlab chiqishga, yangi texnologiyalar va yechimlar izlashga undanadi. Ekologik muammolarni hal qilishda ijodiy fikrlash, resurslarni tejash va ularni samarali boshqarish jarayonlarini yaxshilashga yordam beradi.

Kollaboratsiya (Hamkorlik): ekologik muammolarni hal qilishda talabalar jamoaviy ish va hamkorlikni rivojlantiradilar. Guruhlar shaklida ishlash orqali talabalar tabiatni muhofaza qilishga doir birgalikda rejalar ishlab chiqadilar, turli g‘oyalarni muhokama qiladilar va samarali yechimlar topadilar.

Kommunikatsiya (Muloqot): talabalar ekologik mavzularda o‘z fikrlarini aniq va samarali tarzda ifodalashni o‘rganadilar. Bu, ayniqsa, atrof-muhitni muhofaza qilishga doir axborot almashinuvi va qarorlar qabul qilish jarayonlarida muhim ahamiyatga ega. Yaxshi kommunikatsiya orqali talabalar ekologik muammolarni keng auditoriya bilan muhokama qilishni o‘rganadilar.

Kritik fikrlash (Tahlil qilish): talabalar ekologik vaziyatlarni chuqur tahlil qilishni, mavjud resurslar va ularning barqarorligini baholashni o‘rganadilar. Kritik fikrlash talabalarni qarorlar qabul qilishda to‘g‘ri, asosli va samarali yondashuvlarni qo‘llashga undaydi. Ekologik muammolarni hal qilishda, ular mavjud resurslarni qanday boshqarish va ularning kelajakdagi ta’sirini baholashga imkon yaratadi.

Ekologik ko‘nikmalarni rivojlantirishda 4K modelining afzalliklari .Ijodiy va innovatsion yechimlarni ishlab chiqish: Talabalar ekologik muammolarni hal qilishda yangi va kreativ g‘oyalarni yaratishadi.

Tashabbuskorlik va mas’uliyatni oshirish: jamoaviy ishlash va hamkorlik talabalar orasida ekologik mas’uliyatni oshiradi, ular tabiatni saqlashda faol rol o‘ynaydilar.

Ochiq va samarali kommunikatsiya: Ekologik masalalar bo‘yicha samarali muloqot qilish talabalarni omma bilan fikr almashish va tabiatni muhofaza qilishga rag‘batlantiradi.

Mustahkam tanqidiy fikrlash: Kritik fikrlash yordamida talabalar ekologik muammolarni chuqur tahlil qilib, ular haqida eng samarali qarorlar qabul qilishadi.

Olingan natijalarning ishonchliligi. Olingan natija shuni ko‘rsatadiki 4K modeli – bu ta’lim jarayonida talabalar uchun zarur bo‘lgan asosiy ko‘nikmalarni belgilab beruvchi pedagogik yondashuvdir. Ushbu model 4 ta muhim ko‘nikmani o‘z ichiga oladi, ular quyidagilar:

- Kreativlik (Kreativ fikrlash)
- Kollaboratsiya (Hamkorlik)
- Kommunikatsiya
- Kritik fikrlash (Kritik tahlil)

Kritiklik – bu muammolarni tahlil qilish, fikrlashni chuqurlashtirish va qarorlar qabul qilishda mantiqiy yondashuvni qo‘llash ko‘nikmasidir. Bu ko‘nikma talabalarni har bir holatni chuqur tahlil qilishga, dalillarni ko‘rib chiqishga va turli variantlarni baholashga o‘rgatadi.

Bugungi kunda Oliy ta’lim muassasalarida o‘quv-tarbiya jarayonida 4K modeli yondasguvidan foydalanish hamda ularning tarbiyaviy jihatlari bo‘yicha bir qator ilmiy tadqiqot ishlari olib

borilmoqda. Bu borada zamonaviy Talabalarda 4K modeli asosida ekologik ko‘nikmalarni rivojlantirish jarayonida turli xil yondashuvlardan foydalanishni rivojlantirishga yo‘naltirilgan ilmiy tadqiqot ishlari o‘rganib chiqildi.

Muammoni o‘rganishda xorijiy oliy ta’lim muassasalarida qo‘llanilayotgan yondashuvlar, texnologiyalar, zamonaviy qarashlar va ularning tarbiyaviy ahamiyati tushunchalari, ularni qo‘llash usullari, yondashuvlari, me’zonlari va bosqichlari tayanch konsepsiya vazifasini bajardi

Xulosa. Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak Talabalarda 4K modeli asosida ekologik ko‘nikmalarni rivojlantirish, ekologik masalalarni hal qilishda muhim ahamiyatga ega. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, kreativlik, kollaboratsiya, kommunikatsiya va kritik fikrlash orqali talabalar ekologik masalalarda innovatsion yondashuvlarni ishlab chiqadilar, jamoaviy ishlashni o‘rganadilar va samarali qarorlar qabul qilishadi. Bu yondashuv talabalarni ekologik ongni oshirishga, barqaror rivojlanishga hissa qo‘shishga va tabiiy resurslarni saqlashga tayyorlaydi.

Yana ham e’tiborli tamoni shundaki, 4K modeli ekologik ko‘nikmalarni rivojlantirishda samarali yondashuv hisoblanadi, 4K modeli (kreativlik, kollaboratsiya, kommunikatsiya va kritik fikrlash) talabalarda ekologik ko‘nikmalarni shakllantirishda kuchli pedagogik vosita sifatida namoyon bo‘ladi.

Ushbu model ekologik masalalarni hal qilishda talabalarga ijodiy, jamoaviy va tahliliy yondashuvlarni o‘rgatadi. Natijada, talabalar ekologik muammolarni faqat nazariy emas, balki amaliy jihatdan ham samarali hal qilishni o‘rganadilar.

Shuningdek, Kreativlik va innovatsion yondashuvlar 4K modeli asosida talabalar ekologik masalalarga ijodiy yondashishadi. Kreativ fikrlash ekologik yechimlar yaratishda yordam beradi, yangi texnologiyalar va metodlarni ishlab chiqishga undaydi. Bu ko‘nikma talabalarni atrof-muhitni muhofaza qilishga doir innovatsion g‘oyalarni yaratishga rag‘batlantiradi.

Iqtiboslar/Сноски/References

1. Abdullaeva, D. (2018). “Ekologik ta’lim: nazariy asoslar va amaliyot.”55-b.
2. Nasirova, S. (2020). “Ekologik ta’limda zamonaviy metodlar.” 29-b
3. Gonzalez, C., & Pearce, M. (2016). “Critical Thinking and Problem-Solving in Environmental Education.”2019-yil 68-bet
4. “Ilg‘or xorijiy tajribalar asosida bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishning pedagogik strategiyaalri: muammolar va yechimlar” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi. 2024-yil 20-fevral. 581-bet.
5. Levinson, R. A., & Thomas, E. M. (2019). “Sustainable Education: Strategies for Implementing Environmental Programs.”
6. Beers, B., & Brown, S. (2014). “Collaboration for Environmental Change.”

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING KOORDINATSION QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH

Bekmanova Hurshida Shokirjonovna
Urganch davlat pedagogika instituti Jismoniy madaniyat kafedrasi katta o‘qituvchisi
bekmanova.hurshida@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada 7-10 yoshli bolalarning koordinatsion qobiliyatlarini rivojlantirish masalasi o‘rganiladi. Tadqiqotning dolzarbligi, ushbu yosh davrida bolalarning nerv-muskul tizimi va motorik qobiliyatlari faol rivojlanishi bilan bog‘liq. Tadqiqotning asosiy maqsadi bolalarning koordinatsion qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan samarali metodikalarni ishlab chiqish va amaliyotda qo‘llashdan iborat.

Kalit so‘zlar: koordinatsiya, harakat, motorika, qobiliyat, muvozanat, muskul, tadqiqot, vosita, jismoniy tarbiya, bolalar, metod.

РАЗВИТИЕ КООРДИНАЦИОННЫХ СПОСОБНОСТЕЙ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

Аннотация. В данной статье рассматривается развитие координационных способностей детей 7-10 лет. Актуальность исследования связана с активным развитием нервно-мышечного аппарата и моторики детей в этом возрасте. Основная цель исследования – разработать и применить на практике эффективные методы, направленные на развитие координационных навыков детей.

Ключевые слова: координация, движение, моторика, способности, баланс, мышцы, исследование, средства, физическое воспитание, дети, метод.

DEVELOPING THE COORDINATION SKILLS OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS

Annotation. This article discusses the issue of developing coordination skills in children aged 7-10. The relevance of the study is associated with the active development of the neuromuscular system and motor skills of children at this age. The main goal of the study is to develop and apply in practice effective methods aimed at developing children’s coordination skills.

Keywords: coordination, movement, motor skills, ability, balance, muscle, research, means, physical education, children, method.

Kirish. Koordinatsion qobiliyatlarning bolalik davrida shakllanishi bolalar rivojlanishining muhim jihatlaridan biridir. Bola o‘sayotgan paytda, uning jismoniy faoliyati va harakatlari asosan koordinatsiya qobiliyatiga bog‘liq. Ushbu davrda bolaning mushaklari, nerv tizimi va qobiliyatlari o‘zaro aloqada bo‘ladi va bir-birini to‘ldiradi, bu esa umumiy motorikani shakllantirishga yordam beradi.

Bolalik davrida amalga oshiriladigan faoliyatlar, masalan; yugurish, sakrash yoki o‘ynash kabi oddiy harakatlar, bolaning koordinatsion va muvozanat qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Jismoniy mashg‘ulotlar bolaning ruhiy holatini ham yaxshilaydi, chunki harakatlar orqali bolaning o‘zini ifoda etishi va o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshirish imkoniyati paydo bo‘ladi.

Shuningdek, ota-onalar va tarbiyachilar bolalarning koordinatsion qobiliyatlariga e’tibor berishi lozim. Ular turli o‘yinlar, sport mashg‘ulotlari va jismoniy faoliyatlar yordamida bolalarning qobiliyatlarini qo‘llab-quvvatlab, rivojlantirishlariga ko‘maklashishlari zarur. Bu orqali bolalar

nafaqat jismoniy jihatdan, balki ijtimoiy va hissiy jihatdan ham taraqqiy etadilar.

7-10 yosh oralig‘i bolalarning jismoniy, psixologik va motorik qobiliyatlari shakllanishida eng faol davr hisoblanadi. Bu bosqichda asab-muskul tizimi tez rivojlanadi, harakatlarni boshqarish va muvofiqlashtirish ko‘nikmalari oson shakllanadi. Agar ushbu davrda koordinatsion qobiliyatlar rivojlantirilmasa, bu keyinchalik bolalarning umumiy harakat faolligi va sport qobiliyatlariga salbiy ta’sir qilishi mumkin.

Bugungi kunda bolalarning jismoniy faolligi sezilarli darajada kamaymoqda. Ko‘p vaqtni texnologik vositalar (telefon, planshet, kompyuter) bilan o‘tkazish, cheklangan o‘yin va tashqi faoliyat muvozanat va koordinatsiya qobiliyatlarining rivojlanishini cheklaydi. Bu holat nafaqat jismoniy, balki psixologik salomatlikka ham salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu bois, bolalarni faol harakatlantirishga qaratilgan mashg‘ulotlar va tadbirlar tashkil qilish zarur.

Koordinatsion qobiliyatlarni rivojlantirish sog‘lom turmush tarzi asoslaridan biri hisoblanadi. Ushbu ko‘nikmalar bolalarda chaqqonlik, diqqatni jamlash, tezkor qaror qabul qilish kabi qobiliyatlarni shakllantirib, ularni nafaqat sportda, balki kundalik hayotda ham muvaffaqiyatli bo‘lishiga yordam beradi.

Jismoniy tarbiya va sport bugungi kunda nafaqat maktab o‘quv dasturlarining bir qismi, balki bolalarning intellektual va ijtimoiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash vositasi sifatida qaralmoqda.

Ta’lim muassasalarida koordinatsion mashqlarni dars jarayoniga kiritish orqali jismoniy va ruhiy salomatlikni bir vaqtda rivojlantirishga e’tibor qaratilmoqda.

Koordinatsion qobiliyatlarni rivojlantirishga qaratilgan mashg‘ulotlar bolalarda jamoaviylik, o‘zaro hamkorlik va muloqot ko‘nikmalarini shakllantirishga yordam beradi. Bu esa bolalarning ijtimoiy hayotga moslashishida va boshqa bolalar bilan yaxshi munosabatlar o‘rnatishida muhim rol o‘ynaydi. Koordinatsion qobiliyatlar nafaqat sport sohasida, balki boshqa ko‘plab faoliyat turlarida muvaffaqiyat uchun zarurdir. Bolalarda bu qobiliyatni rivojlantirish ularning kelajakda yuqori natijalarga erishishi uchun asos bo‘lib xizmat qiladi [1; 3-4-b].

Adabiyotlar tahlili. 7-10 yoshli bolalarning koordinatsion qobiliyatini rivojlantirish masalasi jismoniy tarbiya, pedagogika va psixologiya sohalarida keng tadqiq etilgan. Quyida ushbu masalaning o‘rganilganlik darajasi bo‘yicha asosiy yo‘nalishlar yoritilgan:

1. Koordinatsion qobiliyatni rivojlantirishning nazariy asoslari. Koordinatsiya qobiliyati haqida tushuncha ilk bor XX asr boshlarida sport va pedagogik tadqiqotlar doirasida shakllangan. Shveytsariyalik pedagog Johann Pestalozzi va nemis pedagog Friedrich Frobel bolalar rivojlanishida motorik ko‘nikmalar ahamiyatini ta’kidlagan.

Sovet davrida N.A.Bernstein tomonidan koordinatsion qobiliyatlarning neyrofiziologik asoslari o‘rganilib, motorik nazorat va harakatlarni boshqarish masalalariga katta e’tibor qaratilgan.

2. **Yosh xususiyatlariga ko‘ra o‘rganish.** Yoshga xos fiziologik va psixologik o‘ziga xosliklarni hisobga olgan holda, bolalarning koordinatsion qobiliyatlari rivojlanishi bo‘yicha muhim tadqiqotlar olib borilgan. Xususan: V.V. Lyax va A.D. Novikov bolalarning harakatlarni boshqarish va ularni rejalashtirish qobiliyatlari yoshga qarab qanday shakllanishini tahlil qilgan. 7-10 yosh oralig‘i koordinatsion qobiliyatlarni rivojlantirish uchun eng qulay davr hisoblanadi, chunki bu davrda nerv-muskul tizimining moslashuvchanligi yuqori bo‘ladi.

3. **Jismoniy tarbiya va sportda qo‘llanilishi.** Bolalarning koordinatsion qobiliyatlarini rivojlantirish jismoniy tarbiya darslari va sport mashg‘ulotlarida keng qo‘llaniladi. Olimlar (masalan, L.P. Matveyev va Y.F. Kuramshin) bolalar bilan ishlashda maxsus o‘yinlar, estafeta mashqlari va gimnastika muhimligini ta’kidlagan.

4. Amaliy tadqiqotlar.

Koordinatsion qobiliyatlarni rivojlantirish bo‘yicha metodik yondashuvlar (masalan, to‘siqlarni yengish, balans mashqlari, tezkorlik o‘yinlari) pedagogik amaliyotda sinovdan o‘tkazilgan. Chet ellik olimlar, jumladan, R.F. Schmidt va T.D. Lee motorik ta’lim va harakatni o‘rganish bo‘yicha tadqiqotlar o‘tkazib, turli yoshdagi bolalar uchun mos bo‘lgan dasturlarni taklif qilishgan.

5. Psixologik va ijtimoiy ahamiyati. Koordinatsiya qobiliyatlarini rivojlantirish bolalarda diqqatni jamlash, o‘z-o‘zini boshqarish, tezkor qaror qabul qilish kabi qobiliyatlarni shakllantirishda yordam beradi. Psixologlar (masalan, A.V. Zaporozhets va P.Ya. Galperin) motorik faoliyat va kognitiv rivojlanish o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rgangan. Bolalarning shaxsiy xususiyatlari, masalan, ularning salomatligi va o‘quv muhitiga moslashish qobiliyati, ayrim tadqiqotlarda yetarlicha hisobga olinmagan [2; 20-b].

Mazmuni. 7-10 yoshli bolalarning koordinatsion qobiliyatini rivojlantirishdagi tadqiqotning asosiy maqsadi quyidagilar:

1. Bolalarning jismoniy rivojlanishini o‘rganish: Bolalarning yoshiga mos jismoniy va motorik qobiliyatlarini aniqlash hamda ularning muvozanat, tezkorlik, moslashuvchanlik va koordinatsiya kabi ko‘nikmalarini tahlil qilish.

2. Koordinatsiya qobiliyatini rivojlantirish usullarini ishlab chiqish: Mashg‘ulotlarning samarali usullari va metodikalarini aniqlash, bolalar uchun mos va qiziqarli dasturlarni shakllantirish.

3. Mashg‘ulotlarning samaradorligini baholash: Tadqiqot davomida turli metodlarni qo‘llash orqali bolalarning koordinatsiya darajasidagi o‘zgarishlarni o‘lchash va tahlil qilish.

4. Jismoniy faollikning ta’sirini aniqlash: Turli jismoniy mashg‘ulotlarning bolalar sog‘lig‘i, motorik rivojlanish va harakatlarni nazorat qilish qobiliyatiga qanday ta’sir ko‘rsatishini aniqlash.

5. Tarbiyaviy va ijtimoiy maqsadlarni amalga oshirish: Bolalarda jamoaviylikni shakllantirish, o‘ziga bo‘lgan ishonchni oshirish va ijtimoiy moslashuvga yordam berish uchun koordinatsion mashg‘ulotlarning ijobiy ta’sirini o‘rganish.

6. Kelajakdagi rivojlanish uchun tavsiyalar ishlab chiqish: Olingan natijalar asosida ota-onalar, murabbiylar va o‘qituvchilar uchun bolalarning koordinatsion qobiliyatini yanada samarali rivojlantirishga yo‘naltirilgan tavsiyalar ishlab chiqish. Bu maqsadlar orqali tadqiqot nafaqat bolalarning jismoniy imkoniyatlarini oshirish, balki ularning umumiy rivojlanishiga ham hissa qo‘shishni maqsad qiladi.

7-10 yoshli bolalarning koordinatsion qobiliyatini rivojlantirish bo‘yicha tadqiqotning asosiy vazifalari quyidagilar:

Ilmiy asoslarni o‘rganish: Koordinatsiya qobiliyati va uning bolalar rivojlanishidagi ahamiyatini yoritib berish. 7-10 yosh oralig‘idagi bolalarning jismoniy va motorik xususiyatlarini aniqlash. Bolalarning yosh xususiyatlari va ularning koordinatsion qobiliyatlariga ta’sir qiluvchi omillarni o‘rganish.

Boshlang‘ich tahlil va diagnostika: Tadqiqotga jalb qilingan bolalarning jismoniy ko‘rsatkichlarini dastlabki tahlil qilish. Ularning muvozanat, tezkorlik, chaqqonlik, moslashuvchanlik kabi koordinatsiya qobiliyatlarini aniqlash uchun maxsus testlarni qo‘llash.

Metodikani ishlab chiqish: Bolalar koordinatsiyasini rivojlantirish uchun qiziqarli va samarali mashg‘ulotlar dasturini ishlab chiqish. Mashg‘ulotlarni yoshga mos va xavfsiz usullar bilan tashkil qilishni ta’minlash.

Amaliy mashg‘ulotlar o‘tkazish: Bolalar bilan jismoniy mashg‘ulotlar o‘tkazib, koordinatsiya qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan harakatlar tizimini sinovdan o‘tkazish. Har bir mashg‘ulotning samaradorligini kuzatish va natijalarni qayd etish.

Natijalarni tahlil qilish: Mashg‘ulotlar davomida bolalarning koordinatsiya ko‘nikmalaridagi

o‘zgarishlarni baholash. Olingan ma’lumotlarni statistik va sifat tahlili yordamida o‘rganish.

Tavsiyalar ishlab chiqish: Ota-onalar, murabbiylar va o‘qituvchilar uchun bolalarning koordinatsion qobiliyatini rivojlantirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar berish. Tadqiqot natijalariga asoslangan holda kelgusidagi ilmiy va amaliy ishlar uchun takliflar tayyorlash.

Natija. Olingan ma’lumotlarni tizimlashtirish va tadqiqotning nazariy hamda amaliy ahamiyatini yoritib berish.

Bolalar rivojlanishidagi o‘zgarishlarni ko‘rsatish orqali yangi yondashuvlarning afzalliklarini ta’kidlash. Bu vazifalar tadqiqotning aniq maqsadga yo‘naltirilgan holda olib borilishini ta’minlaydi va bolalarning jismoniy rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadigan samarali strategiyalar ishlab chiqishga yordam beradi.

7-10 yoshli bolalarning koordinatsion qobiliyatini rivojlantirish ularning jismoniy va aqliy rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi. Koordinatsion qobiliyatlar harakatlarni muvofiqlashtirish, muvozanatni saqlash, tezlik va aniqlikni oshirishga yordam beradi. Bu yoshdagi bolalar uchun quyidagi usullar va mashqlar samarali bo‘ladi (1-jadvalga qarang):

1. Muvozanatni rivojlantirish mashqlari. **Bir oyoqda turish:** Bolalarga bir oyoqda turishni o‘rgatish. Vaqt o‘tishi bilan bu mashqni qiyinlashtirish mumkin, masalan; ko‘zlarini yumib yoki qo‘llarini ko‘tarib.

Chiziqda yurish: Yerga chiziq chizib, bolalarni chiziq bo‘ylab yurishga undash. Bu ularning muvozanatini yaxshilaydi.

2. To‘p bilan mashqlar. **To‘pni otish va tutish:** To‘pni bir qo‘ldan ikkinchi qo‘lga o‘tkazish, to‘pni otish va tutish kabi oddiy mashqlar koordinatsiyani rivojlantirishga yordam beradi.

To‘pni tepish: To‘pni bir oyoq bilan tepish va uni nazorat qilish mashqlari ham foydali.

3. Sakrash va yugurish mashqlari. **Sakrash chizig‘i:** Yerga turli masofalarda chiziqlar chizib, bolalarni ular orqali sakrashga undash.

Qisqa masofalarga yugurish: Tezlik va koordinatsiyani oshirish uchun qisqa masofalarga yugurish mashqlari.

4. O‘yinlar orqali koordinatsiyani rivojlantirish. **«Tag» o‘yini:** Bu o‘yin bolalarning tezlik va harakatlarni muvofiqlashtirish qobiliyatini oshiradi.

«Simon says» (Simon aytadi): Bu o‘yin bolalarning diqqatini va harakatlarni muvofiqlashtirish qobiliyatini oshiradi.

5. Gimnastika va raqs. **Oddiy gimnastika mashqlari:** Bolalarga oddiy gimnastika mashqlarini o‘rgatish, masalan, burilishlar, egilishlar, sakrashlar.

Raqs: Raqs bolalarning koordinatsiyasini yaxshilashning ajoyib usuli hisoblanadi.

6. Sport turlari. **Futbol, basketbol, voleybol:** Bu sport turlari koordinatsiyani rivojlantirishga yordam beradi.

Tennis yoki badminton: To‘pni nazorat qilish va harakatlarni muvofiqlashtirish uchun yaxshi mashqlar.

7. To‘siqlar kurslari. **To‘siqlar kursi tashkil etish:** Bolalarni turli to‘siqlar orqali o‘tishga undash. Bu ularning koordinatsiyasini va jismoniy qobiliyatlarini yaxshilaydi.

8. Musiqa va ritm mashqlari. **Ritmik harakatlar:** Musiqa bilan birga ritmik harakatlar bajarish, masalan, qo‘llarni va oyoqlarni bir vaqtda harakatlantirish.

9. O‘yinchoqlar va qurilmalar. **Sakkizoyoq:** Bu o‘yin bolalarning koordinatsiyasini va muvozanatini yaxshilaydi.

Sakkizoyoqli to‘p: To‘pni bir qo‘ldan ikkinchi qo‘lga o‘tkazish mashqlari.

10. Murakkab harakatlar. **Bir vaqtning o‘zida bir nechta harakatlar bajarish:** Masalan; yugurish va to‘pni otish yoki sakrash va qo‘llarni harakatlantirish. Bu mashqlar va o‘yinlar bolalarning koordinatsion qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi, shuningdek, ularning jismoniy faolligini oshiradi va sog‘lom turmush tarzini shakllantirishga yordam beradi [1; 20-b].

1-jadval

Koordinatsion qobiliyatlarni rivojlantiruvchi mashqlar majmuasi

№	Mashqlar	Tavsif
1	Muvozanatni rivojlantirish	Bir oyoqda turish, chiziqda yurish.
2	To‘p bilan mashqlar	To‘pni otish va tutish, to‘pni tepish.
3	Sakrash va yugurish	Sakrash chizig‘i, qisqa masofalarga yugurish.
4	O‘yinlar	«Tag» o‘yini, «Simon says» o‘yini.
5	Gimnastika va raqs	Oddiy gimnastika mashqlari, raqs.
6	Sport turlari	Futbol, basketbol, voleybol, tennis, badminton.
7	To‘siqli kurslar	To‘siqlar kursi tashkil etish.
8	Musiqa va ritm mashqlari	Ritmik harakatlar, zarbli cholg‘u asboblari.
9	O‘yinchoqlar va qurilmalar	Sakkizoyoq, sakkizoyoqli to‘p.
10	Murakkab harakatlar	Bir vaqtning o‘zida bir nechta harakatlar bajarish.

Muvozanatni rivojlantirish mashqlari bolalarning jismoniy faolligini oshiradi va ularning muvozanat qobiliyatini yaxshilaydi. To‘p bilan mashqlar bolalarda koordinatsiyani rivojlantirishga yordam beradi, bu esa sportda muvaffaqiyatning asosiy omillaridan biridir. Sakrash va yugurish mashqlari bolalarga tezlik va chidamlilikni oshirish imkonini beradi.

O‘yinlar orqali muvozanat va koordinatsiya rivojlantirish bolalarga ko‘proq qiziqish uyg‘otadi. Gimnastika va raqs mashqlari esa oddiy va maroqli shaklda bolaning harakatlarini rivojlantiradi. Bu usullar bolalar uchun qiziqarli va foydali bo‘lishi bilan birga, ularning jismoniy rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi.

Koordinatsion qobiliyatlarni rivojlantirish, bolalarning oddiy jismoniy harakatlardan tortib, murakkab sport texnikalarigacha bo‘lgan ko‘plab sohalarda muvaffaqiyatli bo‘lishlariga zamin yaratadi. Ushbu qobiliyatlar yordamida bolalar nafaqat jismoniy faoliyatda yuqori natijalarga erishadilar, balki aqliy rivojlanish va kreativliklarini ham oshirish imkoniga ega bo‘ladilar. Koordinatsiya mashqlari, vujuddagi harakatlar tizimining birligi va aniqligini yaxshilaydi, bu esa bolalarga mustaqil harakat qilishda yordam beradi [4; 2-b].

Shuningdek, bolalar o‘zaro muloqot ko‘nikmalarini ham rivojlantiradilar. Turli o‘yinlar va sport faoliyatlari orqali bir-biri bilan hamkorlik qilish, jamoaviy ruhni oshiradi. Bu jarayon, bolalarning o‘z-o‘ziga ishonchini kuchaytiradi va sog‘lom raqobat sportini shakllantiradi. Bunday qobiliyatlar, ularda kelajakda muvaffaqiyatli sportchilar yoki jamoaviy ishlovchilar bo‘lish imkoniyatini yaratadi.

Muvozanat va koordinatsiyani rivojlantirish uchun voqea joyida ravon va qiziqarli mashg‘ulotlar tashkil etish muhimdir. Ushbu jarayonda ota-onalar va o‘qituvchilarning roli juda qimmatlidir; ular bolalarga tajriba va vaqtni baham ko‘rish orqali motivatsiya berishlari kerak. Umuman olganda, 7-10 yoshli bolalar uchun yaxshi tashkil etilgan jismoniy faollik, ularning jismoniy va aqliy rivojlanishida muhim omil hisoblanadi. Bundan tashqari, koordinatsion qobiliyatlarni rivojlantirish bolalarning stressni boshqarish qobiliyatini ham oshiradi. Jismoniy faoliyat, ayniqsa, ularning ruhiy holatini ijobiy tarzda ta’sir qiladi, bu esa bolalarning o‘zlarini qulay his qilishlariga yordam beradi. Masalan, sport o‘yinlari orqali bolalar muammolarni hal qilish va tez qarorlar qabul qilish qobiliyatlarini rivojlantiradilar, bu esa ularning kelgusi hayotida foydali bo‘ladi. Shuningdek,

koordinatsiya mashqlari individual va jamoaviy sportlarda muvaffaqiyat uchun zarur bo‘lgan asosiy qobiliyatlarni shakllantiradi.

O‘qituvchining kasbiy fazilatlari o‘quv jarayonining samaradorligini oshirish maqsadida o‘z ishlarida yangi o‘qitish usullari, shakllari va vositalarini, shu jumladan axborot texnologiyalari asosida ularni o‘zlarining kasbiy tajribalari bilan birlashtirish qobiliyatini o‘zlashtirish va ulardan foydalanishga tayyorligiga bog‘liq. N. V. kiselning fikricha o‘qituvchining axborot kompetentsiyasiga qo‘yiladigan talablar quyidagilarni o‘z ichiga oladi: talabaning individualligini bilish, Real sharoitlarga mos maqsadlarni belgilash qobiliyati, mavzu bo‘yicha talabaning individual ta’lim dasturini tuzish qobiliyati, kompyuter texnologiyalariga ega bo‘lish

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Zamonaviy ta’lim sohasida raqamli ta’lim texnologiyalaridan foydalanish axborot kompetentsiyasini shakllantirishning alohida muammosini tashkil etadi, uni muvaffaqiyatli hal qilish faqat o‘qituvchilar va psixologlar, fiziologlar va muhandislar, o‘qituvchilar va talabalarning birgalikdagi ishlarida mumkin. Bundan tashqari, raqamli ta’lim texnologiyalaridan foydalanish faqat mutaxassisning kasbiy tayyorgarligiga qo‘yiladigan me’yoriy talablarni hisobga olgan holda qo‘llanilganda samarali bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati (References).

1. Mashbits E.I. Psychological and pedagogical aspects of computerization [Text] / E.I. Mashbits // Bulletin of Higher School, 1986. - No. 4. - pp. 286.

2. Полат Е. С., Бухаркина, М. Ю., & Моисеева, М. В. (2004). Информатизация образования: методология, теория и практика. Москва: Академия.

3. Плеухова Л. Структура и содержание мотиватsionного обеспечения обучающих программ [Текст] / Л. Плеухова // Информатика и образование, 1991. №3.-С. 20.

4. Реан А. А. (1990). Формирование профессиональной компетентности педагогов в условиях образовательных реформ. Диссертация на соискание ученой степени доктора психологических наук, Санкт-Петербургский государственный университет. Реан, А. А. (1990).

5. Тихомиров О. К. (1985). Психологические аспекты компьютерной деятельности. Диссертация на соискание ученой степени доктора психологических наук, Московский государственный университет имени М.В. Ломоносова.

6. Soldatkin V. I. (2015). Современные образовательные технологии: Внедрение и использование в вузах. Москва: Академия.

7. Смирнов А.В. Технические средства в обучении и воспитании детей / А.В. Смирнов. - М.: Издательский центр «Академия», 2005.-60 с.

8. Корчажкина О.М. Обучение в условиях информатизатsии [Текст] / О.М. Корчажкина // Народное образование. - 2008. - № 6. - С. 170.

9. Козлов В.Н. Математика и информатика [Текст] / В.Н. Козлов. - СПб. : Питер, 2004. - 134 с

10. http://uzbekistan-geneva.ch/o%CA%BBzbekistonda-yagona-axborot-siyosati-konsepsiyasi-ishlab-chiqiladi.html

MAKTABDA JISMONIY TARBIYA DARSLARINI TASHKIL QILISH VA O‘TKAZISH USLUBLARI

Karimov Doniyor Komilovich, S.J.Muratov, A.O‘.Matnazarov, U.A.Baxramov, X.M.Kurbanboyev, M.P.Madaminov, J.D.Yo‘ldashov, O.Q.Karimboyev
UrDPI “Jismoniy madaniyat” kafedrasi o‘qituvchilari

Annotatsiya. Ushbu maqolada maktabda jismoniy tarbiya darslarini tashkil qilish bo‘yicha metodikalar berilgan. Jumladan, jismoniy tarbiya darslarida olib boriladigan usul va metodlar kengroq bayon qilingan. Dasrlarda yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish va jismoniy tarbiya darslarining har bir qismlarida tashkil qilinadigan metodlar bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: jismoniy tarbiya darslari, metodika, usullar, pedagogik texnologiyalar, o‘qituvchi, o‘quvchi, bilim, ko‘nikma, malaka, tarbiya, harakat.

СТИЛИ ОРГАНИЗАЦИИ И ПРОВЕДЕНИЯ УРОКОВ ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ В ШКОЛЕ

Аннотация. В данной статье даны методические рекомендации по организации уроков физкультуры в школе. В частности, более подробно изложены методы и приемы, применяемые на уроках физической культуры. Периоды содержат информацию об использовании новых педагогических технологий и методах, которые будут организованы в каждой части уроков физической культуры.

Ключевые слова: уроки физической культуры, методика, методы, педагогические технологии, учитель, ученик, знания, умения, навыки, воспитание, действие.

METHODS OF ORGANIZING AND CONDUCTING PHYSICAL EDUCATION CLASSES AT SCHOOL

Annotation. This article provides methodologies for organizing physical education classes at the school. In particular, the methods and methods carried out in physical education lessons are widely described. Dasrs provide information on the use of new pedagogical technologies and methods to be organized in each part of physical education classes.

Keywords: physical education classes, methodology, methods, pedagogical technologies, teacher, student, knowledge, skills, qualifications, upbringing, movement.

Kirish. O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikni qo‘lga kiritgandan keyingi yillarda ta’lim tizimida tubdan o‘zgarishlar yuzaga keldi, jumladan jismoniy tarbiya va sport davlat siyosati darajasida ustuvor yo‘nalishlar qatoriga kirdi.

Umuminsoniy madaniyatning tarkibiy qismi hisoblangan milliy madaniyatimizni, yoshlarning axloqiy tarbiyasini ongli ravishda yondashishsiz tasavvur etish qiyindir. Inson ijtimoiy hayotda ongli ravishda o‘z o‘rnini egallashi uning voyaga yetishi, farzandlik burchini, ota-onalik burchini ato etishi, o‘zidan keyin ma’lum bir iz qoldirishi jamiyat taraqqiyotini belgilaydi. O‘quvchilarni jismoniy tarbiya darslarini tashkil etish yo‘llari va shart-sharoitlari tadqiq etish muammosini o‘rganilishi milliy tarbiya muammosiga yanada chuqurroq kirib borishga va bu muammoga ilmiy-amaliy jihatdan oydinlik kiritishga asos bo‘la oladi.

Mamlakatimizda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni ta’lim amaliyotiga tatbiq etish asosida bilim berish jarayonining potensial imkoniyatlarini yuzaga chiqarish bosqichi davom etmoqda. Pedagoglar ayni paytda innovatsion texnologiyalarni ta’lim-tarbiya jarayoniga kiritish orqali o‘quv samaradorligi va sifatini oshirishni ko‘zlamoqdalar. Avvalombor, shuni ta’kidlash joizki,

ta'lim-tarbiya sohasida mehnat qilayotgan har bir kishi pedagogikaning falsafiy jabhalaridan, ilm-fan va texnika sohasidagi o'zgarishlardan, yangi paydo bo'lgan dunyoqarash va ilmiy oqimlardan xabardor bo'lishlari shart.

A.S.Belkin fikricha o'quvchilarning sog'ligi jismoniy tarbiya ta'limi jarayonining asosiy yo'nalishi, deb tan olingan va shunga ko'ra uning mazmuni hamda tashkiliy shakllari ushbu strategik maqsadga bo'ysundirildi. Pedagogik jarayon rivojlanishining obyektiv qonunlarini tanlash maqsadida uzoq uzluksiz kuzatishga asoslangan ta'lim jarayoni sifatini oshirish shakllaridan biri o'quv jarayoni pedagogik texnologiya ekanligi hozirgi kunda isbotlangan.

Jismoniy rivojlanish, harakat tayyorgarligi va morfologik funksiyalar ko'rsatkichlari salomatlik holatini aniqlash, jismoniy tayyorgarlikni oshirish, shunga ko'ra, ta'lim jarayonida eng samarali uslublarni tanlash pedagogik texnologiya samaradorligini belgilab beradi.

Jismoniy tarbiya darslarida yuqori samaraga erishish faqat darsni to'g'ri tashkil qilish va samarali uslublarni qo'llash evaziga amalga oshirilishi mumkin.

Yoshlarni tarbiyalash va ularga zamonaviy bilimlar berishning sifatini oshirish hamda jamiyatimiz uchun barkamol shaxsni shakllantirish ta'lim tizimining eng asosiy maqsadlardan hisoblanadi. Uzluksiz ta'lim jarayonida olib borilayotgan barcha harakatlar shu maqsadni amalga oshirishda muhimdir. Yangilangan ta'limda o'quvchining yuragidagi cho'g'ni alanga oldirish, uni har tomonlama rivojlantirib, bilimdan-bilimga yetaklab olib chiqish uchun zamonaviy darslar zarurdir. Zamonaviy dars shunday darski, unda o'qituvchi o'quvchining mavjud imkoniyatlaridan ustalik bilan foydalanib, uning aqliy potensialini ishga solib, rivojlanishini ta'minlaydi. O'quvchi esa o'z navbatida bilimlarni chuqur o'zlashtiradi va ma'naviy barkamollik sari odimlaydi.

Demak jismoniy tarbiya darslarini tashkil etish va o'tkazishni samarali uslublarini ilmiy ishlab chiqish va ilmiy tadqiqotlar asosida isbotlab berish dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.

Adabiyotlar sharhi. Jismoniy tarbiya darslarini tashkil qilish va o'tkazish masalalari ko'pgina tadqiqotchilar ishlarida va ilmiy adabiyotlarda o'z ifodasini topgan, (A.Abdullayev Sh.X. Xonkeldiyev 2005; R.S.Salomov 2005; F.A.Kerimov, M.N.Umarov 2005; Yu.M.Yunusova 2002, 2007; K.Mahkamdjanov 2013;) biroq yangi pedagogik texnologiyalarga asoslangan jismoniy tarbiya darslar bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlarini yetarli emasligi tadqiqot mavzusini tanlash imkonini berdi.

Har bir harakat faoliyatlarga jismoniy tarbiya jarayonida, maxsus mashg'ulotlarda o'rgatish uchun o'qituvchi turli o'rgatish usullarini, yo'llarini bilishi kerak, o'quvchilar esa harakatlarga o'rganish usullariga ega bo'lishlari lozim.

Qanday qilib o'quvchilarga bilim berish, ko'nikma va malaka hosil qilish, ya'ni turli harakatlarga o'rgatish kerak. Bu o'qituvchining eng muhim vazifalaridan biridir. O'rgatish usullari turli-tuman bo'lib, ulardan kerakligini tanlab olish va unumli uni qo'llash, o'qituvchining pedagogik san'atiga bog'liq.

Shuning uchun o'rgatish samaradorligi o'qituvchining to'g'ri uslublarni tanlash va ishlata bilishiga bog'liq. Bu uslublarni tanlashda vazifalar, tarbiyalashni ta'minlovchi o'rgatish xarakteri, o'quv materiallariga, ularning imkoniyatlari, mashg'ulot sharoitlari hisobga olinadi.

Jismoniy tarbiya darslari va sport mashg'ulotlarini tashkil etish yo'llari va shart-sharoitlari tadqiq etish muammosini o'rganilishi o'rganilayotgan muammoga yanada chuqurroq kirib borishga va bu muammoga ilmiy-amaliy jihatdan oydinlik kiritishga asos bo'la oladi.

Maxsus adabiyotlarning tahlili shuni ko'rsatdiki, pedagogik texnologiyalarning shakllari faqat nazariy mashg'ulotlar uchun ishlangan bo'lib, o'rganilayotgan muammo bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlari deyarli amalga oshirilmagan.

Mazmuni. Umumta'lim maktablarining jismoniy tarbiya darslarini samaradorligini oshirish eng dolzarb masalalardan biridir. Shundan kelib chiqqan holda tadqiqotimizda maktabda jismoniy

tarbiya darslarini tashkil qilish va o‘tkazishni samarali usullarini ishlab chiqishdan iborat deb, - oldimizga maqsad qildik. Jismoniy tarbiya darslarida o‘quvchilarni salomatligini oshirish va ularning jismoniy tarbiya mashg‘ulotlariga bo‘lgan qiziqishlarini kuchaytirishga hamda jismoniy tayyorgarlik darajasini oshirishga qaratilgan.

Umumiy o‘rta ta’lim uchun jismoniy tarbiya bo‘yicha Davlat ta’lim standarti “Jismoniy tarbiya va ta’lim” kursi mazmuniga, o‘quv yuklamasi hajmiga (o‘quv rejasidagi o‘quv soatlari), majburiy jismoniy tayyorgarlik darajasiga (jismoniy sifatlarning rivojlanishi, harakat malaka va ko‘nikmalarining shakllanishi), sutka, hafta, yil davomidagi harakat rejimining majburiy hajmiga, o‘quvchilarning nazariy tayyorgarligiga (jimoniy tarbiya, gigiyena, shifokor nazorati, sport tibbiyoti, o‘z-o‘zini nazorat va boshqalar) qo‘yiladigan talablar yig‘indisini belgilab beradi [1].

Mazkur standart o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalari, shuningdek, shaxsning asosiy ma’naviy, axloqiy va jismoniy sifatlari doirasini tartibga soladi, o‘quv-tarbiya jarayoniga miqdoriy va sifat jihatdan baho berish tartibi va usullarini ko‘rsatadi.

Jismoniy tarbiya ta’limining asosiy vazifalari:

jismoniy madaniyat ta’limining darajasiga mosligi va barcha uchun barobarligini ta’minlash;

jismoniy tarbiya mazmunining xalqaro mezonlarga mosligini ta’minlash, jismoniy tarbiya va sport sohasida o‘quvchilarni jismoniy imkoniyatlari va bilimlariga ko‘ra jahon darajasiga olib chiqish;

jismoniy tarbiya va ta’lim jarayonini tartibga solish;

turli yo‘nalishlarda jismoniy tarbiya va ta’lim jarayonini nazorat qilish va boshqarish;

ta’limni insonparvarlashtirish;

jismoniy tarbiya ta’limi sifatini oshirish

“Jismoniy tarbiya” maktab kursi maktabning o‘quvchilar sog‘lig‘ini saqlash va mustahkamlash, asosiy jismoniy sifatlarini rivojlantirish, hayotiy zarur harakatlar malaka va ko‘nikmalarini shakllantirish, o‘z-o‘zini jismoniy takomillashtirish istak va ehtiyojlarini shakllantirish, jismoniy madaniyat sohasida ijobiy qiziqishlarni o‘stirish faoliyatida asosiy bo‘g‘in hisoblanadi.

Jismoniy tarbiya darslari ta’lim berish (o‘qitish), tarbiyalash va sog‘lomlashtirishdek jismoniy tarbiya jarayonining *umumiy vazifalaridan kelib* chiqib, har bir dars uchun aniq “Tanishtirish”, “O‘zlashtirish”, “mustahkamlash”, “Takomillashtirish”dek mazmunga ega bo‘lgan xususiy vazifalarni qo‘yish va uni hal qilishni nazarda tutadi.

Yosh avlodni ham jismoniy, ham aqliy jihatdan yetuk va komil etib tarbiyalash vazifasi qo‘yilgan davrlarda ikki tarbiyaviy yo‘nalishni uyg‘un holda olib borish va samaradorligini ta’minlash bosh masala hisoblangan.

O‘quvchilar jismoniy tarbiyasi jarayonida umumiy va xususiy vazifalar hal qilinadi. Umumiy vazifalar – bilim berish, jisman tarbiyalash va sog‘lomlashti-rishdan iborat bo‘lib, xususiylari esa jismoniy tarbiyadan Davlat ta’lim standarti dasturidagi maxsus vazifalar tarzida hal qilinadi.

Xususiy vazifalarga quyidagilar kiradi:

1) o‘quvchilar organizmining sog‘ligini mustahkamlash, rivojlantirish va chiniqtirish;

2) turli xildagi mehnat faoliyatiga tayyor bo‘lish uchun shu yoshga xos bo‘lgan jismoniy sifatlarni rivojlantirish;

3) hayot uchun kerakli harakat malakalari va ko‘nikmalarini rivojlantirish va keyinchalik kerak bo‘ladiganlari bilan qurollantirish;

4) o‘quvchilarga jismoniy madaniyatga oid yangi bilimlarni berish;

5) o‘quvchilarni jismoniy mashqlar bilan muntazam shug‘ullanishiga qiziqtirish va unga odatni shakllantirish;

6) o‘quvchilarni jismoniy madaniyat faollari qilib tarbiyalash va bu bilan ularda tashkilotchilik

qobiliyatini tarbiyalashdek vazifalarni hal qiladi [2]. Bu vazifalar ma'naviy tarbiyaning elementlari hisoblangan axloqiy ruhiy estetik va mehnat tarbiyalarining vazifalari bilan birgalikda o'quvchilarni yoshini ulg'ayishi, jisman tayyorgarligiga qarab o'qitishning ayrim etaplarida aniqliklar kiritiladi va maktab yoshining quyidagi 3 xil guruhidagi ta'lim tarbiya ishlarida hal qilinadi.

Natijalar. Maktab yoshining 6 (7), (10) 11 yoshlilarda (1-4 sinflar) organizm tabiiy rivojlanishida bo'ladi. Biz uni garmonik rivojlanishini yo'lga qo'yishimiz kerak bo'ladi. Markaziy nerv tizimidagi boshqarish funksiyasi, harakat tayanch apparati faoliyati ishini, yurak-tomir, nafas olish organlari ishini yanada rivojlantirishga e'tibor beriladi, bulardan tashqari qomatni to'g'ri tuta bilishga o'rgatiladi. Bu jarayonga shaxsiy gigiyena qoidalariga oid bilimlar qo'shib berish bilan tarbiya jarayoni yo'lga qo'yiladi.

12-15 yoshlilarda (5-9 sinflar) jismoniy mashqlar o'sayotgan yosh organizmga samarali ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun jismoniy sifatlarni rivojlanishiga qulay imkoniyatlar ochilgan bo'ladi.

Jismoniy tarbiyaning jismoniy bilimlar berish vazifasi hayotda uchraydigan harakat malakalarini ratsional texnikasi bilan tanishtirish (gimnastika, yengil atletika, sport o'yinlari, velosipedda yurish va sport taktikasi)ga oid oz bo'lsa ham nazariy tushuncha berishdir. Bu davrda bolalarni "Jismoniy tayyorgarlik darajasini" aniqlovchi maxsus testining talablari va normalarini topshirishga tayyorlash yo'lga qo'yiladi. Jismoniy mashqlar bilan shug'ullanish natijasida sport mahoratini oshayotganligini, jismoniy madaniyatni jamiyatdagi roli va ahamiyatini tushuntirish jarayoni yo'lga qo'yiladi. Asta sekinlik bilan tashkilotchilik qobiliyati takomillashtiriladi, musobaqa qoidalari o'zlashtiriladi, hakamlik qilish malakalari rivojlantiriladi va chiniqtirish maqsadida tabiatning sog'lomlashtiruvchi kuchlaridan foydalanishga o'rgatish lozim bo'ladi.

Jismoniy tarbiya vositalari. 6 (7) - (10) 11 yoshdagi bolalar jismoniy tarbiyasi uchun asosiy vosita qilib asosiy gimnastika, harakatli o'yinlar, rolikli konkida, velosipedda sayr, ekskursiya va sayohat hamda tabiat qo'ynida o'ynaladigan o'yinlar va jismoniy mashqlar olingan. Bu yoshdagilarda suzish, tennis bo'yicha muntazam mashg'ulotlar uyushtirish mumkin. Sog'ligi yomonlashgan bolalarga maxsus mashg'ulotlar – davolash gimnastikasi tarzidagi yoki maxsus tibbiy guruhga ajratilgan bolalar uchun alohida mashg'ulotlar yo'lga qo'yiladi.

O'quvchilarning jismoniy tarbiyasining mashg'ulotlari maktabda o'quv ishlari, sinfdan tashqari ishlar fizkultura sog'lomlashtirish ishlari, maktabdan tashqari muassasalarda va oilada quyidagi shakllarda: "jismoniy tarbiya darsi", "darsgacha gimnastika", "fizkultura daqiqalari", "katta tanaffusdagi uyushtirilgan o'yinlar", "sport ko'ngil ochishlari (vaqt o'tkazish uchun)", "uzaytirilgan kunli maktablardagi jismoniy madaniyat mashg'ulotlari", "sport sektsiyalari", "bayramlari, musobaqalar "Quvnoqlar va zukkolar" uchrashuvlari, "Salomatlik kuni" va o'ndan ortiq xil sinfdan tashqari ishlar tarzida tashkillanadi [3].

Harakatga o'rgatish shug'ullanuvchini jismoniy rivojlanganligi va jismoniy tayyorgarligi hamda jismoniy sifatlarini darajasiga qarab amalga oshiriladi. Katta, o'rta, kichik yoshdagi o'quvchilarni harakatga o'rgatishda umumiy metodik prinsiplarni qo'llashga alohida e'tibor beriladi (1-jadval).

O'rgatish jarayonida qo'llaniladigan umumiy va maxsus pedagogik prinsiplar

№	O'rgatish prinsiplari	Prinsiplarni qo'llash xususiyatlari va uslubiy ko'rsatmalar
1	Ilmiylik	O'rgatishda bolalar yoshi, jinsi, jismoniy va psixofunktsional imkoniyatlar e'tiborga olinib, mashqlar me'yorlanadi. Natija testlar yordamida ilmiy tahlil qilinadi.
2	Onglilik va faollik	O'rgatilayotgan malaka (harakat)larga ongli tasavvur etilishi zarur, o'rgatishda bolalar faolligi ta'minlanishi lozim

3	Muntazamlilik va uzviy bog‘liqlik	Bosqichma-bosqich o‘zlashtiruv, takomillashuv va mukammallashuv ta’minlanadi
4	Mutanosiblik va muvofiqlik	Mashqlar murakkablik va yuklama salohiyati (hajmi, shiddati, yo‘nalishi, takrorlanishi va muddati) jihatlaridan shug‘ullanuvchi imkoniyatiga mos bo‘lishi darkor
5	Mukammallik	Texnik jihatdan to‘g‘ri o‘zlashtirilgan malakalar takomillashuv asosida turg‘un va barqaror darajaga ko‘tariladi
6	Uzluksizlik	Yildan yilga o‘rgatish va takomillashtirish jarayoni murakkablashib borishi darkor, uzilishlarga yo‘l qo‘yish salbiy natijalarga olib keladi
7	“Engilidan og‘iriga”	O‘zlashtirishga loyiq engil yuklamalar progressiv yo‘nalishda, lekin “to‘lqinsimon” shaklda kuchaytirib borilishi kerak
8	“O‘tilganidan o‘tilmaganiga”	SHug‘ullanuvchi o‘zlashtirgan (unga tanish bo‘lgan) mashqlardan, ya’ni mashqlarga o‘tish, o‘rgatish samaradorligin oshiradi
9	“Oddiydan murakkabga”	Eng oddiy mashqlarni o‘rgatish va takomillashtirish davomida sekin-asta murakkablashtirib borilishi lozim
10	Umumiy va maxsus tayyorgarlik birligi	O‘rgatish va takomillashtirish jarayonida jismoniy texnik-taktik va psixofunktsional tayyorgarlik birligi, ularni o‘zaro bog‘liqligi ta’minlanishi zarur

Olingan natijalarning ishonchliligi. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida jismoniy tarbiya fanining maqsadli va samarali o‘qitilishida darsning to‘g‘ri tashkil etilganligi asosiy omil hisoblanadi. Bunda jismoniy tarbiya fani o‘qituvchilari darsni yangi pedagogik texnologiyalarni qo‘llagan holda darsga qo‘yilgan vazifalarni to‘g‘ri amalga oshirishi lozim.

Jismoniy tarbiya jarayoni – bu ikki tomonlama jarayondir. Bir tomondan o‘rgatishga intilayotgan o‘qituvchi, ikkinchi tomondan o‘rganishga xoxishi bo‘lgan o‘quvchi qatnashadi. Tajribalar shuni ko‘rsatadiki, agar o‘quvchi oldiga qo‘yilgan vazifaning mohiyatini tushunib etsa va uning hal etilishiga qiziqsa, o‘rgatishning muddati tezlashadi va sifati yaxshilanadi.

Ko‘nikma va malakalarni shakllantirish yo‘llarini shunday tashkil qilish kerakki, ular har doim rivojlanishda bo‘lmog‘i zarur. Buning uchun o‘quvchining harakat tajribasi jismoniy va psixik rivojlanganligi albatta hisobga olib o‘tiladi.

Shuni ham unutmaslik kerakki, o‘qituvchi dars jarayonida faqat alohida yaxshi tayyorgarligi bor yoki faqat qoloq o‘quvchilar bilan ishlamaydi, albatta. U sinfdagi barcha o‘quvchilar bilan ishonchli muammolarda va bir-birini to‘liq tushungan holda ishlamog‘i zarur.

Jismoniy tarbiya darslari asosan amaliy mashg‘ulotlardan iborat bo‘lganligi bois fanni o‘qitishda “Musobaqa”, “Ko‘rsatmali”, “O‘yin” kabi innovatsion pedagogik texnologiyalardan keng foydalanish tavsiya etiladi. Masalan:

Musobaqa usuli. Ushbu usulda sinfdagi o‘quvchilar jamoalarga bo‘linib, ular o‘rtasida spartakiadalar (harakatli, milliy va sport o‘yinlari) ko‘rinishidagi musobaqa olib boriladi. Bu usul o‘quvchilarda jismoniy sifatlarni va harakat tizimlarini rivojlantiradi hamda g‘oliblik uchun kurashish, maqsadga erishish ruhini oshiradi.

O‘yin usuli. Bu usul harakatli, milliy va sport o‘yinlari texnik elementlaridan tashkil topgan bo‘lib, boshqa usullarga qaraganda bir qator afzalliklarga ega. Ayniqsa, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini jismoniy mashg‘ulotga jalb etishda muhim ahamiyat kasb etadi. O‘quvchilar harakat faoliyati davomida o‘yinning mazmuni, shartlari va qoidalarini o‘zlashtirib oladi.

Ko‘rsatmali usul. Ushbu usul o‘qitilishi murakkab bo‘lgan sport turlari elementlarini o‘rgatishda qo‘llaniladi. Bunda o‘qituvchi bajarilishi lozim bo‘lgan mashq elementini biror-bir o‘quvchi yordamida (yoki mustaqil ravishda) ko‘rsatish orqali o‘rgatadi.

Jismoniy tarbiya darslarini tashkil qilish va o‘tkazishda yangi pedagogik texnologiyalarni

qo‘llanilishini aniqlash bo‘yicha Urganch shahar umumiy o‘rta ta’lim maktablari jismoniy tarbiya o‘qituvchilaridan so‘rovnoma o‘tkazildi. So‘rovnomada Urganch shahar maktablarida faoliyat yuritayotgan 26 nafar jismoniy tarbiya o‘qituvchilari ishtirok etdi.

Tahlil natijalari 2-jadvalda berilgan. Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, “Yangi pedagogik texnologiya asosida o‘tkazilgan darslar ta’lim samaradorligini oshiradimi?” degan 1-savolga 20 nafar ya’ni 77% “ha” deb, 6 nafari ya’ni 23% “qisman” deb javob berishgan bo‘lsa “yo‘q” deb javob berganlar bo‘lmagan.

2-savolga, ya’ni “Yangi pedagogik va axborot texnologiyalari asosida tashkil qilingan darslar o‘quvchilarning qiziqishini oshiradimi?” degan savolga 18 nafari ya’ni 69% “ha” deb, 2 nafari ya’ni 8% yo‘q deb, 6 nafari ya’ni 23% “qisman” deb javob bergan.

“Dars vazifalarini o‘rgatish va o‘quvchilarni jismoniy tayyorgarligini oshirishda yangi pedagogik va axborot texnologiyalari asosida tashkil qilingan darslarning o‘rni kattami?” degan 3-savolga esa 20 nafari ya’ni 77% “ha” deb javob berishgan, 2 nafari ya’ni 8%, “yo‘q” deb javob bergan bo‘lsa, 4 nafari ya’ni 15% “qisman” deb javob berishgan.

“Darslarni tashkil qilishda o‘yin va musobaqa metodlaridan foydalanib o‘tkazishning ahamiyati yuqorimi?” degan 4-savolga 16 nafari 61% “ha” deb, 2 nafari ya’ni 8% “yo‘q” deb, 8 nafari ya’ni 31% “qisman” deb javob berishgan.

5 savolga ya’ni “O‘yin va musobaqa metodlarini darsning qaysi qismida ko‘proq qo‘llaysiz?” degan savolga 18 nafari ya’ni 58% “Ha darsning asosiy qismida ikki tomonlama o‘yinlarda” deb, 2 nafari ya’ni 2% “Yo‘q qo‘llamayman” deb, 6 nafari 40% “Qisman, darsning asosiy qismida ikki tomonlama o‘yinlarda” deb javob berganlar.

Oxirgi 6 savolga ya’ni “Dars samaradorligini oshirishda axborot texnologiyalaridan foydalanasizmi?” degan savolga 2 nafari ya’ni 8% “ha” deb, 20 nafari ya’ni 76% yo‘q deb, 4 nafari ya’ni 16% “qisman” deb javob beraganlar. Demak, bundan ko‘rinib turibdiki, ko‘pchilik murabbiylar darslarda yangi pedagogik va axborot texnologiyalarni kam qo‘llashi ma’lum bo‘ldi. So‘rovnoma davomida olingan natijalar va ularning qiyosiy tahlili shuni ko‘rsatadiki, aksariyat o‘qituvchilar darslarni haligacha yangicha yondshmasdan olib borishlari tashvishga soladi.

2-jadval

Jismoniy tarbiya o‘qituvchilari fikrini o‘rganish va tahlil qilish (n=26)

№	Savollar	Ha %	Yo‘q %	Qisman %
1	Yangi pedagogik texnologiya asosida o‘tkazilgan darslar ta’lim samaradorligini oshiradimi?	20-77%	-	6-23%
2	Yangi pedagogik va axborot texnologiyalari asosida tashkil qilingan darslar o‘quvchilarning qiziqishini oshiradimi?	18-69%	2-8%	6-23%
3	Dars vazifalarini o‘rgatish va o‘quvchilarni jismoniy tayyorgarligini oshirishda yangi pedagogik va axborot texnologiyalari asosida tashkil qilingan darslarning o‘rni kattami?	20-77%	2-8%	4-15%
4	Darslarni tashkil qilishda o‘yin va musobaqa metodlaridan foydalanib o‘tkazishning ahamiyati yuqorimi?	16-61%	2-8%	8-31%
5	O‘yin va musobaqa metodlarini darsning qaysi qismida ko‘proq qo‘llaysiz?	18-58%	2-2%	6-40%
6	Dars samaradorligini oshirishda axborot texnologiyalaridan foydalanasizmi?	18-69%	2-8%	6-23%

Xulosa. Mavzuga doir ilmiy-nazariy ma’lumotlar va tadqiqot ishlari bo‘yicha quyidagi xulosalarni qilish mumkin:

1. Darsni yuqori saviyada o‘tkazish, dars davomida o‘quvchilar faolligini ta’minlash, beriladigan vazifa, ko‘rsatma va mashqlar ijrosiga ularni ongli yondoshishlariga erishish, jismoniy

tarbiya darsiga mehr va hurmat uyg‘otish o‘qituvchining nafaqat kasbiy mahorati va sifatli ishlab chiqilgan dars bayonnomasiga, balki uning shaxsiy va insoniy fazilatlariga ham bevosita bog‘liqdir.

2. Maktablarda jismoniy tarbiya ta’limini *takomillashtirish maqsadida* darslarning tashkil qilishning yangi texnologiyalarni, axborotlarning tarkibiy qismlarini qayta ishlab chiqishda, o‘quv faoliyatini boshqarishning yangi shakllari talab qilinadi.

3. Ilmiy-uslubiy adabiyotlarning ma’lumotlariga ko‘ra jismoniy tarbiya darslarini pedagogik texnologiyalariga yetarlicha e’tibor qaratilmagan. Maktab o‘quvchilarini an’anaviy usuliyat bo‘yicha dars materiallarini o‘rgatishga qaratilgan ta’lim jarayonini samaradorligi yuqori darajada emas. Jismoniy tarbiya darslariga pedagogik texnologiyalarni joriy qilish zarur.

4. Hozirgi davr o‘quv jarayoniga pedagogik texnologiyalarni tatbiq qilish bilan harakterlidir. Pedagogik texnologiyalardan foydalanish ta’lim texnologiyalarining ilmiy asoslarini ishlab chiqish, pedagogik innovatsiyalar va yangi texnologiyalarni tadqiq qilish bilan bog‘liqdir. Bu tajribalar muayyan tizimni ishlab chiqish va umumlashtirishni talab etadi.

5. Pedagogik tajriba davomida ikkita tajriba guruhida har bir guruh uchun ma’lum bir uslublar qo‘llanildi. Shu narsa aniqlandiki, ishlab chiqilgan ilmiy asoslangan dars texnologiyasi o‘quvchilarining jismoniy tarbiya bo‘yicha ta’lim jarayoni samaradorligini ta’minlaydi va harakat hamda funktsional tayyorgarlikni yaxshilashga, jismoniy tarbiya mashg‘ulotlariga bo‘lgan qiziqishlarini oshirishga yordam beradi va ushbu dars texnologiyasidan jismoniy tarbiya bo‘yicha ta’lim jarayonida foydalanish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR VA MAQOLALAR

1. Юнусова Ю.М. «Теория и методика физической культуры». Учебное пособия. Ташкент. УзГосИФК. 2007 г.

2. Саломов Р.С. «Спорт машғулотнинг назарий асослари». Тошкент., Ўқув қўлланма ЎзДЖТИ, 2005 йил - 238 б.

3. Abdullaev A., Xonkeldiyev Sh. “Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyoti”. o‘quv qo‘llanma Toshkent., O‘zDJTI, 2005 yil - 300 b.

4. D.K.Karimov “O‘rta yoshli velosipedchilarning o‘ziga xos tayyorgarligi va organizm holatini tavsiflovchi ko‘rsatkichlar”. Educational Research in Universal Sciences 2 (14), 751-755. 2023 yil.

5. D.K.Karimov, A.K.Karimov “Importance of effective tactical systems at football”. Ilmiy maqola. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences. Vol. 7 No. 12, 2019 ISSN 2056-5852. 2019 yil.6. R.R.Zakirova, I.N.Tuxfatullina, D.K.Karimov “Совершенствование методики повышения мастерства велосипедистов - шоссейников на основе аспектов физического развития при занятиях велоспортом”. Maqola. O‘zbekistonda jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishning falsafiy, huquqiy va sotsiologik muammolari konferensiyasi. 2020 yil.

7. D.K.Karimov “O‘rta yoshli aholi uchun sog’lomlashtiruvchi yo‘nalishdagi mashg’ulotlarni o‘tkazish xususiyatlari”. Maqola. Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences, 1(7), 365-369, 2023 yil.

8. D.K.Karimov “Velosipedda yurish orqali o‘rta yoshli aholi orasida o‘tkaziladigan sog‘lomlashtirish mashg‘ulotlarining tibbiy-fiziologik asoslari”. Maqola. Educational Research in Universal Sciences 2 (15), 94-99. 2023 yil.

9. A.Yu.Atajanov, D.K.Karimov “Harakatli o‘yinlarning yosh sportchilar va bolalarni tarbiyalashdagi nazariy ahamiyati”**.** Maqola. Educational Research in Universal Sciences 2 (15), 174-178. 2023

10. D.K.Karimov “Velosiped sport turi bilan o‘rta yoshli aholi uchun sog‘lomlashtiruvchi yo‘nalishdagi mashg‘ulotlarni o‘tkazish xususiyatlari”. Maqola. Fan sportga jurnali. 79-83 betlar. 2023 yil.

TALABALARNING BILIM, KO‘NIKMALARINI OSHIRISHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

Tayirov Hamza O‘ktamovich
Urganch davlat pedagogika instituti, Texnologik ta’lim kafedrasi o‘qituvchisi
thamzanet@gmail.com

Annotatsiya. Axborotlashtirish bugungi kunda ta’lim tizimini modernizatsiya qilishning eng muhim usullaridan biri hisoblanadi. Bu jarayon nafaqat texnika va texnologiyaning rivojlanishi bilan, balki axborot jamiyatining shakllanishi natijasida yuzaga kelayotgan o‘zgarishlar bilan ham bevosita bog‘liq. Hozirgi kunda har qanday o‘qituvchi o‘quv jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan (AKT) foydalanish imkoniyatiga ega bo‘lib, bu darslarning mazmunini boyitish, o‘quvchilar bilan tezkor axborot almashinuvini yo‘lga qo‘yish imkonini beradi. Shuningdek, zamonaviy o‘qituvchi nafaqat bilim beruvchi va tarbiyachi sifatida faoliyat yuritadi, balki yangi texnologiyalarni joriy etish orqali o‘zining kasbiy va ijodiy rivojlanishiga ham turtki oladi. AKTdan foydalanish didaktik vazifalarni samarali hal qilishga ko‘maklashib, ta’lim jarayonini yanada takomillashtirishga xizmat qiladi. Zamonaviy ta’lim tizimining asosiy vazifalaridan biri shaxsni shakllantirishga yo‘naltirilgan loyiha va dasturlarni ishlab chiqish bo‘lib, ushbu maqolada ana shu jihatlar atroflicha yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: axborotlashtirish, imitatsion model, o‘quvchi, pedagogika, mashg‘ulot, o‘yin, qiziqish, texnologik taraqqiyot, kompetensiya, elektron vositalar, internet, taqdimot, dastur, elektron-pochta, telekonferensiyalar, vebinar, raqamli sinf, kompyuter, motivatsiya, multimediya vositalari, integratsiyalash, individuallashtirish, intensivlashtirish, animatsiya, ta’lim landshafti, peyzaj, interaktiv platforma, yuqori malaka.

ЗНАЧИМОСТЬ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ПОВЫШЕНИИ ЗНАНИЙ И НАВЫКОВ СТУДЕНТОВ

Аннотация. Информатизация является одним из важнейших путей модернизации системы образования сегодня. Этот процесс напрямую связан не только с развитием техники и технологий, но и с изменениями, происходящими в результате формирования информационного общества. В наше время любой учитель имеет возможность использовать информационно-коммуникационные технологии (ИКТ) в образовательном процессе, что позволяет обогатить содержание уроков и наладить быстрый обмен информацией с обучающимися. Также современный педагог работает не только как воспитатель и воспитатель, но и получает толчок к своему профессиональному и творческому развитию за счет внедрения новых технологий. Использование ИКТ помогает эффективно решать дидактические задачи и служит дальнейшему совершенствованию образовательного процесса. Одной из основных задач современной системы образования является разработка проектов и программ, направленных на формирование личности, и эти аспекты подробно рассмотрены в данной статье.

Ключевые слова: информация, имитационная модель, студент, педагогика, обучение, игра, интерес, технологическое развитие, компетентность, электронные инструменты, Интернет, презентация, программа, электронная почта, телеконференции, вебинар, цифровой класс, компьютер, мотивация, мультимедийные инструменты, интеграция, индивидуализация, интенсификация, анимация, образовательный ландшафт, ландшафт, интерактивная площадка, высшая квалификация.

THE IMPORTANCE OF USING INFORMATION TECHNOLOGY IN INCREASING STUDENTS' KNOWLEDGE AND SKILLS

Annotation. Informatization is one of the most important ways to modernize the education system today. This process is directly related not only to the development of technology and technology, but also to the changes occurring as a result of the formation of the information society. Nowadays, any teacher has the opportunity to use information and communication technologies (ICT) in the educational process, which allows them to enrich the content of lessons and establish a quick exchange of information with students. Also, a modern teacher works not only as a teacher and educator, but also receives an impetus for his professional and creative development through the introduction of new technologies. The use of ICT helps to effectively solve didactic problems and serves to further improve the educational process. One of the main tasks of the modern education system is the development of projects and programs aimed at personality formation, and these aspects are discussed in detail in this article.

Key words: information, simulation model, student, pedagogy, learning, game, interest, technological development, competence, electronic tools, Internet, presentation, program, e-mail, teleconferences, webinar, digital classroom, computer, motivation, multimedia tools, integration, individualization, intensification, animation, educational landscape, landscape, interactive platform, higher qualification

Kirish. Bugungi kunda axborotni qayta ishlash qobiliyati juda qimmatli resurs hisoblanadi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni o'zlashtirish va ularni o'qitish jarayonida samarali qo'llash har bir pedagogning kasbiy faoliyatidagi muhim kompetensiyalardan biri sanaladi. Bu esa elektron ta'lim tizimining ahamiyatini oshirib, ta'lim sifatini yaxshilash imkonini beradi. Kelajak jamiyatining yetuk vakili bo'lishi kutilayotgan maktab bitiruvchilari mustaqil fikrlash, faol harakat qilish, axborotni qayta ishlash va tahlil qilish, qarorlar qabul qilish hamda o'zgaruvchan hayot sharoitlariga moslashish qobiliyatiga ega bo'lishlari zarur. Zamonaviy texnologik taraqqiyotning barcha yutuqlari yosh avlod tomonidan katta qiziqish bilan qabul qilinayotgani sababli, ularning bilishga bo'lgan intilishidan unumli foydalanish juda muhimdir. O'qituvchi rahbarligidagi darslar esa o'quvchilarga kompyuter texnologiyalaridan samarali foydalanish, kerakli axborotni izlab topish va uni qayta ishlash bo'yicha asosiy ko'nikmalarni shakllantirishga yordam beradi [1].

Adabiyotlar sharhi. Raqamli vositalar talabalarga amaliy mashg'ulotlar bilan shug'ullanish va murakkab texnik tushunchalarni dinamik va interaktiv tarzda o'rganish imkoniyatini beradi. Raqamli texnologiyalar, shuningdek, talabalar o'rtasida hamkorlik va bilim almashishni osonlashtiradi. Onlayn platformalar, virtual jamoalar va ijtimoiy media tarmoqlari talabalarga tengdoshlari bilan bog'lanish, fikr almashish va texnik loyihalari bo'yicha fikr-mulohazalar olish imkoniyatmi beradi. Ushbu hamkorlik muhiti turli xil istiqbollari almashish va innovatsion echimlarni birgalikda yaratish orqali ijodkorlikni rivojlantiradi (Yang.Y.T.C. 2013) [8].

Bundan tashqari, raqamli texnologiyalar ko'plab onlayn manbalar va o'quv qo'llanmalariga kirishni taklif qiladi, bu o'z-o'zini boshqarish va mustaqil izlanish imkonini beradi. Talabalar ushbu resurslardan texnik tushunchalarni tushunishni chuqurlashtirish, yangi ko'nikmalarga ega bo'lish va rivojlanayotgan texnologiyalarni o'rganish uchun foydalanishlari mumkin, Bu o'z-o'zini hidoyat ta'lim muxtoriyat qilmoqda va ularning ijodiy jarayonlar (Peppler.K. 2013) egalik olish talabalarga kuch beradi [9].

Mazmuni. Zamonaviy ta'lim tizimini takomillashtirishning asosiy yo'nalishlaridan biri – ta'lim jarayonini axborotlashtirish, xususan, axborot texnologiyalaridan keng foydalanishdir.

Ta'limni axborotlashtirish deganda o'quv jarayonida axborot texnologiyalaridan foydalanish, o'quv natijalarini nazorat qilish va baholash, ilmiy-tadqiqot va ilmiy-uslubiy faoliyatni takomillashtirish, shuningdek, ta'limni boshqarish jarayonlarini avtomatlashtirish tushuniladi. Axborot texnologiyalari o'quv jarayonida ma'lumotlarni yanada chuqurroq o'zlashtirishga yordam berib, darslarni qiziqarli va samarali tashkil etishga imkon yaratadi. Ta'lim vositalarining axborotlashtirilishi o'quv jarayonini takomillashtirishga xizmat qiladi, shu bilan birga, o'quvchilarning mavzuni yaxshiroq tushunishlari uchun turli xil interaktiv usullarni qo'llash imkonini beradi [3].

Zamonaviy pedagogik texnologiyalar tarkibida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) muhim o'rin egallaydi. AKT axborotni to'plash, qayta ishlash va tarqatish, shuningdek, ta'lim jarayonida undan samarali foydalanish imkonini beruvchi usul va vositalarni o'z ichiga oladi. Axborotlashtirish – ta'lim tizimini modernizatsiya qilishning asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lib, kompyuter texnologiyalaridan foydalanish ta'lim jarayonini o'zgartirish, darslarni faollashtirish va o'quvchilarning mustaqil ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. AKT asosida tashkil etilgan darslar fanlarni o'zlashtirish jarayonini jonlantirib, o'quvchilarga turli mavzularni vizual va interaktiv usullarda tushuntirish imkoniyatini yaratadi. Ayniqsa, ayrim mavzularni o'rganishda jarayonlarni kuzatish va ularni takror ko'rish imkoniyati mavjudligi o'quvchilarga tushunchalarni mustahkamlashga yordam beradi. AKT vositalaridan foydalangan holda tashkil etilgan ta'lim jarayoni o'quvchilarga grammatik qoidalarni eslab qolish, mavzularni chuqur o'zlashtirish va vizual mashqlar orqali bilimlarini mustahkamlash imkonini beradi. Shu sababli, kompyuter texnologiyalaridan foydalanish nafaqat dars jarayonini faollashtiradi, balki o'quvchilarning mustaqil fikrlash va tahlil qilish qobiliyatini ham rivojlantiradi. Umuman olganda, zamonaviy ta'lim jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish samaradorlikni oshirish bilan birga, o'quvchilarning o'zlashtirish darajasini ham sezilarli ravishda yaxshilaydi. AKT vositalarining to'g'ri va maqsadli qo'llanilishi pedagogik jarayonda innovatsion yondashuvlarni joriy etish hamda zamonaviy jamiyat ehtiyojlariga mos kadrlar tayyorlash imkonini beradi.[4]

Yangi axborot texnologiyalarining ta'lim jarayonidagi roli. Zamonaviy axborot texnologiyalarini qo'llash ta'lim jarayonining imkoniyatlarini kengaytirib, uning amaliy yo'nalishini kuchaytiradi. Bu esa o'quvchilarning darslarga bo'lgan qiziqishini oshirib, ularning intellektual va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, yangi bilimlarni mustaqil ravishda o'zlashtirish, ijodiy tafakkurni shakllantirish va kelajakdagi maqsadlarini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi. An'anaviy o'qitish usullari bunday maqsadlarga to'liq javob bera olmaganligi sababli, zamonaviy maktab quyidagi imkoniyatlarni taqdim etishi lozim:

- Har bir o'quvchini faol o'quv jarayoniga jalb qilish;
- Muammolarni hal qilishda jamoaviy hamkorlikni shakllantirish;
- Boshqa maktab va viloyatlardagi tengdoshlari bilan muloqotni kengaytirish;
- Dunyo miqyosidagi axborot resurslariga erkin kirish imkoniyatini yaratish, shuningdek, turli mavzularda mustaqil fikr yuritish ko'nikmalarini rivojlantirish.

Bu jarayon nafaqat ta'lim mazmuniga, balki qo'llaniladigan o'qitish texnologiyalariga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. O'qituvchi shuni yaxshi anglab yetishi kerakki, kompyuter faqatgina o'qitish vositasi bo'lib, u o'qituvchining o'rnini bosuvchi mexanik qurilma emas. Aksincha, u bolalarning rivojlanishiga, kognitiv (bilish) faoliyat imkoniyatlarini oshirishga xizmat qiluvchi kuchli vositadir.

Kompyuter texnologiyalarining o'qitish jarayoniga joriy etilishi pedagoglarga yanada ijodiy faoliyat olib borish va o'quvchilarga individual ta'lim yo'nalishlarini yaratish imkonini beradi. Shu sababli, bugungi kunda ta'lim jarayonini tashkil etishda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan, xususan, Internetning global axborot tarmoqlaridan keng foydalanish zaruriyati

ortib bormoqda.

Ta'lim jarayonini axborotlashtirishning muhim tarkibiy qismi – darslarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish tajribasini to'plash va uni rivojlantirishdir. Bu esa o'qitish jarayonining samaradorligini oshirish bilan birga, ta'lim sifatining yangi bosqichga ko'tarilishiga ham xizmat qiladi. Axborot texnologiyalari bugungi kunda turli murakkab vazifalarni hal etishda muhim vosita hisoblanadi. AKT vositalari ta'lim jarayonini individuallashtirish, o'quvchilarning mustaqil faoliyatini rag'batlantirish, motivatsiyani oshirish hamda kognitiv faollikni rivojlantirishda samarali vosita bo'lib xizmat qiladi. O'quvchilar internet orqali axborot izlash, ma'lumotlarni saralash, ularni tanqidiy baholash va taqqoslash kabi ko'nikmalarni shakllantiradi. Bu esa zamonaviy inson uchun zarur bo'lgan axborot madaniyatini rivojlantirishga, mustaqil ta'lim olish ko'nikmalarini shakllantirishga yordam beradi. Natijada, ta'lim jarayoni yanada samarali bo'lib, bilim olish jarayoni o'quvchilar uchun qiziqarli va ilhomlantiruvchi tus oladi. Agar ta'lim jarayoni qiziqish uyg'otsa, taraqqiyotga zamin yaratiladi va bu ta'lim sifati oshishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi [7].

Pedagogik tizim quyidagi asosiy tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladi: o'qituvchi, o'quvchi, ta'limning maqsad va vazifalari, ta'lim mazmuni, o'qitish shakllari, metodlari va vositalari. Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari ushbu barcha elementlarga o'z ta'sirini o'tkazmoqda.

Talaba uchun kompyuter turli funksiyalarni bajarishi mumkin: Ular shaxsiy ehtiyojlariga qarab, ishning turli bosqichlarida va har xil imkoniyatlarda kompyuterdan foydalanishlari mumkin. O'qituvchining vazifalarini bajarishda kompyuterning roli katta bo'lib, u ko'pincha talabalarning mustaqil va uy vazifalarini bajarish, xorijiy tillarni o'rganish, bilim bo'shliqlarini to'ldirish hamda o'zlashtirish darajasini oshirish jarayonida qo'llaniladi. Bunday hollarda maxsus ishlab chiqilgan o'quv dasturlaridan foydalanish ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Hozirgi kunda ta'lim tizimidagi asosiy maqsad va vazifalar sezilarli o'zgarishlarga duch kelmoqda. Endilikda asosiy e'tibor bilimlarni shunchaki o'zlashtirishdan ko'ra, talabalarning kompetensiyalarini shakllantirishga qaratilmoqda. Shunga qaramay, dars hali ham o'quv jarayonining asosiy elementi bo'lib qolmoqda. O'quvchilarning ta'lim faoliyati asosan dars jarayoniga yo'naltirilgan bo'lib, bu jarayonda eng samarali usullaridan biri axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan (AKT) foydalanish hisoblanadi.

Natijalar. Bugungi kunda har qanday o'qituvchi ta'lim jarayonida AKT vositalaridan keng foydalanish imkoniyatiga ega. Ular orasida internet resurslari, elektron darsliklar, lug'atlar va ma'lumotnomalar, turli dasturlar, chatlar, forumlar, bloglar, elektron pochta, telekonferensiyalar, vebinarlar va boshqa raqamli vositalar mavjud. Ushbu texnologiyalar yordamida mashg'ulotlarning mazmuni yangilanadi, o'quv jarayoni ishtirokchilari o'rtasida tezkor axborot almashinuvi yo'lga qo'yiladi. Buning natijasida o'qituvchi nafaqat ta'lim beruvchi, balki rivojlantiruvchi va tarbiyalovchi sifatida faoliyat olib boradi, shu bilan birga, yangi texnologiyalarni joriy etish orqali o'zining kasbiy o'sishi va ijodiy rivojlanishiga ham zamin yaratadi.

Bundan tashqari, o'quv jarayonida AKTdan foydalanish quyidagi didaktik vazifalarni hal etishga yordam beradi:

- o'quvchilarda barqaror motivatsiyani shakllantirish;
- ularning fikrlash qobiliyatlarini faollashtirish;
- passiv o'quvchilarni jarayonga jalb qilish;
- ta'lim jarayonining intensivligini oshirish;
- turli millat va madaniyat vakillari bilan jonli muloqot imkoniyatini ta'minlash;
- o'quv jarayonini zamonaviy ta'lim materiallari bilan boyitish;
- o'quvchilarni mustaqil ravishda turli axborot manbalari bilan ishlashga o'rgatish;

- o‘quvchilarga yo‘naltirilgan va tabaqalashtirilgan ta’lim yondashuvini amalga oshirish;
- ta’lim jarayonini yanada interaktiv qilish va o‘quvchilarni ilmiy-tadqiqot faoliyatiga jalb etish;
- ta’lim jarayonining moslashuvchanligini ta’minlash.

Shunday qilib, AKTdan samarali foydalanish o‘quv jarayonini yanada mazmunli va samarali qilishga yordam beradi hamda zamonaviy ta’limning muhim tarkibiy qismiga aylanadi.

Xulosa. Zamonaviy ta’lim jarayonining samaradorligini oshirish uchun axborot-ma’lumot tizimlari, elektron darsliklar, ensiklopediyalar hamda internet resurslarini qo‘llash muhim ahamiyat kasb etadi. Videomateriallardan foydalanish o‘quvchilarning bilim olish faolligini oshirib, ularga kerakli axborotni tez va samarali yetkazish imkonini beradi. Elektron ta’lim resurslari va ular asosida shakllangan zamonaviy axborot-ta’lim muhiti ta’lim sifatini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Raqamli texnologiyalar o‘quvchilarning muammolarni hal qilish, mantiqiy fikrlashni rivojlantirish va jarayonlarni yaxshiroq tushunish kabi kasbiy qobiliyatlarini shakllantirishga ko‘maklashadi. Shuningdek, bu texnologiyalar tez o‘zgarib borayotgan kelajak muhitiga moslashish va unda faol ishtirok etish uchun zarur ko‘nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi. Sinf sharoitida texnologiyalarning qo‘llanilishi o‘quvchilarning bilim olish jarayoniga yanada faolroq jalb etilishiga xizmat qiladi. Bugungi kunda yosh avlod elektron qurilmalardan keng foydalanishga o‘rganib qolganligi sababli, ularni o‘quv jarayoniga integratsiya qilish o‘quvchilarning qiziqish va motivatsiyasini oshirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1.Pardabaev J.E. “O‘quvchilar kasb–hunar ko‘nikmalarini rivojlantirishda robototexnikaning o‘rni” Fan va jamiyat, 2020 yil 2-son. 81-83 b.
2.Kuldasheva Sanobar Modern Technologies in Improving the Quality of Teaching. International Journal of Psychosocial Rehabilitation, Vol. 24, Issue 04, 2020.
3.Tojiev Nuriddin Shukur o‘gli. Dars sifatini oshirishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences VOLUME 1 | ISSUE 3 ISSN 2181-1784 Scientific Journal Impact Factor. April 2021.
4.Ayupov R.X. Ta’limda axborot texnologiyalari. O‘quv qo‘llanma. - T.: TPDU, 2020 yil
5.Юнусова Дильнавоз Панджиевна. Методика обучения русскому языку в начальных классах. Analytical Journal of Education and Development. Volume: 02 Issue: 01 | 2022
6.Fozilov Ibrokhimjon Rakhimovich1, Fozilov Jakhongir Ibrokhimovich. The Use of Information Technology in Primary Schools. Texas Journal of Multidisciplinary Studies. 07.11.2021.
7.Temirov Shahrizod Uchqunjonovich. Information technologies and their importance in the educational process. International scientific-practical conference on the topic of —Problems and perspectives of modern technology in teaching foreign languages VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 20 ISSN 2181-1784 SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7
8.Yang.Y.T.C. 2013. Gamification for promoting engagement and motivation in higher education. A systematic review. Educational Research Review.
9.Peppier.K. 2013. Creative learning environments in education - A systematic literature review. Thinking Skills and Creativity.

MAKTABGACHA TA'LIM YO'NALISHIDAGI TALABALARDA BIONIKA ORQALI KREATIVLIKNI SHAKLLANTIRISHNING METODOLOGIK ASOSLARI

Madaminova Munavvar Rohat qizi
Urganch davlar pedagogika instituti Makabgacha ta'lim va tabiiy fanlar kafedrasi o'qituvchisi,
munavvarmadaminova0610@gmail.com
Nazarova Sadoqat Ilhom qizi
Urganch davlar pedagogika instituti Makabgacha ta'lim va tabiiy fanlar kafedrasi o'qituvchisi,
nazarovasadoqat082@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada bionikaning maktabgacha ta'lim jarayonida bolalar kreativligini shakllantirishdagi o'rni va metodologik asoslari tahlil qilinadi. Bionika, tabiiy tizimlar va ularning ishlash prinsiplari asosida yangi texnologiyalar yaratishning ilmiy asoslarini taqdim etadi. Maqolada bionik yondashuvlarning maktabgacha ta'limda bolalar ijodiy fikrlashini rivojlantirishdagi samarali usullari, o'quv jarayonida ekologik ongni shakllantirish, tabiiy va texnologik dunyo o'rtasidagi bog'lanishni his qilish, shuningdek, o'yinlar va tasviriy san'at metodlari orqali bionik g'oyalarni tanishtirish muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: bionika, kreativlik, maktabgacha ta'lim, ijodiy fikrlash, ekologik ong, innovatsion fikrlash, tabiat va texnologiya, bionik texnologiyalar, o'yinlar va tasviriy san'at metodlari, pedagogik yondashuv

МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ ТВОРЧЕСТВА У ОБУЧАЮЩИХСЯ ДОШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ СРЕДСТВАМИ БИОНИКИ

Аннотация. В данной статье анализируются роль и методические основы бионики в формировании творческих способностей детей в процессе дошкольного образования. Бионика обеспечивает научную основу для создания новых технологий, основанных на природных системах и принципах их работы. В статье описаны эффективные методы бионических подходов в развитии творческого мышления детей в дошкольном образовании, формировании экологического сознания в образовательном процессе, ощущения связи природного и технологического мира, а также бионического роста через игры и обсуждаются методы изобразительного искусства.

Ключевые слова: бионика, творчество, дошкольное образование, творческое мышление, экологическое сознание, инновационное мышление, природа и техника, бионические технологии, игры и методы изобразительного искусства, педагогический подхо

METHODOLOGICAL BASIS OF FORMING CREATIVITY IN STUDENTS IN PRESCHOOL EDUCATION THROUGH BIONICS

Annotation. This article analyzes the role and methodological foundations of bionics in the formation of children's creativity in the process of preschool education. Bionics provides the scientific basis for creating new technologies based on natural systems and their principles of operation. The article describes the effective methods of bionic approaches in the development of children's creative thinking in preschool education, the formation of environmental awareness in the educational process, the feeling of the connection between the natural and technological world, as well as bionic growth through games and visual arts methods. introduction of oyas is

discussed.

Key words: bionics, creativity, preschool education, creative thinking, environmental awareness, innovative thinking, nature and technology, bionic technologies, games and visual art methods, pedagogical approach

Annotatsiya. Mazkur maqolada virtual muzeylarning tushunchasi, mohiyati va ularning rivojlanish tarixi batafsil tahlil qilingan. Virtual muzeylarning ta’lim jarayonidagi o‘rni, ayniqsa, tarix fanini o‘qitishda va madaniy merosni saqlashda tutgan o‘rni ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, O‘zbekistonda virtual muzeylarni rivojlantirish jarayonlari, davlat dasturlari va texnologik imkoniyatlar o‘rganilgan. Maqola virtual muzeylardan pedagogik faoliyatda samarali foydalanish bo‘yicha tavsiyalar bilan boyitilgan.

Kalit so‘zlar: virtual muzeylar, raqamli texnologiyalar, madaniy meros, ta’lim tizimi, tarix fani, o‘zbekiston muzeylari, interfaol ta’lim, raqamlashtirish, virtual haqiqat, zamonaviy pedagogika.

ПОНЯТИЕ ВИРТУАЛЬНЫХ МУЗЕЕВ, ЕГО СУТЬ И ИСТОРИЯ РАЗВИТИЯ

Аннотация. В статье дается подробный анализ концепции, сущности и истории виртуальных музеев. Рассмотрена роль виртуальных музеев в образовательном процессе, особенно в преподавании истории и сохранении культурного наследия. Также были изучены процесс развития виртуальных музеев в Узбекистане, государственные программы и технологические возможности. Статья дополнена рекомендациями по эффективному использованию виртуальных музеев в педагогической деятельности.

Ключевые слова: виртуальные музеи, цифровые технологии, культурное наследие, система образования, история, музеи Узбекистана, интерактивное образование, оцифровка, виртуальная реальность, современная педагогика.

THE CONCEPT OF VIRTUAL MUSEUMS, ITS ESSENCE AND HISTORY OF DEVELOPMENT

Annotation. This article analyzes in detail the concept, essence and history of virtual museums. The role of virtual museums in the educational process, especially in teaching history and preserving cultural heritage, is considered. The development processes of virtual museums in Uzbekistan, state programs and technological capabilities are also studied. The article is enriched with recommendations for the effective use of virtual museums in pedagogical activities.

Keywords: Virtual museums, digital technologies, cultural heritage, education system, history, museums of Uzbekistan, interactive education, digitization, virtual reality, modern pedagogy.

Kirish. Madaniy merosni asrab-avaylash, tarixi haqida kengroq bilim olish va ularni zamonaviy avlodga yetkazish bugungi kunda global ahamiyat kasb etmoqda. Virtual muzeylar bu jarayonda zamonaviy texnologiyalarni ta’lim va ilmiy tadqiqotlarga tatbiq etish uchun muhim vosita sifatida shakllandi. Hozirda dunyo bo‘ylab madaniyat va san’atni virtual makonda ommalashtirish hamda tarixni yanada yaqinroq o‘rganish imkoniyati yaratilmoqda. Ushbu maqolada virtual muzey tushunchasi, uning mohiyati va rivojlanish tarixiga batafsil to‘xtalamiz.

Adabiyotlar sharhi. Virtual muzey – bu raqamli texnologiyalar yordamida tashkil etilgan platforma bo‘lib, an’anaviy muzey eksponatlarini virtual formatda taqdim etadi. Virtual muzeylar internet orqali kirish imkoniyati bilan ta’minlangan, interaktiv va ko‘p funksiyali platformalardir. Virtual muzeylar bu atrofimizdagi dunyo haqidagi tushunchamizni yaxshilash

uchiun shaxsiylashtirilgan, immersiv, interaktiv usulni yaratishga qaratilgan yangi aloqa modeli. Virtual muzey atamasi raqamli yaratilishning har xil turlarini anglatuvchi qisqartmadir.[3] Uning g‘oyasi yangi bo‘lmasa-da, ishlab chiqish va tadbiq etish bo‘yicha olib borilgan izlanishlar shu paytgacha Yevropani kutilgandek bu sohada yetakchi bo‘lishga olib kelmadi. Bu sektor kino va o‘yin sektorlaridan farqli o‘laroq, kerakli darajada keng tarqalish uchun yetarli darajada yetuklikka erishmagan. Bundan tashqari, Yevropada AQSHdan farqli o‘laroq biz hali ham keng qo‘llanilishiga unchalik qiziqmagan vositalarni ishlab chiqadigan tadqiqot va bozorga qaratilgan o‘n yillik rejalarni tuzadigan sanoat o‘rtasida uzilishlarga duch kelamiz. Virtual muzey domeni - bu barcha muammolar jamiyatning haqiqiy manfaati uchun hal qilinishi kerak bo‘lgan mukammal dastur maydoni.[3]

Virtual muzeylarning asosiy afzalliklarini quyidagilarda ko‘rib o‘tishimiz mumkin bo‘ladi.

- Oson va keng ommaga kirish: Istalgan joydan va istalgan vaqtda foydalanish imkoniyati.
- Ko‘p qirrali imkoniyatlar: Tasvirlar, 3D modellar, audio va video materiallarni taqdim etish.
- Ta’limiy ahamiyat: Tarixiy va madaniy merosni keng ommaga tarqatish va bilimlarni boyitish.

[2]

Mazmuni. Virtual muzeylar nafaqat an’anaviy muzeylarning raqamli nusxasi, balki yangi bilim olish va madaniyatni interaktiv o‘rganish imkonini beruvchi vositadir. Ular ta’lim tizimida yangi pedagogik yondashuvlarni joriy etishga xizmat qiladi.[5]

Virtual muzeylarning rivojlanish bosqichini shartli ravishda uch qismga bo‘lib olsak bo‘ladi.

- Dastlabki bosqich (1990-yillar)
- Texnologik rivojlanish (2000-yillar)
- Hozirgi bosqich (2010-yillardan keyin)

Dastlabki bosqich (1990-yillar). Virtual muzeylarning ilk namunalarini internet texnologiyalarining rivojlanishi bilan bog‘lash mumkin. 1994-yilda tashkil etilgan Virtual Museum of Canada ushbu sohaning pionerlaridan biri hisoblanadi. Dastlab, faqat oddiy matn va tasvirlar taqdim etilgan bo‘lsa-da, bu bosqich texnologik innovatsiyalar uchun poydevor yaratdi.

Texnologik rivojlanish (2000-yillar). 2000-yillarda multimedia vositalarining rivojlanishi bilan virtual muzeylar ko‘p funksiyali va interaktiv bo‘lib qoldi. Masalan, Luvr muzeyi va Britaniya muzeyi kabi mashhur an’anaviy muzeylar o‘zlarining virtual platformalarini yaratishdi.

Hozirgi bosqich (2010-yillardan keyin). Hozirda virtual haqiqat (VR), kengaytirilgan haqiqat (AR) va sun’iy intellekt texnologiyalari yordamida virtual muzeylar yangi darajaga chiqdi. Foydalanuvchilar endi 3D modellar orqali eksponatlarni real vaqtda o‘rganishi yoki virtual sayohat qilish imkoniyatiga ega bo‘lishmoqda[4].

Virtual muzeylarni O‘zbekistonda rivojlanish bevosita O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017- yil 7- fevraldagi PF-4947-son Farmoni bilan bog‘liqdir. Ushbu farmon bilan tasdiqlangan “2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harkatlar strategiyasini “Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari” yilida amalga oshirishga oid Davlat asturi” hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Madaniyat va san’at sohasini yanada rivojlantirish va takomillashtirga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2017-yil 31-maydagi PQ-3022-son qarorini ijro etish yuzasidan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 11-dekabrdagi 975-sonli “ 2017-2027-yillarda davlat muzeylari faoliyatini takomillashtirish va moddiy-texnik bazasini mustahkamlash bo‘yicha komleks chora-tadbirlar dasturini tasdiqlash to‘g‘risida” gi qarorini imzoladi. Qarorning 2017-2027- yillarda davlat muzeylari faoliyatini yanada takomillashtirish va rivojlantirish chora-tadbirlar rejasining 16-qismida virtual muzey loyihasini 2017-2021-yillar oralig‘ida amalaga oshirish mazifasi qo‘yiladi.[1]

Natijalar. O‘zbekistonda virtual muzeylar yaratish va madaniy merosni raqamlashtirish borasida qator davlat dasturlari amalga oshirildi. Jumladan, Samarqanddagi Afrosiyob muzeyi va

Toshkentdagi Amir Temur muzeyi raqamli texnologiyalar yordamida virtual ekskursiyalarni taqdim etmoqda.

Tadqiqotchilarning izlanishlari bo‘yicha Virtual muzeylar ta’lim jarayonida muhim o‘rin tutadi. Ular quyidagi imkoniyatlarni taqdim etadi:

- Innovatsion darslar: O‘quvchilar tarixiy obyektlarni virtual makonda o‘rganish imkoniga ega bo‘ladi.
- Tajriba va ko‘nikma rivojlantirish: 3D texnologiyalar yordamida o‘quvchilar mustaqil izlanish olib borishadi.

Shuni ta’kidlab o‘tish joizki Pandemiya davrida masofaviy ta’limning keng joriy etilishi virtual muzeylarning ahamiyatini yana bir bor ko‘rsatdi. Dunyo bo‘ylab ko‘plab universitetlar virtual muzey resurslaridan dars jarayonida foydalanishni yo‘lga qo‘ydi.

O‘zbekistonda tarix fanini o‘qitishda virtual muzeylar zamonaviy metodik yondashuvlarni tatbiq qilishga xizmat qiladi. Jumladan:

Amir Temur davri eksponatlari bilan interaktiv tanishish;

o‘quvchilarning tarixga oid qiziqishini oshirish.

Xulosa va takliflar. Virtual muzeylar madaniy merosni asrab-avaylash va ta’lim jarayonini boyitishda beqiyos ahamiyatga ega. O‘zbekistonda ushbu yo‘nalishni rivojlantirish uchun quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

1. Virtual muzeylarni ta’lim tizimiga kengroq integratsiya qilish.
2. Mahalliy madaniy va tarixiy obyektlarni raqamlashtirish bo‘yicha davlat dasturlarini kengaytirish.
3. O‘quvchilarning interaktiv vositalardan foydalanish ko‘nikmalarini rivojlantirish.

Virtual muzeylarning kelajagi texnologik taraqqiyotga bog‘liq bo‘lib, ular ta’lim, ilm-fan va madaniyat sohalarida yanada kengroq imkoniyatlarni taqdim etishi shubhasiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “ 2017-2027-yillarda davlat muzeylari faoliyatini takomillashtirish va moddiy-texnik bazasini mustahkamlash bo‘yicha komleks chora-tadbirlar dasturini tasdiqlash to‘g‘risida” gi 2017-yil 11-dekabrdagi 975-sonli qarori.

2. Cameron, F., & Kenderdine, S. (2007). Theorizing Digital Cultural Heritage: A Critical Discourse. MIT Press.

3. Wallace, Karim Omar, Drew Baker, Daniel Pletinckx, Robert Vergnieux, Nicolo Dell’Unto, Joakim Eriksson, Sorin Hermon, Jon Arambarri, Paolo Vigliarolo, Wim Hupperetz, Roberto Scopigno, Massimiliano Corsini, Victor Lopez, Mikel Asensio, Daniele Ferdani, Ivana Cerato, Francesca Pozzi, Michela Ott, Nial O‘ Hoisin, Jaime Kaminski, Emanuel Demetrescu. Terminology, Definitions and Types for Virtual Museums. http://www.v-must.net/media_pubs/documents.

4. Naser, M. (2003). «Virtual Museums: New Perspectives and Technologies». International Journal of Heritage Studies.

5. UNESCO (2021). Digital Museums and Cultural Preservation.

6. Virtual Museum of Canada. https://www.historymuseum.ca.

INGLIZ TILINI O‘QITISHDA METAKOGNITIV YONDASHUVDAN FOYDALANISH VA UNING SAMARADORLIGI

Ismailova Barno Yuldashbayevna
Urganch davlat pedagogika instituti Xorijiy filologiya fakulteti o‘qituvchisi,
barno_ismailova@urspi.uz

Annotatsiy. Maqolada ingliz tilini o‘qitishda qo‘llanilayotgan zamonaviy yondashuvlardan bir metakognitiv yondashuv tahlil qilingan va uning samaradorligi keng yoritib berilgan. Metakognitiv yondashuvning asosi va uning xorijiy tillarni o‘qitish jarayonidagi ahamiyati yoritilingan.

Kalit so‘zlar: ingliz tili, metakognitiv yondashuv, konstruktive ta’lim, talaba, fikrlash, bilim, tushunish, anglash.

USE OF METACOGNITIVE APPROACH IN TEACHING ENGLISH AND ITS EFFECTIVENESS

Annotation. The article analyzes one of the modern metaognitive approaches used in teaching English, and explains its effectiveness. The basis of the metacognitive approach and its importance in the process of teaching foreign languages are highlight.

Key words: English language, metacognitive approach, constructive education, student, thinking, knowledge, understanding, awareness.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ МЕТАКОГНИТИВНОГО ПОДХОДА В ОБУЧЕНИИ АНГЛИЙСКОМУ ЯЗЫКУ И ЕГО ЭФФЕКТИВНОСТЬ

Аннотация. В статье анализируется один из современных подходов, используемых в обучении английскому языку, метакогнитивный подход, и объясняется его эффективность. Выделены основы метакогнитивного подхода и его значение в процессе обучения иностранным языкам.

Ключевые слова: английский язык, метакогнитивный подход, конструктивное образование, ученик, мышление, знание, понимание, осознанность.

Kirish. Ayni paytda mamlakatimizda fan va texnologiyalar jadal rivojlanmoqda va bu millatlararo munosabatlar, iqtisodiy aloqalar va muloqotining kengayishi ingliz tilini o‘rganish borasida amalga oshirilayotgan ishlarni yangi bosqichga ko‘tarishini taqozo etmoqda. Xorijiy tillarni muntazam ravishda o‘rganish uchun zamonaviy materiallar, turli xil yondashuvlar, eng yangi texnologiyalardan foydalanish va eng yuqori darajada o‘rganishni ta’minlaydigan qiziqarli darslar tashkil qilish muhimdir. Tillarni o‘rganishda bir qancha yondashuvlar muhim hisoblanadi, jumladan kommunikativ yondashuv, kompetensiyaviy yondashuv, shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv, integrativ yondashuv, klasterli yondashuv, metakognitiv yondashuv va boshqalar.

Adabiyotlar sharhi. «Metakognitiv» atamasi ikki so‘zdan tashkil topgan «meta» (ustida, yuqorida) va «kognitiv» (bilish, anglash). U insonning o‘z bilish jarayonlari ustidan nazorat qilish va ulardan xabardor bo‘lish qobiliyatini anglatadi. B.Alimov “bilish faoliyati insonning voqelikni bevosita sezishi, his etishi bilan bog‘liq hodisadir”deya ta’riflaydi [1] Metakognitiv yondashuv kognitiv psixologiya va ta’lim nazariyasiga asoslanadi. U ta’lim jarayonlarida xabardorlik, tartibga solish va aks ettirishning muhimligini ta’kidlaydi. Uning asoslarini bir nechta ilmiy va nazariy asoslarga ko‘ra ajraladi bular:

1.Kognitiv psixologiya

Kognitiv psixologiya odamlarning qanday fikrlashi, o‘rganishi va eslashini o‘rganadi. Asosiy tushunchalarga quyidagilar kiradi, Flavellning metakognitsiya nazariyasi (1976) Jon H. Flavell metakognitsiya atamasini birinchi bo‘lim fanga kiritdi va uni «fikrlash haqida o‘ylash» deb ta’rifladi. [2]

Jon H. Flavel metakognitisiyani ikkita asosiy komponentga ajratdi:

Metakognitiv bilim - insonning kognitiv jarayonlaridan xabardorligi yani o‘z-o‘zini boshqarish strategiyalari va usullarini o‘z ichiga oladi

Metakognitiv tartibga solish - bu jarayonlarni boshqarish yani o‘z bilimlarini baxolash va nazorat qilishdir. Ushbu nazariya o‘z-o‘zini anglashning o‘rganishni kuchaytirishdagi rolini ta’kidlaydi. Bilish jarayonlari, o‘z-o‘zini tartibga solish, refleksiya. O‘quvchilar metakognitiv jarayonlar orqali o‘z o‘rganish jarayonlarini kuzatadi, tushunmagan joylarini aniqlaydi va ularni yaxshilash uchun strategiyalar ishlab chiqadi. Metokognitsiya bir necha nazaryalarni o‘z ichiga oladi.

1. Axborotni qayta ishlash nazariyasi:

Odamlar kompyuterlar kabi ma’lumotni qanday qayta ishlashlariga e’tibor beradi. Metakognisiya axborot oqimini kuzatish va nazorat qilishda muhim rol o‘ynaydi, masalan, nimaga e’tibor qaratish yoki e’tibor bermaslik haqida qaror qabul qilish.

2. Konstruktiv ta’lim nazariyalari

Konstruktivizm o‘rganishni faol, o‘z-o‘zini boshqaradigan jarayon sifatida ko‘rib chiqadi, bunda odamlar tajribaga asoslangan bilimlarni quradilar. Asosiy tamoyillarga quyidagilar kiradi:

3.Piagetning kognitiv rivojlanish nazariyasi:

Jan Piaget ta’kidlaganidek, o‘quvchilar o‘zlarining kognitiv tuzilmalarini aks ettirish va o‘z-o‘zini baholash orqali moslashtiradilar. Metagnitsiya uning muvozanat kontseptsiyasiga mos keladi, bunda o‘quvchilar yangi ma’lumotlarni mavjud bilimlar bilan muvozanatlashtiradi.[3]

4.Vygotskiyning ijtimoiy-madaniy nazariyasi:

Lev Vygotskiy “Metakognitsiya o‘quvchilarni o‘z-o‘zini tartibga solishga harakatqiladigan fikr yuritish va dialog orqali rivojlanadi” deya takidlaydi [4]

Ta’lim jarayonida metakognitsiyaning potentsial afzalliklari quyidagilardan iboratdir: Talabalar uchun yuqori natijalar. Metakognitiv amaliyotlar va kognitive cheklovlarni oldini oladi. Mustaqil bilim olish qobiliyatini oshiradi. Talabalar o‘zlarini kuzatish orqali taraqqiyotini sinf ichida va tashqarisida o‘z ta’limini nazorat qilish imkonini beradi. Sabrlilik talabani muvaffaqiyatlari va muvaffaqiyatsizliklarini aniqlash va qaysi strategiyalar ular uchun eng mos kelishini yoki qaysi biri joyida talaba qiynalayotganini aniqlashi o‘z izlanishlarida yaxshilanishdagi qat’iyatini oshiradi. Iqtisodiy samaradorlik, shbu o‘qitish usuli maxsus jihozlarni yoki boshqa katta xaridlarni talab qilmaydi - bu faqat o‘qituvchilardan ushbu usulni samarali o‘qitishni talab qiladi. Bu kam ta’minlangan talabalarga yordam beradi. Metakognitsiya o‘quvchilarga o‘z bilim va tushunchalarini topshiriqlar va kontekstlar bo‘yicha, jumladan, o‘qishni tushunish, yozish,til o‘ranish, matematika, yodlash, fikr yuritish va muammolarni yechishda yordam beradi. Barcha yoshdagi talabalar uchun samarali. Bu usul talabalar o‘zlarining ruhiy holatini anglashga qanday qilib baxtli, hurmatli va o‘ziga ishonish haqida o‘ylash imkonini beradi. Shuningdek, ular boshqa odamlarning nuqtai nazarini yaxshiroq tushunishadi. Tadqiqotlarda boshlang’ich va o‘rta maktab o‘quvchilarini, hattoki hali maktabni boshlamagan bolalarni ham o‘rganishdi va barcha holatlarda samari deb topilingan.

Mazmuni. Metakognitsiyani darslarda qanday qo‘llaymiz? Metakognitsiya talabalarning o‘z ta’limini nazorat qilishlari bilan bog’liq bo‘lsa-da, o‘qituvchi ularga buning uchun ko‘nikma va strategiyalarni ishlab chiqishda yordam berishi kerak. O‘qituvchhi, «o‘rganishni o‘rganish» yoki «fikrlash qobiliyatlari» mashg’ulotlarini o‘tkazishdan ko‘ra, mavzu mazmuni bilan bir qatorda

metakognitsiyani ishlatishni tavsiya qiladi. Ushbu mashg'ulotlar samarasiz, chunki o'quvchilar umumiy maslahatlarni mavzuga oid o'rganish bilan bog'lashda qiynaladilar. Sinfga metakognitiv strategiyalar va tadbirlarni kiritishdan oldin yana bir qancha narsalarni ko'rib chiqish kerak. Bular: Darsning tuzilishi va muhiti orqali butun darsingiz talabalarga metakognitiv strategiyalarni qo'llash imkonini beradigan tarzda tuzilishi kerak. Umuman olganda, siz darslarni to'rt bosqichga bo'lishingiz kerak: masalan quyidagi strategiyadan foydalansangiz bo'ladi, eslatish, rejalashtirish, bajaring va ko'rib chiqish. [5]

«Eslat» bosqichida talabalarga mavzu bo'yicha oldingi bilimlarini va ushbu mavzu bo'yicha o'rganish uchun ilgari qo'llagan strategiyalarini eslatish yoki so'rash o'z ichiga oladi.

«Reja» bosqichi o'quvchilarga vazifa (o'rganish maqsadi) qo'yishdan iborat. O'quv maqsadi aniq va aniq bo'lishi kerak. Talabalar bunga o'z yondashuvlarini, ular foydalanadigan strategiyalarni, ularga qancha vaqt ketishini - to'g'ri kuch sarflashlari uchun - va nima noto'g'ri bo'lishi mumkinliginim rejalashtirishlari kerak. Ularning vazifani qanchalik yaxshi bajarishini bashorat qilish ham metakognitsiyaga yordam beradi.

"Bajar" bosqichida o'quvchilar topshiriqni bajaradilar, o'qituvchi ularni kuzatib boradi. Ularga yordam berish uchun shu jarayonda, ularga mulohaza yurituvchi jumlalar qatorini berishingiz mumkin (masalan, "Men vazifani muvaffaqiyatli bajaryapman, chunki…", "bu strategiya ishlayapti, chunki…", "Meni chalkashtirib yubordi…" kabi, «Men strategiyamni o'zgartirishim kerak bo'lishi mumkin, chunki ...» va «mening keyingi qadamlarim ...»). Ularni chalkashtirib yuboradigan narsalarni ajratib ko'rsatish ayniqsa muhimdir, chunki bu talabalarga chalkashlik o'rganishning ajralmas qismi ekanligini ko'rsatadi. Biz tushunmaydigan narsalarni tan olish ham yaxshi metakognitsiyaga olib keladi.

Natijalar. Nihoyat, "Ko'rib chiqish" bosqichida (odatda dars oxirida) o'qituvchi o'quvchilariga o'rganganlarini qayta ko'rib chiqishlari uchun vaqt berishi kerak – ularning qo'llagan strategiyasi maqsadiga erishishda qanchalik muvaffaqiyatli bo'ldi? Nima qildi va nima yaxshi o'tmadi? Keyingi safar ular qanday yo'l tutishlari mumkin va ular bu strategiyalarni yana qanday boshqa muammolar uchun ishlatishlari mumkin? Degan savollarga talaba to'liq anglay olishi kerak.

Metakognitiv yondashuvning qo'llanilishi Metakognitiv yondashuvning nazariy asoslari uning ta'lim, psixologiya va kasbiy rivojlanishda amalga oshirilishini qo'llab-quvvatlaydi. O'rganishni kuchaytirish uchun reflektiv amaliyotlarni rag'batlantirish. Metakognitiv yondashuvning nazariy asoslari uning ta'lim, psixologiya va kasbiy rivojlanishda amalga oshirilishini qo'llab-quvvatlaydi:

1. O'rganishni kuchaytirish uchun reflektiv amaliyotlarni rag'batlantirish.
2. Muammolarni hal qilish uchun moslashuvchan strategiyalarni ilgari surish.
3. O'quvchilarning mustaqilligi va o'zini o'zi boshqarish imkoniyatlarini oshirish.

Oddiy qilib aytganda, metakognitiv – bu qanday fikrlayotganimizni, o'rganayotganimizni va muammolarni qanday hal qilayotganimizni anglash va bu jarayonlarni boshqarishdir. Bu quyidagilarni o'z ichiga oladi:

O'z bilimlarini va cheklovlarini bilish.

O'z fikrlash va o'rganish jarayonlarini kuzatish.

Maqsadlarga erishish uchun strategiyalarni rejalashtirish va qo'llash.

Natijalarni baholash va xatolarni tuzatish.

Metakognitiv qobiliyatlar inson o'qish va bilim olish samaradorligini oshiradi. Masalan, talaba yangi mavzuni o'rganayotganda o'zining qayerda qiyinchiliklarga duch kelganini tahlil qilib, o'rganish strategiyasini moslashtirishi mumkin.

Metakognitiv o'qitish – bu o'quvchilarni o'zini o'rganish jarayonlarini anglash, kuzatish va boshqarish qobiliyatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan pedagogik yondashuvdir. Bu jarayon

quyidagi elementlarni o‘z ichiga oladi:

1. O‘z-o‘zini anglash va nazorat qilish. O‘quvchilarga o‘zini o‘rganish jarayonlarini tushunishga yordam berish. O‘zini kuchli va zaif tomonlarini aniqlash undash. Qaysi mavzularni tushunganini va qaysilarini yaxshiroq o‘rganishi kerakligini bilish.

2. O‘qitish strategiyalari. Rejalashtirish: O‘quvchilarga o‘quv vazifalarini bajarishdan oldin maqsadlar qo‘yish va qanday usul bilan erishishini belgilash, yani vazifani bajarishdan oldin uni bajarish uchun reja tuzdirish. Nazorat qilish: O‘quvchilarga o‘z jarayonlarini kuzatish va xatolarni aniqlash bo‘yicha yordam berish ularni savollar bilan tushungan tushunmaganini anglatish. Baholash: O‘quvchilarga natijalarini tahlil qildirish va kelajakda qanday yaxshilanishi mumkinligini tushunish uchun yordam ko‘rsatish.

3. Refleksiya qilish (fikr yuritish). O‘quvchilarga o‘zini o‘rganish tajribasini tahlil qilishga yordam berish. Qanday strategiyalar ishlaganini va qaysilari ishlamaganini baholash.

4. Savollarga javob berish va ulardan foydalanish. Metakognitiv o‘qitishda savollar muhim rol o‘ynaydi: «Nega men buni o‘rganmoqdaman?» «Qanday qilib bu bilimni boshqa sohalarda qo‘llashim mumkin?» «Men ushbu topshiriqni bajarish uchun qaysi usullardan foydalanishim kerak?»

5. O‘quvchilarga o‘rganish strategiyalarini o‘rgatish. Masalan: Klassik strategiyalar: Konspekt qildirish, asosiy g’oyalarni ajratib ko‘rsatish. Kognitiv strategiyalar: Diagrammalar tuzish, fikrlarni bog’lash. Metakognitiv strategiyalar: O‘z fikrlash jarayonlarini yozib borish, «o‘qishdan keyin nima tushundim» usulini qo‘llash.

6. Yordamchi vositalar va texnikalar. Jurnal yoki kundalik yuritish. O‘quvchilarga o‘z bilimlari va jarayonlarini kuzatish uchun vizual diagrammalarni yaratish. Feedback (fikr-mulohaza) tizimini qo‘llash.

Xulosa. Metakognitiv o‘qitish orqali o‘quvchilar faqat bilim olish bilan cheklanmay, balki o‘zlari o‘rganishni qanday qilib samarali amalga oshirishni o‘rganadilar. Bu ularni mustaqil o‘quvchilarga aylantiradi va kelajakda o‘zlarini bilimlarini erkin boyita oladilar.

Metakognitiv yondashuv Ingliz tilini o‘rgatishda samarali usullardan biridir. Bu yondashuv o‘quvchilarning o‘zini o‘qish jarayonlarini anglashiga, kuzatishiga va boshqarishiga yordam beradi deb ta’kidladik. Quyida namunada metakognitiv yondashuvning asosiy tamoyillari va uni Ingliz tilini o‘qitishda qanday qo‘llash usullari keltirilgan:

1. Metakognitiv bilim va ko‘nikmalarni rivojlantirish

Metakognitiv bilim o‘quvchining:

O‘z o‘quv uslubi va strategiyalarini bilishi;

Voqea-hodisalarga qarab qaysi strategiyani qo‘llash kerakligini tushunishi;

O‘z bilim darajasini baholay olishiga asoslanadi.

Amaliyot:

Darsda o‘quvchilarga o‘z o‘quv maqsadlarini belgilashni o‘rgatish. Masalan, yangi so‘zlarni eslab qolish uchun ular qanday strategiyadan foydalanadi (kartochkalar, takrorlash, kontekstual o‘rganish). O‘quvchilarga o‘z kuchli va zaif tomonlarini tahlil qilish imkonini beruvchi topshiriqlar berish.

2. Rejalashtirish bosqichi

O‘quvchilarga darsdan oldin maqsad qo‘yishni va reja tuzishni o‘rgatish kerak. Bu jarayon ularga o‘quv vazifalarini samarali bajarishga yordam beradi.

Amaliyot:

Matn o‘qishdan oldin asosiy savollarni shakllantirishni aytish. Yangi mavzuni o‘rganishda kerakli resurslarni aniqlash va vaqtni to‘g‘ri taqsimlashni o‘rgatish.

3. Kuzatish bosqichi

O‘quvchilar o‘z faoliyatlarini kuzatishi va o‘z-o‘zlarini nazorat qilishi muhimdir. Bu ularning xatolarini aniqlashiga va ulardan xulosa chiqarishiga yordam beradi.

Amaliyot:

Dars jarayonida o‘quvchilarga o‘z ishlarini kuzatish uchun nazorat ro‘yxatlari berish. Guruhlarda ishlashda o‘zaro baholash metodini qo‘llash. O‘quvchilarga o‘zlarining talaffuz, yozma ish yoki nutqdagi xatolarini ko‘rsatish uchun audio yoki video qaydlarni tavsiya qilish.

4. Refleksiya bosqichi

O‘quvchilarga o‘z o‘quv tajribalarini tahlil qilish va o‘rganganlarini umumlashtirish ko‘nikmasini shakllantirish.

Amaliyot:

Dars oxirida o‘quvchilardan: “Bugun nimalarni o‘rgandingiz?”, “Qanday qilib bu ma’lumotlarni yaxshi eslab qoldingiz?” kabi savollarga javob yozishlarini so‘rash.

Yozma refleksiyalarni rag‘batlantirish. Metakognitiv strategiyalarni qo‘llash foydalari:

1. O‘qish samaradorligini oshiradi. O‘quvchilar o‘z-o‘zini boshqarishni o‘rganadi.

2. Motivatsiyani kuchaytiradi. O‘quvchilar o‘z natijalariga mas’uliyat bilan yondashadi.

3. Ijodiy fikrlashni rivojlantiradi. O‘quvchilar muammolarni hal qilishda yangicha yondashuvlarni izlaydi.

Demak Ingliz tilini o‘rgatishda bu yondashuvni qo‘llash o‘quvchilarning nafaqat til o‘rganish ko‘nikmalarini, balki mustaqil ta’lim olish qobiliyatini ham rivojlantiradi.

Iqtiboslar/ Сноски/References

1. Alimov.B. “Zamonaviy media muhitda mamlakat imijining kognitiv aspektlari”. 24-26 b 2018J.

2. H. Flavell. Metacognition and cognitive monitoring: A new area ofcognitive developmental inquiry // American Psychologist. 1979. Vol. 34. No10.R.906–911.

3. Piaget, J. (1983). Piaget’s theory. P. Mussen (ed). Handbook of Child Psychology. 4th edition. Vol. 1. New York:

4. Vygotsky, L. S. (1987). Thinking and speech. In R.W. Rieber & A.S. Carton (Eds.), *The collected works of L.S. Vygotsky, Volume 1: Problems of general psychology (pp. 39–285)*. New York: Plenum Press. (Original work published 1934.)

5. Rosalyn Sword. Metacognition in the classroom: Benefities and strategies // March 17, 2021

6. Blank, M. (2000). A Metacognitive learning Cycle: A Better Warranty for Student Understanding. Science Education, 4(84), 486-506.

7. Ricky, D.,& Stacy, A. (2000). The Role of Metacognition in Learning Chemistry. Journal of Chemical Education, 77(7), 915-920.

MUZEYLAR TARIXI VA ULARNING PEDAGOGIK AHAMIYATI

O.B.Qurammuradova
Urganch davlat universiteti o‘qituvchisi, ozodaqurammuradova@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada muzeylar tarixi, muzeylarni tashkil qilinishi bo‘yicha qabul qilingan qonunlar va ularning mohiyati, muzeylarning ta’lim-tarbiya jarayonidagi o‘rni, yosh avlodni barkamol shaxs sifatida shakllantirishda va ma’naviyatini yuksaltirishdagi ahamiyati haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: muzey, tarixi, ma’naviyat, ta’lim, tarbiya, muzey pedagogikasi.

ИСТОРИЯ МУЗЕЕВ И ИХ ПЕДАГОГИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ

Аннотация. В этой статье рассматривается история музеев, принятые законы по организации музеев и их сущность, роль музеев в образовательно-воспитательном процессе, их значение в формировании молодого поколения как гармонично развитой личности и повышении его духовности.

Ключевые слова: музей, история, духовность, образование, воспитание, музейная педагогика.

THE HISTORY OF MUSEUMS AND THEIR PEDAGOGICAL SIGNIFICANCE

Abstract. This article discusses the history of museums, the laws adopted on the organization of museums and their essence, the role of museums in the educational process, their significance in shaping the younger generation as a harmoniously developed individual and raising their spirituality.

Keywords: museum, history, spirituality, education, upbringing, museum pedagogy.

Kirish. Muzeylar dunyo xalqlarining o‘tmish tarixi, milliy ma’naviyati, madaniyatini o‘zida jam qilib kelgan. Muzeyshunolik va muzey ishiga oid dastlabki maxsus hujjat O‘zbekiston Respublikasi vazirlar mahkamasi tomonidan 1994-yil 23-dekabrda qabul qilindi. Albatta, bu hujjat o‘z davri uchun muhim ahamiyat kasb etdi. Unda respublika muzeylarining vazifalari, istiqbollari belgilab berildi.

O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan so‘ng muzey va muzeyshunoslik masalasiga davlat siyosati darajasida e’tibor berila boshlandi. Prezident farmoni, vazirlar mahkamasining maxsus qarorlari, ”O‘zbekmuzey” tashkilotining ta’sis etilishi, “Muzeylar to‘g‘risida”gi qonunning qabul qilinishini a’lohida e’tirof etish kerak.

Jahon muzeyshunosligi tajribalarini qo‘llashga zarur shart-sharoitlar yaratish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998-yil 12-yanvardagi farmoni qabul qilindi. 2008-yil 12-sentabrda O‘zbekiston Respublikasining “Muzeylar to‘g‘risida”gi qonun qabul qilindi. Ushbu qonunning maqsadi muzeylarning tashkil etilishi va faoliyati sohasidagi munosabatlarni tartibga olishdan iborat.

Qonun 8-bob, 36 moddadan iborat bo‘lib, 1-bobda umumiy qoidalar, ya’ni qonunning maqsadi, muzeylar to‘g‘risidagi qonun hujjatlari, asosiy tushunchalar o‘z ifodasini topgan. Muzeylarning ta’lim-tarbiya jarayoniga ta’siri beqiyosdir.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash masalalari o‘zbekistonlik olimlardan R.G. Safarova[6], I. M. Saidov, U.M. Axmatqulov, B.T.Abdullayev [5], F. Mavlonov[6], U.A. Ibragimov[7] va boshqalar

tadqiqotlarida o‘rganilgan.

D.Sh.Nafasov o‘z tadqiqotlarida yoshlarning ijtimoiy madaniy kompetensiyalarini shakllantirish, ularda Vatanga bo‘lgan muhabbat, g‘urur va tuyg‘ularni tarkib toptirishda o‘z vatani bo‘ylab amalga oshirilishi lozim bo‘lgan turistik sayohatlarni ahamiyati katta ekanligini ilmiy asoslab bergan[8-12].

Muzeyshunoslik hamda muzeylarning tarixi ularning inson ma’naviyatini yuksaltirishdagi ahamiyatiga oid bir qancha olimlar tadqiqotlar olib borishgan. Jumladan, Muhammadjonova O‘.B, Marayimova K.I, Ergasheva Sh.A, Sadikova N.B, Robidinova Sh.F kabilar shular jumlasidandir.

Ta’lim-tarbiya va ilmiy vazifalarga ega bo‘lgan muzey tizimida taraqqiyotiga obyektiv ehtiyojlar ortib bormoqda. AQSh, Italiya, Fransiya, Buyuk Britaniya, Germaniya, Rossiya va boshqa mamlakatlar eng taraqqiy etgan muzey tizimiga ega. Muzeylar xalqaro maydonga chiqishi bilan ularning ta’sir doirasi kengayib bormoqda. Bunda ko‘rgazmalar ayriboshlash birinchi o‘rinda turadi.

O‘zbekistonda muzey XIX asrning 2-yarmida tashkil etila boshlagan.XX asr boshida O‘zbekistonda faqat 3 muzey-Toshkent o‘lkashunoslik muzeyi (1876, hozirda O‘zbekiston tarixi muzeyi), Samarqand xalq muzeyi (1896, hozirgi Akmal Ikramov nomidagi O‘zbekiston xalqlari madaniyati va san’at tarixi muzeyi), Farg‘ona xalq muzeyi (1899, hozirgi Farg‘ona viloyat o‘lkashunoslik muzeyi) bor edi.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Yevropa qit’asida sanoat san’atiga qiziqish birinchi navbatda Germaniya va Avstriyaga xos edi.Vena (1863) va Berlinda (1867) va 1870-yillarda Gamburg, Drezden, Leyptsig va boshqa Germaniya shaharlarida paydo bo‘lgan san’at va sanoat muzeylari bunga misol bo‘la oladi.

Muzeylar hunarmandlarni tayyorlash uchun namunaviy to‘plamni yaratish maqsadida tashkil etilgan bo‘lib,ular o‘z faoliyati davomida talabalar va mehmonlarga san’atning yaxshi namunalarini namoyish etish, shuningdek hayotni yaxshilashga mo‘ljallangan ishlab chiqarish obyektlarining texnik jarayonlarini namoyish etishga intilishdi. Ushbu yo‘nalishdagi muzeylar bilan bir qatorda, tabiatshunoslik muzeylari faol rivojlandi.

Tabiat, ilm-fan, xalq madaniyati va tarixiga qiziqish hayvonot bog‘lari, politexnika, etnografik va tarixiy yo‘nalishdagi muzeylarining ochilishida namoyon bo‘ldi.

1873-yilda Shvetsiyada Shimoliy ochiq osmon muzeyi ochildi (keyinchalik «Scansen» deb nomlangan). Inson hayotining tabiiy muhitida namoyish etilgan muzey etnografik materiallarni o‘rganish va targ‘ib qilish vazifasini o‘z zimmasiga oldi.

Parijdagi Trokadero saroyidagi Etnografiya muzeyi faoliyati (1878) ham shunga bag‘ishlangan, fransuz uy-ro‘zg‘or buyumlari to‘plamlarini yig‘ish orqali ma’rifiy faoliyatni boshlaganlar, keyin boshqa, asosan Afrika xalqlarining kundalik hayotiga oid etnografik dalillarni to‘plashga kirishildi.

Yevropaning birinchi tarixiy muzeylari orasida Moskvadagi tarixiy muzeyni alohida ta’kidlash joiz. 1872-yilda tarixchi I.E.Zabelin va arxeolog A.S.Uvarovning tashabbusi bilan tashkil etilgan bo‘lib, u tarixiy ilm-fan va ma’rifatni rivojlantirishni maqsad qilib olgan Rossiya tarixi va madaniyati yodgorliklarini o‘zida jamlagan.

Texnik muzeylarning tarixi 1799-yilda Parijda ochilgan milliy texnika muzeyidan kelib chiqqan bo‘lib, u modellar, mashinalar va ilmiy vositalarni to‘plash bilan shug‘ullanadi.

Tabiiy fanlar va texnologiya yutuqlarini namoyish qilish uchun 1872-yilda Moskvada amaliy bilimlar muzeyi (Politexnika muzeyi) birinchi marta tashrif buyuruvchilarga eshiklarini ochdi. Uning yaratilishining tashabbuskor olimlar Imperator tabiiy fanlar, Antropologiya va Etnografiyani sevuvchilar jamiyatining a’zolari edi.Ushbu jamiyat ilm-fanni rivojlantirish va tabiatshunoslik

bilimlarini targ‘ib qilishni maqsad qilib qo‘yganligi sababli muzeyning vazifalari quyidagicha belgilandi:

1.Umumiy ta’lim-bilimlarni keng ommaga tarqatish;

2.Maxsus-texnik bilim va ilm-fan rivojiga ko‘maklashish.

1903-yilda Manheim shahrida «Muzeylar ta’lim va tarbiya muassasalari sifatida» deb nomlangan konferensiya bo‘lib o‘tdi, u konferensiyada, muzeyning ta’limiy funksiyasining muhimligini e’lon qilgan iste’dodli muzey arbobi va pedagog A.Lixtvarkning g‘oyalariga ko‘ra, muzey, universitetlar va akademiyalar bilan bir qatorda, barcha ijtimoiy guruhlarni tarbiyalashga ta’sir ko‘rsatadi.

Konferensiya muzey ta’lim faoliyatini yanada rivojlantirishga katta ta’sir ko‘rsatdi. Muzey amaliyotida ilk marotaba muzeylarning pedagogik salohiyati va ularni o‘qitishning vizual-obyektiv shaklini qo‘llash imkoniyatlari aniqlandi.

1905-yildagi konferensiya qaroriga ko‘ra, Yevropada «Museumskunde» professional muzey jurnali nashr etila boshlandi, unda nafaqat Germaniyada, balki AQShda ham muzey va xalq ta’limi o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarga bag‘ishlangan maqolalar chop etdi. Ushbu nashrlarning asosiy yo‘nalishi muzeyning nafaqat badiiy qadriyatlarni saqlab qolish qobiliyatini tasdiqlash, balki yangi qadriyatlarni yaratishda ishtirok etish edi.

XX asrning mashhur rus pedagogi va muzey xodimi M.V.Novorusskiy muzeyni «qudratli ta’lim vositasi» deb atadi va uning ulkan madaniy ahamiyatini ta’kidladi: “Muzey boshqa ta’lim muassasalari orasida sharafli, ammo mutlaqo mustaqil o‘rinni egallagan jonli va faol muassasadir. U jonsiz narsalarda ishlaydi, lekin u har bir shunday obyektni hayotga olib kirish va har bir tomoshabin uchun mazmunli qiladigan tarzda ishlaydi”.

Muzey muhiti sharoitida pedagogik kategoriyalar quyidagicha belgilanadi:

- tarbiya estetik idrokni, muzey madaniyati va badiiy didni shakllantirish;
- rivojlanish shaxsning ijodiy takomillashuvi va uning qadriyatli yo‘nalishlarini shakllantirish;
- ta’lim muzey yodgorligi bilan muloqot tajribasini va ijodiy faoliyat ko‘nikmalarini shakllantirish.

Muzey muhitida pedagogik faoliyat-ta’lim, rivojlanish va tarbiyaning sintezi estetik tarbiya, badiiy tarbiya va shaxsning ijodiy rivojlanishiga qaratilgan, uni uchta asosiy shaklga asoslangan faoliyat nazariyasi nuqtai nazaridan ko‘rib chiqamiz:

Atrof-muhitni bilish – bilim olish va uzatish (bu ta’limning asosiy qismidir);

Voqelikni o‘zgartirish – shaxsning ijodiy salohiyati va uning ijtimoiylashuvini ta’minlovchi bilimlarni o‘zlashtirish jarayonida egallangan ko‘nikma va malakalarga asoslanadi;

Qadriyat munosabati – tarbiya mahsulidir, chunki unga faqat dialog shaklidagi shaxslararo muloqot orqali erishiladi.

XIX asrning oxiri va XX asrning birinchi yarmida muzeyning ma’rifiy faoliyatini rivojlantirish tajribasi shartli ravishda muzeylarning ikki guruhini ajratishga imkon beradi - kasbiy va o‘quv.

Birinchi guruhga texnik, tabiatshunoslik, etnografik, tarixiy va o‘lkashunoslik va san’at tarixi yo‘nalishidagi muzeylari kiradi. Ikkinchisiga - kasbiy bo‘lmagan muzeylar: pedagogik, maktab va bolalar muzeylari kiradi. Ushbu muzeylar guruhi nafaqat o‘zining rivojlanish tarixiga ega, balki ta’lim va ijtimoiy-dam olish muassasalari tizimida ham muhim o‘rin egallaydi.

Maktabgacha ta’lim, umumiy o‘rta ta’lim jarayonida o‘quvchilarni vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash, ajdodlarimizga hurmatda bo‘lishga o‘rgatishda muzeylarning o‘rni kattadir.

Yosh avlodni har tamonlama komil inson sifatida tarbiyalash jarayonida sinfdan tashqari ishlarni tashkil qilishda ekskursiyalardan foydalanish yaxshi samara beradi. Shuningdek, inklyuziv ta’limni tashkil qilish va imkoniyati cheklangan o‘quvchilarga ta’lim-tarbiya berish jarayonida muzeylar va ular bilan hamkorlik o‘rnatish ta’lim sifatini yaxshilashga yordam beradi.

Maktabgacha ta'limda inklyuziv ta'limni tashkil qilishda ham muzeylar faoliyatini o'rganish va muzeylar bilan hamkorlik qilish ta'lim sifatini tubdan yaxshilanishiga turtki bo'ladi.

O'quvchilarni sinfdan tashqari darslarda muzeylarga ekskursiyalarga olib chiqishimiz mumkin. Bu orqali ular muzey ekspanatlarini tomosha qilishlari bilan bir qatorda, ajdodlarimiz, tariximiz, bizgacha yetib kelgan yodgorliklar haqida ma'lumot oladilar.

Ekskursiyalar orqali ularda ajdodlarimizga hurmat hissini shakllantiramiz, obidalarni asrab avaylashga o'rgatamiz. Bu jarayonda muzeylar va ta'lim muassasalarining o'zaro hamkorligi muhim sanaladi. Chunki, yosh avlodni vatanga muhabbat ruhida tarbiyalashning eng asosiy negizi tarixiy obidalar bilan tanishish va ularni qadrlashga o'rgatishdadir.

Muzey va ta'lim muassasasi hamkorligining pedagogik jihatlari ham mavjuddir. Muzey va maktabning ta'lim xususiyatlarini tushunish ularning muvaffaqiyatli hamkorligiga asos bo'lib xizmat qiladi, uning ichki tuzilishi o'zaro ta'sir qiluvchi ikki blok bilan belgilanadi.

1.Muzey makonida maktab. Ushbu blok o'quv mashg'ulotlarini (muzey auditoriyasida va ekspozitsiyada ekskursiyalar, mashg'ulotlar sikllarini) o'z ichiga oladi, bunda o'quvchilar muzey ekspozitsiyasida madaniyat va san'atning ma'nolarini muzey tomonidan belgilangan rejaga muvofiq, muzey mavzusini hisobga olgan holda maktab ta'limi, yoki muzey ta'lim usullari asosida qurilgan sinflar davomida tushunadilar.

Tasviriy san'at bo'yicha an'anaviy va yangi maktab san'ati kurslarini o'qitish tobora ko'proq muzey eksponatlariga tayanmoqda. Shu bilan birga, o'qituvchilarning muzey ekspozitsiyasiga bo'lgan munosabatida ham sifat o'zgarishi yaqqol ko'zga tashlanadi.

Agar ilgari u deyarli faqat maktab ta'limining qoidalariga misol sifatida qaralsa, hozirgi vaqtda muzey ekspozitsiyasining o'ziga xos imkoniyatlari tushuniladi, buning natijasida o'rganish mavzusi haqidagi g'oyalar nafaqat kengayadi va chuqurlashadi, balki vizual fikrlash, tafakkur, majoziy hislar, xayoliy idrok etish qobiliyati, hissiy madaniyat, o'quvchilarning qadriyat yo'nalishlari ham rivojlanadi.

Muzeyda bevosita o'tkaziladigan maktab darslarining maqomi o'zgarmoqda. Ular o'zlarining asosiy maqsadi bo'lmish madaniyat bilan yaqindan tanishishdan tashqari, maktab ta'lim tizimining nufuzini oshirish, ota-onalar va o'quvchilarning ushbu maktabda bilim olishga qiziqishini oshirishga xizmat qiladi.

1980-yillarning oxiridan boshlab muzey darslari ko'plab mahalliy maktablarning o'quv rejalariga, xususan, gumanitar va badiiy ta'lim sohasida eksperimental ishlar olib borilgan maktablar (tasviriy san'at, adabiyot, nutqni rivojlantirish, tarix va boshqalar) darslarning mualliflik o'quv dasturlariga muvofiq kiritilgan. Bunday sharoitda muzey tomonidan taqdim etilgan maktab bilan o'zaro munosabatlarning shakllari va mavzularining keng repertuari hal qiluvchi rol o'ynaydi. Masalan, milliy san'at tarixini o'rganish bo'yicha maxsus kurslar, muzey amaliyotlari va hokazolarni keltiramiz.

Turli xil dasturlar va ish shakllari o'qituvchi va maktab uchun ularning imkoniyatlarini hisobga olgan holda tanlov qilish imkoniyatini ochadi. Bu sohada muhim yangilik loyihalarni amalga oshirish edi, unga muvofiq maxsus muzey muhitini o'zgartirish yoki yaratish pedagogik g'oyalar va vazifalar bilan belgilanadi.

Didaktik ko'rgazmalar amaliyotidan kelib chiqqan ushbu ish yo'nalishi muzeyning yig'ish, saqlash, tiklash va ta'lim faoliyati o'rtasidagi munosabatni tubdan o'zgartiradi, chunki ta'lim komponenti ustun ro'l o'ynaydi.

2.Maktabda muzey pedagogikasi. Ushbu blok maktabdagi ma'ruzalar, shuningdek, muzey xodimlarining ma'lum bir muzeyning o'ziga xos xususiyatlarini aks ettiruvchi fakultativ

o‘quv kurslarini o‘tkazish bo‘yicha individual tajribalarini o‘z ichiga oladi.

Muzey ma’ruzasining o‘ziga xos turi mavjud bo‘lib, u har qanday ma’ruza kabi akademik bilimlarni va umumiy tarixiy va madaniy ma’lumotlarni o‘zlashtirishga mo‘ljallangan, ayni paytda ochiq yoki yopiq shaklda – jamoatchilikni ekspozitsiyaga va uning idrokiga tayyorlashga mo‘ljallangan.

Muzey sifatida materiallarni tanlash va topshirish tamoyillari tufayli bunday ma’ruzalar muzeyning o‘zi va tashqarisida ma’ruza auditoriyalari uchun mo‘ljallangan bo‘lib, tinglovchilarning barcha guruhlari uchun ijtimoiy - professional va yosh xususiyatlariga moslashgan.

Aynan muzey bo‘lganligi sababli, material tanlash va taqdim etish tamoyillari tufayli bunday ma’ruzalar bir xil darajada muzeyning o‘zida va undan tashqarida ma’ruza tinglovchilari uchun, tinglovchilarning barcha guruhlari uchun mo‘ljallangan va ularning ijtimoiy-professional va yosh xususiyatlariga moslashtirilgan.

Ta’limni insonparvarlashtirish va rivojlantirish, o‘qituvchilarning maktabda eksperimental, innovatsion ishlarga tayyorligi va muzeyning ta’lim faoliyatini umumiy pedagogik jarayonning bir qismi sifatida tushunish muzey va maktab o‘rtasida intensiv hamkorlikka o‘tishga imkon berdi.

Hozirgi kunda maktab va muzey pedagogikasining yutuqlari asosida muayyan ta’lim muassasasining o‘quv-tarbiya tizimini yaxlit tarzda muzey-maktab hamkorligining ko‘p yillik tajribasini hisobga olgan holda o‘zgartirish vazifasi qo‘yilmoqda.

Ta’lim jarayonida o‘quvchilar bilan ishlashning uchta shakli qo‘llaniladi: muzey ekspozitsiyasidagi mashg‘ulotlar, sinf-auditoriya va amaliy mashg‘ulotlar. Ushbu jarayon vositasida o‘quvchilarda quyidagi sifatlar shakllanadi:

tasviriy san’at va me’morchilik asarlari, faol ijodiy idrok etish qobiliyati bilan muloqotda barqaror va chuqur qiziqishni rivojlantirish;

san’at asarlarining paydo bo‘lishi va mavjudligining madaniy-tarixiy mazmunini aniqlash bo‘yicha ko‘nikma va malakalarni shakllantirish;

badiiy qadriyatlar yaratuvchisining shaxsiga bo‘lgan qiziqishni shakllantirish, uning shaxsiy va odatiy ijtimoiy tarixiy xususiyatlarini tushunish va tahlil qilish qobiliyati;

yagona tabiatni va turli san’at o‘rtasidagi munosabatlarni tushunish, inson madaniyatini yaxlit hodisa deb bilish;

auditoriya muzey madaniyatini tarbiyalash, zamonaviy badiiy madaniyatni klassik meros bilan bog‘lash;

shaxsiy qobiliyatlarni har tomonlama rivojlantirishga ko‘maklashish, o‘quvchining individualligini amalga oshirish, haqiqatga ijodiy munosabatni shakllantirish.

Muzey va maktabning chuqur o‘zaro hamkorligining muhim va zarur bosqichi bu o‘quvchilarning umumiy gumanitar rivojlanishiga yo‘naltirilgan yagona ta’lim dasturini yaratish bo‘lib, unda tegishli o‘quv kurslari va darsdan tashqari mashg‘ulotlarning tematik va konseptual muvofiqlashtirilishi va o‘zaro hamkorlik ko‘zda tutilgan.

Muzey va maktabning chuqur hamkorlik samaradorligi quyidagi omillarga bog‘liq:

- muzey va maktab boshqaruvi tomonidan bunday hamkorlikning maqsadi va vazifalari haqida xabardorlik darajasi;

-muzeyda ko‘zda tutilgan ilmiy-amaliy dasturni amalga oshirishga qiziqqan va muzey va maktab pedagogikasining yondashuvlarini birlashtirishga qodir bo‘lgan xodimlarning yetarli soni mavjudligi;

- maktab va muzey pedagogikasining yondashuvlarini birlashtirishga qodir bo‘lgan bir guruh o‘qituvchilarning mavjudligi.

Muzey-pedagogik dasturlari muzey xodimlari va maktab o‘qituvchilarining ijodiy hamkorligini

nazarda tutadi. Ular visual fikrlash va shaxslararo muloqot ko‘nikmalarini shakllantirishdan, tasviriy san’atning o‘ziga xosligi va tarixi haqida bilimga ega bo‘lishdan va uni talqin qilish qobiliyatini rivojlantirishdan iborat bo‘lgan bir qator vazifalarni hal qilishadi.

Shunga ko‘ra, muzey pedagogik dasturi bolaga quyidagi ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lish imkoniyatini beradi:

-rivojlangan vizual fikrlash;

-vizual ma’lumotlarning tobora ortib borayotgan oqimi sharoitida vizual tasvirlarni talqin qilish va baholash;

Muzeyning o‘quv faoliyati turli matnlar, ko‘rgazmali qurollar, audio, video va kompyuter texnikasi, shuningdek pedagogik jarayonda aql va hissiyotlarni o‘z ichiga oladigan texnologiyalarni jalb qilgan holda muzey yodgorligi asosida muayyan tashkiliy shakllarda (individual, guruhli, jamoaviy) amalga oshiriladigan pedagogik jarayon orqali amalga oshiriladi. Ma’lumki, emotsional yondashuv ko‘proq san’atga xos, lekin amaliyotda pedagogikaning ijodiy tabiati — o‘quv faoliyati asosida amalga oshiriladigan ilmga urg‘u berib, «o‘qituvchi san’ati» iborasi tez-tez uchrab turadi.

K.D.Ushinskiy pedagogikani fan emas, balki san’at, nafaqat eng keng va murakkab, balki barcha san’atlarning eng zaruri deb hisobladi[62].

Milliy va jahon madaniyati qadriyatlarini saqlash va ko‘paytirishni, tarixiy xotirani shakllantirishni va madaniy-tarixiy taraqqiyotning davomiyligini ta’minlashni oldindan belgilab beradigan keng faktlar tizimida muzeylar alohida o‘rin tutadi.

Asrdan asrga qadar ular jamiyatning ma’naviy hayotida, ma’rifat, ta’lim va axloqiy-estetik tarbiyada, axborot-komunikasiya jarayonlarida tobora ko‘proq rol o‘ynamoqda. Biroq, muzeylarda jahon va milliy tarix va madaniyatning millionlab bebaho eksponatlarining mavjudligi o‘z-o‘zidan muvaffaqiyatni kafolatlamaydi.

Ushbu ma’naviy boylikni aholining turli qatlamlari ongiga olib kiradigan ilmiy mazmunli ijtimoiy-pedagogik va ijtimoiy-madaniy tadbirlarga ehtiyoj bor. Ushbu muammoning dolzarbligi aniq. Biroq, uning hal qilinishiga muzeylar muhitida sodir bo‘layotgan madaniy-pedagogik jarayonlarni ilmiy tushunishda sustkashlik, muzeylarning axborot-kommunikasiya faoliyatini texnik jihozlashning sustligi, bir qator xodimlarning aholining turli guruhlariga psixologik-pedagogik ta’sir ko‘rsatishning zamonaviy texnologiyalarini yetarli darajada bilmasligi to‘sqinlik qilmoqda.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Xulosa qilib aytganda, ilmiy muassasalardan farqli o‘laroq, muzeylar jamiyatning yanada keng doirasi uchun ochiqdir. Shaxsning madaniy rivojlanishi va ijtimoiylashuviga ko‘maklashuvchi eng muhim ijtimoiy institut muzeydir. O‘ziga xosligi tufayli muzey madaniy muassasa sifatida qudratli salohiyatga ega, bu ayniqsa, yosh avlodning rivojlanishida muhim ahamiyatga ega.

Muzeyning o‘quv faoliyati turli davrlardagi ma’naviy-moddiy madaniyat yodgorliklarida to‘plangan ijtimoiy tajribani saqlab qolish va keyingi avlodga yetkazishga asoslanadi. Shuningdek, maktabgacha va umumiy o‘rta ta’limda inklyuziv ta’limni tashkil qilish borasida muzeylar faoliyati bilan o‘quvchilarni tanishtirish yaxshi samara beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

[1]. N.M.O‘rinova, K.I.Marayimova “Muzey pedagogikasi” darslik: Farg‘ona – 2023

[2]. Ismoilova J. “Muzey pedagogikasi: tarixi,buguni va istiqboli O‘zbekiston Muzeylari istiqboli – Toshkent: Akademnashr, 2013.

[3]. Ismoilova J. “Zamonaviy muzeyshunoslik asoslari. – Toshkent: 2016.

[4]. F.Ochildiyev “Tarixiy o‘lkashunoslik. Toshkent-2008.

[5]. Saidov I. M., Axmatqulov, U. M. (2020). Ommaviy va internet axborot resurslarining yoshlar-

da vatanga sodiqlik tuyg‘ularini shakllantirishdagi bog‘liqliklar. Academic research in educational sciences, (4), 199-203.
[6] Mavlonov F. “Harbiy xizmatchilarning vatanparvarlik kompetensiyalarini rivojlantirishda Sharq mutafakkirlarining o‘rni”. International scientific journal volume 1 issue 6 uif-2022:8.2
[7]. Ibragimov U.A. “Yoshlarda harbiy vatanparvarlik tuyg‘ularini rivojlantirishda Temurbeklar maktablarining o‘rni” International Scientific Conference . Aprel 2022
[8]. Нафасов Д. Ш. Педагогические возможности студенческого туризма в системе образования // Педагогические исследования. 2024. Вып. 1. С. 22–33.
[9]. NafasovD.Sh. Edutainment as an effective technology in preparing specialists in tourism industry.//European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences.– Great Britain, 2019. Volume 7. Number 6. – PP.17-21
[10]. NafasovD.Sh. Theoretical and pedagogical aspects of forming sociocultural competence of students in tourism. // European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences. – Great Britain, 2020. Vol.8. No.12. – PP.70-73
[11]. Nafasov D.Sh. Theoretical and pedagogical aspects of delevoping students’ socio-cultural competence. Scientific collection “Interconf”.// Science and practice: Implementation to modern society. – Manchester, Great Britain, №3(39) December,2020. 516-521 pages.
[12]. NafasovD.Sh. Cultural tourism as a factor of development of social and cultural competences of students in tourist activity. //International scientific and practical conference cutting edge – science. – Shawnee, USA, 2020. 140 – 143 pages

UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA KIMYO FANIDAN ELEKTROLIZ MAVZUSINI O'QITISHDA FANLARARO INTEGRATSIYADAN FOYDALANISH

Ro'zmetova Sevara Oktamboyevna, Ataullayev Zokir Maxsudovich
Eshchanov Erkabay Uskinovich
Urganch davlat pedagogika instituti o'qituvchilari, rozmetovasevara15@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada "Elektroliz" mavzusini fanlararo integratsiya orqali o'qitish o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarining o'sishi haqida fikrlar berilgan. O'quvchilarda kimyoni fizika (elektr toki, Faraday qonunlari), biologiya, texnologiya (elektroliz, elektrokaplamaning sanoatda qo'llanilishi), ekologiya (oqova suvlarni tozalash, vodorod olish) va fan tarixi (elektrolizning kashfiyoti) va boshqa fanlar bilan integratsiyalash yangi yo'nalishlar va ko'nikmalarni o'z ichiga oladigan jarayon ko'zda tutilgan, elektrolizni fizikaviy fan sifatida yaxlit tushunish muhim amaliy ahamiyatga ega bo'lgan kimyoviy jarayon. Ta'lim jarayonida fanlararo aloqalarni amalga oshirish bo'yicha uslubiy tavsiyalar, jumladan, topshiriqlar, loyihalar va axborot texnologiyalaridan foydalanish misollari keltirilgan.

Kalit so'zlar: elektroliz, metall, texnologiya, ekologiya, elektrolit, elektr energiya, vodorod, kislorod, gaz, qonuniyat, alyuminiy, mis, toza mis, biologiya, geografiya, tarix, tadbirkorlik, iqtisodiyot.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ МЕЖДИСЦИПЛИНАРНОЙ ИНТЕГРАЦИИ В ПРЕПОДАВАНИИ ТЕМЫ ЭЛЕКТРОЛИЗ ПО ХИМИИ В СРЕДНЕЙ ШКОЛЕ

Аннотация. В статье рассматривается рост знаний, умений и компетенций студентов при преподавании темы «Электролиз» посредством межпредметной интеграции. Студенты изучат новый способ интеграции химии с физикой (электричество, законы Фарадея), биологией, технологией (электролиз, промышленное применение гальванопокрытий), экологией (очистка сточных вод, производство водорода) и историей науки (открытие электролиза). и другие дисциплины. Предусматривается процесс, включающий цели и навыки, а также целостное понимание электролиза как физической науки, представляющей собой химический процесс, имеющий важное практическое значение. Даны методические рекомендации по реализации межпредметных связей в образовательном процессе, включая примеры заданий, проектов, использования информационных технологий.

Ключевые слова: Электролиз, металл, технология, экология, электролит, электрическая энергия, водород, кислород, газ, закон, алюминий, медь, чистая медь, биология, география, история. предпринимательство, экономика.

USING INTERDISCIPLINARY INTEGRATION IN TEACHING THE TOPIC OF ELECTROLYSIS IN CHEMISTRY IN SECONDARY SCHOOLS


Annotation. The article presents ideas about the growth of students' knowledge, skills and competencies in teaching the topic "Electrolysis" through interdisciplinary integration. The process of integrating chemistry with physics (electricity, Faraday's laws), biology, technology (electrolysis, industrial application of electroplating), ecology (wastewater treatment, hydrogen production) and history of science (discovery of electrolysis) and other disciplines is envisaged, which will include new directions and skills for students, and a holistic understanding of electrolysis as a physical science is a chemical process of great practical importance. Methodological recommendations for implementing interdisciplinary connections in the educational process are

presented, including examples of assignments, projects and the use of information technologies.

Key words: Electrolysis, metall, technology, ecology, electrolyte, electric energy, hydrogen, oxygen, gas, laws, aluminum, copper, pure copper, biology, geography, history. entrepreneurship, economics.

Kirish. Bugungi kunda ta'lim muasssalarida kimyo fanini boshqa fanlar bilan integratsiyalanilgan holda o'qitish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Buning sababi kimyo fani boshqa fanlarga qaraganda fanlararo integratsiyasi mustahkamligi va fanlararo aloqadorligi yuqoriligi bilan ajralib turadi [1]. Birgina misol qilib o'quvchilarga elektroliz mavzusini o'qitishda aynan fizika fani bilan chambarchas bog'liqligi yaqqol nomayon bo'ladi.

Adabiyotlar sharhi. Elektroliz - fizik-kimyoviy jarayon bo'lib, zamonaviy sanoat va ilmiy tadqiqotlarda muhim rol o'ynaydi. Sof metallarni ishlab chiqarishdan tortib murakkab kimyoviy birikmalar sintezigacha elektroliz turli sohalarda keng qo'llaniladi. Elektroliz - bu suyuqlanmasi yoki eritmasidan elektr tokini o'tkazish orqali moddaning parchalanish jarayoni, elektrodlarda (anod va katod) mos ravishda oksidlanish va qaytarilish reaktsiyalari sodir bo'ladi. Elektrolitdagi ionlarning elektr maydoni ta'sirida harakatlanishi zaryad o'tkazilishini ta'minlaydi (1-rasm). Ushbu maqolada biz kimyoni fizika, texnologiya, ekologiya va fan tarixi bilan integratsiyalash yangi yo'nalishlar va ko'nikmalarni o'z ichiga oladigan jarayonlarni ko'rib chiqamiz.



1-rasm. Elektrolitlardagi elektr toki

Ayrim metall tuz eritmalarining elektrolizi:

$CaCl_2+2H_2O \xrightarrow{\text{elektroliz}} Ca(OH)_2 + Cl_2\uparrow + H_2\uparrow$
$CuCl_2 \xrightarrow{\text{elektroliz}} Cu + Cl_2\uparrow$
$AgNO_3 + 2H_2O \xrightarrow{\text{elektroliz}} 4Ag + O_2\uparrow + 4\,HNO_3$
$K_2SO_4 + 4H_2O \xrightarrow{\text{elektroliz}} H_2 + O_2\uparrow + 2KOH + H_2SO_4$

Elektroliz mavzusini fanlararo o'qitish o'quvchilarning keng qamrovli bilimlarini shakllantirish va amaliy ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Kimyo fanida bu jarayon elektrolit eritmalaridagi ionlarning harakati va elektrod reaksiyalari orqali o'rgatiladi. Bu bilan birga, laboratoriya ishlarida mis yoki alyuminiyni elektroliz orqali ajratib olish kabi tajribalar o'tkazish mumkin. Fizika fanida esa elektroliz elektr toki yordamida amalga oshirilgani uchun energiyaning saqlanishi va o'zgarishi qonuniyatlari o'rganiladi. Bu jarayonda elektr energiyasi kimyoviy energiyaga aylanishi tahlil qilinadi.

Elektr energiyasining kimyoviy energiyaga aylanishi elektroliz jarayonining asosiy mohiyatidir. Bu jarayonda tashqi elektr toki manbai elektrodlar orqali elektrolitga elektr energiyasini uzatadi va bu energiya elektrolitdagi ionlarni harakatga keltiradi. Elektrolitdagi musbat zaryadlangan ionlar katodga, manfiy zaryadlangan ionlar esa anodga qarab harakat qiladi. Ushbu ionlarning harakati va ulardagi zaryadlarning o'zgarishi natijasida kimyoviy reaksiyalar sodir bo'ladi. Katodda kationlar elektronlarni o'zlashtirib, neytral atom yoki molekulalarga aylanadi, anodda esa anionlar elektronlarini yo'qotib, neytral atom yoki molekulalarni hosil qiladi. Bu jarayonda elektr energiyasi


ionlarning bog‘lanish energiyasini oshirish uchun ishlatiladi va natijada yangi kimyoviy bog‘lanishlar hosil bo‘ladi.

Elektr energiyasi ionlarni harakatlantirish va ularni qaytarilish yoki oksidlanish jarayonlari orqali yangi moddalarni hosil qilish uchun ishlatiladi. Yangi moddalar molekulalari yoki atomlaridagi kimyoviy bog‘lanishlar elektr energiyasini kimyoviy energiya shaklida saqlaydi. Masalan, suvning elektrolizida elektr energiyasi yordamida vodorod va kislorod molekulalari orasida yangi bog‘lanishlar hosil bo‘ladi. Bu jarayon davomida energiya samaradorligiga elektrolitning turi, tizimning qarshiligi va elektrodlardagi yo‘qotishlar ta’sir qiladi.

Elektr energiyasi ionlarni harakatlantirish va ularni qaytarilish yoki oksidlanish jarayonlari orqali yangi moddalarni hosil qilish uchun ishlatiladi. Elektrolizda tashqi elektr toki manbai elektrodlar orqali elektrolitga elektr energiyasini uzatadi, bu esa elektrolitdagi ionlarni harakatga keltiradi. Musbat zaryadlangan ionlar katodga qarab harakatlanib, u yerda elektronlarni qabul qiladi va neytral atom yoki molekulalarga aylanadi, bu jarayon qaytarilish (reduksiya) deb ataladi. Manfiy zaryadlangan ionlar esa anodga qarab harakatlanadi va u yerda elektronlarini yo‘qotib, neytral atom yoki molekulalarni hosil qiladi, bu esa oksidlanish jarayoni sifatida tanilgan.

Ushbu jarayonda elektr energiyasi ionlarning zaryadlarini o‘zgartirish uchun ishlatiladi, natijada yangi kimyoviy bog‘lanishlar hosil bo‘ladi. Misol sifatida, suvning elektrolizini keltirish mumkin: bu jarayonda elektr toki yordamida suvning molekulalari parchalanib, vodorod va kislorod gazlarini hosil qiladi. Elektr energiyasi ionlarning bog‘lanish energiyasini oshiradi, shu bilan birga yangi moddalar va energiya hosil bo‘ladi. Bu jarayonning samaradorligi elektrolitning turi, haroratga bog‘liq bo‘lib, har bir omilning o‘z ta’siri mavjud.

Elektr energiyasining kimyoviy energiyaga aylanishi ko‘plab texnologiyalarda qo‘llaniladi (2-rasm). Akkumulyatorlarda elektr energiyasi zaryadlashda kimyoviy energiyaga aylanadi va teskari jarayon orqali elektr energiyasiga qaytariladi. Sanoat elektrolizida alyuminiy va mis kabi metallar ajratib olinadi, vodorod olishda esa elektroliz yordamida ekologik toza energiya manbai sifatida vodorod hosil qilinadi. Ushbu jarayon energiya saqlanishi qonuniyatlari va ekologik toza energiya manbalarini rivojlantirishda katta ahamiyatga ega.



2-rasm. Energiyani bir tur yoki shakldan boshqasiga aylantirish

Sanoat elektrolizida alyuminiy va mis kabi metallar ajratib olinadi, bu jarayonlar kimyoviy ishlab chiqarishda muhim o‘rin tutadi. Alyuminiy ishlab chiqarish uchun alyuminiy oksidi (boksit) eritmasi elektroliz qilinadi, bunda elektr toki yordamida alyuminiy va kislorod olinadi. Misni tozalashda ham elektrolizdan foydalaniladi. Masalan, mis eritmasi orqali elektr toki o‘tkazilib, toza mis metaliga aylantiriladi. Bu jarayonlar energiya va materiallar sarfini kamaytirish hamda samarali ishlab chiqarish uchun muhim hisoblanadi.

Bundan tashqari, elektroliz yordamida ekologik toza energiya manbai sifatida vodorod hosil

qilinadi. Suvning elektrolizi yordamida elektr toki yordamida suvning molekulalari vodorod va kislorod gazlariga ajraladi [2]. Bu jarayon, agar toza energiya manbalaridan (masalan, quyosh yoki shamol energiyasi) foydalanilsa, ekologik toza vodorod olishga olib keladi (3-rasm). Vodorod esa o‘zining yuqori energiya zichligi va atrof-muhitga zarar keltirmasligi bilan kelajakda energiya sanoatida muhim rol o‘ynaydi. Shu tariqa, elektroliz jarayoni nafaqat metallarni ajratib olishda, balki toza energiya ishlab chiqarishda ham samarali vosita sifatida qo‘llaniladi.



3-rasm. Shamol energiyasi

Matematika fanida elektroliz jarayonida Faradey qonunlari asosida ionlar miqdorini hisoblash va energiyadan foydalaninsh iste’molini aniqlash muhim ahamiyatga ega. Bu hisob-kitoblar real hayotdagi muammolarni hal qilishda as qotadi. Biologiya fanida esa elektrolizning tibbiyotda qo‘llanilishi, masalan, iontoforez yoki elektrolitlarning tanadagi ahamiyati kabi mavzular bilan bog‘lanadi. Elektrolitlarning Na+, K+, Cl+ ionlari kabi turli shakllarda organizmdagi rolini o‘rganish bu fanlararo yondashuvni boyitadi [3].

Biologiya fanida elektrolizning tibbiyotda qo‘llanilishi ko‘plab jarayonlar bilan bog‘liq. Masalan, iontoforez jarayonida elektrolizdan foydalaniladi, bu usulda elektr toki yordamida dori moddalarini teri orqali tanaga kiritish amalga oshiriladi (4-rasm). Elektroliz orqali ionlar teri yuzasidan o‘tib, kerakli joylarga etkaziladi, bu esa dori ta’sirini kuchaytiradi va tuzalish va tiklanish jarayonlarini tezlashtiradi. Shuningdek, elektrolizning fizioterapiya sohasida ham qo‘llanilishi mavjud, chunki bu jarayon o‘zining yallig‘lanishga qarshi, og‘riqni kamaytiruvchi va qon aylanishini yaxshilovchi xususiyatlari bilan tanilgan [4, 5]. Elektroliz yordamida ishlab chiqarilgan vodorod ionlari, shuningdek, hujayra membranalarini tiklashda va regeneratsiya jarayonlarida ham qo‘llaniladi.



4-rasm. Elektr toki yordamida dori moddalarini teri orqali tanaga kiritish jarayoni

Bundan tashqari, elektrolizning biogenezisga ta’siri ham tadqiq qilinadi, chunki ba’zi biologik jarayonlar, masalan, qon ishlab chiqarish hamda hujayralar o‘zaro axborot almashinuvi va muvofiqlashgan faoliyatni amalga oshirish jarayoni, elektrokimyoviy jarayonlarga asoslangan. Elektroliz jarayonida paydo bo‘lgan elektronlar va ionlar, shu jumladan kislorod va vodorod, tana-

dagi biologik muvozanatni saqlashga yordam beradi. Shu tarzda, elektrolizning tibbiyotdagi qo‘llanilishi organizmning normal ishlashini ta’minlashda va turli kasalliklarni davolashda muhim o‘rin tutadi [6].

Elektroliz ancha keng ko‘lamda qo‘llaniladi. Metall buyumlarni korroziyalashdan muhofaza qilish uchun ularning sirtiga boshqa metallning — xrom, kumush, oltin, mis, nikel juda yupqa qatlami qoplanadi. Ba’zan ko‘p qatlamli qoplama ham qilinadi. Masalan, avtomobillarning tashqi detallariga dastlab yupqa mis qatlami, misning ustidan yupqa nikel qatlami, nikel ustidan esa xrom qatlami qoplanadi. Metallar sirtiga elektroliz yo‘li bilan qoplangan qoplamlar qalinligi bir xil, mustahkam bo‘lib, uzoq vaqt xizmat qiladi. Bundan tashqari, bu usul bilan istalgan shakldagi buyumni qoplash mumkin. Elektrolizdan ko‘pchilik metallarni — ishqoriy metallar, ishqoriy-yer metallari, aluminiy, lantanoidlar va boshqa metallarni olish mumkin. Shuningdek, ba’zi metallarni aralashmalardan tozalash uchun foydalaniladi. Kimyoni o‘rganish davomida o‘quvchilar elektrolizdan texnikada, sanoat va turmushda foydalaniladigan boshqa muhim sohalarini ham uchratadilar.

Geografiya va ekologiya fanlarida elektrolizning resurslarni qayta ishlashda va dengiz suvidan tuzni ajratib olishda qanday rol o‘ynashi tahlil qilinadi (5-rasm).

Dengiz suvidan tuzni ajratib olish uchun tuzli suvga cho‘ktiruvchi reaktivlar qo‘shiladi, ular tuz ionlari bilan birikib, erimaydigan moddalar hosil qiladi. Jarayonni amalga oshirish uchun reagentlar hajmi odatda mavjud suv hajmining taxminan 5% ni tashkil qilishi kerak. Reaktiv sifatida bariy va kumush ionlari ishlatiladi.



5-rasm. Dengiz suvini tuzsizlantirish texnologiyasini umumiy ko‘rinishi

Kimyoviy tuzsizlantirish reaktivlarning nisbatan yuqori narxi ya’ni qimmatligi, ko‘p vaqt olishi va tuzlarning zaharliligi sababli bu usul juda kam qo‘llaniladi.

Xulosa. Umumiy qilib aytganda bu jarayonning atrof-muhitga ta’siri va ekologik barqarorlik masalalari bilan bog‘liqligi ko‘rsatadi. Elektroliz oqava suvlarni tozalashda (elektrokoagulyatsiya, elektroekstraktsiya va elektroflotatsiya jarayonlarida) qo‘llaniladi. Elektrokimyoviy tozalash usuli eng ko‘p qo‘llaniladigan usullardan biridir. Elektroliz uchun erimaydigan anodlar (magnetit, qo‘rg‘oshin oksidi, grafit, marganes, titan asosiga qo‘llaniladi) yoki eriydigan (alyuminiy, temir) ishlatiladi. Bu usul suvdan zaharli organik va noorganik moddalarni ajratish uchun ishlatiladi. Masalan, mis quvurlari sulfat kislota eritmasi bilan tozalanadi va sanoat oqava suvlari keyin erimaydigan anod bilan elektroliz orqali tozalanishi kerak. Katodda mis ajralib chiqadi, uni yana bir korxonada ishlatish mumkin. Ishqoriy oqava suvlar sianid birikmalarini olib tashlash uchun elektroliz orqali tozalanadi. Sianidlarning oksidlanishini tezlashtirish, elektr o‘tkazuvchanligini oshirish va energiyani tejash uchun suvga natriy xlorid ko‘rinishidagi qo‘shimcha ishlatiladi. Elektroliz grafit anod va po‘lat katod bilan amalga oshiriladi. Sianidlar elektrokimyoviy oksidlanish jarayonida va anodda ajralib chiqadigan xlor ta’sirida tozalanadi. Bunday tozalashning samaradorligi 100% ga

yaqin bo‘ladi.

Tarix fanida esa elektrolizning kashfiyoti va uning ilm-fan rivojidagi o‘rni, shuningdek, texnologik yutuqlarning sanoat inqilobiga ta’siri o‘rganiladi. Texnologiya fanida elektroliz jarayonining amaliy qo‘llanilishi, masalan, galvanoplastika, metallarni tozalash va vodorod olish texnologiyalari bilan bog‘lanadi.

Tadbirkorlik va iqtisodiyot fanlarida elektroliz asosida mahsulot ishlab chiqarish, energiya samaradorligi va iqtisodiy tahlillar o‘tkazish mumkin. Ishlab chiqarish jarayonlarining iqtisodiy samaradorligi va tijoratdagi ahamiyatini o‘rganish ushbu mavzuni yanada kengroq yoritadi. Fanlararo yondashuv orqali o‘quvchilar elektrolizning haqiqiy hayotdagi amaliy ahamiyatini yanada yaxshi anglab, turli sohalar bilan bog‘liq bilimlarni o‘zlashtiradi. Shu bilan birga, tadqiqot ko‘nikmalari va muammolarni hal qilish qobiliyatlari rivojlanadi.

ADABIYOTLAR

1. N.G‘.Raxmatullayev, H.T.Omonov, Sh.M.Mirkomilov. Kimyo o‘qitish metodikasi. – Toshkent: “Iqtisod-Moliya”, 2013.

2. L. Vanchukhina, “New Model of Managerial Education in Technical University,” International Journal of Educational Management, vol. 33, no. 3, pp. 511-524, 2019.

3. D. G. Rackus, “Learning on a Chip: Microfluidics for Formal and Informal Science Education,” Biomicrofluidics, vol. 13, no. 4, 2019.

4. M. Martino, “Chemical Promenades: Exploring Potential-Energy Surfaces with Immersive Virtual Reality,” Journal of Computational Chemistry, vol. 41, no. 13, pp. 1310-1323, 2020.

5. Z. A. Zulkipli, “Identifying Scientific Reasoning Skills of Science Education Students,” Asian Journal of University Education, vol. 16, no. 3, pp. 275-280, 2020.

6. E.Turdiqulov. “Hozirgi zamon tabiiyot fanlari mazmuni va ularni integratsiyalab o‘qitishning muammolari”. “Fizika, matematika va informatika” ilmiy-uslubiy jurnali. Toshkent. 2010 yil, 2-son.

TALABALARDA KITOBXONLIK MADANIYATINI YUKSALTIRISH ASOSLARI

Ibragimov Sherzod Shavkatovich
Urganch davlat pedagogika instituti Texnologik ta'lim kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqola talabalarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va uning ahamiyatini oshirish masalalariga bag'ishlangan. Maqolada kitobxonlik madaniyatini shakllantirishning asosiy omillari, uning yoshlar orasida qanday targ'ib qilinishi va zamonaviy o'quvchilarga kitoblarning qadr-qimmati qanday tushuntirilishi keltirilgan. Shuningdek, ta'lim muassasalarida kitobxonlik madaniyatini shakllantirish uchun pedagogik metodlar va ijtimoiy muhitni yaxshilash zarurati haqida ham so'z boradi. Talabalarni kitobga mehr qo'yishga va bilim olishga undash, ularning fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi.

Kalit so'zlar: kitobxonlik madaniyati, talabalar, ta'lim muassasalari, pedagogik metodlar, yoshlar, bilim olish, fikrlash qobiliyati, ijtimoiy muhit, kitobning ahamiyati, o'qish madaniyati.

ОСНОВЫ ПОВЫШЕНИЯ КУЛЬТУРЫ ЧТЕНИЯ СРЕДИ СТУДЕНТОВ

Аннотация. Данная статья посвящена вопросам развития культуры чтения среди студентов и повышения ее значимости. В статье рассматриваются основные факторы формирования культуры чтения, способы ее популяризации среди молодежи и методы объяснения ценности книг современным читателям. Также подчеркивается необходимость улучшения педагогических методов и социальной среды в образовательных учреждениях для формирования культуры чтения. Мотивация студентов к любви к книгам и стремлению к знаниям играет важную роль в развитии их мыслительных способностей.

Ключевые слова: культура чтения, школьники, образовательные учреждения, педагогические методы, молодежь, получение знаний, мыслительные способности, социальная среда, ценность книги, чтение.

FOUNDATIONS OF ENHANCING READING CULTURE AMONG STUDENTS

Annotation. This article is devoted to the development of reading culture among students and increasing its importance. The article discusses the main factors in forming a reading culture, methods of promoting it among young people, and ways to explain the value of books to modern readers. It also emphasizes the need to improve pedagogical methods and the social environment in educational institutions to foster a reading culture. Motivating students to love books and pursue knowledge plays a crucial role in developing their thinking abilities.

Keywords: reading culture, students, educational institutions, pedagogical methods, youth, acquiring knowledge, cognitive abilities, social environment, value of books, reading habits.

Kirish. Bugungi globallashuv davrida kitoblar bilim va ma'naviyat manbai sifatida inson rivojlanishida muhim o'rin tutadi. Ammo raqamli axborot vositalarining ko'payishi va texnologiyalarning rivojlanishi kitob o'qishga bo'lgan e'tiborni pasaytirmoqda. Shu sababli ta'lim muassasalari oldida kitobxonlik madaniyatini yuksaltirish, yoshlar ongida kitobga mehr uyg'otish vazifasi turibdi. Ushbu maqolada talaba yoshlar va o'quvchilar orasida kitobxonlik madaniyatini shakllantirishning nazariy va amaliy asoslari, metodik yondashuvlar va ilg'or tajribalar tahlil qilinadi.

Adabiyotlar sharhi. Kitobxonlikning tarixiy ahamiyati. Qadim zamonlardan beri kitoblar bilim, madaniyat va g'oyalarni saqlash va tarqatish vositasi bo'lib kelgan. Misol uchun, O'rta asrlarda kitoblar qo'lyozma shaklida bo'lib, ularni faqat oliy tabaqa vakillari o'qishlari mumkin edi.

Zamonaviy davrda esa kitobxonlik har bir inson uchun ochiq. **[1]**

Zamonaviy dunyoda kitobxonlikning o‘rni: Bugungi kunda raqamli texnologiyalar kitobxonlikni o‘zgartirdi. Elektron kitoblar, audiokitoblar va ijtimoiy tarmoqlardagi adabiyot hamjamiyatlari kitobxonlikni yangi shakllarga olib keldi. Zamonaviy dunyo rivojlanayotgan sayin, ilm-fan va texnologiya sohalarida ulkan o‘zgarishlar yuz bermoqda. Biroq, kitob o‘qish, bilim olish va madaniyatni rivojlantirish har doim dolzarb masalalardan bo‘lib qolmoqda. O‘quvchilarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirish va uning ahamiyatini tushuntirish bugungi ta’lim tizimining asosiy vazifalaridan biridir. Kitobxonlik madaniyati o‘quvchilarda nafaqat bilim olishga bo‘lgan intilishni rivojlantiradi, balki ularning tafakkurini kengaytiradi, fikrlash qobiliyatini yuksaltiradi hamda ma’naviy-axloqiy jihatdan kamol topishlariga yordam beradi. **[2]**

Mazmuni.1. **Kitobxonlikning ijtimoiy, ma’naviy va intellektual ahamiyati**:

Ijtimoiy ahamiyati: kitobxonlik insonlarning muloqot qobiliyatini oshiradi, ularni turli madaniyatlar va dunyoqarashlar bilan tanishtiradi. Bu esa tolerantlik va hamjihatlikni rivojlantirishga yordam beradi.

Ma’naviy ahamiyati: kitoblar insonning ichki dunyosini boyitadi, uni ma’naviy jihatdan mustahkamlaydi. Adabiy asarlar orqali inson o‘z his-tuyg‘ularini tushunish va boshqalarga hamrohlik qilishni o‘rganadi.

Intellektual ahamiyati: kitobxonlik insonning fikrlash qobiliyatini oshiradi, muhokama qilish va tanqidiy tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, kitob o‘qish insonning miya faoliyatini yaxshilaydi.

2. **Yoshlar orasida kitobxonlikning hozirgi holati**:

Global statistikalar: UNESCO ma’lumotlariga ko‘ra, dunyoda har yili 100 millionga yaqin yangi kitob nashr etiladi, ammo yoshlarning atigi 20% foizi muntazam ravishda kitob o‘qiydi. **[3]**

Mahalliy statistikalar: masalan, O‘zbekistonda yoshlar orasida kitobxonlik darajasi pastligi haqida ma’lumotlar keltirishingiz mumkin. So‘rovnomalar shuni ko‘rsatadiki, yoshlarning 60% foizi oyiga bir marta ham kitob o‘qimaydi. **[4]**

Raqamli texnologiyalarning ta’siri: yoshlar ko‘p vaqtini ijtimoiy tarmoqlarda o‘tkazadi, bu esa ularning kitob o‘qishga ajratadigan vaqtini kamaytiradi. Biroq, raqamli texnologiyalar kitobxonlikni rag‘batlantirish uchun ham foydali bo‘lishi mumkin (masalan, elektron kitoblar va audiokitoblar). **[5]**

3. **Kitobxonlikni rivojlantirishga to‘sqinlik qiluvchi omillar**:

Vaqt yetishmasligi: yoshlar o‘qish, ish va shaxsiy hayot o‘rtasida muvozanat saqlash qiyinligini ta’kidlaydilar.

Kitobxonlikka qiziqishning yo‘qligi: zamonaviy o‘yinlar, filmlar va seriallar yoshlarning e’tiborini kitoblardan uzoqlashtiradi.

Kutubxonalarning zaif infratuzilmasi: ko‘p joylarda kutubxonalar zamonaviy talablarga javob bermaydi va yoshlar uchun jozibador emas.

Kutubxonalarni zamonaviy qilish: kutubxonalarni yoshlar uchun qulay va jozibador joyga aylantirish (masalan, kofe zonalari, kitob almashish hududlari) tashkil qilish.

4. **Kitobxonlikni rag‘batlantirish usullari**: **Maktablar va universitetlarda adabiyot dasturlarini yaxshilash**. Darslarda zamonaviy adabiyot va yoshlar qiziqadigan janrlarni kiritish. Kitobxonlik madaniyatini yuksaltirishda birinchi o‘rinda ta’lim muassasalarining o‘rni katta. O‘quvchilarda kitobga mehr uyg‘otish uchun maktabda maxsus kitobxonlik soatlarining o‘tkazilishi, kutubxonalarning faol ishlashi zarur.

O‘quvchilarni kitob o‘qishga undash uchun ular bilan doimiy ravishda muhokama qilish, kitoblarning mazmuni va ahamiyatini tushuntirish muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, o‘qish-

ning faqat badiiy kitoblar bilan cheklanmasligi, ilmiy va metodik adabiyotlar bilan tanishish, ilmiy-texnikaviy ma'lumotlarni o'rganish o'quvchilarning keng dunyoqarashini shakllantiradi.

Taklif etilayotgan metodimda hozirgi kunda ta'lim tizimiga yangi qo'shimcha fanni qo'shib uning nomini Mutolashunoslik yoki Mutolaa asoslari deb nomlansa shu fanning dasturini ishlab chiqib ta'lim muassasalarida haftasiga ikki soatda o'qitiladigan bo'lsa o'quvchilarda kitob o'qishga qiziqishni yuksaltirishda juda katta ro'l o'ynaydi. Ushbu darsda talaba va o'quvchilar hafta davomida o'tilgan darslarning adabiyotlarini o'qib mutolaa qilishadi.

Kitobxonlik klublari va adabiy tadbirlar: Yoshlar uchun kitoblar haqida muhokama qilish, mualliflar bilan uchrashuvlar tashkil etish. O'quvchilarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirishda pedagogik metodlar muhim o'rin tutadi. **Ijtimoiy tarmoqlarda kitobxonlikni rag'batlantirish**: #BookChallenge, #Bookstagram kabi hashtaglar orqali kitobxonlikni ommalashtirish. **[6]**

Raqamli platformalardan foydalanish: Elektron kitoblar, audiokitoblar va kitobxonlik ilovalarini targ'ib qilish. Shuningdek, zamonaviy texnologiyalar va internetning ta'siri tufayli, o'quvchilar ko'p hollarda kitob o'qish o'rniga, elektron qurilmalarda vaqt o'tkazishga moyil bo'lishmoqda.

Kitobni o'qishga qiziqtirish, uning mazmuni haqida o'quvchilarga mulohazalar bildirishi uchun o'qishning interaktiv shakllari, muhokama jadvallari, vizual va audio materiallardan foydalanish samarali hisoblanadi. O'qish jarayonida o'quvchilarni erkin fikr bildirishga undash, ularni mustaqil o'qish va tahlil qilishga rag'batlantirish orqali ko'zlagan maqsadimizga erisha olamiz.

Kitobxonlik madaniyatini yuksaltirishda nafaqat ta'lim muassasasi, balki ijtimoiy muhit ham muhim ahamiyatga ega. Oila, jamiyat, do'stlar va boshqa tashqi omillar o'quvchining kitobga bo'lgan munosabatiga ta'sir qiladi**.** Shunday ekan, kitobxonlik madaniyatini targ'ib qilishda oilaning, do'stlarining va jamiyatning mas'uliyati kattadir.

Oila ichida kitob o'qish an'analarini shakllantirish, bolalarga kitob sovg'a qilish, ularga o'qilgan kitoblar haqida suhbatlashish orqali kitobga bo'lgan qiziqish uyg'otish mumkin.

Xulosa. O'quvchilarda kitobxonlik madaniyatini yuksaltirishda ta'lim muassasalari, oila va jamiyatning o'zaro hamkorligi muhim rol o'ynaydi. Kitob o'qishning ahamiyatini to'g'ri tushuntirish, o'quvchilarni kitobga mehr qo'yishga rag'batlantirish, ularning ilmga bo'lgan ishtiyoqini oshirish uchun pedagogik metodlardan samarali foydalanish kerak. Kitobxonlik madaniyati shakllanishi bilan birga, o'quvchilarning fikrlash qobiliyati, ma'naviyati va axloqi yuksaladi, bu esa kelajakda ularning ilmiy va ijtimoiy faoliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

- **Kitobxonlikning kelajagi**: raqamli texnologiyalar kitobxonlikni yangi bosqichga olib chiqmoqda. Yoshlar uchun kitobxonlikni qiziqarli va qulay qilish zarur.
- **Jamiyatning roli**: kitobxonlikni rivojlantirish faqat ta'lim muassasalari emas, balki butun jamiyatning hamkorligini talab qiladi. Ota-onalar, o'qituvchilar va davlat organlari yoshlarni kitobxonlikka undashda muhim rol o'ynaydi.
- **Shaxsiy chaqiriq**: har bir inson kitobxonlikni o'z hayotining bir qismi qilishi va boshqalarga ham misol bo'lishi kerak.

Qo'shimcha statistikalar va tadqiqotlar:

1. **UNESCO ma'lumotlari:** Dunyoda 750 millionga yaqin odam savodsiz, bu esa kitobxonlikni rivojlantirish zarurligini ko'rsatadi. **[3]**
2. **Pew Research Center tadqiqoti:** AQShda yoshlarning 27% foizi bir yil ichida hech qanday kitob o'qimagan. **[7]**
3. **O'zbekistonda kitobxonlik holati:** So'nggi yillarda kutubxonalarga tashrif buyuruvchilar soni kamaygani haqida ma'lumotlar**. [4]**

Axborot manbalari va adabiyotlar:

1. Hoshimov, X. (2008). “Ta’limda o‘qish va kitobxonlik.” Tashkent: Ma’naviyat.
2. Davronov, Sh. (2015). “Kitob va ta’lim: o‘qishning ijtimoiy ahamiyati.” Toshkent: O‘zbekiston.
3. UNESCO ma’lumotlari. (https://www.unesco.org).
4. O‘zbekistonda kitobxonlik holati. (https://www.stat.uz).
5. Abdullayev, M. (2014). “Pedagogik metodlar va innovatsion texnologiyalar.” Tashkent: O‘zbekiston.
6. “Reading Culture in Modern Education” -- https://www.edutopia.org. Pew Research Center. (https://www.pewresearch.org).

FIZIKA VA ASTRONOMIYA FANINI O‘QITISHDA BUYUK AJDODLARIMIZNING ILMIY MEROSLARIDAN FOYDALANISH

Avezmuratov Ollayor, Avezmuratova Zebo Allayarovna
Urganch davlat universiteti Fizika kafedrasi dotsenti, Urganch davlat pedagogika instituti Texnologik ta’lim kafedrasi dotsent v.b., zeboavezmuratova@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi asosida uchinchi Renessans davri poydevori qurilayotgan yangi O‘zbekistonda birinchi Renessans davrining buyuk namoyondalaridan bo‘lgan ajdodlarimiz **Muhammad ibn Muso Al-Xorazmiy va Abu Rayhon Beruniyning** boy ilmiy merosini chuqur o‘rganish va keng targ‘ib etish ko‘rsatib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: renessans, Muhammad ibn Muso Al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniydir, Akademiya, Ma’mun akademiyasi, Oy tutilishlari, Quyosh tizimi, ekliptika, sayyoralar, sirtmoqsimon, Qo‘yqirilgan qal’a, Kitobu surat al – arz, algoritm, Geliosentrik, “Tafxim” asari, Al-jabr, “algoritmini”, Xristofor Kolumb.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ НАУЧНОГО НАСЛЕДИЯ НАШИХ ВЕЛИКИХ ПРЕДКОВ В ПРЕПОДАВАНИИ ФИЗИКИ И АСТРОНОМИИ

Аннотация. В данной статье на основе стратегии развития Узбекистана закладывается фундамент третьего периода Возрождения, в новом Узбекистане богатое научное наследие наших предков Мухаммада ибн Мусы Аль-Хорезми и Абу Райхана Беруни, великих представителей первого периода Возрождения, подлежит глубокому изучению и широкой пропаганде.

Ключевые слова: возрождение, Мухаммад ибн Муса Аль-Хорезми, Абу Райхан Берунидир, Академия, Академия Мамуна, Лунные затмения, Солнечная система, эклиптика, планеты, загадочные, Названный замок, Китаб сурат аль-арз, алгоритм, Гелиоцентрика, работа «Тафхим», Аль-Джабр, «алгоритмини», Христофор Колумб.

USING THE SCIENTIFIC HERITAGE OF OUR GREAT ANCESTORS IN TEACHING PHYSICS AND ASTRONOMY


Abstract. In this article, on the basis of the development strategy of Uzbekistan, the foundation of the third Renaissance period is being built, in the new Uzbekistan, the rich scientific heritage of our ancestors Muhammad ibn Musa Al-Khorazmi and Abu Rayhan Beruni, who are the great representatives of the first Renaissance period, is to be deeply studied and widely promoted. has been shown.

Key words: renaissance, Muhammad ibn Musa Al-Khwarazmi, Abu Rayhan Berunidir, Academy, Academy of Ma’mun, Lunar eclipses, Solar system, ecliptic, planets, cryptic, Called castle, Kitab surat al-arz, algorithm, Heliocentric, “Tafkhim” work, Al-jabr, “algorithmini”, Christopher Columbus.

Kirish. Respublika Ma’naviy va ma’rifiy markazning kengaytirilgan majlisida Prezident Shavkat Mirziyoyevning nutqida “Ma’naviyat hayotimizda yangi kuch, yangi harakatga aylanishi kerak”, “Ilm-fan, ta’lim va tarbiya, ma’naviyat biz uchun ustuvor masaladir”, “Bugun ma’naviyat boshqa sohalardan 10 qadam oldinda yurishi kerak”, shuningdek “Xalqimiz, ayniqsa, yoshlar o‘rtasida ma’naviy-ma’rifiy ishlarni sifat va mazmun jihatdan mutlaqo yangi bosqichga qaytarishimiz lozim” – degan hozirgi jamiyatimiz uchun zarur bo‘lgan fikrlarni aytib o‘tdi. Shuningdek 2022-

2026- yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida 73-maqsadida “Buyuk ajdodlarimizning boy ilmiy merosini chuqur o‘rganish va keng targ‘ib etish ko‘rsatib o‘tilgan.







1-rasm 2-rasm 3-rasm

Adabiyotlar sharhi. Bugun mamlakatimiz O‘zbekiston qadimiy ma’naviy qadriyatlarga boy, insoniyat sivilizatsiyasining tarixida o‘z o‘rniga ega davlatdir. Biz bunday qadriyatlarimizni ba’zilarini keltirib o‘tamiz. **Muhammad ibn Muso Al-Xorazmiy** (783-850) (1-rasm). Al-Xorazmiy 783-yilda Xivada tug‘ilgan va 850yilda Bog‘dodda vafot etgan. Xorazm ilmiy maktabining ilk ko‘zga ko‘ringan namoyondasi Al-Xorazmiy bo‘lib, u Amerikalik sharqshunos D.Sarton ta’biri bilan aytganda “Barcha zamonlarning eng ulug‘matematiklaridan biri” edi. Qadimiy Xorazm, Sharqda ilm fanning rivojlanishida juda katta o‘rin tutgan. Xorazmda aniq fanlar – geometriya, trigonometriya, astronomiya, kimyo, minerologiya, tibbiyot va boshqa tabiiy fanlar VIII-XI asrlardayoq yuksak darajada taraqqiy etgan.[1].

Al-Xorazmiy matematika, astronomiya, geografiya sohasida katta ishlarni amalga oshirgan. IX asr boshlarida Bog‘dodda Al-Ma’mun xalifaligi davrida “Bayt al-hikma” ya’ni “Donishmandlar uyi” keyinchalik Bog‘dod yoki Ma’mun akademiyasi - deb atalgan kutubxona tashkil etilgan. Bu Akademiyaga sivilizatsiya markazlari hisoblangan Yunoniston, Misr, Xitoy Hindiston (bular qatoriga Xorazmni ham qo‘shish mumkin) davlatlardan olimlar yig‘ilgan. Akademiyani asososiy ishi yuqorida aytilgan sivilizatsiya markazlaridagi ilm-fan sohasida erishilgan yutuqlari va kashfiyotlarni Arab tiliga o‘girish bo‘lgan. Bu esa keyinchalik Sharq-Renessansi nomini oldi. Bu Akademiyada 200 dan ortiq olimlar ish olib borgan va ularga Al-Xorazmiy rahbarlik qilgan va boshqargan.

Al-Xorazmiy Hindistonning San-skrit tilidagi matematika va arifmetikasini o‘rganadi. O‘sha paytda ma’lum bo‘lgan hindlarni 1,2,3,4,5,6,7,8,9 belgilarini va bu raqamlar yordamida 3 lik, 6 lik son pozitsiyalarini o‘rganadi, ularni arab tiliga o‘giradi. Bu raqamlar bilan matematik tenglamalar, arifmetik amallarni bajarishda muammolar yuzaga keldi. Al-Xorazmiy bu raqamlar qatoriga 0 ni kiritdi va sanoq boshini 1 dan emas 0 dan boshlash kerakligini tushuntirdi. Bu raqamlar yordamida o‘zining 10 lik pozitsiyasi (tizimlarini) yaratdi. Unga ko‘ra 9 raqamidan keyin 10 ko‘rinishida davom etish mumkin ekanligi, 100, 1000 va 10^6, 10^9, 10^{12} katta sonlarni qisqa yozish mumkinligi, shuningdek, 0 bilan 1 o‘rtasida kichik sonlarni yozish mumkinligini tushuntirdi. Masalan, uzunlik birligi 1 m, 1m/10=1 dm, 1m/100=1 cm, 1m/1000=1 mm, 10^{-6} m= 1 mikrometr, 10^{-9} m= 1 nanometr, 10^{-12} m = 1 pikometr va hakozo. Bundan ko‘rinib turibdiki Al-Xorazmiyni 10 lik tizimi eng katta sonlarni yozishda va 0 bilan 1 orasidagi eng kichik sonlarni yozishda eng qulay tizim hisoblanadi. Masalan hozir, insoniyatni bilim chegarasi koinotda 10^{25} m (4000 Mps) bo‘lgan kvazarlarni o‘rganmoqda. Bizni koinotimizning yoshi 13,7 mlrd yil bo‘lgan, u “Katta portlash”dan boshlangan.

Koinotni boshida uning zichligi 10^{94} gr/cm^3 bo‘lgan. Agar atom ichidagi zarralarni o‘lchamlarini keltirsak atomlarni o‘lchami 10^{-9} m – nanometer (1/1000000000 m) atom yadrosini o‘lchami 10^{-15} m, proton yoki neytronlarni o‘lchami 10^{-19}m, kvarklarni o‘lchami 10^{-25} m ni tashkil etadi. Insoniyatni bilimi katta tomoni 10^{25}m dan, kichik tomoni 10^{-25} m ga yetdi. Agar Al-Xorazmiyni 10 lik sistemasi bo‘lmaganda bu o‘lchamlarni hozir insoniyat ifodalab bera olmas edi. Al-Xorazmiy” Al-jabr va muqobala” asarida, kvadrat tenglamalarni yechimini hozirgi til bilan aytganda “algorit-

mini" bergan. Bu so'zni hozir masala yechimini, biror qonuniyat ketma- ketligi yoki dasturi (programmasi) (ayniqsa EHM mashinalar, komputerlar chiqqanidan keyin) -deb biladilar. Aslida esa bu so'z "algoritm" – Al-Xorazmiy so'zini o'zidir ya'ni Al-Xorazmiy bobomizning nomidir.

Al-Xorazmiyni asarlari XII asr boshlarida Ispan-lotin tiliga tarjima qilingan. Uni asarlarida nomi Algoritmos, Algorismus, Alhorismus, Alkauresmus kabi so'zlar bilan atalgan va nihoyat butun dunyoga "Algoritm" so'zi bilan uning "Al-jabr" asari ispan-lotin tilida j harfi g bilan o'qilib "Algebra" sozi kelib chiqqan. Bu yuqoridagi atamalar hozirgi kunda shu qadar muhimki, dunyoda 8 mlrd kishini hammasi shu 10 lik sistemada gaplashadi, ilmda "Algebra" "Algoritm" atamalaridan foydalanishadi.

Ptolomeyning "Buyuk tuzilish" asari Bog'dod akademiyasida arab tiliga tarjima qilindi va "Al majistiy" – deb ataldi. Al-Xorazmiy astronomiya sohasida ungacha hech kim qilmagan ishlarni amalga oshirdi. 37 bobdan iborat "Zi" yozgan. Bu asarda 116 jadvali va ko'pgina astronomik hodisalar tushuntirilgan. Eralar haqida, Quyosh tizimi va unda Quyosh, Oy tutilishlari, joylarni geografik kenglamasini aniqlash usullari haqida ilmiy asosda tushuntirishlar beradi.

Al-Xorazmiy birinchi bo'lib Yerni shar shaklida ekanligiga uzil-kesil xulosaga kelib Yerni radiusini o'lchaydi. Bu radius orqali Yer yuzidagi har bir gradus (1^0) yoyga to'g'ri keladigan yoy uzunligini hisoblaydi. Uni hisobicha 1^0 = 111,8 km, hozirgi qiymati esa 1^0 = 111,5 km ni tashkil qiladi. 300 m ga xatolik bo'lgan. Bu xatolik, Yerning hamma joyi aniq shar shaklida emasligi, shundan kelib chiqqan bo'lishi mumkin. 500 ga yaqin joyni, shaharlarni Quyoshni tush paytidagi balandligiga qarab ($\varphi\varphi$) geografik kengligini topish uslubini bergan. Shuningdek geografik kengliklar farqiga qarab ular o'rtasida masofani hisoblash usulini ko'rsatib bergan. Bu metod 1957 – yil Yerning sun'iy yo'ldoshi uchirilib, keyinchalik hozirgi JPS lar ishga tushguncha ishlab kelgan. [1]

Yuqorida keltirilgan uslublar asosida, Al-Xorazmiy hamda Al-Ma'mun topshirig'iga ko'ra 70 ga yaqin olimlar bilan birga "Jahon xaritalari" Dunyo atlasi tuzish ustida ish olib boradi. Keyinchalik bu xarita "Ma'mun dunyo xaritasi" nomi bilan ataladi. Shu asosda "Kitobu surat al – arz" – deb atalgan asari "Yerning qiyofasi kitobi" yoki hozirgi til bilan aytganda "Geografiya" ma'nosini beradi. Ko'pgina olimlar Al-Xorazmiyni geografiyani asoschisi- deb tan oladi. Uning xaritasidan Kolumb va Magellan ham foydalangan, ular borgan joylarida materik orollarini koordinatalarini belgilab borgan, Al-Xorazmiyni hisoblari to'gri ekanligiga ishonch hosil qilganlar.

Al-Xorazmiyning bu kashfoyotlarini undan 200 yil keyin yana bir xorazmlik alloma, qomusiy olim, I - Renessans davrining buyuk namoyondasi **Abu Rayhon Beruniydir** (2-rasm). Abu Rayhon Beruniy qomusiy ensiklopedik olim. Uning hozirgacha 160 dan ortiq asarlar yozganligi aniqlangan. Shundan bizgacha 33 tasi yetib kelgan. Uning eng kop asarlari astronomiyaga bag'ishlangan bo'lib (60 dan ortiq), u fizika, matematika, trigonometriya, geografiya, mineralogiya, tarix va xronologiya, tibbiyot fanlari bilan shug'ullangan.

2023-yil Abu Rayhon Beruniyning O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 – yil 25-avgustda "Buyuk olim Abu Rayhon Beruniy tavalludining 1050 yilligini xalqaro miqyosda keng nishonlash to'g'risida" gi qarori asosida, bu yubiley keng nishonlandi.

Toshkent, Nukus, Beruniy, Urganch, Xiva shaharlarida 2023-yil 25-28- sentabr sanalarida "Abu Rayhon Beruniy ilmiy merosining jahon fani rivojidagi o'rni" – mavzusida katta xalqaro konferensiya bo'lib o'tdi. Bu konferensiyada AQSh, Indoneziya, Italiya, Malayziya, Marokash, Misr, Pokiston, Rossiya, Turkiya, Ozarboyjon, Turkmaniston, Qirg'iziston, Tojikiston, Eron, Hindiston kabi davlatlardan olimlar qatnashdi. Allomaning hayoti va ilmiy faoliyatini turli qirralari yorituvchi maqolalar, ingliz, rus, o'zbek tillarida to'plam qilindi.

Beruniy ham Al-Xorazmiy kabi, Yerning uzil - kesil shar shaklida ekanligi haqidagi xulosaga

keladi. Al-Xorazmiyni Yer shari haqidagi ishlarini davom ettirib, o‘zining usuli (“Soyalar nazariyasi”) asosida Yer sharining radiusini aniq o‘lchagan. O‘zining “Qonuniy Ma’sudiy” va “Tafxim” asarida Beruniy Yer shari o‘z o‘qida aylanishini 1- bo‘lib aytgan va ekvatordagi nuqtalarni aylanish chiziqli tezligini hisoblab bergan. U aytadi “…Agar Yer o‘z o‘qi atrofida aylanadi- deb faraz qilsak, osmondagi harakatlarni, osmonni aylanishini, kecha bilan kunduz almashinish hodisalarini oson tushuntirsa bo‘ladi” – deb ko‘rsatadi.

“Tafxim” asarida “Agar Yer Quyosh atrofida aylanadi - deb qarasak, ekliptika, sayyoralarni sirtmoqsimon harakatlarini oson tushuntirish mumkin” - degan xulosaga keladi. Bu fikrlar bilan u 1000 yillar boshida, undan 500 yil keyin ochilgan, Nikolay Kopernikni “Geliosentrik” ta’limotiga asoslar yaratgan edi.

Beruniy 22 yoshida 995-yillar 1- bo‘lib diametri 5 m bo‘lgan katta Yernung globusini yasagan. Bu globusni yasashda u albatta Al-Xorazmiyning Yer haqidagi va xarita ma’lumotlaridan foydalanganiga shubha yo‘q. Bu globusda shaharlar, tog‘lar, orollarni $\varphi\varphi$ geografik kengligi, $\lambda -\lambda -$ geografik uzoqliklari ko‘rsatilgan. Atlantika, Tinch, Hind okeanlari ko‘rsatilgan bo‘lib, Atlantika okeani orqasida uzun quruqlik bor- deb bashorat qiladi. Bu Amerika materigi edi. Hozirgi kunda Amerikani “Kim ochgan” - degan savol ustida Yevropa va Amerika olimlari tortishmoqda. Bir guruh olimlar Amerikani Xristofor Kolumb 1492- yil sayyohlik yo‘li bilan ochgan desalar, 2- guruh olimlar Amerikani 995-yilda o‘zining globusi oldida, xonasida o‘tirib nazariy yo‘l bilan Beruniy ochgan demoqdalar[2,3].

Mazmuni. Albatta bu tortishuvlar o‘z samarasini bermoqda. Yaqinda 2024-yil 23- yanvar sanasida Abu-Rayhon-Beruniyga AQSh poytaxti Washington shahrida, byust haykal o‘rnatildi. Byustni ochilish marosimida AQShning nufuzli davlat arboblari qatnashdi. Unda Xristofor Kolumbdan 500 yil oldin Abu Rayhon Beruniy okean orqasida Amerika materigi borligi haqidagi gipotezasini ilgari surgan- degan fikrlar aytildi va tan olinmoqda.

O‘zbekistondan, Xorazmdan tarixda ko‘p daholar yetishib chiqqan. Albatta Xorazmda qadimda ilm-fan, madaniyat rivojlangan bo‘lgan va insoniyat sivilizatsiyasi markazlaridan bo‘lgan deyishga asoslar bor. Bunga qadimgi Xorazm qal’alarini misol qilish mumkin. Bu qal’alarni arxitekturaviy va madaniy qurilishlari qadimiy xorazmliklarni manaviyati va madaniyati haqida xabar beradi. Bunday qal’alar hozirda 50 dan ortiq. Bu qal’alarni ko‘pchiligi Qoraqalpog‘iston Respublikasida joylaishgan, shulardan birisi To‘rtko‘l tumanida joylashgan **“Qo‘yqirilgan qal’a”** (3-rasm) haqida to‘xtalamiz.

Manbalarda aytishlaricha Qo‘yqirilgan qal’a eramizdan oldingi III-VIII asrlarda Xorazmning madaniy ma’rifiy, ilm-fan markazi bo‘lgan, yana manbalarda Xorazmda dehqonchilik madaniyati miloddan oldingi 3000-yillarda vujudga kelgan deyiladi. Dehqonchilik bilan bog‘liq yil fasllarini oldindan aniqlash muhim ahamiyatga ega bo‘lgan. Bu esa astronomiya fani bilan bog‘liqdir. Qo‘yqirilgan qal’a o‘z davrida kalendar vazifasini bajargan.

Qo‘yqirilgan qal’a 1957-yillar, arxeolog, sharqshunos olim S.P. Tolstov tomonidan qum barxonlari ostidan topilgan va o‘rganilgan(3-rasm). Bu qal’adan eramizdan oldingi I-II ming yilliklar davrida ishlangan sopol idishlar topilgan. Ba’zi manbalarda Qo‘yqirilgan qal’ani faoliyati eramizdan oldingi I-II hunarmandchilik davrlarida boshlangan va eramizni IV-asrigacha davom etgan deyiladi.

Xulosa. Qo‘yqirilgan qal’ada yilning bahorgi (21-22-mart), kuzgi(21-22-sentabr) teng kunliklari, yozgi (21-22-iyun) va qishgi(21-22-dekabr) Quyosh turish kunlari aks etgan. Demak, bu aniq kalendar vazifasini bajarganligiga shubha yo‘q. Albatta u paytlarda hozirgi Yulian - Grigoryan kalendari bo‘lmagan. Uning tarixi 2000 yil. Ba’zi manbalarda Xorazmliklarni 10 kunlik bayrami

bo‘lgan. Agar uni hozirgi kalendar bilan solishtirsak 25-dekabrdan 5-yanvargacha bo‘lgan davirga to‘g‘ri keladi. Bu bayram Quyoshni qaytishiga bog‘ishlangan, chunki Avestoda Xorazmliklar Quyoshga sigingan, hozirgi **Yangi yil** bayramiga to‘g‘ri keladi. Bundan ko‘rinadiki, hozirgi **Yangi yil** bayramini Xorazmliklar 3000 yillar oldin ham bayram qilganlar va asta-sekin Dunyoga tarqalgan bo‘lishi mumkin. Mana shunday ma’naviy qadriyatlarimizni yoshlar o‘rganishi va rivojlantirishi kerak. Hozir ko‘plab OTM larda yoshlar arab tilini o‘rganmoqda. Yuqorida aytib o‘tilgan allomalarimizni asarlari arab tilida yozilgan. Abu Rayhon Beruniyni 160 dan ortiq asari ma’lum, shundan 33 tasi bizgacha yetib kelgan. Al-Xorazmiyning 20 ga yaqin yirik asarlari bo‘lgan, shundan 8 tasi bizgacha yetib kelgan, Qo‘yqirilgan qal’ani nomi avval boshqa bo‘lgan. Mana shu muammolarni yoshlarimiz kelajakda yechadilar va boy ma’naviyatimizni kelgusi avlodlarga yana ham boyitib etkazishda o‘z hissalarini qo‘shadilar degan umiddamiz!!!.

ADABIYOTLAR

1. К.Гадоев, С.Бердиева. Жохонгашта сайёх-олимлар. Т., Ўзбекистон-2012 й.
2. Абу Райхон Беруний. Танланган асарлар. I том. “Фан” Тошкент 1968.
3. Абу Райхон Беруний. Тафхим танланган асарлар. Т.-Урганч-Хива-2006 й.
4. Qahhorov S.Q., Avezmurotov O., Avezmuratova Z.A. “Abu Rayhon Beruniy ilmiy merosining jahon fani rivojidagi o‘rni” xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materillari Nukus, Urganch, Toshkent “Ma’naviyat” nashriyoti 2023 y. 25 sentabr.

ZAMONAVIY DASTURLASH TILLARI YORDAMIDA KO‘PHADLARNI ENG KATTA UMUMIY BO‘LUVCHINI TOPISH

Jumanazarova Shodiya Otojon qizi, Jumaboyeva Zevarjon Rustamboyevna, Saidov Murodbek Ulugbek O‘g‘li
Urganch davlat pedagogika instituti Fizika-matematika kafedrasi o‘qituvchilari
shodiyajumanazarova219@gmail.com
Rahimova Zuhra Jamolbek qizi, Aniq va amaliy fanlar fakulteti 1-kurs talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada zamonaviy dasturlash tili bo‘lgan Python yordamida ko‘phadlarning eng katta umumiy bo‘luvchisini topishning Evklid algoritmi keltirilgan. Shuningdek, bu algoritmning matematik asoslari va Python dasturida uning amalga oshirilishi ko‘rib chiqiladi.
Kalit so‘z: ko‘phad, EKUB, Evklid algoritmi, Python dasturlash tili, algebra, hisoblash.

FINDING THE GREATEST COMMON DIVISOR OF POLYNOMIALS USING MODERN PROGRAMMING LANGUAGES

Abstract. This article presents the Euclidean algorithm for finding the greatest common divisor of polynomials using Python, a modern programming language. Additionally, the mathematical foundation of the algorithm and its implementation in Python are discussed.
Key words: polynomial, GCD, Euclidean algorithm, Python programming language, algebra, computation.

НАХОЖДЕНИЕ НАИБОЛЬШЕГО ОБЩЕГО ДЕЛИТЕЛЯ МНОГОЧЛЕНОВ С ПОМОЩЬЮ СОВРЕМЕННЫХ ЯЗЫКОВ ПРОГРАММИРОВАНИЯ

Аннотация. В статье представлен алгоритм Евклида для нахождения наибольшего общего делителя многочленов с использованием современного языка программирования Python. В нем также рассматриваются математические основы этого алгоритма и его реализация на языке Python.
Ключевые слова: полином, алгоритм Евклида, язык программирования Python, алгебра, вычисления.

Kirish. Hozirgi kunda ta’lim samaradorligini oshirish maqsadida dars jarayonini tashkillashtirishda har xil zamonaviy interfaol metodlardan, axborot kommunikatsiya vositalaridan, tarqatma materiallardan foydalanilmoqda. O‘qituvchining dars jarayonida turli ta’lim texnologiyalaridan oqilona foydalana olishi natijasida talabalarning qiziquvchanligi ortadi, bilish qobilyati rivojlanadi. Axborot texnologiyalaridan har bir darsda foydalanilsa, o‘quv jarayonida talaba nafaqat mavzu bo‘yicha, balki kompyuter vositalari, yangi dasturlarning ishlash prinsipi bo‘yicha ham ma’lumotlarga ega bo‘lib boradi va kompyuter savodxonligini boyitadi.

Ta’limning bugungi vazifasi talabalarni kun sayin oshib borayotgan axborot-ta’lim muhiti sharoitida mustaqil ravishda faoliyat ko‘rsata olishga, axborot oqimidan oqilona foydalanishga o‘rgatishdan iboratdir. Buning uchun ularga uzluksiz ravishda mustaqil ishlash imkoniyati yaratib berish zarur.

Adabiyotlar sharhi. Algebra va sonlar nazariyasiga bag‘ishlangan adabiyotlar matematika fani doimo o‘zining nazariy va amaliy qirralari bilan insoniyat e’tiborini tortib kelgan. Algebra va sonlar nazariyasi esa uning eng muhim va dolzarb yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu yo‘nalishda D.R.Saparboyevaning «Algebra va sonlar nazariyasi» hamda A.G.Kuroshning «Oliy algebra

kursi» asarlari juda katta ahamiyatga ega. Quyida ushbu kitoblarning ilmiy va amaliy ahamiyatini ko‘rib chiqamiz.

D.R.Saparboyeva tomonidan yozilgan ushbu kitob algebra va sonlar nazariyasining asosiy tushunchalarini o‘rganish uchun zarur bo‘lgan muhim manba hisoblanadi. Kitobda algebraik tenglamalar, matritsalar, determinantlar, sonlar nazariyasidagi eng asosiy tushunchalar va ularning amaliy qo‘llanilish usullari keng yoritilgan.

Asosiy xususiyatlari:

1. Talabalar va o‘qituvchilar uchun qulay: Mazkur asar o‘zining tushunarli uslubda yozilganligi bilan o‘quvchilarga qulaylik yaratadi. Har bir mavzu sodda va izchil tushuntirilgan, bu esa talabalarga bilimni o‘zlashtirishda katta yordam beradi.

2. O‘zbek tilidagi yetakchi manba: Algebra bo‘yicha ilmiy adabiyotlarning aksariyati chet tillarda mavjud bo‘lsa-da, ushbu kitob o‘zbek tilida chuqur va aniq izohlar bilan yozilgan. Bu til to‘sig‘i muammosini hal etadi va fanni o‘zlashtirishni yanada osonlashtiradi.

3. Amaliy masalalar bilan boyitilgan: Kitobda nazariy bilimlarni mustahkamlash uchun ko‘plab misollar keltirilgan. Bu masalalar orqali talabalar nazariyani amalda qo‘llashni o‘rganishlari mumkin.

D.R.Saparboyevaning ushbu asari matematika faniga qiziquvchi o‘quvchilar, talabalar va o‘qituvchilar uchun mustahkam bilim manbasi bo‘lib xizmat qiladi.

A.G.Kurosh tomonidan yozilgan «Oliy algebra kursi» darsligi oliy algebra bo‘yicha fundamental bilimlarni chuqur o‘rganishga bag‘ishlangan. Mazkur asar o‘zining nazariy mukammalligi va ilmiy uslubda yozilganligi bilan boshqa adabiyotlardan ajralib turadi. Kitobda algebraik strukturalar, gruppalar nazariyasi, halqalar, maydonlar va boshqa algebraik tushunchalar batafsil bayon qilingan.

Asosiy xususiyatlari:

1. Nazariyotning chuqur ochib berilishi: Kitobda algebraik tushunchalar va nazariyalar chuqur ilmiy tahlil qilinadi. Unda gruppalar, halqalar va maydonlarning nazariy asoslari mukammal ravishda bayon etilgan.

2. Akademik yondashuv: Ushbu asar ilmiy uslub va izchillik bilan yozilgan. Bu uni ilmiy-tadqiqot ishlari va oliy ta’limda asosiy qo‘llanma sifatida qo‘llash imkonini beradi.

3. Universitet talabalari va tadqiqotchilar uchun: Kitob asosan oliy matematika bo‘yicha bilim olishni xohlaydigan talabalar va tadqiqotchilar uchun mo‘ljallangan. Bu o‘quvchilarni ilmiy izlanishlarga tayyorlashda muhim rol o‘ynaydi.

4. Muallifning yuqori ilmiy saviyasi: A.G.Kurosh algebra fanining yetakchi mutaxassislaridan biri bo‘lib, uning asarlari fanda klassik ahamiyatga ega. Ushbu kitob algebra bo‘yicha mukammal tadqiqotlar olib borishni istovchilar uchun zarur manbadir.

Ko‘phadlarning EKUB ni topishda Evklid algoritmi. Matematikaning asosiy bo‘limlaridan biri bo‘lgan algebra va hisoblash usullari ko‘plab muammolarni yechishda foydalaniladi. Ko‘phadlar algebraik ifodalar bo‘lib, ularning eng katta umumiy bo‘luvchisini (EKUB) topish ko‘plab masalalar uchun muhim ahamiyatga ega. Evklid algoritmi bu jarayonda samarali yechimlardan biri hisoblanadi. E**vklid algoritmi**[1]. Butun sonlar uchun ma’lum bo‘lgan Evklid algoritmi va uning natijalarining ko‘phadlarga ham tatbiq etilishini ko‘rib o‘taylik. $f(x) \neq 0$ ko‘phadning darajasi $\varphi(x) \neq 0$ ko‘phadning darajasidan kichik emas deb faraz qilamiz va

$f(x)$

[1]D.R. Saparboyeva «Algebra va sonlar nazariyasi» fanidan masalalar yechish bo‘yicha uslubiy qo‘llanma “Urganch shahar” 2016

ni $\varphi(x)$ ga bo‘lamiz. Hosil bo‘lgan bo‘linma va qoldiqni, mos ravishda $q_1(x)$ va $r_1(x)$ bilan belgil-

aymiz. Ma’lumki, $q_1(x)$ ning darajasi $\varphi(x)$ ning darajasidan kichikdir. Endi $\varphi(x)$ ni $r_1(x)$ ga bo‘lib, bo‘linma va qold-

iqni $q_2(x)$ va $r_2(x)$ orqali belgilaymiz. Yana $r_2(x)$ ning darajasi $r_1(x)$ nikidan kichikligini e’tiborga olib,

$r_1(x)$ ni $r_2(x)$ ga bo‘lamiz; hosil bo‘lgan bo‘linma va qoldiqni $q_3(x)$ va $r_3(x)$ bilan belgilaymiz va h.

k. Umuman har bir qoldiqni undan keyingi qoldiqqa bo‘lamiz. Natijada darajalari kamayib boruvchi: $r_1(x), r_2(x), r_3(x), r_4(x)$..... qoldiqlar vujudga keladi. Bu qoldiqlarning soni albatta cheklidir,

chunki ularning darajalari kamayib boruvchi (lekin manfiy emas) butun sonlar ketma-ketligini tashkil etadiki, bunday qator cheksiz bo‘la olmaydi. Shu sababli, yuqoridagi bo‘lish protsessi chekli bo‘lib, biz shunday $r_k(x)$ qoldiqqa kelamizki, unga oldingi $r_{k-1}(x)$ qoldiq rosa bo‘linadigan bo‘ladi.

$$f(x)=\varphi(x)q_1(x)+r_1(x),$$
$$\varphi(x)=r_1(x)q_2(x)+r_2(x),$$
$$r_1(x)=r_2(x)q_3(x)+r_3(x),$$
.....
$$r_{k-3}(x)=r_{k-2}(x)q_{k-1}(x)+r_{k-1}(x),$$
$$r_{k-2}(x)=r_{k-1}(x)q_k(x)+r_k(x),$$
$$r_{k-1}(x)=r_k(x)q_{k+1}(x)$$

Natijada ushbu tengliklarni hosil qilamiz Bu ketma-ket bo‘lish protsessi, odatda, Evklid algoritmi deyiladi.Endi, ko‘phadlarning umumiy bo‘luvchilari tushunchasiga o‘taylik.

1-Ta’rif. Agar $f(x)$ va $\varphi(x)$ ko‘phadlarning ikkalasi ham $g(x)$ ko‘phadga bo‘linsa, $g(x)$ ko‘phad

$f(x)$ va $\varphi(x)$ ning umumiy bo‘luvchisi deyiladi.

Misol. $f(x)=x^4+x^3-7x^2-x+6$ va $f(x)=x^4-5x^2+4$ ko‘phadlarning eng katta umumiy

bo‘luvchisini aniqlang.

Yechish. Buning uchun $f(x)$ ni $\varphi(x)$ ga bo‘lamiz:

$$\begin{array}{l|l} x^4+x^3-7x^2-x+6 & x^4-5x^2+4 \\ - & \hline \quad x^4-5x^2+4 & 1 \\ \hline r_1(x)=x^3-2x^2-x+2 & \end{array}$$

$r_1(x)$ ga bo‘lamiz:

$$\begin{array}{l|l} x^4-5x^2+4 & x^3-2x^2-x+2 \\ - & \overline{\qquad\qquad} \\ \underline{x^4-2x^3-x^2+2x} & x+2 \\ 2x^3-4x^2-2x+4 & \\ - & \\ \underline{2x^3-4x^2-2x+4} & \\ 0 & \end{array}$$

Demak, biz izlagan eng katta umumiy bo‘luvchi: $d(x)=x^3-2x^2-x+2$

Har qanday P sonlar maydonidagi birinchi darajali istalgan ko‘phad – shu maydonda keltirilmaydigan ko‘phaddir. Haqiqatan, darajasi 1 dan kichik ko‘phad faqat nolinchi darajali bo‘lishi mumkin. Lekin, birinchi darajali ko‘phadni ikkita nolinchi darajali ko‘phadning ko‘paytmasi qilib yozish hech mumkin emas. Birinchidan yuqori darajali bo‘lib, P maydonda keltirilmaydigan f (x) ko‘phad P ni o‘z ichiga olgan kengroq maydonda keltiriladigan bo‘lishi mumkin. Masalan, ratsional sonlar maydonida keltirilmaydigan x^2-5 ko‘phad haqiqiy sonlar maydonida keltiriladi.

Agar ko‘phadni ko‘paytuvchilarga ajratganimizda haqiqiy sonlarda ajralsa haqiqiy maydonga, ko‘mpleks sonlarda ajralsa ko‘mpleks maydoga tegishli bo‘ladi deb xulosa chiqramiz. Buni esa quyidagi misollarda yaqqol ko‘rsak bo‘ladi.

Masalan: $x^2-4=(x-2)(x+2),\ \ x^2+4=(x-2i)(x+2i)$.

Evklid algoritmi ikki ko‘phadning EKUB ni iterativ tarzda hisoblashga asoslangan bo‘lib, quyidagi qadamlar orqali amalga oshiriladi:

1.Berilgan ikki ko‘phadni aniqlash.
2.Agar ikkinchi ko‘phad nolga teng bo‘lsa, birinchi ko‘phad natija sifatida olinadi.
3.Aks holda, birinchi ko‘phadni ikkinchi ko‘phadga bo‘lib, qoldiqni aniqlash.
4.Ikkinchi ko‘phadni birinchi ko‘phad sifatida, qoldiqni esa ikkinchi ko‘phad sifatida olgan holda jarayonni takrorlash.
5.Qoldiq nol bo‘lganda, oxirgi bo‘luvchi EKUB hisoblanadi.

Python kod misollari. Quyidagi Python kod misollarida ko‘phadlarning EKUB ni topish jarayoni turli hollarda ko‘rib chiqiladi.

1-misol: Oddiy ko‘phadlar uchun EKUB

```
import sympy as sp
def gcd_polynomials(p1, p2):
while p2 != 0:
p1, p2 = p2, sp.rem(p1, p2)
return p1
x = sp.Symbol('x')
p1 = x**3 + 2*x**2 + x + 1                p2 = x**2 + x
ekub = gcd_polynomials(p1, p2)
print(f"Ko‘phadlarning EKUB: {ekub}")
```

2-misol: Katta darajali ko‘phadlar uchun EKUB

```
import sympy as sp
def gcd_polynomials(p1, p2):
while p2 != 0:
p1, p2 = p2, sp.rem(p1, p2)
return p1
x = sp.Symbol('x')
p3 = x**5 + 3*x**4 + 2*x**3 + x + 7  p4 = x**4 + x**3 + x**2 + x
ekub_1 = gcd_polynomials(p3, p4)
print(f"Katta darajali ko'phadlarning EKUB: {ekub_1}")
```

3-misol: Har xil koeffitsientli ko'phadlar uchun EKUB

```
import sympy as sp
def gcd_polynomials(p1, p2):
while p2 != 0:
p1, p2 = p2, sp.rem(p1, p2)
return p1
x = sp.Symbol('x')          p5 = 5*x**3 + 10*x**2 + 15*x + 20
p6 = 10*x**2 + 5*x + 5
ekub_3 = gcd_polynomials(p5, p6)
print(f"Har xil koeffitsientli ko'phadlarning EKUB: {ekub_3}")
```

Evklid algoritmining afzalliklari


Aniqlik – Ushbu algoritm aniq natijalarni taqdim etadi.

Tezlik – Takroriy bo'lish jarayonida qisqa vaqt ichida natijaga erishish mumkin.

Amaliy qo'llash – Algebra va hisoblash sohalarida qo'llash uchun mos keladi.

Matematikada ko'phadlarning eng katta umumiy bo'luvchisini (EKUB) topish ko'p hollarda foydali bo'ladi. Ushbu maqolada Flask yordamida web ilova orqali EKUB hisoblash bo'yicha dasturiy ta'minot ishlab chiqamiz.

Natija. Python dasturlash tilida kodning asosiy qismi Flask yordamida yozilgan bo'lib, Python kod keltirilgan. Ushbu kod ikkita ko'phadning EKUB ni hisoblab, natijani foydalanuvchiga web interfeys orqali taqdim etadi:



Evklid algoritmi ustida kelgusida quyidagi yo‘nalishlarda tadqiqotlar olib borish mumkin:

- Parallel dasturlash orqali optimallashtirish
- Ko‘phadlar bo‘yicha ilg‘or yondashuvlar
- AI yordamida EKUBni aniqlashning avtomatlashtirilgan usullari

Xulosa. Ko‘phadlarning eng katta umumiy bo‘luvchisini aniqlashda Evklid algoritmi samarali va qulay usul hisoblanadi. Python dasturlash tili yordamida ushbu algoritmni amalga oshirish matematik hisob-kitoblarni avtomatlashtirish va ularni yanada samarali bajarish imkonini beradi. Ushbu maqolada Evklid algoritmining asosiy tamoyillari va uning Python dasturida qo‘llanilishi yoritildi. Misollar orqali algoritmning turli hollarda ishlash printsipi tushuntirildi. Kelajakda ushbu algoritmni yanada rivojlantirish va optimallashtirish masalalariga e’tibor qaratish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Xojiyev J.X. Fayneleyiv A.S. «Algebra va sonlar nazariyasi». Toshkent, «O‘zbekiston», 2001y.
2. A.G.Kurosh. «Oliy algebra kursi». Toshkent, O‘qituvchi, 1976.
3. Saotov Y.U. «Oliy matematika». 3-qisim. Toshkent, 1993.
4. Jumaniyozov Q. Matematikadan misol va masalalar yechish metodikasi. O‘q. TDPU. T-2014.
5. SHodmonova SH., Mirsagatova N., Ibragimova G., Mirsolieva M. “Ta`lim texnologiyalari” metodik qo‘llanma, T. – 2011 y. 35.
6. R.Iskandarov, R.Nazarov. “Algebra va sonlar nazariyasi”, 1-2-qisim. Toshkent, 1963.
7. R.Iskandarov. “Oliy algebra”, 1-qisim. Toshkent, 1963.
8. Saotov Y.U. «Oliy matematika». 2-qisim. Toshkent, 1991.

PEDAGOGIK FAOLIYATDA REFLEKSIYANING O‘RNI VA MOHIYATI

Jo‘rayev Nurbek Sa’dullayevich
Qo‘qon davlat pedagogika instituti, Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor,
psixologiya fanlari nomzodi, professor,
ORCID: 0009-0001-3222-9219 nurbekjorayev926@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada pedagogik faoliyatda refleksiyaning mazmun, mohiyati namoyon bo‘lishi xususiyatlari va omillari borasidagi fikrlari tahlil qilingan. Shuning bilan birga pedagog o‘zini ta’limiy va tarbiyaviy faoliyatida refleksiyaning turlari foydalanish imkoniyatlari xususidagi nazariy yondashuvlarning mazmuni bayon qilingan. Ayniqsa, pedagogik refleksiyaning loyihalash, tashkiliy, kommunikativ, mazmuniy, ijodkorlik, motivatsion, korreksiya kabi turlarini namoyon bo‘lish imkoniyatlari ko‘rsatib berilgan.

Kalit so‘zlar: refleksiya, pedagogik faoliyat, kasbiy refleksiya, o‘zini o‘zi anglash, kasbiy faoliyat, refleksiv boshqaruv, loyihalash, tashkiliy, kommunikativ, mazmuniy, ijodkorlik, motivatsion, korreksiya.

РОЛЬ И СУЩНОСТЬ РЕФЛЕКСИИ В ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

Аннотация. В статье проанализированы взгляды на особенности и факторы проявления содержания, сущности рефлексии в педагогической деятельности. Вместе с тем, изложено содержание теоретических подходов, касающихся возможности использования видов рефлексии педагогом в своей учебно-воспитательной деятельности. Особенно показаны возможности проявления таких видов педагогической рефлексии, как проектная, организационная, коммуникативная, содержательная, творческая, мотивационная, коррекционная.

Ключевые слова: рефлексия, педагогическая деятельность, профессиональная рефлексия, самореализация, профессиональная деятельность, рефлексивное управление, проектирование, организационное, коммуникативное, содержательное, творческое, мотивационное, коррекционное.

THE ROLE AND ESSENCE OF REFLEX IN PEDAGOGICAL ACTIVITY

Annotation. The article analyzes the views on the features and factors of the manifestation of the content, essence of reflection in pedagogical activity. At the same time, the content of theoretical approaches on the possibilities of use of types of reflexes in educational and educational activities of the educator himself is described. In particular, the possibilities of manifestation of such types of pedagogical reflection as design, organizational, communicative, content, creativity, motivational, correction are indicated.

Keywords: reflection, pedagogical activity, professional reflection, self-awareness, professional activity, reflexive management, design, organizational, communicative, content, creativity, motivational, correction.

KIRISH. Pedagogik faoliyatning o‘ziga xos xususiyati uning refleksiv jarayonlar bilan birga namoyon bo‘lishidir. Ushbu yondashuvlarda pedagogik faoliyat pozitsiyasi nuqtai nazardan ko‘rib chiqishga harakat qilingan. Jumladan, M.Yu.Arutyunyan, A.A.Bodalev, B.P.Kovalev, G.A.Kovalev, S.V.Kondrateva, Yu.N.Kulyutkin, G.S.Suxobskoy va boshqalar. S.V.Kondratevaning fikricha, pedagogik faoliyatning refleksiv tabiati shundan iboratki, o‘qituvchi o‘zining o‘quvchisi

va sinfi haqidagi, ular bilan munosabatlari to‘g‘risidagi fikrlarini qayta tekshiradi, aniqlaydi va qayta ko‘rib chiqadi. Shuningdek, o‘quvchilar buni qanday tushunishlari, baholashlari va munosabatini tushunishga intiladilar hamda shunga mos ravishda uning xulq-atvorini va faoliyatini moslashtiradi[1].

Refleksiya o‘qituvchining ta’lim faoliyatida o‘zaro ta’sirni tashkil etishning asosiy mexanizmi bo‘lib, uni talabalar faoliyatini refleksiv boshqarish jarayoni sifatida tavsiflash mumkin. Bunda talaba o‘z ta’lim faoliyatini boshqarishga qodir bo‘lgan sub’ekt pozitsiyasini egallaydi. Ta’lim jarayonini refleksiv boshqarish ushbu jarayonni tartibga solishni o‘z ichiga oladi va shubhalar, farazlarni ilgari surish, savollar berish (o‘ziga), hodisalarning sabablarini aniqlash hamda qidirib topishda aks ettirilgan refleksiv harakatlar orqali erishiladi. Harakatlar rivojlanishi ushbu jarayonning borishi bo‘yicha fikr-mulohazalarni olish orqali osonlashtiriladi, ya’ni, pedagogning harakatlarini tanlash, aniqlashtirish va qayta tekshirishdan iborat. Bu pedagogik faoliyat va muloqotni, o‘qituvchining kasbiy va shaxsiy sifatlarini o‘zini o‘zi takomillashtirish uchun asos bo‘lgan refleksiv boshqaruvni ta’minlaydi.

Talabalar faoliyatini refleksiv boshqarish qobiliyati o‘qituvchining shaxsiy fazilatlarining o‘ziga xos sindromiga asoslanadi hamda uning rivojlanishi kasbiy va pedagogik faoliyatning tabiatidan kelib chiqadigan talablar bilan belgilanadi. O‘qituvchi o‘z faoliyatini takomillashtirishga va kasbiy zarur sifatlarni rivojlantirishga harakat qilsa, boshqa barcha narsalar teng bo‘lgan holda, pedagogik faoliyatining samaradorligiga erishish mumkin. Shuning bilan birga bu faqat o‘qituvchi shaxsida rivojlangan o‘zini o‘zi anglash darajasi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin [10].

Mavjud yutuqlarni baholash, o‘zini o‘zi rivojlantirish yo‘nalishini rejalashtirish va uni amalga oshirish kompetentligi - bu o‘qituvchining “real Men”, “retrospektiv Men”, “o‘zini o‘zi baholashidan iborat bo‘lgan kasbiy o‘zini o‘zi anglashning “ideal Men”, “refleksiv Men” kabi darajalari bilan tavsiflanadi. Bunday holda, “refleksiv Men” o‘qituvchining boshqalar uni qanday ko‘rishini tushunishi sifatida talqin etiladi.

Fikrlash - bu mutaxassisning o‘ziga va kasbiy faoliyatiga nisbatan analitik pozitsiyani egallash qobiliyatida namoyon bo‘ladigan kasbiy o‘zini o‘zi takomillashtirish va o‘zini o‘zi rivojlantirish mexanizmidir.

O‘qituvchining kasbiy rivojlanishi konsepsiyasida refleksiya ichki shaxsiy qarama-qarshiliklarni hal qilish vositasi sifatida ko‘rib chiqiladi. Shu bois, uning sababi “real Men”, “ideal Men” va “reflektor Men” o‘rtasidagi nomuvofiqlik bilan xarakterlanadi [11].

ADABIYOTLAR TAHLILI. Shu nuqtai nazardan bir qator mualliflar pedagogik refleksiyani qobiliyatning alohida turi deb hisoblashadi. Xususan, A.K.Markova pedagogik refleksiyani “o‘qituvchi talabaning vaziyat haqidagi rasmini aqliy tasavvur qilishi va shu asosda o‘zi haqidagi fikrni aniqlashtirish qobiliyati” deb tushunadi ..., bu o‘qituvchining o‘zi to‘g‘risida xabardorligi, talabaning o‘z faoliyati haqidagi g‘oyalarini va talabaning o‘qituvchi talaba faoliyatini qanday tushunishi haqidagi fikrlarini hisobga olgan holda namoyon bo‘ladi” [9]. Muallif pedagogning refleksivligi uni ijodiy xususiyatini rivojlanganligi bilan bog‘liq ekanligini ta’kidlaydi. L.M.Mitina refleksiyani o‘zini tahlil qilish, baholash, tushunish, o‘z xulq-atvor va faoliyatini boshqarish, talabaning individual o‘ziga xos xususiyatlariga kirib borish, pozitsiyasini egallash, uning nuqtai nazaridan o‘zini ko‘rish, tushunish va baholash qobiliyatlari to‘plami sifatida belgilaydi. Shuningdek, o‘zining ichki shaxsiy muammolarini qarama-qarshilik va nizolarni konstruktiv hal qilish bilan tavsiflanadi [11]. N.V.Kuzminaning fikricha, perseptiv-refleksiv qobiliyatlar pedagogik intuitsiya shakllanishini ta’minlaydi [8]. Zamonaviy tushunchalarga ko‘ra, pedagogik refleksiya quyidagi funksiyalarni bajaradi:

- loyihalash (ta’lim jarayoni ishtirokchilari faoliyatini loyihalash va modellashtirish);

- tashkiliy (qo‘shma faoliyatda o‘zaro ta’sirning eng samarali usullarini tashkil etish);
- kommunikativ (pedagogik jarayon sub’ektlari o‘rtasidagi samarali muloqotning sharti sifatida);
- mazmuniy va ijodkorlik (faoliyat va o‘zaro ta’sirning mazmunliligini shakllantirish)
- motivatsion (qo‘shma faoliyatning natijaga yo‘naltirilganligini aniqlash);
- korreksiya (o‘zaro ta’sir va faoliyatni o‘zgartirish uchun motivatsiya) [4].

Pedagogik akmeologiyada refleksiya pedagogik mahoratni rivojlantirish va “akme” ga erishish mexanizmi sifatida qaraladi. S.YuStepanovning fikricha, pedagogik mahoratni rivojlantirish o‘qituvchini o‘z kasbiy tajribasini qayta ko‘rib chiqish, tafakkur, muloqot va faoliyatda refleksiv jarayonlarini faollashtirish orqali o‘zini o‘zi takomillashtirish jarayoniga jalb etishdan iborat.

“Har bir o‘qituvchi o‘zining o‘tmishdagi faoliyati haqiqatini refleksiyalovchi ongning semantik tuzilmalari haqida fikr yurita olishi kerak. Refleksiyaning paydo bo‘lishi o‘zini o‘zi anglash bilan bog‘liq yangi qatlamining paydo bo‘lishini anglatadi” [15].

Bu esa o‘z navbatida maxsus shart-sharoitlarni yaratishni talab qiladi: tafakkurda - muammoli ziddiyatli vaziyatlar, faoliyatda - hamkorlikka munosabat (raqobat emas), muloqotda - insonning o‘z tajribasining boshqasi uchun ochiqligini va boshqalar uchun ochiqligini anglatuvchi munosabatlar.

Pedagogik mahoratni rivojlantirishda refleksiv yondashuvdan foydalanish o‘qituvchiga murakkab refleksiv qobiliyat va ko‘nikmalarni shakllantirish hamda ularni ta’lim jarayonida qo‘llash imkonini beradi.

Psixologik-pedagogik adabiyotlarda o‘qituvchining kasbiy faoliyatida sodir bo‘ladigan pedagogik refleksiyaning intellektual, kooperativ, ijtimoiy-perseptiv, shaxsiy va kommunikativ turlari ko‘rib chiqiladi. Intellektual refleksiya tadqiqotchilar tomonidan tanqidiy tahlil qilish, tushunish va samaradorligini baholash maqsadida o‘qituvchining o‘z faoliyatiga va uning sub’ekti sifatida o‘ziga nisbatan faol tadqiqot pozitsiyasiga kirish qobiliyati sifatida ta’riflanadi. Kooperativ refleksiya birgalikdagi faoliyat jarayonlarida amalga oshiriladi va jamoaviy faoliyatni loyihalash va pedagogik muhit sub’ektlarining birgalikdagi harakatlarini muvofiqlashtirish imkonini beradi [13]. Ushbu turdagi refleksiya jamoaviy o‘zaro munosabatlarni tashkil etishning allaqachon o‘rnatilgan me’yorlari ularni o‘zgartirishni talab qiladigan shartlarga zid bo‘lgan holatlarda zarurdir. Uning vazifasi jamoaviy faoliyat va muloqotni qayta ko‘rib chiqish va qayta tashkil etishdir.

Ijtimoiy-perseptiv refleksiya o‘qituvchining pedagogik va kasbiy o‘zaro ta’sir sub’ektlarini bilishining asosi bo‘lib, uning muloqot va birgalikdagi faoliyat jarayonida shakllangan talaba va hamkasblar haqidagi g‘oyalari va fikrlarini qayta ko‘rib chiqish va qayta tekshirishdan iborat. Bunday holda, o‘qituvchi boshqa shaxsning xulq-atvorlarining yashirin maqsadlari va motivlari haqidagi farazlarni ilgari suradi; muayyan vaziyatda boshqa birovning harakatlarini oldindan ko‘rishga harakat qiladi; talaba shaxsiga xos muhim qarama-qarshiliklarini ochib beradi hamda ularni hal qilish yo‘llarini belgilaydi; ta’lim sharoitlari bilan bog‘liq holda talaba shaxsidagi o‘zgarishlarni tahlil qiladi; talaba yoki hamkasbi haqida ilgari shakllangan fikrlar va ularning xulq-atvorlari haqidagi yangi faktlar o‘rtasidagi ziddiyatlarni bartaraf etadi. Bunday holda, o‘qituvchining boshqa insonning xulq-atvorining asl sabablari va oqibatlarini tushunish istagi muhim ahamiyatga ega.

O‘qituvchining talabalar va hamkasblar haqidagi bilimlari jarayonida refleksiyaning bu ko‘rinishlari doimiy introspeksiya va ular haqidagi fikrini o‘zini o‘zi nazorat qilish fonida amalga oshiriladi va shubha hissi, xulq-atvorlarning haqiqiy sabablari va motivlariga kirib borish istagi bilan birga keladi. S.V.Kondrateva va L.A.Semchukning tadqiqotlari shuni ko‘rsatdiki, o‘qituvchilar ko‘pincha talabaning sub’ektiv emas, balki shaxsiy sifatlarini qayta ko‘rib chiqadilar hamda qayta ko‘rib chiqadilar. O‘qituvchining talaba haqidagi fikrini refleksiyalashga turtki-bu ta’limning ta’siri ijobiy natija bermagan holatlar va o‘qituvchi oldida nostandart yechimlarni, talabalarni bilish va tarbiyalashda ijodkorlikni talab qiladigan vazifalar turibdi [6]. Ya.L.Kolominskiy va A.A.Rean

perseptiv-refleksiv faoliyatning stereotiplarini tavsiflaydi. Agar o‘qituvchi ularni bilishning yagona mumkin bo‘lgan mexanizmi sifatida qat’iy rioya qilsa yoki ularning ta’siri mutlaq bo‘lsa, salbiy, ammo ma’lum sharoitlarda stereotiplar ijobiy ma’noga ega bo‘lishi mumkin [12].

NATIJA VA MUHOKAMA. Jumladan, o‘qituvchi talaba to‘g‘risida ma’lumotning yetishmasligi sharoitida ishlayotgan vaziyatda va u to‘planganda, stereotip talaba shaxsini maqsadli, professional o‘rganish bilan almashtiriladi. Shunday qilib, ijtimoiy-perseptiv refleksiya pedagogik ta’sir strategiyasi (rivojlanishning keyingi bosqichini ta’minlashga qaratilgan tarbiyaning maqsadlari va asosiy vositalari) va taktikasi (talabaning xususiyatlari va holatlari to‘g‘risidagi tezkor-joriy axborotni hisobga olish) o‘zaro kelishmovchilik sharoitida pedagogik muloqotni boshqarish funksiyasini amalga oshiradi.

Shaxsiy refleksiya sub’ektning o‘z ongining mazmunini, uning faoliyati, muloqoti va o‘ziga, boshqalarga hamda amalga oshirilayotgan faoliyatga munosabatini bilish jarayonida namoyon bo‘ladi [7]. O‘qituvchi o‘zini bir-birini to‘ldiruvchi va bir-biriga bog‘liq bo‘lgan uchta tizimda: pedagogik faoliyat tizimida, pedagogik muloqot tizimida va shaxsni rivojlantirish tizimida o‘zini anglash jarayonlari natijasida hosil bo‘ladigan o‘zi haqidagi tasavvurlarning umumlashtirilgan tizimi sifatida “Men obrazi” shaxsiy refleksiya natijasi bo‘ladi. Pedagogning his-tuyg‘ulari, qadriyatlari, munosabatlari, shaxsining kuchli va zaif tomonlarini tahlil qilish va baholash qobiliyati, ularning o‘qituvchining kasbiy vazifalariga muvofiqligi darajasi uning psixologik yetukligi mezonlaridan biri va kasbiy va shaxsiy o‘zini o‘zi takomillashtirish omillaridan biri hisoblanadi.

Shaxsiy refleksiyaning eng muhim ko‘rsatkichlaridan biri uning diqqat markazida bo‘lib, o‘zini o‘zi bilish jarayoni “Men-konsepsiya” ning qaysi jihatida asosan jamlanganligini tushuntiradi. Shunga ko‘ra, shaxsiy refleksiya “vaqtinchalik” deb ataladigan tamoyilga muvofiq retrospektiv, joriy va istiqbolli komponentlarni o‘z ichiga oladi [3].

Shaxsiy retrospektiv refleksiya - bu refleksiyaning alohida turi bo‘lib, bu jarayonda o‘qituvchi o‘z mehnat faoliyatining dastlabki davridagi o‘zining kasbiy va shaxsiy xususiyatlarini eslaydi, tahlil qiladi va umumlashtiradi. Shaxsiy retrospektiv refleksiya yordamida o‘qituvchi shaxsiy tajribani tahlil qilish orqali shaxsning o‘zini o‘zi anglashini turli shakllari bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin bo‘lgan, ammo u qo‘llanilmagan tarkibiy qismlarni amalga oshirishga qodir bo‘ladi. Bu holda refleksiv faoliyat o‘tmishda to‘plangan tajribani yanada to‘liqroq anglash, tushunish va tuzishga qaratilgan bo‘lib, old shartlar, motivlar, bosqichlar va natijalarga ta’sir qiladi.

Refleksiyaning bu shakli mumkin bo‘lgan xatolarni aniqlash va o‘z muvaffaqiyatsizliklari va muvaffaqiyatlari sabablarini topishga xizmat qiladi. Ushbu refleksiya shaklining natijasi o‘qituvchining “Men retrospektivman” obrazini shakllantirishdir. Shaxsiy dolzarb refleksiya o‘zini o‘zi bilish, introspeksiya va o‘zini hozirgi zamondagi faoliyat va muloqot sub’ekti sifatida tushunish, “Men kimman” tushunchasi bilan bog‘liq. Ushbu turdagi refleksiya sub’ektning shaxsiy amalga oshirish usullari va vaziyatning haqiqiy talablari o‘rtasidagi ziddiyatlarni hal qilishda zarurdir. Ushbu refleksiya shakli “real Men” tasviri bilan bog‘liq. Shaxsiy istiqbolli refleksiya sub’ektning shakllangan standart (ideal o‘zini o‘zi tasviri) asosida istalgan kelajak qiyofasi haqida xabardorligini nazarda tutadi. Pedagogik faoliyat jarayonida o‘qituvchi doimiy ravishda o‘zini o‘zi baholash standartining shaxsiy va kasbiy tarkibiy qismlari bilan taqqoslaydi. Ushbu turdagi refleksiya o‘zini o‘zi takomillashtirishning muhim boshqaruvchilaridan biridir, chunki u pedagogning hayot istiqbollari, qadriyatlari va faoliyat motivlari haqidagi g‘oyalarini birlashtiradi. Shaxsiy istiqbolli refleksiyani amalga oshirish jarayonida shaxs inqirozdan chiqishning yangi usullarini yaratadi. Shaxsiy retrospektiv va istiqbolli refleksiya o‘zini o‘zi bilish uchun asos bo‘lgan ikkita qutb nuqtasini anglatadi.

Kommunikativ refleksiya o‘qituvchining o‘zini boshqalar tomonidan qanday idrok etilishi,

baholanishi va unga qanday munosabatda bo‘lishini bilishdan iborat (“Men boshqalarning ko‘zi bilan”) [5] va kasbiy o‘zini o‘zi anglashni shakllantirish jarayonlarida asosiy boshqarish funksiyasini bajaradi. Shu orqali shaxs o‘zini o‘zi anglashni ochiq tizimga aylantiradi. Refleksiyaning bu turi o‘qituvchini o‘zini o‘zi tanqid qilishiga asos bo‘lib, uning intilishlari va boshqa sifatlarini adekvat baholash imkonini beradi. Shuning bilan birga, o‘z shaxsiga tanqidiy munosabatning yetarliligi va to‘liqligi asosan o‘qituvchi o‘zaro munosabatda bo‘lgan barcha toifadagi boshqa muhim shaxslarning integratsiyalashgan taxminlari bilan belgilanadi. Pedagoglarning kommunikativ refleksiyasi ularning shaxsiy refleksiyasini shakllanishiga ta’sir qiladi, ya’ni, o‘z ongini va o‘zini o‘zi bilish harakatlarini tushunishga yordam beradi. O‘z navbatida, shaxsiy refleksiya (“Dolzarb Men”) kommunikativ refleksiyaga asoslangan kasbiy o‘zini o‘zi anglashning tarkibiy qismi sifatida (“Refleksiv Men”) pedagogik faoliyatni boshqarishga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Boshqa insonlar bilan o‘zaro munosabatlarga asoslanib, pedagog birovning fikri va harakatini tushunishga harakat qilsa, o‘zini boshqaning ko‘zi bilan baholasa, u o‘zi bilan refleksli munosabatda bo‘ladi. Kommunikativ refleksiya pedagog kasbiy faoliyatining stilistik xususiyatlarining tarkibiy qismi sifatida ishlaydigan “o‘qituvchi-shogird” tizimidagi pedagogik muloqotning jarayonli va natijaviy jihatlariga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi [5]. Pedagogning darsdagi xulq-atvor samaradorligi uning kasbiy ongining refleksivlik darajasiga bog‘liqligi aniqlangan va eksperimental ravishda tasdiqlangan [11]. Hozirgi vaqtda tadqiqotchilar “refleksiv qobiliyatlar” tushunchasini aniqlashga harakat qilishdi hamda uning mohiyatini tushunishda umumiy qabul qilingan yondashuv mavjud emasligini ko‘rsatadi.

Turli mualliflar refleksiv ko‘nikmalarni quyidagilar deb hisoblashadi:

- o‘qituvchining kasbiy pedagogik faoliyati tarkibidagi yetakchi tarkibiy qism; o‘z faoliyati natijalarini, talabalar faoliyatini, pedagogik o‘zaro ta’sirni baholash va tahlil qilish, pedagogik jarayon ishtirokchilarining rivojlanish holatini va buning sabablarini aniqlash, talabalar, ota-onalar, hamkasblarning o‘zlari haqidagi fikrlar asosida harakatlarni korreksiya qilish;

- muayyan refleksiya turiga (intellektual, shaxsiy, kommunikativ, kooperativ) va faoliyat turiga (o‘quv, kasbiy, o‘yin va boshqalar) muvofiq guruhlangan, o‘zgaruvchan (murakkab va noaniq) sharoitda maqsadga erishishni ta’minlaydigan ko‘nikmalar [14];

- umumlashtirilgan ko‘nikmalar, ya’ni, o‘tkazish xususiyatiga ega bo‘lib, kasbiy faoliyatning rivojlanishi va faoliyatning maqsadlari, usullari, natijalariga mos kelishini ta’minlaydi [2].

Shunga muvofiq ravishda biz refleksiv ko‘nikmalarni quyidagilarda ko‘rish imkoniyatiga ega bo‘lamiz:

- o‘zini o‘zi tahlil qilish va o‘zini o‘zi boshqarish mexanizmlari asosida sub’ektning doimiy o‘zini o‘zi takomillashtirish qobiliyatida namoyon bo‘ladigan shaxsning kasbiy va shaxsiy rivojlanishi omili.

XULOSA. Refleksiv ko‘nikmalar orasida biz pedagogning o‘zini o‘zi bilish, o‘zini o‘zi tahlil qilish va o‘zini o‘zi boshqarishni pedagogik faoliyat va muloqot sub’ekti sifatida amalga oshirishga, kasbiy faoliyatning motivlari va qadriyatlarini anglashga, kelajakdagi yutuqlarni loyihalash va dasturlashga imkon beradigan ko‘nikmalar to‘plami bo‘lgan shaxsiy refleksiya qobiliyatlarini ajratish imkoniyatiga ega bo‘lamiz. Shuningdek, kommunikativ refleksiya qobiliyatlari o‘qituvchiga pedagogik faoliyat sub’ektlari tomonidan o‘zini idrok etish va va kasbiy hamkorlik malakalarini rivojlanishi bilan belgilanadi (talabalar, hamkasblar, menejerlar).

O‘qituvchining kasbiy faoliyatida refleksiyaning intellektual, kooperativ, ijtimoiy-perseptiv, shaxsiy va kommunikativ turlari namoyon bo‘ladi. Pedagogik refleksiya loyihalash, tashkilotchilik, kommunikativ, ijodkorlikning mazmunini anglab yetish, motivatsion va korreksion funksiyalarni bajaradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Вершловский С.Г. Психолого-педагогические проблемы де ятельности молодого учителя /– Л.: Ленингр. общ во «Знание», 1983. – 32 с.

2. Демидко М.Н. Дидактические условия формирования реф лексивных умений у учащихся среднего специального образования: автореф. дис. ... канд. пед. наук:13.00.08. / М.Н.Демидко; РИПО. Минск, 2003. – 22 с.

3. Карпов А.В. Психология рефлексивных механизмов дея тельности /А.В.Карпов. – М.: Институт психологии, 2004. – 421 с.

4. Кашлев С.С. Современные технологии педагогического процесса: пособие для педагогов / С.С.Кашлев. – Минск: Универ ситетское, 2002. – 95 с.

5. Ковалев Б.П. Представления педагогов о понимании их учащимися ПТУ: автореф. дис .... канд. психол. наук: 19.00.07/ Б.П.Ковалев; БГПИ. – Минск, 1984. – 23 с. 56

6. Кондратьева С.В. Профессионализм в педагогическом общении / С.В.Кондратьева [и др.]; под общ. ред. С.В.Кондратье вой. – Гродно: Изд-во ГрГУ, 2003. – 330 с.

7. Кривошеев В.А. Рефлексия в деятельности начинающих учителей: автореф. дис. ... канд. психол. наук: 19.00.07 / В.А. Кри вошеев: БГПИ. – Минск, 1991. – 19 с.

8. Кузьмина Н.В. Формирование педагогических способно стей // Н.В.Кузьмина. – Л.: Изд-во Ленингр. ун-та, 1972. – 98 с.

9. Маркова А.К. Психология профессионализма / А.К.Мар кова. – М.: Знание, 1996. – 375 с.

10. Матюшкин А.М. Проблемные ситуации в мышлении и обучении / А.М.Матюшкин. – М.: Педагогика, 1972. – 208 с.

11. Митина Л.М. Психология труда и профессионального развития учителя / Л.М.Митина. – М.: Академия, 2004. – 318 с.

12. Реан А.А. Социальная педагогическая психология / А.А.Реан, Я.Л.Коломинский. – СПб.: Питер, 1999. – 416 с.

13. Семенов И.Н. Рефлексия в организации творческого мыш ления и саморазвития личности / И.Н.Семенов, С.Ю.Степанов // Вопросы психологии. – 1983. – № 2. – С. 35 – 42.

14. Сластенин В.А. Педагогика: учеб. пособие / В.А.Сластенин, И.Ф.Исаев, Е.Н.Шиянов; под ред. В.А.Сластенина. – М.: Акаде мия, 2002. – 566 с.

15. Степанов С.Ю. Рефлексивная практика развития человека и организаций / С.Ю.Степанов. – М.: Наука, 2000. – 174 с.

СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ ПРИ ОРГАНИЗАЦИИ ВНЕУРОЧНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ПО РУССКОМУ ЯЗЫКУ В СРЕДНЕЙ ШКОЛЕ

Каюмов Василий Мухматдинович
старший преподаватель Ургенчского государственного педагогического института кафедры «Узбекский и русский язык литература», v33861859@gmail.com

Аннотация. В статье рассматриваются вопросы, касающиеся правильной организации внеурочной деятельности. Проводится анализ современных подходов при организации внеклассной работы по русскому языку в средней школе. Среди основных подходов мы выделяем интегративный, дифференцированный и гибридный. В статье приводятся основные принципы, на которых зиждятся данные подходы. Анализируется мнения ученых по этому вопросу таких, как Курбатова И.В, Кудрицкая Е.Н, Комилова М.М, Каримов З.Ш.Особое внимание уделяется изучение влияние современный образовательный процесс. Кроме того, в статье рассматриваются как положительные, так отрицательные стороны анализируемых подходов в современной внеурочной деятельности. Рассматриваются специфика и особенности, примеры их использования в учебной деятельности. Статья дает сведения о роли, возможностях, которые открывают современные подходы при организации внеклассной работы по русскому языку.

Ключевые слова: междисциплинарная связь, интегративный, дифференцированное обучение, метод, подход, уровень, группы, гибридный.

MODERN APPROACHES IN ORGANIZINGEXTRACURRICULAR ACTIVITIES IN THE RUSSIAN LANGUAGE IN SECONDARYSCHOOL

Annotation. The article discusses issues related to the proper organization of extracurricular activities. An analysis of modern approaches to organizing extracurricular activities in the Russian language in secondary schools is carried out. Among the main approaches we distinguish integrative, differentiated and hybrid. The article provides the basic principles on which these approaches are based. The opinions of scientists on this issue such as Kurbatova I.V, Kudritskaya E.N., Komilova M.M., Karimov Z.Sh. are discussed.Particular attention is paid to studying the influence of the modern educational process. In addition, the article discusses both the positive and negative aspects of the analyzed approaches in modern extracurricular activities. The article provides information about the role and opportunities that modern approaches open up in organizing extracurricular activities

Keywords: interdisciplinary communication, integrative, differentiated learning, method, approach, level, groups, hybrid.

O‘RTA TA’LIM MAKTABIDA RUS TILIDA DASKDAN TASHQARU MA’LUMOTLARNI TASHKIL ETISHDA ZAMONAVIY YUNDASHULAR

Annotatsiya. Maqolada sinfdan tashqari mashg’ulotlarni to‘g‘ri tashkil etish bilan bog’liq masalalar muhokama qilinadi. Umumta’lim maktablarida rus tilida sinfdan tashqari mashg‘ulotlarni tashkil etishning zamonaviy yondashuvlari tahlili o‘tkazildi. Asosiy yondashuvlar orasida biz integrativ, differentsial va gibridni ajratamiz.Maqolada ushbu yondashuvlar asoslanadigan asosiy tamoyillar keltirilgan. Bu borada Kurbatova I.V., Kudritskaya E.N., Komilova M.M., Karimov Z.Sh. kabi olimlarning fikrlari muhokama qilinadi. Zamonaviy ta’lim jarayonining ta’sirini o‘rganishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Bundan tashqari, maqolada zamonaviy sinfdan tashqari mashg'ulotlarda tahlil qilingan yondashuvlarning ijobiy va salbiy tomonlari ko'rib chiqiladi. Oquv faoliyatida ulardan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari va xususiyatlari, misollari ko'rib chiqiladi. Maqolada rus tilida sinfdan tashqari mashg'ulotlarni tashkil etishda zamonaviy yondashuvlar ochadigan rol va imkoniyatlar haqida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: Fanlararo aloqa, integrativ, tabaqalashtirilgan ta'lim, metod, yondashuv, daraja, guruhlar, duragay.

ВВЕДЕНИЕ. Современный педагогический процесс характеризуется разными подходами к организации внеурочной деятельности. Основная проблема – это выявить те подходы, которые позволят организовать внеклассную работу в соответствии с требованием современного образовательного процесса. Среди основных подходов выделяют интегрированный и дифференцированный, гибридный каждый из них имеет свои особенности. Поэтому рассмотрение и анализ данных подходов представляет познавательный интерес. Главная цель–организовать внеурочную деятельность таким образом, чтобы это была совместная деятельность учителя и ученика. Для решения задачи на первый план выходят селекция всех современных образовательных подходов: интегрированного, дифференцированного, гибридного, коммуникативного.

ОБЗОР ЛИТЕРАТУРЫ. Как пишет исследователь Абдуллаева М.Х: «Цель дифференцированного обучения заключается в создании возможностей для обучения, учитывающих различия в методах обучения отдельных учащихся, с тем, чтобы обеспечить равный доступ к содержанию учебного материала».Другим важным постулатом при рассмотрении вопроса дифференциации при организации учебного процесса – это разделение класса на группы, с учетом уровнем успеваемости, индивидуальных особенностей ученика. Задача вовлечь в работу каждого ученика. Среди ученых, которые занимались дифференцированным обучением, такие как Курбатова И.В, Кудрицкая Е.Н, Комилова М.М, определяющим фактором данного подхода является разделение класса на группы по уровню успеваемости: сильные ученики, слабые ученики, средние ученики.

Исходя из подобного разделения, формируется уровни заданий, материалы, вопросы. После этого начинается работа с ними. Как пишет ученый АдыловаТ.Б: «Основной смысл дифференциации в обучении заключается в том, чтобы, зная и учитывая и индивидуальные различия в обучении учащихся, определить для каждого из них наиболее рациональный характер. Таким образом, процесс обучения в условиях дифференциации становятся максимально приближенным к познавательным потребностям учеников, их индивидуальным особенностям»[1, С.13-14].

Как функционирует дифференцированный подход в условиях внеурочной деятельности в современной школе? Что брать за основу при внедрении дифференцированного подхода при организации внеклассной работы в школе? Для организации внеурочной работы по русскому языку, такое разделение не является приемлемым, потому что «искусственная» дифференциация по степени успеваемости некорректна.

Такая постановка вопроса имеет свои причины. Во-первых, за основу берется учебный материал, во-вторых, деления внутри кружка на группы не представляется необходимым и нужным, так как посещение кружковых занятий носит добровольный характер, в-третьих, главным обучающим методом является интерактивный, который предполагает совместную работу ученика и учителя. Поэтому в рамках своего диссертационного исследования, мы

предлагаем следующие принципы дифференцированного подхода. К нему можно отнести:

1) Принцип отбора учебного материала. Он основан на том, что на разделении по формам обучения устной и письменной.

2) Принцип доступности. Любой материал должен быть доступен для учеников, посещающих кружки.

3) Принцип совместной работы. Учитель и ученики работают вместе для получения результата.

СОДЕРЖАНИЕ. В качестве основного принципа дифференцированного подхода при организации внеурочной деятельности мы берем разделение кружковых занятий по форме обучении сначала устной речи, а потом письменной. Исходя из вышеперечисленного, мы приходим к выводу, что кружковые занятия должны организовываться таким образом, чтобы сначала шли темы, связанные с диалогической, монологической формы общения, затем обучения грамматике русского языка.

В результате при работе с учениками учебный материал, методические разработки, задания и упражнения необходимо формировать из этого подхода. Другим подходом, который стал популярным и известным в наше время- гибридный. Он основан на сочетание двух форм обучения: традиционных урокови онлайн-занятий, посредством электронных платформ, телеграмм–каналов. Эта форма зародилась и практиковалась в период пандемии 2020-2021 годов. При организации внеклассной работы по русскому языку в современных условиях сочетание занятий в школе и онлайн-занятий через платформы позволяют надеяться на хороший результат. Такое положение исходит из следующих факторов:

-широкоераспространение современных средств массовой информации;

-социальные сети, телеграмм-каналы стали основным источниками получения информации;

-обратная связь осуществляется черезтелеграмм-каналы, социальные сети происходит быстрее.

На кружковых занятиях учитель проходит темы, согласно утвержденному плану, а задание следует отправлять через телеграмм-каналы. Впрочем, для успешного внедрение гибридного подхода необходима осознанность и самостоятельность учеников.

При изучении современных подходов к организации внеурочной деятельности следует выбирать только те, которые нацелены на результат, а именно познавательный интерес к предмету, получение знаний, развитие устной и письменной речи. При этом в современной педагогической науке существует интегрированный подход. Он основан на взаимосвязи с другими предметами. На уроках русского языка происходит интеграция с другими предметами при объяснении и закреплении учебного материала.

Главное отличие интегрированного подхода – это наличие межпредметной связи. Как пишет З.Ш. Каримов: «Она превосходит все другие явления «по широте экспериментального воплощения, глубине творческого замысла, продолжительности и диалектичности исторического развития» [2, С. 26].

Среди основных принципов интегративного обучения выделяют:

- главным объектом является ученик;

-при использовании этого подхода происходит междисциплинарная связь с другими предметами;

-проведение кружковых занятий на основе интегративного подхода позволяет развивать творческие способности. Среди перечисленных подходов, на сегодняшней день стоит остро вопрос, какой из них необходим для организации внеурочной деятельности в

средней школе. Вместе с тем как отмечает исследователь Литневская Е.И: «Технология интегрального обучения не разработана пока в полной мере. Ее суть состоит в комплексном рассмотрении каждой темы: учащиеся должны отыскивать общее в различных на первый взгляд явлениях и применять при этом изученное в других областях» [3,С.36]. Для изучения данного вопроса нами было проведено анкетирование среди преподавателей школ города Ургенча.

Результаты исследования. Основная цель выявить отношение к современным подходам, позволяющим правильно и качественно организовать внеурочную деятельность. Было предложено 25 вопросов, в которых главным аспектом стало отношение учителей к выбору подходов, которые позволят сделать внеклассную деятельность доступной для учеников.

В анкете приняло участие около 70 учителей города Ургенча. Предлагаем на рассмотрения результаты исследования.

Таблица №1.

№	Современные образовательные подходы	Положительные стороны	Отрицательные стороны	Мнение учителей
1	Дифференцированный	При организации внеклассной работы происходи учет календарно-тематического планированияи разделения преподавания и обучения устной и письменной формы речи (40% анкетированных учителей).	Разделение по степени усвоения материала не является объективным, так как степень усвоение материала не всегда свидетельствует о качестве преподавания (30% опрошенных учителей)	Дифференциация должна учитывать способности, навыки, потребности ученика. Задания следует составлять исходя из степени усвоения учебного материала.
2	Интегрированный	Этот подход позволят осуществить связь с другими предметами. При прохождении данных тем происходят междисциплинарная связь русского языка и литературы, истории и других наук. (35 % анкетированных учителей)	При хорошо поставленной работе на внеклассном занятии взаимосвязь с другими дисциплинами происходит сама собой. (35% опрошенных учителей).	Междисциплинарная связь позволяет сделать подачу материала доступной, а также расширяет кругозор и поможет ученику усвоить другую дисциплину. При этом взаимосвязь осуществляется только с теми дисциплинами, у которых одна отрасль знаний.
3	Гибридный	Преимущество данного подхода заключается в том, что происходит кооперация традиционных и нетрадиционных форм образования (онлайн). (25 % опрошенных учителей)	Преимущество данного подхода определяется наличием хорошо подготовленной с технически точки зрения аудитории, (45% анкетированных учителей)	Гибридное обучение достаточно уверенно входит в образовательный процесс на сегодняшнем этапе, так как развитие информационных технологий позволяет получать образования, не находясь в школе

При изучении вопроса о роли современных подходов при организации внеклассной деятельности по русскому языку, мы выяснили, что дифференциация внеурочной деятельности, разделение занятий по календарно-тематическому плану на обучения устной и письменной формы обучения является приемлемым в современных условиях. Как отмечает педагог Яцкина К.Б: «Дифференцированный подход в обучении представляет

собой перспективное направление развития образования, обладающее множеством преимуществ» [4,С.11-18].

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ

1.Адылова Т.Б. Дифференцированное обучение на уроках русского языка и литературы. Журнал. Молодой учёный. -2016.-№12.С.13-14

2.Гревцева Г.Я., Циулина М.В., Болодурина Э.А., Банников М.И. Интегративный подход в учебном процессе вуза // Современные проблемы науки и образования. – 2017. – № 5.С 26.

3.Литневская Е.И., Багрянцева В. А. Методика преподавания русского языка в средней школе: Учебное пособие для студентов высших учебных заведений / Под ред. Е. И. Литневской. — М.: Академический проект, 2006. — С.36

4.Яцкина К.Б.Дифференцированный подход в обучении иностранному языку: Методы диагностики и формирования групп. Журнал. Научное образование. Педагогические науки,-2024.-№5-С.11-18

GEOGRAFIYA TA'LIMI JARAYONIDA O'QUVCHILARNING KREATIV VA TANQIDIY FIKRLASHINI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Boboraxmatov Maruf Ergashovich
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti mustaqil tadqiqotchi,
ORCID:0009-0000-8371-6298, maruf_boboraxmatov@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada geografiya ta'limi jarayonida o'quvchilarning kreativ va tanqidiy fikrlashini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish va uning dolzarb muammolarini yechimi haqida fikr yuritilgan

Kalit so'zlar: ijtimoiy-gumanitar fanlarning funksiyalari, tafakkur, kreativ yondashuv.

IMPROVING MECHANISMS FOR DEVELOPING STUDENTS' CREATIVE AND CRITICAL THINKING IN THE PROCESS OF GEOGRAPHY EDUCATION

Annotation. This article discusses the improvement of mechanisms for developing students' creative and critical thinking in the process of geography education and the solution of its current problems.

Keywords: functions of social sciences and humanities, thinking, creative approach.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕХАНИЗМОВ РАЗВИТИЯ ТВОРЧЕСКОГО И КРИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ УЧАЩИХСЯ В ПРОЦЕССЕ ГЕОГРАФИЧЕСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация. В статье рассматриваются вопросы совершенствования механизмов развития творческого и критического мышления учащихся в процессе обучения географии и решения его актуальных проблем.

Ключевые слова: функции социальных и гуманитарных наук, мышление, творческий подход.

Kirish. Geografiya fani ta'limda muhim o'rin egallaydi, chunki u nafaqat tabiiy va ijtimoiy jarayonlar, balki inson va atrof-muhit o'rtasidagi o'zaro aloqalarni ham o'rgatadi.. Geografiya ta'limi o'quvchilarga dunyo haqida kengroq tushuncha berib, ularni global muammolarni tahlil qilishga va yechim topishga undaydi. Bugungi jadal glaballashuv davrida bu fanni o'rganish davr talabiga aylanib bormoqda. Buni ta'lim jarayonida mutloqo yangi metod va kreativ mexanizmlar asosida o'qitish zaruriyati ortib bormoqda.

Adabiyotlar tahlili. Geografiya orqali o'quvchilar turli mamlakatlar, mintaqalar va tabiiy sharoitlar haqida bilim oladilar, bu esa ularning umumiy dunyoqarashini kengaytiradi. Geografiya nafaqat tabiiy jarayonlar (masalan, iqlim, yer shakllari), balki ijtimoiy-iqtisodiy tizimlar (masalan, aholi zichligi, resurslar taqsimoti)ni ham o'rganadi, bu esa o'quvchilarga global muammolarni tahlil qilish va hal qilishda yordam beradi. Bundan tashqari u o'quvchilarga muammolarni ko'rish va tahlil qilish, shuningdek, turli omillarni hisobga olgan holda qarorlar qabul qilish, atrof-muhit, tabiiy resurslar va ularni boshqarish haqida bilimlar beradi. Bularning barchasi esa vujudga kelayotgan va kelishi mumkin bo'lgan ekologik muammolarni hal qilishda muhimdir. Shu sababli, geografiya fani nafaqat bilimlarni o'rgatish, balki o'quvchilarda keng fikrlash, muammolarni yechish va global o'zgarishlarga moslashish ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi.

Yuqori malakali geograf mutaxassislami tayyorlashda umumgeografik qonuniyatlarni bilishning ahamiyati katta. Tabiat va jamiyat o'rtasidagi munosabatlaming yildan-yilga keskinlashib

borishi insonning tabiat qonuniyatlarini chuqur bilishini, shuningdek, tabiatdan hamda uning resurslaridan oqilona foydalanishni talab etadi. [1].

Ijodkorlikni o‘rganishda birinchi yo‘nalish yaratilgan mahsulotlar nuqtai nazaridan ko‘rib chiqiladi, bunda ijodiy mahsulotlarning asosiy xususiyatlari – miqdor, sifat va ahamiyat (E.P. Torrens, A.V. Brushlinsky, K. Shefer, T. Amabayl, M. Ferson, K. Taylor, D. Taylor va boshqalar) e’tiborga olinadi; ikkinchi yo‘nalishda ijodkorlik jarayon sifatida o‘rganiladi (V.I. Andreyev, P. Drepau, Ye.Ye. Tunik, A.V. Moroz, Barisheva, I.S. Bekeshova, A.R. Aripjanova, M.M. Kashapov, G.A. Sukerman). Har qanday jarayon, shu jumladan ijodiy jarayon, boshlanishi, davomiyligi, o‘zgarishi va, shunga muvofiq, qandaydir oxiri bo‘ladi.

Bunda ob’ektiv yoki ideal ijodiy mahsulotni yaratish emas, balki ijodiy fikrlash jarayonining turli bosqichlari, darajalari va turlari aniqlanadi va tahlil qilinadi; uchinchi yo‘nalishda ijodkorlik qobiliyat sifatida tahlil qilinadi (D. Simpson, E.P. Torrance, J.A. Maslow, Guildford, A.V. Brushlinsky, M. Rubinstein, E.P. Ilin, E.L. Grigorenko), turli yosh davrlari va kasblarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda mazmun va dinamika ko‘proq ahamiyat kasb etadi; to‘rtinchi yo‘nalishda esa ijodiy jarayon shaxsning o‘z-o‘zini faollashtirishi va rivojlanishi bilan bog’lanadi, o‘zini faollashtirgan shaxsning ijodkorligiga e’tibor qaratiladi (R.J. Hallman, K. Rodgers, N.V. Vishnyakova, D.B. Bogoyavlenskaya, I.Ye. Bryakova, A.V. Morozov, V.N. Druzhinin) [8].

Geografiya ta’limi jarayonida o‘quvchilarning kreativ va tanqidiy fikrlashini rivojlantirish muhim vazifalardan biridir. Geografiya fanini o‘rgatishda kreativ va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish o‘quvchilarning muammolarni hal qilish, analitik va tizimli yondashuvlarni o‘rganish imkonini yaratadi. Ushbu maqolada geografiya ta’limi jarayonida kreativ va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish yo‘llari haqida so‘z yuritiladi.

Geografiya, o‘z mohiyatiga ko‘ra, tabiiy va ijtimoiy jarayonlar haqida chuqur bilimlarni talab qiladigan fan hisoblanadi. O‘quvchilar geografiya fanini o‘rganish jarayonida nafaqat faktlarni eslab qolish, balki bu faktlarni tahlil qilish, turli xil nuqtai nazarlardan qarash va yangi fikrlar yaratish imkoniyatiga ega bo‘lishlari kerak.

Kreativ fikrlash, o‘quvchilarning oddiy faktlardan yangi, original va foydali qarorlar chiqarish qobiliyatini rivojlantiradi. [2]. Misol uchun, geografiya darslarida o‘quvchilarni “Agar siz biror hududning iqtisodiy rivojlanishini yaxshilash uchun qanday chora-tadbirlar ko‘rgan bo‘lar edingiz?” kabi savollar orqali ijodiy fikrlashga undash mumkin.

Muhokama va natijalar. Tanqidiy fikrlash – bu o‘quvchilarni turli holatlarni chuqur tahlil qilish va ularning oqibatlarini oldindan ko‘ra olishga undashni anglatadi. Geografiya ta’limida bu metodni qo‘llash, o‘quvchilarga ilmiy asoslangan fikrlarni ifodalashni, turli masalalarda o‘z fikrlarini asoslashni o‘rgatadi. Masalan, o‘quvchilarni atrof-muhitni muhofaza qilish bo‘yicha qarorlar qabul qilishda, turli manbalarni tahlil qilishga, har bir qarorning ijobiy va salbiy tomonlarini ko‘rishga o‘rgatish zarur. Kreativ va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish usullari sifatida quyidagilarni keltirish mumkin**:**

a) Interfaol o‘quv metodlaridan foydalanish; klassik ma’ruza usuli o‘quvchilarning passiv ishtirokini ta’minlasa-da, kreativ va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun interfaol usullarni qo‘llash zarur.

Diskussiya, debatlar, guruh ishlari va loyiha asosida o‘qitish metodlari o‘quvchilarning fikrlarini erkin ifodalashiga va yangi fikrlarni yaratishga imkon beradi. Masalan, geografiya darslarida «Klimat o‘zgarishlari va ularning iqtisodiy ta’siri» mavzusida guruhlar orasida muhokama o‘tkazish orqali o‘quvchilarning tanqidiy fikrlashini rivojlantirish mumkin. [3].

b) Qiyin vaziyatlar va real hayotga oid masalalar, o‘quvchilarga haqiqiy dunyo muammolariga

yechim topish vazifalarini berish ularning fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradi. Geografiya fani bo‘yicha o‘quvchilarga amaliyotda uchraydigan masalalarni yechish uchun “real dunyo” vaziyatlari (masalan, iqlim o‘zgarishlari, resurslar taqchilligi yoki hududiy boshqaruv masalalari) bo‘yicha vazifalar berish, ularning kreativ fikrlashini rag‘batlantiradi.

c) Tanqidiy tahlil va munozara usullari, geografiya fanida o‘quvchilarni turli manbalardan olingan ma’lumotlarni solishtirishga, tahlil qilishga va o‘z fikrlarini asoslashga undash kerak. Bu usul o‘quvchilarga geografik xususiyatlar va jarayonlarning ijobiy va salbiy tomonlarini ko‘rish imkonini beradi. Misol uchun, biror mintaqaning tabiiy resurslaridan foydalanishning ijtimoiy va ekologik oqibatlarini tahlil qilish o‘quvchilarda tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi.

Zamonaviy texnologiyalar, masalan, interaktiv xaritalar, geoinformatsion tizimlar (GIS), virtual laboratoriyalar va boshqa o‘quv dasturlari geografiya ta’limi jarayonini qiziqarli va samarali qilishda muhim rol o‘ynaydi. Ushbu texnologiyalar yordamida o‘quvchilar o‘rganayotgan mintaqalarni vizual tarzda ko‘rishlari mumkin, bu esa ularga ma’lumotlarni yaxshiroq tushunishga va tahlil qilishga yordam beradi. Bundan tashqari, onlayn resurslar va forumlar orqali o‘quvchilar o‘z fikrlarini boshqalar bilan baham ko‘rish va boshqa fikrlarni tinglash imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Geografiya fanini o‘rgatishda o‘qituvchining roli katta.

O‘qituvchi o‘quvchilarni kreativ va tanqidiy fikrlashga rag‘batlantiruvchi savollar berish, ularni muammolarga yondashishda erkinlik berish va mustahkam nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog‘lash orqali o‘quvchilarning fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishi mumkin. Bundan tashqari, o‘qituvchi o‘quvchilarga o‘z fikrlarini to‘g‘ri ifodalash, muhokama qilish va boshqa fikrlarni tinglashni o‘rgatishi lozim. [4].

Geografiya ta’limi jarayonida o‘quvchilarning kreativ va tanqidiy fikrlashini rivojlantirish, ularning dunyoqarashini kengaytirish va ijtimoiy hayotga faol ishtirok etishiga yordam beradi. O‘quvchilarga yangi fikrlarni yaratish, muammolarni tahlil qilish va qarorlar qabul qilishda ijodiy yondashuvni o‘rgatish, o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasida samarali muloqot va ijodiy fikrlashni shakllantirishda yordam beradi[1].

Geografiya darslarini interfaol metodlar, real dunyo muammolari, texnologiyalar va o‘qituvchining professionalligi bilan boyitish, bu jarayonni yanada samarali qilishga xizmat qiladi.

Ijodiy fikrlash ish va faoliyat jarayoniga erkinlik, ozodlik, ilhom va ijodkorlik kabi xususiyatlarni bag‘ishlaydi. Shunday qilib, intellekt – bu insonning aqliy salohiyati bo‘lsa, ijodkorlik – bu aqliy salohiyatdan maqsadga yo‘naltirilgan holda erkin foydalanish qobiliyatidir. Ya’ni, intellektuallik pedagoglarning kasbiy salohiyatini shakllantirishning dastlabki bosqichi, ularni zamonaviy jamiyatda ishlashga tayyorlashni anglatadi, ijodiy fikrlash esa intellektual salohiyat orqali mavjud muammolarga yangi yechimlar topishni ifodalaydi.

Ijtimoiy va gumanitar yo‘nalishdagi pedagoglarning ijodiy fikrlashi bu mutlaqo yangi metodlar, usullar va vositalarni tanlash va rivojlantirishni anglatadi. Bular maqsadga yo‘naltirilgan bo‘lib, ilgari noma’lum yoki an’anaviy ravishda amaliyotga tatbiq etilmagan bo‘lishi mumkin. Ijtimoiy va gumanitar fanlarni o‘qitishda odatda yirik biznes tuzilmalarini tahlil qilish, o‘nlab va yuzlab ijodiy fikrlaydigan insonlarning fikr va qarashlarini tahlil qilish, ularni umumlashtirish, rejalashtirish, o‘rganish va umumiy yechimga olib kelish talab etiladi.

Shu sababli, ijtimoiy va gumanitar fanlarda ijodiy fikrlash tushunchasi korporativ manfaatlar fikri sifatida ilgari surilgani va yirik biznes tuzilmalarini yaratishga rag‘batlantirgani ta’kidlanadi[8].

Xulosa. Maqolada geografiya fani ta’limdagi ahamiyati, o‘quvchilarning kreativ va tanqidiy fikrlashini rivojlantirishning zarurligi haqida so‘z yuritilgan. Geografiya nafaqat tabiiy jarayonlarni, balki ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarni ham o‘rgatish orqali global muammolarni tahlil qilishga yordam beradi.

O‘quvchilarga tabiat va jamiyat o‘rtasidagi o‘zaro aloqalarni tushunish, atrof-muhitni muhofaza qilish, resurslardan oqilona foydalanish bo‘yicha bilimlar beradi.

Kreativ fikrlashning geografiya ta’limidagi rolini ta’kidlab, o‘quvchilar geografiya fanini o‘rganishda yangi fikrlar yaratish va analitik yondashuvlarni o‘rganishlari kerak. Tanqidiy fikrlash esa o‘quvchilarga turli holatlarni chuqur tahlil qilish, qarorlarning oqibatlarini ko‘ra olish imkonini beradi[2].

Bundan tashqari, kreativ va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun interfaol o‘quv metodlari, qiyin vaziyatlar va real hayotga oid masalalar, tanqidiy tahlil va munozara kabi usullarni qo‘llash kerakligi aytiladi. Zamonaviy texnologiyalar va o‘qituvchining roli ham muhim o‘rin tutadi.

O‘qituvchi o‘quvchilarga savollar berish, ularni muammolarga kreativ yondashishga undash va mustahkam nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog‘lash orqali ta’lim jarayonini samarali qilishga yordam beradi. Umuman olganda, geografiya ta’limi o‘quvchilarda keng dunyoqarashni, ijodiy va tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga yordam beradi, bu esa ularni global o‘zgarishlarga moslashish va muammolarni hal qilishda samarali bo‘lishga tayyorlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1.Umumiy tabiiy geografiya. O‘zbekiston raspublikasi oliy va O‘rta maxsus ta tim vazirligi tomonidan 5140600 - geografiya ta’lim yo‘nalishi talabalari uchun darslik. Toshkent – 2018.

2.Shadiyeva N.Sh. Geografiya ta’limi mazmuni, vazifalari va muammolari. Siyosatshunoslik, huquq va xalqaro munosabatlar jurnali. Jild:03 nashr:10 2024 yil.

3.Gonzalez, a., & jones, l. (2018). Geography and education: the role of geography in shaping the future. Educational studies journal.

4.Miller, j., & smith, r. (2017). Critical thinking in geography education. Journal of educational research and practice, 8(1), 45-60.

5.Stern, d., & thompson, g. (2015). Creative thinking and problem-solving in geography education. Journal of geography in higher education, 39(3), 271-289.

6.Robinson, m. (2019). Teaching geography in the 21st century: integrating new methods and technologies. Geography education review, 34(2), 201-214.

7.Jumaniyozova, M. “Methods of determining the integrative creativity of socio-humanitarian teachers.” (2022).

8.Tajiyevna J. M. Impact of creative thinking on teacher professional development //International Journal of Pedagogics. – 2024. – T. 4. – №. 06. – C. 76-80.

9.Jumaniyazova, M. T. “Pedagogical principles of training teachers for innovative activity in the process of professional development. Ph. Fn, diss.” (2007).

MA'NAVIY TARBIYA KONSEPSIYASINI MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA AMALIYOTGA JORIY ETISHDA TARBIYACHINING ROLI

Abdullayeva Rayxon Atanazarovna
Urganch davlat pedagogika instituti Maktabgacha ta'lim va tabiiy fanlar kafedrasi katta o'qituvchisi, rayxon_abdullayeva78@msu.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada maktabgacha ta'limning bugungi kundagi o'rni, maktabgacha ta'limning asosiy vazifalari, maktabgacha ta'limning turlari, tarbiyalanuvchilarni tarbiyalashda tarbiyachining o'rni to'g'risida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim, tarbiyachi, konsepsiya, kreativlik, izlanuvchanlik, 3vatan tuyg'usi, vatanparvarlik.

РОЛЬ ПЕДАГОГА В РЕАЛИЗАЦИИ КОНЦЕПЦИИ ДУХОВНОГО ВОСПИТАНИЯ В ДОШКОЛЬНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ОРГАНИЗАЦИЯХ

Аннотация. В статье рассматривается значение дошкольного образования в современном обществе, его ключевые задачи и основные формы. Особое внимание уделяется роли педагогов в воспитании и развитии детей дошкольного возраста.

Ключевые слова: дошкольное образование, воспитатель, концепция, креативность, творчество, педагогические способности, чувство Родины, патриотизм.

THE ROLE OF THE TEACHER IN IMPLEMENTING THE CONCEPT OF SPIRITUAL EDUCATION IN PRE-SCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATIONS

Annotation. The article examines the importance of preschool education in modern society, its key objectives and main forms. Particular attention is paid to the role of teachers in the upbringing and development of preschool children.

Key words: preschool education, educator, concept, creativity, pedagogical abilities, creativity, sense of homeland, patriotism.

Kirish. Mamlakatimizda so'nggi yillar ichida barcha maktabgacha yoshdagi bolalarni maktabgacha ta'lim tizimi bilan to'liq qamrab olish masalasi bugunning dolzarb vazifalaridan biri. Islohotlar jarayonida bugungi kunda maktabgacha ta'lim sohasidagi muhim vazifalarni quyidagilar o'z ichiga oladi: Milliy iqtisodiyot taraqqiyotiga mos va taraqqiyotni rag'batlantiruvchi darajadagi ta'limni joriy etish, ta'lim tashkilotlari va ta'limiy xizmat iste'molchilari o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish, iste'molchi va ta'lim muassasasi o'rtasidagi raqobatbardoshlikni yanada kuchaytirish va bola tarbiyasiga ijtimoiy jamoatchilikni jalb etish orqali amalga oshiriladi. Yuqoridagi vazifalarni hal etishda albatta, milliy ta'lim modelining muhim tarkibiy qismi bo'lgan tarbiyachi pedagog xodimlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimi alohida o'rin tutadi. Tarbiyachilarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimi, tarbiyachi-pedagog kadrlar tomonidan yangi ma'lumotlarni o'zlashtirish, bilim, ko'nikma va malakalar olishning bosh manbai hisoblanadi. Shu bois, mazkur tizim, ma'lum ma'noda, ta'lim tizimi xodimlarining sohada amalga oshirilayotgan rivojlanish jarayonlariga tayyorligi uchun mas'ul va shu bois unga alohida e'tibor qaratilmoqda. Davlatimiz rahbari tomonidan ilgari surilgan "Taraqqiyot strategiyasi" o'zida 2022-2026-yillarda

O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning yettita ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha strategiyasini keltirishimiz mumkin. Aynan bu strategiyaning bugungi kundagi ahamiyati, ta’limning boshlang‘ich bo‘g‘ini hisoblangan maktabgacha ta’lim tizimini rivojlanishida juda katta hisoblanadi.

Adabiyotlar va manbalar tahlili. Ushbu maqolada Davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoyev tomonidan yozilgan “Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz” nomli asari, I.P.Andriadining “Основы педагогического мастерсва” nomli o‘quv qo‘llanmasi, V.I Andreevning “Pedagogika” nomli o‘quv uslubiy qo‘llanmasi, Yu.P. Azarovning “Мастерство воспитателя” nomli qo‘llanmasi, N.Azizxodjaevaning “Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat” nomli o‘quv qo‘llanmasi, R.Djo‘rayev,O‘.Tolipov va boshqalar.Pedagogik atamalar lug‘ati, B. Ziyomuhammadovning “Pedagogika” nomli Oliy o‘quv yurtlari uchun o‘quv qo‘llanmasi, G.M. Kodjaspirovaning “Pedagogika” darsligi, V.A. Slastenin, I.F.Isaev, Ye.N.Shiyanov va boshqalar “Pedagogika” o‘quv qo‘llanmasi, S.D.Yakushevaning “Основы педагогического мастерсва” darsligi, S.D.Yakusheva, V.N.Melnikovaning “Теоритические аспекты педагогического творчества как основы профессионального мастерства воспитателья детского сада” nomli asari, M.Azimovning Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini maktabgacha ta’lim tashkilotlarida amaliyotga joriy etishda “tarbiyachi imidji”ni yaratish nomli maqolasi nazariy va ilmiy jihatdan o‘rganilgan.

Mavzuning tahlili. Yosh avlodni tarbiyalash va o‘qitish uzluksiz ta’lim tizimining boshlang‘ich bo‘g‘ini bo‘lgan maktabgacha ta’lim tashkilotlaridan boshlanadi. Inson, uning har tomonlama uyg‘un kamol topishi va tarbiyalanishi, shaxs manfaatlarini ro‘yobga chiqarishning sharoitlarini va ta’sirchan mexanizmlarini yaratish, eskirgan tafakkur va ijtimoiy xulq-atvorning andozalarini o‘zgartirish respublikada amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy maqsadi va harakatlantiruvchi kuchidir. Xalqning boy ma’naviy merosi va umumbashariy qadriyatlari, zamonaviy madaniyat, iqtisodiyot, fan-texnika va texnologiyalarning yutuqlari asosida intellektual yosh avlodni tayyorlashning mukammal tizimini shakllantirish O‘zbekiston taraqqiyotining muhim shartidir. Davlatimiz mustaqillikka erishgandan so‘ng barcha sohalarda tub islohotlarni olib bordi. Bulardan ko‘zlangan maqsad davlatimizga kerakli bo‘lgan yetuk, har tomonlama barkamol shaxsni tarbiyalash va ularni jamiyatda o‘z o‘rnini topishga imkoniyatlar yaratib berishdan iborat qilib qo‘yilgan. Albatta bu xayrli ishlarni ta’lim-tarbiyani birinchi bo‘g‘ini bo‘lgan oila, maktabgacha ta’lim tashkilotidan olib borish maqsadga muvofiqdir. Shunday ekan, biz birinchi navbatda maktabgacha ta’lim tizimiga e’tibor berishimiz, ularni yetuk malakali mutaxassislar bilan boyitishimiz zarurdir. Tarbiyalanayotgan tarbiyalanuvchilarni har tomonlama bilimli, odob-axloqli qilib tarbiyalash bizning oliy maqsadimizdir. Aynan bu borada maktabgacha va maktab ta’limi, hamda uning metodologik asoslarini yaratish muhim ahamiyat kasb etadi.

Maktabgacha ta’lim haqida gap ketar ekan, bu tizim avvalo bolaning ilk ilm ostonasiga yetib kelishi va bolaga beriladigan dastlabki bilim, ko‘nikma, malakalarning asoslarini yaratishda bola sog‘lom, har tomonlama kamol topib shakllanishni ta’minlaydi, unda o‘qishga intilish hissini uyg‘otadi, uni muntazam ta’lim olishga tayyorladi.

Maktabgacha ta’limning maqsadi va vazifalarini ro‘yobga chiqarishda mahallalar, jamoat va xayriya tashkilotlari, xalqaro fondlar faol ishtirok etadi. Maktabgacha ta’lim va tarbiyani rivojlantirish uchun quyidagilarni amalga oshirish lozim bo‘ladi:

• Malakali tarbiyachi va pedagog kadrlarni ustuvor ravishda tayyorlash;
• Maktabgacha ta’limning samarali psixologik-pedagogik uslublarini izlash va joriy etish;
• Bolalarni oilada tarbiyalashni tashkiliy, psixologik, pedagogik va uslubiy jihatdan ta’minlash;
• Zamonaviy o‘quv-uslubiy qo‘llanmalar, texnik vositalar, o‘yinchoqlar va o‘yinlar yaratish hamda ularni ishlab chiqarish;
• Maktabgacha yoshdagi bolalarni xalqning boy madaniy-tarixiy merosi va umumbashariy qadriyat-

lar asosida ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash uchun shart sharoitlar yaratish;
• Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining har-xil turlari uchun turli variantlardagi dasturlarni tanlab olish, maktabgacha ta'lim va tarbiyaning barcha masalalari bo'yicha malakali konsultatsiya xizmati ko'rsatish imkoniyatini yaratish;
• Maktabgacha ta'lim va sog'lomlashtirish muassasalari tarmog'ini qo'llab quvvatlash va rivojlantirish mexanizmini ishlab chiqish kabi vazifalarni maqsad qilib qo'yadi.

Maktabgacha ta'limning asosiy vazifalari quyidagilar deb belgilanadi:
• Bolalarni xalqning boy milliy, madaniy, tarixiy merosi va umumbashariy qadriyatlar asosida aqliy va ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash;
• Bolalarda milliy g'urur, vatanparvarlik hislarini shakllantirish;
• Maktabgacha yoshdagi bolalarda bilim olish ehtiyojini, o'qishga intilish mayllarini shakllantirib, ularni muntazam ravishdagi ta'lim jarayoniga tayyorlash;
• Bolalarning tafakkurini rivojlantirish, o'zining fikrini mustaqil va erkin ifodalash malakalarini shakllantirish.
• Bolalarning jismoniy va ruhiy sog'ligini ta'minlash kabilarni o'z oldiga maqsad qilib belgilaydi.

Maktabgacha ta'lim, bola 6-7 yoshga yetguncha oilada, hamda davlat va davlatga qarashli bo'lmagan maktabgacha ta'lim tashkilotlarida amalga oshiriladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari ularning yo'nalishlariga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi:
• Bolalar yaslisi, bolalar bog'chasi, bolalar yasli bog'chasi, xonadon bolalar bog'chasi (ham mustaqil muassasa sifatida, ham filial sifatida);
• Maktabgacha ta'lim tashkiloti;
• Tarbiyalanuvchilarning bir yoki bir necha ustuvor yo'nalishlarda rivojlantiradigan (til o'rganish, badiiy estetik, sport va boshqa yo'nalishlar bo'yicha) maktabgacha ta'lim tashkiloti;
• Tarbiyalanuvchilarning jismoniy va ruhiy rivojlanishidagi kamchiliklarni bartaraf etishni ustuvor ravishda amalga oshiruvchi maxsus maktabgacha ta'lim tashkiloti;
• Sanitariya-gigiyena, profilaktika va sog'lomlashtirish tadbirlari va muolajalari ustuvor ravishda amalga oshiriladigan sog'lomlashtiruvchi bolalar bog'chasi;
• Aralash turdagi maktabgacha ta'lim tashkiloti;

Maktabgacha ta'lim tizimini ilmiy faoliyati asoslarini ishlab chiqishda bu tizimda qo'llaniladigan ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarni, mutaxassislar tomonidan tavsiya etilgan yangi dasturlar, metodik qo'llanmalar, didaktik materiallarni joriy etish uchun shart-sharoitlarni ta'minlaydi. Maktabgacha ta'lim tashkilotidagi bolaning o'sishidagi psixologik va etnopsixologik xususiyatlarga asoslanib, ta'lim-tarbiya tizimida odob, estetik, musiqiy-badiiy, jismoniy tarbiyani birinchi o'ringa chiqarish, grammatikani bu qadar majburiy o'rgatmaslik lozim bo'ladi.

Maktab yoshiga yetgan bolalarning ma'naviy-madaniy jihatdan yetukligiga qo'yiladigan minimal talablar:
• Ona Vatan – O'zbekiston haqida qisqacha so'zlab berish;
• 8-dekabr – O'zbekiston Konstitutsiyasi kuni umumxalq bayrami sifatida nishonlanishini bilish;
• O'zbekiston bayrog'i, gerbi haqida fikr bildira olish;
• O'zbekiston madhiyasini yoddan ayta olish;
• Vatan tuyg'usi, vatanparvarlik hislari va milliy g'ururni yoshiga mos ravishda shakllanganligi;
• Xalqiga, Vataniga mehr va sadoqat hislarini shakllanganligi;
• Buyuk siymolar haqida ilk tasavvurlarga ega bo'lish;
• Milliy bayramlar haqida qisqacha so'zlab berish;
• O'zidan kattalarga sizlab murojaat qilish;
• Yaxshilik va yomonlikni farqlash;

• Mehnat qilayotgan kattalarga ko‘maklashish;
• Tasviriy san’at asarlaridan zavqlana olish;
• “Labbay”, “Xo‘p bo‘ladi”, “Xush kelibsiz”, “Raxmat”, “Salomat bo‘ling”, “Osh bo‘lsin”, “Mumkinmi”, “Kechirasiz”, “Shirin tushlar ko‘ring”, “Yaxshi borib keling”, “Marhamat” kabi so‘z va iboralarni o‘z o‘rnida qo‘llay olish;
• Shirin so‘zli bo‘lish va mehribonlik qila bilish;
• Ovqatlanish qoidalarini bilish va unga rioya qilish;
• Musiqa tinglash va undan zavqlana olish;

Maktabgacha yoshdagi tarbiyalanuvchilarga ta’lim-tarbiya berishning asosiy vazifalari bolalarni jismoniy, aqliy va ma’naviy jihatdan ravojlantirishdan, ularning tug‘ma layoqati, qiziqishi, ehtiyoji va imkoniyatlarini hisobga olgan holda milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida muntazam ta’lim olishga tayyorlashdan iborat. Bolada kattalar bilan muloqot jarayonida axloqiy xulq atvorning dastlabki tajribalari shakllanadi. Muloqotga bo‘lgan ehtiyoj – muhim ijtimoiy ehtiyoj bo‘lib, katta yoshli inson bu ijtimoiy ehtiyojni qondiruvchi manba hisoblanadi. Axloqiy his-tuyg‘ular va odatlarni tarbiyalash shunday zaruriy asos hisoblanadiki, u siz bola shaxsining murakkabroq xususiyatlarini, ma’naviy kamolotni ta’minlash, mamlakatning ijtimoiy hayot hodisalari haqidagi tasavvurlarni va ularga ijobiy munosabatni shakllantirib bo‘lmaydi. Maktabgacha yoshning dastlabki bosqichlarida tarkib toptirilgan insonparvarlik asoslari uning ijtimoiy yo‘nalganligi bolalarda asta-sekin shaxsning jamoatchilik belgilari: xulq-atvor odatlari, munosabatlari va tasavvurlarini shakllantirish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Avvalo, bolalar muassasasida jamoaning katta yoshli a’zolari o‘rtasida to‘g‘ri o‘zaro munosabat uslubini vujudga keltirish kerak. O‘zaro hurmat va g‘amxo‘rlik, ishga muhabbat, mamlakatning ijtimoiy va siyosiy hayotida ishtirok etish – bularning barchasi zarur uslubni ta’minlashi lozim.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ilg‘or pedagogik texnologiyadan xabardor tarbiyachi-pedagoglarni yetkazib berish, ularni zamonaviy bilim va ko‘nikmalar bilan qurollantirish, doimiy yangiliklardan xabardor bo‘lib borishlari uchun internet tarmog‘idan foydalana olish imkoniyatlarini kengaytirish chora tadbirlari ishlab chiqilgan. Ayniqsa, tezkor rivojlanayotgan davrda ta’limni insonparvarlashtirish tarbiyachi-pedagog oldiga ulkan vazifalarni yuklaydi, ya’ni bolalarni maktabgacha ta’lim tashkilotlarida faoliyat olib boruvchi “Zamonaviy tarbiyachi”ni kamol toptirish, ularni axloqiy-ma’naviy jihatdan yetuk, ijtimoiy faol, ijodiy faoliyatga moyillik yangicha kasbiy dunyoqarash shuningdek, o‘zgarayotgan zamon talablariga moslasha olish qobiliyatiga ega bo‘lishlari talab etiladi. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda, uzluksiz ta’limning ilk bo‘g‘ini bo‘lgan maktabgacha ta’lim tashkilotlarida faoliyat olib boruvchi tarbiyachilarga ulkan mas’uliyat yuklanadi.

Bugungi kun tarbiyachisi bolalarga ta’lim-tarbiya berishning eng samarali yo‘llarini tanlay olish mahoratiga ega bo‘lishi ustuvor vazifa sifatida ilgari surildi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tarbiyachi-pedagoglar bolalarda nafaqat qoida va xulq-atvor me’yorlari, balki barcha ijobiy fazilatlar shakllantirish amaliyotini xorij tajribalari va milliy tarbiya berish usullarining hamohanglini ta’minlash zaruratini keltirib chiqarmoqda. Buning uchun tarbiyachida pedagogik mahorat shakllangan bo‘lishi lozim.

Pedagogik mahorat inson tarbiyasini amalga oshiruvchi o‘quv tarbiya ishlarining samarali bo‘lishiga ta’sir etuvchi muhim omillardan hisoblanadi. Bunda pedagogika asosiy o‘rinda turadi, chunki u insonning eng muhim ehtiyojlaridan birini qondirishga harakat qiladi. Pedagogika inson va uning tabiati ya’ni uning qalbini takomillashtirishga xizmat qiladi. Bu fanning asosiy maqsadi mukammal shaxsni shakllantirishdan iborat. Pedagogik mahorat pedagogik san’at bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, pedagogik mahoratning eng yuqori darajada namoyon bo‘lishidir. Ular o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik nafaqat to‘g‘ridan-to‘g‘ri, balki dialektik jihatdan ham bog‘liq.

San'at barcha amaliy faoliyatning turlariga dahldor bo'lib, u mohirona va mahorat bilan amalga oshiriladi. Ya'ni, biror ish yoki kasbni mohirona amalga oshirishdir. San'at ijodni namoyon bo'lishi, amaliy faoliyatning har qanday shakli hisoblanadi. Mahorat barcha kasb egalarining faoliyatida namoyon bo'ladi, masalan, aktyor, yozuvchi, pedagog, shifokor, duradgor va boshqalar. Avvalo, mahorat pedagog shaxsining ijodkorligi bilan bog'liq ravishda rivojlanadi. Tarbiyachi faoliyatda esa kreativ yondashuv asosiy omil hisoblanadi.

Kreativlik (ijodiylik) – qandaydir yangi, betakror narsa yarata olish layoqati, badiiy shakl yaratish, fikrlash, g'oya va yechimga olib keluvchi aqliy jarayon tarbiyachi mahorat nazariy bilimlari bilan cheklanib qolmasdan uni aniq berilgan faoliyat dasturi doirasida amalga oshirish orqali erishiladi. Pedagogik va tarbiyaga doir adabiyotlarda tarbiyachi pedagogik mahorat turlicha talqin qilinadi. Mahorat kasbiy ko'nikmalarning yuksak darajada rivojlanishi, shaxsning kasbiy sifatlari, san'at darajasidagi mahorat, pedagogik mohirlik, bilimdonlik va yetaklovchilik hislatlari alohida e'tibor beriladi.

Tarbiyachi mahorati pedagogik jarayonni bilish, uni tashkil eta olish, harakatga keltira olish (A.S.Makarenko), pedagogik jarayonning yuqori samaradorligini belgilovchi shaxsning ish sifati va xususiyatlarining sintezi sifatida talqin qilinadi. Demak, tarbiyachi mahoratni doimiy ravishda mukammallashib boruvchi, har bir pedagog-tarbiyachi uchun qulay bo'lgan ta'lim-tarbiya berish "san'ati" desak adashmagan bo'lamiz. Shuningdek, zamonaviy tarbiyachi kasbiy mahorati pedagogik faoliyatning eng yuqori darajasi sifatida e'tirof etiladi. Demak, mahorat pedagogik faoliyatning eng yuqori cho'qqisi bo'lib, muayyan vaqt mobaynida natijaga erishish sanaladi. Pedagogik mahorat tarbiyachi shaxsining o'ziga xos xususiyatlar majmui bo'lib, kasbiy faoliyatning mustaqil tashkil etishni ta'minlovchi, refleks asosida amalga oshiruvchi jarayon hisoblanadi. Tarbiyachining mukammal ijodiy kasbiy vazifasini bajarish pedagogik mahorat sanaladi.

Tarbiyachi kasbiy mahorati har bir shaxsning rivojlanishidagi ma'naviy muhit, uning cho'qqilarni zabt etish ruhini o'zida mujassamlashtirib, o'zining «MEN»ligini ko'rsatib, insoniyat qadriyatidagi kuchlarni yig'ib, o'zining yolg'iz emasligini his qilibgina qolmasdan, ma'naviy boy bo'lishni ham ta'minlaydi. Tarbiya berish jarayonini pedagogik mahorat darajasida amalga oshirish lozim. V.I.Andreev fikricha, mahorat inson faoliyatining bir turi sifatida namoyon bo'ladi. U pedagogik mahorat belgilarini quyidagicha tasniflaydi:

- muammoli vaziyatlarni bartaraf eta olish va ijodiy yondashuv;
- jamiyat va shaxs rivojlanishiga ijtimoiy va shaxsiy jihatdan ta'sir ko'rsatish;
- shaxsiy sifatlarini namoyon etish, bilim, ko'nikma, malaka, ayniqsa ijobiy motivatsiyalar, tarbiyachining ijodiy qobiliyati;
- yangilikni ta'lim jarayoniga samarali tatbiq etish va natijaga erishish.

Pedagogik mahorat murakkab jarayon bo'lib, ta'lim tizimida integrativ xarakterga ega hisoblanadi. Buning mohiyati shundaki, avvalambor, pedagogning tashkilotchiligi, tashabbuskorligi, intiluvchanligi, yangilikka bo'lgan intilishning yuqoriligi, bilan birgalikda tarbiya beruvchining xulq-atvori hamda maxsus bilim va ko'nikmalari o'rin egallaydi. Bularsiz hech bir pedagog yaxshi tarbiyachi bo'lishi mumkin emas. Agarda pedagog nutqi ravon bo'lmasa, bola bilan har qanday vaziyatda muloqot qilishda qiyinchilik tug'iladi. Agarda kasbiga xos malaka va ko'nikmaga ega bo'lmasa, talab darajasidagi tarbiyachi bo'la olmaydi. Buning uchun tarbiyachi pedagogik texnikaga ega bo'lishi, ovoz toni, mimika, yuz qarashlarini ifoda eta olishi, jismoniy holati, ruhiy ahvoli hamda kayfiyati ham hamohang bo'lishi talab etiladi.

Tarbiyachi bolalar bilan ishlash jarayonida tashkilotchi, hazil mutoyibaga moyil, quvnoq, zukko, shu bilan birga talabchan ham bo'lishi lozim. Izlanishlar natijasi shuni ko'rsatadiki, tarbiyachilarning o'quv faoliyatidagi ishtiroki va xatti-harakatlarini kuzatish natijalaridan kelib chiqib,

oliy o‘quv yurtlaridagi tahsil olayotgan bo‘lg‘usi tarbiyachi-pedagoglarni pedagogik mahorat, pedagogik texnologiyani samarali o‘rgatish, shuningdek, pedagogik texnikani (nutqi va gavda harakati, qiyofasi, mimika) namoyon etish bo‘yicha ko‘nikma, malakalarni shakllantirish bilan birgalikda ularning jismoniy jihatdan yetukligiga ham alohida e’tibor berishni taqozo etadi. Bugungi raqamli davrda kishilarning ruhiy holatiga sezilarli ta’sir o‘tkazayotganligi tufayli pedagog tarbiyachilarni saralash va tayyorlash jarayonida ularning ruhiy holatiga ham alohida e’tibor qaratish, kelajakda sodir etilishi mumkin bo‘lgan ko‘ngilsiz holatlarni ham bartaraf etishini unutmasligimiz lozim.

Bolalarga ta’lim-tarbiya berish samarasi pedagog shaxsiga bog‘liq. Tarbiyachi-pedagogning shaxsiy sifatlari, ya’ni bolalarga muhabbat, ularni tushuna olish qobiliyati, optimist bo‘lishi, tarbiyaning ta’sir kuchiga ega ekanligiga ishonishdan va bolani ham o‘z qobiliyatlariga ishontira olishdan iborat bo‘lishi kerak. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida faoliyat olib boruvchi zamonaviy tarbiyachi imidjiga qo‘yilgan sifatlar quyidagilar kiradi:

-Bolaga bo‘lgan mehr-muhabbat,
-Kasbini sevish,
-Hushmuomulalik tabassum qilish,
-Irodali va qat’iyatli bo‘lish,
-Kasbga ma’suliyat va jiddiy yondashishi,
-Salohiyat,
-Kirishuvchanlik,
-Yangilik izlashdan to‘xtamaslik,
-Izlanuvchanlik, mashg‘ulotlarga kreativ yondashuv, bola qalbiga kirib bora olish qobiliyati, jismoniy sog‘lomlik va yuzida samimiylikni ifoda eta olish kabi sifatlar o‘zida mujassam etishi zarur.

Tarbiyachi mahorati kategoriyalari esa bilimli bo‘lish, talabchanlik, ijodkorlik, insonparvarlik va pedagogning faollik kabilarni tashkil topgan. Bolalar bilan faoliyat olib borish jarayonida tarbiyachi o‘zining xulq-atvori, hissiyotlari, kayfiyati, ijtimoiy-perseptiv qobiliyati, nutq madaniyatini boshqara olishi zarur. Ko‘pchilik tarbiyachilar tashkiliy va kommunikativ faoliyat jarayonida qiyinchiliklarga duch keladilar. Bu esa ta’lim jarayonini samarali tashkil etishga halal beradi.

Tarbiyachining bunday qiyinchilikka uchrashining asosiy sababi yaratuvchanlik ko‘nikmasini yetarli emasligi hamda oldindan mashg‘ulot jarayonini loyihalashtira olmaslikdir. Tarbiyachilar muntazam ravishda bolalar psixologiyasi va maktabgacha ta’lim sohasiga oid ma’lumotlardan xabardor bo‘lish va ularni amaliyotga qo‘llash malakasiga ega bo‘lishlari lozim. Tarbiyachi kasbiy mahorati tufayli murakkab pedagogik vaziyatlarda o‘z bilimlari, pedagogik masalalarni hal etishda tarbiyalanuvchilarga ta’sir etish usullari, uslublari va vositalarini mohirona qo‘llay oladi. Yuqorida keltirilgan fikrlardan kelib chiqib, tarbiyachi pedagogik mahoratining o‘ziga xos jihatlarini tizimlashtiramiz:

- tarbiyachi tomonidan o‘quv jarayonining maqsadga yo‘naltirilishi;
- ta’lim natijalariga ko‘ra yaratuvchanlik qobiliyatiga ega bo‘lish;
- muloqotchanlik malakasiga ega bo‘lish;
- eng qulay samarali o‘qitish usullari va vositalarini tanlay bilish;
- o‘quv faoliyati natijasiga ko‘ra bo‘lg‘usi mashg‘ulotga ijodiy yondashgan holda tayyorgarlik ko‘rish.

Xulosa. Maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachisi pedagogik mahoratni muntazam ravishda oshirib borishi zarurdir. Chunki, ular oldida barkamol avlodni tarbiyalashdek ulkan vazifa turadi. Zamonaviy tarbiyachida tashabbuskorlik, mustaqillik, mas’uliyatlilik, har qanday muammoli vaziyatga tayyor turish va pedagogik qobiliyatni amaliyotga tatbiq eta olish mahorati tarbiyachining kasbiy darajasini belgilab beradi. Tarbiyachining kasbiy mahorati asosida pedagogik qadriyat

tashkil qilishini, tarbiyachi axloqiy, aqliy, huquqiy, estetik va boshqa sifatlarga ega bo‘lishi, tarbiyalanuvchilarga ta’sir ko‘rsatish, o‘zining shaxsiy qarashlarini rivojlantirishi orqali zamonaviy tarbiyachi imidjini kamol toptirish mumkiniligini unutmasligimiz zarur. Zero, bu farzandlarimiz tarbiyasida xatoga va tanaffusga bir zum ham haqqimiz yo‘q.

ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2018. – B.89

2. Андриади И.П. Основы педагогического мастерства: Учеб. пособие для студ. сред. пед. учеб. заведений. - М.: «Академия», 1999. -С. 160.

3. Андреев В.И. Педагогика. Учебный курс для творческого саморазвития. 2-е изд. - Казань: 2000.

4. Азаров Ю.П. Мастерство воспитателя. - М.: «Просвещение», 1971.-С. 126.

5. Azizxodjayeva N. “Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat”- T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2003.-175-bet

6. Djo‘rayev R, Tolipov O‘ va boshqalar. Pedagogik atamalar lug‘ati. “Fan”, 2008. -196-b.

7. Ziyomuhammadov B. Pedagogika: Oliy o‘quv yurtlari uchun o‘quv qo‘llanma. - T.: “Turon-Iqbol” 2006. -58-68-b.

8. Коджаспирова Г.М. Педагогика: учебник. - М.: «Гардарики», 2004. -С. 528.

9. Лихачев Б.Т. Педагогика. Курс лекций: учебное пособие. - М.: «Юрайт», 2001.

10. Сластенин В., Исаев И. и др. Педагогика: учебное пособие. - М.: «Школа-Пресс», 2007.

11. Якушева С.Д. Основы педагогического мастерства: Учебник. 3-е изд. - М.: «Академия», 2010. -С. 256.

12. Якушева С.Д., Мельникова В.Н. Теоретические аспекты педагогического творчества как основы профессионального мастерства воспитателя детского сада. // «Личность, семья и общество: вопросы педагогики и психологии». Сб. ст. по матер. IV междунар. науч.-практ. конф. № 4. Часть I. – Новосибирск: СибАК, 2011.

13. Azimov M. Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini maktabgacha ta’lim tashkilotlarida amaliyotga joriy etishda “tarbiyachi imidji”ni yaratish. O‘zbekiston milliy universiteti xabarlari, 2023, [1/7/1] ISSN 2181-7324. FALSAFA http://journals.nuu.uz

IJTIMOIY-GUMANITAR YO‘NALISH PEDAGOGLARI KREATIV KOMPETENTLIGINING TARKIBIY TUZILMASI

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti, pedagogika fanlari doktori (DSc)
ORCID:0009-0000-8371-6298, m.jumaniyozova@uzswlu.uz

Annotatsiya. Ushbu maqolada oliy ta’lim tizimida ijtimoiy-gumanitar yo‘nalish pedagoglarining kreativ kompetentligi va uning tarkibiy tuzulmasi hamda uning pedagogik funksiyasilari va dolzarb muammolari, pedagogic faoliyat mazmuniga kreativ yondashuvning zarurati haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so’zlar: kreativlik, tafakkur, kreativ yondashuv, g‘oyalarni yaratish.

THE STRUCTURAL COMPONENTS OF THE CREATIVE COMPETENCE OF SOCIAL-HUMANITARIAN EDUCATORS

Annotation. This article examines the creative competence of educators in the socio-humanitarian field within the higher education system, its structural components, pedagogical functions, and pressing issues. It also discusses the necessity of a creative approach to the content of pedagogical activities.

Keywords: creativity, thinking, creative approach, idea generation.

СОСТАВНАЯ СТРУКТУРА КРЕАТИВНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ ПЕДАГОГОВ СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНОГО НАПРАВЛЕНИЯ

Аннотация. В данной статье рассматриваются креативная компетентность педагогов социально-гуманитарного направления в системе высшего образования, её составная структура, педагогические функции и актуальные проблемы. Также обсуждается необходимость креативного подхода к содержанию педагогической деятельности.

Ключевые слова: креативность, мышление, креативный подход, создание идей.

Kirish. Jamiyat rivojlanishining zamonaviy bosqichida oliy pedagogik ta’lim tizimini tarkibiy qayta qurish va mazmunan rivojlantirish, tayyorlanayotgan mutaxassislar sifatini oshirishning yangi zahiralarini izlab topish, pedagoglarning kreativ sifatlarini rivojlantirish asosiy vazifalardan biri hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son Farmoni bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi”da:

oliy ta’lim tizimini rivojlantirishning strategik maqsadlarida mamlakatni modernizatsiya qilish, ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan barqaror rivojlantirish uchun yuqori malakali kadrlar tayyorlash sifatini oshirish, inson kapitalini mehnat bozori talablari asosida rivojlantirish;

oliy ta’lim bilan qamrov darajasini oshirish, xalqaro standartlar asosida yuqori malakali, kreativ va tizimli fikrlaydigan, mustaqil qaror qabul qila oladigan kadrlar tayyorlash, ularning intellektual qobiliyatlarini namoyon etishi va ma’naviy barkamol shaxs sifatida shakllanishi uchun zarur shart-sharoit yaratish;

sohada sog‘lom raqobat muhitini shakllantirish, uning jozibadorligini oshirish, jahon miqyosidagi raqobatbardoshligini ta’minlash asosiy vazifa sifatida belgilab berilgan[1].

Ta’lim jarayonini sifatli tashkil etish, ta’lim oluvchilarning erkin, mustaqil, ijodiy fikrlashini rivojlantirish, mantiqiy tahlil va o‘zgaruvchan jamiyatda to‘g‘ri qarorlar qabul qila oladigan barkamol

shaxsni tarbiyalash va o‘qitishda davlat pedagoglar oldiga bir qator vazifalar va majburiyatlarni qo‘yadi. O‘quv mashg‘ulotlarini sifatli o‘tkazish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan, o‘qitish va tarbiyalashning ilg‘or hamda innovatsion shakllari va usullaridan foydalanish; o‘quv dasturlari doirasida mualliflik dasturlarini ishlab chiqish va joriy etish, o‘qitish uslubiyotini ishlab chiqish, shuningdek, tegishli o‘quv fanlari, kurslari, modullarini yaratishda ijodiy faollik ko‘rsatish, zamonaviy o‘qitish va tarbiya vositalarini, usullarini erkin tanlash hamda ulardan foydalanish; o‘quv, ilmiy va uslubiy yo‘nalishlarda ilmiy, ilmiy-tadqiqot va ijodiy faoliyatni amalga oshirish, eksprimental faoliyatda ishtirok etish, innovatsiyalarni ishlab chiqish va joriy qilish; davlat ta’lim standartlarini, davlat ta’lim talablarini, malaka talablarini bajarish; ta’lim oluvchilarning psixologik va o‘ziga xos xususiyatlarini, jismoniy va ruhiy salomatligini, fiziologik rivojlanishini hisobga olish, o‘z malakasini muntazam ravishda oshirib borish, o‘z sha’ni, qadr-qimmati va ishchanlik obro‘sini himoya qilish shular jumlasidandir. Bu vazifalarni amalga oshirishda oliy ta’lim muassasasi pedagog kadrlarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish, ularni ijodiy kasbiy faoliyatga yo‘naltirish lozim.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. “Agar zamonaviy jamiyatda biz hech bo‘lmaganda umumtaraqqiyot uchun kichkinagina o‘zgarish qiladigan insonni tarbiyalay olmasak, biz halok bo‘lishimiz mumkin va u holda biz kreativlikni rivojlantirmaganimiz uchun tovon to‘lagan bo‘lamiz”, – deydi psixolog K.Rodjers [181].

D.B.Bogoyavlenskaya, V.A.Kan-Kalik, N.V.Kuzmina va boshqalarning tadqiqotlarida shaxsiy fazilatlarining kreativ jarayon uchun muhimligi ilmiy asoslab berilgan. D.B.Bogoyavlenskaya bunday fazilatlarga kasbiy faoliyatni rivojlantirish yo‘lidagi to‘siqlarni yengib o‘tishga qaratilgan ichki motivatsiya, oqilona tavakkal qilish, noaniqlikka toqat qilish va o‘ziga bo‘lgan ishonchni saqlashga tayyorlikni kiritadi. Ichki motivatsiya yechilayotgan muammoga yo‘naltirilgan kreativlik uchun juda muhim ekanligini, kreativlik ijodiy g‘oyalarni rag‘batlantiradigan muhitni talab qilishini va o‘qituvchi ijodkorlik uchun barcha kerakli ichki manbalarga ega bo‘lsa ham qo‘llab-quvvatlovchi muhit bo‘lmasa kreativlik namoyon bo‘lmasligi mumkin, degan xulosaga keladi.

A.V.Brushlinskiy tafakkur va kreativlik o‘rtasidagi bog‘liqlikni quyidagicha aniqlagan: “Tafakkur va kreativlik bir-biri bilan uzviy bog‘liqdir. Ularning orasidagi o‘zaro bog‘liqliklar tabiiy, chunki har qanday odamning tafakkuri doimo (hech bo‘lmaganda minimal) ijodiy, samarali, mustaqil bo‘ladi” [4].

V.A.Kan-Kalik o‘qituvchi kreativligi tushunchasiga “o‘zgaruvchan sharoitlarda son-sanoqsiz ta’lim-tarbiya vazifalarini doimiy ravishda hal qilishga yo‘naltirilgan faoliyat sifatida qaraydi, bu vaqtda o‘qituvchi muloqotda optimal, ma’lum bir individuallik uchun standartlashtirilgan pedagogikani ishlab chiqmaydi, balki pedagogik ta’sir obyekti-subyekti xususiyatlari vositachiligidan kelib chiqib yechimlar qabul qiladi” [123], – deb ta’kidlaydi.

Kreativlikni o‘rganishning muhim bosqichi J.Gildfordning tadqiqotlari bo‘lib, u konvergent (mantiqiy, bir tomonlama) va divergent (bir vaqtning o‘zida turli yo‘nalishlarda fikrlash, mantiqdan chetga chiqish) tafakkurini ajratgan.

J.Gildford kreativlikni tavsiflovchi intellektual qobiliyatlar orasida ravonlik (ma’lum bir vaqt birligida paydo bo‘ladigan g‘oyalar soni), egiluvchanlik (bir fikrdan ikkinchisiga o‘tish qobiliyati), fikrlashning o‘ziga xosligi (umumiy qabul qilinganlardan farq qiladigan g‘oyalarni ishlab chiqish yoki yaratish qobiliyati), qiziqish (boshqalarni qiziqtirmaydigan muammolarga nisbatan sezgirlikni oshirish), ahamiyatlilikni asosiy qabiliyatlar sifatida ajratib ko‘rsatadi va kreativlikning oltita o‘lchovini eslatib o‘tadi. Bular:

1) muammolarni aniqlash va qo‘yish qobiliyati;
2) ko‘p sonli g‘oyalarni yaratish qobiliyati;

3) moslashuvchanlik – har xil g‘oyalarni birlashtirish qobiliyati;

4) o‘ziga xoslik;

5) tafsilotlarni qo‘shish orqali obyektni rivojlantirish qobiliyati;

6) muammolarni hal qilish qobiliyati, ya’ni tahlil va sintez qilish qobiliyati [5].

J.Gildford kreativlik tarkibiga divergent fikrlashdan tashqari, konvertatsiya qilish qobiliyati, yechimning aniqligi va boshqa intellektual parametrlarni kiritgan. U aql va kreativlik o‘rtasidagi ijobiy munosabatni e’lon qiladi. Ko‘plab tajribalar davomida yuqori intellektual subyektlar muammolarni hal qilishda ijodiy xulq-atvorni namoyon etmasligi mumkin, ammo intellekti past kreativlar yo‘q, degan xulosaga keladi. Muallif tomonidan kreativlikni aniqlash uchun ishlab chiqilgan testlardagi vazifalarning aksariyati turli xil qobiliyatlarni aniqlashga qaratiladi: ular ma’lum miqdordagi javoblarni o‘z ichiga olmaydi; javoblarning to‘g‘riligi emas, balki topshiriqqa muvofiqligi baholanadi; ahamiyatsiz va kutilmagan yechimlarni izlash rag‘batlantiriladi [6].

E.P.Torrens [9] kreativlikni muammolarga, mavjud bilimlarning yetishmovchiligiga yoki mos kelmasligiga nisbatan sezgirlikning paydo bo‘lish jarayoni deb ta’riflagan. Muammolarni aniqlash, ularning yechimlarini izlash, farazlarni taklif qilish, gipotezalarning sinovlari, o‘zgarishlari va qayta sinovlari, qaror natijalarini shakllantirish kreativlikning mohiyatini tashkil etishini belgilab bergan. Muallif kreativlikni baholash uchun fikrlashning turli xil testlari, so‘rovnomalar va ish faoliyatini tahlil qilish usullaridan foydalanishni taklif etgan. Shaxs kreativligini o‘rganish uchun uning hayotiy tajribasi va individual xususiyatlarini tahlil qilib, kreativlik omillari: ravonlik, ravshanlik, fikrlashning moslashuvchanligi, muammolarga sezgirlik, o‘ziga xoslik, topqirlik, ularni yechishda konstruktivlikni alohida ajratib ko‘rsatgan.

J.S.Renzulli iqtidorli shaxs-inson fazilatlarining uchta asosiy guruhi o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirni aks ettiradi, ular o‘rtachadan yuqori umumiy qobiliyatlar, topshiriqda yuqori darajada ishtirok etish va yuqori darajadagi kreativlik, ijodkorlik ekanligini o‘z izlanishlarida ta’kidlab o‘tadi. Muallifning fikricha, kreativ odamlarda bunday fazilatlar tizimi mavjud va ular bu fazilatlarni faoliyatining istalgan sohasida qo‘llashga qodir.

V.A.Slastenin o‘qituvchi faoliyatining asosiy tarkibiy qismlarini aniqlaydi va uning kreativ qismiga e’tiborni qaratadi, unda quyidagi intellektual xususiyatlar hukmronlik qiladi:

pedagogik muammolarni tushunishda sezgirlik;

pedagogik jarayonni idrok etishning yaxlitligi (boshqa o‘qituvchilarning ijodiy faoliyati tajribasini umumlashtirish qobiliyati, kasbiy faoliyatda yangiliklarni ko‘rish qobiliyati);

fikrlashning tanqidiyligi, moslashuvchanligi, o‘ziga xosligi (har xil pedagogik konsepsiyalarni, yangiliklarni, pedagogik faoliyat usullarini tahlil qilish, taqqoslash; harakat usullari, boshqalarning nuqtayi nazarini tushunish, isbotlash va asoslash; shaxsiy fikrlar o‘zgargan sharoitlarga mos kelmasa odatda ulardan voz kechish, pedagogik faoliyatni amalga oshirishda qarama-qarshiliklar va muammolarni ko‘rish xususiyatlari);

g‘oyalarni yaratish (o‘qitishning yangi usullari, yangi mazmun, yangi ta’lim texnologiyalari va boshqalarni yaratish qobiliyati);

bitta muammoni hal qilishning bir necha usullarini ko‘rish;

xotiraning tayyorligi (pedagogik faoliyat natijasini oldindan bilish, assotsiativ bog‘lanish, shu asosda pedagogik muammolarni intuitiv yechish imkoniyati) [7].

Muhokama. Kreativ kompetentlik voqea, hodisa va jaryonlarni yangi, avvalgi holatlarga o‘xshamagan tarzda ko‘rish, anglash, muammo yechimlari yuzasidan yaxlit qaror qabul qilish bo‘lib, u individual yondashuv asosida rivojlanish xususiyatiga ega bo‘ladi.

Kreativ kompetentlik faktorlari sifatida quyidagilarni keltirib o‘tish mumkin:

qarama-qarshilik va analoglar o‘rtasidagi moslashuvchanlik;

ekspressiv moslashuvchanlik; ya'ni farazlarni tezda ilgari surish;

spontan moslashuvchanlik; ya'ni kreativ shaxsning obyektlarning bir guruhidan boshqa guruhiga tezlik bilan moslashuvi, ko'nikishi yoki o'tishi;

adaptatsiyali moslashuvchanlik;

audiovizual moslashuvchanlik, ya'ni yangi g'oya va fikrlarni vizual va verbal shaklda ifoda etishi, namoyon etishi, bayon etish.

Kreativ kompetentlikni aniqlashga yondashuvlar va tahlil etilgan tadqiqot ishlarida kreativlik turli shaxsiy fazilatlarning mavjudligi va kombinatsiyasi natijasida yuzaga keladigan o'ziga xos jarayon; oldingi tajribani o'zgartirishga yo'naltirilgan umumiy malakalar; kognitiv va shaxsiy sifatlarni birlashtiruvchi shaxsning ajralmas sifatlari deb tushunish lozim.

"Kreativ kompetentlik" tushunchasi fanga R.Epshteyn tomonidan kiritilgan bo'lib, u tushunchaning mazmunini egallangan bilim va ko'nikmalarni turli nostandart vaziyatlarga moslashtirib qo'llashga tayyorlik sifatida tavsiflaydi [8].

O.G.Zaxarova pedagogning kreativ kompetentligi tarkibida quyidagi qismlarni ajratib ko'rsatadi: o'qituvchi shaxsining fazilatlari (innovatsion fikrlash uslubi, muayyan vaziyatga qarab o'quv jarayonini loyihalashga kreativ yondashuv, o'rganish, o'zlashtirish istagining mavjudligi, yangi usullar va texnologiyalar); bilimlar majmuasi (kreativlikning zamonaviy nazariyalari va uni rivojlantirishga yondashuvlar) va ko'nikmasi (kreativlikni rivojlantirish usullaridan foydalanish) [102].

"Kreativ kompetensiyani pedagogning kasbiy faoliyatidagi asosiy kompetensiya sifatida ko'rib chiqish va uni pedagogning kasbiy kompetensiyasi bilan murakkab dialektik aloqada bo'lgan neoplazma sifatida tushunish lozim", – deb izohlaydi A.V.Moroz [8]. Muallif pedagogning kreativ kompetensiyasini kasbiy pedagogik faoliyatning turli bosqichlarida erishgan ijodiy yutuqlarini aks ettiruvchi, kreativ qobiliyatlarni amalga oshirish orqali yangi kasbiy mahsulot va yuqori samarador natijalarni yaratish qobiliyati sifatida talqin etadi.


I.S.Bekeshova bo'lajak matematika o'qituvchisining kreativ kompetentligini *motivatsion, kognitiv, faoliyatli, refleksiv* kabi tarkibiy qismlarga ajratib tahlil qiladi va bo'lajak bakalavr o'qituvchilarning matematik tayyorgarligi jarayonida kreativ kompetentlikni shakllantirishga yordam beradigan matematik vazifalar to'plamini yaratish asosida shakllantirish metodikalarini tasniflaydi [5].

O.Soloveva va T. V. Xalilova bo'lajak o'qituvchilarning kreativ kompetentligi tarkibiga *bilim, ko'nikma, qobiliyatlar tizimi, kreativlik uchun zarur bo'lgan shaxsiy fazilatlar va mutaxassislik yo'nalishidagi ijodkorlikni* kiritishni taklif etadi [189].

I.A.Zimnaya o'z tadqiqotlarida kasbiy-pedagogik kompetentlikning har qanday turi beshta asosiy komponentdan tashkil topishini aniqlaydi. Bular: *motivatsion; kognitiv; ijtimoiy; aksiologik; emotsional* [10].

Biz o'z tadqiqotimizda ijtimoiy-gumanitar yo'nalish pedagog kadrlar kreativ kompetentligi komponetlari, tuzilmasi, xususiyatlari, uni rivojlantirishning shart-sharoitlari va bosqichlarini asoslab berishda tahlil etilgan tadqiqotlar xulosalariga va ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitishning o'ziga xos xususiyatlari, pedagoglarga qo'yiladigan umumiy talablar va malaka talablari, kasbiy kompetensiyalar mazmunidan kelib chiqib yondashdik.

Empirik tahlillarga tayanib, oliy ta'lim muassasalarida faoliyat olib borayotgan ijtimoiy-gumanitar yo'nalish pedagoglari kreativ kompetentligining tarkibiy tuzilmasini quyidagi chizma orqali ifodalashni lozim topdik (1-rasm):



1-rasm. Ijtimoiy-gumanitar yo‘nalish pedagogi kreativ kompetentligining tuzilmasi

Natijalar. Ijtimoiy-gumanitar yo‘nalish pedagogining kreativ kompetentligi kasbiy faoliyatda maqsadga intiluvchanlik, qat’iyatlilik, yangiliklarga ochiqlik, tirishqoqlik, mustaqillik, moslashuvchanlik, kasb yuzasidan qiziqish, kuzatuvchanlik, ijtimoiy faollik, jamiyatda kechayotgan ijtimoiy jarayonlarda faol ishtirok etish, kreativ g‘oyalar va tashabbuslarni ilgari surish, ularni amalga oshirishda shaxsiy namuna ko‘rsatish, ijodiy yondashish, nostandart vazifalarni (muammolarni) hal etish layoqatini aks ettiradi.

Bizning fikrimizcha, pedagogning kreativ kompetentligi kasbiy-pedagogik kompetensiyalar integratsiya natijasi sifatida yuzaga keladi va bilim, ko‘nikma, qobiliyat, shaxsiy fazilatlar tizimi, mahorat, kasbiy faoliyat tajribasini o‘zida jamlaydi va o‘qituvchining fikrlash tarzi, tafakkuri, pedagogik, kommunikativ, tashkiliy faoliyati jarayonida namoyon bo‘ladi.

Ijtimoiy-gumanitar yo‘nalish pedagogi kreativ kompetentligining *“motivatsion”* komponenti pedagogning kasbiy faoliyatda shaxsiy namoyon bo‘lishga tayyorligi, ichki va tashqi motivatsiya darajasi, vositali motivatsiyaning mavjudligi, o‘z-o‘zini anglash, o‘zini anglash zarurati, kasbiy va ijodiy faoliyat orqali o‘z-o‘zini rivojlantirish shaxsning qiziqish va intilishlari darajasi, o‘z mahorati va tajribasini oshirish uchun aniq maqsad qo‘yishni ifodalaydi (1-jadval).

Kreativ kompetentlikning *“kognitiv”* komponenti amaliy faoliyatni tashkil etish, mustaqil ravishda kasbiy o‘sish uchun kasbiy malakasini oshirib borish, uni rejalashtirish va nazorat qilish, kasbiy-pedagogik faoliyatni tashkil etishga tayyorlanish, pedagogik va kasbiy faoliyat harakatlarini amalga oshirish uchun vositalar, usullar, dasturlarni bilish, kasbiy vazifalar, standart va nostandart vaziyatlarda bilim, ko‘nikmalarni amalda qo‘llash tajribasi, **ma’lumotlarni olish, saqlash, qayta ishlashning asosiy usullari va vositalaridan foydalanish, umumlashtirish, tahlil qilish, idrok qilish, axborotni boshqarish vositasi sifatida kompyuter bilan ishlashga tayyorlik, ta’limning zamonaviy modeli, ijtimoiy va kasbiy muammolarni hal qilishda gumanitar, ijtimoiy va iqtisodiy bilimlardan amaliy foydalanishni bilish**ni anglatadi.

1-jadval

Ijtimoiy-gumanitar yo‘nalish pedagogi kreativ kompetentligining komponentlari

Kreativ kompetentlik komponentlari	Faoliyat, harakatlar mazmuni
Motivatsion	O‘z-o‘zini anglash, o‘zini anglash zarurati, kasbiy va ijodiy faoliyat orqali o‘z-o‘zini rivojlantirish
	Ichki motivatsiya, tashqi motivatsiya
	Vositali motivatsiya
Kognitiv	Mutaxassislikka oid bilim va ko‘nikmalar
	o‘qitish jarayonini tashkil etish va boshqarish
	umumkasbiy bilim, ko‘nikmalar
	kommunikativ va tashkiliy ko‘nikmalar
Ijtimoiy	ijtimoiy mas’uliyat, ijtimoiy faollik
	Ijtimoiy-gumanitar intizom
	Ijtimoiy-gumanitar tafakkur
	ma’naviy -axloqiy, siyosiy
Aksiologik	kasbiy faoliyat natijasining shaxsiy ahamiyati
	kasbiy va shaxsiy rivojlanishning qadriyatlar sohasi
	qadriyatlar ijtimoiy-kreativ stimul manbasi
Emotsional	hissiy-emotsionallik
	o‘z-o‘zini anglash darajasi
	o‘qitish va ta’lim jarayonining emotsionalligi
Introspektsiya	O‘z-o‘zini nazorat qilish **va rivojlantirish**
	O‘z faoliyatini tahlil qilish, kuzatish va baholash
	mustaqil ravishda kasbiy rivojlanish faoliyatini tashkil etishga tayyorlik

Kreativ kompetentlikning *“ijtimoiy”* komponenti shaxsning xulq-atvor xususiyatlari, xulq-atvor qoidalari va normalarini amalga oshirilishi, ijtimoiy-gumanitar tafakkur, ijtimoiy mas’uliyat, ijtimoiy intizomni rivojlanganlik darajasi, ijtimoiy kommunikativlik va ijtimoiy faollik asosida o‘zaro munosabatlar va hamkorlik jarayonlarida faol bo‘lish, kasbiy faoliyatda o‘zaro muloqotga kirisha olish; ijtimoiy muhit, ijtimoiy tashkilotlar bilan muloqot o‘rnatish malakalariga egalik; kasbiy faoliyatda kasbiy va ijodiy hamkorlik; davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlarini bilish, tushunish; huquqiy savodxonlik; ijtimoiy pedagogik muammolarni tahlil qilish; jamoada ishlashga tayyorlikni o‘z ichiga oladi va professional muloqotda o‘zini tutish uslublarini o‘zlashtirishni ko‘zda tutadi.

Kreativ kompetentlikning *“aksiologik”* komponenti kasbiy faoliyat jarayoni, mazmuni va natijasining shaxsiy ahamiyatini, kasbiy va shaxsiy rivojlanishning qadriyatlar sohasini, qadriyatlarning ijtimoiy-kreativ stimul sifatidagi roli, professional intellekt, ijodkorlikni amalga oshirish, kasbiy faoliyatda ijodiy ta’lim muhitini tashkil qilishni anglatadi.

Kreativ kompetentlikning *“emotsional”* komponenti kasbiy faoliyatda o‘z-o‘zini namoyon etish, faoliyat natijasini hissiy-ixtiyoriy tartibga solish, faoliyat natijasidan qoniqish hosil qilish, kasbiy faoliyatni yuqori darajada tashkil etishga intilish, tafakkur madaniyatiga egalik, maqsad qo‘yish va unga erishish yo‘llarini tanlash, o‘qitish jarayonini tashkil etish va boshqarish; talabaning bilish faoliyatini boshqarish; jamoada sog‘lom psixologik muhit va samimiy, o‘zaro yordam va qo‘llab-quvvatlashga asoslangan shaxslararo munosabatlarni qaror toptirishni rivojlanishini asoslaydi.

Kreativ kompetentlikning *“introspeksiya”* komponenti introspektivlikni – insonning ichki xususiyatlarini rivojlantirish, o‘zini o‘zi nazorat qilish, kuzatish va faoliyatni tahlil qilish, **baholash; shaxsiy imkoniyatlarni aniqlash; kasbiy-pedagogik vazifalarni to‘g‘ri hal qilish; kasbiy faoliyatda ichki imkoniyatlarni ro‘yobga chiqarish; faoliyatga tanqidiy va ijodiy yondashish;**

kasbiy-pedagogik vaziyatlarni to‘g‘ri tahlil qilishni anglatadi.

Ijtimoiy-gumanitar yo‘nalish pedagoglarining kreativ kompetentligi markazda talaba bo‘lgan pedagogik jarayon sifatida taqdim etiladi. Shu bilan birga, pedagogik kreativlik ilmiy-nazariy va pedagogik bilimlar asosida faoliyatning o‘ziga xosligini muntazam ravishda qayta ko‘rib chiqish, ijod qilish kabi ko‘rsatkichlar bilan tavsiflanadigan pedagogning transformatsion faoliyatidir. Bu faoliyat mustaqil ijodiy pozitsiyani rivojlantirishga hissa qo‘shadigan pedagogik voqelikda kasbiy vazifalarni hal qilishning noyob va samarali usullarini o‘z ichiga oladi.

Ma’lumki, kasbiy pedagogik faoliyat murakkab va ko‘pqirrali jarayon hisoblanadi. O‘quv jarayonini tashkil etish va boshqarish o‘qituvchidan ijodkorlik, kreativlikni talab etadi. Bizning fikrimizcha, intellektuallik, ichki va tashqi motivatsiya, atrof-muhit, kasbiy faoliyat doirasi pedagog kreativ kompetentligining rivojlanishida asosiy rol o‘ynaydi.

Ta’lim jarayonida pedagogning kreativ kompetensiyalari shakllanganligi ta’lim oluvchilarning o‘qishga qiziqishlarini orttiruvchi kreativ savollarni tuzish, turli rasm, tasvir, jadval, diagramma, ramziy ifodalardan foydalanish, bayon etilayotgan o‘quv axborotlari bilan mutlaqo aloqasi bo‘lmagan g‘oyalar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni topishga yo‘naltirilgan topshiriqlar tizimini ishlab chiqish, dars jarayonini ta’lim oluvchilarda kreativ fikrlashni rivojlantirishga yo‘naltirilgan tarzda rejalashtirish va tashkil etish, tayyor bilim berishga yo‘naltirilgan o‘quv materiallarini muammoli ta’lim uchun moslashtirish, muammoli vaziyatlar yaratish va muammoli savollarni tuzish, kichik guruhlarda ishlashni ta’minlash kabi harakatlarida aks etadi.

Biz tahlil etilgan ilmiy tadqiqot ishlariga tayanib, kreativ kompetentlikni rivojlantirish uchun ijtimoiy-gumanitar yo‘nalish pedagoglari o‘zida:

1) mantiqiy (oqilona, umumlashtiruvchi, inson ongiga tayanish);

2) lateral (nostandart);

3) evristik (noaniq, muammoli vaziyatlarni hal qilishga imkon beradigan, to‘satdan tushunish bilan belgilanadigan fikrlar);

4) konvergent (mantiqiy, ketma-ket, bir tomonlama) va divergent (bir vaqtning o‘zida turli yo‘nalishlarda yondashuv, muammoni hal qilishning turli usullari);

5) axborot (ma’lumot tafakkurning asosidir)li fikrlash usullarini rivojlantirishi lozim.

Kreativ kompetentlik uchun intellektual fikrlashning quyidagi xususiyatlari mavjud bo‘lishi kerak:

1) muammolarga yangicha yondashuv va odatdagi fikrlash tarzidan qochish uchun fikrlashning sintetik xususiyati;

2) g‘oyalar samaradorligini baholashda fikrlashning analitik xususiyati;

3) fikrlar va g‘oyaning qadr-qimmatiga boshqalarni ishontirishning amaliy-kontekstli xususiyati.

Kreativ kompetentlik mavjud tajribani qayta tahlil etish, bilim, ko‘nikma va malakalarni, mahsulotlarning yangi kombinatsiyalarini shakllantirishga yo‘naltirish asosida ilgari mavjud bo‘lmagan yangi mahsulotni ishlab chiqarishga qaratilgan faoliyat sifatida tushunish lozim.

Xulosa. Bizning tahlillarimizga ko‘ra, ijtimoiy-gumanitar yo‘nalish pedagoglarining kreativ kompetensiyasini an’anaviy yoki qabul qilingan fikrlash shakllaridan chetga chiqadigan, tubdan yangi g‘ayrioddiy g‘oyalarni yaratishga tayyorlik bilan tavsiflanadigan, pedagogik muammolarga nostandart yechimlarni ta’minlaydigan ko‘nikma, malakalar sifatida tushunish lozim. Kasbiy faoliyat jarayonida yuzaga keladigan muammolarni hal qilish, individual-differensial yondashuvni amalga oshirish uchun zarur bo‘ladigan diagnostika, maqsadni aniq belgilash qobiliyatlari va turli pedagogik texnologiyalarni o‘quv vaziyatiga mos o‘zgartirib qo‘llash malakasiga ega bo‘lishdir.

Kreativ kompetensiya pedagog faoliyatining turli bosqichlarida uning ijodiy yutuqlarini aks

ettiradi va yangi kasbiy mahsulotlar hamda yuqori natijalarga erishishini ta'minlaydi.

Kreativ kompetentlik rivojlantiriladigan mahorat va boshqariladigan jarayon bo'lib, kasbiy bilim asoslarini chuqur bilish, intizomga o'rganish va ijodiy fikrlash mahoratidan boshlanadi. Pedagogning kreativ kompetentligi hayot davomida o'rganilgan bilimlar, ko'nikmalar, malakalar, aqliy harakatlar va strategiyalarning ma'lum bir to'plami sifatida tavsiflanadi. Pedagogning kreativ kompetentligi muammosini tahlil qilish quyidagi xulosalarga kelishga imkon beradi:

- pedagogning kreativ kompetentligi ta'lim-tarbiya sifatini va samaradorligini ta'minlashda, zamonaviy taraqqiyotning ta'lim tizimi oldiga qo'ygan muhim vazifalarini hal qilishda muhim rol o'ynaydi;

- pedagog o'z-o'zini tarbiyalashi, o'z-o'zini rivojlantirishi asosida kreativ qobiliyatlar rivojlanadi;

- ijodiy rivojlanayotgan ta'lim makonini yaratish pedagogning kreativ kompetentligini rivojlantirish konsepsiyasining asosiy g'oyasi hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son Farmoni bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi".
2. Вишнякова Н.В. Психологические основы развития креативности в профессиональной акмеологии: Дис. д-ра психол. наук. – М., 1996. – 295 с.
3. Gordon W.I. Synectics: the development of creative imagination. – New-York, Harper and Row, 2001. – 180 pg.
4. Гершунский Б.С. Философия образования для XXI века. – М.: Просвещение, 1998. – 608 с.
5. Гилфорд Дж. Структурная модел интеллекта. Психология мышления. – М.: Прогресс, 1995. – 244 с.
6. Drapeau Patti. Sparking student creativity (practical ways to promote innovative thinking and problem soving). – Alexandria – Virginia, USA: ASCD, 2014. – 144 p.
7. Джуринский А.Н. Развитие образования в современном мире: Учебное пособие. – М.: ВЛАДОС, 1999. – 200 с.
8. Epstein R. Generativity theory and creativity. In M. A. Runco & R.S.Albert (Eds.), Theories of creativity. Newbury Park, CA: Sage Publications; Cresskill, NJ: Hampton Press, 2005. – P. 116-140.
9. Jumaniyozova M.T. Malaka oshirish jarayonida o'qituvchilarni innovatsion faoliyatga tayyorlashning pedagogik asoslari (tarix fani o'qituvchilari misolida): Ped. fanl. nomz. … Dis. – T.: O'zPFITI, 2007. – 138 b.
10. Tajiyevna, Jumaniyozova Mukhayo. "Impact of creative thinking on teacher professional development." *International Journal of Pedagogics* 4.06 (2024): 76-80.
11. Karimova, K., Mokhichekhra Boltayeva, and Muhayyo Jumaniyozova. "Acceleration of the vehicle's technique for collecting environmental particulates caused by tyre and brake wear." *E3S Web of Conferences*. Vol. 538. EDP Sciences, 2024.
12. Жуманиёзова, М. «Инновацион фаолият–таълим сифатининг кафолатидир.» *ж. Узлуксиз таълим* 6-Б (2004): 89-91.
13. Жуманиёзова, М. «Илғор педагогик технологиялар ва уларни амалда қўллаш" маъруза матнлари.» (2010).
14. Закирова Ф.М. Теоретические и практические основы методической подготовки

будущих преподавателей информатики в педагогических вузах. // дисс.док. пед.наук. – Ташкент, 2008. – 312 с.

15. Загвязинский В.И. Исследовательская деятельность педагога: Учебное пособие для студентов вузов. – М.: Академия, 2010. – 176 с.

16. Зимняя И. А. Ключевые компетенции – новая парадигма результата образования // Высшее образование сегодня. – М., 2003. – № 5. – С. 35-41.

17. Ильин Е.П. Психология творчества, креативности, одаренности. – СПб.: Питер, 2009. – 434 с.

18. Кан-Калик В.А., Никандров Н.Д. Педагогическое творчество. – Москва: Педагогика, 1990. – 144 с.

19. Креативность как ключевая компетентность педагога: Монография / Под ред. М.М.Кашапова, Т.Г.Киселевой, Т.В.Огородовой. – Ярославль: «Индиго», 2013. – 392 с.

20. Кузмина Н.В. Профессионализм личности преподавателя и мастера производственного обучения. – М.: Высшая школа, 1990. с. 119.

ФАКТОРЫ ФОРМИРОВАНИЯ КАЧЕСТВЕННЫХ ЯЗЫКОВЫХ НАВЫКОВ И РАЗВИТИЯ РЕЧЕВЫХ УМЕНИЙ ПРИ ОБУЧЕНИИ ИНОСТРАННОМУ ЯЗЫКУ

Самандаров М. И.
и.о. доцента кафедры узбекского и русского языка литературы Ургенчского государственного педагогического института, mahmud7@mail.ru

Аннотация. Статья посвящена ключевым факторам, способствующим успешному овладению иностранным языком. Рассматриваются важность мотивации, методы погружения в языковую среду, необходимость регулярной практики и комплексного подхода к обучению. Особое внимание уделено индивидуальным особенностям учащихся и роли преподавателя в образовательном процессе. В статье также представлены эффективные методы развития речевых умений, включая использование современных технологий и интерактивных методов. Автор подчеркивает, что систематическое применение этих факторов способствует достижению высокого уровня владения языком.

Ключевые слова: Обучение иностранным языкам, мотивация, погружение в языковую среду, регулярная практика, индивидуальные особенности учащихся, преподавание, речевые умения, современные технологии, интерактивные методы, развитие языковых навыков.

SIFATLI TIL MALAKALARINI SHAKLLANTIRISH OMILLARI VA CHET TILINI O‘RGATISHDA NUTQIY KO‘NIKMALARNI RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya. Maqola chet tilini muvaffaqiyatli o‘zlashtirishga yordam beradigan asosiy omillarga bag’ishlangan. Motivatsiyaning ahamiyati, til muhitiga singdirish usullari, muntazam mashq qilish va o‘rganishga kompleks yondashuv zarurligi muhokama qilinadi. Talabalarning individual xususiyatlariga va o‘qituvchining o‘quv jarayonidagi roliga alohida e’tibor beriladi. Maqolada, shuningdek, nutq ko‘nikmalarini rivojlantirishning samarali usullari, jumladan, zamonaviy texnologiyalar va interfaol usullardan foydalanish ko‘rsatilgan. Muallif ushbu omillarni tizimli qo‘llash til bilimining yuqori darajasiga erishishga xizmat qilishini ta’kidlaydi.

Kalit so‘zlar: Chet tillarini o‘rgatish, motivatsiya, til muhitiga singdirish, muntazam mashq qilish, o‘quvchilarning individual xususiyatlari, o‘qitish, nutqiy ko‘nikmalar, zamonaviy texnologiyalar, interfaol usullar, til ko‘nikmalarini rivojlantirish.

FACTORS OF FORMATION OF HIGH-QUALITY LANGUAGE SKILLS AND DEVELOPMENT OF SPEECH ABILITIES IN TEACHING A FOREIGN LANGUAGE

Abstract. The article is devoted to the key factors that contribute to the successful acquisition of a foreign language. The importance of motivation, methods of immersion in the language environment, the need for regular practice and an integrated approach to learning are considered. Particular attention is paid to the individual characteristics of students and the role of the teacher in the educational process. The article also presents effective methods for developing speech skills, including the use of modern technologies and interactive methods. The author emphasizes that the systematic use of these factors contributes to achieving a high level of language proficiency.

Key words: Teaching foreign languages, motivation, immersion in the language environment, regular practice, individual characteristics of students, teaching, speech skills, modern technologies, interactive methods, development of language skills.

Введение. Обучение иностранному языку представляет собой сложный процесс, включающий множество факторов, влияющих на формирование качественных языковых навыков и развитие речевых умений. В современном мире знание иностранных языков открывает новые возможности в образовании, карьере и межкультурном общении. Для эффективного овладения языком необходимо учитывать различные аспекты обучения, включая мотивацию, методы преподавания, индивидуальные особенности учащихся и использование технологий. В данной статье рассмотрим ключевые факторы, способствующие успешному овладению иностранным языком.

Обзор литературы. Вопросы изучения иностранных языков рассматривались в работах отечественных и зарубежных исследователей. Леонтьев (1997) и Зимняя (2001) подчеркивают значимость психолингвистических аспектов обучения, отмечая роль мотивации и когнитивных стратегий. Пассов (1991) акцентирует внимание на коммуникативном методе, который предполагает активное использование языка в различных ситуациях.

В зарубежных исследованиях Ellis (2008) и Krashen (1982) рассматривают гипотезу усвоения второго языка и значимость языкового погружения. Lightbown и Spada (2013) анализируют влияние формального и неформального обучения, а Brown (2007) описывает психологические аспекты изучения языков. Richards и Rodgers (2014) предлагают классификацию различных подходов и методов преподавания, тогда как Larsen-Freeman (2011) фокусируется на сочетании традиционных и инновационных методик.

Современные исследования показывают, что использование технологий (онлайн-курсы, мобильные приложения, искусственный интеллект) значительно повышает эффективность изучения языков, позволяя адаптировать обучение под индивидуальные потребности учащегося.

Методология. Исследование основано на анализе существующих научных трудов, а также на данных, полученных в ходе анкетирования студентов языковых курсов (N = 150) и преподавателей иностранных языков (N = 50). Анкетирование проводилось с целью выявления наиболее эффективных стратегий изучения языков. Оценивались такие параметры, как уровень мотивации, частота языковой практики, использование технологий и уровень владения языком.

Результаты. Результаты исследования показали, что:

75% респондентов считают мотивацию ключевым фактором успешного изучения языка.

60% отмечают, что регулярная языковая практика (не менее 30 минут в день) значительно улучшает результаты.

80% студентов, использующих языковые мобильные приложения и онлайн-ресурсы, демонстрируют более высокие показатели владения языком.

Полное языковое погружение (например, обучение за границей) оказывает наибольшее влияние на развитие разговорных навыков.

Обсуждение. Полученные данные подтверждают гипотезу о том, что комплексный подход является наиболее эффективным. Высокая мотивация и целенаправленность обучения позволяют добиться значительных успехов. Практическое применение языка в реальной жизни, например через языковые клубы и разговорные практики, способствует развитию естественной речи. Использование технологий и онлайн-ресурсов облегчает процесс обучения, делая его более доступным и персонализированным.

В сравнении с предыдущими исследованиями (Ellis, 2008; Krashen, 1982), результаты

подтверждают значимость языкового погружения и активного использования языка в естественных условиях. Важно отметить, что индивидуальные особенности учащихся также играют значительную роль, поэтому адаптивные методики оказываются наиболее продуктивными.

Одним из важнейших факторов является мотивация учащегося. Внутренняя мотивация, связанная с личным интересом к языку и культуре, значительно повышает эффективность обучения. Например, увлечение литературой, кино или музыкой на иностранном языке способствует более глубокому погружению в языковую среду. Внешняя мотивация, например академические или профессиональные цели, также играет важную роль, так как наличие четкой цели повышает стремление к результату.

Стимулирование мотивации возможно с помощью различных методов: постановки достижимых целей, использования игровых элементов в обучении, а также поощрения за успехи. Например, ведение языкового дневника или участие в международных программах может стать дополнительным источником вдохновения для учащегося.

Частое взаимодействие с языком в естественных условиях способствует лучшему запоминанию и автоматизации языковых навыков. Погружение можно осуществить различными способами:

просмотр фильмов и сериалов на изучаемом языке без субтитров;

чтение книг и статей, соответствующих уровню владения языком;

общение с носителями языка через языковые обмены и онлайн-платформы.

Путешествия в страну изучаемого языка, которые позволяют практиковать навыки в реальной жизни.

Метод полного погружения, широко используемый в билингвальных школах и языковых лагерях, доказал свою эффективность, так как заставляет учащегося постоянно использовать язык в различных контекстах.

Регулярная практика и системность обучения.

Языковые навыки требуют постоянного применения. Регулярные упражнения, такие как разговорная практика, письменные задания, аудирование и чтение, укрепляют знания и улучшают владение языком. Оптимальный баланс между различными видами деятельности позволяет достичь гармоничного развития всех языковых компетенций.

Методы практики включают:

ведение дневника на изучаемом языке;

использование языковых мобильных приложений для ежедневных упражнений;

прослушивание подкастов и песен с последующим анализом текста;

участие в дискуссиях и дебатах, что помогает развивать уверенность в говорении.

Комплексный подход к обучению.

Эффективное обучение должно включать развитие всех аспектов языка: грамматики, лексики, фонетики и прагматики. Использование коммуникативных методов, интерактивных технологий и мультимедийных ресурсов способствует лучшему усвоению материала.

Комбинированное обучение, включающее традиционные и современные методы, показывает наилучшие результаты. Например, сочетание учебников, онлайн-курсов, языковых подкастов и разговорных практик делает процесс более интересным и продуктивным.

5. Индивидуальные особенности учащегося

Каждый человек обладает уникальными когнитивными способностями, стилем обучения и темпом усвоения информации. Учебные методики должны учитывать эти

различия и адаптироваться под потребности учащегося. Например, аудиалы лучше воспринимают информацию через подкасты и аудиокниги, визуалы – через инфографику и видеоматериалы, а кинестетики – через ролевые игры и практические занятия.

Опытный педагог не только передает знания, но и мотивирует, корректирует ошибки и создает благоприятную атмосферу для обучения. Использование современных методик преподавания, интерактивных занятий и игровой формы обучения делает процесс более интересным и эффективным.

Ключевые аспекты хорошего преподавания включают:
применение интерактивных методов, таких как ролевые игры и дебаты;
индивидуальный подход к каждому ученику;
использование современных образовательных технологий, например, виртуальных классов и онлайн-платформ.

Для успешного общения на иностранном языке необходимо развивать навыки говорения, аудирования, чтения и письма. Разговорные клубы, дебаты, участие в языковых мероприятиях способствуют свободному владению языком. Также важно учитывать культурные особенности языка, так как контекст общения играет значительную роль.

Некоторые методы развития речевых умений:
практика с носителями языка;
чтение вслух и работа над произношением;
запись собственных речей для анализа ошибок.

Заключение. Формирование качественных языковых навыков требует системного подхода, регулярной практики и высокой мотивации. Современные технологии, коммуникативные методики и индивидуальный подход значительно облегчают процесс обучения и способствуют его эффективности. Главное – не бояться ошибок и активно использовать язык в повседневной жизни. Благодаря комплексному подходу, можно достичь высоких результатов и уверенного владения иностранным языком.

ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА

1. Леонтьев А. А. (1997). Основы психолингвистики. Москва: Изд-во «Смысл».
2. Зимняя И. А. (2001). Психология обучения иностранным языкам. Москва: Изд-во «Наука».
3. Пассов Е. И. (1991). Коммуникативный метод обучения иностранным языкам. Москва: Просвещение.
4. Верещагин Е. М., Костомаров В. Г. (1990). Язык и культура. Москва: Изд-во «Русский язык».
5. Ellis, R. (2008). The Study of Second Language Acquisition. Oxford University Press.
6. Krashen, S. (1982). Principles and Practice in Second Language Acquisition. Pergamon Press.
7. Lightbown, P. M., & Spada, N. (2013). How Languages are Learned. Oxford University Press.
8. Brown, H. D. (2007). Principles of Language Learning and Teaching. Pearson Education.
9. Richards, J. C., & Rodgers, T. S. (2014). Approaches and Methods in Language Teaching. Cambridge University Press.
10. Larsen-Freeman, D. (2011). Techniques and Principles in Language Teaching. Oxford University Press.

MULTIFILMLARNING BOLALAR TARBIYASIGA IJOBIY VA SALBIY TA'SIRI

Karimov Zafarbek Ataboyevich
Urganch davlat pedagogika instituti Milliy g'oya va falsafa kafedrasi mudiri f.f.f.d.(PhD)

Annotatsiya. Ushbu maqolada bolalar tarbiyasida multfilmlarning ijobiy va salbiy ta'siri tahlil qilinadi. Multfilmlarning salbiy jihatlari misollar bilan ko'rsatilib, ota-onalarga farzandlari ularning ta'siriga tushib qolmasligi uchun tavsiyalar berilgan. Bunda tashqari multfilmlardan kichik yoshdagi bolalarni tarbiyalashda samarali vosita sifatida ta'limiy va tarbiyaviy maqsadlarga erishish mumkinligi, buning uchun multifilmlarning tanlovi va foydalanish me'yorlariga amal qilish muhim ahamiyatga egaligi yoritilgan.

Kalit so'zlar: shaxs, Jismoniy rivojlanish, Ruhiy rivojlanishda, ijtimoiy rivojlanishi, tevarak-atrof, ijtimoiy-tarixiy, qiziqishi, qobiliyati, aql.

ПОЛОЖИТЕЛЬНОЕ И ОТРИЦАТЕЛЬНОЕ ВЛИЯНИЕ МУЛЬТФИЛЬМОВ НА ОБРАЗОВАНИЕ ДЕТЕЙ

Аннотация. В этой статье анализируется положительное и отрицательное влияние мультфильмов на воспитание детей. На примерах проиллюстрированы негативные стороны мультфильмов и даны рекомендации родителям, как не допустить попадания детей под их влияние. Кроме того, освещено, что мультфильмы могут быть эффективным инструментом в обучении и воспитании детей младшего возраста для достижения образовательных и воспитательных целей, и что для этого важно придерживаться норм отбора и использования мультфильмов.

Ключевые слова: личность, Физическое развитие, Психическое развитие, социальное развитие, окружающая среда, социально-исторический, интерес, способности, интеллект.

POSITIVE AND NEGATIVE INFLUENCE OF CARTOONS ON CHILDREN'S EDUCATION

Abstract. This article analyzes the positive and negative impact of cartoons on children's upbringing. Examples are given to illustrate the negative aspects of cartoons and recommendations are given to parents on how to prevent children from falling under their influence. In addition, it is highlighted that cartoons can be an effective tool in teaching and raising young children to achieve educational and upbringing goals, and that for this it is important to adhere to the standards of selection and use of cartoons.

Keywords: personality, Physical development, Mental development, social development, environment, socio-historical, interest, abilities, intelligence.

Kirish. Shaxs — kadrlar tayyorlash tizimining bosh subyekti hamda obyekti, ta'lim sohasidagi xizmatlarning iste'molchisi, shu bilan birga ularni amalga oshiruvchisidir. Shaxs - muayyan jamiyatning a'zosidir. Shaxsning kamol topishida va uning xulqida ijtimoiy va biologik omillarning ta'sir kuchi hamisha ham bir xil bolavermaydi. Chunki uning xulqiga, munosabatlariga vaziyat ham ta'sir etadi. Shaxsning kamolga yetishida nasl-irsiyat, ijtimoiy muhit, ta'lim-tarbiya muhim ahamiyatga ega. Shaxs qaysi jamiyatda yashasa, o'sha jamiyat hayotidagi qonun-qoidalarga asoslanib kamol topadi. Har bir odam shaxs sifatida turlicha namoyon bo'ladi. U o'zining xarakteri, qiziqishi, qobiliyati, aqliy rivojlanganlik darajasi, ehtiyoj va mehnat faoliyatiga munosabati bilan farqlana-

di. Rivojlanish kishidagi jismoniy, ruhiy va ijtimoiy jarayon bo‘lib, u barcha tug‘ma va egallangan miqdor va sifat o‘zgarishlarini o‘z ichiga oladi [1]

Shaxsning shakllanishi kishilik jamiyati tomonidan yaratilgan ijtimoiy-tarixiy tajribani o‘zlashtirish, ta’lim-tarbiya berish orqali amalga oshiriladi. Bu har xil faoliyatlarda yuzaga keladi. Bolalar egallashlari lozim bo‘lgan mazmunni tanlash, uning egallab olishiga rahbarlik qilish kattalar tomonidan ta’lim-tarbiya jarayonida amalga oshiriladi. Tarbiya va ta’limning mazmuni, vositalari, metodlari, bolaning rivojlanish jarayoni ularning yoshi bilan izohlanadi. Jumladan, kichik yoshdagi bolalar bilan ish olib borilganda ularning mustaqil hayotga butunlay moslashmaganligi hisobga olinadi.

Adabiyotlar sharhi. Olima SH.Toshova keyingi yosh guruhlarda maktabgacha yoshdagi bolaning mustaqilligi, moslashishi ancha oshib borishini ta’kidlab o‘tadi. Shunga muvofiq tarzda ta’lim-tarbiya ishlarning vazifalari, mazmuni, vositalari o‘zgaradi. Bolalarning maktabgacha yoshning oxiriga borib erishgan rivojlanish darajasi ular bilan olib boriladigan ta’lim-tarbiya ishini murakkablashtirish imkonini beradi [2].

Ijtimoiy-tarixiy tajribani o‘zlashtirish faol ish jarayonida yuz beradi. Faollik bolaga xos xususiyatdir. Tarbiya jarayonida-faollik asosida faoliyatning har xil turlari shakllanadi. Ta’lim-tarbiya orqali amalga oshiriladigan faoliyatlarni maktabgacha yoshdagi bolalar birdaniga o‘zlashtirib olmaydilar, ularni bolalar tarbiyachi rahbarligida sekin-asta egallab boradilar.

Davletshin, Kovalev, Kruteskiylar bolalar hayotining birinchi yilidanoq faoliyatning eng oddiy turlari undagi shaxsiy qobiliyatlar, xususiyatlar, tevarak-atrofga ma’lum bir munosabatning shakllanishiga asos bo‘lib xizmat qilishini tadqiq qilgaanlar. Masalan, kattalarning bolalar bilan bo‘ladigan hissiy, hissiy-predmetli munosabatlaridanoq bolada dastlabki ijtimoiy talabni vujudga keltiradi, dastlabki harakat va tasavvurlar, taassurotlar shakllana boshlaydi. Harakat usullarini egallab borish orqali bolada faollik rivojlanadi. Ammo faollikning qay darajada rivojlanib borishi irsiyatga hamda taqlidchanlik qobiliyatiga bog‘liq. Bola hayotining dastlabki yillarida kattalar bilan bo‘ladigan munosabati va narsa-buyumlar bilan bajargan harakati asosiy faoliyat turi hisoblanadi. Bola bilan muomala qilish orqali kattalar ularni asta-sekin buyumlar olamiga olib kiradilar. Mana shu yo‘l bilan bola buyumlar bilan bo‘ladigan faoliyatning o‘ziga xos tomonlarini egallab boradi. 2,5 yoshdan keyin buyumlar bilan bo‘ladigan faoliyatda bolalar ancha yuqori ko‘rsatkichlarga erishadilar va ularning o‘yin hamda tasviriy faoliyatga o‘tishlari uchun asos yaratiladi [3]. Kattalar tomonidan tashkil etilgan muomala munosabatlarida, faoliyatlarda o‘z-o‘zini anglab olishning dastlabki shakllari shakllanadi.

Mazmuni. Kichik yoshdagi bolalar uchun tarbiya jarayoni ularga asosiy axloqiy qadriyatlarni singdirish, shaxsiy rivojlanish va dunyoqarashni shakllantirish bilan bog‘liq muhim bosqichdir. Multfilmlar kichik yoshdagi bolalar tarbiyasida va rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi. Bugungi kunda multfilmlar nafaqat ko‘ngilochar vosita, balki bolalarning aqliy, ma’naviy va ijtimoiy rivojlanishiga yordam beruvchi samarali pedagogik vosita sifatida e’tirof etilmoqda. Tarbiya usullari orasida bugungi kunda turli ko‘ngilochar vositalar, jumladan, multifilmlar muhim ahamiyat kasb etmoqda. Multifilmlar nafaqat bolalarni zavqlantiradi, balki ularning bilim olish jarayoniga, tarbiyasiga salbiy va ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Ushbu maqolada kichik yoshdagi bolalarni tarbiyalashda multifilmlarning o‘rni va ularning ta’sirini tahlil qilamiz.

Farzandlarining bo‘sh vaqtlari bo‘lmasligi uchun, ba’zan esa ularning harhashalaridan qutilish maqsadida ota-onalar farzandlariga televizor, yoki internetda multfilm qo‘yib berishadi. Ayniqsa internet plotfarmasidagi multfilmlar turli xil bo‘lib bolalarni o‘ziga ipsiz bog‘lab oladi. Bu multfilmlar bolani shu darajada o‘ziga maftun qiladiki, soatlab, kunlab hech qayerga qo‘zg‘almasdan ekranni tomosha qilishi mumkin. Bu hayratning ortida nima bor? Tomosha qilish haqiqatan

ham chaqaloq uchun foydalimi? Va umuman, zamonaviy animatsiyalar qanchalik xavfsiz. Bugungi kunda animatsiya yuqori daromadli biznes bo‘lib, birinchi navbatda foyda olishga qaratilgan va ko‘pincha masalaning axloqiy tomoni faqat ushbu biznes bilan shug‘ullanadigan odamlarning vijdoniga bog‘liq.

Farzandlarimiz ekranga qaraganlarida aynan nimani o‘zlashtirayotganini tushunish uchun biz, kattalar, bu san’atni tushunishimiz kerak. Shifokorlar quyidagilarga ishonishadi: 2-3 yoshgacha, multfilmning mazmuni bola tomonidan idrok etilmaydi; 3 yilgacha vizual tizim hali ham shakllanmoqda va animatsiyalarni tomosha qilish bolaning vizual funktsiyasini shakllantirish va rivojlantirish jarayonini buzadi; 3 yoshgacha bo‘lgan bolalar multfilmlarni tomosha qilish markaziy asab tizimining ortiqcha yuklanishiga olib keladi, bu esa giperaktivlik yoki letargiyaga olib keladi; animatsion filmlarni erta ko‘rish nutq rivojlanishining kechikishiga olib keladi; bola ota-onalar bilan jonli muloqot qilish o‘rniga televizor ekranidan yetishmayotgan his-tuyg‘ularni qabul qilganda, diqqat yetishmasligi buzilishining rivojlanish xavfi ortadi. Bolalar multfilmlarni qancha vaqt tomosha qilishlari mumkin? Ajablanarlisi shundaki, bugungi kunda barcha onalar va otalar “Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti” tomonidan tavsiya etilgan me’yorlardan xabardor emaslar. Misol uchun, 0 yoshdan 3 yoshgacha bo‘lgan bolalarga teledasturlarni umuman ko‘rish taqiqlanadi; 3 yoshdan 7 yoshgacha - kuniga 30 daqiqagacha; 7 yoshdan 10 yoshgacha - kuniga 30-50 daqiqa; 11 yoshdan 18 yoshgacha - kuniga 1-3 soat [4].

Yaxshi, chiroyli xulqni targ‘ib qiluvchi multfilmlarning maqsadi bolaalrni go‘zal odobga o‘rgatadi. Undagi go‘yalar jamiyatni to‘g‘ri yashash, uning qoidalarini buzish albatta jazoga tortilishini ko‘rsatib beradi. Bolani salbiy xarakterdan yiroq bo‘lishga undaydi. Yaxshi multfilmda har doim ikkita qarama-qarshilik mavjud: yaxshilik va yomonlik. Bu ikki tushuncha aniq ajratilgan va bola tomonidan osongina tanib olinadi. Ular bosh qahramonga ma’lum ta’sir ko‘rsatadi. Bu qarama-qarshi tushunchalar misollar bilan ko‘rsatilgan: do‘stlik, o‘zaro yordam, sevgi yordami (“Eng katta do‘st”, “Leopold mushuk” multfilmlarida) va g‘azab, ochko‘zlik, hasad qanday zarar etkazishi (Treasure Island, Ochko‘zlik haqidagi ertak va boshqalar)[5].

Natija. Muayyan yoshga to‘lmagan bolalar yaxshilik va yomonlik tushunchalarini tahlil qila olmaydi va falsafiy yondashadi. Shuning uchun yaxshi va yomonni tasvirlashda aniqlik va ravshanlik zarur. Ularning aniq ajratilgan multfilmidan bola jamiyatda qabul qilingan asosiy qadriyatlar haqida tasavvurga ega bo‘ladi. Yaxshilikning yovuzlik ustidan g‘alabasi yosh tomoshabinlar uchun juda muhim, chunki ular misollar orqali yaxshilik, adolatli tamoyillarga amal qilish ular xohlagan narsaga erishishga yordam berishiga va agar siz yovuz, yomon bo‘lsangiz, sizni qoralaydi va jamiyatda qabul qilinmaydi.

Bolalar uchun mo‘ljallangan barcha zamonaviy animatsion filmlar bolada ijobiy xarakter xususiyatlarini tarbiyalashga qaratilgan emas. Ulardan ba’zilari salbiy ta’sir ko‘rsatadi: tajovuzkorlik, shafqatsizlik, zaiflarga salbiy munosabat, oqsoqollarga hurmatsizlik va boshqalar. Bunday “asarlar” ni ko‘rgandan so‘ng, bolada tajovuzkorlik, shafqatsizlik namoyon bo‘ladi. Bunday multfilmlarning murakkab bo‘lmagan syujetlari tasavvurning rivojlanishiga, mantiqiy xotiraga, tasavvurni jamlash qobiliyatiga to‘sqinlik qiladi.

Barkamol nutqning yetishmasligi chaqaloqning nutq qobiliyatini rivojlantirishga zarar etkazadi. Bu multfilmlarda mantiqiy hikoya yo‘q. Sizning o‘g‘lingiz yoki qizingiz multfilm nima haqida ekanligini ayta olmaydi (masalan, “Winx”), qahramonlar haqiqiydan yiroq ko‘rinishga ega, ular xunuk, nomutanosib ravishda tasvirlangan (masalan, “Futurama”). Bunday multfilmlarda salbiy va ijobiy qahramonlar aniq belgilanmagan. Ko‘rish davomida bola qahramonlarning qaysi biri ijobiy, qaysi biri salbiy ekanligini aniqlash qiyin. Buni tushunmasdan, bola qahramonni baholashi va unga ergashish uchun obyektni tanlashi qiyin. Salbiy qahramonlarning xatti-harakatlari jazolan-

maydi va ularning yomon xulq-atvori maqsadlarga erishishga olib keladi (masalan, "Masha va ayiq" multfilmida qahramon Mashaning injiqliklari maqsadlarga erishadi - u xohlagan narsasini oladi)[6].

Multfilmlarning ijobiy ahamiyati haqida gapiradigan bo'lsak, multfilmlar bolalarning dunyoqarashini shakllantirishda muhim vosita hisoblanadi. Ular bolalarga yaxshilik va yomonlik, do'stlik va hamkorlik kabi tushunchalarni tushuntirishda yordam beradi. Masalan, ijobiy qahramonlarning yaxshi xatti-harakatlari bolalarga hayotiy namunalar beradi.

Bolalar bu orqali odob-axloq qoidalarini o'zlashtiradi. Yaxshi tarbiyaviy multfilm qiziqarli ham bo'lishi kerak, shunda bolalar birinchi soniyalardan boshlab tasvirlarga mahliyo bo'lib, qahramonga ishonadi. U bilan birga foydali ko'nikmalarni o'zlashtirishni va yangi narsalarni o'rganishni boshlaydilar. Dunyodagi eng noodatiy o'qituvchi bilan eng quvnoq ta'limiy multserial, kulgili soqolli "Bodo Borodo" hech narsani bilmaydi, lekin u bilan hamma narsani o'rganishingiz mumkin. Sayohat o'z ichiga xalqlar geografiyasi va madaniyati asoslarini, mustaqil sayohatlarni oladi[7]. To'g'ri, uning o'zi ham har qadamda sarosimaga tushib qoladi va faqat sabr-toqatli shogirdlari yordamida kutilmagan hodisalarga to'la bilim olamiga yo'l ochadi.

Yosh bolalarga ilm-fan va barcha turdagi texnika, qurilma va asboblarning tuzilishi haqida oson va tushunarli tarzda ma'lumot beradigan multserial. Obyektiv dunyoni bilishda haqiqiy yordamchi. "Murvatchalar" bilan birgalikda farzandingiz lampochkalarni almashtirish, kir yuvish mashinasini yoqish, kompyuterni tuzatish va hokazolarni o'rganadi[8]

Xulosa. Multifilmlar kichik yoshdagi bolalarning ijodiy va aqliy rivojlanishga ta'siri ham muhim. Multfilmlar bolalarning tasavvurlarini boyitib, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantiradi. Rangbarang sahnalar, qiziqarli voqealar va musiqiy yo'nalishlar bolalarning e'tiborini jalb qilib, ularning analitik fikrlash qobiliyatini oshiradi. Shuningdek, ma'lumotga boy multfilmlar (masalan, tabiat yoki fan haqidagi) bilim olishga qiziqish uyg'otadi.

Til va nutq rivojlanishida ham, ayniqsa, multifilmlarning ahamiyati katta. Multfilmlar kichik yoshdagi bolalar uchun til o'rganish vositasi bo'lib xizmat qiladi. Ular yangi so'zlarni o'rganadi, gapirish madaniyatini tushunadi va intonatsiyani o'zlashtiradi. Ayniqsa, bolalar ona tilida yaratilgan sifatli multfilmlardan foydalanib, o'z nutqini boyitishi mumkin. Multfilmlar bolalarga:

- do'stlik va hamkorlik haqida saboqlar beradi.
- yangi madaniyatlar va til imkoniyatlarini tanishtiradi.
- emotsional intellektni oshiradi, ya'ni boshqalar tuyg'ularini tushunishni shakllantiradi.

Shunday qilib, multfilmlar bolalarining dunyoqarashini mustahkamlashda muhim o'rin tutadi. Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganish eng dolzarb masalalardan biri bo'lib kelmoqda. Bu nafaqat yoshlarni, balki maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni ham chetda qoldirgani yo'q. Chunki bugungi bog'cha yoshdagi bolalar ham ingliz tilini o'rganishga, ayniqsa, chet tillarni turli xil o'yinlar orqali o'rganishga qizishmoqda.

Chet tillarni o'yinlar orqali o'rgatish bolalarning eng sevimli mashg'ulotlaridan biri hisoblanadi, sababi bola olamni o'yin orqali kashf etadi. Agar tillar o'yin orqali o'rgatilsa, bu bolalarning til ko'nikmalarining o'zlashtirilish samardorligini yanada oshiradi. Chunki o'yin yordamida organish bolaning o'ziga bo'lgan ishonchini oshirib, atrofdagilar bilan ijtimoiy munosabatlarni shakillantirishga ham katta yordam be radi. Shu sababli tarbiyachi murabbiylar chet tillarini bolalarga turli xil o'yinlar orqali o'rgatishni yo'lga qo'yishlari kerak.

Bolalar aynan o'yin orqali bilim olib, shu bilanbirgalikda, o'z iqtidorlarini ham xuddi shu o'yinlar orqalikashf etadilar. Bunga erishish uchun esa ularning sezgi organlarini faollashtiruvchi muhit, vizual eshitish kabi faol ta'lim turlaridan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Ta'limiy o'yinlarga: chet tilida turli xil qo'shiqlar kuylash, she'rlar aytish, raqsga tushish, qiziqarli o'yinlar o'ynash, videolar ko'rish va qo'l mehnati orqali turli xil narsalarniyasashni o'z

ichiga oladi.

Salbiy ta'sirlarni kamaytirish yo'llari. Garchi multfilmlar ko'plab ijobiy jihatlarga ega bo'lsada, noto'g'ri tanlangan yoki tomosha qilingan multfilmlar bolalarga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Zo'ravonlik yoki nojo'ya mazmunli sahnalar bolalarning psixologiyasiga zarar yetkazishi ehtimoli bor. Shuning uchun ota-onalar va pedagoglar bolalar tomosha qiladigan multfilmlarni diqqat bilan tanlashlari lozim.

Quyidagi maslahatlarga amal qilish tavsiya etiladi: Yoshga mos multfilmlarni tanlash. Multfilm mazmunini oldindan tekshirish. Tomosha qilish vaqtini cheklash (masalan, kuniga 1-2 soat). Multfilmlar haqidagi fikrlarni bolalar bilan muhokama qilish.

Zamonaviy dunyoda oila institutining o'rni juda muhim. Uning o'rni yo'qolmasligi uchun ota-onalar farzandlarini ijtimoiy tarmoqlardan himoya qilishi zarur. Multfilmlar bolalarning hayotida juda muhim o'rin tutadi. Ular nafaqat bolalarning dunyoqarashini kengaytiradi, balki ularning ta'lim olish jarayonida ham yordam beradi. Ammo bu jarayonni nazorat qilish va bolalarga sifatli, tarbiyaviy ahamiyatga ega mahsulotlarni taqdim etish muhimdir.

Ota-onalar va tarbiyachilar bolalarning multfilm tanloviga jiddiy e'tibor qaratishlari, ularga o'z qiziqishlariga mos va foydali bo'lgan multfilmlarni taqdim etishlari lozim. Shu yo'l bilan biz bolalar tarbiyasida multfilmlardan samarali foydalanishimiz mumkin. Multifilmlar kichik yoshdagi bolalarni tarbiyalashda samarali vosita bo'lib, ular orqali ta'limiy va tarbiyaviy maqsadlarga erishish mumkin. Biroq, multifilmlarning tanlovi va foydalanish me'yorlariga amal qilish muhim ahamiyatga ega. Tahlillarimiz orqali quyidagi xulosa kelindi:

Multifilmlar kichik yoshdagi bolalarning qiziqishlarini uyg'otuvchi qudratli vosita bo'lib, ular orqali oson va samarali tarzda axloqiy tushunchalarni singdirish mumkin. Bolalar odatda o'zlariga yoqqan qahramonlar bilan o'zlarini tenglashtirib, ularning harakatlarini takrorlashga intiladi. Masalan: Odob-axloqni shakllantirish: Bolalar "Dora the Explorer" kabi ta'limiy multifilmlar orqali do'stlik, yordamsevarlik va halollik kabi qadriyatlarni o'rganishadi.

Rang-barang tasvirlar va qiziqarli syujetlar bolaning tasavvur dunyosini kengaytiradi;

tilni o'rganishda ko'p tilli multifilmlar, masalan, ingliz yoki rus tillaridagi seriallar foydali hisoblanadi.

Ta'limiy mazmun: Zamonaviy multifilmlar o'quv dasturlari bilan mos keluvchi ma'lumotlarni etkazishda yordam beradi. Masalan, "Sesame Street" orqali bolalar matematikani, harflarni va boshqa mavzularni qulay tarzda o'rganishadi.

Multifilmlarda xarakterlarning his-tuyg'ulari ko'rsatilishi orqali bolalar hissiyotsiz qolmasdan, empatiya va rahm-shafqatni shakllantiradi.

Biroq, noto'g'ri tanlangan yoki haddan tashqari ko'p ko'rilgan multifilmlar salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin:

haddan ziyod televizor tomosha qilish bolalarda harakatsizlik, ko'z va ruhiy charchoqni keltirib chiqaradi.

zo'ravonlikni targ'ib qiluvchi yoki bolalar uchun nojo'ya mazmunni o'z ichiga olgan multifilmlar bolalarning psixologiyasiga zarar yetkazishi mumkin.

Kichik yoshdagi bolalarga multifilm tanlashda ota-onalar va tarbiyachilar muhim rol o'ynaydi. Ular quyidagi qoidalarga rioya qilishlari zarur:

Yoshga mos multifilm tanlash: Har bir yosh guruhiga mos keluvchi kontent mavjud bo'lib, uni tanlashda bolaning rivojlanish bosqichini hisobga olish lozim.

Tomosha qilish vaqtini cheklash: Kichik yoshdagi bolalar uchun bir kunda 30-60 daqiqadan ortiq televizor tomosha qilish tavsiya etilmaydi.

Mazmunni birgalikda tahlil qilish: Ota-onalar bolalar bilan birga multifilm tomosha qilib,

unda aks etgan voqealar haqida muhokama qilishlari bolalar fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Davletshin M.G., Kovalev A.G., Kruteskiy V.A. Qobiliyat va uning diagnostikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2010

2. Toshova Shaxnoza T .-“Oilaning maktabgacha ta’lim muasasasi bilan olib boriladigan faoliyatining hamkorligini tashkil etishi”-Golden Brain -2023

3. Davletshin M.G., Kovalev A.G., Kruteskiy V.A. Qobiliyat va uning diagnostikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2010.

4. Hilolaxon Nuriddinova. “Farzandingiz ko‘rayotgan multfilmlar qanchalik foydali yoki zararli?”-Samarqand. 2024. https://www.samdu.uz/uz/news/31346

5. Hilolaxon Nuriddinova. “Farzandingiz ko‘rayotgan multfilmlar qanchalik foydali yoki zararli?” Samarqand. 2024. https://www.samdu.uz/uz/news/31346

6. Hilolaxon Nuriddinova. “Farzandingiz ko‘rayotgan multfilmlar qanchalik foydali yoki zararli?”Samarqand. 2024. https://www.samdu.uz/uz/news/31346

7. https://daryo.uz/2022/05/11/kichkintoylar-uchun-bolalarning-aqliy-salohiyatini-rivojlantiruvchi-tarbiyaviy-video-va-multfilmlar

8. https://daryo.uz/2022/05/11/kichkintoylar-uchun-bolalarning-aqliy-salohiyatini-rivojlantiruvchi-tarbiyaviy-video-va-multfilmlar

GEOMETRIYA FANIDA MOBIL ILOVALAR: SAMARADORLIK VA YANGI IMKONIYATLAR

Xasanov Jamshid Ozodovich
Urganch davlat pedagogika instituti Fizika-matematika kafedrasi v.b. dotsenti,
Rustamova Sevara Ruslan qizi
Urganch davlat pedagogika instituti magistranti, sevararuslanovna0326@gmail.com

Annotatsiya. Zamonaviy mobil ilovalar ta'lim jarayonida, ayniqsa, analitik geometriya fanida talabalar uchun yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Ushbu maqolada mobil ilovalarning ta'limdagi o'rni va ahamiyati chuqur tahlil qilinadi. Mobil texnologiyalarning afzalliklari sifatida ularning har doim va istalgan joyda foydalanish imkoniyati, murakkab geometrik tushunchalarni vizual tarzda o'rganish, hamda interaktiv va shaxsga moslashtirilgan ta'limni ta'minlashi ko'rsatib o'tiladi. Shu bilan birga, maqolada mazkur texnologiyalarning cheklovlari, jumladan, texnik qiyinchiliklar va metodik yondashuvlardagi kamchiliklar ham muhokama qilinadi. Talabalar bilim olish jarayonini takomillashtirishda mobil ilovalarning o'rni va ular orqali ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish imkoniyatlariga alohida e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: mobil ilovalar, analitik geometriya, ta'lim texnologiyalari, vizualizatsiya, interaktiv o'quv jarayoni, shaxsga moslashtirilgan ta'lim, raqamli vositalar, zamonaviy ta'lim texnologiyalari.

МОБИЛЬНЫЕ ПРИЛОЖЕНИЯ В ГЕОМЕТРИИ: ЭФФЕКТИВНОСТЬ И НОВЫЕ ВОЗМОЖНОСТИ

Аннотация. В статье рассматривается значение современных мобильных приложений в образовательном процессе, особенно в обучении аналитической геометрии. Анализируются их преимущества, такие как доступность, интерактивность и визуализация сложных понятий, а также ограничения, включая технические и методологические аспекты. Особое внимание уделено тому, как мобильные технологии улучшают процесс обучения студентов и способствуют их вовлеченности.

Ключевые слова: мобильные приложения, аналитическая геометрия, образовательные технологии, визуализация, интерактивный учебный процесс, персонализированное обучение, цифровые инструменты, современные технологии в образовании.

MOBILE APPLICATIONS IN GEOMETRY: EFFICIENCY AND NEW OPPORTUNITIES

Annotation. This article explores the role and importance of modern mobile applications in the educational process, with a particular focus on their use in teaching analytic geometry. The study highlights the numerous advantages of these applications, including improved accessibility, interactivity, and the ability to effectively visualize complex geometric concepts. Additionally, it addresses some of the challenges and limitations, such as technical constraints and methodological issues. Special emphasis is placed on how mobile technologies enhance the learning experience, increase student engagement, and contribute to the development of personalized educational approaches.

Keywords: mobile applications, analytic geometry, educational technologies, visualization, interactive learning process, personalized learning, digital tools, modern educational technologies.

Kirish. XXI asrda mobil texnologiyalar ta'lim sohasida inqilobiy o'zgarishlar kiritdi. Ayniqsa, matematikaga oid fanlarga, jumladan, analitik geometriya, ushbu texnologiyalar orqali innovatsion yondashuvlarga ega bo'ldi. Mobil texnologiyalar zamonaviy ta'lim tizimida ham keng qo'llanilmoqda. Ular o'quv jarayonini interfaol va qulay qilish bilan birga, har qanday joyda va vaqtda bilim olish imkonini beradi. Smartfonlar, planshetlar va maxsus o'quv ilovalari yordamida o'quvchilar va talabalarning mustaqil o'qish qobiliyatlari rivojlantirilmoqda. Shu bilan birga, biznes va sanoat sohalarida ham mobil texnologiyalar samaradorlikni oshirish va tezkor axborot almashinuvini ta'minlashda muhim rol o'ynamoqda.



1-rasm

Adabiyotlar sharhi. Hamroev M. muallifi bo'lgan "Mobil ilovalar yordamida matematikani o'rganishning samarali usullari" [5] deb nomlangan kitobda zamonaviy axborot texnologiyalarining ta'lim jarayoniga ta'siri va ularning matematika fanini ayniqsa analitik geometriya fanini o'qitishda qo'llanilishining samaradorligini tahlil qilgan. Muallif mobil ilovalar yordamida talabalarning mustaqil ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytirish, interaktiv mashg'ulotlar orqali matematik tushunchalarni tez va aniq o'zlashtirish usullarini ko'rsatib beradi. Kitobda mobil ilovalarning asosiy afzalliklari, masalan, vizuallashtirish, interfaol mashqlar va testlar (1-rasm) yordamida bilimlarni mustahkamlash bo'yicha metodik tavsiyalar berilgan. Shmidt O. G. "Современные подходы к обучению аналитической геометрии" [12] kitobida analitik geometriyani o'qitishda zamonaviy mobil texnologiyalardan foydalanish usullari tahlil qilinib, muallif an'anaviy ta'lim metodlarini raqamli texnologiyalar bilan boyitish orqali o'quvchilarning fan bo'yicha bilim olish samaradorligini oshirish mumkinligini ta'kidlagan. Muallif, shuningdek, o'qituvchilarga mobil texnologiyalar yordamida ta'lim berish bo'yicha metodik tavsiyalar bergan va ushbu yondashuvning afzalliklari va cheklovlarini muhokama qilib o'tgan. Kitob oliy ta'lim muassasalari o'qituvchilari, tadqiqotchilar va raqamli ta'lim texnologiyalari bilan qiziqqan mutaxassislar uchun foydali qo'llanma hisoblanadi. Mobil ilovalar talabalar uchun murakkab matematik tushunchalarni o'rganishning innovatsion usullarini taklif etadi va ta'lim jarayonining sifatini yaxshilab talabalarga fikirlash doirasini yanada kengaytirishga yordam berdi. Bu esa mobil texnologiyalarni ta'lim sohasida ajralma bir qismi ekanligini hozirgi zamon talabidan kelib chiqib aytish mumkin. Bu borada bizning mamlakatimizda ham bir qator o'zgarishlar amalga oshirilmoqda.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimini modernizatsiya qilish va xalqaro ta-

jribaga mos ravishda rivojlantirish borasida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Bunga misol tariqasida, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2019-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasida ta’lim-tarbiya tizimini rivojlantirish va ilm-fan sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi [1] PQ-4307-sonli qarori hamda 2020-2030-yillarda ta’lim-tarbiya tizimini rivojlantirish Milliy dasturida [2] ta’limning sifatini oshirish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va yoshlarning ilmiy salohiyatini yuksaltirishga alohida e’tibor qaratilganini ta’kidlab o‘tishimiz mumkin. Mazkur qarorlar asosida umumta’lim va oliy ta’lim muassasalarida zamonaviy ta’lim metodlarini qo‘llashga keng imkoniyatlar yaratilmoqda. Shu nuqtai nazardan, analitik geometriyani o‘qitishda innovatsion yondashuvlar, xususan, texnologiyalardan foydalanish, interaktiv va integratsiyalangan o‘quv usullarini joriy qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Analitik geometriyani zamonaviy vositalar orqali o‘rgatish talabalarda nafaqat fan bo‘yicha bilimlarni mustahkamlashga, balki ularning mantiqiy va tahliliy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Mobil ilovalar (1-rasm) interaktiv animatsiyalar va 3D modellardan foydalanib, analitik geometriyadagi murakkab tushunchalarni osonroq tushuntirishga yordam beradi. Talabalar ilova yordamida turli xil mashqlarni bajarishi va natijalarini darhol tekshirishi mumkin. Ilova, shuningdek, xatoliklarni tushuntirish va ularni tuzatishda yordam berishi mumkin. Ilova, o‘yin elementlari va mukofotlar tizimini qo‘llab, o‘quv jarayonini yanada qiziqarli va rag‘batlantiruvchi qilish imkonini beradi. Ushbu mobil ilovaning ko‘rinishi yangicha bo‘lib talabalarni qiziqtirish va ularning geometriya bo‘yicha bilimlarini oshirish uchun mo‘ljallangan o‘yinlar ham mavjud. Bu esa o‘z o‘rnida Analitik geometriyadagi asosiy tushunchalarni o‘rganishga yordam beradi. Talabalarga o‘z-o‘zini tekshirish imkonini beradi. An’anaviy darslik va daftarlar bilan solishtirganda, mobil ilovalar geometriyani o‘rganishni qiziqarli va interaktiv qiladi, bu esa talabalar motivatsiyasini oshiradi. Ilovalar har bir talabaning bilim darajasiga mos ravishda, turli qiyinchilikdagi topshiriqlarni taqdim etishi mumkin, bu esa ta’limning turli darajadagi auditoriyalarni qamrab olish imkonini beradi.

Mobil ilovalarning ta’limdagi afzalliklari.[1]

Vizual tasavvur. Mobil ilovalar geometrik tushunchalarni aniq tasvirlash imkoniyatini taqdim etadi, bu esa talabalar uchun abstrakt tushunchalarni tushunishni osonlashtiradi. Mobil platformalarda 3D ob’ektlar bilan ishlash, talabalar orasida tasavvurni (fa’zo, hajm) rivojlantiradi, bu esa geometriyadagi muhim ko‘nikmalardan biridir.

Qisqa va aniq natijalar. Ilovalar yordamida talabalar o‘z natijalarini tezda oladilar. Geometriya bo‘yicha ishlashning natijalarini tezkor ko‘rish imkoniyati talabalarga o‘z ishlarini tahlil qilish va xatolarini tezda tuzatishga yordam beradi. Bu usul talabalarni mustahkam bilimlarga ega bo‘lishiga yordam beradi.

Tezkor fikr-mulohaza. Ilovalar talabalariga o‘z harakatlari uchun tezkor fikr-mulohaza olish imkonini beradi, bu esa xatolarni tezda tuzatishga yordam beradi va materialni yaxshiroq o‘zlashtirishga xizmat qiladi.

Motivatsiyani oshirish. Ta’lim jarayonini qiziqarli va interaktiv qilish talabalar uchun motivatsiyani oshiradi. Mobil ilovalar orqali o‘rganish, talabalar uchun qiziqarli bo‘lib, ular turli shakllar bilan manipulyatsiya qilishni o‘rganishadi, bu esa bilimni chuqurlashtirishga yordam beradi.

Tizimli o‘rganish. Ilovalar talabalarga har bir geometriya bo‘yicha tushuncha va amaliy mashqlarni bosqichma-bosqich o‘rganishga yordam beradi. Bu esa talabalar uchun bilimlarni bosqichma-bosqich va tizimli tarzda o‘zlashtirish imkoniyatini taqdim etadi. Bunday turdagi mobil ilovalarda amaliy mashqlar ham katta ahamiyatga ega. Quyidagi jihatlar talabalarning fanni yanada chuqurrok va samarali o‘rganishga yordam beradi.

[1] Шмидт О. Г. (2017). Современные подходы к обучению аналитической геометрии с использованием мобильных технологий. Новосибирск.

Testlar va topshiriqlar. Ilovalar yordamida talabalar o‘z bilimlarini tekshirish va mustahkamlash uchun testlar va mashqlarni bajarishlari mumkin. Bu testlar ular uchun yanada osonroq va qulayroq bo‘ladi.



2-rasm Analitik geometriya fanidan mobil ilova ko‘rinishi

Onlayn yordam. Ba’zi mobil ilovalar yordamida talabalar o‘qituvchilar yoki boshqa talabalar bilan aloqada bo‘lishlari mumkin. Bu o‘z navbatida ularga o‘zlarini qiziqtirgan savollarni so‘rash va ko‘proq yordam olish imkoniyatini taqdim etadi.

Mustaqil o‘rganish. Mobil ilovalar talabalar uchun mustaqil ravishda ishlash, mavzularni o‘rganish va amaliyot o‘tkazish imkoniyatini beradi. Bu esa talabalar uchun o‘z bilimlarini mustahkamlash va chuqurlashtirish imkoniyatini yaratadi.

Mobil ilovalarning cheklovlari va kamchiliklari.

Texnik cheklovlar. Har bir mobil qurilma zamonaviy ilovalarning to‘liq funksiyalarini qo‘llab-quvvatlamasligi mumkin. Bu esa talabalar o‘rtasida texnologik imkoniyatlarning teng bo‘lmasligiga olib keladi.

Diqqatni chalg‘itish. Mobil qurilmalardagi boshqa ilovalar yoki ijtimoiy tarmoqlar talabalarning diqqatini o‘zlashtirish jarayonidan chalg‘itishi mumkin.

Nazariy bilimlarning yetishmasligi. Mobil ilovalar, odatda, amaliy mashqlarni bajarishga ko‘proq e’tibor qaratadi. Bu esa nazariy bilimlarning etarli darajada o‘zlashtirilmasligiga olib kelishi mumkin.

Geometriya faniga oid mobil ilovalar (2-rasm) talabalarning bilim olish jarayonini yanada samarali va qiziqarli tashkil etishga yordam berdi. Ular murakkab geometrik masalalarni oddiy va tushunarli shaklda anglab olishga yordam beradi, bu ko‘plab murakkab masalalarni tahlil qilishni va tushunish imkoniyatini taqdim etadi. Ammo, ushbu ilovalarni yuklab olishda ayrim texnik muammolarga duch kelishimiz mumkin, bu esa ta’lim jarayonining sifatiga o‘z ta’sirini ko‘rsatmasdan qolmaydi.

Mobil qurilmalar [8] boshqa ilovalar va e’lonlar orqali talabalarning diqqatini chalg‘itishi

mumkin, bu esa ta’lim jarayonini samarali o‘tkazishga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Mobil qurilmalar, ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlar kabi boshqa ilovalar bilan ham ishlaganda, talabalar diqqatini chalg‘itishi mumkin. Mobil ilovalar ko‘pincha amaliy mashqlar va simulyatsiyalarni o‘rgatishga qaratilgan bo‘lsa-da, ba’zi talabalarda nazariy bilimlarning etarli darajada o‘zlashtirilmasligiga olib kelishi mumkin. Geometriya faqat amaliy mashqlarni bajarishdan iborat emas, balki matematik tushunchalar, aksiyomalar, teoremalar va ularning isbotlarini ham bilishni talab qiladi.

Xulosa. Geometriya faniga oid mobil ilovalar ta’lim jarayonida yangi yondashuvlarni tatbiq etish imkonini berdi. Ular talabalar uchun murakkab tushunchalarni vizualizatsiya qilish, interaktiv usullar bilan o‘rganish va o‘zlashtirishni osonlashtirishda samarali vosita sifatida xizmat qilmoqda. Mobil ilovalar nafaqat bilim olishni qiziqarli qiladi, balki talabalarning mantiqiy va tahliliy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga ham xizmat qiladi. Shunga qaramay, ushbu texnologiyalardan foydalanishda ayrim cheklovlar va muammolar mavjud. Ba’zi mobil qurilmalar ilovalarning barcha funksiyalarini qo‘llab-quvvatlamasligi yoki ijtimoiy tarmoqlar va boshqa ilovalar orqali talabalar diqqatini chalg‘ishi kabi omillar ta’lim jarayonining samaradorligini pasaytirishi mumkin. Shu sababli, mobil ilovalarni ta’limda qo‘llashda ularni an’anaviy ta’lim usullari bilan uyg‘unlashtirish muhimdir. Bu yondashuv talabalar uchun nazariy va amaliy bilimlarning muvozanatini saqlash, ta’lim jarayonini yanada boyitish va yuqori samaradorlikka erishishga yordam beradi. Kelgusida mobil ilovalarni yanada rivojlantirish va ulardan samarali foydalanish orqali ta’lim sifatini oshirish hamda talabalarning ijodiy va tahliliy ko‘nikmalarini yuksaltirish uchun katta imkoniyatlar mavjud. Shunday qilib, mobil texnologiyalar va innovatsion ta’lim yondashuvlari ta’lim tizimining ajralmas qismiga aylanishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti (2020). “Ta’lim tizimini raqamlashtirishga oid qaror”. Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti (2018). “Zamonaviy ta’lim texnologiyalarini joriy etishga doir qaror”. Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti (2021). “Ta’limda interaktiv o‘qitish usullarini qo‘llashga oid qaror”. Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti.

4. Boboraziev F. I. (2020). Zamonaviy ta’lim texnologiyalari va ularning ta’lim jarayonidagi roli. Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi.

5. Hamroev M. (2019). Mobil ilovalar yordamida matematikani o‘rganishning samarali usullari. Toshkent: Ta’lim, bilim.

6. Niyozov Sh. (2018). Analitik geometriya fanini zamonaviy metodlar bilan o‘qitish: mobil ilovalar va interaktiv texnologiyalar. Toshkent: O‘zbekiston davlat pedagogika universiteti.

7. Rakhmonov A. (2021). Ta’limda zamonaviy raqamli vositalardan foydalanishning samaradorligi. Toshkent: O‘zbekiston yoshlar ittifoqi.

8. Murodova N. (2020). Matematika ta’limida mobil ilovalar yordamida interaktiv o‘qitish. T:

9. Иванов А. В. (2019). Аналитическая геометрия в цифровую эпоху: методы и практики. Санк-Петербург. Наука.

10. Петрова С. М. (2021). Интерактивные образовательные приложения для обучения математике. Екатеринбург. Уральский университет.

11. Совольев А. С., Беляев В. В. (2018). Использование мобильных приложений для визуализации математических объектов. Томского государственного университета.

12. Шмидт О. Г. (2017). Современные подходы к обучению аналитической геометрии с использованием мобильных технологий. Новосибирск. Научная книга.

ПОНЯТИЯ «ВЕРА», «НАДЕЖДА», «ЛЮБОВЬ» И «МУДРОСТЬ» В ГЕНДЕРНОМ АСПЕКТЕ

Бабаева Шоира Баймурадовна
д.ф.п.н. (PhD), доцент БГПИ, babayevashoira@buxdpi.uz

Аннотация. В данной статье раскрывается понятия «вера», «надежда», «любовь» и «мудрость» как важный структурный элемент сознания человека наряду с волей, знаниями, эмоциями. В статье проводится анализ различных взглядов на природу веры, надежды, любви и мудрости, место вышеуказанных понятий в гендерном аспекте, на соотношение веры, надежды, любви и мудрости. Знания об окружающем мире никогда не будут полными и исчерпывающими. Сам процесс познания основывается на вере, надежде, любви и мудрости в познаваемости мира. Автор раскрывают роль веры, надежды, любви и мудрости в процессе ценностной гендерной ориентации личности. Именно вера, надежда, любовь и мудрость придаёт человеческим поступкам смысл. Понимание природы веры, надежды, любви и мудрости позволяет более глубоко постичь сущность человека.

Ключевые слова: вера, надежда, любовь, мудрость, гендер, аспект, сущность, процесс, ценность, научное познание, человеческие поступки, эпистема, религия, семья, объективная реальность, художественная литература, лирика.

GENDER NUQTAI NAZARIDA “IYMON”, “UMID”, “MUHABBAT” VA “DONOLIK” TUSHUNCHALARI

Annotatsiya. Ishonch, umid, sevgi va donolik iroda, bilim va hissiyotlar bilan birga inson ongining muhim tarkibiy elementidir. Maqolada iymon, umid, muhabbat va hikmatning tabiati, yuqoridagi tushunchalarning gender aspektidagi o‘rni, iymon, umid, muhabbat va donolik o‘rtasidagi munosabatlarga oid turli qarashlar tahlil qilingan. Atrofimizdagi dunyo haqidagi bilimlar hech qachon to‘liq va to‘liq bo‘lmaydi. Bilim jarayonining o‘zi dunyoni bilishda imon, umid, sevgi va donolikka asoslanadi. Muallif shaxsning gender yo‘nalishini qadrlash jarayonida e’tiqod, umid, sevgi va donolikning rolini ochib beradi. Inson harakatlariga iymon, umid, sevgi va donolik mazmun baxsh etadi. Imon, umid, muhabbat va donolik mohiyatini anglash inson mohiyatini yanada teranroq anglash imkonini beradi.

Kalit iboralar: iymon, umid, ishq, hikmat, jins, jihat, mohiyat, jarayon, qadriyat, ilmiy bilim, inson xatti-harakati, epistema, din, oila, obyektiv voqelik, fantastika, lirika.

THE CONCEPTS OF “FAITH”, “HOPE”, “LOVE” AND “WISDOM” IN THE GENDER ASPECT

Annotation. In this state, the concept of “faith”, “hope”, “love” and “wisdom” is revealed as an important structural element of the human consciousness, organized with will, knowledge, and emotion. V state provoditsya analiz razlichnyx vzglyadov na priduro very, nadejdy, lyubvi i wisdometi, mesto vysheukazannyx ponyatiy v gendernom aspecte, na sootnoshenie very, nadejdy, lyubvi i wisdometi. Znaniya ob okrujayushchem mire nikogda ne budut polnymi i ischerpyvayushchimi. Sam process poznaniya osnovyvaetsya na vere, nadejde, lyubvi i wisdomi v poznavaemosti mira. The author reveals the role of love, hope, love and wisdom in the process of valuable gender orientation. Imenno vera, nadejda, lyubov i wisdomo pridayot chelovecheskim sredjam smysl. Ponimanie prirody very, nadejdy, lyubvi and wisdom pozvolyaet bolee gluboko postich sushchnost cheloveka.

Keywords: faith, hope, love, wisdom, gender, aspect, essence, process, value, scientific

knowledge, human behavior, episteme, religion, family, objective reality, fiction, lyrics.

Введение. В нашем современном сообществе, согласно стратегии развития «Узбекистан-2030» осуществляются масштабные меры по повышению политической, общественной, экономической активности женщин, охране материнства и детства, утверждению гендерного равенства, обеспечению прав и интересов женщин. внедрен механизм изучения состояния гендерного подхода во всех государственных организациях и разработка мер по обеспечению равных прав и возможностей для женщин и мужчин со стороны Федерации профсоюзов в качестве общественного контроля. Усилена ответственность за домашнее насилие. За последние 5 лет были приняты более 40 указов и постановлений Президента направленные на обеспечение гендерного равноправия. Между тем, совершенствуется законодательство для женщин, расширяются возможности. В 2023 году в Избирательном кодексе Узбекистана закрепились положения о том, что число женщин при выдвижении от политических партий в представительные органы власти должно составлять не менее 40% от общего числа выдвигаемых кандидатов в депутатов и в пропорциональной системе избрания, выдвигать не менее двух женщин из каждых пяти кандидатов в депутаты. С 2019 года в Сенате была создана Гендерная комиссия по вопросам повышения роли женщин в обществе, гендерного равенства и семьи. Вновь создан Комитет по делам женщин и семьи, учреждены более чем 9 тысячей должностей, вплоть до махаллей, специально занимающиеся вопросами женщин и семьи по всей стране и на всех уровнях, начали функционировать реабилитационные центры по оказанию помощи женщинам –жертвам насилия.

Системные меры проводимые по инициативе главы государства Президента Узбекистана Шавката Мирзиеёва в целях сокращения бедности, учреждения «женских тетрадей», сокращение безработицы среди женщин и поддержка женского предпринимательства, льготные кредиты для женщин дали свои ощутимые результаты в масштабах стран[1]. Исходя из этого, тематика гендерного равенства и освещение его в научных исследованиях, значимо в научном сообществе нашей республики.

Основная часть. Понятие веры с развитием науки не упраздняется, а только вводится в должные границы. Знание не может быть для нее угрозой. Но, с другой стороны, и вера должна отказаться от претензии на господство в той области, где должно царствовать знание. По выражению С. Булгакова, «во что можно верить, нельзя знать, оно выходит за пределы знания, а в то, что можно знать, нельзя и не должно верить. Кто верит в таблицу умножения или Пифагорову теорему? Ее знают. И кто знает Бога, включая Его в число предметов научного знания? В Него верят и познают верой. Вера же, по определению апостола Павла, есть «уверенность в невидимом как видимом, ожидаемом и уповаемом как настоящем»[2] [1].

Однако знание и вера не могут существовать параллельно, не вторгаясь в область применения друг друга. В отличие от религиозной веры, объект в которой носит иррациональный характер, научная вера, где вера утверждает существование нового за пределами опыта, способна выстраивать взаимоотношение со знанием[3] [1]. Более того, если под верой понимать принятие в качестве истинных каких-либо положений без специ-

[1] Гендерное равенство как один из принципов построения нового Узбекистана. Лола Саидова-доктор юридических наук, профессор, главный научный сотрудник ИСМИ при Президенте Республики Узбекистан.

[2] Булгаков С. Н. Свет невечерний: созерцания и умозрения. М.: Республика, 1994. 415 с.

[3] Смирнов С. А. Соотношение веры и знания: история и современность // Вестник Томского государственного университета. 2008. № 313. С. 58-61.

альных эмпирических подтверждений и рационального вывода, т. е. некую «априорную уверенность в истине», то мы обнаруживаем генетическую связь веры и знания. Указывая на эту связь, Э. А. Тайнов заявляет: «Обратившись к истокам научного познания, мы столкнёмся с удивительным фактом: источником науки, родником, из которого она берёт своё начало, является вера. Чтобы увидеть это, вспомним исходные недоказуемые гносеологические предпосылки науки, или эпистемы (от греч. - знание)»[1] [1]. Под «эпистемами» здесь понимаются метафизические предпосылки всякого научного знания. Перечислим основные эпистемы, приводимые для аргументации своей позиции Э. В. Тайновым. Они хорошо известны ученым.

Во-первых, это убеждение в том, что изучаемый наукой мир является объективной реальностью, существующей вне сознания познающего субъекта. Пусть даже при этом и допускается влияние познавательных актов субъекта на объективный мир. Как утверждал А. Эйнштейн, «вера в существование внешнего мира, независимого от воспринимающего субъекта, лежит в основе всего естествознания» [2][1].

Во-вторых, эпистема закономерности мира предполагает, что во Вселенной существует закономерный порядок, а не хаос. Эта эпистема утверждает существование объективных законов природы - универсальных, вневременных, внепространственных и неизменных. По мнению Н. Винера, «без веры, что природа подчинена законам, не может быть никакой науки»[3].

Говорить о любви непросто, так как именно это чувство является фундаментом всего. Семья построена на любви двух людей, которые выбрали друг друга, чтобы жить в радости и в печали. Без взаимной любви родителей и детей невозможна смена поколений, Любовь к Родине, природе – мерило человеческой нравственности, глубины духовности и душевности. Как мы видим, ни одна сфера человеческой жизни не может обойтись без этого светлого, возвышающего чувства. Благодаря любви человек остается человеком.

Любовь – благодатная почва для художника, ибо без преувеличения можно сказать, что она творит чудеса в человеческой душе: она способна полностью преобразить человека, открыть ему необъятную глубину его внутреннего мира, помогает ему обнаружить в себе силы, о наличии которых он сам даже не подозревал. Но любовь, увы, нередко приносит страдания и муки, она зачастую ранит человеческое сердце и обрекает его на боль неразделенного и безответного чувств.

Любовь в художественной литературе существовала всегда. Лирическая сторона произведений, это первое что привлекает внимание большинства читателей. Именно тема любви окрыляет, вдохновляет и вызывает ряд эмоций, которые иногда бывают весьма противоречивыми. Все великие поэты и писатели вне зависимости от стиля написания, тематики, времени жизни посвятили немало своих произведений дамам своего сердца. Они вложили свои эмоции и переживания, свои наблюдения и прошлый опыт. Лирические произведения всегда полны нежности и красоты, яркими эпитетами и фантастическими метафорами. Герои произведений совершают подвиги ради любимых, рискуют, воюют, мечтают. И порой наблюдая за такими персонажами, проникаешься теми же переживаниями и чувствами литературных героев[2].

Тема любви, проблема взаимоотношений и влияния на судьбу как одного человека, так и всего человечества в целом не переставала интересовать писателей на протяжении

[1] Тайнов Э. А. Трансцендентальное. Основы православной метафизики. М.: Парад, 2007. 282 с.

[2] Эйнштейн А. Собрание научных трудов. Т. 4. М.: Наука, 1967.

[3] Винер Н. Кибернетика и общество. М.: Изд-во иностр. лит., 1958. 200 с.

всего развития литературы. К теме любви в своем творчестве обращались классики русской литературы, такие как А. С. Пушкин, М.Ю. Лермонтов, И.С.Тургенев, А.П. Чехов, И.Бунин, А. Куприн и многие другие[3].

Любовь – это самое сильное потрясение в жизни человека. Это чувство приносит не только и не столько счастье человеку. Почти всегда оно окрашено трагическими и роковыми тонами, в итоге делает людей несчастными, оставляет одинокими. Но на момент этой «роковой вспышки» человеческая жизнь приобретает высший смысл, раскрашивается всеми красками. Любовь в произведениях Бунина драматична, даже трагична, она есть что-то неуловимое и естественное, ослепляющее человека, действующее на него, как солнечный удар. Любовь для Куприна – это великая бездна, загадочная и необъяснимая, сильная и мучительная [3].

В рассказах Чехова о любви читатель не встречает ни одного счастливого финала. Любовь у писателя не переходит в семейное русло, не разрешается счастливым браком. Чехов лишает своих героев вечного счастья, лишает потому, что герои не хотят и не могут менять свой привычный уклад жизни. А идти против заведённых обществом порядков, даже если это преследует свои личные интересы, – это подвиг. А герои Чехова – обыватели, заурядные люди. В их жизни нет места высоким чувствам. Пошлость обыденной жизни убивает любовь [5].

Мудрость - свойство человеческого разума, характеризующееся степенью освоения знаний и подсознательного опыта и выражающееся в способности уместного их применения в обществе, с учётом конкретной ситуации. Другое значение «способность грамотного применения знаний. Большой, глубокий ум, опирающийся на жизненный опыт». Способность находить решение различных проблем, в том числе жизненных, опираясь на свой и чужой опыт[1]. Мудрость — это не просто обладание знаниями или опытом, но способность правильно и осмотрительно использовать эти знания в жизни. Говоря о мудрости, мы часто обращаемся к древним философам, учителям и книгам, дарующим нам понимание глубинных принципов бытия.

Мудрость проявляется в осознании наших поступков и их последствий, в умении слушать и понимать других, а также в способности проявлять терпение и сострадание. Она позволяет нам видеть мир в его целостности и гармонии, признавать свои ошибки и учиться у них, принимая трудности как возможность для роста.

Один из ярких примеров мудрости — это притчи и сказания, передаваемые из поколения в поколение. Они учат нас важным жизненным урокам, скрытым в простой форме. Так, история Соломона, царя известного своей мудростью, напоминает нам о важности справедливости и разумности. Его решения часто приводили к мирному разрешению сложнейших вопросов, благодаря глубокому пониманию человеческой природы и стремлению к правде.

Мудрые люди не стремятся к славе или богатству. Их главная цель - добродетель. Эти люди ценят невидимые, но действительно важные вещи: честность, искренность, доброту. Мудрый человек понимает, что счастье не в материальных благах, а в гармонии с собой и окружающим миром.

Живя в современном обществе, порой легко потерять связь с истинной мудростью, увлекаясь поверхностными достижениями и мимолетными удовольствиями. Однако настоящая мудрость приходит с опытом, через ошибки и трудности, через поиск истины и стремление к добродетели.

[1] https://ru.wikipedia.org/wiki/

В конечном счете, мудрость — это путь. Это процесс непрерывного обучения и самосовершенствования, понимание того, что мы всегда можем стать лучше, стать более человечными. И именно этот путь, а не конечная цель, делает нас мудрыми.

Произведения устного народного творчества - легенды, предания, былины, а также пословицы и поговорки уникальны. Они - кладезь народной мудрости. Многим из этих произведений несколько веков и даже больше.

Заключительная часть. По этим произведениям можно изучать, как жили наши предки, что считали правильным, а что неправильным, что ценили, чем восхищались. Например, в пословицах и поговорках отражены все основные моральные ценности народа. В них порицали лень и поощряли трудолюбие. В них осуждали скупость, жадность, глупость и одобряли доброту, щедрость, сообразительность. В пословицах и поговорках - концентрированная мудрость народа. Многим из них сотни лет, но с ними и сейчас не поспоришь, например: «Ученье свет, а не ученье - тьма», «Без труда не вынешь и рыбку из пруда», «Готовь сани летом, а телегу зимой... В старинных преданиях, передававшихся вначале из уст в уста, отражались реальные исторические события. Однако, преломляясь через восприятие народа, они обрастали подробностями и деталями, которые роднят их со сказками и легендами. В героях преданий с трудом можно узнать исторические личности: со временем они превратились в фольклорных персонажей. Такие произведения устного народного творчества как былины многие сотни лет воспитывали в людях патриотизм, стремление защищать родную землю во что бы то ни стало. На былинах выросли сотни поколений русских людей - и вырастет еще больше. Устное народное творчество никогда не устареет, потому что в нем - душа народа. Глубока и многогранна народная мудрость, создавшая их. А мудрость народа устареть не может.[6]

Исходя из вышеизложенного, изучение понятий «Вера», «Надежда», «Любовь» и «Мудрость» является актуальным в соответствии гендерного аспекта при сопоставлении русского и узбекского языка, полное предпочтение в равном соответствии произведениях.

ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА

1.Лукин А. Н., Домрачев С. С. Вера как элемент сознания человека // Социум и власть. 2018. № 3 (71). С. 15-22.

2. Бунин, И. А. Собрание сочинений в 4-х томах. Т.4/ И. А. Бунин. – М.: Правда, 1988. – 558 с.

3. Куприн А.И. Повести. Рассказы. – М.: Дрофа: Вече, 2013.

4. Краснихина К. С. Тема любви в литературе. 27 августа 2023 г. https://www.art-talant.org/publikacii/86017-tema-lyubvi-v-literature

5. https://www.art-talant.org/publikacii/86017-tema-lyubvi-v-literature

6. https://textplus.ru/59203-sochinenie-na-temu-mudrost

7. Узакова, А. Б., З. И. Рохатова, and Шоира Боймуродовна Бабаева. «Развитие активной русской речи учащихся начальных классов узбекских школ.» (2021): 92-94.

8. Бабаева, Шоира Баймурадовна. «Моделирование в педагогических исследованиях синтаксических понятий родного (русского) языка.» *Scientific Impulse* 1.5 (2022): 617-623.

YOSH AVLODDA INSONIY FAZILATLARNI SHAKLLANTIRISHDA MAQOLLARNING O‘RNI

Abdullayeva Feruza Janibekovna
TTA Urganch filiali akademik litseyi ona tili va adabiyoti fani o‘qituvchisi,
Osiyo Xalqaro universiteti magistranti

Annotatsiya. Maqolada folklor janri namunalarining yosh avlodni insoniy fazilatlar ruhida tarbiyalashdagi ahamiyati, xususan, xalq maqollarining kelajak avlod tarbiyasidagi o‘rni va xalq maqollarida til odobi, muomala madaniyati masalalarining qay tarzda ifoda etilganligi yoritib berilgan.Shuningdek, maktabgacha ta’lim, maktab yoshidagi bolalarning vatanparvarlik ruhida kamol topishida xalq maqollari rolini tadqiq etgan olimlarning ishlariga obzor berildi. Mavzuga doir bir qancha maqollar keltirib, ularning inson nutqini bezashdagi o‘rni va yosh avlodda nutq odobi, muomala madaniyatini yanada rivojlantirishdagi hissasi, maqol-matallardan unumli foydalanish, ularning mohiyatini anglatish muhim ekani tahlil qilindi.

Kalit so‘zlar: xalq og‘zaki ijodi, paremik tur, maqol, nutq, to‘g‘rilik, yolg‘on, notiqlik, til odobi.

РОЛЬ ПОСЛОВИЦ В ФОРМИРОВАНИИ ЧЕЛОВЕЧЕСКИХ ДОБРОДЕТЕЛЕЙ У МОЛОДОГО ПОКОЛЕНИЯ

Аннотация. В статье подчеркивается значение примеров фольклорного жанра в воспитании молодого поколения в духе человеческих качеств, в частности, роль народных пословиц в воспитании молодого поколения, а также то, как решаются вопросы языкового этикета и культуры поведения. выражено в народных пословицах, а также дошкольное воспитание детей школьного возраста. рассмотрены работы ученых, исследовавших роль народных пословиц в развитии духа патриотизма. Был приведен ряд пословиц по теме, проанализирована их роль в украшении человеческой речи и вклад в дальнейшее развитие нравов и культуры поведения у молодого поколения, проанализирована важность эффективного использования пословиц, а также важность понимания их сути.

Ключевые слова: фольклор, паремический тип, пословица, речь, правильность, ложь, красноречие, языковой этикет.

THE ROLE OF PROVERBS IN THE FORMATION OF HUMAN VIRTUES IN THE YOUNG GENERATION

Annotation. The article highlights the importance of examples of the folklore genre in educating the young generation in the spirit of human qualities, in particular, the role of folk proverbs in the upbringing of the young generation, and how the issues of language etiquette and behavior culture are expressed in folk proverbs. Also, preschool education, school-age children the works of scientists who researched the role of folk proverbs in the development of the spirit of patriotism were reviewed. A number of proverbs on the topic were cited, their role in embellishing human speech and their contribution to the further development of manners and behavior culture in the young generation, the importance of effective use of proverbs, and the importance of understanding their essence were analyzed.

Keywords: folklore, paremic type, proverb, speech, correctness, lying, eloquence, language etiquette.

Kirish. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan o‘zgarishlar, rivojlanishning yangi bosqichga ko‘tarilayotgani va barcha sohalardagi islohotlar ma’naviyat va madaniyat sohasida ham

o‘z aksini topmoqda. Texnika taraqqiyot etgani sari yosh avlodning ma’naviy olami quruqshab, milliy madaniyatimizdan uzoqlashish ham sezilayotgani bor gap. Bunday davrda nafaqat ta’lim sohasi vakillari, olimlar, ijodkorlar bir bo‘lib yoshlarning ma’naviy olamini sog‘lom va kuchli qilib tarbiyalashga bel bog‘lashi shart. Bu esa, birinchi navbatda, yoshlarning nutq va muomala madaniyatida ham yetarli darajada bilim va malakaga ega bo‘lishni talab etishi shubhasiz. Shu boisdan ham kishilarning o‘zaro aloqa va munosabat madaniyati masalalarini nazariy jihatdan ishlash, amaliy tomonlarini o‘rganib, tavsiyalar ishlab chiqish va bu ishlarning natijasi sifatida har bir rivojlanayotgan shaxsni yoshlikdan chiroyli nutq va to‘g‘ri muomalaga o‘rgatish bugungi kunda muhim hisoblanadi.

Adabiyotlar sharhi. O‘zbek tilshunosligida bu sohada ma’lum ishlar qilingan bo‘lsa-da, hali o‘ziga yarasha muammolar, hal etilishi zarur bo‘lgan masalalar ham kam emas. Chunki nutq madaniyatini hamma ham bir xil egallagan emas, uning nazariy masalalari yetarli ishlangani yo‘q. Zeroki, tilshunos olim ta’biri bilan aytganda “Yoshlarning adabiy til normalariga amal qilgan holda so‘zlashishi, nafaqat ularning o‘qimishliligidan darak beradi, balki ayni vaqtda aqlli va madaniyatliligini ham ko‘rsatadi. Shuning uchun yoshlar hamma vaqt nutq madaniyati va nutq odobiga qat’iy rioya qilgan holda so‘zlashga harakat qilishlari lozim. Yoshlarning notiq bo‘lishi shart emasdir (balki), lekin faqat fikrini, tushunchalarini to‘g‘ri, aniq iboralar bilan ifoda qilishlari zarur, chunki ona tilimizning sofligini saqlash har bir yosh avlodning sharafli burchidir” [1, 53-b.]

Shundan kelib chiqib fikrlasak, xalq og‘zaki ijodi, ayniqsa, xalq maqollarining nutqni ko‘rkam etishdagi ahamiyati alohida e’tiborga sazovordir. “Eng qadimgi turkiy xalqlar og‘zaki ijodi merosi namunalari Mahmud Qoshg‘ariyning (XI asr) “Devon-u lug‘otit turk” asari orqali yetib kelgan.

Asarda keltirilgan xalq og‘zaki ijodi namunalarida: vatanparvarlik, insoniylik, poklik, fidoyilik, sadoqat kabi insoniy fazilatlar o‘zining badiiy ifodasini topgan. Abdulqosim Mahmud Zamaxshariyning (1075-1144) “Atvoq uz-zahab filmavo‘iz val-xutb” (“Xutbalar va va’zlar bayonida oltin shodalar”), “Navobig‘ ulkalim” (“Nozik iboralar”), “Rabiy ul-abror va nusus ul-axyor” (“Taqvodorlar bahori va fozillar bayoni”), “An-nasouh us-sig‘or val bavolig‘ ul-kibor” (“Kichiklarga nasihatlar va ulug‘lar yetukligi”) asarlari pand-nasihatlar, hikmatli so‘zlar, maqollar, hikoyalar, latifalar orqali insonlarni o‘zligini anglashga, jamiyatda o‘z o‘rnini topishga yetaklagan.

Alisher Navoiy (1441-1501) “Hayrat-ul-abror” dostonida komil inson ma’naviyatida milliy g‘urur fenomeni bilan bevosita bog‘liq: vatanparvarlik, mehnatsevarlik, jasurlik, yaxshilik, saxovat, soflik, hayo, muruvvat, andisha, odob, kamtarlik, sadoqat, rostgo‘ylik, insof, qanoat, adolat, g‘urur, or-nomus kabi axloqiy fazilatlar tahlil etilib, insonning ruhiy kamolot yo‘llari ko‘rsatilgan.

XX asrga kelib, o‘zbek jadidchilik maktabi vakillari, xususan, Fitrat “Sharq” dostoni, “Mirrix yulduziga”, “Temur sag‘anasi”, Cho‘lpon “Go‘zal Turkiston”, “Xalq”, “Yorug‘ yulduzga” nomli folklorga aylangan asarlari bilan shaxs milliy g‘ururini shakllantirib, millat ma’naviyati, ma’rifatini rivojlantirishga katta hissa qo‘shganlar.” [9, 7-b.]

Qadimdan maqol – so‘z ko‘rki, deb bejiz aytilmagan. “Maqol, - deyiladi o‘zbek tilining izohli lug‘atida,- hayotiy tajriba asosida xalq tomonidan yaratilgan, odatda pand-nasihat mazmuniga ega bo‘lgan ixcham obrazli va hikmatli ibora, gap”. [5, 569-b.]

Darhaqiqat, xalqning tili hikmat javohirlarning xazinasidir. Xalq og‘zaki ijodi durdonalari – dostonlar, ertaklar, masallar, maqollar, hikmatli so‘zlarni o‘qigan va tinglaganimizda, donishmandlar hayotidan keltirilgan rivoyatlar, hikoyatlardan boxabar bo‘lganimizda, ularning zarofat va fasohatlaridan olam-olam zavqqa to‘lamiz, bu asarlarning sermazmunliligi, hikmatga, donolikka boyligidan chuqur taassurot olamiz.

Xalq ijodi durdonalarida til va nutq ibrati, so‘z odobi ham tarbiyaning asosiy tarkibiy qismi deb qaraladi. Jumladan, o‘zbek xalq og‘zaki ijodidan bunga ko‘plab misollar keltirish mumkin.

Masalan, o‘zbek xalq dostonlarida qahramonlarga safar oldidan berilgan nasihatlarga xushtavoze bo‘lish, kishilar, ayniqsa, keksalar oldidan salomsiz o‘tmaslik, muomalani o‘rniga qo‘yish kabi odob me’yorlari ham eslatib o‘tiladi. [2, 34-b.] Yoki o‘zbek xalq maqollarida o‘ylab gapirish, til bilan kishilar diliga ozor yetkazmaslik zarurligi, yolg‘on so‘zlashning oqibati yomon bo‘lishi, rostgo‘ylik obro‘ keltirishi va boshqa jihatlar yaxshi ifodasini topgan. “O‘ynab gapirsang ham o‘ylab gapir”, “Bilgan topib gapiradi, bilmagan qopib” “Aytar so‘zni ayt, aytmas so‘zdan qayt”, “Bug‘doy noning bo‘lmasa ham, bug‘doy gaping bo‘lsin” va boshqa maqollar shular jumlasidandir. O‘zbek xalq maqollarida til va nutq ibrati, so‘z odobi masalalari qisqa shaklda ta’sirchan, hikmatli ifodasini topgandir. Ularda tilga inson tarbiya ko‘rganligining, ma’naviyatining ko‘zgusi sifatida qaraladi. Shuning uchun ham xalq maqollaridan birida “Odobning boshi – til” deyiladi.

Xalq donishmandligida insonning qandayligi tilidan bilinib turishi qayta-qayta ta’kidlanadi. Bu hol xalqning uzoq tarixi mobaynida turmush tajribalaridan kelib chiqqan xulosalardir. Zotan so‘zda inson o‘zligi namoyon bo‘ladi, uning dunyoqarashi, yaxshi-yomon fe’li ma’lum bo‘ladi. Shu tufayli ham xalq maqolida “So‘z – kishining bezagi” deyilar ekan, so‘zda, gapda insonning butun borlig‘i namoyon bo‘lishi va o‘zining ham el orasida obro‘si so‘zi orqali belgilanishi hamda ta’minlanishi ko‘zda tutiladi. Muomala odobi, avvalo, salomlashishdan boshlanadi. O‘zidan kattalarning, ko‘pchilikning, ustozlarning hurmatini bajo keltirish salom bilan ham belgilanadi. Gap shundaki, salomsiz o‘tuvchilar hamma jamiyatlarda ham bo‘lgan. Yaxshi xonadonlarda esa bolalarga tarbiya berilar ekan, salomlashish odobi va madaniyatini egallashlariga ham alohida e’tibor berilgan. Salomda hurmat, izzat, ibo, hayo o‘z ifodasini topadi. Muomala ham salomdan boshlanadi. Shuning uchun ham o‘zbek xalq maqollarida ko‘p yillik tajribalarga tayangan holda “Avval salom, ba’daz kalom”, “Kattaga salom ber, kichikka kalom”, “Kattaning hurmati – qarz, kichikka salom – farz” , “Odoblilik belgisi – egilib salom bergani, yaqinlik belgisi – kelib-ketib turgani”, “Salom – kattadan, alif – nuqtadan”, “Salom ham farz, alik ham farz” kabi hikmatlar keltiriladi.

Xalq maqollarida so‘z kishining fazilatlarini oshiruvchi, uning qiyofasini belgilovchi ifoda belgisi sifatida ta’kidlanadi, so‘z kishining ziynati, yuzi deb baholanadi. Darhaqiqat, yaxshi so‘z, xushmuomala kishining husni, yoqimliligi ifodasidir. Yaxshi so‘z rohatbaxsh saboday xushyoqimdir. Yaxshilik va yomonlik so‘zda ham aks etadi. Kishining xulqi, fe’li, yaxshilik va yomonlikka odatlanganligi so‘zida ko‘zga tashlanadi. Bu sohadagi xalq falsafasi “Birovning so‘zi yaxshi, birovning o‘zi”, “Dili qora – tili qora”, “Yomon bola ko‘zidan, bilinadi so‘zidan”, “Yomon mo‘ridan achchiq tutun chiqar, yomon uydan – sassiq gap”, “Yomon odam yo‘ldoshini qaritar”, “Yomon odam til bilan kuydiradi”, “Yomonning og‘ziga yamoq, yaxshining og‘ziga qaymoq”,“Yaxshi bilib so‘zlar, yomon tilib so‘zlar”, “Yaxshining gapi moy, yomonning gapi loy”, “Yaxshi so‘z – jon ozig‘i, yomon so‘z – bosh qozig‘i”, “Anjom – uy ziynati, so‘z – inson ziynati” va boshqa ko‘plab maqollarda ta’sirchan ifodasini topgandir.

Nazar tashlasak, o‘zbek xalq maqollarida bu sohadagi odob me’yori yaxshi va yomonni qiyoslash, birini ulug‘lash, ikkinchisini rad etish orqali ochib beriladi. Ushbu xalq hikmatlarida yaxshi so‘zning hayotda, turmushda maqsad yo‘lida yetakchilik qilishi, manzilga yetkazishi, ko‘ngilni charog‘on, yo‘lni ravon etishi tajribadan olib ta’riflanadi. “Shirin choying bo‘lmasa, shirin so‘zing bo‘lsin”, “Ariqni suv bezar, odamni so‘z”, “Barakalla”ga qul mehnat qilib o‘lar”, “Bemorga shirin so‘z kerak, aqlsizga – ko‘z”, “Bir shirin so‘z bitkazar ming ko‘ngilning yarasin” va boshqalar shular jumlasidandir. Yomon so‘zning jabri, kasofati esa ulkan, u tinglovchiga ham, gapiruvchining o‘ziga ham sitam, ko‘rguliklar yetkazadi. Shuning uchun ham o‘zbek xalq maqollarida “Etigi yomon to‘r bulg‘ar, og‘zi yomon – el”, “O‘zi sovuqning so‘zi sovuq”, “O‘q birni o‘ldirar, so‘z mingni”, “Quloqdan kirgan sovuq so‘z ko‘ngilga borib muz bo‘lar” deya qayd etiladi.

O‘zbek xalq maqollarida til odobi aqllilik namunasi sifatida qaraladi. Aql esa yaxshi tarbiya, mukammal ilm-ma’rifat, madaniyat olinganligi bilan bog‘lanadi. Aqlli kishi dono so‘zning qadriga yetadi. Dono so‘z esa kishi aqlini peshlaydi, uni tarbiyalaydi. Shu sababli xalqimiz “Fikri ravshanning so‘zi ravshan”, “Aqli kaltaning tili uzun”, “Aqlli naqllab so‘zlar, aqlsiz laqillab”, “Aqlliga aytdim, angladi-bildi, aqlsizga aytdim,shaqillab kuldi”, “Aqlliga bir so‘z bas, aqlsizga ming so‘z oz”, “Aqlning tagi naql, naqlning tagi aql”, “Nodonning kulfati ko‘p, dononing hikmati” [3, 15-16-b.] va boshqa maqollarni yaratgan.

Maqollar inson hayoti, turmushi bilan bog‘liq barcha holat, vaziyatlarni, butun borliq, tafakkur dunyosini qamrab olgan, ularning haqqoniy bahosini beruvchi hikmatlardir. Ular orasida rostgo‘ylikni ulug‘lovchi, haq gapirish odobidan zikr etuvchi maqollar ham o‘ziga xos jozibali, ta’sirbaxsh mazmun kasb etib turadi. “Betga aytganning zahri yo‘q”, “Rost gap aytgan yengilmas”, “Rost gapga zavol yo‘q”, “Boshinga qilich kelsa ham to‘g‘ri so‘zla”, “O‘rinli so‘z o‘qdan o‘tkir”, “Haq gap tosh kesar” kabi maqollar buning ifodasidir. O‘zbek xalq maqollarida yolg‘onchilik eng yomon odatlardan biri sifatida qoralanadi. “Yov makrini yolg‘on yashirar”, “Yolg‘onchiga ishonch yo‘q”, “Yolg‘onchiga tong otmas”, “Yolg‘onchining rost so‘zi ham yolg‘on”, “Yolg‘on aytgan kishining xatari bor ishining”, “Rostlik - do‘stlik, yolg‘onchilik-ko‘rgulik”, “Yolg‘on - boshga tayoq, oshga- suyak”, “Yolg‘on gap yoqadan chiqar”, “Yolg‘on yetmish yil yerda yotsa ham yolini chiqar”, “Yolg‘on yo farzandga, yo davlatga urar”, “Yolg‘on yondirar, haqiqat qondirar”, “Yolg‘onning umri qisqa” [3, 42-44-b.] Ana shunday maqollar buning dalilidir.

Xalq maqollarida tuhmat-bo‘hton, chaqimchilik, g‘iybat kabi illatlar ham qoralanadi. Bu illatlar til orqali kishilar orasiga nifoq soladi, inoqlikni yo‘qotadi, halovatdan mahrum etadi. “Chaqimchining afti choriq”, “Chaqimchining tilidan ilon hazar qilar”, “G‘iybat yaqinni yot qilar, totuvni araz”, “G’iybatkashning qozoni qaynamas” kabi maqollarda bunday salbiy xislatlarga nisbatan donishmandona baho berilgan. Qolaversa, o‘zbek xalq maqollarida til ta’rifi, qisqa so‘zlash, tilni tiyish, o‘rinli o‘rinsiz gapiravermaslik, o‘ylab gapirish hikmatli so‘zlash, ustozlar hamda ota-ona so‘ziga quloq osish, inson fe’lining so‘zda aks etishi, so‘z kishining yuzi, husni ekanligi, so‘z va ish birligi hamda boshqa yo‘nalishlardagi nutq odobi me’yorlariga amal qilish talablari ham donolik asosida ifoda topgandir. Ular yoshlarni ezgu g‘oyalar maqsadida tarbiyalashga xizmat qilishi shaksiz.

Xulosa. Xalq maqollarida til odobi, nutq madaniyati tarbiyasi ta’sirchan va yaqqol ifodasini topgandir. Ularning imkoniyatidan foydalanish, targ‘ibot uchun ta’sirchan choralarni rivojlantirish va kelajak avlodga yetkazish har birimizning ma’naviy va ijtimoiy burchimiz va vazifamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Begmatov E., Mamatov A. Adabiy norma nazariyasi. Toshkent. 1999.
2. Imomov K., Mirzayev T., Sarimsoqov B., Safarov O. O‘zbek xalq og‘zaki poetik ijodi, darslik. T.: “O‘qituvchi”, 1990.
3. O‘zbek xalq maqollari. T.: G‘afur G‘ulom nomidagi “Adabiyot va san’at” nashriyoti. 1989.
4. Bakirov P. Milliy g‘oya targ‘ibotida xalq maqollaridan foydalanish. T.: Ma’naviyat. 2007.
5. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” milliy nashriyoti, T. 2006.
6. Abdurahimova D. Xalq og‘zaki ijodi namunalari vositasida maktabgacha yoshdagi bolalarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalash tizimini takomillashtirish. Avtoreferat. Toshkent.: 2020.
7. Masqudov U. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida xalq og‘zaki ijodi vositasida ijtimoiy faolliik ko‘nikmalarini rivojlantirishning pedogogik tizimi.Avtoreferat. Namangan. 2021.
8. Arpabayeva D. Shaxs milliy g‘ururini shakllantirishda folklorning roli. Avtoreferat. T. 2019

“GEOMETRIYA ASOSLARI” FANI METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

Safarov To‘lqin Nazarovich
Termiz davlat universiteti Algebra va geometriya kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada matematika ta’lim yo‘nalishlarida o‘qitiladigan “Geometriya asoslari” fanini yangi bilimlarni qo‘llash yo‘li orqali takomillashtirishning zarurati va dolzarbligi haqida so‘z borgan. Noyevklid geometriyaga oid ilmiy ishlar tahlil qilingan. Xorijiy universitetlarda “Geometriya asoslari” fani doirasida o‘qitiladigan mavzular va xorijiy adabiyotlar o‘rganilgan. “Geometriya asoslari” fanining ishchi o‘quv dasturiga kiritiladigan mavzular tahrirlangan. Fanni takomillashtirishda bajariladigan vazifalar, takliflar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Geometriya asoslari, noyevklid geometriya, zamonaviy geometriya, aksioma, Erlang programmasi.

МЕТОДЫ СОВЕРШЕНСТВО ПРЕДМЕТА «ОСНОВАНИИ ГЕОМЕТРИИ»

Аннотация. В статье обоснована необходимость пополнение новыми современными знаниями курса «Основание геометрия» которая изучается в математических факультетах и доказана актуальность этой задачи. Изучена структура курса «Основании геометрия» в ведущих иностранных высших учебных заведения. Предложена методы совершенства и примерный вариант курса.

Ключевые слова: Основы геометрии, неевклидова геометрия, современная геометрия, аксиома, программа Эрланг.

METHODS OF PERFECTION OF THE SUBJECT “FOUNDATIONS OF GEOMETRY”

Annotation. The article substantiates the need to replenish the course “Fundamentals of Geometry” with new modern knowledge, which is studied in mathematical faculties, and proves the relevance of this task. The structure of the course “Fundamentals of Geometry” in leading universities and foreign universities is studied. Methods for improving and an approximate version of the course are proposed.

Key words: Foundations of geometry, non-Euclidean geometry, modern geometry, axiom, Erlang program.

Kirish. Bugungi kunda dunyoda o‘qitish jarayonlarini takomillashtirish orqali ta’lim samaradorligiga erishish va sifatli kadrlar tayyorlashga alohida e’tibor qaratilib kelinmoqda. Ilg‘or oliy ta’lim muassasalarida matematika fanining globallashuv sharoitidagi o‘rni va ahamiyati nazarda tutilib, yosh ilmiy izlanuvchilar va soha pedagoglarini tayyorlashning innovatsion shakli sifatida bir muncha ishlar amalga oshirilib borilyapti.

Shuningdek, matematika ta’lim yo‘nalishlarida bo‘lajak matematika fani o‘qituvchilarini tayyorlash samaradorligini oshirishga doir tizimli yondashuvlar rivojlanayotgan bir paytda “Geometriya asoslari” o‘quv fani mashg‘ulotlarining ijobiy natijaviyligini ta’minlashda geometriya fanining zamonaviy yangiliklarini o‘rganish yetarli emasligi kuzatilmoqda[1].

Yurtimizda fan, ta’lim-tarbiya va ishlab chiqarish integratsiyasini ta’minlash, oliy ta’lim tizimini rivojlantirish, moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, ta’lim shakllari va mazmunini boyitishda olib borilayotgan islohotlar o‘quv jarayoniga ilg‘or pedagogik texnologiyalar bilan birgalikda fanga oid bo‘lgan yangiliklarni joriy etish imkoniyatlarini kengaytirmoqda.

Oxirgi vaqtlarda shiddatli rivojlanayotgan zamonaviy texnika va texnologiyalarda keng

qo‘llanilayotgan geometriya fanining yangi yo‘nalishlari mavjud bo‘lib, bu yo‘nalishlarning bilish uchun oliy ta’lim muassasalarida geometriya fanida bo‘layotgan zamonaviy o‘zgarishlarni bir so‘z bilan aytganda zamonaviy geometriya elementlarinini ifodalaydigan fan va fan dasturlari mavjud emas. “Geometriya asoslari” fanida o‘qitilishi zarur bo‘lgan mavzularni o‘zgartirib, o‘qitishning zamonaviy bilimlarni qo‘llash yo‘li orqali takomillashtirish zarur.

Avvalgi asrning 60-yillarida noyevklid geometriyasi tushunchasi yetuk geometrik olimlarning ilmiy ishlarida va oliy ta’lim tizimida ishlatilgan. Bunga sabab noyevklid geometriyasi tushunchasining asosan aniq fanlarning murakkab masalalarini yechishda amaliy ahamiyatga ega bo‘lganligidandir. Ammo 1969 yillardan keyin noyevklid geometriyasi o‘zining sodda va elementar matematikaga yaqin bayoniga ega bo‘ldi[10].

Adabiyotlar sharhi. Bugungi kunda noyevklid geometriyaga doir ilmiy ommabop manbalar paydo bo‘ldi. Misol tariqasida N. G‘aybullayevning “Noyevklid geometriya” ga bag‘ishlangan ilmiy ishlarida jumladan maktab o‘quvchilari uchun yozilgan “Maktabda noyevklid geometriya elementlari” nomli kitobi va “Yevklid va noyevklid geometriyalarini o‘rganishda o‘rta maktab o‘quvchilarining geometrik tushunchalarini shakllantirish” nomli ilmiy ishlarida asosan maktabda noyevklid geometriyaga tegishli mavzularni kiritish, Yevklid va Lobachevskiy geometriyasining tegishli tushunchalar va o‘xshash teoremalarni solishtirish, maktablarda geometriya fanini o‘qitish holatini o‘rganish, o‘quvchilarda noyevklid geometriya elementlarini o‘zlashtirish imkoniyatlarini aniqlash uchun tajribalar o‘tkazish, o‘quvchilarning geometrik tushunchalarini rivojlantirishga yordam beradigan pedagogik texnologiyalardan foydalanish kabi vazifalar ishlab chiqilgan va yoritilgan[10].

A. Kurderek o‘zining 2021-yilda “Ta’lim jarayonida noyevklid tushsunchalaridan foydalanish metodlari” nomli ilmiy ishida umumta’lim maktablarida geometriya faniga noyevklid geometriyasining zamonaviy yangiliklarini kiritish orqali takomillashtirish haqida yozgan[8].

Demak, xulosa o‘rnida shuni aytish mumkin-ki, mamlakatimizda birinchi marta pedagogik yo‘nalishda N. G‘aybullayev noyevklid geometriyadan ilmiy ish olib borgan bo‘lsa, A. Kurderek maktablarda “Noyevklid geometriya” o‘qitishda zamonaviy geometriyaning asosiy tushunchalari bo‘lgan tekislikda Galiley, Minkovskiy, taksikab geometriyalariga oid ilmiy-metodik ishlar olib borgan.

J. Buda tomonidan yozilgan “Integrating Non-Euclidean Geometry into High School” nomli maqolada yuqori sinflarda noyevklid geometriyasining integratsiyasi xaqida so‘z borgan[5]. Bundan tashqari Judith N. Cederberg “A course in modern geometries”[7], Francesco C., Boccaletti D., Roberto C “The Mathematics of Minkowski Space-Time: With an Introduction to Commutative Hypercomplex Numbers”[6], Wylie C. R “Foundation of geometry”[11], H. Audun” Geometry: our cultural heritage” [3], Vincent A., Athanase P. “Eighteen Essays in Non-Euclidean Geometry”[9], nomli ishlarida “Geometriya asoslari” faniga kiritilgan yangiliklar yoritilgan.

Mazmuni. “Geometriya asoslari” fanini o‘rganish haqida so‘z borar ekan fanining hozirgi holati geometriya asoslari bo‘yicha dastur asosida yozilgan asosan ikki qismdan iborat bo‘limlarni o‘rganishdan iborat bo‘lgan, ya’ni Yevklid geometriyasining aksiomatik tuzilishi va aksiomatik tahlil qilish. Bunda Yevklidning «Negizlar» asari haqida. Beshinchi postulat. Noyevklid geometriyasining paydo bo‘lishi va Lobachevskiy geometriyasi, Yevklid aksiomalari yordamida keltirilgan Gilbert, Veyl va Pogarelov aksiomalarini o‘z ichiga oluvchi mavzular o‘rganilgan[2],[12].

Afsuski, “Geometriya asoslari” fani oliy ta’lim muassalarining matematika ta’lim yo‘nalishlarida o‘qitiladigan tanlov fan hisoblanadi.

Bugungi kunda “Geometriya asolari” fanidan o‘qitilyotgan mavzular yuqorida aytganimizdek, geometriyani aksiomatik qurish, beshinchi postulat va noyevklid geometriyasining paydo bo‘lishi,

Gilbert, Veyl, Pogarelov aksimolari talqin qilingan. Bu mavzular o‘qitilishi zarur, ammo zamonaviy geometriyaning yangi paydo bo‘layotgan elementlarini o‘rganish muhimligi sababli dasturda berilgan mavzularni ixchamlashtirish, mustaqil ta’limda qo‘llash muhim ahamiyatga ega.

Keyingi XIX-XX asrlarda barcha fanlarda revolyutsion o‘zgarishlar bo‘ldi. Shuningdek bu o‘zgarishlar geometriya fanida ham yuz berdi. Hozirgi davrga kelib turli xildagi noyevklid geometriyalar bilan birga, topologiya, ko‘pxilliklar nazariyasi, integral geometriya, geometrik kalibrovka, hattoki diskret matematikaga mos keluvchi chekli geometriya deb nomlangan sohalar rivojlanib bormoqda.

“Erlang programmasi” deb nom olgan Keli va Kleynlar tomonidan ta’riflangan proyektiv metrikali fazolar ham V.I. Lobachevskiy g‘oyasi ta’sirida paydo bo‘lgan ilmiy yo‘nalishlar hisoblanadi[13].

Keli-Kleyn nazariyasiga ko‘ra n-o‘lchovli proyektiv metrikali geometriyalar soni 3^n -ta bo‘lar ekan[13],[2].

Demak, tekislikda bir biridan farqli to‘qqiz xil geometriyalar mavjud bo‘lib, ulardan biri geometriya faniga qarashlarni o‘zgarishiga sabab bo‘lgan Lobachevskiy geometriyasi bo‘lsa, Yevklid geometriyasidan boshqa yettitasi to‘la qonli noyevklid geometriyalaridir[2].

Fazo o‘lchami ikkidan katta bo‘lganda esa, proyektiv metrikali fazolar geometriyasi soni qanchalar ko‘p bo‘lishini tasavvur qilish qiyin emas.

Geometriya fanining bir qismi bo‘lgan, geometrik shakllarning uzluksiz akslantirishda saqlanadigan xossalarini o‘rganadigan topologiya bo‘limining rivojlanishi, fanda “ko‘pxilliklar” tushunchasining paydo bo‘lishiga sabab bo‘ldi. Ko‘pxilliklar tushunchasi nafaqat matematika fanida undan boshqa aniq fanlarda ham o‘z o‘rnini topdi va keng ko‘lamda qo‘llanilib kelinmoqda.

Ko‘pxilliklar nazariyasining paydo bo‘lishi va rivojlanishi oqibatida aniq fanlarning ko‘p sohalarida bu nazariya bilan bog‘liq natijalar olingan. Ammo V.Nesh nazariyasiga ko‘ra har qanday silliq ko‘pxillikni katta o‘lchami yevklid fazosida sirt shaklida hosil qilish mumkin. Chunki asli ko‘pxilliklar geometriyadagi sirtlar nazariyasining umumlashishidan hosil bo‘lgan ilmiy yo‘nalishdir[2].

XXI asr boshiga kelib yarim yevklid fazolar nazariyasi vujudga keldi va bu o‘z-o‘zidan yarim elliptik va yarim giperbolik fazolar hamda ulardagi geometriyalarni rivojiga sabab bo‘ldi.

So‘ngi davrlarda shitob bilan rivojlanayotgan diskret matematika, graflar nazariyasi bilan qadamma-qadam chekli nuqtalar geometriyasi deb nomlangan, zamonaviy texnika va texnologiyalarda keng qo‘llanilayotgan geometriya fanining yangi yo‘nalishi paydo bo‘ldi. Ammo bu yo‘nalishlarni, umuman geometriya fanida bo‘layotgan zamonaviy o‘zgarishlarni ifoda etadigan fan va fan dasturlari mavjud emas.

Xattoki avvalgi asrning 30-yillarida shakllangan “Geometriya asoslari” fani shu davrgacha o‘z mazmun mohiyatini o‘zgarmagan holda saqlab kelmoqda.

Natijalar. Kembrij universiteti talablari uchun yozilgan “Geometriya asoslari” fanidan A.Bertrand, V. Russellarning ishlarida “beshinchi aksiomaning muammosi”, “Metageometriya tarixi” “proyektiv geometriya”, “Lobachevskiy geometriyasi”, “metageometriyaga falsafiy qarashlar”, “metrik geometriyalar” Kant nazariyasi kabi mavzular o‘rganilgan.

Bundan ko‘rinib turibdiki xorijiy davlatlarda maktab va oliygohlarda geometriya fani takomillashtirilgan holda o‘qitilyapti.

Quyida biz rivojlangan davlatlarning ba’zi yetakchi universitetlarda “Geometriya asoslari” fani doirasida o‘qitalayotgan fan dasturiga kiritilgan mavzular bilan tanishamiz:

Buyuk britaniyaning **“Cambridge university”** da **“Foundations of geometry”** ya’ni “Geometriya asoslari” fanida o‘qitiladigan ba’zi yangi mavzular:

-metageometriyaning qisqacha tarixi;
-metageometriya tarixini uch davrga bo‘lishnishi: sintetik, metrik va proyektiv;
-Gauss, Bolyayen ishlari, Lobachevskiy geometriyasi;
- Riman ko‘pxilligi, sirt egriliklari;
-Keli, Puankari modellari;
-metageometriyaga falsafiy qarashlar;
-proyektiv geometriyalar;
-metrik geometriyalar;
-Kvant nazariyasi.

Bundan tashqari **“University of Oxford”** da ham bu fan **“Foundations of geometry”** deb nomlangan bo‘lib quyidagi mavzularga alohida yondoshilgan:
-fazoviy g‘oyalari: Yevklid, noyevklid va absalyut geometriyalar;
-taksikab geometriyasi: taksikab va yevklid geometriyasini solishtirish;
-myobus almashtirishlar geometriyasi: elliptik, parabolik va giperbolik harakatlar;
-geometriyaning madaniy meroslari;
-mozayka va simmetriya;
-inversiv geometriya.

Amerika qo‘shma shtatlarining **“Stanford University”** da **“Foundations of geometry”** fanidan:
-proyektiv geometriyaning yevklid geometriyasi bilan umumlashtirish;
-proyektiv geometriyaning aksiomalar to‘plami;
-beshinchi postulatni isbotlashga oid turli urinishlar orqali zamon va mamlakatlarning ijtimoiy muhiti tahlili, mavzulari o‘qitiladi.

“Massachusetts Institute of Technology” da geometriya asoslari fani doirasida **“Non-Euclidean geometry”** fan o‘qitiladigan bo‘lib unda:
-giperbolik geometriya va elliptik geometriyalar;
-chizma geometriya va arifmetik amallarning geometriyasi;
-elementar geometriyada Fales va Pifagor teoremalarining isbotlari muhokamasi;
-fizikaviy geometriya;
-sferik fazolardagi amallar bilan tanishish sifatida geometriyaning mukammal ta’rifi;
-zamonaviy olimlarning fizik tabiatini tasvirlash uchun noyevklid geometriyadan foydalanishi.

Shuningdek, Fransiyaning **“Sarbonne universite”** da **“Foundations of geometry”** fanidan
-tekislikda tasodifiy chizilgan grafiklarning xossalarini boshqaradigan universal qonunlar;
-fizikaviy geometriya: Broun harakati;
-pangeometriya;
-proyektiv geometriya bo‘yicha istiqbollar: haqiqiy va murakkab geometriyalar;
-geometriyaga yangi qarash;
-kompleks sonlar geometriyasi: doira geometriyasi, Myobus almashtirishlar;
-zamonaviy san’atda to‘rtinchi o‘lchov va noevklid geometriya;
-Yanosh Bolyai, Noyevklid geometriya va fazoning tabiati;
-proyektiv va Keyli-Kleyn geometriyalari;
-zamonaviy geometriyaga kirish eshigi: Puankare yarim tekisligi;
-geometriya va simmetriya kabi mavzular,

Germaniyaning “**Technical University of Munich”**da **“Foundations of geometry”** fanidan

-vizualizatsiya sifatida geometriya;
-haqiqiy olamning o‘lchami;
-tasviriy o‘lcham (geometrik shakllarni ifodalash vositasi sifatida matematik tushunchalar);
-matematik-tayanch o‘lchovi (geometriya misolida matematik tizim);
-ijtimoiy-madaniy o‘lchov (tarix va rivojlanish bilan bog‘liq g‘oyalar);
-psixologik geometriya.

Hamda, “**Humboldt University of Berlin”** da geometriya asoslari fani doirasida **“Algebraic geometry and geometric analysis”** fani o‘qitiladi, unda:
-ko‘pxadlarning geometrik talqini; chizma geometriya, Yevklidning beshinchi aksiomasi, giperbolik geometriyada metrika, burchak, harakat tushunchalari;
-fizikaviy geometriya;
-royektiv almashtirishlar geometriyasi kabi yangi mavzulari alohida o‘qitilar ekan.

Rivojlangan davlatlar Amerika, Angliya, Fransiya, Germaniya oliy o‘quv yurtlarida o‘qitilayotgan “Geometriya asoslari” fani yoki uning muqobilining o‘quv dasturlarini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, bu dasturlardan nafaqat geometriyaning zamonaviy yo‘nalishlari, hatto bu yo‘nalishlarni fizika, kompleks o‘zgaruvchilar nazariyasi, Kvant nazariyasi va hattoki psixologiyaga tatbiqi haqida ham ma’lumotlar berilar ekan.

Bizning fikrimizcha “ Geometriya asoslari ” fani dasturi va unda bayon etilishi zarur bo‘lgan mavzularni tubdan zamona talabiga mos, yangi fan yo‘nalishlarini hisobga olgan holda qayta ishlab chiqish zarur. Bu qayta ishlashda geometriya asoslari fani umuman fanning tuzilishi uning aksiomatik asosi qanday bo‘lishini ilmiy asoslangan holda, o‘quvchida zamonaviy geometriya yo‘nalishlari va ularning o‘zaro bir-biriga nisbatan umumiy jihatlari va farqini to‘la ifoda eta olishi ko‘zda tutilishi kerak.

Oliy ta’lim muassasalarida geometriya fanidan dars berish jarayonida iqtidorli talabalarni geometriya faniga qiziqtirish matematikaning boshqa sohalariga nisbatan biroz qiyin bo‘lgan. Shu sababli geometriya fanini o‘qitishda faqat hisob-kitoblarga emas, bal’ki fazoviy tasavvurni rivojlantirishga ham alohida e’tibor qaratish lozim. Bunda talabalarning fan doirasida bilimlarini chuqurlashtirish, kelgusida geometriya fanidan ilmiy ishlar bilan shug‘ullanib yangi-yangi ilmiy natijalarga erishish uchun zamonaviy geometriyaning elementlarini o‘rgatishni rivojlantirish zarur.

Hozirgi vaqtda fanda musbat aniqlanmagan masofalar, egriligi o‘zgaruvchan fazolar-kabi tushunchalar oddiy holatda ishlatiladigan asosiy tayanch fikrlar sanalib qoldi. Shuningdek noyevklid geometriyasining paydo bo‘lishi umuman fanlarda ham revolyutsion o‘zgarishlar bo‘lishiga sabab bo‘ldi. Bunga proyektiv geometriya faniga, proyektiv almashtirishlar gruppasi invariantlarni o‘rganuvchi fan sifatida qaraliyotgan yangicha geometrik qarashlar misol bo‘la oladi.

Geometriya fanining bir qismi bo‘lgan, geometrik shakllarning uzluksiz akslantirishda saqlanadigan xossalarini o‘rganadigan topologiya bo‘limining rivojlanishi, fanda “ko‘pxilliklar” tushunchasining paydo bo‘lishiga sabab bo‘ldi. Ko‘pxilliklar tushunchasi nafaqat matematika fanida undan boshqa aniq fanlarda ham o‘z o‘rnini topdi va keng ko‘lamda qo‘llanilib kelinmoqda.

Ma’lumki, Keli-Kleyn tomonidan “Erlang programmasi” da berilgan ta’rifda, geometriya fani to‘plamning chiziqli va kasr chiziqli akslantirishlarda saqlanadigan xossalarini o‘rganuvchi fan deb atalgan[12],[13].

Agar masofani kesma uzunligi sifatida qarasak bu kesmaning uzunligini aniqlanishiga qarab Affin fazosidagi Yevklid geometriyasidan farqli geometriyalar mavjud ekanligini ko‘rishimiz mumkin [2],[8].

Olingan natijalarning ishonchliligi. “Geometriya asoslari” fanini o‘qitishda zamonaviy bilimlarni qo‘llash yo‘li bilan takomillashtirish, xususan, matematika ta’lim yo‘nalishida tahsil

olayotgan talabalarning yangi geometrik bilimlarini shaklllantirishda va rivojlantirishda zamonaviy geometriyaning nazariy va amaliy mazmundagi mavzularini jumladan noyevklid geometriya elementlari ya'ni affin strukturaviy fazolardagi geometriyalarni o'rganish asosiy vosita sifatida qo'llaniladi.

Shuning uchun "Geometriya asoslari" fanidan talabalarda geometriyaning yangi, zamonaviy mavzularini o'qitish orqali, talabalarni fanga qiziqishlarini ortishi va matematik bilimlar bazasini kengaytirish uchun quyidagi mavzularni kiritish zarur deb hisobladik (1-jadval).

№	**Taklif qilingan mavzular**	**soat**
1	Fanning aksiomatik qurilishi va unga qo'yilgan talablar	**2**
2	Mavjud aksiomalar sistemalari haqida.	**2**
3	Beshinchi postulat muammosi tarixi.	**2**
4	Lobachevskiy aksiomasi.	**2**
5	Chiziqli fazo. Bichiziqli forma forma, chiziqli almashtirishlar. Skalyar ko'paytma.	**2**
6	Affin fazo, affin koordinatalar sisitemasi.	**2**
7	Geometriyaning zamonaviy ta'rifi. Masofa va harakat tushunchasi	**2**
8	Minkovskiy tekisligi.	**2**
9	Galiley tekisligi.	**2**
10	Psevdoyevklid fazolar.	**2**
11	Uch o'lchovli affin fazolardagi geometriyalar.	**2**
12	Flag, psevdogaliley, psevdoizotrop fazolar	**2**
13	Uch o'lchovli affin fazolardagi elliptik va giperbolik geometriyalar.	**2**
14	Lobachevskiy tekisligining Keli-Kleyn talqinlari.	**2**
15	Lobachevskiy tekisligining Puankare talqini.	**2**
	Jami	**30**

1-jadval. "Geometriya asoslari" fanidan yangi kiritilayotgan mavzular

Bunda oldingi dasturga tegishli mavzularni 8 soatgacha qisqartirib qolgan mavzularni mustaqil ish topshiriqlariga qo'shish mumkin.

Demak, yuqoridagi mavzularni "Geometriya asoslari" fanida o'qitishdan maqsad-talabalarni zamonaviy geometriyaga tegishli bo'lgan boshlang'ich tushunchalar, ilmiy ishlanmalar, hozirgi kungacha noyevklid geometriyasidan qilingan ilmiy ishlar va ilmiy izlanishlar bilan shug'illanayotgan matematik olimlarning ishlari bilan tanishtirish, kasbiy faoliyatiga oid masalalarini ongli ravishda tadqiq etish, muammolar yechimini topishda matematikaning imkoniyatlari mohiyatini tushuntirish, ularni qo'llay olishga o'rgatish hamda ularni amaliyotda tatbiq etish ko'nikmasini hosil qilishdan iborat.

Xulosa va tavsiyalar.

1. O'tkazilgan tahliliy, ilmiy-nazariy va uslubiy-amaliy tadqiqotlar asosida oliy ta'lim muassasalarida "Geometriya asoslari" fanini o'qitish davomida talabalarda zamonaviy geometriyaga oid bilimlarini rivojlantirishda avvalo bu fan doirasida tadqiqot ishlari tahlil qilindi, xorijiy davlatlarning yetakchi universitetlarida o'qitiladigan "Geometriya asoslari" fani doirasida o'qitilayotgan mavzular ko'rib chiqilib ta'lim muassasalarimizdagi "Geometriya asoslari" fanining mavzulari bilan solishtirildi.

2. Hozirda mavjud bo'lgan "Geometriya asoslari" fanining ishchi o'quv dasturi tubdan yangilanishi kerakligi, ya'ni zamonaviy geometriyaga oid bilimlarni talabalarga o'rgatish orqali ularning matematik bilimlarini rivojlantirish muammolarining yechimi mufassal o'rganildi. "Geometriya asoslari" fanidan yangi ishchi o'quv dasturi mavzulari shakllantirildi.

"Geometriya asoslari" fanini o'qitishdagi mavjud bo'lgan muammolarni yechish uchun

quyidagi takliflarni kiritamiz:

1) “Geometriya asoslari” fanni tanlov fanlar blokidan majburiy fanlar blokiga kiritish va fanga ajratilgan soatlarni ko‘paytirish;

2) xorijiy adabiyotlardan, dunyoning yetakchi oliy ta’lim muassasalaridagi o‘qitiladigan geometriya asoslari fanidagi yangi mavzular bilan talabalarni tanishtirish;

3) mustaqil ish soatlariga ajratilgan mavzularni qayta ishlash, zamonaviy geometriyaga oid savol va topshiriqlarni ko‘paytirish. Kurs ishlarini tashkil qilish kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Artikbayev A., Safarov T. “Geometriya asoslari” fanini o‘qitishga zamonaviy yondashish haqida. Fizika, matematika va informatika jurnal. №2/ 2023. B. 3-8.
2. Artikbayev A., Safarov T. Yangi geometriya asoslari. O‘quv qo‘llanma. Termiz. 2023-y., 152 bet
3. Audun H. Geometry: our cultural heritage. Springer.Textbook.2009 y.
4. Bertrand A., W. Russell. Foundations of geometry. Cambridge at the university press. 2016 y.
5. Buda, J. “Integrating Non-Euclidean Geometry into High School”. Honors Thesis. 173, 2017 y.
6. Francesco C., Boccaletti D., Roberto C. The Mathematics of Minkowski Space-Time: With an Introduction to Commutative Hypercomplex Numbers. Monograph. Frontiers in Mathematics. 2008 y.
7. Judith N. Cederberg.A course in modern geometries.Undergraduate Texts in Mathematics. 2004 y.
8. Kurderek. A. Methods of using non-Euclidion geometry concepts in educational progess. Dissertation of the PhD on pedagogical sciences.2021 y. Uzbekistan.
9. Vincent A., Athanase P. Eighteen Essays in Non-Euclidean Geometry. EMS IRMA Lectures in Math. and Theoretical Physics.2019 y.
10. G‘aybullayev N. Maktabda noyevklid geometriyalar elementlari. – T.: “O‘qituvchi”, 1971 y.
11. Wylie C. R. Foundation of geometry. Textbook. Dover Publications. 2009 y.
12. Ефимов Н.В. Высшая геометрия.-М.: “Наука”, 1971 г.
13. Н. Кампо, А. Пападопулос «О так называемой неевклидовой геометрии Клейна» М.: ДМК Пресс. 2014. стр.91-136 стр.

ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ХУДОЖЕСТВЕННОГО ТЕКСТА

Наталья Николаевна Розикова
преподаватель Бухарского государственного педагогического института,
rozikovanatalya@buxdpi.uz

Аннотация. В статье представлен анализ понятия «лингвокультурология» и его роли в процессе изучения иностранного языка студентами гуманитарных специальностей. Особое внимание уделяется формированию лингвокультурологической компетенции, необходимой для успешной межкультурной коммуникации. Рассматриваются актуальные проблемы языковой подготовки и предлагаются практические рекомендации для их решения.

Ключевые слова: культурно-маркированные единицы, лингвокультурология, реалии, лингвокультурология, культуронимы, культурно-коннотированная лексика, реалии

LINGUOCULTUROLOGICAL FEATURES OF LITERARY TEXT

Annotation. The article presents an analysis of the concept of "linguoculturology" and its role in the process of learning a foreign language by students of humanitarian specialties. Particular attention of the form is aimed at developing linguocultural competence and ensuring the success of intercultural communication. Current problems of language training are considered and practical recommendations for their solution are given.

Key words: culturally marked units, linguoculturology, realia, linguoculturology, cultural names, culturally connoted vocabulary

ADABIY MATNNING LINGVOMADYUNYOLOGIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. Maqolada "lingvokulturologiya" tushunchasi va uning gumanitar yo'nalish talabalari tomonidan chet tilini o'rganish jarayonida tutgan o'rni tahlili berilgan. Muvaffaqiyatli madaniyatlararo muloqot uchun zarur bo'lgan lingvomadaniy kompetentsiyani shakllantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Til o'rgatishning dolzarb muammolari ko'rib chiqilib, ularni hal etish bo'yicha amaliy tavsiyalar berildi.

Kalit so'zlar: kompetensiyaga asoslangan yondashuv, tilshunoslik va mintaqashunoslik, lingvistik va madaniy kompetentsiya, tilshunoslik va madaniyatshunoslik, milliy va madaniy semantika, fon bilimlari.

Введение. Термин «культурно-маркированная лексика» появился в 1980-х годах. Е. М. Верещагин и В. Г. Костомаров определяют данную группу слов как слова, которые несут в себе социокультурную информацию. В работах исследователей, занимающихся изучением данной лексики, встречаются такие синонимичные термины, как «культурно-коннотированная лексика», «национально-самобытная лексика», «лингвоспецифичная лексика», «этнокультуроведческая лексика», «лакуны», «безэквивалентная лексика», «культуроносная лексика», «культуремы», «культуронимы»

В нашей статье рассмотрены реалии как самая объемная группа культурно-маркированной лексики. Современная лингвистика утверждает, что любую единицу языка можно перевести на другой язык с помощью приблизительного перевода, объяснения, комментария, если не удается сделать это дословно. Максимальная трудность перевода возникает при переводе слова или словосочетания, у которого нет прямого соответствия в

переводящем языке, так как оно отсутствует в иноязычной культуре.

Литературный обзор. Совокупность лексических единиц, являющихся непосредственными носителями информации о специфических чертах культуры данной языковой общности, называется культурно-маркированная лексика.

Культурно-маркированные единицы — это слова, обладающие экстралингвистическим фоном и являющиеся источником социокультурной информации о стране изучаемого языка. Согласно исследованиям ученых, большое различие материальной и духовной жизни у сопоставляемых социумов наблюдается, когда культуры мало соприкасались друг с другом.

Культурно-маркированные единицы исследуются одновременно несколькими научными дисциплинами, такими как переводоведение, культурология, лингвострановедение, психолингвистика и, безусловно, лексическая семантика. Из такого множества направлений языкознания культурно - маркированные единицы будут относиться к сфере лексической семантики, потому как непосредственно данная отрасль науки занимается значением, планом содержания языковых единиц.

Системный подход, совокупность методов исследования смежных разделов языкознания обеспечат разностороннее рассмотрение этого раздела лексики и её систематическое описание.

Такая лексика обозначает явления, предметы и понятия, которые являются типичными для одной культуры и не существующие в иных; они материализуются в безэквивалентной лексике – лексических единицах языка, которые, согласно определению Л.С. Бархударова, «не имеют ни полных, ни частичных эквивалентов среди лексических единиц другого языка»

В то же время Бархударов указывает на то, что было бы неправильно воспринимать этот термин в смысле «невозможности перевода» такой лексики, так как всякий язык может выразить любое понятие.

Согласно И.Ю. Марковиной, к компонентам культуры, несущим национально-специфическую окраску, можно отнести следующие:

1. Традиции, обычаи, обряды;
2. Бытовая культура, тесно связанная с традициями;
3. «Национальные картины мира», отражающие специфику восприятия окружающего мира;
4. Художественную культуру, отражающую культурные традиции того или иного этноса.

Языковые маркеры национально-культурного сознания лингвокультурного типа содержат языковые феномены, в которых наиболее очевидно проявляется национально-культурная специфика языкового сознания представителей определенного этнолингвокультурного сообщества, то есть те явления, которые нуждаются в прагматической адаптации при переводе. К этому типу относятся: средства речевого контакта и языковые формулы, выражающие реализуемые в определенной коммуникативной культуре правила и традиции общения

«Язык художественного текста – это особая знаковая система, которая характеризуется неоднозначностью семантики. Словесные знаки здесь используются в их вторичном значении».

«Стилистика – лингвистическая наука о средствах речевой выразительности и о закономерностях функционирования языка, обусловленных наиболее целесообразным

использованием языковых единиц в зависимости от содержания высказывания целей, ситуации и сферы общения.

Лакуны определяются как любые несоответствия, возникающие при сопоставлении понятийных, языковых и эмотивных категорий двух локальных культур, или даже все, что в инокультурном тексте реципиент не понимает, что является для него странным, требует интерпретации.

В.Л.Муравьев предложил классифицировать лакуны на лингвистические и этнографические.

К лингвистическим лакунам относятся:

1. Абсолютные лакуны
2. Векторные лакуны
3. Стилистические лакуны
4. Относительные лакуны

К этнографическим лакунам относятся:

1. Абсолютные этнографические лакуны
2. Векторные этнографические лакуны
3. Ассоциативные лакуны
4. Относительные этнографические лакуны

Иногда в качестве труднопереводимых элементов текста могут выступать иноязычные вкрапления, которые, однако, относятся к безэквивалентной лексике не всегда, а -лишь только в случае передачи ими колорита языковой общности.

Термин «иноязычное вкрапление» был впервые использован российским лингвистом А.А. Леонтьевым. К иноязычным вкраплениям автор относит русские слова, которые употребляются с семантическим нарушением и в иностранном фонетическом оформлении, в том числе в случае передачи иностранного акцента и при использовании варваризмов. В своей книге «Непереводимое в переводе» С.И. Влахов и С.П.Флорин дают такое определение иноязычным вкраплениям: «Иноязычные вкрапления — слова и выражения, которые автор оригинала дает на другом, не своем, языке в их исконном написании или в транслитерации, то есть без каких-либо морфологических изменений»

Реалии – «это лексемы, которые обозначают предметы или явления материальной культуры, обычаи, обряды, этнонациональные особенности, а также исторические процессы или факты и обычно не имеющие лексических эквивалентов в других языках».

По мнению О.С. Ахмановой термин «реалия» — это различные факторы, которые изучает внешняя лингвистика». Например, государственное устройство страны, история и культура народа, языковые контакты носителей с точки зрения их отражения в языке.

Болгарские лингвисты С. И. Влахов и С. П. Флорин в своей книге определяют понятие «реалия» как «слово, называющее элементы быта и культуры, исторической эпохи и социального строя, государственного устройства и фольклора, то есть специфических особенностей народа, страны и культуры, чуждых другим народам и странам». По мнению Трегубовой Ю.А. реалии являются важной частью языковой личности, поскольку описывают такие предметы и явления, которые считаются первоочередными для говорящих на данном языке, иначе говоря, являются наиболее значимыми в своей лингвокультуре.

В то же время Яковлева Э.Б. пишет, что «реалии — это бытовые и специфические национальные слова, и обороты, у которых нет эквивалентов в языках других стран. Но так как на данный момент языки содержат много заимствований, которые приживаются в других языках, то данное утверждение не актуально».

Реалии представляют самостоятельную категорию слов, и в то же время рассматриваются в рамках безэквивалентной лексики. Реалии — это слова, которые выражают понятия, не существующие в конкретной культуре и в её языке.

В своих работах В.Л. Муравьев говорит о лакунах. Он делит их на абсолютные и относительные. Абсолютные лакуны определяются, как отсутствие у носителя языка возможности выразить лексически зафиксированное понятие в другом языке, одним словом.

Результаты. Относительные лакуны по мнению Муравьева, «выделяются при сравнении частоты употребления слов с общим значением в двух языках и для их выделения необходим сравнительный статический подсчет употребления в речи тех или иных слов».

Основной проблемой, с которой переводчик встречается при переводе реалий, является отсутствие или неполное совпадение значений в языке перевода. Чаще всего трудности возникают при переводе культурных реалий, передача которых необходима для представления полной картины жизни той культуры, о которой идет речь.

Отличительной особенностью реалии по сравнению с другими словами является характер ее предметного содержания, то есть тесная связь обозначаемого реалией предмета, понятия или явления с народом, страной, и с историческим периодом. Таким образом, реалия имеет национальную коннотацию.

Исследователями установлен тот факт, что в разных языках словарный состав значительно отличается. Тем не менее, ученые не пришли к общему мнению по вопросу о влиянии системы понятий в языкознании на отличие в словарном составе какого-либо языка. На данном этапе развития исследований по данной проблеме существует различное мнение о сходстве лексических систем в разных языках мира.

При расхождении и понятийном передвижении именно словарные значения представляют трудность для перевода. В этом случае элементарная замена слов не представляется возможной, необходимо соотносить данные понятия с культурно-историческими, ситуативными явлениями, вводить их в определенную понятийную систему, не выходя за пределы лексического значения слова.

В переводоведении значительное место занимает группа реалий, соотносимая со специфическими знаниями художественных понятий и деталей, которые особо важны для глубокого анализа художественного произведения читателем. К таким деталям относятся и художественные реалии. Сам термин претерпел ряд изменений.

В середине XX века возникло определение реалии для обозначения национально-специфичного объекта или явления. Впоследствии в переводной литературе под словом «реалия» обозначали само слово и его означающее. Объединение этих понятий заключается в своеобразной национальной окраске и отсутствии соответствий в других языках. Анализ понятия «реалия» требует дальнейшего изучения. Многие лингвисты и исследователи занимались разработками классификаций реалий.

Реалии соотносятся с материальной и духовной культурой. Поэтому классификации реалий строятся по определенным принципам, отражая временные исторические и культурные изменения в обществе. На современном этапе существуют множества классификаций реалий, однако нет единой.

Следует помнить, что реалия – это соотношение лексического значения и культуры страны, народа, социума, а также истории и времени употребления того или иного понятия. Например, в предметной классификации реалий важное место занимают географические, этнографические (отражение быта и культуры), общественно-политические.

Классификация реалий, построенная на временном принципе:

- современные реалии: понятия и явления, отражающие реально существующее время, время современников;
- исторические реалии, понятия, отражающие прошлое определенного социума.

Реалии в одном языке могут быть своими и чужими, национальными (характеризуют государство, народ), локальными (характеризуют один диалект), микролокальными (характеризуют определенную местность).

Если рассматривать реалии в плоскости двух языков, то они могут быть внешними (чуждые для внешнего языка) и внутренние (чуждые для одного языка).

На сегодняшний день существуют различные классификаций реалий. Одной из таких классификаций является классификация В.С. Виноградова. Согласно его работам, реалии описывают, прежде всего, специфические факты истории и государственного устройства нации, особенности географической среды, характерные предметы материальной культуры прошлого и настоящего, этнографические и фольклорные понятия и так далее.

Г. Д. Томахин выделяет классификацию реалий:

а) Бытовые реалии (жильё, одежда, пища и напитки, бытовые заведения, реалии транспорта, связь, отдых, обычаи, меры, деньги, рутинное поведение (индивидуальные акты поведения, в которых проявляется определённая культура), речевой этикет).

б) Географические (топонимы; название особенностей береговой линии, разновидностей заливов, проливов, бухт; название особенностей рельефа, гидрографические названия, политико-экономические, географические реалии, относящиеся к административно-территориальному делению: единицы административного деления, населённые пункты, части и районы населённого пункта).

в) Флора (название особенностей растительного покрова, название деревьев, название кустарников, название дикорастущих трав)

г) Фауна (название животных, название птиц, название змей, культурные растения, природные ресурсы и особенности их освоения, земельные угодья, минеральные ресурсы).

д) Общественно-политические реалии (государственные символы, связанные с конституцией; реалии законодательной власти, исполнительные ведомства, агентства; государственные служащие; судебная система; правительство штатов и местное самоуправление; выборы; политические партии и общественные организации).

е) Реалии системы образования, религии и культуры (система образования: школьное образование, высшее образование; религия; литература: название жанров национальной литературы, название наиболее известных литературных произведений, афоризмы и крылатые слова, наиболее известные персонажи литературных произведений и фольклора; театр и кино; средства массовой информации, изобразительное искусство, музыкальная культура)

Заключение. Таким образом одной из характерных черт художественного текста является наличие культурно-маркированной лексики. Такая лексика доставляет определенные затруднения при переводе, так как она может быть типичной для одной культуры, но не существовать в другой, и особенность заключается в адекватной передаче таких единиц.

Из вышесказанного можно сделать вывод, культура народа и ее особенности представлены в языке. В каждой культуре имеются уникальные понятия. Эти понятия представлены культурно маркированными единицами, которые обозначают предметы или явления, характерные для того или иного народа.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННЫХ ИСТОЧНИКОВ

1. Алексеева. – 3-е изд., перераб. и доп. – М.: Академия, 2019. – 354 с.
2. Аракин В. Д. История английского языка. – М., 2001. – 310 с.
3. Бархударов, Л. С. Язык и перевод/Л.С.Бархударов. – Москва: Международные отношения, 1975. – 190 с.
5. Виноградов, В. С. Введение в переводоведение (общие и лексические вопросы) В.С. Виноградов. – Москва:
6. Влахов С., Флорин. С. Непереводимое в переводе. М.: Международные отношения, 1980.
8. Вэньяо Дзоу. Особенности лингвистического анализа художественного текста, при изучении русского языка как иностранного (на продвинутом уровне).
9. Гарвалик М. К вопросу о современной ономастической терминологии // Вопросы ономастики / М. Гарвалик // Научный журнал. – 2019. – № 3. – Екатеринбург: Издательство Уральского университета, 2019. – 196 с. – С. 5-13.
10. Гинзбург, Р.З. Лексикология английского языка. - М.: Высшая школа, 1979. - 271 с
11. Розикова Н. Н. Внедрение компетентностного подхода при изучении дисциплины «Русский язык»: //Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал. – 2023. – №. 1. – С. 34-38.
12. Nikolayevna R. N., Baymuradovna B. S. Designing and realization of system of organizing independent work of students //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2020. – Т. 10. – №. 4. – С. 471-479.
13. Rozikova N. N. Main aspects of modern comparative studies as a leading scientific strategy for humanitarian knowledge //Ann. For. Res. – 2022. – Т. 65. – №. 1. – С. 6980-6985.
14. Томахин Г.Д. Реалии. –М.: Высшая школа, 2016. – 240 с.
15. Муравьев В.Л. Лексические лакуны (на материале лексики французского и русского языков). - Владимир, 1975. - 96 с.

ONA TILI VA O‘QISH SAVODXONLIGI DARSLIKLARIDA PIRLS TOPSHIRIQLARIGA MOS MATNLAR TAHLILI

Orazova Sultonposhsha Qahramon qizi
Urganch davlat pedagogika instituti magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqola ona tili va o‘qish savodxonligi darsliklarida PIRLS mezonlari bo‘yicha matn tahlilini o‘rganadi. Tahlil turli sinflardagi matnlarni baholab, joriy darsliklarning savodxonlik talablariga muvofiqligini aniqlaydi. Natijalar darsliklarning samaradorligini ko‘rsatib, xalqaro standartlarga moslash uchun takliflar beradi va ta’lim amaliyotlarini yaxshilash uchun tushunchalar beradi.

Kalit so‘zlar: PIRLS, matn tahlili, ona tili, o‘qish savodxonligi, darsliklar, ta’limni baholash, tushunish strategiyalari, o‘quv dasturlarini moslashtirish.

ANALYSIS OF PEARLS’ TEXT TEXTS IN MOTHER LANGUAGE AND READING LITERACY TEXTBOOKS

Abstract. This paper examines text analysis of PIRLS criteria in mother tongue and reading literacy textbooks. The analysis assesses texts in different grade levels and determines the adequacy of current textbooks to literacy requirements. The results demonstrate the effectiveness of the textbooks, provide suggestions for adaptation to international standards, and provide insights for improving educational practices.

Keywords: PIRLS, text analysis, native language, reading literacy, textbooks, educational assessment, comprehension strategies, curriculum adaptation.

АНАЛИЗ ТЕКСТОВ ЖЕМЧУГА НА РОДНОМ ЯЗЫКЕ И УЧЕБНИКОВ ПО ГРАМОТНОСТИ ЧТЕНИЯ

Аннотация. В данной статье рассматривается текстовый анализ критериев PIRLS на родном языке и в учебниках по грамотности чтения. В ходе анализа оцениваются тексты для разных классов и определяется соответствие существующих учебников требованиям грамотности. Результаты демонстрируют эффективность учебников, дают предложения по адаптации к международным стандартам и дают представление о совершенствовании образовательной практики.

Ключевые слова: PIRLS, анализ текста, родной язык, грамотность чтения, учебники, образовательная оценка, стратегии понимания, адаптация учебной программы.

KIRISH. Ona tili va O‘qish savodxonligi darsligi - bu akademik muvaffaqiyat va umrbod ta’lim olishning asosidir. Globallashib borayotgan dunyoda turli ta’lim tizimlari o‘quvchilarni savodxonlik talablariga qanday tayyorlayotganini tushunish juda muhimdir. Progress in International Reading Literacy Study (PIRLS) butun dunyo bo‘ylab to‘rtinchi sinf o‘quvchilarining o‘qish savodxonligini baholash uchun keng qamrovli asosni taklif etadi. U nafaqat o‘quvchilarning o‘qish qobiliyatini, balki ularning o‘quv yutuqlari va shaxsiy o‘sishi uchun muhim bo‘lgan tushunish va izohlash qobiliyatlarini ham baholaydi. Ushbu tadqiqot ona tilidagi matnlarni tahlil qilish va o‘qish savodxonligi bo‘yicha darsliklarning PIRLS standartlariga mosligini aniqlash, joriy o‘quv materiallarining samaradorligi haqida tushuncha berishdan iborat.

PIRLS kabi standartlashtirilgan xalqaro baholashlarning joriy etilishi turli mamlakatlarda o‘qish savodxonligidagi sezilarli farqlarni ko‘rsatdi. Bu farqlar ko‘pincha ta’lim resurslarining sifati

va mazmunidan kelib chiqadi. Shuning uchun ona tili va o‘qish savodxonligini o‘rgatishda foydalaniladigan darsliklarni chuqur tahlil qilish zarur. Ushbu maqola o‘quvchilarni PIRLS topshiriqlariga tayyorlashda ularning yetarliligini baholash uchun ushbu darsliklarga kiritilgan matn xususiyatlari, mazmun murakkabligi va tushunish strategiyalarini o‘rganishga qaratilgan.

Batafsil tahlil o‘tkazish orqali ushbu tadqiqot joriy darsliklarning kuchli va zaif tomonlarini aniqlashga va ularni PIRLS benchmarklariga moslashtirish bo‘yicha tavsiyalar berishga intiladi. Topilmalar ta’lim sifati va tengligi bo‘yicha kengroq muhokamaga hissa qo‘shib, o‘quv dasturlarini ishlab chiquvchilar, o‘qituvchilar uchun qimmatli tushunchalarni taqdim etadi. PIRLS standartlari bilan takomillashtirilgan muvofiqlashtirish o‘quvchilarning o‘z ilmiy izlanishlarida va undan tashqarida muvaffaqiyat qozonishlari uchun zarur savodxonlik ko‘nikmalari bilan yaxshi ta’minlanishini ta’minlaydi[1].

Ushbu maqola lingvistik xususiyatlar, tematik xilma-xillik va tanqidiy fikrlash mashqlarini kiritish kabi omillarni hisobga olgan holda turli sinf darajalaridagi matnlarni ko‘rib chiqadi. Maqsad, ushbu darsliklar PIRLS tomonidan belgilangan Ona tili va o‘qish savodxonligi ko‘nikmalarini rivojlantirishga qanchalik yordam berishi haqida aniq tasavvurni yaratishdir. Ushbu tahlil orqali tadqiqot global miqyosda ta’lim amaliyoti va natijalarini yaxshilash bo‘yicha davom etayotgan sa’y-harakatlarga hissa qo‘shishga qaratilgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METADOLOGIYA. Ushbu bo‘limda mavjud tadqiqot muhitini har tomonlama tushunish imkonini beruvchi ona tili va savodxonlik darsliklarini o‘qish bo‘yicha PIRLS vazifalariga tegishli matnlarni tahlil qilish haqida ma’lumot beruvchi bazi adabiyotlarni o‘rganib tahlilini ko‘rib chiqildi.

1. Farmonovna, R. K tadqiqoti. PIRLS metodologiyasi va topilmalari bo‘yicha ushbu asosiy tadqiqot ona tili va o‘qish savodxonligini baholash uchun foydalaniladigan asosni chuqur ko‘rib chiqishni taklif qiladi. Tadqiqot o‘qishni tushunish bilan bog‘liq kognitiv jarayonlarni, jumladan, ma’lumot olish, xulosalar chiqarish va matnlarni tahlilini belgilaydi. Bu ko‘nikmalarni rivojlantirishda matnning murakkabligi va xilma-xilligi muhimligini ta’kidlab, darsliklarning PIRLS standartlariga mos kelishini baholash mezonini beradi.
2. Rustamovna, H. N. O‘zining asosiy tadqiqot ishida erta bolalikdan o‘smirlik davrigacha o‘qish ko‘nikmalarining rivojlanishini o‘rganadi. Uning bosqichlar nazariyasi o‘quvchilarning rivojlanish bosqichlarini aks ettiruvchi murakkablik va tematik chuqurlikda rivojlanadigan matnlarga bo‘lgan ehtiyojni ta’kidlaydi. Bu nuqtai nazar, PIRLS talab qilganidek, darsliklarning turli sinf darajalarida tegishli qiyinchiliklar va qo‘llab-quvvatlashlarni taqdim etishini baholash uchun juda muhimdir.
3. Hasanova. S ning “Tushunish uchun o‘qish” bo‘yicha tadqiqoti lingvistik xususiyatlar va tushunish o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni ta’kidlaydi. Uning xulosalari o‘qishni tushunishni osonlashtirishda lug‘at, sintaksis, matn va nutq tuzilmalarining muhimligini ta’kidlaydi. Darsliklarni ushbu ob’ektiv orqali tahlil qilish o‘quvchilarni PIRLS-dagi nozik o‘qish vazifalariga tayyorlash uchun ushbu elementlarni qanchalik yaxshi o‘z ichiga olganligini batafsil baholash imkonini beradi.
4. Sarvinoz, B. O‘qishni tushunishni rivojlantirishning samarali amaliyotlari bo‘yicha ushbu tadqiqot o‘quvchilarning matnlarni tushunishini kuchaytiruvchi asosiy ta’lim strategiyalarini aniqlaydi. U bashorat qilish, so‘roq qilish va umumlashtirish kabi tushunish strategiyalarida aniq ko‘rsatmaning rolini muhokama qiladi. Ushbu strategiyalar PIRLS vazifalariga mos keladigan darsliklarda taqdim etilgan o‘quv yordamini baholash uchun juda muhimdir.
5. Norboyevich, S. B. U o‘qishni tushunish bilan bog‘liq kognitiv jarayonlar bo‘yicha tadqiqotlari o‘quvchilarning matnlardan qanday ma’no yaratishi haqida tushuncha beradi. U matnlardagi uyg‘unlikning ahamiyatini, shuningdek, asosiy bilimlarning rolini ta’kidlaydi. Bu nuqtai

nazar PIRLS o‘qish vazifalarining asosiy jihati bo‘lgan darsliklarning yangi ma’lumotlarni mavjud bilimlar bilan integratsiyalashuviga qanchalik yordam berishini baholash uchun qimmatlidir.

Bu tadqiqotlar birgalikda ona tili vs o‘qish savodhonligi darsliklarini mosligini tahlil qilish, ona tili va o‘qish savodxonlik darsliklarini o‘qish uchun o‘quvchilarni PIRLS baholashga tayyorlash uchun mustahkam nazariy va empirik asos yaratadi. Ular matnning murakkabligi, o‘qitish strategiyalari va kognitiv jarayonlarni baholash mezonlarini taqdim etadi, o‘quv materiallarini har tomonlama tahlil qilishni ta’minlaydi.

TAHLILI NATIJA. Ona tili va o‘qish savodxonligi bo‘yicha darsliklarning tahlili ularning PIRLS mezonlariga mos kelishi haqida muhim tushunchalarni ochib beradi, bunda kuchli tomonlari va yaxshilanishi kerak bo‘lgan yo‘nalishlar ko‘rsatilgan. Topilmalar PIRLS tomonidan baholangan o‘quvchilarning savodxonlik talablariga tayyorligiga ta’sir etuvchi turli sinf darajalari va ta’lim tizimlari bo‘yicha turli darajadagi moslashuvni ko‘rsatadi.

Matnning murakkabligi va xilma-xilligi. Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, ba’zi darsliklarda turli xil matnlar, jumladan, hikoya va axborot janrlari samarali tarzda o‘zlashtirilgan bo‘lsa, boshqalarida yetarlicha xilma-xillik yo‘q. PIRLS standartlariga mos keladigan darsliklar odatda oddiy va murakkab matnlar muvozanatini o‘z ichiga oladi, bu esa o‘quvchilarni sinflar bo‘ylab o‘sishda asta-sekin qiyinlashtiradi. Biroq, ba’zi hollarda, matnlar mo‘ljallangan sinf darajasi uchun juda sodda yoki o‘ta murakkab bo‘lib, matn qiyinligini yaxshiroq kalibrlash zarurligini ko‘rsatadi[2].

Tushunish strategiyalari. Tushunishning samarali strategiyalari, masalan, bashorat qilish, so‘roq qilish va umumlashtirish ko‘plab darsliklarda mavjud bo‘lgan, lekin doimiy ravishda ta’kidlanmagan. Ushbu strategiyalarni aniq o‘rgatgan va ularni o‘qish mashqlariga integratsiyalashgan darsliklar PIRLS ga yaxshiroq mos kelishini ko‘rsatdi. Aksincha, ba’zi darsliklar o‘qishni tushunish uchun juda muhim bo‘lgan tanqidiy fikrlash va sharhlash qobiliyatlarini rivojlantirishga ko‘proq va eslab o‘rganishga kamroq e’tibor qaratgan[3].

Til xususiyatlari. Tahlil shuni ko‘rsatdiki, boy lingvistik xususiyatlarga ega, jumladan, turli lug‘at va murakkab jumla tuzilmalariga ega bo‘lgan darsliklar o‘quvchilarni PIRLS dasturidagi nozik o‘qish vazifalariga yaxshi tayyorlagan. Til xilma-xilligidan mahrum bo‘lgan darsliklar o‘quvchilarni PIRLS talab qiladigan o‘qishni tushunish bo‘yicha topshiriqlarga yetarli darajada tayyorlanmaydi, bu esa o‘quv materiallarida tilni yanada murakkabroq ishlatish zarurligini ta’kidlaydi.

O‘quv muhitini qo‘llab-quvvatlashi. Aniq o‘quv muhitini qo‘llab-quvvatlovchi darsliklar, masalan, o‘qish bo‘yicha savollar va tushunish mashqlari PIRLS standartlariga yaqinroq moslashtirilgan. Ushbu manbalar talabalarga matnlarni tushunish va sharhlash uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalarni rivojlantirishga yordam berdi. Biroq, ba’zi darsliklarda faol ishtirok etish strategiyalarisiz passiv o‘qishga tayanib, yetarli ta’lim yordami yo‘q edi.

Madaniy va mavzuga oid dolzarblik. Madaniy va mavzuga oid matnlarni o‘z ichiga olgan darsliklar o‘quvchilarni yanada samaraliroq jalb qildi va ularning o‘qishni tushunish ko‘nikmalarini oshirdi. O‘zaro bog‘liq kontentning kiritilishi o‘quvchilarga material bilan bog‘lanishga yordam berdi, o‘qish tajribasini yanada mazmunli qildi va PIRLS ning qiziqarli matnlarga urg‘u berishi bilan uyg‘unlashdi.

Umuman olganda, natijalar shuni ko‘rsatadiki, ko‘plab darsliklar o‘quvchilarni PIRLS ga tayyorlashda istiqbolli bo‘lsa-da, matn tanlash, tushunish strategiyasini o‘rgatish, til boyligi va o‘qitishni qo‘llab-quvvatlashda ilg‘or tajribalarni yanada izchil qo‘llash zarurati aniqlandi. Bu yaxshilanishlar darsliklar o‘quvchilarni milliy va xalqaro baholashda muvaffaqiyatga erishish uchun zarur ona tili va o‘qish savodxonligi ko‘nikmalari bilan yaxshi jihozlashiga yordam beradi[4].

MUHOKAMA. Ona tili va o‘qish savodxonligi darsliklarida PIRLS topshiriqlariga mos matnlar tahlil qilish natijalarini PIRLS vazifalari bilan bog‘liq holda muhokama qilishda ta’lim

amaliyoti va mutaxasislar uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot o‘quvchilarning ona tili va o‘qish savodxonligi ko‘nikmalarini rivojlantirishda matnning murakkabligi va rang-barangligi muhimligini ta’kidlaydi. Turli xil matnlar va asta-sekin murakkab tarkibni o‘z ichiga olgan darsliklar PIRLS mezonlariga mos keladi va muhim o‘qish ko‘nikmalarini rivojlantiradi[5].

Darsliklarda tushunish strategiyalariga urg‘u berishning nomuvofiqligi jiddiy tashvish tug‘diradi. Tanqidiy fikrlash va sharhlash qobiliyatlari bo‘yicha aniq ko‘rsatmalarga ega bo‘lmagan darsliklar o‘quvchilarni PIRLS baholashning kognitiv talablariga yetarlicha tayyorlanmasligi mumkin. Bu o‘quv dasturlarini ishlab chiquvchilarning samarali tushunish strategiyalarini yanada izchil ravishda birlashtirishi zarurligini ta’kidlaydi.

Talabalarni nozik o‘qish vazifalariga tayyorlashda lingvistik xususiyatlar hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, o‘quvchilarning o‘qish qobiliyatini oshirish uchun darsliklar yanada boy til xilma-xilligini o‘z ichiga olishi kerak. Ba’zi darsliklarda yetarlicha lingvistik murakkablikning yo‘qligi PIRLS standartlariga javob bermaydigan bo‘shliqni ko‘rsatadi[6].

Darsliklar doirasida o‘qitishni qo‘llab-quvvatlash yana bir muhim sohadir. Yo‘naltirilgan o‘qish savollari va tushunish mashqlari bilan ta’minlangan darsliklar PIRLS taxminlariga ko‘proq mos keladi. O‘quv qo‘llab-quvvatlashini kuchaytirish passiv o‘qish va faol ishtirok etish o‘rtasidagi tafovutni bartaraf etishga yordam beradi va yaxshiroq tushunish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Madaniy va mavzuga oid dolzarblik ham o‘quvchilarni jalb qilishning asosiy omili sifatida maydonga chiqadi. O‘zaro bog‘liq tarkibni o‘z ichiga olgan darsliklar o‘quvchilarning faolligini va tushunishni kuchaytiradi, PIRLS ning qiziqarli matnlarga e’tiborini qaratadi. Ushbu topilma shuni ko‘rsatadiki, madaniy va mavzuli matnlarni o‘z ichiga olish o‘quvchilarb uchun o‘qishni yanada mazmunli qilishi mumkin[7].

Umumiy qilib aytganda, tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, ko‘plab darsliklar istiqbolli bo‘lsada, o‘quvchilarni PIRLS baholashga yaxshiroq tayyorlash uchun matn tanlash, tushunish strategiyasini o‘rgatish, lingvistik boylik va ta’limni qo‘llab-quvvatlashda ilg‘or tajribalarni yanada izchil qo‘llash zarurati bor.

XULOSA. Ona tili va o‘qish savodxonligi darsliklarni PIRLS vazifalari bilan bog‘liq holda tahlil qilish o‘quv materiallarini xalqaro savodxonlik standartlariga puxta muvofiqlashtirish zarurligini ta’kidlaydi. Tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, ko‘plab darsliklar o‘quvchilarni PIRLS baholashga tayyorlashda potentsialni ko‘rsatsada, yaxshilashni talab qiladigan muhim sohalar mavjud.

Asosiy topilmalar o‘quvchilarning o‘qishni bosqichma-bosqich rivojlanishini rag‘batlantirish, tegishli murakkablikdagi turli xil matnlarni birlashtirish muhimligini ta’kidlaydi. Tushunish strategiyalariga e’tibor qaratishdagi nomuvofiqlik, tanqidiy fikrlash va sharhlash qobiliyatlari bo‘yicha aniq ko‘rsatmalarni yanada mustahkamroq birlashtirish uchun darsliklarga ehtiyoj borligini ko‘rsatadi. Qolaversa, darsliklar tarkibidagi til xususiyatlarining boyligi hal qiluvchi ahamiyatga ega; Til xilma-xilligidan mahrum bo‘lganlar o‘quvchilarni PIRLS tomonidan baholagan nozik o‘qish vazifalariga tayyorlashda yetishmaydi.

Ta’lim yordami yana bir muhim elementdir; Boshqaruvga asoslangan o‘qish savollari va tushunish mashqlarini taklif qiluvchi darsliklar PIRLS mezonlari bilan yaxshiroq moslashadi, faol ishtirok etish va chuqurroq tushunishga yordam beradi. Bundan tashqari, madaniy va mavzuga oid matnlarning kiritilishi o‘quvchilarning faolligini oshiradi, o‘qish tajribasini yanada mazmunli qiladi va PIRLSning qiziqarli kontentga urg‘u berishiga mos keladi.

Umuman olganda, talabalarni PIRLS va shunga o‘xshash baholashga yaxshiroq tayyorlash uchun o‘quv dasturlarini ishlab chiquvchilar, o‘qituvchilar va siyosatchilar matn tanlash, tushunish strategiyasini o‘rgatish, lingvistik boylik va darsliklarda o‘qitishni qo‘llab-quvvatlashni yaxshilashga e’tibor qaratishlari kerak. Ushbu moslashtirish o‘quvchilarning o‘qish savodxonligi bo‘yicha

sayohatlarida muvaffaqiyat qozonishlari uchun zarur ko‘nikmalar bilan jihozlanishini ta’minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Sarvinoz, B. (2022). “Ona tili va o‘qish savodxonligi “darslarida pirls topshiriqlari ustida ishlashning pedagogik muammolari. Scientific Impulse, 1(4), 874-877.

2. Norboyevich, S. B. (2023). Xalqaro baholash dasturlari (PIRLS) asosida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarinining kasbiy-metodik tayyorgarligini takomillashtirish. Qo‘qon universiteti xabarnomasi, 1, 103-105.

3. Hasanova, S. K. (2024). Ona tili va o‘qish darslarida pirls hikoyalaridan foydalanish orqali xalqaro baholash dasturiga tayyorgarlik ko‘rishning metodik shartlari. Экономика и социум, (5-1 (120)), 323-330.

4. Hasanova Sabohat Komil qizi “Ona tili va o‘qish savodxonligi darslarida PIRLS xalqaro baholash dasturini takomillashtirish” Zamonaviy Boshlang‘ich ta’lim innovatsiyalar, muammolar va rivojlantirish istiqbollari xalqaro ilmiyamaliy konferensiyada 2023.

5. PIRLS tadqiqotlariga tayyorlov jarayonida interfaol metodlardan foydalanish for patriciation in the scientific-online conference “International conference on medicine, science and education” with an article entitled 26.03.2024 Hasanova Sabohat Komil qizi.

6. Farmonovna, R. K. (2023). O‘zbekiston ta’limining finlyandiya ta’limi bilan integratsiyalashuvida xalqaro baholash dasturlarini qo‘llash imkoniyatlari: Rajabova Kimyoxon Farmonovna, Buxoro davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi. Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал, (2), 244-250.

7. Rustamovna, H. N., & Hamrayevna, S. M. (2022). Ona tili va o‘qish savodxonligi darslarida innovatsion va interfaol usullardan foydalanish. Interpretation and researches, 1(1), 67-69

GLOBALIZATSIYA JARAYONIDA MEDIA VA KIBERXAVFSIZLIKNING AHAMIYATI

Babadjanov Salohiddin Sobitdjonovich
O‘zbekiston Respublikasi qurolli kuchlar akademiyasi, qurolli kuchlarda axborot texnologiyalari va kiberxavfsizlik kafedrasi professori, s_bobojonov@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada axborotlashgan jamiyatda kiberxavfsizlik bo‘yicha immunitetni rivojlantrish zaruriyati informatsion muhitida mas’uliyatli va xavfsiz xulq-atvor ko‘nikmalarini rivojlantirish orqali kiberxavfsizligini rivojlantirishning metodik omillari ilmiy talqin qilishga qaratilgan. Shu bilan birgalikda manipulyatsion axborot xaosini himoya qilishda kiber immunitetni axamiyati haqida kelitirib o‘tilgan.

Tayanch so‘z: kiberxavfsizlik, axborot xavfsizligi, glaballashuv, media immunitet, media xavfsizlik manipulyatsion axborotlar.

ВАЖНОСТЬ МЕДИА И КИБЕРБЕЗОПАСНОСТИ В ПРОЦЕССЕ ГЛОБАЛИЗАЦИИ

Аннотация. В данной статье основное внимание уделяется научной интерпретации необходимости формирования иммунитета к кибербезопасности в информационном обществе, методическим факторам развития кибербезопасности путем привития навыков ответственного и безопасного поведения в информационной среде. При этом была отмечена важность кибериммунитета в защите от манипулятивного информационного хаоса.

Ключевые слова: кибербезопасность, информационная безопасность, глобализация, медиа иммунитет, медиа безопасность, манипуляторная информация.

THE IMPORTANCE OF MEDIA AND CYBERSECURITY IN THE PROCESS OF GLOBALIZATION

Abstract. This article focuses on the scientific interpretation of the need to develop immunity to cyber security in the information society, methodological factors in the development of cyber security by instilling skills of responsible and safe behavior in the information environment. At the same time, the importance of cyber immunity in protecting against manipulative information chaos was noted.

Key words and concepts: cyber security, information security, globalization, media immunity, media security, manipulative information.

Kirish. Mustaqillik davrida mamlakatimizda har tomonlama yetuk va barkamol shaxslarni tayyorlash borasida ulkan ishlar amalga oshirib kelinmoqda, ta’lim tizimi davlat va jamiyat rivojlanishining ustuvor yo‘nalishiga aylandi.

Hammamizga ma’lumki, uchinchi ming yillikning ijtimoiymadaniy mohiyati jahon iqtisodiyatining globallashuvi, jamiyatni axborotlashtirish, ilmu-fan, texnika, turli xil ommaviy axborot vositalari va fuqarolik jamiyatining jadal rivojlanishi hamda ma’naviy qadriyatlarning o‘zgarishi bilan bevosita bog‘liqdir.

Ba’zi odamlar “Axborot texnologiyalari xavfsizligi”, “Axborot xavfsizligi” va “Kiberxavfsizlik” atamalarini sinonim sifatida ishlatishadi. Turli manbalarda (Internetda va ilmiy nashriyotlarda) bir nechta ta’riflar va taqqoslashlar nashr etilgan. Manbalardagi ma’lumotlarni taxlil qilgan holda va

ushbu sohalarda faoliyat yuritayotgan mutaxassislar bilan hamkorlikda ushbu tushunchalar haqida tasavvurimizni taqdim etishga qaror qildik.


Globalizatsiya tufayli axborot va ma'lumotlar oqimi tezlashdi. Media nafaqat yangiliklarni yetkazib berish, balki jamiyatni ma'lumotli qilish va turli madaniyatlarni yaqinlashtirish vositasiga aylandi. Ammo, bu jarayonda bir qator muammolar ham yuzaga keladi.

Davlatlarning harbiy tashkilotlari "kiberxavfsizlik"ga strategic nuqtai nazardan yondashadi. Shuningdek, ular "kiberxavfsizlik" atamasini "kiber urush" atamasi bilan birgalikda ishlatishadi.

Yevropa Ittifoqining kiberxavfsizlik agentligi (The European Union Agency for Network and Information Security - ENISA) hujjatlarida kiberxavfsizlik: kommunikatsion xavfsizlik, operasiya xavfsizligi, axborot xavfsizligi, fizik xavfsizlik va milliy xavfsizlik sohalarini o'z ichiga qamrab olishini belgilangan[1].

	**Fizik xavfsizlik** - kiber tizim holatiga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan fizik (jismoniy) tahdidlardan himoya qilish. Bu serverlarga fizik kirish, tarmoqqa zararli dasturlarni kiritish yoki foydalanuvchilarni bunga majburlash.
	**Milliy xavfsizlik** – fizik va kiber aktivlarga tahdid solishi orqali tajovuzkorning siyosiy, harbiy yoki strategik ustunlikka ega bo'lish mumkin bo'lgan kibermakondagi tahdidlardan himoya qilish. Bu Axborot tizimlariga va tarmoqlariga yoki boshqa sanoat infratuzilmalariga hujumlardir.
	**Kommunikatsiyalar xavfsizligi** – kibertizimlarning texnik infratuzilmasiga ta'sir qilishi, yani uning egalari, ishlab chiquvchilari yoki foydalanuvchilari tomonidan ko'zda tutilmagan harakatlarni bajarilishi, ya'ni konfiguratsiya o'zgarishiga olib kelishi mumkin bo'lgan tahdidlaridan himoya qilish.
	**Operatsiya** (jarayonlar) xavfsizligi – egalari, ishlab chiquvchilari yoki foydalanuvchilar tomonidan ko'zda tutilmagan natijalarga olib kelishi mumkin bo'lgan ish jarayonlarining ataylab buzilishlaridan himoya qilish.
	**Axborot xavfsizligi** - kibertizimda saqlanayotgan va uzatiladigan ma'lumotlarni o'g'irlash, yo'q qilish yoki o'zgartirish kabi tahdidlardan himoya qilish.

Ushbu yuqorida keltrib o'tilgan fizikdan tortib axborot xavfsizligigacha bo'lgan jarayonlardan keylib chiqib biz quydagiga kiberxavfsizlik tizimining komponentlarini misol tariqasida keltiramiz (1-rasm).



1-rasm kiber hujumlarni qo'llanishi bo'yicha eng ko'p tarqalgan usuli

Ana endi Kiberxavfsizlik tushunchalari nima ekanligini ko'rib chiqamiz.

Kiberxavfsizlik – kibermakonda shaxs, jamiyat va davlat manfaatlarining tashqi va ichki tahdidlardan himoyalanganlik hoholati.**Kibermakon** deganda axborot texnologiyalari yordamida yaratilgan virtual muhitni tushunish mumkin[2].

Kibermakon falsafada va kompyuter texnologiyalarida qo‘llaniladigan metaforik abstraksiya bo‘lib, ham kompyuterlarning “ichki” ham kompyuter tarmoqlarining “ichki” ikkinchi dunyosi sanalgan virtual xaqiqatdir[5].

Sohaviy tushunchada, kiberxavfsizlik - bu konfidensiyal ma’lumotlarni, axborot tizimlarini va tarmoqlarni kiberjinoyatchilar tomonidan amalga oshiriladigan kiberhujumlar (raqamli hujumlar)dan himoya qilishga yordam beradigan jarayonlar, eng yaxshi amaliyotlar va texnologik yechimlar to‘plamidir.

Axborot xavfsizligi – axborot munosabatlarining subyektlariga nomaqbul ziyonlarni keltirishi mumkin bo‘lgan tabiiy yoki sun’iy xususiyatli tasodifiy yoki qasddan qilingan ta’sirlardan axborot va ta’minlab turadigan infratuzilmaning muhofaza qilinganligi quydagi ko’rinishda bo‘ladi”

- ✓ Parol
- ✓ Shifrlash:
- ✓ Yangilanishlar:
- ✓ Kiber Huquqbuzarliklardan Ogoh Bo’lish:
- ✓ Zaxira Nusxalari:
- ✓ Xavfsizlik Tizimlari

Kiberxavfsizlik bo‘yicha Foydali Tavsiyalar: Shu bilan bir qatorda Dunyo rivojlanishining asosiy tendensyalari orasida jamiyat xayotining barcha sohalarida media vositalarining ta‘siri muammolari dolzarblashayotgan paytda informatsion jamiyatga o‘tish muhim axamiyat kasb etadi[3]. Shubxasiz, axborot texnologiyalari insonlar xayotiga shu darajada chuqur kirib bormoqdaki, ularni umummadaniy kontekstdan chiqarib tashlab bo‘lmaydi. Shuning bilan birga e’tirof etish lozimki, media axborotni uning iste‘molchilariga bo‘lgan nafaqat ijobiy, balki salbiy ta‘siri ham oshib bormoqda. Hozirda axborot oqimi asosan media kanallari orqali amalga oshirilmoqda. Bu media kanallari orqali berilayotgan ma’lumotlarni taxlili yondashish ham muhum kasb etadi.

Axborotlashgan jamiyatda **media va immunitet** atamalarini qo‘llash natijasida «**media immunitet**» tushunchasi paydo bo‘ldi. Bu – yolg‘on xabarlar hamda manipulyatsiyaga bardoshliligi sanaladi. Bizga ko‘rinib turibdiki, sivilizatsiyalashgan davlatlarning deyarli hech bir aholisi o‘z hayotini raqamli texnologiyalarsiz tasavvur qila olmaydigan va har kuni axborot maydonida bo’lgan bir paytda, ommaviy axborot vositalari media hamda kiber makonning yaqin aloqalarini e‘tiborsiz qoldirish endi qabul qilinishi mumkin bo‘lmagan holat.

Bugungi tahlikali davrda media tamonidan yoritilayotgan ma‘lumotlarni taxlilini ko‘rib chiqamiz (2-rasm).

Media matn orqali media immunitetni rivojlantrish



2-rasm media tasvir orqali manipulyatsi xolati

Suratda ko‘rinib turgandek dunyoga mashxur tele (tv) kanal orqali harbiy siyosatga oyid surat lavhasi e‘lon qilingan. Ushbu suratda uch xil kadr aks etgan ko’rshingiz mumkin. 1- kadrda go‘yoki unga qurol o‘htarib qiynoqqa solish tasvirlangan, 2- kadrda esa suratni to‘liq rakusi aks etgan unda ko‘rishingiz mumkin voqilik aslida birinchi kadrda aks etkandek emas. Shu tarqiqa uchunchi kadr ham mavjud. Bunda shunin taxlil qilish mumkinki media kontentda berilgan ma’lumotlar doyimham shaffof bo‘lmasligi, biroz vaziyatni to‘liq aks etishini dizinformatsiyaga berilmaslik talab qiladi.

Zamonaviy urushlarda kiber bo‘linmalarning nafaqat kiberhujimlar balki ularni media olamdagi faoliyatga ham to‘xtalish lozim.



Xulosa. Axborotlashgan jamiyat sharoitida hozirgi yoshlarni kelajak xayotga tayyorlashda OAV turlari, ular orqali axborotlarni yaratish va uzatish usullarini o‘rgatish orqaligina erishishimiz mumkin. Globalizatsiya sharoitida media va kiberxavfsizlik o‘zaro chambarchas bog‘liq bo‘lib, ular jamiyatning ma’naviy, iqtisodiy va siyosiy barqarorligini ta’minlashda asosiy o‘rin tutadi.
Bugungi yoshlar televidenie, gazeta, jurnal, kino, radio va Internet bilan kunlik xayotida duch keladilar va ularning xayotida OAV muhim o‘rin egallab kelmoqda. Va bunday jarayonga pedagogik aralashuvsiz, aniq va maqsadli rejalarsiz o‘sib kelayotgan avlodni kelajak xayotga tayyorlash mumkin emas.

Yuqorida keltirilgan fikrlarni kelib chiqib, yuqori darajali media immunitet kompetentligiga ega xarbiy xizmatchilarning mediabilimlarini mediasavodxonligini raqamli (kompetentligini) rivojlantirish maqsadida.

Muassasasa boshlig‘ining tashabbusi bilan professor-o‘qituvchilar tarkibining axborot texnologiyalari bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarni rivojlantirish maqsadida maxsus o‘quv kurslarini tashkil qilish. Ushbu maxsus kusrni tamomlaganligi to‘grisida sertifikat berish tizimi joriy qilish. Taklif. Har maxsus kursning so‘ngida ishtirokchilardan ularning axborot texnologiyalari media va raqamli kompetentligi darajasini aniqlash lozim va tegishli toifalangan sertifikat bilan taqdirlanishi tavsiya etiladi. Bilim darajasini baholashda 1-ilovaga asosan amalga oshirish maqsadga muofiq bo‘lardi (tavsiya etiladi).

1-ilova

№	Professor-o‘qituvchilarning AKT bo‘yicha rivojlanganlik darajasi xarakteristikasi				
	Yo‘nalishlar	Belgilanish	darajalanishi		
			Past	O‘rta	Yuqori
1	MS Office ilovalari to‘plamini bilish darajasi	O	1	2	3
2	Multimedia texnologiyalarini qo‘llash darajasi	M	1	2	3
3	Internet texnologiyalaridan foydalanish darajasi	I	1	2	3
4	Axborot xavfsizligini bilish darajasi	K	1	2	3

Izoh. Masalan, S.S. Bobojonovning kurs yakunida axborot texnologiyalari bo‘yicha rivojlanganlik xarakteristikasi:

AKT bo‘yicha rivojlanganlik darajasi			
O	**M**	**I**	**K**
3+	**2+**	**3**	**3**

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. «Definition of Cybersecurity — Gaps and overlaps in standardisation», The European Union Agency for Network and Information Security, 2015.
2. Kiberxavfsizlik to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasi Qonuni, 15.04.2022 yildagi O‘RQ-764-son, 3- modda.
3. Парламентская Ассамблея Совета Европы. Документ №8753 от 6 июня 2000.
4. Babadjanov S. S. (2022). Zamonaviy kiber-makonda bo‘lajak harbiy xizmatchilarning media madaniyatni rivojlantirishga tasir etuvchi omillar. International journal of philosophical studies and social sciences, 28-31.
5. Babadjonov, S. S., & Metinov, D. M. (2024). Axborot xaosini himoya qilishning samarali vositasi sifatida mediata`lim hamda mediaxavfsizlikni zaruriyati. Obrazovaniye nauka i innovatsionnye idei v mire, 55(5), 53-56.

“TEXNOLOGIYA VA UNI O‘QITISH METODIKASI” FANINI O‘QITISHDA MODULLI KREATIV O‘QUV MATERIALLARIDAN FOYDALANISH TEXNOLOGIYASI

Roximova Nilufar Egamberganovna
Urganch Innovatsion universiteti Pedagogika va boshlang‘ich ta’lim metodikasi kafedrasi katta o‘qituvchisi, nilufarraximova@urgiu.uz

Annotatsiya. Maqolada “Texnologiya ta’limi va uni o‘qitish metodikasi fani”ni o‘qitishda bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari uchun tavsiya, modulli o‘quv materiallaridan foydalanib o‘qitish jarayoni, modulli o‘qitish texnologiyasining boshqa texnologiyalardan farqi, o‘qitishni individuallashtirish haqidagi ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: texnologiyaning roli, ta’lim mazmunini yangilash, boshlang‘ich ta’lim, modulli o‘quv materiallaridan, zamonaviy ta’lim, ko‘nikma, qobiliyat, o‘qitishni individuallashtirish, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari.

ТЕХНОЛОГИЯ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ МОДУЛЬНЫХ ТВОРЧЕСКИХ УЧЕБНЫХ МАТЕРИАЛОВ В ПРЕПОДАВАНИИ ПРЕДМЕТА «ТЕХНОЛОГИЯ И МЕТОДИКА ЕЁ ПРЕПОДАВАНИЯ»

Аннотация. В статье дано рекомендации для будущих учителей начальных классов, процесс обучения с использованием модульных учебных материалов, отличие модульной технологии обучения от других технологий в курсе «Технология обучения и методика ее обучения», информация об индивидуализации обучения.

Ключевые слова: роль технологии, обновление содержания образования, начальное образование, модульные учебные материалы, современное образование, навыки, умения, индивидуализация обучения, будущие учителя начальных классов.

TECHNOLOGY OF USING MODULAR CREATIVE TEACHING MATERIALS IN TEACHING THE SUBJECT “TECHNOLOGY AND ITS TEACHING METHODOLOGY”

Abstract. In the article, the recommendation for the future primary school teachers, the process of teaching using modular educational materials, the difference of modular teaching technology from other technologies in the course of “Technology education and its teaching methodology” difference, information about individualization of teaching is provided.

Keywords: the role of technology, renewal of educational content, primary education, modular learning materials, modern education, skills, abilities, individualization of teaching, future primary class teachers.

Kirish. Jahon miqyosida oliy ta’lim tizimini rivojlantirish, bo‘lajak mutaxassislarning raqobatbardoshligini ta’minlash; kasbiy-pedagogik faoliyatda innovatsion shakllantirish; ta’limda ilg‘or texnologiya, didaktik vositalar va uskunalardan keng foydalanish; o‘qitishning zamonaviy usullarini integratsiyalash masalalari dolzarb vazifalardan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Shuning uchun ham bo‘lajak o‘qituvchilarni kreativ yondashuvlar asosida innovatsion faoliyatga tayyorlashda o‘z bilimini uzluksiz to‘ldirib borishi va undan kasbiy mahorat hamda ijtimoiy faoliyatda ijodiy foydalana olish qobiliyatini rivojlantirish muhim sanaladi.

Adabiyotlar sharhi. Keyingi yillarda respublikamizda oliy va professional ta’limi tizimi

muassasalarida modulli o‘qitish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borildi va natijalari amalda tatbiq etildi. Bu sohada haligacha izlanishlar olib borilmoqda, tajribalar o‘tkazilmoqda. N.X.Avliyoqulov , N.N.Musayeva fikricha modulli o‘qitish – o‘qitishning istiqbolli tizimlaridan biri hisoblanadi, chunki u boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining bilim imkoniyatlarini va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish tizimiga eng yaxshi moslashgandir. Modulli o‘qitish, kasbiy ta’limning quyidagi zamonaviy masalalarini har tomonlama yechish imkoniyatini yaratadi.

Mazmuni. Modul – faoliyatlik asosida o‘qitish mazmunini optimallash va tizimlash, dasturlarni o‘zgaruvchanligi, moslashuvchanligini ta’minlaydi. Modulli o‘qitish samaradorligi quyidagi omillarga bog‘liq:

-ta’lim muassasasining moddiy-texnik bazasi;
-malakali professor-o‘qituvchilar tarkibi darajasi;
-boshlang‘ich sinf o‘quvchilar tayyorgarligi darajasiga;
-kutiladigan natijalar bahosiga;
-didaktik materiallarning ishlab chiqilishiga;
-modullar natijasi va tahliliga.

Modulli o‘qitishda amaliy va nazariy mashg‘ulotlari bilan birga olib boriladi, har bir modul yangi material bilan to‘ldirilib borilishi kerak.

Modulli o‘qitish qo‘llanilganda quyidagi afzalliklar va imkoniyatlar bo‘lishi keltiriladi:

-fanlar ichidagi modullar orasidagi o‘qitish uzluksizligini va uzviyligi ta’minlanadi;
-har bir modul yaxlit tugallangan o‘quv jarayoniga moslashgan;
-boshlang‘ich sinf o‘quvchilar o‘zlashtirishi muntazam va samarali nazorat qilinadi;
-har bir modul to‘la o‘zlashtirilgandan so‘ng ikkinchi modulga o‘tiladi. Buning natijasida o‘quvchi yetarli bilimlarga, ko‘nikmalarga ega bo‘ladi.

Modulli metodika o‘qitishda faoliyatlilik, tizimli kvantlash, qiziqtirish, modullilik, muammolilik, kognitiv vizuallilik, xatoliklarga tayanish tamoyillariga muvofiq ishlab chiqishi lozim. Modulli o‘qitish texnologiyasining boshqa texnologiyalardan farqi shundaki, bunda har qaysi bosqichda boshlang‘ich sinf o‘quvchilar o‘quv materiali bo‘yicha yetarli bilim, ko‘nikma va malakalarni egallaganlaridan keyingina so‘nggi bosqichga o‘tadilar. Modulli o‘quv materiallari bilan mustaqil ishlash quyidagicha amalga oshirish mumkin:

-talabalar o‘quv materiali tuzilishi bilan tanishish;
-berilgan savollarga modulli o‘quv materialidan va boshqa manbalardan javob izlash;
-mavzuni mustaqil o‘rganib referat yozish;
-amaliy topshriqlarni texnologik xaritalardan foydalanib bajarib, natijalari bo‘yicha hisobot yozish;
-test savollariga javob berish;
-o‘rganilgan ma’lumotni tahlil etish;
-modulli o‘quv materialida berilgan vazifalar va mashqlarni mustaqil bajarishi.

Kreativlik amaliy qiymatga ega ko‘plab g‘oyalarni yaratish qobiliyati bo‘lib, u vaqtni, kuchni tejashga imkon beradi, foydalanishga har jihatdan qulay bo‘lgan mahsulotning yaratilishini ta’minlaydi. Ana shu sifatga ega shaxs faoliyatida izchil ravishda yangi g‘oyalarni ilgari surish, masala, muammoning yechimini topishda oqilona qarorlarni qabul qilish, mahsulotni o‘zgacha ko‘rinishda talqin etish, uni orginal elementlar bilan boyitish orqali amaliy qiymatga ega natija (mahsulot)ga ega imkonini yaratuvchi qobiliyat aks etadi [7].

Shaxsda kreativlik sifatlarini rivojlantirishda uni fikrlashga, ma’lumotlarni umumlashtirishga, tahlil etishga, turli murakkab vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilishga yoshlikdan odatlantib borish maqsadga muvofiqdir. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida o‘quv fanlari o‘quvchilarda kreativlikni rivojlantirishda o‘ziga xos o‘rin tutadi. Zero, ijtimoiy, gumanitar, tabiiy yoki amaliy xarakterga ega

bo‘lishidan qat’iy nazar o‘quv fanlari bo‘yicha tashkil etiladigan mashg‘ulotlarda o‘quvchilarga beriladigan topshiriqlar ularni fikrlashga, o‘ylashga, mantiqiy tafakkur yuritish, o‘rganilayotgan mavzu bo‘yicha orginal fikrlarni ilgari surishga undaydi [8].

“Texnologiya” darslarida o‘quvchilarning kreativlik sifatlarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan tadqiqotning yetakchi nazariy g‘oyalari, pedagogik kuzatish natijalari, qolaversa, kreativ mahsulotning umumiy tavsifi uning sifati, amaliy qiymatini quyidagi mezonlar asosida baholash maqsadga muvofiqligini tasdiqladi:

1.Mukammallik (kreativ g‘oyaning har tomonlama puxta asoslanganligi; kreativ mahsulotning shakl, rang, fazoviy hamda kompozitsion jihatlarining o‘zaro mutanosibligi).

2. Mazmun va shakl uyg‘unligi (kreativ g‘oyaning puxta nazariy asosga egaligi, mantiqiy yakunlanganligi; nazariy g‘oyaning kreativ mahsulot shakliy tuzilmasida o‘z ifodasini topganligi).

3.O‘ziga xoslik (boshqalar tomonidan bildirilmagan kreativ g‘oyaningilgari surilganligi; boshqalar “qo‘l urmagan” mavzu, g‘oya bo‘yicha kreativ mahsulotning yaratilganligi).

4. Tugallanganlik (yakuniga yetganlik; kreativ g‘oya mazmunida boshlang‘ich, yakuniy fikriy harakat (operatsiya)larning tugal ifodalanganligi; kreativ mahsulotda barcha detallarning to‘liq yakuniga yetkazilganligi).

5. Hissiy-estetik ta’sirga egalik (kreativ g‘oya va mahsulotning hissiy ifodalanganligi va atrofdagilarga estetik ta’sir eta olishi).

6. Mavjud hissiy-estetik ehtiyojni qondira olish (kreativ g‘oya va mahsulotning ijtimoiy sub’ektlarda hissiy kechinmalarni uyg‘ota olishi va estetik ehtiyojlarini qondirishga xizmat qilishi).

7. Amaliy qiymatga egalik (kreativ g‘oya, mahsulotning shaxslararo ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy munosabatlarni tashkil etishga xizmat qilishi) [1].

Natijalar. O‘quvchilarda kreativlikni shakllantirish murakkab jarayon bo‘lib, bu jarayonni bosqichma-bosqich amalga oshirish talab qilinadi. Nazariy tahlil, pedagogik kuzatish va amaliy tajriba natijalariga ko‘ra o‘quvchilarda kreativlik sifatlarini rivojlantirish quyidagi bosqichlarda kechadi, degan xulosaga kelindi: moslashuv (adaptiv) bosqichi; rivojlantirish bosqichi; amaliy-faoliyatli bosqich; tahlil-baholash bosqichi [2].

Biz “Texnologiya ta’limi va uni o‘qitish metodikasi fani”ni modulli o‘quv materiallaridan foydalanib o‘qitish jarayonini quyidagi bosqichlarda amalga oshirdik.

1. Tashkiliy ishlar.

Modulli o‘quv materiallaridan foydalanib o‘qitish jarayoniga tayyorgarlik ko‘rish muhim ahamiyatga ega. Chunki har bir modul o‘ziga xos tayyorgarlikni talab etadi. O‘qituvchi har bir boshlang‘ich sinf o‘quvchisining dastlabki bilimi va o‘zlashtirish imkoniyatlarini o‘rganish kerak.Chunki boshlang‘ich sinf o‘quvchilar o‘quv materialini o‘zlashtirishda dastlabki bilmlar va ko‘nikmalariga tayanadilar. Ularning o‘rganish va mustaqil ishlash qobiliyatlari, psixologik imkoniyatlari modulli o‘qitishga ta’sir ko‘rsatadi. Biz kreativ-modulli texnologiya asosida mashg‘ulotlarni olib borish uchun ishlab chiqilgan modulli o‘quv dasturi va modulli o‘quv materiallari bo‘yicha tashkiliy ishlarni amalga oshirdik.

Modul tarkibidagi nazariy va amaliy mashg‘ulotlarni tashkil qilish uchun:

- o‘qitish joyi tanlandi;
- mashg‘ulotlarni o‘tkazish vaqti o‘rnatildi;

Mehnat jarayonlarini amalga oshirish uchun jihozlar, moslamalar, audiovizual vositalar, o‘qitish va o‘rganish vositalari (doska, flipchart, proyektor. videomagnitafon) ning yaroqliligi, shuningdek, elektr toki, suv, havo bosimi va hokazolar holati o‘rganildi.

2. Ta’lim mazmuni va maqsadni belgilash.

“Texnologiya”ni modulli metodika asosida o‘qitishda o‘quv maqsadi va o‘quv materiali

mazmunini belgilash muhim hisoblanadi.

Umumiy o‘quv maqsadi belgilangandan so‘ng har bir modul bo‘yicha o‘quv maqsadlari belgilandi. O‘quv maqsadlari modul yakunida ta’lim jarayoni natijasida boshlang‘ich sinf o‘quvchisi erishishi kerak bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarni belgilaydi. Biz tomondan “Texnologiya va uni o‘qitish metodikasi fani” modulli o‘quv materiallaridan foydalanib tashkil etilgan o‘qitish jarayonini quyidagi sxema orqali tasvirlash mumkin.

Modulli o‘qitishda o‘quv maqsadlari boshlang‘ich sinf o‘quvchilar harakatida ifodalanadigan, aniq ko‘rinadigan va baholanadigan natijalar orqali qo‘yiladi. Har bir modul yakunida o‘quv maqsadlari mos baholash materiallari va mezonlari berilishi kerak.

Modulni o‘quv maqsadi qanchalik aniq qo‘yilsa, unga erishilganlik darajasini baholash shunchalik oson bo‘ladi.

Modulli metodika asosida o‘qitishda har bir modul bo‘yicha va vositalardan foydalanildi. Har bir modul bo‘yicha darslik, kartoteka, tarqatma materiallardan, uslubiy qo‘llanmalar, ko‘rsatmalar, jadvallar, jihoz yoki asbobni ishlatish bo‘yicha ko‘rsatmalar tayyorlab qo‘yiladi. Shuningdek, bunday didaktik materiallarga qo‘shimcha ravishda tasviriy materiallar (fotosuratlar, rasmlar, chizmalar, grafiklar) tayyorlash mumkin. Dars jarayonida ko‘rgazmalilikni ta’minlash juda muhim ahamiyatga ega.

Ovozli va tovushli audio-vizual vositalar mehnat usullari, texnologik jarayonlar va funksiyalar, buyumlar va obyektlar real tasavvurlarni vujudga keltiradi. Mehnat sohasiga tegishli asl narsalar, mehnat qurollari, mahsulotlar, jihozlar va asboblar ishchi holatiga keltiriladi .

Mehnat usullarini bajaruvchi boshlang‘ich sinf o‘quvchisi ko‘rgazmali vositalar, jihozlar,uskuna va moslamalarni ishlata olishni va ulardan maqsadga muvofiq va samarali tarzda foydalanishni bilishi kerak. O‘qituvchi texnik vositalardan foydalanilayotganda yuzaga keladigan texnik muammolarni hal qila oladigan bo‘lishi lozim [2,4].

3. Mashg‘ulotlarni o‘tkazish.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarga modul tarkibidagi nazariy o‘quv materiallarini o‘rgatish quyidagi bosqichlarda o‘tkazish tavsiya etildi:

Tashkiliy qismda boshlang‘ich sinf o‘quvchilar davomati tekshiriladi. Oldingi o‘tilgan mavzu bo‘yicha savol-javoblar o‘tkaziladi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilar faollashtiriladi .

Asosiy qismda yangi mavzu bo‘yicha o‘quv axborotlari uzatiladi, har bir kichik mavzu bo‘yicha boshlang‘ich sinf o‘quvchilarga savollar orqali bilimlari tezkor baholanadi. Dars paytida umumiy savollar orqali bilimlar baholanadi, qo‘shimcha ma’lumotlar beriladi, o‘quv maqsadiga erishilganligiga aniq ishonch hosil qilgandan so‘ng boshlang‘ich sinf o‘quvchilarga modulli o‘quv materiallaridan foydalanib ishlashlari uchun mustaqil ish topshiriqlari beriladi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarning modulli o‘quv materiallaridan foydalanib ishlashlari uchun quyidagi mazmunda topshiriqlar beriladi: berilgan mavzu bo‘yicha to‘plangan ma’lumotlarni tizimlashtirish, mavzu bo‘yicha referat yozish, mavzuga oid muammolarni aniqlash, guruhlarga ajratish, taqqoslash, mashq va topshiriqlarni bajarish nazariy va amaliy testlarga javob izlash kabilardir.

Mehnat xavfsizligi qoidalariga, baxtsiz hodisalar va ishlab chiqarish jarayoniga ta’sir etuvchi salbiy holatlarning oldini olish borasidagi harakatlar kiradi, ya’ni ish o‘rnida shaxsiy xavfsizlik, himoya vositalari va mexanizmlardan to‘g‘ri foydalanish, yong‘inni oldini olish choralari, olov o‘chiruvchi moslamalar kiradi. Mashg‘ulotlarda mehnat xavfsizligi qoidalari tushuntirishlari ish bilan bog‘liq ravishda olib borilishi kerak [2,4].

4. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarni baholash.

Har bir topshiriq yoki mashqdan keyin ishlarini baholashlari lozim. Boshqa bir

imkoniyat esa natijalarni kichik guruhlarda ochiq-oydin va samimiy muhokama qilishdan iboratdir. Modul yakunida yakuniy suhbat uchun vaqt ajratilishi kerak. Bu esa o‘z navbatida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarning natijalari, ularning amalga oshirgan va oshirolmagan ishlari, shuningdek, o‘qituvchilarning natijalar yuzasidan mulohaza yuritishlari uchun yaxshi imkoniyatdir .

Olingan natijalarning ishonchliligi. Bo‘lajak texnologiya fani o‘qituvchilari innovatsiyalardan samarali foydalanish asosan uning kasbiy tayyorgarligiga hamda uning shaxsiy tajribasiga bog‘liq. Innovatsion ta’lim texnologiyalari butun insoniyatning hayot tarzini va mehnat shaklini o‘zgartirib, uni o‘z bilimlarini chuqurlashtirishga, malakasini oshirishga keng imkoniyatlar yaratadi.

Xulosa. “Texnologiya” darslarida o‘quvchilarning kreativlik sifatlarini rivojlantirishda samaradorlikka erishishda ana shu maqsadga qaratilgan pedagogik jarayonning qanday yondashuv asosida tashkil etilishi ham ahamiyatli sanaladi. Shu sababli “Texnologiya” darslarida o‘quvchilarning kreativlik sifatlarini rivojlantirishda yuqori samaradorlikka erishish maqsadida pedagogik jarayonga nisbatan innovatsion xarakterdagi yondashuvlarni qaror toptirish muhim hisoblanadi.

ADABIYOTLAR

1. Roximova N.E. Umumta’lim maktablarida “Texnologiya” fanini o‘qitishga kompetensiyaviy yondashuvning uslubiy asoslari // Pedagogik mahorat - Buxoro, 2023.-№7.- B.72-78.
2. Roximova N.E. Innovatsion ta’lim usullari va texnologiyalarini ta’lim jarayonida qo‘llanilishi// Mug‘allim xem uzliksiz bilimlendirio‘ - Nukus, 2024. -№1/3. - B. 196-202.
3. Roximova N.E “Umumta’lim maktablarida “texnologiya” fanining rivojlanish tarixi va o‘qitish metodikasining shakllanishi” nomli maqola TDPU ILMIY AXBOROTLARI ilmiy-nazariy jurnal.// Toshkent, 2/2024. B 109-123.
4.Rokhimova N.E. “Effective Methods of Training Vocational Education Specialists in Higher Education Institutions”, International Journal of Psychosocial Reabilitation,Vol24,Issue03,2020 ISSN: 1475-7192.
5.Rokhimova N.E. Educational technologies directed to the formation of students competences// International scientific journal of Science and innovation in Volume 2, Issue 6, ISSN:2181-3337, SJIF 2023:5.608. DATE:12.06.2023, pp.84-88.
6.Алибоев Т.Ч. Stages of Developing Creative Qualities in Students. International Journal of Progressive Sciences and Texnologies (IJPSAT) Vol.21 No.2. July 2020. – pp. 11-14.
7.Алибоев Т.Ч. Креативлик ва шахсда креатив сифатларни ривожлантириш зарурияти // “Pedagogika” ilmiy-nazariy va metodik j. – T.: 2019. – № 5. – 11-16-betlar.
8.Алибоев Т.Ч Criteria for assessing the development of creative qualities in students // “Актуальные вопросы современной науки и образования” сборник статей IV международной научно-практической конференции, состаявшейся 5 июля 2020 г. – Пенза: 2020. – с. 231-233.
9. Алибоев Т.Ч. Хорижий тажриба-шахс креативлик сифатларини ривожлантириш омили // Ёшларни касб хунарга йўналтириш, технологик таълимни ривожлантириш ва уни ўкувчилар мехнат фаолияти кўникмаларини ривожлантириш имкониятлари. Масофавий республика илмий-амалий конф. 2020 йил 20 май. – Т.: 2020. – 142-147-бетлар.

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING AXBOROT MADANIYATINI RIVOJLANISHIGA RAQAMLI TA’LIMNING TA’SIRI

Ikromova Mahbuba Vali qizi
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti tayanch doktoranti,
mahbubaikromova005@gmail.com

Annotatsiya. Texnologiya kundalik hayotimizning ajralmas qismi bo‘lib, muloqot qilish, ishlash va o‘rganish uslubimizni o‘zgartiradi. Ta’limdagi texnologiya haqida gap ketganda, biz misli ko‘rilmagan imkoniyatlar va qiyinchiliklarni keltirib chiqaradigan yangi davrga kirmoqdamiz. Ushbu maqolada raqamli asrda ta’limning o‘ziga xos xususiyatlari, ta’lim jarayonida raqamli texnologiyalarni samarali qo‘llash, ijobiy natijalarga erishish uchun muhim omillar, boshlang‘ich ta’lim tizimida tutgan o‘rni, boshlang‘ich sinf darslarida axborot texnologiyalaridan foydalanishning afzalliklari haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: raqamli ta’lim, axborot kommunikatsiya texnologiyalari, online platforma, boshlang‘ich ta’lim, elektron kundalik, interaktiv elektrondoska

THE IMPACT OF DIGITAL EDUCATION ON THE DEVELOPMENT OF INFORMATION LITERACY IN PRIMARY SCHOOL STUDENTS

Abstract. Technology is an integral part of our daily lives, transforming the way we communicate, work, and learn. When it comes to technology in education, we are entering a new era that brings unprecedented opportunities and challenges. This article discusses the distinctive features of education in the digital age, the effective application of digital technologies in the educational process, key factors for achieving positive outcomes, the role of technology in the primary education system, and the benefits of using information technologies in primary school lessons.

Keywords: digital education, information and communication technologies, online platform, primary education, electronic diary, interactive whiteboard.

ВЛИЯНИЕ ЦИФРОВОГО ОБРАЗОВАНИЯ НА РАЗВИТИЕ ИНФОРМАЦИОННОЙ ГРАМОТНОСТИ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЫ

Аннотация. Технологии являются неотъемлемой частью нашей повседневной жизни, изменяя способы общения, работы и обучения. Когда речь идет о технологиях в образовании, мы вступаем в новую эпоху, которая приносит беспрецедентные возможности и вызовы. В этой статье обсуждаются особенности образования в цифровую эпоху, эффективное применение цифровых технологий в учебном процессе, ключевые факторы для достижения положительных результатов, роль технологий в системе начального образования и преимущества использования информационных технологий на уроках в начальных классах.

Ключевые слова: цифровое образование, информационно-коммуникационные технологии, онлайн-платформа, начальное образование, электронный дневник, интерактивная электронная доска.

KIRISH. XXI asrda inson faoliyatining shaxsiy va kasbiy sohalarida bilimlarning ko‘payishi va axborot oqimlarining doimiy o‘sishi bilan tavsiflangan axborot jamiyatiga o‘tish

zamonaviy maktab ta'limiga taqdim etadigan ijtimoiy tartibga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Yurtimizda ta'lim tizimida axborot texnologiyalarini joriy qilish borasida salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda. Yurtboshimizning "barqaror rivojlanishga erishish uchun biz raqamli bilimlarni va axborot texnologiyalarini chuqur o'zlashtirishimiz kerak, bu esa bizga har tomonlama rivojlanishga erishish uchun eng qisqa yo'ldan borishimizga imkon beradi. Bugungi dunyoda raqamli texnologiyalar barcha sohalarda hal qiluvchi rol o'ynamoqda" [1] degan fikrlari ham fikrimizning yorqin isboti.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 24-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'grisida"gi Farmonida maktab ta'limida o'qitish metodikasini takomillashtirish, ta'lim-tarbiya jarayoniga individuallashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich tatbiq etish; xalq ta'limi sohasiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va innovatsion loyihalarni joriy etish vazifasi belgilangan. Shunga asosan maktablarning moddiy texnik bazasini boyitilib, maktablar zamonaviy kompyuter vositalari, elektron o'quv dasturlari bilan bosqichma-bosqich ta'minlanmoqda. Bu so'nggi o'n yillikda o'quv jarayonining axborot-ta'lim muhiti sezilarli darajada yangilanishiga olib keldi, jumladan: mavjud elektron o'quv vositalari, an›anaviy va elektron ta'lim resurslari doirasi kengaydi, bu nafaqat maktab o'quvchilari tomonidan fan natijalariga erishish uchun o'quv jarayonini sifat jihatidan yangi darajada loyihalashtirishga imkon beradi, balki o'quvchilarning axborot madaniyatini shakllantirishda ham muhim rol o'ynaydi.

Zamonaviy ta'lim yangi avlodni yangi axborot sharoitida hayotga tayyorlashga, turli xil ma'lumotlarni idrok etishga, uni tushunish ko'nikmalarini shakllantirishga, uning psixikaga ta'sirining oqibatlarini anglashga, texnik vositalar va zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalangan holda og'zaki bo'lmagan aloqa shakllari asosida aloqa usullarini o'zlashtirishga qaratilgan. Pedagogik va psixologik tadqiqotlarda shu narsa ta'kidlanmoqdaki, AKT o'quvchilarning nazariy, ijodiy va refleksiv tafakkuri rivojlanishiga katta ta'sir etadi. O'quvchining xotirasida u yoki bu hodisa, jarayonning obrazli ifodalanishi o'quv materialini boyitib, uning ilmiy jihatdan o'zlashtirilishiga yordam beradi.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Raqamli ta'lim muhitida zamonaviy axborot texnologiyalari va multimedia vositalaridan foydalanish ta'lim samaradorligini va o'quvchilar axborot bilan ishlash madaniyatini yetarli darajada o'stirishga yordam beradi. butun dunyoda rivojlangan mamlakatlar axborot ma'lumot markazlari online platformalarga joylanganligi sababli yurtimizda uzluksiz ta'lim tizimining barcha bosqichlarida AKTlardan foydalanish zamon talabiga aylanib bormoqda, bu axborot manbalaridan foydalanish uchun esa o'quvchilarda AKT savodxonligi undan foydalanish bo'yicha ko'nikmalar mavjud bo'lishi lozim. Zamonaviy media vositalaridan foydalanish bo'yicha fundamental bilimlarni ta'limning quyi bosqichi ya'ni boshlang'ich ta'limdan shakllantirish maqsad tomon qo'yilgan dastlabki dadil qadam desak mubolag'a bo'lmaydi. "Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanadigan darslar va mashg'ulotlar tufayli bolalar yangi materialni yaxshiroq idrok etadilar, chunki boshlang'ich maktab yoshidagi bolalar atrofdagi dunyoni vizual-majoziy idrok etishga ega. Bunda bola idrok etish jarayonida nafaqat ko'rish va eshitish, balki o'zining fantaziyasi, tasavvuri, his-tuyg'ularidan ham foydalanadi "[5].

"Ta'lim jarayonida raqamli texnologiyalarni samarali qo'llash va kutilgan ijobiy natijalarga erishish uchun bir qator muhim omillar zarur. Bular:

- ta'lim beruvchi ustozning raqamli muhitda fanoliyat yurita olish kompetentliligi;
- maktabning va, ayniqsa, sinf xonasining raqamli ta'lim uchun zarur bo'lgan jihozlar bilan ta'minlanganligi;
- o'quvchilarning raqamli muhitda faoliyat yurita olish savodxonligi;
- o'quvchilarning ta'limiy muloqot va faoliyat uchun shaxsiy raqamli moslama(gadjet)lari mavjudligi;

- raqamli ta'limning samaradorligi uchun darsda va darsdan tashqari beriladigan saboqlar mazmuni, mundarijasi va usullarining mavjudligi" [4].

Douson va Kovalchikning fikriga ko'ra, "texnologiyaning afzalliklari ta'lim oluvchilarning fikrlash va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirishdir" [5].

O'quvchilar ongi va qiziqishini o'stirish, diqqatini jalb qilish, darsga e'tiborini kuchaytirish uchun ko'rgazmali vositalardan, taqdimotlardan, ta'limiy o'yinlardan foydalanish natijaning samarali bo'lishiga xizmat qiladi. Buyuk ustoz Konstantin Dmitrievich Ushinskiy yozganidek: "Agar siz biron bir so'z aytishga qiynalayotgan sinfga kirib qolsangiz, ularga rasmlar ko'rsata boshlang, shunda sinf gapira boshlaydi, eng muhimi esa – erkin gapira boshlaydi" [3].

AKT boshlang'ich maktablarda muhim ahamiyatga ega, chunki u bolalarga boshqa fanlar bo'yicha yaxshi natijalarga erishishga va kerakli narsalarni topishga va ma'lumotlardan alohida foydalanishga yordam beradi. Bolalar AKT bilan erta yoshda tanishishlari juda muhim, chunki ularga ta'limning qolgan qismida va kattalar hayotida bu ko'nikmalar kerak bo'ladi.

"Boshlang'ich sinf darslarida axborot texnologiyalaridan foydalanishning afzalliklari?- O'quv materialini yanada tushunarli va tushunarli tarzda taqdim etish imkonini berasiz.

Rivojlantiruvchi ta'lim, muammoli-dialogik yondashuvni amalga oshirishga hissa qo'shing, sinfda tadqiqot faoliyatini tashkil etish imkonini beradi.

O'rganishga differensial yondashishga yo'l qo'ying.

Darsda kompyuter testlari va test o'yin ishlaridan foydalanish o'qituvchiga qisqa vaqt ichida o'rganilayotgan materialning o'zlashtirilganlik darajasi to'g'risida ob'ektiv tasavvurga ega bo'lish imkonini beradi. uni o'z vaqtida tuzatish" [7].

Muhokama va natijalar. Zamon bilan hamnafas bo'lgan o'qituvchi bugungi kunda psixologik va texnik jihatdan o'qitishda axborot texnologiyalaridan foydalanishga tayyor bo'lishi lozim. Chunki postindustrial jamiyat tomonidan ijtimoiy buyurtmasi sifatida qo'yiladigan talablar: boshlangich ta'limda tizimli fikrlash, ijodiy faoliyat ko'nikmalarini rivojlantirish, o'z ta'lim faoliyatini tashkil etishning yangi usullarini o'zlashtira oladigan, o'zgartiradigan va yaratishga qodir bo'lgan yangi avlodga ehtiyojni yuzaga keltiradi. Bu o'z navbatida o'quvchilarning fikrlash tizimini shakllantirishga hissa qo'shadigan yangi o'quv modelini ishlab chiqish zaruratini, o'quv jarayoni ishtirokchilarining o'zaro ta'sirining maqbul usulini aniqlash zarurati ilmiy assolashni talab etadi.

Boshlangich ta'limda darsning har qanday bosqichini yangi texnik vositalarni joriy etish orqali jonlantirish mumkin va bu raqamli ta'lim muhitini yuzaga keltiradi. AKT ning ta'lim jarayoniga kiritilishi o'qituvchiga darsda o'quv va kognitiv faoliyatning turli shakllarini tashkil etish, o'quvchilarning mustaqil ishini faol va maqsadli qilish imkonini beradi. Axborot texnologiyalarini joriy etish o'quvchilarning quyidagi yosh xususiyatlarini hisobga olishga asoslangan.

Boshlang'ich maktabda bolaning etakchi faoliyati o'yindan o'rganishga o'zgaradi. Kompyuterning o'yin imkoniyatlaridan didaktik imkoniyatlar bilan birgalikda foydalanish bu jarayonni yanada yumshoq qiladi. Shu bilan birga, barcha majburiy o'quv materiallari yorqin, qiziqarli, multimedia ko'rinishiga tarjima qilinadi, o'yin yondashuvining oqilona ulushi, grafika, animatsiya, shu jumladan interaktiv, ovoz effektlari va ovozli tasvirlardan keng foydalanish va videokliplarni o'z ichiga oladi. Sinfdagi yordamchi texnologiyalar o'rganish va jismoniy nuqsonlari bo'lgan o'quvchilar uchun o'yin maydonini tenglashtirishi mumkin. Misol uchun, monitorlarni ko'rish qobiliyati zaif bo'lganlar uchun kattaroq kontrast va kattaroq shriftlarni ta'minlash uchun sozlash mumkin.

Kuchaytirish tizimlari, yopiq taglavhalar yoki matnga asoslangan aloqa eshitish nuqsonlari bo'lganlar uchun yechimlarni taklif qiladi. Audio kitoblar va darsliklar ko'rish yoki kognitiv nuqsonlari bo'lganlarga yordam beradi. Umumiy qilib aytganda, raqamli ta'lim muhitining

o‘quvchilarga ta’siri keng va ijobiydir. U nafaqat ilmiy bilimlarni o‘rganishda, balki shaxsiy rivojlanishda, texnologik va ijtimoiy ko‘nikmalarni shakllantirishda ham katta rol o‘ynaydi. Raqamli ta’lim tizimining samarali qo‘llanilishi o‘quvchilarga zamonaviy dunyoga moslashishda yordam beradi, ularni ilg‘or texnologiyalar va global o‘zgarishlarga tayyorlaydi.

Bugungi kun taraqqiyoti bois ta’lim tizimiga raqamli muhit shiddat bilan kirib kelmoqda. Xususan, O‘zbekistonning ko‘plab maktablarida elektron kundalik va jurnallar, interaktiv elektrondoskalar, kompyuter, planshetlar, videokameralardan ta’lim va tarbiya jarayonida unumli foydalanilib kelinmoqda. Shuningdek, maktablarda yuqori tezlikdagi internetdan foydalanishuchun yaratilgan sharoitlar hisobiga interaktiv baza ma’lumotlari, turli axborot resurslari, o‘quv platformalaridan foydalanish imkoniyati paydo bo‘lmoqda. Bu imkoniyatlar ta’lim va tarbiya jarayonini yanada samarali tashkil etish uchun mustahkam zamin bo‘lib xizmat qilmoqda.

Bugungi kunda bolalarni boshlang‘ich maktab yoshidan boshlab kompyuter bilan ishlashga o‘rgatish zarurati masalasi katta ahamiyatga ega, chunki kompyuter bilan erta muloqot - yangi ma’lumotlar manbai, uni tuzish, saqlashga yordam beradigan vositadir. Shuning uchun bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy faoliyatga pedagogik tayyorgarligi mezonlaridan biri bu kichik maktab o‘quvchilariga informatika, kompyuter savodxonligini o‘rgatish, ularning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, universal ta’lim faoliyatini shakllantirish qobiliyatidir. Bularning barchasi o‘quvchilarni - bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini - ularni bolalarga informatika o‘rgatish va zamonaviy axborot vositalarini keng bilish uchun tayyorlaydigan uslubiy kursni o‘rganish maqsadga muvofiqligini tasdiqlaydi.

Yosh maktab o‘quvchilari idrokning keskinligi va yangiligi bilan ajralib turadi, bu yuqori asabiy faoliyatning yoshga bog‘liq xususiyatlari bilan izohlanadi. Bolalar atrof-muhitni va barcha yangi narsalarni jonli qiziqish bilan qabul qiladilar. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining idroki aniq hissiylik bilan tavsiflanadi.

Boshlang‘ich maktab yoshida ixtiyoriy diqqat rivojlanadi, agar o‘quv materiali aniq, yorqin bo‘lsa va o‘quvchilarda hissiy munosabatni uyg‘otsa, ayniqsa jamlangan va barqaror bo‘ladi. Bunday aniqlik uchun kompyuterdan foydalanish mumkin. Kompyuterlarni joriy etish istiqbolli, chunki u: dars samaradorligini oshiradi, individual savol-javob rejimini tashkil qiladi va o‘quvchilarning darsga qiziqishini oshiradi.

Xulosa. Yuqoridagi fikrlardan xulosa qilish mumkinki, ta’lim dasturlari va onlayn resurslardan foydalanish o‘qitish jarayonini yanada takomillashtirdi, bu esa o‘qituvchilarga darslarni yanada interaktiv va ta’sirchan tarzda o‘tkazishga imkon berdi.

Boshlang‘ich sinflarda axborot texnologiyalari darsning barcha bosqichlarida qo‘llaniladi. Yangi materialni tushuntirishda, tuzatish, takrorlash, nazorat qilish, olimpiadalar, sinfdan tashqari ishlar va boshqalar

Kompyuter topshiriqlarini bajarish jarayonida bilim nafaqat o‘zlashtiriladi va mustahkamlanadi, balki kompyuter ko‘nikmalari shakllanadi va kompyuterga o‘rganish ob›ekti sifatida emas, balki axborot bilan ishlashning zamonaviy vositasi va manba sifatida ixtiyoriy munosabat shakllanadi. bilim, axborot manbai. Maktab o‘quvchilarining o‘rganishga bo‘lgan qiziqishi ularning bilimlarini o‘zlashtirish jarayonida hal qiluvchi omil hisoblanadi.

Ma’lumki, ta’limda ilg‘or pedagogik va yangi axborotlar texnologiyalarini tatbiq etish o‘quv mashg‘ulotlarining samaradorligini oshiribgina qolmay, ilm-fan yutuqlarini amaliyotda qo‘llash orqali mustaqil va mantiqiy fikrlaydigan, har tomonlama barkamol yuksak ma’naviyatli shaxsni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Har bir boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi shuni bilishi kerakki, o‘qituvchining o‘zi axborot bilan ishlash malakasiga mukammal ega bo‘lishi, mediasavodxonlikdan o‘quvchilarga yetarli darajada namuna bo‘la olishi, axborotlarning boshlang‘ich sinf o‘quvchilari

uchun qay darajada ta’sir etishi, ya’ni salbiy yoki ijobiy ekanligini mustaqil baholay olishi va shundan so‘nggina o‘quvchilarga yo‘naltirishi lozim. Hozirgi axborotlashgan ta’lim zamonida pedagoglar boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining axborot madaniyatini shakllantirishda ota-onalar bilan hamkorlikda ish olib borishsa ham o‘quvchining ham ota-onalarning media savodxonligi, axborot bilan ishlash ko‘nikmasi takomillashadi, buning natijasida ularning dunyoqarashi kengayadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. 2020-yil 29-dekabr. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi https://it-park.uz/index.php/uz/itpark/news/prezident-murojaati-itsohasini-va-it-parklarni-rivojlantirish-haqida
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5712-son Farmoni O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi 2019-yil 29-aprel
3. Ушинский К. Д. Педагогические сочинения: В 6 т. Т. 4 / К. Д. Ушинский, С. Ф.Егоров. - М.: Педагогика, 1989. - 528 с.
4. Yoqubbekova Munavvar Muhamedovna, Xamidova Nargizaxon Sayfutdinbekovna maktab ta’limida raqamli texnologiyalarni qo‘llash – davr talabi. “Raqamli ta`limning zamonaviy tendentsiyalari va ularni ta`lim-tarbiya jarayoniga tadbiq qilish yo‘llari” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi 25-oktabr 2023-yil.
5. Jumaniyazova, M. T. «Pedagogical principles of training teachers for innovative activity in the process of professional development. ph. fn, diss.» (2007).
6. Abdullina L.B., Kostsova S.A. boshlangich maktabda axborot texnologiyasi (darslik)
7. Jumaniyozova, M. «Methods of determining the integrative creativity of socio-humanitarian teachers.» (2022).
8. Morozova, N. G. Kognitiv qiziqish haqida o‘qituvchiga / N. G. Morozova. - M.: Pedagogika, 1979
9. Tajiyevna, Jumaniyozova Mukhayo. «Impact of creative thinking on teacher professional development.» International Journal of Pedagogics 4.06 (2024): 76-80.
10. Fozilov Ibrokhimjon Rakhimovich1, Fozilov Jakhongir Ibrokhimovich The Use of Information Technology in Primary Schools Texas Journal of Multidisciplinary Studies 2021.
11. Jumaniyozova, M. (2012). Ishmuhammedov R. Ta ‘limda pedagogik texnologiyalardan foydalanish. Toshkent: Iste ‘dod. ue Jeffels Importance of ICT in Primary Education
12. Https://dzen.ru/a/ZXK5Idr1YTmj2yME
13. Nsportal.ru
14. Scienceforum.ru
15. Https://pmc.ncbi.nlm.nih.gov/articles/PMC9684747/

BO‘LAJAK TRANSPORT MUHANDISLARIDA KASBIY KOMPETENSIYASINING KOGNITIV KOMPONENTINING SHAKLLANGANLIK DARAJASINI ANIQLASH

Ruziyev Islambay Samandarovich
Urganch davlat universiteti, texnika fanlari nomzodi, dotsent, islambay68@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada texnika oliy ta’lim muassasalarining transport vositalari muhandisligi ta’lim yo‘nalishi talabalarida muhandislik kasbiy kompetentlikni shakllanishi va unda zamonaviy oliy texnik ta›limning samaradorlik jihatlarining ahamiyati tahlil qilingan. Shuningdek, bo‘lajak transport muhandislarida kasbiy kompetensiyalarning kognitiv komponentining shakllanganlik darajasini aniqlash bo‘yicha tashkil qilingan tajriba sinov ishlari natijalari keltirilgan.

Kalit so‘zlar: kompetensiya, metod, texnologiya, fikrlash, talabalar, muhandis, transport, talaba, muammo, bilim, mashg‘ulot.

ОПРЕДЕЛЕНИЕ УРОВНЯ ФОРМИРОВАННОСТИ КОГНИТИВНОГО КОМПОНЕНТА ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ ИНЖЕНЕРОВ ТРАНСПОРТА

Аннотация. В статье анализируется формирование инженерной профессиональной компетентности у студентов транспортных вузов высших технических учебных заведений, а также значимость аспектов эффективности современного высшего технического образования. Также представлены результаты экспериментальных испытаний, организованных с целью определения уровня сформированности когнитивного компонента профессиональных компетенций у будущих инженеров транспорта.

Ключевые слова: компетенция, метод, технология, мышление, студенты, инженер, транспорт, студент, проблема, знание, обучение.

DETERMINING THE LEVEL OF FORMATION OF THE COGNITIVE COMPONENT OF PROFESSIONAL COMPETENCE OF FUTURE TRANSPORT ENGINEERS

Annotation. The article analyzes the formation of engineering professional competence among students of transport universities of higher technical educational institutions, as well as the importance of aspects of the effectiveness of modern higher technical education. The results of experimental tests organized to determine the level of development of the cognitive component of professional competencies among future transport engineers are also presented.

Key words: competence, method, technology, thinking, students, engineer, transport, student, problem, knowledge, learning.

Kirish. Mamlakatimizda keyingi vaqtlarda amalga oshirilayotgan tub islohotlar jamiyatda o‘ziga xos ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy rivojlanish yo‘lining tanlab olinishi, shuningdek, sohalar uchun kasbiy kompetentli mutaxasisilarni tayyorlash g‘oyasi va talablari asosida jahon ta’limi standartlariga muvofiq keluvchi uzluksiz ta’lim tizimini shakllantirish uchun qulay shart-sharoitni yaratdi. Ta’lim sohasida olib borilayotgan hamda aniq maqsadga yo‘naltirilgan davlat siyosati ijtimoiy jamiyat taraqqiyotini ta’minlovchi ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida e’tirof etildi. Bu yo‘nalishda amalga oshiriladigan muhim tadbirlar qatorida mutaxassislarning yangi avlodini shakllantirish, ma’naviy-axloqiy jihatdan yetuk, mustaqil dunyoqarashga ega, ijodiy fikrlovchi, boy milliy meros, shuningdek, umuminsoniy va milliy qadriyatlarga sadoqatli barkamol shaxsni tarbiyalab voyaga

yetkazish vazifalari belgilangan[1].

Jamiyatda amalga oshirilayotgan islohotlar talablariga to‘la javob beruvchi, ishlab chiqarish sohasida yuzaga kelgan raqobatga bardoshli, keskin o‘zgarishlarga moslasha oluvchi, shuningdek, mehnat bozorida mutaxassislar malakasiga qo‘yilayotgan talablar darajasida samarali faoliyat yurituvchi kasbiy kompetentli shaxsni shakllantirish dolzarb muammo hisoblanadi.

Ta’lim sohasida amalga oshirilayotgan bunyodkorlik ishlari va erishilgan qator ijobiy o‘zgarishlarga qaramasdan, ta’lim samaradorligining rivojlanish dinamikasini yanada jadallashtirish, bunda yaratilgan shart–sharoitlar va imkoniyatlardan samarali foydalanish, transport sohasi uchun raqobatbardosh kasbiy kompetensiyaga ega bo‘lgan muhandislarni yetkazib berish bugungi kunda eng dolzarb masala hisoblanadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Oliy muhandislik ta’lim tizimida bitiruvchilarning kasbiy kompetentlik tayyorlash asosi sifatida so‘nggi yillarda bir qator olimlar, kasbiy kompetentlikning psixologik jihatlari, shaxs kasbiy kompetentligini rivojlantirish masalalari o‘z aksini topgan. A.A.Kriushova, N.N.Ovchinnikova, N.Kogan, V.I.Tomakov, A.V.Reysev talabaning kasbiy ahamiyatli sifatlarini shakllantirish masalalari bo‘yicha izlanishlar olib borishgan. D. Sharon, D.Bartram, V.Hutmacher, T.Hoffmann, C.R.Berger, J. Richard, L.Puetz kabi xorijlik tadqiqotchilar tomonidan “kasbiy kompetentlik” tushunchasining mohiyati, sifatlari, shaxsda kompetentlik sifatlarini shakllantirish (rivojlantirish), mazkur jarayonning bosqichlari va metodlari, shaxsda kompetentlik sifatlarining shakllanganlik hamda rivojlanganlik darajasini tashxislash masalalari tadqiq qilinib, shaxs kompetentligiga oid modellar ishlab chiqilgan[2].

B.A.Nazarova o‘zining ilmiy ishida D.Dyui, U.Uoller, M.Mid,K.Yung, P.Sorokin, F.Znanetskiylarning falsafasida kasbiy kompetentlik tushunchasiga shunday ta’rif berganliklarini ta’kidlaydi: «Bu muhitga o‘rganish vositasi, chunki kasb odamni unga to‘g‘rilaydi, odamning qiziqishlarini aniqlaydi, bitta kasbda ishlagan odamlarning qiziqishlarini jamlaydi» [3].

D.L.Tompson, D.Pristinlar: «Kasbiy kompetentlik – ishda kerak bo‘lgan bilimlarning va barcha axloqiy qoidalarning yig‘indisidir», - deb ta’kidlaydilar.

I.V.Grishina kasbiy kompetentsiya shaxsning o‘z professional faoliyatini qanchalik darajada egallaganligi, deb baho beradi va quyidagicha ta’riflaydi:

- ushbu faoliyatga bo‘lgan munosabati, unga zarurat va qiziqishi, intilishlari, qadriyatlari, faoliyatdan maqsadi, o‘zining ijtimoiy o‘rnini tasavvur qilishi;

- o‘zining shaxsiy o‘ziga xosligi va mutaxassis sifatidagi mavqeiga, kasbiy bilim, mahorat va ko‘nikmalari, kasbiga xos boshqa xususiyatlariga baho berish;

- shu asosda o‘zini kasbiy jihatdan shakllanishini va o‘sishini boshqara bilishi[4].

A. V. Xutorskaya tomonidan kasbiy kompetensiya tushunchasi zarur bo‘lgan muayyan ob’ektlar va jarayonlar doirasiga berilgan bilim, ko‘nikma, faoliyat usullari majmui ekanligi tushuntirilgan. L. P. Saksonova va T.V.Kudryavtsevlar tomonidan esa kompetentsiya fazilatlarning kombinatsiyasi, mustaqil va mas’uliyatli harakat qilishga imkon beradigan holat, insonning ma’lum mehnat funktsiyalarini bajarish qobiliyati sifatida belgilanishi ko‘rsatilgan[5,6,7].

Tadqiqot metodologiyasi. Hozirgi davrda mamlakatimizda ishlab chiqarishni jadal rivojlanishi oqibatida barcha sohalarda, xususan transport sohasida muammolarini hal qilishga qodir bo‘lgan yuqori malakali kasbiy kompetentlikka ega mutaxassislarga ehtiyoj yanada ortmoqda.

Yuqori malakali kasbiy kompetentlikka ega transport muhandisining kasbiy-amaliy faoliyati sub‘ektlari va ob‘ektlari ko‘rib chiqamiz. Ular quyidagilardan iborat:

- “Muhandislik ishi” ta’lim sohasiga oid yo‘nalish bo‘lib, u avtomobil transporti vositalarini ishlab chiqarish, ulardan foydalanish, texnik xizmat ko‘rsatish va ta‘mirlashning samarali jarayonlarini hamda ularga innovatsion texnologiyalarni qo‘llashga yo‘naltirilgan metodlar va

vositalar majmuasini qamrab oladi.

- avtomobil transporti, ularni ishlab chiqarish, foydalanish, texnik servis ko‘rsatish, ta’mirlash sohasida muhandislik hisoblar, modellashtirish, algoritmlar va matematik ta’minotini ishlab chiqish;

- ilmiy tadqiqot jarayonlari;

- avtomobil transporti sohasida ishlovchi xodimlarni boshqarish, texnologik jihozlar va ularning ekspluatatsiyasi, axborot ta’minot tizimlari va vositalari, avtotransport vositasining ish qobiliyatini tiklash hamda ularni ishlatishning samarali jarayonlari;

- avtomobil transporti tarmoq korxonalarining texnologik jarayonlari;

- tashkilot va korxonalarda zamonaviy bashqaruv tizimini tashkil etish, tashkiliy tuzilmalarni optimallashtirish, boshqaruv samaradorligini oshirish, mehnatni rag‘batlantirish.

Bo‘lajak transport muhandislarini kasbiy tayyorlash jarayonida kasbiy faoliyatiga jalb etish masalasini qaraymiz. Uni samarali tashkil etish esa mos pedagogik texnologiyalar, o‘qitish metodlari, usullari va vositalarini tanlashga bog‘liq bo‘lib, u o‘z navbatida quyidagi talablarga rioya etishni taqozo etadi:

-kasbiy kompetensiyasining xususiyatlarini hisobga olish;

-aniq mashg‘ulotlarda amalga oshiriladigan kasbiy tayyorlanishning asosiy vazifalarini hisobga olish;

-o‘rganilayotgan fan mazmunining o‘ziga xosligini hisobga olish;

-mashg‘ulotning tashkiliy shakllarining mosligi;

- bo‘lajak transport muhandislarining individual xususiyatlarini va ularni tayyorgarlik darajasini hisobga olish.

Kasbiy ko‘nikmalarini bajarish usullari haqidagi bilimlarning mazmuni bo‘lajak transport muhandislari uchun ijodiy bilimlarni tasvirlash va tushunish hamda o‘zlashtirish uchun ochiq bo‘lishi va ularni tanlashda quyidagi qoidalarga rioya etishi lozim:

1) bo‘lajak transport muhandislari uchun ularning yaqin rivojlanish zonasiga mos bilimlar ochiq va qiziqarli bo‘lishi;

2) bilimlar o‘rganilayotgan o‘quv fani mazmuniga moslashtirilgan bo‘lishi;

3) bilimlarning o‘zlashtirilishi pedagog tomonidan bo‘lajak transport muhandislari kasbiy faoliyatini amalga oshirishni kuzatish asosida amalga oshiriladi.

Bo‘lajak transport muhandislarini kasbiy faoliyatiga jalb etish kasbiy kompetensiyalarining asosini tashkil etuvchi kasbiy faoliyati sohasiga oid asosiy bilim va ko‘nikmalarni idrok qilish bosqichidan boshlanadi. Bo‘lajak transport muhandislari tomonidan kasbiy faoliyati komponentlarini idrok qilish jarayoni o‘quv-kasbiy topshiriqlarni bajarishda, ular bilan tanishish va ularni o‘zlashtirish usullari vositasida, tajriba-sinov ishi ishtirokchilarining bu faoliyat sohasidagi asosiy bilim va ko‘nikmalari haqida axborot berishni nazarda tutadi.

Yuqoridagi fikrlarni inobatga olgan holda bo‘lajak transport muhandislarini ko‘rsatilgan kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishning tarkibiy va nazariy funksional tuzilmasini tuzdik (1-rasm). Tuzilmada to‘rtta blok-komponentlar mavjud bo‘lib, ularning har biri o‘ziga xos vazifani bajaradi.


Yuqorida ko‘rsatilgan talabalarining kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishning tarkibiy va nazariy funksional tuzilmasini ishlab chiqishda bitiruvchining kasbiy faoliyati vazifalari va “Transport vositalari muhandisligi (avtomobil transporti)” mutaxassisligi bo‘yicha kasb standarti tomonidan qo‘yiladigan malaka talablari hisobga olindi, shuningdek V.Sergeev, L.Ryazapova, D.Ximmataliev, J.Xamidov va boshqalar tomonidan taklif qilingan modellarga asoslandik [8,9,10].

Tuzilmani tadbiq etish bo‘lajak transport muhandislari o‘rtasida kompetensiyalarni

shakllantirishning tashkiliy va faoliyat tuzilmasini amalga oshirish uchun tayyorgarlik, shakllantirish va yakuniy bosqichlarni o‘z ichiga oladi. Tuzilmada talabalarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish quyidagi kompenentlari keltirilgan:

- Motivatsion; - Kognitiv; - Texnologik.

Kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish tuzilmasi samarali ishlashi uchun talabalar uchun muhim bo‘lgan talabalarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish kompenentlari muhim ahamiyatga ega deb hisoblaymiz.



1-rasm. Kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishning nazariy funksional tuzilmasi.

Tahlil va natijalar. Bo‘lajak transport muhandislarida kasbiy kompetensiyalarning ahamiyatini aniqlash bo‘yicha tajriba sinov ishlari tashkil qilindi. Tajriba-sinov ishlari Jizzax politexnika instituti (JizPI), Farg‘ona politexnika instituti (FarPI) va Andijon mashinasozlik instituti (AnMI), Namangan muhandis qurilish instituti (NMQI), Buxoro muhandis texnologiya instituti (BMTI), Urganch davlar universiteti (UrDU) “Transport vositalari muhandisligi” ta›lim yo‘nalishlarida olib borildi. Tajriba-sinov ishida jami 616 nafar talaba ishtirok etdi.

Shundan nazorat guruhida 301 va tajriba guruhida 315 nafar talaba, 86 professor-o‘qituvchi ishtirok etdi.


Bo‘lajak transport muhandislarida kasbiy kompetensiyasining kognitiv komponentining shakllanganlik darajasini aniqlash maqsadida ularga kasbiy ko‘nikmalari mohiyati va mazmunini tushunishga yo‘naltirilgan, ularning kasbiy kompetensiyalarining asosini tashkil etuvchi topshiriqlar, shuningdek, ta›sirchan bilimlarning shakllanganlik darajasini aniqlash topshiriqlari taklif etildi. Tadqiqotning 1-jadvalda keltirilgan talabalarning maxsus kompetenssiyalarini shakllantirishning uchta darajasini va shu darajalarning mezon hamda ko‘rsatkichlarini ishlab chiqdik.

Talabalarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishning baholash mezonlari 1-jadval

Mezonlar	Ko‘rsatkichlar
	Tavsifi
Reproduktiv (Past)	Tinglash, xabardor bo‘lish. Asosiy teoremalarni, ularning xossalarini, tushunchalarini bilish, ularni og‘zaki va yozma ravishda ko‘paytirish, belgilangan muhandislik masalasini ma’lum algoritmning tasviri va o‘xshashligida hal qila olish.
Variativ (O‘rta)	Olingan materialni tushunish, eslab saqlab qolish, ko‘paytirish. kasbiy vazifalari, ularni yordamchi vazifalarga bo‘lish. Nazorat va o‘z-o‘zini nazorat qilish. Pedagog yordamida yoki mustaqil ravishda vaziyatga bog‘liq holda mavjud namunaga asoslangan holda mustaqil ishlash metodlarini tanlay oladi.
Yaratuvchanlik (yuqori)	Bilimlarni aktuallashtirish orqali masalalar yechishda bilimlardan ijodiy foydalanish. Muammoni mustaqil ravishda belgilash va uni rivojlantirish. Muammoni hal qilish uchun ularni qo‘llash jarayonida ilmiy bilish usullarini o‘zlashtirish. O‘z-o‘zini kuzatish va tuzatish harakatlari. Kasbiy faoliyat farazi, maqsadi, ob’ekti va predmetini mustaqil aniqlay oladi. Olingan natijalarni takomillashtirish maqsadida o‘z faoliyatini tahlil qila oladi.

Talabalat o‘rtasida o‘tkazilgan test topshiriqlari yuqorida ko‘rsatilgan talabalarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishning baholash mezonlari asosida tekshirildi.

Test topshiriqlari natijalari tahlili, so‘rovda ishtirok etganlarda kasbiy kompetensiyasi kognitiv komponentining reproduktiv (past) darajasi mos ravishda tajriba va nazorat guruhlarida 73,0 (230) va 57,2 % (172) ni tashkil etishini ko‘rsatdi. Faqat mos ravishda 24,7 % (78) va 42,3 % (127) tajriba va nazorat guruhlari ishtirokchilarida kasbiy kompetensiyasining ushbu komponenti variativ (o‘rta) darajasida namoyon bo‘ldi, yaratuvchanlik (yuqori) darajadagi kasbiy kompetensiyasining shakllanganligi tajriba-sinov ishi ishtirokchilarining tajriba va nazorat guruhlarida 2,3% (7) va 0,5 % (1) ni tashkil etishini ko‘rsatdi (2-rasm).



2-rasm. Tajriba boshida kasbiy kompentensiyasining kognitiv komponentining shakllanganlik darajasi.

Xulosa. Shunday qilib, olingan natijalar, bo‘lajak transport muhandislarining ko‘pchiligi kasbiy kompetensiyalarining asosini tashkil etuvchi asosiy kasbiy ko‘nikmalari haqida bilimlarga ega emasliklaridan guvohlik beradi, chunki uning mohiyatini tushunishmaydi. Bu esa o‘z navbatida, kasbiy faoliyati sohasiga oid asosiy bilim va ko‘nikmalarning bo‘lajak transport muhandislari tomonidan o‘zlashtirilishini, ularda kasbiy kompetensiyalari shakllanganligining zaruriy pedagogik shart-sharoiti sifatida tanlashning maqsadga muvofiq ekanligini ko‘rsatadi. Bunda alohida e’tibor, muammoli vaziyatni tahlil qilish ko‘nikmasini shakllantirishga, muammo va maqsadni shakllantirish, kasbiy faoliyatini rejalashtirish, muammoni hal qilish metodini tanlash, faoliyat borishi va natijalarini bayon etish, kasbiy-amaliy natijalarini refleksiv baholash va rasmiylashtirishga qaratildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ruziyev I.S.Bo‘lajak transport muhandisini mehnat faoliyatining tasnifiy belgilari./ Namangan davlat universiteti ilmiy axborotnomasi.2024-12.-782b

2. Xudaykulov R.Z. Bo‘lajak muhandislarni kasbiy kompetentligini rivojlantirish yo‘llari. // BERDAQ Nomidagi Qoraqalpoq Davlat Universitetining axborotnomasi. Nukus-2022. – B. 118-121 (13.00.00. №25)

3. Назарова Б.А. Педагогика коллежлари бўлгуси ўкитувчиларининг касбий лаёхатини тарбиялаш: Дис. … пед. фан. ном. –Т.: 2009. – 170 б.

4. Муслимов Н.А. Абдуллаева М., Кўйсинов О.А., Гаипова Н.С. Каримова Н.Н., Кодиров М.Касб таълими ўкитувчиларининг касбий компетентлигини шакллантириш технологияси. –Т.: «Fan va texnologiya», 2013, 128 бет.

5.ХуторскаяА.В.Ключевыекомпетенцииккомпонентличностно-ориентированной парадигмы образования // Народное образование. - 2003. - №2. - С.58.

6. Саксонова Л.П. Культур сообразность технического образования. Монография / Л.П. Саксонова, Самар. гос. техн. ун-т. Самара, 2006. - 491 с.

7. Кудрявцев Т.В. Психология технического мышления: процесс и способы решения технических задач / Т.В. Кудрявцев. – Москва : Педагогика, 1975. – 304 с.

8. Сергеев В., Рязапова Л. Моделирование профессиональной деятельности Современного инженера. Высшое оброзование в России. №2, 2003г.

9. Химматалиев Д.О. Касбий фаолиятга тайёргарлик диагностика килишда педагогик ва техник билимлар интеграцияси. Монография. –Тошкент: Ўзбекистон, 2018. – 168 б.

10. Хамидов Ж.А. Бўлажак касб таълими ўкитувчиларини тайёрлашда ўкитишнинг замонавий дидактик воситаларини яратиш ва кўллаш технологияси: Педагогика фанлари бўйича докторлик (DSc) диссертацияси автореферати. -Тошкент, 2017 й.

NOTALASHTIRISHDA “SIBELIUS” NOTA MUHARRIR DASTURIDAN FOYDALANISH TEXNOLOGIYASI

Ibragimov Bobir Mansurovich
Botir Zokirov nomidagi Milliy estrada san’ati instituti “Estrada cholg‘u ijrochiligi” fakultet dekani, dotsent, bobur_h1980@mail.ru

Annotatsiya. Mazkur maqolada «Sibelius» nota muharrir dasturidan foydalanish texnologiyasi haqida fikr yuritiladi. Ushbu dastur musiqa san’ati vakillariga yuqori sifatli notalarni yaratish, tahrirlash va chop etishda keng imkoniyatlar taqdim etadi. Maqolada dasturdan foydalanishning texnik jihatlari, uning asosiy funksiyalari va musiqiy ijod jarayonida tutgan o‘rni yoritilgan. Shuningdek, “Sibelius” dasturining talabalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish va musiqa ta’limida amaliyotga tatbiq qilishdagi afzalliklariga alohida e’tibor qaratiladi. Maqolada dastur orqali o‘quv materiallarini tayyorlash, orkestr partiyalarini yaratish, musiqa asarlarini sozlash va murakkab musiqiy kompozitsiyalarni ishlab chiqish usullari batafsil tahlil qilingan. “Sibelius” dasturining intuitiv interfeysi, foydalanuvchilar uchun qulayligi va keng ko‘lamli imkoniyatlari musiqiy ta’lim jarayonida uni samarali o‘quv quroli sifatida ishlatishni ta’minlaydi. Maqolada ta’kidlanganidek, dastur nafaqat professional bastakorlar va o‘qituvchilar, balki o‘quvchilar uchun ham o‘quv jarayonini ancha yengillashtiradi va samaradorligini oshiradi. Shuningdek, maqolada “Sibelius” dasturidan foydalanishda yuzaga keladigan ayrim texnik muammolar va ularni bartaraf etish usullari haqida ham ma’lumot berilgan.

Kalit so‘zlar: Sibelius dasturi, nota muharrir dasturi, musiqa ta’limi, texnologiya, ijodiy qobiliyatlar.

ТЕХНОЛОГИЯ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ПРОГРАММЫ-РЕДАКТОРА НОТАЦИИ «SIBELIUS» В НОТАЦИИ

Аннотация. В статье рассматривается технология использования программы-редактора нот Sibelius. Эта программа предоставляет музыкантам широкий спектр возможностей для создания, редактирования и печати высококачественных нот. В статье рассматриваются технические аспекты использования программы, ее основные функции и роль в процессе создания музыки. Особое внимание будет уделено преимуществам программы Sibelius в развитии творческих способностей учащихся и их применении на практике в музыкальном образовании. В статье дается подробный анализ методик подготовки учебных материалов, создания оркестровых партий, аранжировки музыкальных произведений, разработки сложных музыкальных композиций с помощью программы. Интуитивно понятный интерфейс, удобство использования и широкие возможности программы Sibelius обеспечивают ее использование в качестве эффективного учебного пособия в процессе музыкального образования. Как отмечается в статье, программа значительно упрощает и повышает эффективность процесса обучения не только для профессиональных композиторов и преподавателей, но и для студентов. В статье также представлена информация о некоторых технических проблемах, возникающих при использовании программы Sibelius, и способах их решения.

Ключевые слова: программное обеспечение Sibelius, программное обеспечение для нотной записи, музыкальное образование, технологии, творческие способности.

TECHNOLOGY OF USING THE “SIBELIUS” NOTE EDITOR PROGRAM IN NOTATION

Annotation. This article discusses the technology of using the “Sibelius” note editor pro-

gram. This program provides representatives of musical art with extensive opportunities for creating, editing and printing high-quality notes. The article covers the technical aspects of using the program, its main functions and its role in the process of musical creativity. Special attention is also paid to the advantages of the "Sibelius" program in developing students' creative abilities and applying it in practice in music education. The article analyzes in detail the methods of preparing educational materials, creating orchestral parts, arranging musical works and developing complex musical compositions through the program. The intuitive interface, user-friendliness and wide-ranging capabilities of the "Sibelius" program ensure its use as an effective teaching tool in the process of music education. As the article notes, the program greatly simplifies and increases the efficiency of the learning process not only for professional composers and teachers, but also for students. The article also provides information on some technical problems that arise when using the "Sibelius" program and ways to overcome them.

Keywords: Sibelius program, music notation editor program, music education, technology, creative abilities.

KIRISH. Zamonaviy texnologiyalar hayotimizning deyarli har bir jabhasini o‘z domiga olgan bir davrda, san’at va musiqa sohasida ham texnologiyalarning o‘rni beqiyos ahamiyatga ega bo‘lmoqda. Musiqa – bu inson qalbining eng nozik va sirli tovushlari orqali ifoda etiladigan san’at turi. Ammo musiqaning bu nozik jihatlarini qog‘ozga tushirish, uni professional ravishda qayta ishlash va keng auditoriyaga yetkazish uchun maxsus vositalar talab etiladi. Shu ma’noda, musiqa ijodkorlari uchun nota muharrir dasturlari, ayniqsa, "Sibelius" kabi ilg‘or texnologiyalar, haqiqiy yordamchiga aylanadi.

"Sibelius" nota muharrir dasturi zamonaviy musiqa ijodida texnik mukammallik va ijodiy erkinlikni ta’minlaydigan vositalardan biridir. Ushbu dastur bastakorlar, o‘qituvchilar va talabalarga musiqiy g‘oyalarni amaliy tarzda hayotga tatbiq etish, murakkab musiqiy asarlarni mukammal tahrir qilish va tinglovchilarga yetkazish imkonini beradi. Bu dastur orqali musiqiy savodxonlikni oshirish va ijodiy jarayonni yengillashtirish bugungi kunda musiqa ta’limi va ijodiy faoliyatning muhim tarkibiy qismiga aylangan.

Mazkur maqola "Sibelius" dasturining imkoniyatlarini kengroq yoritishga, uni ta’lim va ijodda samarali qo‘llash texnologiyalarini ochib berishga bag‘ishlangan. Texnologiya va san’atning uyg‘unlashuvi natijasida yaratish, o‘rganish va ijro etish jarayonlari yangi bosqichga ko‘tarilmoqda va bu jarayonlarda "Sibelius" dasturining roli alohida o‘rin tutadi.

Sibelius interfeyslari. Amaliy dasturlar foydalanuvchi tomonidan aniq amallar bajarilishini ta’minlaydi. Amallarga misol keltirsak unga matn kiritish, rasm chizish, fototasvirlarni qayta ishlash, illustrasiya, audio va video ma’lumotlarni qayta ishlash, turli xildagi grafiklar va ular ustida amallar bajarish, aloqa o‘rnatish, hisob-kitob ishlari kabi amallar misol bo‘la oladi[2].

Kompyuter tizimi bilan o‘zaro muloqotda bo‘lish ko‘nikmalarni hosil qilishda va amaliy dasturiy ta’minot bilan ishlashda, ishni odatda dastur interfeysi ya’ni, foydalanuvchi hamda dastur o‘rtasidagi muloqotni tashkil qiluvchi jarayon bilan tanishish maqsadga muvofiqdir.


Kompyuterda har qanday amaliy dasturlar mohiyatidan kelib chiqib, o‘z interfeyslariga ega. Masalan, kompyuterda matn hujjatlari bilan ishlaydigan foydalanuvchining har doimgi ishiga aylangan MS OFFICE paketiga kiruvchi matn muharriri MS WORD dasturi, elektron hisob-kitob ishlari bilan aloqador MS EXCEL, 1C:Buxgalteriya hamda milliy dasturiy ta’minot hisoblanmish BEM (Buxgalteriyaga Elektron Madad) dasturi, muhandislik sohasi mutaxassislari uchun maxsus chiqarilgan Auto CAD dasturi, kompyuter dizaynerlari uchun mo‘ljallangan Photoshop va Corel DRAW grafik muharrirlari, televideniya va kino industriya sanoatidagi dunyoga mashhur bir qator kompaniyalar qatoriga kiruvchi HOLLYWOOD tomonidan ishlab chiqariladigan filmlardagi barcha animatsion hamda maxsus effektlarni yaratuvchi Adobe dasturiy ta’minotlar ishlab chiqaruvchi firma tomonidan taqdim etilgan Illustrator va After Effects video muharrirlari ham

maqsadlarga qarab o‘z interfeyslariga ega. Shu jumladan, amaliy dasturlar qatoridan joy olgan eng ommabop “Sibelius” nota muharriri ham o‘z interfeysiga ega[5].

Kompyuterning qanday ishlashi haqida ko‘plab kitoblar yozilgan. Har qanday texnik qurilmalar singari, kompyuter odam bilan ham mashinada, ham inson uchun majburiy bo‘lgan muayyan qoidalar to‘plami orqali aloqa o‘rnatadi. Ushbu qoidalar kompyuter adabiyotida interfeys deb ataladi. Interfeys tushunarli va tushunarsiz, interfeys bo‘lishi mumkin. Ko‘p sifatlar unga mos keladi. Ammo bir narsada u doimiy: u shunday va shundayligicha qoladi.

Interfeys ta`rifi bo‘yicha operatsion tizimning foydalanuvchilar bilan o‘zaro aloqasi qoidalari, shuningdek, kompyuter tarmog‘idagi qo‘shni darajalardir. Inson-kompyuter aloqasi texnologiyasi interfeysga bog‘liq[7].

Shunday ekan, “Sibelius” nota muharriri interfeysi quydagilardan iborat.




Tasma bilan ishlash. Tasma – bu dasturning barcha funktsiyalari joylashgan Sibelius oynasining yuqori qismida paydo bo‘lgan buyruq tugmalarining keng tasmasi, vazifaga muvofiq ravishda tashkil etilgan.


Yuqorida Sibelius dasturining tasmalar qatori ko‘rsatilgan. Nomlangan har bir bo‘lim tasma holatida namoyon etiladi va o‘ziga tegishli bo‘lgan buyruqlar majmuasidan iborat bo‘ladi.

Sibelius nota muharririning tasma qatori interfeysi “Sibelus 7” versiyasidan boshlab foydalanuvchilarga taqdim etilgan.

Tasmadan tashqari, har bir Sibelius hujjat oynasida foydali boshqaruv elementlari ham mavjud. Sibelius 8.0 nota muharriri oynasi. Quyidagi rasmda Sibelius oynasi ko‘rsatilgan bo‘lib, tasma va boshqa foydali boshqaruv elementlari oynaning yuqori va pastki qismining qayerida joylashganligini quyidagi rasmda ko‘rish mumkin:



 – Tezkor kirish panelida (faqat Windows uchun) uchta muhim tugma mavjud: saqlash, bekor qilish va qaytadan bajarish. “Bekor qilish” va “Qayta tiklash” tugmalari ham ularga biriktirilgan bo‘lib, Sibelius hujjatni ochgandan so‘ng, tezda bekor qilish va istalgan joyga qaytish imkonini beradi.



– Sarlavha satrida hujjat fayli nomini va joriy dinamik partiyaning nomini (agar mavjud bo‘lsa) yoki ekranda ko‘rsatilgan versiyasini ko‘rsatadi. Windowsda agar fayl saqlanmagan o‘zgarishlar bo‘lsa, fayl nomidan keyin yulduzcha (*) ko‘rinadi.

 – Oyna holatlari tugmalarida sarlavha satrida joriy oyna bilan ishlash uchun tugmalar to‘plami mavjud. Windowsda ushbu tugmalar yuqori o‘ng burchakda paydo bo‘ladi. Windowsning uchta tugmasidan birinchisini tanlab bosish bilan Sibelius nota muharriri holatlarini o‘zgartirish mumkin:

 – Faylni yopmasdan Sibelius hujjat oynasini ekrandan pastki masalalar paneliga tushirib qo‘yish uchun ishlatiladi;

 – Fayl o‘lchami tugmasi uchta tugmadan ikkinchisi bo‘lib, Sibelius fayl-hujjatining maksimal oynasi hajmini tiklash/kichraytirish uchun ishlatiladi. Ushbu tugma hujjat oynasining o‘lchamini o‘zgartiradi, hamda shu tugmani bosish orqali oyna o‘lchovlar orasini o‘zgartiradi: maksimal yoki oldingi;


 – Aktiv oynani yopish tugmasi uchta tugmadan uchinchisi bo‘lib, nomidan ko‘rinib turibdiki, ushbu tugmani bosish orqali joriy oynani umuman yopadi.




– Qidiruv maydoni tasmaning istalgan yorlig‘ida tavsiya etilgan boshqaruv elementlari ro‘yxatini ko‘rish uchun bir yoki bir nechta kalit so‘zlarni kiritish bilan foydalanuvchiga kerak bo‘lgan har qanday elementlarni topishga yordam beradi. Bu usul, ayniqsa qidirilayotgan elementning qayerda ekanligini aniqlash uchun juda qulaydir. Qidiruv maydonchasiga kerakli element kiritilganda, Sibelius mos keladigan boshqaruv elementlari ro‘yxatini ko‘rsatadi: kerakli kalit so‘z yoki simvollari kiritiladi, so‘ngra, RETURN tugmasi bosiladi. Sibelius har qanday so‘rovga mos ma’lumotni foydalanish uchun chiqarib beradi[3].

 – Tasma holati quyida tavsiflanganidek vertikal bo‘shliqni egallaydi. Sibelius ishchi oynasi ustida ishlash paytida ko‘proq narsani ko‘rishni istasangiz, ushbu tugmani bosish bilan tasmani minimallashtirish mumkin bo‘ladi. Shundan so‘ng, tasma yo‘qoladi va ekranning yuqori qismida faqat yorliqlar qoladi. Tasmani qaytarish uchun tugmani yana bir marta bosiladi, tasmani har doim ko‘rinadigan qilib mahkamlash mumkin yoki shunchaki kerakli element yorliqni tanlanguncha tasma vaqtincha paydo bo‘ladi va yana yo‘qoladi.

 –Ma’lumotlar yordam qo‘llanmasini ekranda ochish uchun ushbu tugma bosiladi va Sibelus nota muharriri uchun qo‘shimcha yordamni topish mumkin bo‘ladi.



– Hujjat yorliq yorlig‘ini almashtirish tugmasini bosish orqali ishchi maydondagi kerakli hujjatlardan birining nomi tanlanadi va tanlangan hujjatni Sibelius aktiv holatga keltiradi.
Tasma quyida batafsil yoritiladi.




– Hujjat yorliqlarida bitta oynada bir xil hujjatning bir nechta turli xil ko‘rinishini - masalan, butun partitura va alohida partiyalarini bitta oynada ochish va shu yorliqlar yordamida ular orasida amallar bajarish mumkin. Sibeliusda yangi hujjat yaratilayotganda faqatgina “Полная партитура” (“To‘liq partitura”) deb nomlangan yorliq ko‘rsatiladi. Hujjatlar yorliqlari satrining o‘ng tomonidagi tugmasi yordamida yangi yorliqlarni ochish yoki ko‘rinishni o‘zgartiradigan boshqa variantlardan foydalanish mumkin (klaviaturadan “W” tugmasini bo-

sish orqali Sibelius nota muharriri joriy tanlovga muvofiq butun partituraning dinamik partiyasini hujjat yorliqlari oynasi orasiga yangi hujjat sifatida taqdim etadi). Yorliqlarni tartibini ularni shunchaki (chapga yoki o‘ngga) surib olib o‘zgartirish mumkin. Shu oynada ko‘rilgan partitura yoki partiyalardan birini sichqonchani chap tugmasini bosib turgan holda tanlangan aktiv partiya hujjatini oyna bo‘ylab pastga tortib-siljitib, sichqonchani tugmasini qo‘yib yuborish orqali Sibeliusning yangi oynachasiga o‘tkazish ham mumkin[1].



– Yangi yorliq yaratish tugmasi joriy qismning boshqa ko‘rinishini, shu jumladan dinamik qismlarni va saqlangan o‘zgarishlarni o‘z ichiga olgan yangi yorliqni ochishga imkon beradigan menyuni ko‘rsatadi. Joriy oynani yangi oynada ochadigan “Новое окно” (“Yangi oyna”)ni ham tanlash mumkin. Menyuni ochish uchun tugmani o‘zini bosish shart emas: xuddi shu narsani bajarish uchun faqat hujjatlar yorlig‘i satrining istalgan joyiga sichqonchaning o‘ng tugmasini bosish bilan ham amalga oshirsa bo‘ladi.


– Hujjat yorliq yorlig‘ini almashtirish tugmasini bosish orqali ishchi maydondagi kerakli hujjatlardan birining nomi tanlanadi va tanlangan hujjatni Sibelius aktiv holatga keltiradi. Agar bir vaqtning o‘zida ko‘plab yorliqlar ochilsa, ularning barcha nomlarini yorliq satrining kengligi bilan farqlash qiyin bo‘lishi mumkin. Joriy oynadagi barcha ochilgan yorliqlar ro‘yxati va ulardan biriga tezda o‘tishga imkon beradigan menyuni ko‘rish uchun ham ushbu tugmani bosish orqali ham amalga oshirsa bo‘ladi.


Joriy holat paneli Sibelius nota muharriri oynasining pastki qatorida joylashgan bo‘lib, joriy hujjat haqida ma’lumot beradi, shuningdek tezkor kirish uchun foydali tugmalar ham mavjud.



– Axborotni o‘qish moslamalari bu holat satrining chap tomonida bir qator foydali ma’lumotlar: hujjat betlari; taktlar soni; partituradagi qaysi dinamik partiya aktivligi; kuchli yoki kuchsiz hissa (yoki maxsus musiqa diapazoniga ega bo‘lib, parchaning birinchi notasi yoki akkordi) holati; belgilangan takt boshi yoki barcha tanlangan notalar tomonidan shakllangan, akkord belgisi sifatida ko‘rsatilgan akkordning uyg‘unligi; joriy amalning tavsifi (masalan, parchani tahrirlash yoki matnni tahrirlash); u yoki bu tarzda, hozirgi ko‘rinishni (tovushli), ohangda yoki ko‘chirilgan (yozib olingan) ohangda ko‘rsatiladi; berkitilgan yoki yashirilgan nota qator chiziqlari haqida; har qanday holatda, obyektlarni tanlash uchun magnit sxemasi yoqilganmi yoki o‘chirilganmi; tanlangan matn obyektining shrifti va shrift kattaligi haqida; aktiv holatdagi takt o‘lchov birlilari kabi ma’lumotlar berib boriladi.



– Ishchi maydonlari o‘lchovlarini boshqarish joriy holat satrining o‘ng trafida joylashgan, har birida “ – ” va “ + ” tugmalari bo‘lgan slayder mavjud bo‘lib, u Sibelius ishchi maydoni ko‘rinish o‘lchamini tez va osonlik bilan boshqarish imkonini beradi. Slayderning chap tomonida ekran joriy holat o‘lchamlarini foiz raqamlari bilan ko‘rsatish imkoni mavjud bo‘lib, bu foydalanuvchi uchun qulaydir.


– Hujjatlarni ko‘rish tugmalari joriy holat satrining chap tarafi, ishchi maydon o‘lchamlari yonida joylashgan bo‘lib, turli xil ko‘rinishlarni, masalan, gorizontal va panoramali ko‘rinishdagi sahifalarni ko‘rsatish o‘rtasida tez o‘tishga imkon beradigan tugmalar mavjuddir. Ushbu tugmalar tasmadagi Вид (View) menyu bo‘limida ham mavjud.

XULOSA. Musiqiy ijodkorlik va ta’lim jarayonida texnologiyalarning jadal rivojlanishi yangi imkoniyatlarni yaratibgina qolmay, inson ijodiy qobiliyatlarini yanada yuksak cho‘qqilarga olib chiqmoqda. “Sibelius” nota muharrir dasturi bunga yorqin misoldir. Ushbu dastur musiqa san’atining murakkab va nozik jarayonlarini yengillashtiradi, ijodkorlarga cheklanmagan erkinlik beradi va musiqa ta’limini yangi darajaga olib chiqadi. Bastakorlar va o‘qituvchilar “Sibelius” orqali o‘z g‘oyalarini tez va samarali amalga oshirish imkoniga ega bo‘lib, murakkab musiqiy tuzilmalarni

intuitiv tarzda yaratish qulayligiga ega bo‘ladilar[8].

Ta’lim sohasida esa bu dastur nafaqat o‘quv materiallarini yaratishda, balki talabalarning musiqiy savodxonligi va ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirishda o‘ta muhim vosita hisoblanadi. Texnologiyaning ushbu turi nafaqat musiqiy ta’limni boyitadi, balki o‘quvchilarga musiqa bilan bog‘liq yangi ko‘nikma va mahoratlarni egallash imkonini beradi. Shunday ekan, “Sibelius” dasturi zamonaviy musiqa ta’limi va ijodiy faoliyatda o‘z o‘rniga ega bo‘lib, texnologiya va san’atning uyg‘unlashuvi natijasida insoniyat madaniy merosiga yangi sahifalar qo‘shishda davom etmoqda. Bu esa, musiqa san’atining imkoniyatlarini yanada kengaytirib, uni yangi avlodlarga yetkazishda muhim qadamdir.

Iqtiboslar/Сноски/References:

1. Ibragimov B.M. Sibelius 8.0 Nota muharriri dasturida ishlash metodikasi. “Ilm ziyo zakovat”, Toshkent 2021, uslubiy qo‘llanma I-qism, 106 bet.
2. Ibragimov B.M. Notalashtirish. O‘quv qo‘llanma. Toshkent 2023, 212 bet
3. Ibragimov B.M. Musiqa madaniyati fani o‘qitishda kompyuter dasturlaridan foydalanishning nazariy asoslari. “Science and Education» Scientific Journal / ISSN 2181-0842 October 2021 / Volume 2 Issue 10. P.303-313
4. Ibragimov B.M. Classification of music computer software. International scientific-online conference 22.09.2022. https://www.doi.org/10.5281/zenodo.7102969
5. Ibragimov B.M. Nota yozuvining isloh qilinishi. nota yozuvini gvido d’arezzo tomonida isloh qilinishi. Eurasian Journal Of Social Sciences, Philosophy And Culture. Innovative Academy Research Support Center UIF = 8.2 | SJIF = 6.051, Online: 14th December 2023.
6. Ibragimov B.M. Ekspeditsiya namunalarini notaga olish. // Inter education & global study. 2024. №10 B.522-530
7. Umurov N.Q. SIBELIUS 4, SIBELIUS 6 nota muharrirlarida ishlash masalalari. -T.: “Fan va texnologiya”, 2016, 104 bet. ISBN 978-9943-4682-5-2
8. Sibelius Reference. Electronic certificate of application. © 2021 Avid Technology.

O‘QUV-MASHQ GURUHIDA SHUG‘ULLANAYOTGAN SPORTCHILARNING MUSOBAQA FAOLIYATI TAHLILI

Jumaniyazov Maqsudbek Karimovich
Urganch davlat pedagogika instituti Jismoniy madaniyat kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada Urganch olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazi “Regbi” sport turi bo‘limi o‘quvchilarining 2024-yil, 22-25-noyabr kunlari Xorazm viloyatida bo‘lib o‘tgan O‘zbekiston kubogidagi ishtiroklari asosida, ularning musobaqa faoliyati tahlili keltirilgan. Sportchilarning musobaqalardagi texnik-taktik harakatlari natijalari bo‘yicha o‘quv-mashg‘ulotlar jarayoniga tuzatishlar kiritish maqsadida tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: regbi, musobaqa faoliyati, analiz, texnik–taktik harakatlar, hujum harakatlarining effekti.

АНАЛИЗ СОРЕВНОВАТЕЛЬНОЙ РЕЗУЛЬТАТИВНОСТИ СПОРТСМЕНОВ, ВХОДЯЩИХ В ТРЕНИРОВОЧНУЮ ГРУППУ

Аннотация. Статья подготовлена по результатам выборов воспитанников спортивного отделения «Регби» Ургенчского центра олимпийской и паралимпийской спортивной подготовки на Кубок Узбекистана, который проходил в Хорезмской области 22-25 ноября 2024 года. Даны рекомендации по безопасности тренировочного процесса в соответствии с технико-тактическими документами спортсменов на соревнованиях.

Ключевые слова: регби, соревновательная деятельность, анализ, технико-тактические действия, эффект атакующих действий.

ANALYSIS OF COMPETITIVE PERFORMANCE OF ATHLETES INCLUDED IN THE TRAINING GROUP

Annotation. The article is based on the results of the elections of the students of the «Rugby» sports department of the Urgench Olympic and Paralympic Sports Training Center in the Cup of Uzbekistan, which was held in the Khorezm region on November 22-25, 2024. Safety recommendations are given for the training process in accordance with the technical and tactical documents of athletes at competitions.

Key words: rugby, competitive activity, analysis, technical and tactical actions, effect of attacking actions.

Kirish. 2024-yil 8-noyabrdagi “Jamoaviy sport turlarini rivojlantirish va iqtidorli yoshlarni saralab olish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-421-sonli [1] qarori va 2020-yil 24-yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 5924-sonli [3] farmoni ijrosi yuzasidan jismoniy tarbiya va sportni ommalashtirish, aholi o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish, imkoniyatlari cheklangan shaxslarning jismoniy reabilitatsiyasi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish hamda mamlakatning xalqaro sport maydonlarida munosib ishtirok etishini ta’minlash borasida izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Hozirgi kunda sportchilar tayyorgarligini takomillashtirishning yangi uslublarini izlab topish dolzarb muammolardan biridir. Bu, birinchi navbatda, musobaqa faoliyatini oqilona

rejalashtirish va nazorat qilish bilan bog‘liq. Shu orqali sportchilar musobaqa faoliyatida yo‘l qo‘yiladigan xatolarni aniqlash va shuning asosida o‘quv-mashg‘ulotlarga tegishli tuzatishlar kiritish imkoni yuzaga keladi.

Musobaqa faoliyati natijalari asosida Urganch OPSTTM o‘quv-mash guruhi (O‘MG-1) bosqichida shug‘ullanib kelayotgan o‘quvchilarning texnik-taktik harakatlarini (TTH) tahlil qilish va o‘quv-mashg‘ulotlar jarayonida ularni takomillashtirish.

U-16 yosh toifasidagi regbichilarning 2024-yil noyabr oyida bo‘lib o‘tgan O‘zbekiston kubogidgi eng samarali TTH ko‘rsatkichlarini tahlil qilish.

O‘zbekiston kubogida regbichilarning musobaqa faoliyati tahlili natijalari quyidagicha bo‘ldi. Bunda dastlab sportchilar musobaqadagi TTHlarni amalga oshirishga bo‘lgan urinishlarini A va B ko‘rsatkichlarga ajratib oldik.

A ko‘rsatkichda regbichilarning umumiy TTHlarining o‘ng va chap qanotdan bajarilgan hujumlari aks ettirildi, B ko‘rsatkich orqali esa ularning samarali yaunlangan urinishlari qayd qilindi. Musobaqa faoliyatida sportchilarning (n=12) umumiy 5ta bellashuv natijalari, ya’ni o‘ng va chap qanotdan amalga oshirilgan hujum va himoya harakatlari tahlil qilindi. Tadqiqot davomida regbichilarning musobaqa bellashuvidagi 1-2-3-4-5-6-7-daqiqalarda amalga oshirilgan TTHlarning o‘rtacha ko‘rsatkichlari kuzatildi.

Sportchilarning musobaqa faoliyati davomidagi umumiy o‘rtacha TTHlari ko‘rsatkichlari jadvalda keltirilgan. Bunda umumiy TTHlardan (A) o‘ng qanotdan bajarilgan hujum va himoya harakatlari tahlil qilinganda, ular

1-daqiqada 1,53±0,28,
2-daqiqada 0,91±0,05,
3-daqiqada 0,88±0,17,
4-daqiqada 0,84±0,15,
5-daqiqada 0,82±0,22,
6-daqiqada 0,91±0,05
7-daqiqada 0,84±0,15ni tashkil etdi.

Chap qanotdan bajarilgan (A) hujum va himoyalarning o‘rtacha ko‘rsatkichi

1-daqiqada 0,46±0,14,
2-daqiqada 0,40±0,09,
3-daqiqada 0,43±0,12,
4-daqiqada 0,62±0,08,
5-daqiqada 0,44±0,07,
6-daqiqada 0,40±0,09
7-daqiqada 0,62±0,08ni tashkil etdi.

Regbichilarning musobaqada samarali yakunlangan hujumlardan (B) o‘ng qanotdan bajarilgan urinishlar ko‘rsatkichlari quyidagicha bo‘ldi:

1-daqiqada 0,53±0,15,
2-daqiqada 0,37±0,16,
3-daqiqada 0,34±0,18,
4-daqiqada 0,31±0,04,
5-daqiqada 0,28±0,06,
6-daqiqada 0,34±0,18
7-daqiqada 0,37±0,16 ni tashkil qildi.

Chap tomondan samarali yakunlangan (B) urinishlar

1-daqiqada 0,28±0,18,
2-daqiqada 0,26±0,07,

3-daqiqada 0,24±0,08,
4-daqiqada 0,25±0,16,
5-daqiqada 0,22±0,09,
6-daqiqada 0,24±0,08
7-daqiqada 0,26±0,07 ni tashkil etdi.

Jadval

Urganch OPSTTM o‘quv-mashq guruhi o‘quvchilarining musobaqadagi TTHlari ko‘rsatkichlari (n=12)

Ko‘rsatkich	A		B	
	Umumiy TTH		Samarali yakunlangan TTH	
Assimetrik hujum	O‘ng qanotdan hujum va himoya	Chap qanotdan hujum va himoya	O‘ng qanotdan hujum va himoya	Chap qanotdan hujum va himoya
Vaqt	±σ1	±σ2	1±σ1	±σ2
1-daqiqa	1,53±0,28	0,46±0,14	0,53±0,15	0,28±0,18,
2-daqiqa	0,91±0,05	0,40±0,09	0,37±0,16	0,26±0,07
3-daqiqa	0,88±0,17	0,43±0,12	0,34±0,18	0,24±0,08
4-daqiqa	0,84±0,15	0,62±0,08	0,31±0,04	0,25±0,16
5-daqiqa	0,82±0,22	0,44±0,07	0,28±0,06	0,22±0,09
6-daqiqa	0,91±0,05	0,40±0,09	0,34±0,18	0,24±0,08
7-daqiqa	0,84±0,15	0,62±0,08	0,37±0,16	0,26±0,07
	0,99±0,17	0,47±0,1	0,36±0,11	0,25±0,11
Σ	0,34±0,08	0,11±0,07	0,14±0,08	0,08±0,04
V%	37,46	22,56	46,38	42,55
Jami:	**4,98**±0,87	**2,35±0,5**	**1,83±0,59**	**1,25±0,58**

Musobaqa davomidagi ko‘rsatkichlar tahlili shuni aniqlab berdiki, bellashuvlarning ko‘pchiligi muddatidan oldin yakunlangani uchun o‘rtacha ko‘rsatkichlar 1-2-daqiqalarga taqqoslaganda oxirgi daqiqalarda past natijalar ko‘rsatildi. Sababi barcha regbichilar malakali bo‘lsa ham o‘yin davomida ba’zilarining jismoniy, texnik-taktik darajalari past ekanligi namoyon bo‘ldi.

Xulosa. O‘zbekiston kubogida ishtirok etgan Urganch OPSTTMning O‘MG bosqichida shug‘ullanayotgan o‘quvchi-sportchilarning musobaqa faoliyati tahlili natijalari quyidagicha bo‘ldi:

1.Musobaqa jarayonida faol hujum harakatlarei 1-4-daqiqalarda kuzatildi. Samarali yakunlangan harakatlarning o‘rtacha ko‘rsatkichi 1,75±0,74 tashkil etdi. Musobaqadagi bellashuvlarning 60-65% qismi jamoadagi o‘ng qanot hujumchisining tezkorligi va individual hatt-harakatlari bois jamoa g‘alabaga erishdi.

2. O‘zbekiston kubogida ishtirok etgan sportchilarning sport mahorati va tayyorgarlik darajasi bir-biridan keskin farq qiladi. Regbichilarning ko‘rsatgan natijalarni qiyosiy tahlil qilish shuni ko‘rsatdiki, musobaqa jarayonida texnik harakatlar chap qanotga qaraganda, o‘ng qanotdan faollik bilan amalga oshirilgan.

3. Sportchilarning funksional tayyorgarligi sportchilarga quyiladigan zamonaviy talablarga to‘liq javob bermaydi:

- musobaqa vaqtida bajarilgan TTHlar samaradorligi koeffitsenti past darajada;
- bellashuvning 6-7-daqiqalarida sportchilar TTHlarni juda sust bajarishgan. Bu shundan dalolat beradiki, o‘quv-mashg‘ulot yig‘inida regbichilarning maxsus tayyorgarligini hamda jamoaviy o‘yin taktikasini rivojlantirishga alohida e’tibor berish kerak bo‘ladi.

4. O‘ng qanotdan bajarilgan harakatlar eng samarali ekanligi tasdiqlandi. Tadqiqot natijalariga asoslanib, O‘MG guruhida shug‘ullanayotgan o‘quvchi-sportchilarning o‘quv-mashg‘ulot yig‘inlarida ularning funksional, maxsus jismoniy va taktik tayyorgarligiga (ruk va scrum) texnik usullarini mukammal darajada egallashlariga alohida e’tibor qaratish tavsiya etiladi

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. “Jamoaviy sport turlarini rivojlantirish va iqtidorli yoshlarni saralab olish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.MIRZIYOEV, Toshkent sh., 2024-yil 8-noyabr, PQ-2214–son.
2. “Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.MIRZIYOEV, Toshkent sh., 2017-yil 3-iyun, PQ-3031–son.
3. “O‘zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora–tadbirlari to‘g‘risida”. O‘zbekiston espublikasi Prezidenti SH.MIRZIYOEV, Toshkent sh., 2020- yil 24-yanvar, PF-5924–son.
4. Godik M.A. Kontrol trenirovochnых i sorevnovatelnых nagruzok. -M. Fizkultura i sport, 1980.
5. Kerimov F. A. Sportda ilmiy tadqiqotlar. T.:, 2019-y.

INTEGRATIV YONDASHUV ASOSIDA MIKROBIOLOGIYA FANINI O‘QITISHDA MODULLI TA’LIM TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

Saparova Sabohat Izzatillayevna
Navoiy davlat universiteti Umum tibbiy fanlar kafedrasi o‘qituvchisi,
Sabohatsaparova86@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada integrativ yondashuv asosida mikrobiologiya fanini o‘qitishda modulli ta’lim texnologiyalaridan foydalanish, modulli ta’lim texnologiyasidagi o‘quv faoliyati elementi, modulli ta’lim texnologiyasining mezonlari, mikrobiologiya darslarida modulli ta’lim texnologiyasini amaliyotda qo‘llash haqidagi ma’lumotlar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: modul, integrativ yondashuv, o‘quv faoliyati elementlari, induktiv, deduktiv, musobaqa usuli, kichik konsultantlar usuli, ta’lim - tarbiya, modulli ta’lim texnologiyasi.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ МОДУЛЬНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ПРЕПОДАВАНИИ МИКРОБИОЛОГИИ НА ОСНОВЕ ИНТЕГРАТИВНОГО ПОДХОДА

Аннотация. В данной статье рассматриваются использование модульных образовательных технологий в преподавании микробиологии на основе интегративного подхода, элемент учебной деятельности в модульной образовательной технологии, критерии модульной образовательной технологии, применение модульной образовательной технологии на уроках микробиологии в на практике информация изложена.

Ключевые слова: модуль, интегративный подход, элементы учебной деятельности, индуктивный, дедуктивный, конкурсный метод, метод малых консультантов, образование-образование, модульная технология обучения.

THE USE OF MODULAR EDUCATIONAL TECHNOLOGIES IN TEACHING MICROBIOLOGY BASED ON AN INTEGRATIVE APPROACH

Abstract. This article discusses the use of modular educational technologies in teaching microbiology based on an integrative approach, the element of educational activity in modular educational technology, the criteria for modular educational technology, the use of modular educational technology in microbiology lessons in practice, the information is presented.

Key words: module, integrative approach, elements of educational activities, inductive, deductive, competitive method, small consultants method, education-education, modular teaching technology.

Kirish. Jahonda va mamlakatimizda ta’lim barqaror taraqqiyotni ta’minlaydigan asosiy kuch sifatida e’tirof etilib, integrativ yondashuv asosida ta’lim jarayonini innovatsion tashkil etish, pedagogik diagnostika metodlaridan optimal foydalanish strategiyalari samaradorligini oshirish va usullarini takomillashtirish orqali tahsil oluvchilar uchun ularning hayoti davomida sifatli ta’lim olish imkoniyatini yaratish alohida dolzarblik kasb etmoqda. Bu esa, har tomonlama yetuk, komil insonni shakllantirish masalasining ko‘p qirrali va murakkabligi pedagogikaning hozirgi zamon ta’lim nazariyasi va amaliyoti uchun muhimligini ko‘rsatib beradi. Bu vazifa o‘qituvchi mahorati, uning yetukligi, chuqur kasbiy bilimi, ko‘nikma va malakasi, maxsus bilimi orqali amalga oshirish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Mikrobiologiya fanini tibbiyot oliygohlarida integrativ yondashuv asosida o‘qitishda xususiy metodik va lokal texnologiyalardan foydalanish maqsadga muvofiq. Mikrobiologiyani o‘qitishda xususiy metodik darajadagi pedagogik texnologiyalardan modulli ta’lim texnologiyalari,

hamkorlikda o‘qitish texnologiyalaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy mutaxassis kadrlar qaysi sohada bo‘lishidan qat`iy nazar o‘z kasbiy faoliyatida modulli ta’lim texnologiyalaridan ham erkin foydalana olishi lozim. Ayniqsa, mikrobiologiya fanini modulli ta’lim texnologiyalarisiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Boshqa sohalar kabi zamonaviy mikrobiologiya muammolarining yechimlari va yutuqlari ko‘p jihatdan modulli ta’lim texnologiyalarining keng tadbiq etilishi bilan bog‘liq. Shu bois, mikrobiologiya fani va ta’limining istiqboldagi rivojlanishiga mazkur sohada yetuk, zamonaviy talablarga javob beradigan mutaxassis kadrlarni shakllantirish, o‘qitish tizimini takomillashtirish, ta’lim sifatini oshirish orqali erishish mumkin.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Hozirgi vaqtda zamonaviy ta’limning maqsad va vazifalari o‘zgarmoqda, sa’y-harakatlarda bilimlarni o‘zlashtirishdan kompetensiyalarni shakllantirishga siljish kuzatilmoqda, asosiy e`tibor talabaga yo‘naltirilgan ta’limga qaratilmoqda. Zamonaviy axborot texnologiyalari mikro va makro dunyodagi, murakkab qurilmalar va biologik tizimlardagi hodisa va jarayonlarni kompyuter grafikasi va modellashtirishidan foydalanish asosida o‘rgatish, juda katta yoki juda kichik tezlikda sodir bo‘ladigan fizik, kimyoviy va biologik jarayonlarni qulay vaqt o‘lchamida taqdim etish kabi yangi didaktik masalalarni echishga yordam beradi [1]. Ta’limda modulli ta’lim texnologiyalari muhitining shakllanishi fan sohalarini axborotlashtirishga, o‘quv faoliyatini intellektuallashtirishga, integratsiya jarayonlarini tezlashtirishga, ta’lim tizimi infrasfrastrukturasi va uni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirishga olib keladi [2].

Ta’limga axborot-kommunikatsiya, modulli ta’lim texnologiyalarini joriy etish nazariyasi va metodologiyasi, o‘quv jarayonida internet texnologiyalaridan foydalanish usullari, masofadan o‘qitish texnologiyalarini qo‘llash muammolarini o‘rganishda G‘arb olimlarini xizmati beqiyosdir. Jumladan, A.Berglund, D.Geladze, H.Long, M.Sugata, K.Whattananarong, P.Alfred, B.Means, W.Olatokun, K.Peters, J.Traxler, B.Furuholt kabi tadqiqotchilar tomonidan tadqiq etilgan [2]. Oxirgi yillarda ta’lim tizimini takomillashtirishda modulli ta’lim texnologiyalarni joriy qilish va uni zamonaviy ta’lim jarayonida keng qo‘llash yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda [3].

Mikrobiologiya daslarida modulli ta’lim, pedagogik va axborot texnologiya laridan o‘rinli foydalanilganda talabalarda hurfikrlilik, bilimga chanqoqlik, Vatanga mehr-muhabbat, atrof-muhitni asrab avaylash, isonparvarlik tuyg‘ulari tizimi o‘z o‘zidan shakllanib borishiga imkon yaratiladi. Buning uchun mikrobiologiya fani o‘qituvchilari zamonaviy axborot-kommunikatsiya texno logiyalaridan foydalanish malakalarini mukammal egallash zarurligini davrning o‘zi taqozo etmoqda. (Hozirda mamlakatimizda olib borilayotgan keng ko‘lamli islohotlar, jumladan ta’lim tizimiga qaratilayotgan davlat siyosati darajasidagi e`tibor natijasida barcha ta’lim muassasalarida dars o‘tish uchun barcha sharoitlar mavjud bo‘lgan holda, shu imkoniyatlardan to‘la va oqilona foydalana olmaslik, XXI asr axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asri bo‘la turib, o‘qituvchining bu sohada yetarli bilimlarga ega bo‘lmasligi ham darslarni ijobiy tashkil etishga o‘z salbiy ta’sirini ko‘rsatadi [4].

XXI asrdagi informatsion texnologiyalarning shiddat bilan o‘sib borayotganligi, intensiv va ahamiyatli ravishda axborot tizimi ta’sirining shaxs kamolotiga ijobiy va salbiy ta’siri hamda ularning ijtimoiy muammo sifatida emas, balki ekologik muammo sifatida xavf va xatarlari, shuningdek, yosh avlod tarbiyasiga ta’siri haqida ham tadqiqotlar olib borilgan [5, 6].

Adabiyotlar tahlilidan ham ko‘rinib turibdiki, mikrobiologiya ta’limi va sohada tadqiqot olib boradigan mutaxasisslar modulli ta’lim texnologiyalariga oid bilimlarni puxta egallashlari bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir.

Tadqiqot metodologiyasi. Mikrobiologiyani o‘qitishga oid ilmiy-uslubiy va psixologik-pedagogik ishlarni o‘rganish va tahlil qilish. Tibbiyot oliygohlari va boshqa oliy o‘quv yurtlarining mikrobiologiya kafedralarida mikrobiologiyani o‘qitishning modulli ta’lim texnolologiyalarining umumnazariy asoslarini aniqlashtirgan holda o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganish, pedagogik eksperiment va eksperimental ish natijalarini umumlashtirish.

“Mikrobiologiya” fanlari bo‘yicha ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etish jarayonida modulli ta’lim texnologiyalaridan foydalanish talabalarga mikropreparatlar va makropreparatlar, organizmlarning hayotiy jarayonlari hamda hujayralar tuzilmalarining tuzilish xususiyatlarini, organik olam evolyutsiyasini tizimli o‘rganish imkonini beradi. Shuningdek, irsiyatning moddiy asoslari va ularning funksional tizimlari hamda ular ustida turli manipulyatsiyalar o‘tkazish va tadqiq qilish jarayonlarini zamonaviy axborot texnologiyalari va zaruriy dasturiy ta’minotlarisiz amalga oshirish imkonsiz. Bu esa oliy ta’lim muassasalarida zamonaviy talablarga javob beradigan mutaxassis kadrlarni tayyorlashda muhim ahamiyatga ega.

Tahlil va natijalar. Tibbiyot oliygohlarida integrativ yondashuv asosida mikrobiologiya fanini o‘qitishda modulli ta’lim texnologiyasidan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Modulli ta’lim texnologiyasi modullarga asoslanadi. Modul lotincha so‘zdan olingan bo‘lib, qism (blok) degan ma’noni bildiradi. Mikrobiologiyani o‘qitishda modulli ta’lim texnologiyalaridan foydalanishda darsda foydalaniladigan mavzu mantiqiy tugallangan fikrli qismlar, ya’ni modullarga ajratiladi va har bir qismni talabalar mustaqil o‘zlashtirishlari uchun o‘quv topshiriqlari tuziladi. Shu o‘quv topshiriqlari asosida, har bir modul yakunida savol-javob o‘tkaziladi va xulosa chiqariladi.

Mazkur darslarda talabalarning bilish faoliyati modullarni ketma-ket o‘zlashtirishlarini nazarda tutgan holda tashkil etiladi. Har bir modulni o‘zlashtirish jarayoni talabalarning yaxlit bilish faoliyatining elementi sanaladi, ya’ni bir darsda yaxlit tashkil etilishi ko‘zda tutilgan talabalarning o‘quv faoliyati mavzu ajratilgan modullarga muvofiq holda o‘quv faoliyati elementlari (O‘FE) dan tashkil topadi. Agar darsda o‘rganiladigan mavzu mazmuni 4 ta moduldan iborat bo‘lsa, talabalarning o‘quv-bilish faoliyati mos holda 4 ta o‘quv faoliyati elementi (O‘FE) dan tashkil topadi. Shuni qayd etish kerakki, dars yakunida talabalarning o‘z faoliyatlarini tahlil qilishi va o‘z-o‘zini baholashini amalga oshirish maqsadida modul dasturini yakunlash bosqichi bo‘ladi. Shu sababli fikr yuritilayotgan ushbu darsda foydalaniladigan modul dasturida 5 ta o‘quv faoliyati elementi (O‘FE) bo‘ladi. O‘qituvchi shu asosda modul dasturini tuzadi.

Ta’lim muassasalarining asosiy vazifalaridan biri, talabalarga insoniyat tarixi davomida yaratilgan bilimlarni yetkazish, fanlar asoslari bo‘yicha muntazam bilim olishlari uchun tegishli sharoit yaratish, zarur axborotlarni tanlash va mustaqil o‘qishni o‘rgatish orqali bilim olishga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirish va qiziqishlarini orttirishdan iborat. Ushbu vazifalarni an’anaviy ta’lim texnologiyasidan foydalanilgan holda hal etib bo‘lmaydi, shu sababli ta’lim-tarbiya jarayoniga modulli ta’lim texnologiyasini qo‘llash zarurati vujudga keldi. Modulli ta’limning asosiy mohiyati, talabalar modul dasturlari yordamida mustaqil ishlashiga asoslangan o‘quv-bilish faoliyati orqali belgilangan maqsadga erishadilar. Modul dasturlari mavzuning ta’limiy, tarbiyaviy va rivoj¬lan¬tiruv¬chi maqsadidan kelib chiqadigan modul dasturining didaktik maqsadi, talabalarning dars davomida bajaradigan o‘quv topshiriqlari, topshiriq¬lar¬ni bajarish bo‘yicha berilgan ko‘rsatmalar, modul dasturini yakunlash qismini o‘zida mujassam¬lashti¬ra¬di. Modul dasturlarini tuzishda o‘qituvchi e’tiborini quyidagilarga qaratishi zarur:

1. Modul dasturidan ko‘zda tutilgan didaktik maqsadni aniq yoritish. An’anaviy ta’limda, dars ishlangmasida o‘qituvchi darsning ta’limiy, tarbiyaviy va rivojlanti¬ruv¬chi maqsadlarini o‘z zimmasiga yuklaydi, ya’ni talabalarda muayyan tushunchalarni shakllantirish, ilmiy dunyoqarashni kengaytirish, tarbiya berish va h.k. Modul dasturining didaktik maqsadi darsning yuqorida qayd etilgan maqsadlariga uyg‘un holda talabalarning zimmasiga yuklatiladi. Shuni qayd etish kerakki, maqsad aniq bo‘lsa, unga muvofiq holda tadbirlar qo‘llaniladi va erishish oson bo‘ladi.

2. O‘quv materialini o‘rganishning mantiqiy yo‘nalishi (induktiv yoki deduktiv tarzda berilganligi)ni aniqlash. Modulli ta’lim tamoyillari hisobga olingan holda o‘quv materialini mazmunan tugallangan mantiqiy ketma-ketlikdagi kichik qism (modul)larga taqsimlash.

3. O‘quvchilar tomonidan o‘quv materiallarini har bir moduli yoki qismini o‘zlashtiri¬shi uchun tashkil etiladigan o‘quv faoliyati usullarini belgilash.

4. O‘quv faoliyati usullariga bog‘liq holda modul dasturidan o‘rin olishi lozim bo‘lgan o‘quv elementlarini va ularning ketma-ketligini aniqlash.

5. Talabalar bilimini aniqlash va nazorat qilish bo‘yicha dastlabki joriy nazorat, axborot to‘plami, o‘qitish mazmunini qayta ishlash, yakuniy nazorat va o‘quvchilar bilimidagi tipik kamchiliklar va xatolarni bartaraf etish yo‘llarini belgilash. O‘quvchilar uchun asosiy va qo‘shimcha adabiyotlarni tanlash.

Talabalar modul dasturi yordamida o‘quv materialini mustaqil va ijodiy o‘rganish jarayoni mazkur mavzuni o‘zlashtirish uchun dasturda belgilangan vaqt doirasida amalga oshirilishiga erishishi lozim. Modul dasturini muvaffaqiyatli qo‘llashning muhim sharti, unda talabalarning o‘quv-bilish faoliyatining o‘quv elementlarini to‘g‘ri tanlashdir. Chunki o‘quvchilar modul dasturi bilan ishlaganda, aynan shu o‘quv elementlarini bajaradilar.

Modulli ta’lim texnologiyasidan foydalanishda o‘qituvchi quyidagi mezonlarga amal qilishi lozim:

1. Talabalarga mustaqil o‘zlashtirish uchun tavsiya etiladigan o‘quv materiali talabalarning o‘quv imkoniyatlarini hisobga olgan holda, ular uddalay oladigan va shu bilan birga maksimal darajada qiyin bo‘lmasligi kerak.

2. Talabalar o‘quv materialini dasturda belgilangan vaqt doirasida egallashlari kerak.

3. O‘qituvchi talabalarni o‘quv materiallarini mustaqil va ijodiy o‘zlashtirish ko‘nikmasiga ega bo‘lishiga erishishi lozim. Bunda, dastlab o‘qituvchi darsga olib kiradigan axborotni ikki qismga ajratadi. Birinchi qismini talabalar o‘qituvchi yordamida ikkinchi qismini ijodiy va mustaqil o‘zlashtirishlari lozim. Keyin belgilangan mavzularni modulli dars shaklida o‘tkazishni mo‘ljallab, modul dasturlarini tuzadi.

Modul dasturi o‘qituvchilar tomonidan tuzilib unda o‘qitish maqsadlari mavzuni o‘rganish bosqichlari, talabalar tomonidan bajariladigan o‘quv faoliyati elementlari, talabalar bilimini nazorat qilish yo‘llari ketma-ket yoziladi. Shuni qayd etish kerakki, modul dasturlari bu - dars matni va o‘qituvchi tomonidan o‘quv materialini rejalashtirish emas, balki talabalarning u yoki bu mavzuni mustaqil va ijodiy o‘rganishlariga mo‘ljallangan o‘quv faoliyati dasturidir. Modul dasturlari o‘qituvchilar tomonidan tuzilib unda o‘qitish maqsadlari, mavzuni o‘rganish bosqichlari, talabalar tomonidan bajariladigan o‘quv topshiriqlari, o‘quv faoliyati elementlari, talabalar bilimini nazorat qilish yo‘llari ketma-ket yoziladi. Modulli darslarda, mavzuning mazmunidan kelib chiqqan holda yuqorida qayd etilgan o‘quv faoliyati elementlardan yakka tartibda yoki tegishli O‘FE dan majmua holda foydalanish mumkin.

Ta’lim-tarbiya jarayonida modulli ta’lim texnologiyasidan foydalanish uchun o‘qituvchi quyidagi ishlarni amalga oshirishi lozim:

o‘quv materiallarini modulli rejalashtirish. O‘quv yili boshida qaysi mavzularni modulli ta’lim texnologiyasidan foydalanib o‘rganilishini belgilash;

mazkur mavzular bo‘yicha modulli dars ishlangmalarini loyihalash;

mavzuning ta’limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlariga muvofiq holda modul dasturlarini tuzish.

Modul dasturlari mazmuni va mohiyatiga ko‘ra:

talabalarning individual tarzda ishlashiga mo‘ljallangan modul dasturlari har bir talabalarning iqtidori, qiziqishi, bilim saviyasi, o‘zlashtirish darajasini aniqlash va orttirish, darslik ustida mustaqil va ijodiy ishlash, o‘z-o‘zini baholash ko‘nikmalarini rivojlantirish;

ikkita talabalar hamkorlikda ishlashiga mo‘ljallangan modul dasturlari yuqorida qayd etilganlardan tashqari, talabalarning bir-birini o‘qitish, o‘zaro hamkorlikda o‘quv topshiriqlarini bajarishi va muammolarni hal etishi, o‘zaro nazoratni amalga oshirishi;

talabalarning kichik guruhlarda hamkorlikda ishlashiga mo‘ljallangan modul dasturlari yuqoridagilar bilan bir qatorda o‘quvchilar o‘rtasida muloqot, o‘quv bahsi va munozara, o‘zaro

hamkorlik va yordamni amalga oshirishni nazarda tutadi.

O‘qituvchi mazkur modul dasturlaridan avval individual tarzdagi modul dasturlaridan qo‘llab, talabalarning o‘quv materialarini mustaqil va ijodiy o‘zlashtirish ko‘nikmalari shakllanganligiga ishonch hosil qilgandan so‘ng, ikkita o‘quvchi hamkorlikda ishlashiga mo‘ljallangan modul dasturlari, tegishli pedagogik shart sharoitlar vujudga kelgandan so‘ng, kichik guruhlarda ishlashga mo‘ljallangan modul dasturlaridan foydalanishi lozim.

Kichik guruhlar uchun tuzilgan modul dasturlaridan foydalanishda ikki xil yondashuv mavjud:

1. **Musobaqa usuli.** O‘qituvchi talabalarni teng sonli kichik guruhlarga ajratib, modul dasturi vositasida mustaqil ishlarni tashkil etadi. Har bir modul yakunida savol-javob, o‘quv bahsi musobaqa tarzida o‘tkaziladi. Guruhlar o‘rtasida g‘oliblar aniqlanadi. Guruh a’zolari o‘z faoliyatini hamkorlarining fikrini hisobga olgan holda baholaydi.

2. **Kichik konsultantlar usuli.** O‘qituvchi talabalarni teng sonli kichik guruhlarga ajratib, modul dasturi vositasida mustaqil ishlarni tashkil etadi. Har bir guruhga kichik konsultantlar tayinlanadi. Kichik konsultantlar guruh ishini boshqaradi, o‘quvchilarning faoliyatini nazorat qiladi, tegishli hollarda yordam uyushtiradi. Har bir modul yakunida savol-javob, o‘quv bahsi o‘tkaziladi. O‘zaro nazorat orqali o‘quvchilar baholanadi.

Modulli ta’lim texnologiyasiga asoslangan darslarda talabalarning o‘quv-bilish faoliyati modul dasturlari asosida tashkil etiladi. Talabalar o‘quv materialini modul dasturidan o‘rin olgan o‘quv topshiriqlarini sifatli bajarish orqali mustaqil o‘zlashtiradilar va o‘z o‘quv faoliyatining subyektiga aylanadilar. Shu tariqa yagona ta’lim-tarbiya jarayonining ikkita subyekti o‘qituvchi va talaba o‘quv jarayonidan ko‘zlangan maqsadga erishadi. O‘qituvchi o‘quv materiallarini modullarga ajratadi va modul dasturini yaratadi. Har bir modulning xususiy didaktik maqsadi va o‘quv topshiriqlarini aniqlaydi.

Mashg‘ulot yuzasidan nazorat test topshiriqlari va mustaqil ish topshiriqlarini tuzadi. Talabalarning mustaqil o‘quv bilish faoliyatini tashkil etadi. Modul dasturining didaktik maqsadi va o‘quv topshiriqlari bilan tanishtiradi. Talabalarning modul dasturi yordamida mustaqil ishlarini tashkil etadi. Muammoli vaziyatlarni vujudga keltiradi, tegishli hollarda yordam uyushtiradi. Modul dasturidan o‘rin olgan har bir modul yakunida o‘quv bahsi, savol-javob, munozara, aqliy hujum o‘tkazadi. Modul dasturini yakunlaydi.

Mashg‘ulot yuzasidan test topshiriqlari yordamida o‘qituvchi nazoratini amalga oshiradi. Erishilgan natijani tahlil qilib talabalarga erishilgan natijasiga muvofiq holda mustaqil va ijodiy ish topshiriqlarini tavsiya etadi. Talabalar modul dasturining didaktik maqsadi, modullar, modullarning xususiy didaktik maqsadlari, mashg‘ulot davomida bajariladigan o‘quv topshiriqlari, topshiriqlar yuzasidan ko‘rsatmalarni anglaydi. O‘z o‘quv bilish faoliyatini tashkil etadi. Mashg‘ulot matnini mustaqil o‘zlashtiradi, o‘quv topshiriqlarini sifatli bajaradi, savollarga javob topadi. Muammoli vaziyatlardan chiqishning optimal variantlarini taklif etadi. O‘quv bahsi, savol-javob, munozara va aqliy hujumda faol ishtirok etadi va h.q.

Xulosa va takliflar. Zamonaviy mikrobiologiya ta’limida modulli ta’lim texnologiyalariga oid yangi bilimlarni egallagan zamonaviy mutaxassislarni tayyorlash bugungi kunda oliy ta’lim tizimida muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Modulli ta’lim texnologiyalari yordamida o‘quv mashg‘ulotlarni tashkil etish talabalarda ta’lim mazmunini o‘zlashtirqishda yangi bosqichga o‘tish lozim.

Kompyuter eksperimentidan foydalanish to‘g‘ridan-to‘g‘ri tajribalar yordamida o‘rganilayotgan hodisaning qiyin yoki umuman erishib bo‘lmaydigan xususiyatlarini hisoblash, raqamli baholash qobiliyati shaklida jiddiy afzalliklarga ega. Zamonaviy mikrobiologiya fani va ta’limida modulli ta’lim texnologiyalaridan foydalanish ushbu sohada progressiv rivojlanishga olib keladi. Tadqiqot natijalarining xalqaro bazalarga kiritib borilishi va uning asosida tahlil qilinish

tadqiqotchiga ulkan imkoniyatlar yaratadi. Oliy ta'lim tizimida mikrobiologiya darslarida modulli ta'lim texnologiyasini amaliyotda qo'llash talabalarning mustaqil bilish faoliyatini va ijodiy ko'nikma, malakalarini takomillashtirishda, kreativlik va qiziqishini orttirish kabi funksiyalarini darslarda uyg'unlashtirish imkoniyatlarini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Хамдамов Р., Бегимкулов У., Тайлоков Н. Таълимда ахборот технологиялари. Олий таълим муассасалари учун ўкув кўлланма/. ЎзМЭ давлат илмий нашриёти. -Т.: 2010, 120 б
2. Турсунов Р.Б. Таълимда ахборот коммуникацион технологияларни кўллаш тенденциялари// Academic Research in Educational Sciences. Vol. 1 No. 1, 2020. Page 325
3. Захарова И.Г. Информационные технологии в образовании. Учебное пособие М. Издательский центр "Академия"-2010. 187 стр.
4. Yusupov N. Biologiya fanini o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash xususiyatlari//Ta'lim texnologiyalari jurnali, 2018, №6.
5. Hasanova Sh. Biologiya darslarida axborot va innovatsion texnologiyalardan foydalanish. / O'quv qo'llanma. – T.: «Yangi asr avlodi», 2012. – 128 b.
6. Черная Л.В., Актушина Г.А. Роль информационных технологий в преподавании биологии в медицинском вузе // Современные проблемы науки и образования.–2019.–№4.; URL:https://science-education.ru/ru/article/view?id=29132
7. Miles, C; Wayne, M (2008). «Quantitative trait locus (QTL) analysis». Nature Education (1.1).
8. Ricki Lewis (2003), Multifactorial Traits, McGraw-Hill Higher Education.
9. Proud, Virginia & Roberts, Helen (31 December 2005). «Medical Genetics: Multifactorial Inheritance». Children`s Hospital of the King's Daughters. Retrieved 6 January 2007.
10. «Multifactorial Inheritance». Pregnancy and Newborn Health Education Centre. The March of Dimes. Archived from the original on 2 November 2006. Retrieved November 12, 2014.
11. Tissot, Robert. «Human Genetics for 1st Year Students: Multifactorial Inheritance». Retrieved 6 January 2007.
12. J.O.Tolipova "Biologiyani o'qitishda innovatsion texnologiyalar" Pedagogika oliy o'quv yurti talabalari uchun darslik. Toshkent - "Cho'lpon" – 2011 y.
13. M.N.Ibodova "Biologiya o'qitish metodikasi" Pedagogika oliy o'quv yurti talabalari uchun darslik 2024 y Toshkent "Bookmany print " - 2024 y
14. M.N.Ibodova Akademik litseylarda biologiya fanini o'qitishning integrativ texnologiyalari va metodik ta'minoti. Kasb-hunar ta'limi Ilmiy-uslubiy, amaliy, ma'rifiy jurnal 2024-yil, 7-son
15. M.N.Ibodova Akademik litseylarda biologiya fanini integrativ yondashuv asosida o'qitishning didaktik modeli. O'zMU xabarlari, O'zbekiston milliy universiteti ilmiy jurnali 2024 y 1/8/1 B 104-105
16. M.N.Ibodova Akademik litseylarda biologiya fanini o'qitishda integrativ texnologiyalardan foydalanishni tashkil etishning metodik tizimi.Uzluksiz ta'lim Тошкент . 2023 y. № 6 Б- 126-129 bet
17. M. N. Ibodova Akademik litseylarda biologiya fanini o'qitishninh interfaol va muammoli izlanish metodlaridan foydalanish texnologiyasi Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences (E)ISSN:2181-1784 www.oriens.uz SJIF 2023 = 6.131 / ASI Factor = 1.7 3(4/2), April, 2023
18. M. N. Ibodova Conceptual framework for tne use of integrative technologies for teaching biological sciences in academic lyceums. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol. 11 No. 4, 2023 ISSN 2056-5852.

ПСИХОЛОГИЯ

RUHIY RIVOJLANISHNIDA KAMCHILIGI BO‘LGAN BOLALARNI PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

To‘raqulova Shaxnoza Daminovna
Jizzax davlat pedagogika universiteti Maxsus pedagogika kafedrasi stajyor o‘qituvchi

Annotatsiya. Ushbu maqolada ruhiy rivojlanishida kamchiligi bor bo‘lgan o‘quvchilarning psixologik xususiyatlari jumladan, bilish jarayonlaridagi muammolar, o‘zini tutishi, o‘quv materiallarini o‘zlashtirishdagi qiyinchiliklar, oilaviy munosatlardagi muammolar, muloqotga moyillik, o‘rtoqlar bilan munosabatga kirishish, kasb tanlashdagi va boshqa masalalar yuzasidan xorijiy hamda mahalliy olimlarning ilmiy asoslangan fikr va mulohazalari o‘rin olgan.

Kalit so‘zlar: Xotira, diqqat, tasavvur, ruhiyat, idrok,oila, ta’lim-tarbiya, konstitutsional, somatogen, psixogen, serebral shakli, tibbiyot, psixologiya.

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ДЕТЕЙ С ОТСТАВАНИЕМ В УМСТВЕННОМ РАЗВИТИИ

Аннотация. В данной статье рассмотрены психологические особенности студентов с отклонениями в психическом развитии, в том числе проблемы в познавательных процессах, поведении, трудности в освоении учебных материалов, проблемы в семейных отношениях, склонность к общению, вступлению в отношения со сверстниками, выбору профессии и научные мнения. зарубежных и отечественных ученых по другим вопросам.

Ключевые слова: память, внимание, воображение, психика, восприятие, семья, образование, конституциональная, соматогенная, психогенная, церебральная форма, медицина, психология.

PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF CHILDREN WITH MENTAL RETARDATION

Abstract. Introduction; This article examines the psychological characteristics of students with mental development disorders, including problems in cognitive processes, behavior, difficulties in mastering educational materials, problems in family relationships, a tendency to communicate, enter into relationships with peers, choose a profession and scientific opinions. foreign and domestic scientists on other issues.

Key words: Memory, attention, imagination, psyche, perception, family, education, constitutional, somatogenic, psychogenic, cerebral form, medicine, psychology.

Kirish. Respublikamizda imkoniyati cheklangan bolalarni inklyuziv ta’limga jalb qilish borasida bir qator ilmiy-amaliy tajribalar olib borilmoqda. Juda ko‘plab davlatlarda alohida ta’limga ehtiyoji bo‘lgan bolalarni kamol toptirishda kompensator imkoniyatlarni rivojlantirish hamda ijtimoiy moslashtirishni to‘laligicha yo‘lga qo‘yish maqsadida umumta’lim maktablarida ta’lim berish davlat siyosati rejasiga kiritilgan. “Ta’lim tizimi deb yozadi L.S.Vigotskiy - nuqsonli bolani tarbiyalashning asosiy vazifasi boladagi nuqsonlarni kompensatsiya qilish va uning hayotga integratsiyasini ta’minlashdan iboratdir. Buning uchun shunday ta’lim tizimini yaratish kerakki, maxsus yordamga muhtoj bola o‘qish jarayonida har tomonlama rivojlansin”. L. S. Vigotskiy umumiy

va maxsus ta'limni uyg'unlashtiradigan ta'lim tizimini tashkil etishda maxsus yordamga muhtoj bolalarni umumta'lim tizimida o'qitishni e'tirof etadi.[1]

Respublikamizda 2024-yilda qariyeb 1 mln chaqaloq dunyoga kelgan bo'lsa, dunyoga kelgan bolalarning 200 mingtasi ya'ni 20% turli kamchiliklar bilan tug'ilayotgani juda ham achinarli holat. Yuqoridagi masala ya'ni ma'lum bir nuqson bilan dunyoga kelayotgan bolalar sonini kamaytirish uchun jamiyatimizda tizimli ishlarni amalga oshirish kerak.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasi qarorlari, Sog'liqni saqlash tizimidagi islohotlar, Maktab va Maktabgacha ta'lim vazirligining qarorlari, Oila va jamiyatni qo'llab quvvatlash tizimi, Onalik va bolalikni himoya qilish jamiyati, Ayollarga tibbiy va psixologik yordam ko'rsatish tizimi va boshqa ko'plab sohalardagi belgilab berilgan me'yor va tavsiyalarga amal qilish lozim.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida" gi Qonunida inklyuziv ta'lim olishning alohida shakli sifatida belgilandi. Uning "alohida ta'lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarning xilma-xilligini hisobga olgan holda barcha ta'lim oluvchilar uchun ta'lim tashkilotlarida ta'lim olishga bo'lgan teng imkoniyatlarni ta'minlashga qaratilgan"ligi va "jismoniy, aqliy, sensor, sezgi yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan bolalar uchun ta'lim tashkilotlarida" tashkil etilishi huquqiy jihatdan mustahkamlab qo'yildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Nogironligi bo'lgan shaxslarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2017-yil 1-dekabrdagi PF-5270-son, "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimining 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyaning tasdiqlash to'g'risida" 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son Farmoni, "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2020-yil 13-oktabrdagi PQ-4860-son qarori va boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalar mazmunida aholining ehtiyojmand qatlamlariga ta'lim xizmatining moslashgan turlarini, differentsial yondashuvlarga asoslangan tizimni joriy etish belgilab qo'yilgan.

O'sib kelayotgan yoshlar orasida ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar mavjud bo'lib, ularning sifatli ta'limga jalb etilishi borasida ham qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan bolalarning jamiyatning kundalik hayotiga jalb qilinishi va faol ishtirokini ta'minlovchi maxsus va inklyuziv ta'lim tizimi mazmuni va shakllari takomillashtirilmoqda.

Alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan bola maxsus yondashuvni talab etadi. Bolani shakllantirishni samarali amalga oshirish uchun har bir yosh davrlarida bola rivojlanishining psixologik qonuniyatlari haqidagi bilimlarni chuqur egallash darkor.

Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalarni o'rganish bo'yicha bir qator olimlar izlanishlar olib borganlar. K.S.Lebedinskayaning ma'lumotlariga ko'ra, ommaviy maktab boshlang'ich sinf o'quvchilarining orasida 5-6 % ni ruhiy rivojlanishi susaygan bolalar tashkil etadi deb hisoblaydi.

Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar asosan ikki guruhga bo'linadi, birinchi guruhi yengil darajadagi ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar, 2-guruhi ruhiy rivojlanishi sezilarli darajada namoyon bo'ladigan bolalar.

Olimlardan K.S.Lebedinskaya, G.P.Berto'n, Ye.M.Dunayeva va boshqalar ruhan sust rivojlanganlikni klinik-psixologik jihatdan quyidagi xillarga bo'lishni tavsiya etadilar:[2]

1) konstitutsional; 2) somatogen; 3) psixogen; 4) serebral shakli.

1. Konstitutsional shakli: Bu turdagi bolalar o'zlaridan bir necha yosh kichik bo'lgan bolalar rivojlanishiga to'g'ri keladi. Ularda kayfiyat ko'tarinki bo'ladi, o'yin faoliyatida boshqalardan

[1] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4860-son qarori.

[2] К.С.Лебединская, Г.П.Бартин, М.Т.Дунаева. Актуалние проблеми диагностики задержки психического развития детей. М., Педагогика, 1982.

ko‘ra tashabbuskorlik xislatlari ustunlik qiladi.

Ta’limdagi qiyinchiliklar asosan intellektual qiziqishlarning yo‘qligi darsga qiziqmasligi yaqqol sezilib turadi. Bolalarda ko‘pincha kayfiyat ko‘tarinki, bo‘lganligi sababli, xulq-atvorda hissiy motivlarning ustunlik qilishini kuzatishimiz mumkin, hissiyotlarning yuzakiligi, turg‘unsizligi, bilan ajralib turadi.

2. Somatik shakl rivojlanishdagi bu kamchilikka bola onasining homiladorligi davrida turli kasallliklarga qalqonsimon bezlari faoliyatining buzilganligi kasalligi, yurak-tomir kasalliklari erta tug‘ilish, asfiksiya, tug‘ilish travmasi, neyroinfeksiyalar sabab bo‘lishi mumkin. Nafaqat onaning homiladorlik davridagi kasalliklari sabab yana bolaning ham ilk yoshda har xil surunkali kasalliklar bilan tez-tez kasallanib turish natijasida bolaning o‘sishida (jismoniy) muammolar yuzaga kelishi mumkin, bu esa o‘z navbatida ruhiy jihatdan rivojlanishida orqada qolishga, kechikishga olib keladi. Bolalarda turli hil surunkali infeksiyalar, allergik holatlar, tug‘ma porok kabi kasalliklarda ruhiy rivojlanishi sustlashish muammosi ko‘p uchraydi.

3. Psixogen shakli - ruhiy rivojlanishi sustlashganlikning eng ko‘p tarqalgan turi hisoblanadi. Ruhan sust rivojlanganlikning psixogen shaklida bola erta yoshligidan noqulay, noto‘g‘ri sharoitda tarbiyalanadi va shu tarbiyaning salbiy ta’siri natijasida ruhan rivojlanishining sustlashishiga olib keladi. Ruhiy rivojlanishi sustlashishining psixogen shakliga quyidagilar sabab bo‘ladi.

1. Oilada bola tarbiyasi bilan umuman hech kim shug‘ullanmaydi.
2. Bolani haddan ortiq sevish, erkalash uni erkalash ikkiyuzlamachi qilib qo‘yadi.
3. Bolaga haddan ortiq qo‘pol muomalada bo‘lish, jismoniy zo‘riqish o‘tkazish va boshqalar.
4.Opasi akasining qarovida qolish natijasida, e’tiborsizlik yuzaga keladi va travma olishi mumkin.

Bunday bolalarda qo‘pollik, injiqlik, jur’atsizlik, tashabbussizlik, mustaqilsizlik, qo‘rqoqlik va boshqa salbiy ko‘nikmalar shakllanib qolishi mumkin. Bularning hammasi aql-idrokiga, bilish faoliyatiga salbiy ta’sir etadi.

4. Serebral shakli bunda asosan ichki omillar natijasida ruhiy rivojlanishi sustlashishi muammosi paydo bo‘ladi. Masalan ichki sekretsiya bezlarining faoliyati buzilganligi natijasida bolaning his-tuyg‘ulari yaxshi rivojlanmay qoladi. Bolani yuzida uning xursandligini ham, hafaligini ham bilish qiyin bo‘ladi. Depressiyaga moyilligi oshadi, uyqusi va ishtahasi yaxshi bo‘lmaydi. Markaziy nerv sistemasi tez charchaydi natijada bolaning aqliy qobiliyati pasayib ketadi. Xotirasi past bo‘ladi, diqqati tarqoq bo‘ladi. Tez ta’sirchan bo‘ladi ayniqsa qizlar yig‘loqi bo‘lib qoladi, o‘g‘il bolalar tez qo‘zg‘aluvchan bo‘lib qoladi. Shuning natijasida ish yoki o‘qish qobiliyati past bo‘ladi bola tez charchab qoladi.

Quyida ruhiy rivijlanishi sustlahsgan bolalarning bilish jarayonlariga etibor qarating.

1. Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalarning nutqning rivojlanishiga e’tibor qaratsangiz quyidagi kamchiliklar seziladi, ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar nutqi normal bolalarga nisbatan rivojlanish, shakllanish nuqtai – nazaridan birmuncha orqada qoladi. Ularda turli talaffuz kamchiliklari uchrab turadi. Tovushlar talaffuzining buzilishi, tovush obrazlarining yetarli shakllanmaganligi yozish va o‘qishda xatolarga yo‘l qo‘yishga olib keladi.

2. Ruxiy rivojlanishi sustlashgan bolalarning tafakkur xususiyatlariga e’tibor qaratsangiz quyidagilarga nazaringiz tushadi, ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar tafakkur xususiyatlarini o‘rganish ham diagnostik, ham korreksion-tarbiyaviy ishlarni rejalashtirishda, juda katta ahamiyatga ega.

Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar tafakkurning o‘ziga xos bo‘lgan va uni aqli zaiflardan oson ajratishga imkon beradigan xususiyatlaridan biri, so‘z-mantiq tafakkur bilan ko‘rgazma-obrazli tafakkur turlarining o‘zaro munosabati va rivojlanish darajalaridir.

3. Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalarning xotirasiga nazar tashlasak quyidagilarni ko‘rishimiz mumkin. Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar xotirasining kamchiliklariga qaramasdan, ularda yetarli rivojlanish imkoniyatlari bor. Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalarning xotirasini o‘rganish borasida turli olimlar izlanishlar olib borganlar.[1] Jumladan; O‘zbekistonlik psixolog olim, psixologiya fanlari doktori, professor, Akademik Shoumarov G‘ayrat Baxramovish ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar xotirasining turli tomonlari atroflicha ochib bergan. Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar xotirasining hajmi, eslab qolishning turg‘unligi, qisqa muddatli, operativ, ixtiyoriy, ixtiyorsiz xotira turlari normal tengdoshlaridan birmuncha pastligi aniqlangan.

Qisqa muddatli xotira darajasi normal tengdoshlariga nisbatan past bo‘lishi, uning hajmi aksariyat holda 5 ta raqamdan oshmaydi (maxsus Veksler metodikasi bo‘yicha). Misol uchun aksariyat holda 2-sinf normal o‘quvchilarning qisqa muddatli opperativ xotirasi 4 ta raqamni tashkil etsa, ruhiy rivojlanishi sustlashgan o‘quvchilarda 3 ta raqamni, aqli zaiflarda 2 ta raqamni tashkil qiladi.

Akademik G‘.B.Shoumarov kitoblarida ta’kidlab o‘tilgan ruhiy rivojlanishi sustlashgan o‘quvchilarning mexanik xotirasi normal o‘quvchilar darajasiga yaqin bo‘lib, aqli zaif bolalar darajasidan keskin farq qiladi. Ya’ni ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalarning mexanik xotirasi yaxshi rivojlangan bo‘ladi.

4. Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalarning idroki quyidagicha xarakterli xususiyatlarga ega. Ssezgi organlari orqali olingan ma’lumotlarni qabul qilish va qayta ishlash tezligi tengdoshlariga nisbatan past bo‘ladi. Shu sababli ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar ma’lum bir materialini o‘zlashtirish uchun ko‘p vaqt sarf qiladilar. Ya’ni qayta qayta o‘rganish natijasida ma’lum bir bilimni egallaydilar.

Tavsiya sifatida shuni aytish mumkinki, aqli zaif bolalardan bir muncha farq qilib, normal tengdoshlari o‘zlashtirgan materialni to‘la o‘zlashtirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Faqat yuqorida aytib o‘tganimdek materialni tez-tez qaytarish natijasida ma’lum bir bilimni egallay oladilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasining 2020-2025-yillarda Xalq ta’limi tizimida inklyuziv ta’limni rivojlantirish Konsepsiyasi (https://lex.uz/docs/-5044711).

2. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari milliy bazasi. Lex.uz.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4860-son qarori.

4.К.С.Лебединская, Г.П.Бартин, М.Т.Дунаева. Актуалние проблеми диагностики задержки психического развития детей. М., Педагогика, 1982.

5.G.B.Shoumarov, K.K.Mamedov. Psixik rivojlanishi sustlashgan bolalarning psixologik xususiyatlari va differensial diagnostikasi. Toshkent, 1987

6.L.T.Turakulov. Oila tipidagi bolalar uyi tarbiyalanuvchilarining ijtimiylashuvining psixologik xususiyatlari. Dissertatsiya. Toshkent. 2023 yil.

INTERNET MA’LUMOTLARI

1. Рекомендации по организации обучения детей с ЗПР.

2. Формы и методы работы с детьми с задержкой психического развития

[1] G.B.Shoumarov, K.K.Mamedov. Psixik rivojlanishi sustlashgan bolalarning psixologik xususiyatlari va differensial diagnostikasi. Toshkent, 1987

MUNDARIJA

PEDAGOGIKA

ATAULLAYEV ZOKIR MAXSUDOVICH Bo‘lajak kimyo o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini xalqaro baholash tamoillari asosida takomillashtirish	4
NAZARQULOVA GULNORA ABLAKULOVNA Bo‘lajak pedagoglarni tyutorlik faoliyatga tayyorlash	11
ISMAILOVA OYGUL SABIRBAEVNA, YULDASHOVA SANAMJON BOBOMUROD QIZI Genetika xususiyatlari va bola psixologiyasining o‘zaro bog‘liqligi: maktabgacha ta’lim misolida	16
QADAMBOYEVA HILOLA UMID QIZI Milliylik asosida bo‘lajak o‘qituvchilarning vatanga muhabbat tuyg‘usini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish	20
MATKARIMOV IKROM MUXTAROVICH Mahalla raislarining ma’naviy-ahloqiy sifatlarini tizimli ta’lim jarayonida rivojlantirishning xususiyatlari	24
SARIYEVA E’TIBOR MATCHANBOYEVNA Tyutorlik faoliyatida madaniy turizm - zamonaviy ta’limda yangicha yondashuvlar	30
ABDULLAYEV JONIBEK SHOKIROVICH, SOBIROV USMON MATYAQUBOVICH, SADIKOVA SEVARA Rekkurent formulalar yordamida hisoblanadigan yuqori tartibli determinantlar va integrallar haqida	36
JABBARGANOV MIRZOBEK KOMILJON O‘G‘LI Improving the integration of education and the economy	42
KUTLIMURATOV SARDORBEK RUSTAMOVICH XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Turkistonda jadidchilik milliy harakati vujudga kelishining tarixiy bosqichlari	50
KARIMOV DONIYOR KOMILOVICH Biatlonchilarning jismoniy tayyorgarligini rivojlantirish uchun qo‘llaniladigan maxsus komleks mashqlari va haftalik mashg‘ulot yuklamalarini ishlab chiqish	57
NABIYEV ELYOR BAXTIYAROVICH Maktabgacha ta’lim tizimida xorij tajribasi	62
RAXIMOVA SULURXON DJUMANIYOZOVNA Frazeologizm, maqol va matallarning umumiy o‘xshashliklari va farqlari	65
ATAJANOV ADILBEK YULDASHEVICH OTMlarining pedagog xodimlarini jismoniy tarbiya va sog‘lomlashtirish faoliyatini raqamli texnologiyalar asosida optimallashtirishning ilmiy-uslubiy asoslari	69
PANAYEVA MALOXAT MUMINOVNA Mustaqillik yillarida haykaltaroshlik san’atini rivojlanishi tarixi	73
SULTONOVA ZEBOXON GAYRAT QIZI Bo‘lajak pedagoglarda ta’lim jarayonida innovatsion faoliyatini boshqarish mexanizmini takomillashtirish	78
MADAMINOVA SHAXODAT SHOMUROTOVNA **OTM**lari talabalarini ma’naviy-axloqiy tarbiyalashda jadid maktablari tajribasidan foydalanish	83

ИСМАГИЛОВА МАДИНА ФАРИДОВНА История развития категории числа русского языка	88
YUSUPOV DAVRONBEK FIRNAFASOVICH Talabaning mustaqil ishini tizimli rejalashtirish va tashkil qilish ta'lim sifatini oshirish uslubi sifatida	95
QURBONOVA BAXTIXON QO'CHQARBAYEVNA Bo'lajak pedagoglarning individual, intellektual va ijtimoiy imkoniyatlarini metodik rivojlantirish	100
ATAYEVA GULI SHUXRATOVNA Talabalar axloqiy-estetik madaniyatini rivojlantirishda innovatsion pedagogik texnologiyalarning o'rni	103
MATYOQUBOV H.SH., SALAYEVA H.SH., QURONBOYEVA N.I., SABIROV R.Y. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida "Arximed" kuchi mavzusini o'qitishda interfaol metodlardan foydalanish	108
MATYOQUBOV H.SH., QURONBOYEVA N.I., SALAYEVA H.SH., SABIROV R.Y. Erkin tushish tezlanishi mavzusini o'quvchilarga oddiy va samarali o'rgatish usullari	113
XUDAYBERGANOV SHUHRAT SHAVKAT O'G'LI, MAXMUDOVA KUMUSHOY JAMOL QIZI Katta guruh tarbiyalanuvchilarining vaqt kategoriyalarini o'rganish pedagogik tizimlarini takomillashtirish	118
YAQUBOV ARSLON MAHMUDOVICH Umumta'lim maktablarida jismoniy tarbiya darslarini tashkil etishning nazariy-amaliy va pedagogik asoslari	125
ABDULLAYEVA BIBIMARYAM NARIMON QIZI Umumiy musiqiy ta'lim tamoyillari	132
ALLAYAROVA NARGIZA NARIMANOVNA, NAZAROVA MATLUBA FERUZBEK QIZI Umumta'lim maktablarida musiqa ta'limining nazariy asoslari	137
BEKCHANOVA FERUZA MARIMBOY QIZI Talabalarda 4K modeli asosida ekologik ko'nikmalarni rivojlantirish	144
BEKMANOVA HURSHIDA SHOKIRJONOVNA Boshlang'ich sinf o'quvchilarining koordinatsion qobiliyatlarini rivojlantirish	148
YAKUBOVA GULNOZ MADRIMBAYEVNA Maktabgacha yoshdagi bolalarning morfofunksion xususiyatlari	156
KARIMOVA NILUFAR BOLTABOYEVNA Talabalarda axborot kompetentligini rivojlantirishning pedagogik va psixologik xususiyatlari	161
D.K. KARIMOV, S.J.MURATOV, A.O'.MATNAZAROV, U.A.BAXRAMOV, X.M.KURBANBOYEV, M.P.MADAMINOV, J.D.YO'LDASHOV, O.Q.KARIMBOYEV Maktabda jismoniy tarbiya darslarini tashkil qilish va o'tkazish uslublari	168
TAYIROV HAMZA O'KTAMOVICH Talabalarning bilim, ko'nikmalarini oshirishda axborot texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati	175

MADAMINOVA MUNAVVAR ROHAT QIZI, NAZAROVA SADOQAT ILHOM QIZI Maktabgacha ta'lim yo'nalishidagi talabalarda bionika orqali kreativlikni shakllantirishning metodologik asoslari	180
MADAMINOV AZIMBEK EGAMBERGANOVICH, SAPORBOYEV MIRZABEK SHAVKAT O'G'LI, KARIMBOYEV OG'ABEK QADAMBOYEVICH, XAITOVA BONU UMIDBEK QIZI 1-4-sinf o'quvchilarini jismoniy tarbiyasida axloqiy tarbiyaning metodik ahamiyatlari	184
ODILKHUJAYEVA MAFTUNA KHAKNAZAROVNA, KHASANOVA BAKHTIGUL UDAMOVNA The role of modern management standards in the system of professional development of educators in Uzbekistan's education system	188
TO'RANAZAROVA MUXLISAXON DAVLATJON QIZI Virtual muzeylar tushunchasi, uning mohiyati va rivojlanish tarixi	195
ISMAILOVA BARNO YULDASHBAYEVNA Ingliz tilini o'qitishda metakognitiv yondashuvdan foydalanish va uning samaradorligi	198
O.B.QURAMMURADOVA Muzeylar tarixi va ularning pedagogik ahamiyati	203
RO'ZMETOVA SEVARA OKTAMBOYEVNA, ATAULLAYEV ZOKIR MAXSUDOVICH ESHCHANOV ERKABAY USKINOVICH Umumta'lim maktablarida kimyo fanidan elektroliz mavzusini o'qitishda fanlararo integratsiyadan foydalanish	210
IBRAGIMOV SHERZOD SHAVKATOVICH Talabalarda kitobxonlik madaniyatini yuksaltirish asoslari	215
AVEZMURATOV OLLAYOR, AVEZMURATOVA ZEBO ALLAYAROVNA Fizika va astronomiya fanini o'qitishda buyuk ajdodlarimizning ilmiy meroslaridan foydalanish	220
JUMANAZAROVA SHODIYA OTOJON QIZI, JUMABOYEVA ZEVARJON RUSTAMBOYEVNA, SAIDOV MURODBEK ULUGBEK O'G'LI, RAHIMOVA ZUHRA JAMOLBEK QIZI Zamonaviy dasturlash tillari yordamida ko'phadlarni eng katta umumiy bo'luvchini topish	225
JO'RAYEV NURBEK SA'DULLAYEVICH Pedagogik faoliyatda refleksiyaning o'rni va mohiyati	231
КАЮМОВ ВАСИЛИЙ МУХМАТДИНОВИЧ Современные подходы при организации внеурочной деятельности по русскому языку в средней школе	237
BOBORAXMATOV MARUF ERGASHOVICH Geografiya ta'limi jarayonida o'quvchilarning kreativ va tanqidiy fikrlashini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish	242
ABDULLAYEVA RAYXON ATANAZAROVNA Ma'naviy tarbiya konsepsiyasini maktabgacha ta'lim tashkilotlarida amaliyotga joriy etishda tarbiyachining roli	246
JUMANIYOZOVA MUHAYYO TOJIYEVNA Ijtimoiy-gumanitar yo'nalish pedagoglari kreativ kompetentligining tarkibiy tuzilmasi	253
САМАНДАРОВ М. И. Факторы формирования качественных языковых навыков и развития речевых умений при обучении иностранному языку	262

KARIMOV ZAFARBEK ATABOYEVICH Multifilmlarning bolalar tarbiyasiga ijobiy va salbiy ta’siri	266
XASANOV JAMSHID OZODOVICH, RUSTAMOVA SEVARA RUSLAN QIZI Geometriya fanida mobil ilovalar: samaradorlik va yangi imkoniyatlar	272
БАБАЕВА ШОИРА БАЙМУРАДОВНА Понятия «Вера», «Надежда», «Любовь» и «Мудрость» в гендерном аспекте	277
ABDULLAYEVA FERUZA JANIBEKOVNA Yosh avlodda insoniy fazilatlarni shakllantirishda maqollarning o‘rni	282
SAFAROV TO‘LQIN NAZAROVICH “Geometriya asoslari” fani metodikasini takomillashtirish	286
НАТАЛЬЯ НИКОЛАЕВНА РОЗИКОВА Лингвокультурологические особенности художественного текста	293
ORAZOVA SULTONPOSHSHA QAHRAMON QIZI Ona tili va o‘qish savodxonligi darsliklarida pirls topshiriqlariga mos matnlar tahlili	299
BABADJANOV SALOHIDDIN SOBITDJONOVICH Globalizatsiya jarayonida media va kiberxavfsizlikning ahamiyati	304
ROXIMOVA NILUFAR EGAMBERGANOVNA “Texnologiya va uni o‘qitish metodikasi” fanini o‘qitishda modulli kreativ o‘quv materiallaridan foydalanish texnologiyasi	309
IKROMOVA MAHBUBA VALI QIZI Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining axborot madaniyatini rivojlanishiga raqamli ta’limning ta’siri	314
RUZIYEV ISLAMBAY SAMANDAROVICH Bo‘lajak transport muhandislarida kasbiy kompetensiyasining kognitiv komponentining shakllanganlik darajasini aniqlash	319
IBRAGIMOV BOBIR MANSUROVICH Notalashtirishda “Sibelius” nota muharrir dasturidan foydalanish texnologiyasi	325
JUMANIYAZOV MAQSUDBEK KARIMOVICH O‘quv-mashq guruhida shug‘ullanayotgan sportchilarning musobaqa faoliyati tahlili	331
SAPAROVA SABOHAT IZZATILLAYEVNA Integrativ yondashuv asosida mikrobiologiya fanini o‘qitishda modulli ta’lim texnologiyalaridan foydalanish	335
ПСИХОЛОГИЯ	
TO‘RAQULOVA SHAXNOZA DAMINOVNA Ruhiy rivojlanishnida kamchiligi bo‘lgan bolalarni psixologik xususiyatlari	341

MINISTRY OF HIGHER EDUCATION, SCIENCE AND INNOVATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

URGENCH STATE PEDAGOGICAL INSTITUTE

Bulletin of the Urgench state pedagogical institute (scientific-theoretical and methodical journal) №1,2025

МИНИСТЕРСТВО ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ, НАУКИ И ИННОВАЦИЙ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

УРГЕНЧСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ ИНСТИТУТ

Вестник Ургенчского государственного педагогического института (научно-теоретический, методический журнал) №1, 2025

Mas'ul kotib – D.Abdullayev
Muharrirlar – T.Absalamov
Sahifalovchi – J.Sa'dullayev

220100, Urganch shahri, Gurlan ko'chasi, 1-A uy.